O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI

MUZEYLAR: AN’ANA, NOVATSIYA VA RENOVATSIYA INTEGRATSIYASIDA

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI

TOSHKENT 2025

Mas’ul muharrir:
Jannat Ismailova, tarix fanlari doktori, professor
Alisher Ismailov, tarix fanlari doktori (DSc), professor
Larisa Levteyeva, tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Dilafro‘z Karimova, t.f.b. falsafa doktori (PhD), kat.i.x.
Mansur Safayev, kichik ilmiy xodim

Taqrizchilar:
T.f.d., prof. B.V.Xasanov, t.f.n.X.Fayziyev

Mas’ul muharrirlar: J.X.Ismailova, A.F.Ismailov, L.G.Levteyeva; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi. «Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida» mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. –Toshkent, 2025-yil 18-mart. - 722 b.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o ‘tkaziladigan ilmiy va ilm iy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g ‘risida”gi 490-son buyrug‘iga asosan tashkil etildi.

Mazkur to‘plamdan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida an'anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan «Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida muzeyshunoslik, tarix, arxeologiya, etnologiya hamda muzeylarda innovatsion texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rin olgan.

To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2025-yil 07-apreldagi 4-son majlis qarori asosida nashrga (elektron) tavsiya etilgan.

© O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, 2025.

KIRISH

Muzeylar insoniyatning tarixi, madaniyati va san’atini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishdagi muhim rolini inkor etib bo‘lmaydigan ijtimoiy-insoniy institutlardir. Ularning faoliyati tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va ularni jamiyatga taqdim etish bilan birga, xalqaro ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish, ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. O‘zbekistonda, ayniqsa, o‘ziga xos tarixiy, madaniy va etnik boyliklarga ega bo‘lgan hududlarda muzeylar nafaqat o‘tmish merosini saqlash, balki zamonaviy ilmiy-amaliy yondashuvlarni tatbiq etish orqali rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tmoqda.

Muzeyshunoslik nafaqat tarixiy artefaktlarni saqlash, balki insoniyatning kollektiv xotirasini shakllantirish, madaniy dialogni rivojlantirish va ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo‘shish kabi muhim vazifalarni o‘z zimmasiga olgan murakkab ijtimoiy institut hisoblanadi. XXI asrda muzeylar o‘zining an’anaviy rollaridan chiqib, madaniy merosni saqlash, tadqiq qilish va uni jamiyatga yetkazishning kompleks markazlariga aylanmoqda. Bu jarayon global miqyosda ilg‘or tajriba va zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishni taqozo etadi, shuningdek, muzeylarning faoliyatini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston muzeylari, mamlakatimizning ming yillik tarixiy merosini ifodalovchi noyob eksponatlar xazinasi sifatida, nafaqat milliy, balki butun insoniyat madaniyati uchun ahamiyatli bo‘lgan obidalarga egalik qiladi. Bizning muzeylarimizda saqlanayotgan yodgorliklar va san’at asarlari nafaqat o‘tmishdagi xalqimizning ma’naviy va moddiy qadriyatlarini, balki umuminsan xususiyatlarni ham o‘zida mujassam etgan. Bugungi kunda bu boyliklarni zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida o‘rganish, saqlash va ulardan samarali foydalanish muzeyshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biridir.

2025-yil 18-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi tomonidan o‘tkazilgan «Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya aynan shu masalalarga qaratilgan edi. Anjumanda ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va xorijiy mutaxassislar muzeyshunoslikda yuzaga kelayotgan yangi muammolarni tahlil qilib, ularni hal etishning zamonaviy yo‘llarini muhokama qildilar.

Konferensiyada ko‘tarilgan asosiy masalalar quyidagi uchta muhim yo‘nalishni o‘z ichiga olgan:

Birinchi masala “Muzeyshunoslikning rivojlanish omillari va bu sohadagi muammo va yechimlar”iga qaratilgan.

Muzeyshunoslik sohasining rivojlanishi faqatgina ilmiy va madaniy ehtiyojlar bilan bog‘liq emas, balki zamonaviy global jarayonlar, texnologiyalarning rivojlanishi va ijtimoiy talablar bilan ham chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda muzeylar oldida bir qancha asosiy muammolar turibdi, ularning eng muhimlari - madaniy merosning saqlanishi, unga zamonaviy ilmiy usullarning tatbiqi va jamiyat bilan yanada samarali aloqaning o‘rnatilishi. Bu muammolarni hal qilishda, muzeyshunoslik sohasidagi innovatsiyalar, yangi ilmiy tadqiqot usullari va interaktiv texnologiyalarning joriy etilishi katta ahamiyat kasb etadi. Masalan,

muzeylarga raqamli arxivlar yaratish, virtual turlar tashkil etish, hamda muzeylarning ilmiy-tadqiqot ishlarini yaxshilash orqali merosni saqlash va jamiyatga taqdim etish jarayonini sezilarli darajada samarali qilish mumkin. Shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalangan holda, muzeylarning rivojlanishiga doir aniq strategiyalar ishlab chiqish zarurati muhimdir.

Ikkinchi masala “Madaniy merosni muzeylashtirish, tadqiq qilish va saqlash, shuningdek, uning keng ommaga yetkazilishining zamonaviy tamoyillari” deb belgilandi. Unda madaniy merosni muzeylashtirish jarayoni faqatgina jismoniy obidalarni saqlash bilan cheklanmaydi. Bu jarayon madaniy va tarixiy yodgorliklarni tadqiq qilish, ularga zamonaviy ilmiy yondashuvlar orqali qiymat berish, shuningdek, ular bilan bog‘liq tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstni tushunishga qaratilgan keng qamrovli ishlardir. Bugungi muzeylar faqatgina eksponatlarni yig‘ish bilan shug‘ullanishmaydi, balki ularni o‘rganish, ularga ilmiy asoslangan izohlar berish, va bu bilimlarni jamiyatga taqdim etishda eng yangi metodologiyalarni qo‘llashga intilishadi. Zamonaviy muzeyshunoslikda saqlash tamoyillari faqat konservatsiya bilan cheklanmaydi, balki bir vaqtning o‘zida ilmiy tahlil va o‘rganish ishlari olib boriladi. Bundan tashqari, madaniy merosni keng ommaga yetkazish uchun muzeylar turli xil ta’lim dasturlari, ko‘rgazmalar, interaktiv va raqamli texnologiyalarni joriy etishga tayyor. Masalan, muzeylarda virtual ekskursiyalar, ilmiy simpoziumlar va onlayn platformalar orqali ma’lumotlarni ommaga yetkazish hozirgi zamon talablari hisoblanadi.

Uchinchi masala doirasida “Muzey pedagogikasi: fan, ta’lim, madaniyat integratsiyasi” muhokama qilindi. Muzey pedagogikasi, ta’lim tizimi va madaniyat sohasining integratsiyasi, zamonaviy muzeylar faoliyatining ajralmas qismlaridan biridir. Bugungi kunda muzeylar nafaqat saqlash va tadqiqot markazlari, balki ta’lim va madaniyat sohasining faol o‘quv va ilmiy platformalariga aylanishi zarur. Muzey pedagogikasi, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash va ularda madaniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’limning zamonaviy yondashuvlari, xususan, interaktiv va tajriba asosidagi usullar muzeylarda keng qo‘llanilmoqda.

Muzey pedagogikasining asosi — bu madaniy merosni o‘rganish va o‘rganishni amaliyotga tatbiq etish jarayonida fan, ta’lim va madaniyatning integratsiyasidir. Muzeylar, o‘z faoliyatida ilmiy yondashuvlarni o‘quv jarayonlariga integratsiya qilgan holda, nafaqat tarixiy va madaniy ma’lumotlarni etkazish, balki yosh avlodni yaratish va ilmiy tafakkurga yo‘naltirishda ham o‘z o‘rnini egallaydi. Bu, o‘z navbatida, muzeylarning nafaqat ilmiy va madaniy, balki ta’lim sohasida ham faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, muzey pedagogikasining innovatsion yondashuvlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarga yoki keng ommaga turli xil ta’lim vositalari orqali madaniy va ilmiy materiallarni taqdim etishda samarali imkoniyatlar yaratadi. Masalan, muzeylar o‘z ko‘rgazmalari va ta’lim dasturlari orqali ta’lim va madaniyatni integratsiya qilishga erishmoqda. Interaktiv texnologiyalar, virtual va raqamli ekskursiyalar, ilmiy seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar kabi metodlar o‘quvchilarni faollashtiradi va ularga yanada qiziqarli va samarali ta’lim imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga,

bu yondashuvlar madaniy va ilmiy merosni jamiyatga taqdim etishda uning ahamiyatini kuchaytiradi.

Muzey pedagogikasining rivojlanishi, shuningdek, fan va ta’lim tizimlari o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlashga, ilmiy va madaniy jarayonlarni samarali qo‘shishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida madaniy merosni saqlash va uni yanada kengroq ommaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ijtimoiy fanlar bo‘limi mudiri, tarix fanlari doktori, professor N.Mustafayeva anjumanni kirish so‘zi bilan ochib berdi. Shundan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor J.X.Ismailova anjuman bilan barchani qutlab quyidagi so‘zlarni alohida ta’kidlab o‘tdi. Unda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Fanlar akademiyasi tarkibidagi ilmiy-tadqiqot muassasi bo‘lib muzeyshunoslik sohasida O‘zbekiston muzeylari uchun tayanch muassasa ekanligi, muzey xodimlari respublika miqyosidagi ilmiy loyihalarni bajaradi, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy va targ‘ibot ishlarida faol ishtirok etib kelayotganligi, 2020 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga - madaniyat va tarix sohasidagi barcha muzeylar faoliyatini ilmiy-tadqiqot va metodik jihatdan muvofiqlashtirish, ularning ushbu yo‘nalishlardagi o‘zaro hamkorligini ta'minlash, kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirish vazifasi yuklanganligi ta’kidlandi.

Anjumanning sho‘ba yig‘ilishlarida asosan mahalliy mutaxassislar, sohaning malakali kadrlari hamda professor-o‘qituvchilari onlayn va oflayn ishtirok etishdi. Anjuman doirasida 3 ta sho‘ba ish olib borib, unda jami 100 dan ortiq ma’ruzalar tinglandi. Unda doktorantlar, magistrlar va yosh iqtidorli talaba-yoshlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari ham muhokama qilindi.

Ushbu tadqiqotlar nafaqat O‘zbekiston muzeyshunosligini yangi bosqichga olib chiqish, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida madaniy merosni saqlash va o‘rganishning yangicha yondashuvlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Konferensiyada muhokama qilingan masalalar va ilgari surilgan takliflar O‘zbekiston muzeylarining xalqaro miqyosda yanada rivojlanishiga va global madaniy meros saqlash tizimiga qo‘shgan hissasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ismailova Jannat Xamidovna,
O‘zRFA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori tarix fanlari doktori, professor

BIRINCHI SHO‘BA: MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

ISMAILOVA Jannat Xamidovna
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori
tarix fanlari doktori, professor

MARKAZIY OSIYO ME’MORCHILIGI EVOLYUSIYASI KASHFIYOTCHISI

Annotatsiya: *Yurtimizda o‘tkazilayotgan bir qator islohatlar natijasida ilm, fan, madaniyat va san’at sohalarida ijodiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ushbu sohada xizmat qilayotgan ijodkorlarning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib kelinmoqda. Yurt rivoji uchun ulkan qissa qo‘shgan san’atshunos, arxeolog, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi G.A.Pugachenkova shunday taqdirlanishga munosib olima hisoblanadi. O‘zbekiston moddiy madaniy merosini saqlashda G.A.Pugachenkovaning qo‘shgan hissasi va olimaning memorial muzeyini yaratish masalalari bugungi kunga qadar tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmaganligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston moddiy madaniy merosi, olima, san’atshunos, arxeolog, akademik, tadqiqot ob’ekti, tasviriy san’at, arxeologik ekspeditsiyalar*

Аннотация*: В результате ряда реформ, проводимых в нашей стране, в сферах науки, образования, культуры и искусства происходят позитивные изменения. Заслуги специалистов, ведущих свою деятельность в этих областях, достойно ценятся со стороны государства. Искусствовед, археолог, академик Академии наук Узбекистана Г.А. Пугаченкова является ведущий ученый, удостоенный такой чести за огромный вклад, внесенный в развитие страны. Вклад Г.А. Пугаченковой в сохранение материального культурного наследия Узбекистана и вопросы создания мемориального музея ученого до сих пор не были изучены в качестве объекта исследования, что подчеркивает актуальность данной темы.*

Ключевые слова: *материальное культурное наследие Узбекистана, ученый, искусствовед, археолог, академик, объект исследования, изобразительное искусство, археологические экспедиции.*

Annotation: *As a result of a series of reforms being carried out in our country, positive changes are taking place in the fields of science, education, culture, and art. The contributions of specialists working in these areas are highly valued by the state. Art historian, archaeologist, and academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, G.A. Pugachenkova, is a leading scholar who has been honored for her tremendous contribution to the development of the country. G.A. Pugachenkova’s role in preserving the material cultural heritage of Uzbekistan and the issues surrounding the creation of a memorial museum dedicated to the scholar have not*

yet been studied as a research subject, which highlights the relevance of this topic.

Keywords: *material cultural heritage of Uzbekistan, scholar, art historian, archaeologist, academician, research subject, visual arts, archaeological expeditions.*

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Galina Pugachenkova yirik san’atshunos olimi va tarixchisidir. Uning naqadar faol va ishchan ijodkor ekanligini ko‘plab ilmiy risolalari isbot qilib turibdi. Bunday olimlar haqida mashhur fizik Maykil Faradey shunday degan edi: “Haqiqiy olimning asosiy tashvishi taqbiq qilish, umumlashtirish va nashr ettirishdir”. Galina Pugachenkova to‘rt yuzdan ortiq muhim ilmiy ishlar muallifi [1].

Galina Pugachenkovaning yoshligi Verniy (hozirgi Olmaota) shahrida o‘tdi. U ziyolilar oilasida voyaga yetdi. Otasi Aleksandr Anatolievich arxitektor, onasi Sofiya Petrovna pedagog edi. 1932 yil Galina Anatolievna O‘rta Osiyo industrial institutining arxitektura bo‘limiga o‘qishga kirib, 1937-yili imtiyozli tugalladi. Keyin shu institutning o‘zida aspirant, O‘rta Osiyo Davlat universitetining tarix fakulteti arxeologiya kafedrasida dotsent, katta ilmiy xodim bo‘lib ishladi. 1960 yildan boshlab esa Xamza nomidagi San’atshunoslik instituti “San’at va arxitektura tarixi” sektorining mudiri sifatida faoliyat ko‘rsatib keldi.

Olimaning dastlabki ilmiy ishlaridayoq O‘rta Osiyo tarixining murakkab va kam o‘rganilgan muammolarini hal etishga intilish seziladi. Hali mutlaqo o‘rganilmagan XIV-XV asrlar arxitekturasidan ish boshlab, keyinchalik O‘rta Osiyo va unga tutash bo‘lgan mamlakatlar arxitekturasining tarixi masalalari bo‘yicha qator tadqiqotlarni amalga oshiradi. “Navoiy davri O‘rta Osiyo arxitektura yodgorliklari”, “O‘zbekiston arxitekturasining buyuk yodgorliklari”, “Quldorchilik va feodalizm davrida Janubiy Turkmaniston arxitekturasining rivojlanish yo‘llari”, “Arabota maqbarasi”, “XV asrda Markaziy Osiyo me’morchiligi” kabi maxsus arxitekturaviy ishlarida O‘rta Osiyo arxitekturasi evolyusiyasining ildizlari va o‘ziga xos xususiyatlarini tekshiradi, uning Sharq arxitekturasidagi o‘rnini aniqlaydi. Olimaning ilmiy tadqiqotlari keng ko‘lamga ega bo‘lib, uning yozgan asarlari ro‘yxatiga nazar tashlasak, 160 dan ortiq maqola va yirik monografiyalarning nomini o‘qiymiz. Ba’zi asarlar ingliz, fransuz, nemis, ispan, arab va boshqa tillarda nashr etilgan.

G.A.Pugachenkova tadqiqotlarida asosiy - o‘rinni O‘rta Osiyo xalqlarining me’morchilik tarixi egallaydi. Uning ilmiy ishlari tufayli O‘zbekiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Janubiy Qozog‘iston arxitekturasi tarixiga asos bo‘luvchi muammolar aniqlandi. O‘rta Osiyoning qadimiy arxitekturasi namunalari arxeologik qazilmalar natijasida topildi va o‘rganildi. Qadimgi Nisa shahridagi saroy qoldiqlari, Marv va Termizdagi qadimgi davr binolari, Xolchayon tepadagi saroy harobalari G.Pugachenkova asarlarida o‘zining ilmiy ifodasini topdi, jahon arxitekturasi xazinasiga noyob yodgorliklar qo‘shildi. Bu o‘rinda san’atkorning Turmakiston arxitekturasining taraqqiyot yo‘li monografiyasini aytib o‘tish kifoya. Uning Sharq arxitekturasi uslubi va ijodiy maktablari sohasidagi asarlari ham diqqatga sazovordir.

Arxitektura va san’at tarixchisi sifatida shakllanish davridayoq Galina

Pugachenkova o‘z izlanishlari asosini belgilab olgan edi. 1938 yili Pugachenkova birinchi martta professor M.Massonning Termizda arxeologik ishlar olib borgan kompleks brigadasi safida O‘zbekiston janubidagi qazilma ishlarida qatnashdi. Shundan buyon u O‘zbekiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston va Eronda olib borilgan o‘nlab arxeologik ekspeditsiyalarda ish olib bordi. 1959-yili San’atshunoslik instituti qoshida bu sohada yagona bo‘lgan O‘zbekiston ekspeditsiyasini tashkil etadi.

XX - asrning 40-yillaridan boshlab O‘zbekiston, Turkmaniston va Afgoniston xududida bo‘layotgan tadqiqot ishlarida, arxeologik qazishma ishlarida faol ishtirok eta boshladi [2]. 1946-1961 yillarda Janubiy Turkmanistonda o‘tkazilgan 7-otryad arxeologik kompleks ekspeditsiyasining rahbari hisoblanadi. Ekspeditsiya tadqiqotlari natijasida, o‘zi va jamoasi bilan topilgan Parfiya podsholigi va Qadimgi Baktriya, Dalvarzintepa va Kampirtepa shaxarsozligining qurilish me’morchiligi masalalarida san’atshunoslik nuqtai nazarida asoslangan bir qancha ma’lumotlar asosida monografiya chikarilgan.

Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, Sobik ittifoq davlatlari ichida, kolaversa, O‘zbekistonda birinchi bo‘lib 1959 - yili “O‘zbekiston san’atshunoslik Ensiklopediyasi”ning asoschisidir. 1962 - yili professor unvonini olgan [3].

Tadqiqotchining olima sifatidagi iste’dodi uning muammolar ichiga chuqur kirib borishi va nozik his etishida, bir necha sezilar-sezilmas chizgilar orqali murakkab masalaning ko‘rinshini tasvirlab berishida, ko‘p narsalardan asosiysini ko‘ra bilishida, ilmiy xulosalar chiqara olishida yorqin namoyon bo‘ladi. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, O‘rta Osiyo va unga qo‘shni Sharq mamlakatlarining badiiy va moddiy madaniyati tarixi masalalari birinchi marta Galina Pugachenkova tomonidan o‘rtaga tashlangan. U fanning faol targ‘ibotchisi sifatida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Shakl va mazmun jihatidan g‘oya qiziqarli bo‘lgan bir qancha albomlar va yo‘riqnomalar muallifidir. Jumladan, “Ochiq osmon ostidagi muzey”, “Dalvarzintepaning badiiy xazinasi” va boshqa ko‘pgina ishlari faqat bizda emas, chet elda ham o‘quvchilar e’tiborini qozongan. Galina Pugachenkovaning ilmiy-pedagogik faoliyati ham ko‘p qirralidir. O‘rta Osiyo davlat universtetida ishlayotgan davrida tarix va sharq fakultetlarida ko‘p yillar davomida “Sharq san’ati tarixi”, “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi”, “Eron va Afg‘oniston badiiy madaniyati tarixi” bo‘yicha leksiyalar o‘qidi, talabalarning diplom ishlariga rahbarlik qildi.

Yurtimizdan tashqari qo‘shni hududlar tarixiga xam o‘z izlanishlari natijasi bir qancha topilmalar topgan. Misol uchun Galina Anatolevna sovet-afg‘on mutaxassislaridan iborat 70-yillarda Afg‘onistonda o‘tkazgan safarida xam bir qancha ko‘zga ko‘rinarli natijalarga erishgan. O‘z kundaligida Galina Anatolevna Afg‘onistondan antik va o‘rta asrlar arxitektura yodgorliklari safdoshlari bilan birgalikda birinchi bor o‘rganilganligini kayd etadi [2]. Galina Pugachenkova Afg‘onistondan topilgan yana bir kashfiyogi, bu Markaziy Osiyo qurilish sohasiga begona bo‘lmagan “sun’iy” suv saqlanadigan sardobalardir. Bu topilmalar Kushonlar davriga borib taqaladi.

Bu tadqiqotchining jamoatchilik faoliyati ham diqqatga sazovor. Yodgorliklarni muhofaza qilish Xalqaro Kengashi Sovet komitetining, Markaziy Osiyo madaniyatini o‘rganish bo‘yicha Xalqaro uyushmaning, Osiyo va Afrika

mamlakatlari bilan birdamlik Sovet komitetining a’zosi sifatida katta faoliyat ko‘rsatmoqda. Galina Pugachenkova Budapesht, Venesiya, Dehli, Drezden, Damashq, Kobul, Oksford, Tehron va boshqa joylardagi xalqaro kongress va konfirensiyalarda Sovet fanining yetuk namoyondasi sifatida qatnashdi, ko‘pgina chet el o‘quv yurtlarida leksiyalar o‘qidi. Galina Annatolevna Pugachenkova samarali faoliyati tufayli bir qator mamlakatlarning davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Olima “Shavkatli mehnati uchun” medali, “Mehnat” ordeni, “Qizil bayroq” ordeni, O‘zbekiston Respublikasining “Do‘stlik” ordenlari bilan mukofotlangan. G.A.Pugachenkova O‘zbekistonda “Akademik palma” ordeniga sazovor bo‘lgan yagona olim hisoblanadi. Bu mukofot unga 1995 yili fransuz hukumati tomonidan berildi. Bu orden Napoleon davrida ta’sis etilgan va gumanitar fanlarni rivojlantirishga xissa qo‘shgan olim, madaniyat arboblariga beriladi. G.A.Pugachenkova shuningdek, Beruniy hamda Hamza nomidagi Davlat mukofotlari sovrindoridir.

Xulosa qilib aytganda, olima juda katta ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan va ko‘plab darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiyalarning muallifi bo‘lgan. Uning ilmiy merosi muhim ahamiyatga ega va bugungi kunda ilmiy ish olib borayotgan turli soha olimlari, talabalar uchun manbaa bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’ati uzoq yillik o‘tmishga borib taqaladi. O‘tgan asr davomida o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’at durdonalarini o‘rganish, ilmiy tadqiq etish, rivojlanish bosqichlarini tadrijiy o‘rganish har doim dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’ati san’atshunos va tarixchi olimlar, faylasuflar tomonidan keng tadqiq etilgan. Bu borada G.Pugachenkovaning ilmiy merosi O‘zbekiston san’atini kompleks tadqiq etilishi, aniq materiallarga tayangan holda muhim xulosalarning chiqarilishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar:

1. Ртвеладзе Э. Шарқ тарихининг билимдони. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1985 йил. 8 февраль.
2. Лунин Б.В. На передовых рубежах археологии и искусствознания Центральной Азии. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1995.№5-6-7. //Пугаченкова Г.А. Советско-афганское сотрудничество в изучении древностей Афганистана. - Т. 1984. С.34.
3. Пугаченкова Г.А. Дватцать лет Узбекистанской искусствоведческой экспедиции: Узбекистонда ижтимоий фанлар. 1995. № 5-6-7.

DAVLATOVA Saodat Tilovberdiyevna
O‘zbekiston Respublikasi
Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar
masalalari bo‘yicha qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i
saodatdavlatova70@gmail.com
tarix fanlari doktori, professor

MUZEYSHUNOSLIKDA MADANIY-MA’NAVIY MEROS MASAASI: TARIX VA TAHLIL

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muzeyshunoslik masalalari va unda madaniy ma’naviy meros tarixi va uning zamonaviy nazariy tahlili xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Muzeyshunoslik, madaniy meros, umumjahon madaniyati, tarix, umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы музеологии и истории культурного и духовного наследия и его современный теоретический анализ.*

Ключевые слова: *Музееведение, культурное наследие, мировая культура, история, общечеловеческие ценности, духовность.*

Abstract: *This article examines the issues of museology and the history of cultural and spiritual heritage and its modern theoretical analysis.*

Keywords: *Museology, cultural heritage, world culture, history, universal human values, spirituality.*

O‘zbek xalqi azaldan boy madaniy va ma’naviy merosga ega bo‘lgan millatdir. Har bir xalq madaniy merosining moddiy va ma’naviy sohalari bo‘yicha jahon tamadduni ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘shganligi bilan g‘ururlanadi.

Madaniy – ma’naviy meros mazmunan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan axloqiy, ilmiy, diniy, tafakkuriy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati hamda ijodi kabi moddiy-ma’naviy boyliklar majmuasi hisoblanadi.

Madaniy meros muayyan bir xalq ommasi va shu xalq orasidan yetishib chiqqan ijodkorlarning merosi tarzida ham namoyon bo‘ladi. Xalq madaniyati va ijodiga oid boyliklar asrlar osha boyib, har bir davrda yashagan xalq tomonidan qayta ishlanib, sayqallashtiriladi hamda turlicha ommaviy ko‘rinishlarda saqlanib qoladi.

Har bir xalq, millat tarixiy taraqqiyoti davomida o‘zining moddiy, madaniy va ma’naviy merosini yaratadi. Qolaversa, ana shu madaniy meros mohiyatida ajdodlar o‘tmish hayoti haqida mulohaza qilinadi. Shu bois xalqning madaniy merosi qanday darajada bo‘lsa, o‘sha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ham, yashab o‘tgan insonlarining turmush tarzi ham shunday bo‘ladi.

Madaniy meros insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab shakllangan va asrlar o‘tishi bilan takomillashib borgan. Bunga misol tariqasida ajdodlarimizdan qolgan tarixiy ma’lumotlar, etnografik, arxeologik manbalardan yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan qomusiy asar sifatida tan olingan “Avesto”da insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o‘gitlari alohida o‘rin egallaydi. Darhaqiqat, donishmandlarning nasihatlari umriboqiy ma’naviy boylik sifatida hayot tajribasi, ezgu orzu-niyati va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ifodalaydi. Diyorimizda yaratilgan ta’limiy-axloqiy pand-nasihat tarzidagi asarlar bugungi kunda ham yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim qo‘llanma, ta’lim-tarbiyaning muhim omili bo‘lib kelmoqda. Jumladan, buning tasdig‘ini ma’naviyatning tarkibiy qismlari bo‘lgan ilmiy bilimlar, diniy e’tiqod, amaliy san’at misolida ham ko‘rish mumkin.

Binobarin yurtimizda o‘zining yuksak salohiyati, keng dunyoqarashi va noyob iste’dodi, bebaho kashfiyotlari bilan jahon ahlini hayratlantirib kelayotgan ulug‘ allomalar yashab o‘tgan. Imom Buxoriy, Imom Moturidiydek mutafakkirlarning ma’naviy merosi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning asarlari, oradan shuncha vaqt o‘tsa ham ahamiyati va nufuzi jihatidan betakror bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda istiqlolning dastlabki yillaridannoq ana shunday o‘lmas durdona va qadriyatlarni ko‘z qorachig‘idek asrab avaylash, ommalashtirish, muzeylashtirish va targ‘ib etishga e’tibor berib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida intiluvchan, iqtidorli hamda yuksak ma’naviy fazilatga ega zamonaviy bilim va kasblarni chuqur egallagan yoshlarni voyaga yetkazishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk zaminimizdan yetishib chiqqan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlarning matemtika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko‘plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi obidalar bashariyatning ma’naviy mulki merosi hisoblanadi hamda uni muzeylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, zamonaviy muzeyshunoslikda tomoshabinlar tomonidan muzeyni idrok etishda mavjud respublika badiiy, adabiy, texnikaviy, tarixiy va memorial muzeylarining ilmiy-mavzuli konsepsiyasi va ekspozitsiyasi dizayni yechimining professionalizmi kuchaytirish talab etiladi. Bunda albatta muzeylashtirishning yangi innovatsion uslublarini qo‘llash, 3 va 5D formatli qilish, visual, kompozitsion, kreativ dizayn, sahnali ko‘rinish hamda kutubxonzlashtirishni qo‘llashni takomillashtirish zarur.

Umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o‘rin egallagan allomalarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasi hamda tabiiy fanlarini chuqur o‘zlashtirgan edi. U Hindistonda bo‘lgan vaqtida hind fani va madaniyatini o‘rganar ekan, qadimgi manbalarni o‘rganish uchun qadimgi hind tilini bilish lozimligini anglab uni chuqur o‘zlashtirib, qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalar asosida egallagan. Shuningdek, yunon va rim madaniyati va fanini o‘rganish uchun yunon, lotin hamda qadimgi yahudiy tillarini o‘zlashtirgan edi.

Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o‘nlab tillarni bilgan va o‘nlab xalqlar madaniyati va ma’naviyatini chuqur o‘rgangan. Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida kamolatga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish, yetuk, oqil, dono, adolatli rahbar bo‘lish uchun zarur bo‘lgan xislatlar xaqida fikr yuritiladi.

Maxmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida ta’lim-tarbiya, xulq-odob, ilm-fan to‘g‘risida hikmatli va ibratomuz fikrlar mavjud. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig» asarida ta’lim-tarbiya va ma’naviy kamolatning yo‘l-yo‘riqlari, axloq-odob xususidagi fikrlar keltirilgan.

Axmad Yugnakiy ilmning afzalligi, til odobi, sahovat, xulq-odob, zakovat va boshqa ijtimoiy masalalar to‘g‘risida o‘zining «Xibat ul-xaqoyiq» asarida keltirib o‘tadi.

Mutafakkir olimlardan yana biri Muhammad Muso Xorazmiy o‘zining ilmiy kashfiyotlari, fundamental tadqiqotlari bilan insonyat tarixidagi ilk uyg‘onish davrini boshlab bergan. O‘nlik sanoq sistemasi tuzib, algebra faniga asos solgan umuminsoniy taraqqiyotga beqiyos hissa qo‘shgan. Bugun jahonda keng foydalanadigan hisob kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati ana shu ajdodimiz yaratgan merosiga asoslanadi. Muso Xorazmiy astronomiya, geografiya hamda tarix sohalarida ham qator asarlar yozgan. Fanda birinchi bo‘lib qutb koordinatalarini qo‘llagan va Yer yuzining Sharqiy yarimshari xaritasi tuzgan.

Imom Buxoriydek zot insoniyatga tengsiz ma’naviy xazina qoldirib, “Al jome’ as sahih” kitobi eng ishonchli hadislar to‘plami, islom dinida Qur’oni Karimdan ikkinchi muhim manba hisoblanadi. Umuman, konferensiyada tilga olingan har bir alloma hamda ularning ma’naviy merosi dunyoda katta qiziqisho‘rinda bilan o‘rganilayotganligi bizni g‘ururlantiradi.

So‘nggi yillarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jahon madaniy merosini ommaviylashtirish va muzeylashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, O‘rta Osiyo xalqlarining asrlar davomida yaratgan osori atiqalar va ko‘chmas obyektlarining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni alohida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim", — deb ta’kidlagan edi. Bu borada zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy qilish, sohaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘ycha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga moddiy merosni asrashning dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan nazariy ishlanmalarni fanlararo tadqiqotlar asosida yondashish, muammoli masalalarni ilmiy guruhlar doirasida hal qilishga intilish kuchayib bormoqda.

Darhaqiqat benazir allomalarimizning dahosi shaxsiyati, ibrotomuz faoliyati behad ulug‘vor bo‘lib, yuqorida ta’kidlanganidek, mustaqillik yillarida ularning muborak nomlarini tiklash, qadrlash, asarlarini qunt bilan o‘rganish, targ‘ib qilishda ayniqsa muzeylashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, ularning manzili hisoblangan ziyoratgoh va qadamjolarini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish muhimdir. Bu joylarda ularning tavallud sanalari bilan bog‘liq tadbirlarni nishonlanayotganligi esa nafaqat ulug‘lardan Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Ahmad Farg‘oniy, Mahmud Zamaxshariy kabi o‘nlab fallomalarga

ehtirom ko‘rsatish, ulardan har tomonlama saboq olishga qaratilgan oqilona siyosat tufaylidir.

Haqiqatdan ham jahon miqiyosida buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga hurmat ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga qiziqish hamisha yuqori bo‘lgan. Buning tasdig‘i turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo qilinganida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, Belgiyada Ibn Sinoga, Latviyada Ibn Sino va Mirzo Ulug‘bek, Yaponiya, Rossiya, Xitoy va Ozarbayjonda Alisher Navoiy, Misrda Ahmad Farg‘oniyga o‘rnatilgan haykallar xalqimiz buyuk merosiga chuqur hurmat ifodasidir.

So‘nggi yillarda bu borada respublika muzeylarida tashkil etilayotgan ko‘rgazma, ko‘chma ko‘rgazma, madaniy-ma’rifiy tadbir, xalqaro forum, konferensiya va seminarlarning bosqichma bosqich o‘tkazililib kelinishi amaliyoti joriy etilib, muzey faoliyatini baholash tizimi yo‘lga qo‘yilligidan darak beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Muzey fondlarida eksponatlarning elektron bazasini yaratish yangi ekspozitsiya va ko‘rgazmalarni shakllanishida muhim va tezkor axborot manbai sifatida ahamiyati beqiyosdir. Shuningdek, muzey ekspozitsiyalari, virtual muzeylar, noyob eksponatlar haqida axborotlarni dunyo bo‘yicha tashrifchilarga taqdim etish, nashr ishlarini yengillashtirish, eksponatlar ustidan nazorat o‘rnatish kabi vazifalarni bajarishda beminnat xizmatchiga aylanib bormoqda.

Tarixiy muhitni saqlab qolishga bo‘lgan urinish Yangi O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin tutgan shaxslarning uy-muzeylari, memorial, muzey qo‘riqxonalar, o‘lkashunoslik, Nomoddiy madaniy meros muzeylarini vujudga keltirmoqda. Uy-muzeylarni tashkil etish borasidagi asosiyulush davlat hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Kelajakda uy-muzeylar o‘z faoliyatini interaktiv dasturlar bilan boyitishlari ular faoliyatini yanada kengayishiga sabab bo‘ladi.

Ayniqsa, memorial muzeylar ham so‘nggi yillarda innovatsion ekspozitsiyasi orqali tomoshabinlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Bugungi kunda muzeylarning madaniy-ma’rifiy faoliyatida noan’anaviy shakllardan unumli foydalangan holda, ekskursiyalar, ma’ruzalar, turli qiziqarli o‘yin usullari asosida teatrlashtirilgan darslar tashkil etish orqali tomoshabinlarni qiziqtirish, ular bilan ishlashning yangi shakllarini rivojlantirish muzeyshunoslik/muzeologiya sohasini alohida o‘rganishni talab qiladi. Ayniqsa, madaniy merosni saqlash, ommalashtirish va yangicha innovatsion uslublarda muzeylashtirish nafaqat muzeylar, balki madaniyat va fan muassasalarining oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-5186-son qarori ga muvofiq markaz huzurida islom tamadduni bilan bog‘liq holda yaratilgan boy tariximiz, madaniyat va san’atimizni namoyish etuvchi innovatsion muzey yaratish vazifasi qo‘yilganligi ham fikrimiz dalilidir. Ushbu muzey konsepsiyasida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasining barcha tarixiy bosqichlari, din tarixi va diniy bilimlar sohasi, atoqli ilohiyotshunoslar va olimlar

faoliyati, dunyoviy fanlar, shaharsozlik, arxitektura, hunarmandchilik, san’at, an’anaviy madaniyat rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topishi ko‘zda tutuilgan.

Bugungi kunda yurtimiz tarixi, boy madaniy merosini o‘rganish, uni xalqimiz hamda kelajak avlodga yetkazishda muzeyshunoslarning ham hissasi katta bo‘lib, muzeylar auditoriyasini kengaytirish va xalqaro miqyosdagi nufuzini mustahkamlashda o‘zaro hamkorlik aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, O‘zbekiston madaniy merosi dunyo muzeylari to‘plamlarida saqlanishiga oid ma’lumotlar, muzeyshunos mutaxassislarni tayyorlashda milliy tizim va xorijiy tajribalar tahlili, tarixiy binolarda muzeylar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos uslublari hamda zamonaviy muzeylar va muzeyshunoslik sohasining oldida turgan ilmiy-amaliy vazifalardan hioblanadi.

Umuman olganda, dunyo hamjamiyati bugun O‘zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analarining umuminsoniy g‘oyalar bilan mujassamligi, buyuk allomalari, san’at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak, biz milliy ma’naviyatimiz va ma’naviy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni yanada yuksaltirish uchun, ajdodlarimiz qoldirgan buyuk ma’naviy-madaniy merosimizni chuqur o‘rganish, avaylab saqlash hamda kelajak avlodga yetkazishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Ташкент, 2007. –224 с.
2. Исмаилова ЖҲ., Муҳамедова М.С. Маданий туризмнинг тадқиқот ва тарғибот тамойиллари. – Т.: Фан, 2018. –327 б.
3. Исмаилова Ж.Х. Замонавий музей экспозициясининг бугуни ва истиқболи // Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. – Тошкент, 2017. – С.272-273
4. Каган М. С. Музей в системе культуры // Вопросы искусствознания, 1994. – № 4. – Б. 445-460.
5. Каган, М. С. Философская теория ценности. – СПб., 1997.
6. Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш,сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Докторлик диссертацияси (DSc)автореферати.– Тошкент, 2021. -80 б.
7. “Museum shop”larda eksponat va kolleksiyalarning nusxalarini xarid qilish mumkin //Yangi O‘zbekiston. 1 fevral 2022 yil.
8. Президент маданият ва санъат соҳаси раҳбарлари билан йиғилиш ўтказди // http://madaniyat.uz/post/view/2743
9. Ртveладзе Э. В., Пугаченкова Г. А., Северная Бактрия-Тохаристан: Очерки истории и культуры: Древность и средневековье. – Т.: Фан, 1990. – 218 с.
10. Соколова А.С. Методологические проблемы исследования культурного наследия //Рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 4(130), 2013. – Б. 221.
11. Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Т.: San’at, 2010. – Б. 10.

12.https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniy meros_turlari
.

ДАЛАЕВА Т.Т.
доцент Казахского национального педагогического университета имени Абая.
Кандидат исторических наук,

СОВРЕМЕННЫЕ МУЗЕИ: ПРОИЗВОДСТВО И ТРАНСЛЯЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ЗНАНИЯ

Abstract:This paper examines the role of modern museums in the production and transmission of historical knowledge. Contemporary museums have ceased to be mere repositories of artifacts, transforming into active centers for the creation and dissemination of historical knowledge. The study analyzes the methods and technologies used by museums to shape and present historical information, as well as their impact on public consciousness and the formation of historical memory. The paper explores how museums shape our understanding of the past through a variety of methods and technologies, ranging from traditional exhibitions to interactive multimedia installations.

***Аннотация**: В данной работе рассматривается роль современных музеев в производстве и трансляции исторического знания. Современные музеи перестали быть просто хранилищами артефактов, превратившись в активные центры производства и трансляции исторического знания. Анализируются методы и технологии, используемые музеями для формирования и представления исторической информации, а также их влияние на общественное сознание и формирование исторической памяти. В данной работе исследуется, как музеи формируют наше представление о прошлом, используя разнообразные методы и технологии, от традиционных экспозиций до интерактивных мультимедийных инсталляций.*

Современные музеи перестали быть просто хранилищами артефактов, превратившись в активные центры производства и трансляции исторического знания. В статье 25 Закона «О культуре Республики Казахстан» дано следующее определение: «Музеями являются организации культуры, созданные для хранения, охраны, сохранения, изучения и публичного представления музейных предметов и музейных коллекций, призванные осуществлять культурные, образовательные, научно-исследовательские функции и обеспечивать популяризацию историко-культурного наследия Республики Казахстан» [1], в данной характеристике раскрывается основные

функции музея в современном обществе. Музейные экспозиции – это сложный и многогранный инструмент, который не только хранит и демонстрирует артефакты, но и формирует понимание истории и культуры. В XXI веке мы наблюдаем, как музей представляет собой не просто хранилище культурного наследия, но становится активным участником общественного диалога и развивается в качестве площадки формирования и производства исторического знания. Музей относится к сфере культуры, призван работать на объединение культурных представлений разных групп общества, таким образом он становится агентом социальных изменений, осуществляя влияние на общественное сознание и формирование национальных и гражданских ценностей. Музей открыт как для отечественных посетителей, так и гостей из зарубежных стран, которым интересно узнать о том, какое историческое знание представлено в его экспозициях.

Репрезентация научных артефактов в музее и их интерпретация в экскурсиях зависит от множества факторов: 1) от контекста и цели музея (в историческом музее будет сделан акцент на историческом значении артефакта, на хронологию событий; в мемориальном музее основное внимание направлено на раскрытие и популяризацию идей и культурного наследия известных исторических персоналий; для естественно-научного музея важным является представление собранных экспонатов как части природного мира региона; в научном-техническом музее осуществляется демонстрация принципов работы и технологических достижений механизмов и их роль в жизни людей); 2) от концепции экспозиции (связь с определенной темой, хронологией, интерактивный характер взаимодействия с посетителями); 3) от целевой аудитории (для широкой публики – доступное содержание и визуализация, для специалистов – профессиональные характеристики и научный анализ, для школьников и студентов – с учетом учебной программы, для детей – игровые элементы и интерактивные экспонаты)**1**; 4) от технологии и методов (визуализация в традиционном формате в фотографиях и видео, инфографика, в цифровом формате - 3D-моделирование и виртуальная реальность); 5) от формы представления информации в экспозиции (от этикетов и пояснительных текстов, аудиогидов и экскурсий до интерактивных дисплеев и приложений).

Рассмотренные факторы сами являются объектом пристального внимания и исследования в музеях, так как концепция «новой музеологии» предполагает многообразие интерпретаций и интерактивности. Музей сегодня призван развиваться как исследовательский центр, что предполагает не только

1 Разумеется, что это деление носит условный характер, все характеристики содержания экспозиции могут быть представлены в разной пропорции для всех целевых групп.

сбор и научную атрибуцию экспонатов, но и изучение полученных артефактов с учетом новейших данных в изучении и интерпретации исторических источников самого широкого спектра для создания новых экспозиций и выставок. Научным сотрудникам музея важно развивать профессиональное сотрудничество с научно-исследовательскими организациями в вопросах изучения актуальных тем истории. Кураторам и сотрудникам музея сегодня в условиях известного плюрализма в области научного знания приходится более креативно подходить к формированию контента экспозиций, стараясь избежать стереотипов и предвзятости. Проблема объективности и субъективности в музейной интерпретации истории занимает отдельное место в производстве знания. Очевидно, что, стремясь к мультиперспективности в изложении прошлого, к прозрачности и участию общественности как в лице посетителей, так и в лице коллег, музеи могут приблизиться к более объективному представлению о прошлом, к конструированию культурной исторической памяти.

Трансляция исторического знания происходит не только через визуальную природу экспозиций, но и через проведение образовательных программ и мероприятий в виде лекций, мастер-классов и экскурсий, в том числе виртуальных экспозиций. Почти во всех музеях Республики Казахстан развивается музейная педагогика, как оффлайн, так и в онлайн форматах. Развитие мультимедиа технологий в музеях является перспективным направлением. Речь идет о технических средствах, таких как сенсорные экраны и панели, которые предоставляют доступ к дополнительной информации, фотографиям, видео и 3D-моделям экспонатов, интерактивные витрины, которые дают возможность для группового взаимодействия и обучения. Современные технологии, как виртуальная и дополненная реальность (VR/AR): посредством виртуальных экскурсий погружают посетителей в исторические события и места, позволяют увидеть утраченные артефакты и здания в их первоначальном виде; через AR-приложения дополняют реальные экспонаты виртуальной информацией. Мультимедийные инсталляции в формате видеопроекций и 3D-мэппинга создают иммерсивные пространства и атмосферу, используются для рассказывания историй и визуализации данных. Аудиогиды и звуковые инсталляции предоставляют аудиокомментарии и создают звуковые ландшафты, помогают посетителям лучше понять контекст экспозиции.

В Казахстане, как характеризует исследователь В. Кожокар «кульминацией работы в данном направлении стало открытие в городе Павлодаре мультимедийного музея «Ertis». Он построен в 2019 году по примеру западных естественноисторических музеев. В экспозиции показаны

отделы, связанные с геологией, географией, флорой, фауной, историей региона с палеозоя до наших дней – всего 9 отделов. Оригинальные исторические экспонаты включены в мультимедийные технологии в виде книги real-book, информационной touch-панели и современных инсталляций» [2].

Для качественного развития современного музея важны не только обсуждение и дискуссии на круглых столах и конференциях в пространстве музеев. По мнению исследователя истории развития музеев в Казахстане, Г. Файзуллиной, «необходимы специальные семинары-тренинги для музейных руководителей и сотрудников с целью осознания и предназначения своей организации» [3, с. 27].

Список источников и литературы:

1. Закон о культуре Ст. 25 Закон О культуре РК от 15 декабря 2006 года № 207 // URL: https://kodeksy-kz.com/ka/o_kulture/25.htm (дата обращения 28.02.2025.)
2. Кожокар В. А. Современные формы популяризации историко-культурного наследия Прииртышья музеем Ертіс в Павлодарской области // Фундаментальные проблемы гуманитарных наук: опыт и перспективы развития исследовательских проектов РФФИ : материалы всероссийской научной конференции с международным участием. Барнаул, 24–26 сентября 2020 г. Барнаул. 2020. С. 73–75.
3. Файзуллина Г., Асанова С., Джасыбаев Е. Современный музей в Казахстане: вопросы, факты, мнения / Сборник статей. – Germany: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2012. – 316 с.

YUSUPALIYEVA Dilafruz Kaxramonovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professor v.b.,

siyosiy fanlar doktori (DSc),

MUZEYLAR FAOLIYATIDA ZAMONAVIY RIVOJLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada muzeylarning zamonaviy rivojlanish jarayonlari, ulardagi texnologik yangiliklar muhokama qilinadi. Hozirgi kunda muzeylar faqatgina tarixiy asori-atiqalarni saqlash bilan cheklanib qolmay, balki innovatsion texnologiyalar yordamida foydalanuvchilarga ma’lumotlarni taqdim etishda katta vazifalarni amalga oshirmoqda. Muzey faoliyatining samarali rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar, onlayn resurslar va*

ko‘rgazmalar orqali yosh avlodni tarbiyalashda muzeylar ham samarali xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: *muzey, zamonaviy muzeylar, madaniy muloqat, ma’naviy maskan, ijtimoiy ehtiyoj.*

Muzeylarning zamonaviy rivojlanish jarayonlari butun dunyo bo‘ylab muzey faoliyatini yangilash va takomillashtirishga turtki bo‘lmoqda. Muzeylar innovatsion texnologiyalar va interaktiv shakllar yordamida ilmiy va madaniy axborotlarni keng jamoatchilikka taqdim etuvchi markazlarga aylandi. Zamonaviy muzeylar faqatgina tarixiy yoki san’at asarlarini ko‘rsatadigan joylar bo‘libgina qolmay, hozirda zamonaviy jamiyatda yanada faol madaniy maskanga aylanmoqda. Bugun muzeylar turli ijtimoiy guruhlar uchun ta’lim, dam olish, hatto ijodiy va ijobiy kayfiyat ulashuvchi manbalar o‘chog‘iga aylangan. Muzeylar san’at, tarix va ilmiy-tadqiqot ma’lumotlarni xalqqa taqdim etish bilan birga, insonlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, yangi zamonaviy-innovatsion texnologiyalar yordamida esa, muzeylar har bir tashrif buyuruvchiga o‘z bilmlarini individual tarzda oshirish imkoniyatini beradi.

Shunday ekan, muzeylar jahon miqyosida o‘zaro madaniy muloqot qilish imkoniyati, turli madaniyatlar va xalqlar bilan aloqalarni rivojlantirishning yangi shakli sifatida ajralib turadi. Bu rivojlanish jarayonlari muzeylarni an’anaviy vazifalaridan tashqari ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiradigan, jamoatni birlashtiradigan va yangi bilimlarni yoshlar ongu-shuuriga singdiradigan markazlarga aylantiradi.

Muzey – bu ijtimoiy institut bo‘lib, u odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning shakllangan va barqaror tizimlarini ifodalaydi va ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajaradi. Ushbu holatda ijtimoiy institut, jamiyatning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan ro‘l va statuslarning majmui sifatida namoyon bo‘ladi hamda qadriyatlar, estetik did, ta’lim, faoliyat va boshqalarni tarbiyalashga hissa qo‘shadi. Bu har bir odamning o‘ziga xos identifikatsiya qiluvchi va ijtimoiylashtiruvchi vositadir. Uni har bir kishi o‘zining qadriyatlar tizimi, madaniyati, ijtimoiy guruhi bilan bog‘lashi yoki taqqoslash uchun foydalanishi mumkin. Muzey – bu turli bilimlar, ideal va qadriyatlar, intilishlar tizimlarining egalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir o‘rnidir. Natijada odamlar o‘rtasida o‘zaro birdamlik, o‘zining individual xususiyatlarini va boshqalardan farqini anglash hissi paydo bo‘ladi. Muzey submadaniyatlar o‘rtasida samarali madaniyatlararo faoliyat, axborot va qadriyatlar almashinuvi uchun uchrashuv joyi bo‘lishi kerak. Shunday tushunchada zamonaviy muzeyning vazifasini anglagan holda, uning sheriklar doirasi qanchalik keng bo‘lishi mumkinligini ko‘rish mumkin. Turli submadaniyatlar o‘rtasida o‘zaro muloqot va aloqa potensialini ishlatishdan manfaatdor bo‘lgan sheriklar uchun bu ijtimoiy institut muhim vosita bo‘ladi[1].

Muzeylar faoliyati, dasturlash va jamoatchilik rivojlanishining barcha jabhalarida, bundan kelib chiqadigan xilma-xillikka yanada sezgir bo‘lishi kerak. Muzeylar jamiyatning asosiy nuqtalariga, shuningdek, fikrlash, mulohaza yuritish,

3. Воспоминания о Савицком [Книга]: сборник воспоминаний / Автор-составитель М. Бабаназарова. - Ташкент: Baktria pres ,2022. - 240 с., илл.
4. История исследований Хорезмской экспедиции на землях Сыра / Авторский коллектив: Аржанцева И.А., Болелов С.Б., Тажекеев А.А. Москва: Издательство ОЛЕАБУК, 2018. 312 с.
5. Савицкий И.В. Народное прикладное искусство каракалпаков. Резьба по дереву. М.,Наука, 1965. – 191 с.илл.

KURYAZOVA Darmanjan Turayevna,
O‘zbekiston
tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi.
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent.
darmonturaeva@gmail.com

TARIXIY-MADANIY MEROS TARG‘IBOTIDA KOMMUNIKATSION TIZIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola tarixiy-madaniy meros targ‘ibotida kommunikatsion tizimni rivojlantirish jarayonida o‘zgarib borayotgan kommunikatsion strategiyalar va ularning tarixiy madaniy merosni targ‘ib qilishdagi o‘rnini tahlil qiladi. Maqolada madaniy merosning global miqyosda muhofaza qilinishi va targ‘iboti masalalari, shuningdek, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning ta’siri alohida o‘rganilgan. Shuningdek, tarixiy madaniy merosni o‘rganish, saqlash va kelajak avlodga yetkazishda kommunikatsion tizimlarning roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekskursiya, sayt, aloqa, nazariya, tarixiy va madaniy meros, arxeologik ob'ektlar, yodgorlik, muzeyefikatsiya, saqlash, o‘rganish.*

Abstract. *This scientific article analyzes communication strategies that*

change during the development of the communication system in the promotion of historical and cultural heritage, and their place in the promotion of historical and cultural heritage. The article separately examines the issues of preservation and promotion of cultural heritage on a global scale, as well as the impact of modern communication technologies. The role of communication systems in the study, preservation and transmission of historical cultural heritage to future generations is also highlighted.

Keywords: *excursion, website, communication, theory, historical and cultural heritage, archaeological sites, monument, museification, conservation, study.*

Аннотация. *В данной научной статье анализируются коммуникационные стратегии, меняющиеся в процессе развития коммуникативной системы в пропаганде историко-культурного наследия, и их место в пропаганде историко-культурного наследия. В статье отдельно рассматриваются вопросы сохранения и пропаганды культурного наследия в глобальном масштабе, а также влияние современных коммуникационных технологий. Также освещается роль коммуникационных систем в изучении, сохранении и передаче исторического культурного наследия будущим поколениям.*

Ключевые слова: *экскурсия, сайт, коммуникация, теория, историко-культурное наследие, археологические объекты, памятник, музеефикация, сохранение, изучение.*

O‘zbekistonda mavjud muzeylarda tomoshabinlarning o‘zaro munosabatlaridagi muammolar yechimini topish maqsadida muzey materiallarini yetkazib berishning yangi va ancha oson yo‘llarini topish, madaniy-ma’rifiy faoliyatining noan’anaviy dasturlarini ishlab chiqish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Qolaversa, maxsus muzey tuzilishi, xodimlar, kattalar va bolalar ta’limi bo‘yicha savollar bilan shug‘ullanish kabi vazifalarni amalga oshirish yuzasidan maxsus kasbiy malaka va differentsial munosabat talab etiladigan ayrim toifadagi tomoshabinlar uchun alohida e’tibor qaratilmokda. Ko‘chmas madaniy meros ob’ektlari o‘ziga xos «mo‘ljal», «vaqt belgisi» sifatida merosning moddiy ob’ektlari nafaqat bugungi kunning olis o‘tmishi, balki kelajak bilan ham aniq va mustahkam aloqa yo‘lini yaratadi. Meros ob’ektlariga tashrif buyuruvchilardan kimdir o‘zlari mansub bo‘lgan jamoatning merosi va kelib chiqishi haqidagi, o‘z ildizlari haqidagi eslatma, o‘z avlodi va jamoatining makon va zamonda ajdodlar bilan aloqasini ta’minlovchi o‘ziga xos ramz sifatida tosh bo‘laklarini, bir hovuch tuproqni olib ketadi. Tarixiy-madaniy va arxeologik ob’ektlar hamda majmualar nafaqat turli jamiyatlarda tarixiy madaniyatning qismini va tarixiy xotirani shakllantiradi, balki milliy g‘ururni tarbiyalaydi. Shu munosabat bilan taniqli nemis jamoat arbobi R. Beltts shunday deb yozgan edi: «Ular (meros ob’ektlari) mamlakatimizning xazinasi hisoblanadi va biz bu bilan g‘ururlanishimiz kerak va unumli foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish zarur»[1.].

G. Eshvort ta’kidlaganidek, «meros va u joylashgan joy o‘rtasida o‘zaro aloqaning mavjudligi holati nafaqat aniq yoki isbot talab qilmaydigan holat bo‘lishi mumkin. Geograf olimlarni ham, turistlarni ham merosning joyini real tabaqalashtirishni amalga oshirishning bosh qismlaridan biri ekanligiga ishontirish kerak emas»[2.].

Bugungi kunda Yevropada madaniyat sohasida 170 tadan ortiq onlayn kommunikatsion tarmoqlar faoliyat ko‘rsatmoqda va ularning soni o‘sishda davom etmoqda. «Madaniy meros bo‘yicha tarmoqlar» deb ataluvchi tarmoqlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin, ularning soni bugunda 25 tadan ortiqdir. Ushbu toifaga «madaniy meros tarmog‘i», «milliy meros bo‘yicha tarmoq», «madaniy va tabiiy meros bo‘yicha tarmoq» va «meros bo‘yicha tarmoq»ni (yoki «milliy madaniy va tabiiy meros bo‘yicha tarmoq») kiritish mumkin. Yevropa tarmoqlari forumining ustavida[3.] (1999 yil) ularning o‘ziga xosligi va vazifasi quyidagicha belgilangan: tarmoqni rassom dizaynerlar, geografik, intellektual ijtimoiy chegaralarni bartaraf etuvchi mutaxassislar amaliy ishlanmalari asosida boshqarib kelinmoqda.

Tarixiy-madaniy meros ob’ektlari va muzeylarda kommunakatsion muhitni ta’minlashda ob’ektlarni namoyish qilish, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ekskursiyada (induktiv, deduktiv, virtual, onlayn) mavqega ega. Ob’ektlarning to‘g‘ri tanlanishi, ularning soni, namoyish qilish ketma-ketligi ekskursiyaning sifatiga ta’sir qiladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 150 mingdan ortiq tarix, arxeologiya va madaniy yodgorliklar davlat ro‘yxatiga olingan, 40 millionga yaqin eksponatlar mamlakat muzeylarida saqlanmoqda.

Tashrif buyuradigan ob’ektlar quyidagilar bo‘lishi mumkin: xalqimiz hayotidagi, jamiyat va davlat taraqqiyotidagi tarixiy voqealar bilan bog‘liq esda qolarli joylar (masalan, Registon maydoni, Afrosiyob, Xiva «Ichan-Qal’a» va boshqalar); bino va inshootlar – taniqli shaxslarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq yodgorliklar, arxitektura va shaharsozlik ishlari, joy va jamoat binolari, sanoat korxonalari, muhandislik inshootlari (qal’alar, ko‘priklar, minoralar), maqbaralar, madaniy inshootlar va boshqa binolar; tabiat yodgorliklari – o‘rmonlar, bog‘lar, xiyobonlar, daryolar, ko‘llar, suv havzalari va qo‘riqxonalar, shuningdek, alohida daraxtlar, relikt o‘simliklar va boshqalar; Davlat va milliy san’at galereyalari ekspozitsiyalari, doimiy va vaqtincha ko‘rgazmalar; arxeologiya yodgorliklari – qadimgi manzilgohlar, qadimiy obidalar, aholi punktlari, qabristonlar, gumbazlar, yo‘llar, kon qazish ishlari, ibodatxonalar, kanallar va boshqalar; san’at yodgorliklari – tasviriy, dekorativ va amaliy san’at, haykaltaroshlik, bog‘-prak va boshqa san’at asarlari.

Ob’ektlarni to‘g‘ri tanlash ekskursiya materiallarini idrok etish va mavzuni chuqur ochish uchun vizual asosni ta’minlaydi. Ushbu jarayon xuddi shu ob’ektlar ekskursiyadan ma’ruzaga aylanib ketmaydigan tarzda tashkil etilishi kerak. Har bir mavzu o‘z ob’ektlariga ega bo‘lishi kerak. Ob’ektlarning bir-biriga o‘xshash bo‘lmasligi bu sayyohlar orasida taassurotlarning to‘g‘ri almashinishini ta’minlashga imkon beradi, ekskursiyali mavzularni o‘rganishda yangilik elementini beradi. Agar uning o‘ziga xosligi tufayli (masalan, Amir Temur haykali, Registon maydoni) bir yoki boshqa ob’ektni taklif qilinadigan marshrutdan chiqarib tashlashning iloji bo‘lmasa, ular bir qator ekskursiyalarda (tarixiy, adabiy, san’at)

namoyish etiladi. Bunday ob’ektlar aniq oshkor qilinishi kerak. Uni namoyish etishda boshqa mavzular bo‘yicha ekskursiyalarda aks ettirilmagan xususiyatlarni aniqlash lozim. Mavzuga qarab, bunday ob’ektlarni ko‘rsatish va aytib berish paytida har safar yangi materiallardan foydalanish kerak. Shu sababli, sayohatchilarning takroriy tashrifi paytida qiziqishlari pasaymaydi.

Ekskursiyalarni tayyorlash amaliyotida ekskursiya ob’ektlarini baholashning ma’lum bir metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu uslubni qo‘llash, ayniqsa, yangi ekskursiya yaratuvchilar, tarkibiga o‘xshash bir nechta ob’ektlar bilan marshrutda uchrashib, ushbu mavzu uchun eng keraklisini tanlash juda muhimdir. Ekskursiyaga kiritilgan ob’ektlarni baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bilish mezoni – ob’ektni ma’lum bir tarixiy voqea bilan, ma’lum bir davr, fan va madaniyat sohasidagi taniqli shaxsning hayoti va faoliyati, yodgorlikning badiiy xususiyatlari, ekskursiya ishtirokchilarining estetik tarbiyasida ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liqligini tahlil etadi. Ekskursiya bir guruhga mansub ob’ektlarini (masalan, me’moriy yodgorliklar) yoki bir nechta guruhga mansub ob’ektlarini (yodgorliklar, tarixiy yodgorliklar, ekskursiyalar-joy binolari, tabiiy ob’ektlar) o‘z ichiga qamrab olishi mumkin. Ob’ektlar to‘plami ekskursiya mavzusiga, uning mazmuniga, ekskursiya guruhining tarkibiga bog‘liq. Masalan, faqat haykaltaroshlik yodgorliklari bo‘ylab ekskursiyani tashkil qilish bu noto‘g‘ri. Vizual qurilishning bir xilligiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Agar marshrutga yodgorliklar va shu bilan bir qatorda alohida binolar va ko‘chalar, maydonlar, tarixiy joylar, tabiat ob’ektlari aks etmasa, tomoshabinlarning vizual taassurotlari to‘liq bo‘lmaydi. Yangi ekskursiyani tayyorlash paytida ob’ektlarni tabiiy sharoitda o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Kerakli dastlabki ma’lumotlar ob’ektlarni manbalar – kitoblar, alьbomlar, fotosuratlar bo‘yicha o‘rganish orqali ta’minlanadi. Ko‘rgazma ob’ekti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylashgan joyda uchrashish, uning ekskursiyali tomonlarini o‘rganish kelajakda ekskursovod guruh bilan ishlashda, yodgorlikda bemalol yurish, uni mohirona namoyish etish imkonini beradi. Qisqa shakldagi ekskursiya xarakterini quyidagicha aniqlash mumkin: ekskursiya – bu ma’lum bir guruhdagi odamlar uchun o‘tkaziladigan ma’lum bir shakldagi bilimlar yig‘indisi va ularni o‘tkazish uchun muayyan harakatlar tizimi. Tarixiy-madaniy meros ob’ektlarini ekskursiya marshrutlariga tanlash, ularning har biri uchun kartani (pasportni) tuzish bilan yakunlanadi. Ob’ekt kartasiga quyidagi ma’lumotlar kiritiladi: 1) ob’ekt nomi (original va zamonaviy), shuningdek yodgorlik aholiga ma’lum bo‘lgan nom; 2) yodgorlik bog‘langan tarixiy voqea, voqea sanasi; 3) yodgorlik joylashgan joy, uning pochta manzili (shahar, sanoat korxonasi va boshqalar); 4) yodgorlikning tavsifi (unga kirish joyi, uning muallifi, qurilgan sana, u qanday materiallardan tayyorlangan, yodgorlik yozuvi matni); 5) yodgorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarning manbai (yodgorlik va u bilan bog‘liq voqealarni tasvirlaydigan adabiyotlar, arxiv ma’lumotlari, og‘zaki rivoyatlar, asosiy bosma asarlar va nashr etilmagan asarlar saqlanadigan joylar); 6) yodgorlikning saqlanishi (yodgorlikning holati va u joylashgan hudud, oxirgi ta’mirlash, tiklash sanasi); 7) yodgorlikni muhofaza qilish (unga ishonib topshirilgan); 8) yodgorlik ekskursiyalarda foydalaniladi; 9) kartani tuzish sanasi, tashkilotchining ismi va

lavozimi. Ob’ektning avvalgi va hozirgi shakllarini aks ettiruvchi fotosi kartaga ilova qilinadi.

Shu sababli muzey-qo‘riqxonalar asosida paydo bo‘luvchi muzey majmualarini, megamuzeylarni shakllantirishda muhit fragmentlaridan foydalanish, merosning moddiy va nomoddiy ob’ektlarini talqin qilish, ularni tanlash, saqlash va muzey holatiga keltirish bilan bog‘liq o‘tkir muammo paydo bo‘ladi. Muzeylashtirish muzey faoliyatining har qanday turi kabi ham amaliy, ham nazariy jihatlariga egadir. Amaliy faoliyatning yo‘nalishini belgilab beruvchi nazariyaga yetarlicha e’tibor berilmadi. Muzeylashtirishga aniq shakllar va mazmun bag‘ishlash zarur. Shu munosabat bilan «Yodgorliklarni muzeylashtirish mintaqada madaniy merosdan foydalanish mexanizmi sifatida»[4.] nomli dissertatsiya muallifi, madaniyatshunoslik doktori E.A.Shulepovaning muzeyshunoslik muammosini rivojlantirishga va idrok etishga qo‘shgan hissaning alohida ahamiyatini ta’kidlash kerak. Yuga de Varen, M. Ye. Kaulen, M. Keren, J. A. Rivera, E. A. Shulepovalarning «muhit muzeylarining» xossalariga tegishli ishlari ham alohida muhimlikni ifodalaydi. «Museum» va «Mir muzeya» jurnallarida e’lon qilingan maqolalardagi kontseptual va empirik material katta qiziqish uyg‘otadi. Ammo masalaning metodologik jihatdan yaxshi ishlanmaganligi tufayli muzeyshunoslik metodlarining o‘zi unchalik ko‘p emas. Buning ustiga tarixiy-madaniy meros to‘liq o‘rganilmagan va to‘la tizimga solinmagan.

Yangicha tasavvurlarga ko‘ra, muzeyning vazifalari faqat hodisa, jarayon, dalil va predmetlar haqida ko‘p bilim berishdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki tomoshabinni sezgi-hissiy holatiga ta’sir etish, uni tarixiy muhitga olib kirish, aql-idrokini ishga solish hisoblanadi. Qolaversa, bu muzeylar madaniy-ilmiy faoliyati yangi kontseptsiyasining muhim xususiyati hamdir. Muzeyga tashrif buyurgan odam tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish ob’ekti emas, balki ekskursovod bilan teng huquqli suhbatdosh bo‘lishi kerak[5.]. Shuning uchun muzeyning auditoriya bilan muloqoti monolog tarzda bo‘lmay, balki dialog shaklida olib borilishi kerak. Mana shu jihat esa kommunikativ tizim uchun nihoyatda muhim sanaladi.

Muhit – muzey uchun nihoyatda muhim jarayondir. Aynan muzey muhitining dizayni va sifatiga ekspozitsiya va ekspozitsiyasi bo‘lmagan xonalar, binolar, hududlar, reklama, matbaa mahsulotlari va hokazolar bir-birini to‘ldiradi.

Muzey uchun kommunikatsiya nazariyasini bevosita o‘rgangan olim D.Kameron bu tushunchani XX asrning 60-yillarida amaliyotga kiritgan bo‘lib, muzeyga tomoshabin va eksponatlar orasidagi kommunikatsion jarayonni amalga oshiruvchi vosita sifatida qarashni taklif etgan edi. Ushbu jarayon zaminida bir tomondan tomoshabinning muzeydagi ashyo-buyumlar «tilini» tushunish qobiliyati yotsa, ikkinchi tomondan muzey mutaxassislarining o‘ziga xos fikrlarini erkin ifoda eta olishi tushuniladi[6.].

D.Kameron muzey faoliyatini tashkil etish, kommunikatsion tizimlar markazida turgan tomoshabinlar bilan o‘zaro hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha qator takliflarni ishlab chiqadi. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagilarni talab etadi: muzey ko‘rgazmalarini yaratishda fondlarni saqlovchilar bilan birga rassom-dizaynerlar ishtiroki; ekskursovodlar tomonidan tomoshabinlarni «san’at tiliga» o‘rgatish; professional muzey faoliyati tizimi, tomoshabinlar bilan «bevosita aloqa»ni

ta’minlashda psixolog va sotsiologlarni kiritish zarurligi ta’kidlangan[7.]. D.Kameron muzey faoliyatining ko‘pgina jihatlari (ashyo-buyumlarni saqlash, ilmiy tadqiqotlar, hujjatlashtirish va h.k)ni nazardan chetda qoldirsa-da, u taklif etgan muzey kommunikatsiya nazariyasi muzeyga an’anaviy ta’lim tizimining ko‘mak vositasi sifatida qarashdan xalos etdi.

Muzeylardagi ekspozitsiyalar muzey kommunikatsiyasi asosini tashkil etadi. Zamonaviy qarashlarga ko‘ra, muzey ekspozitsiyasi bu predmetlarning ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan namoyishi bo‘lib, ular kompozitsion tashkil etilgan, sharh, izohlar bilan ta’minlangan, texnik va badiiy jihozlangan natijada tabiiy, ijtimoiy hodisalarning o‘ziga xos xususiyatli timsoli hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ma’lum bo‘shliqda joylashtirilgan ekspozitsion materiallarni tomoshabinlar tomonidan ko‘rish, qabul qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tomoshabinlarning eksponatlar bilan muloqoti jarayonini yengillashtirish maqsadida, uni yanada samarali va natijali qilish uchun ekspozitsiya yaratishda nafaqat olimlar, balki muzeyning siymoli ramziy negizini yaratuvchi rassomlar ham qatnashadilar. Muzey sohasida ilm va san’atning yagona maqsadi tomoshabinlarga buyumlar va hodisalarning mantiqiy aloqadorligini anglashga yordam berish, uni dunyoni bilishga yetaklashdan iborat. Ilm va san’at sintezi natijasida yaratiladigan timsol, o‘ziga xos muzey timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

Muzey-qo‘riqxonalardagi muzeylashtirilgan ob’ektlar haqida ekskursovod yordamisiz ma’lumotga ega bo‘lish, o‘ziga xos tarixiy muhitni hamda ob’ektni tavsiflash muzeylarni axborotlashtirishning asosiy shartlaridandir. Bu borada Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va «Texnodargoh» ma’suliyati cheklangan jamiyati tomonidan hamkorlikda amaliyotga tatbiq etilayotgan «VERUM QR» loyihasi doirasida Samarqand va Shahrisabzdagi muzeylashtirilgan sayyohlik ob’ektlari QR-kodlar bilan ta’minlandi[8.]. Mazkur QR-kodlar sayyohlarga bir necha soniya ichida tarixiy ob’ekt, yaqin hududda joylashgan mehmonxona, restoran va boshqa diqqatga sazovor maskanlar haqida ma’lumot olish imkonini beradi. Ma’lumotlar 12 tilda taqdim etilishi nazarda tutilgan[9.].

Muzey kommunikatsiyasini ta’minlashdagi yana bir muhim jarayonlardan biri, muzey saytlari faoliyatini takomillashtirish sanaladi. Hozirgi kunda internet asrida hamma muzeylar o‘z saytiga ega. Bu saytlar endi muzeyning ish vaqti va ko‘rgazmalari haqida ma’lumot beruvchi oddiygina sahifalar emas, balki elektron biletlar sotib olish, maxsus suvenirlarni buyurtma qilish va hattoki virtual turni amalga oshirish mumkin bo‘lgan portal hisoblanadi. Bu borada ilk bor 1994 yil Singapurda rassom dizayner Lin Xsinning shu nomli san’at muzeyi web sahifasi yaratilgan[10.]. Bu sayt noodatiy dizaynga ega. Bugungi muzey veb-saytlariga tashrif buyuruvchi yosh tomoshabinlar ertangi kunning haqiqiy tashrif buyuruvchilari hisoblanadilar. Shu sababdan Yevropa tajribasi asosida muzeylar aynan bolalar uchun maxsus muzey saytlarini yaratishmoqda. Muzey madaniy ma’lumotlarni o‘zida saqlovchi boy xazinadir. Muzey saytlari esa, o‘zaro onlayn madaniy hamkorlik qilish imkonini beruvchi asos hisoblanadi.

Ilg‘or texnologiyalar yordamida muzeylar har bir tashrifchi bilan muloqot o‘rnatishi mumkin. Hozirgi kunda muzey saytlari orqali tashrifchilardan tushgan

buyurtmalar asosida individual ekskursiya xizmatlariga talab ancha yuqoriligini ko‘rish mumkin. Muzey faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muzey muhitini samarali rivojlantirish, unga tashrif buyuruvchi mehmonlarning tafakkurini boyitish va ma’lumot olish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Ilg‘or texnologiyalarning paydo bo‘lishi bilan muzey faoliyatida asl narsalarni ko‘proq saqlash va o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillariga ular haqidagi ma’lumotlarni yetkazish imkoniyati ham paydo bo‘ldi. Shunday qilib, yangi texnologiyalar va axborot uzatish muzeylarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: tarix va madaniyat yodgorliklari – bu odamlarning his-tuyg‘ulari, bilimlari va ongiga faol ta’sir ko‘rsatadigan o‘ziga xos tarixiy-madaniy hodisa, ya’ni tarixiy-madaniy muhitning bir qismidir. Ular ijtimoiy ongni shakllantirish va ijtimoiy xulq-atvorni rag‘batlantirishning samarali vositasidir.

Adabiyotlar:

1. Mac Cannel D. (1989) The Tourist: a new theory of the leisure class, New York: Schocken Books, revised edition, with a new introduction by the author. – P.34.
2. Малявин В. Постмузейная эпоха //Русский Журнал www. russ.ru /columns /poison/ 20040812. html
3. Князева Н.Р. Информационное общество и сфера культуры //Экология культуры Информационный бюллетень. – № 1 (21). – Архангельск, 2001. – С.173.
4. Шулепова Э.А. Музеефикация памятников как механизм использования культурного наследия в регионе: дисс. ... докт. Культурологи – М., 1998. – С. 56.
5. Кайманова Т. Экскурсоведение. Теория и экскурсоводческая практика. Учебное пособие. – Пенза: Изд-во ПГУ, 2012. – 170-177.
6. Cameron.D.A Viewpoint the museums as a communication system and implications for museum education // Curator, 1968. - № 1. – v.11.
7. Гнедовекий М.Б. Современные тенденции развития музейной коммуникации //Проблемы культурной коммуникации в музейной деятельности. Сборник научных трудов НИИ культуры МК РФ. – М., 1989. – С. 20-21.
8. Сусаров Б.Смарт – Технологии в туризме. // https: // ictnews. Uz /24/03/2018 /tourism-2.
9. Мамлакатимизда туризм кандай ривожланади? //http://m.zamin.uz/oz/social/30810-mamlakatimizda-turizm-qanday-rivojlanadi.html.
10. https://www.lhham.com.sg/pw.html

MUKHAMEDOVA Munisa Sabirovna
National Institute of art and design
named after Kamaliddin Bekhzod
Professor of the Department of Museum studies

munisa.muxamedova@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-7574-9724

RESEARCH OF TOURISM IN THE ACTIVITIES OF TRAVELERS IN UZBEKISTAN IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Annotation:*In this article, information about tourism in Uzbekistan was studied in the late 19th – early 20th centuries. In this regard, in order to get acquainted with the historical, cultural and ethnographic monuments of Central Asia and study them, the region provides information about numerous tourists from different regions of the world. At the beginning of the 20th century, the processes of development of the tourism industry were also analyzed.*

Keywords: *world civilization, natural and geographical, unique historical monuments, tourism industry, cultural and ethnographic monuments, rich examples of material and spiritual heritage.*

Аннотация:*Ушбу мақолада XIX аср охири – XX аср бошларида Ўзбекистонда сайёҳликка оид фактологик маълумотлар ўрганилган. Бу борада Ўрта Осиё тарихий ва маданий-этнографик ёдгорликлари билан танишиш ҳамда уларни ўрганиш мақсадида минтақага дунёнинг турли ҳудудларидан кўплаб сайёҳлар хусусида маълумот келтирилган. Шунингдек, XX аср бошларида туризм индустриясининг ривожланиш жараёнлари ҳам таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *жаҳон цивилизацияси, табиий-географик, ноёб тарихий ёдгорликлар, туризм индустрияси, маданий-этнографик ёдгорликлар, бой моддий ва маънавий мерос намуналари.*

Аннотация: *В данной статье была изучена информация о туризме в Узбекистане в конце XIX – начале XX веков. В связи с этим, с целью ознакомления с историческими и культурно-этнографическими памятниками Центральной Азии и их изучения, представлена информация о многочисленных туристах из разных регионов мира. В начале XX века также были проанализированы процессы развития индустрии туризма.*

Ключевые слова: *мировая цивилизация, природно-географические, уникальные исторические памятники, индустрия туризма, культурно-этнографические памятники, богатые образцы материального и духовного наследия.*

Central Asia, in particular, the territory of Uzbekistan, is one of the Centers of world civilization. According to its natural-geographical position, Uzbekistan acts as an important mediator in the development of economic and cultural relations between countries, the formation and spread of scientific, cultural, religious ideas. At the same time, on the territory of the republic there are samples of rich material and spiritual heritage, unique historical monuments. It is thanks to these features that Uzbekistan has long attracted the attention of tourists from all over the world and has been one of the Centers of tourism, which is an important aspect of international

economic and cultural relations.

In order to get acquainted with the historical and cultural-ethnographic monuments of Central Asia and study them, the region was visited by many tourists from different regions of the world. From the second half of the 19th century, the process became more intense. Especially during this period, the formation of Photography provided ample opportunities for tourists. In 1885, a large album, a collection of photographs, was published in Paris by photographer Heinrich Mozer. About two hundred photos were collected in a large-scale collection, reflecting the emirate of Bukhara, the Khiva Khanate and various cities of the Turkestan region. During 1868 and 1890, Heinrich Mozer had visited Central Asia four times and participated in exhibitions in Paris, Brussels, Stuttgart, Europe with photographs he painted here. Heinrich Mozer's photographs have been widely used in Europe in the creation of scientific works, works of art and guides about Central Asia. His first adventure journey took him to Turkestan in 1869-70, but he did not reach his original destination in India. His second trip through Central Asia in 1869-70 passed through Tashkent, Samarkand and Bukhara, and his business idea of supplying silkworm eggs to Italy ended in fiasco. After his father's death in 1874, he became more and more interested in oriental rarities and exhibited them for the first time in 1876 in Schaffhausen. He made his biggest and most important trip to Central Asia in 1883, where he was received by the Emir of Bukhara, Khan of Khiva and Shah of Persia. He became known for his oriental collections and travel stories.

G.Mozer worked in the "architectural direction" of photo art, photographing historical-architectural monuments, mainly of the Middle Ages, and was one of the first to seal medieval historical monuments of Uzbekistan into original photographs.

During his visit to Turkestan in 1885-1892, F. Orde photographed classic examples of local residents ' domestic marriage, dress culture, and historic landmark photopaises. Paul Nazar, who traveled to Bukhara and Samarkand in 1890, created photographs in the form of reportage. In his photographs, monuments of Bukhara and Samarkand, household tablets of life, psychological portraits of representatives of local residents are skillfully sealed. European tourists who visited the country in the second half of the 19th century, in photographs, which were the main media of their time, reflected the historical environment of the region, its rich cultural heritage.

In the 19th – early 20th centuries, the visit of mainly free tourists to Central Asia was noted. Most of them traveled for the purpose of scientific research or trade, which they conducted according to their interests. Tourists have left valuable information about the cities here, their crafts, markets, trade and other areas. , Joseph Wolff, who visited Bukhara in 1843-1845, the markets of the city, Henry Lansdel, who visited Samarkand in 1885, paints and fabrics made on the basis of local raw materials, and Eugene Skyler, the US ambassador to Russia, who visited Turkestan in the early 20th century, collected information about the artisans of the city of Tashkent, in particular jewelers.

The famous tourist Sven Heddy, who conducted research in the field of geography, organized six expeditions to Central Asia. The images he took are of great scientific and historical importance and are the basis for new research.

By the end of the 19th – beginning of the 20 centuries, as a result of the development of transport and service infrastructure, wide opportunities for tourism were opened. The creation of the All-Union Joint-Stock Company "Inturist" on April 12, 1929 was the reason for the unification of almost all types of activities in the field of Tourism. "Inturist" is a monopolistic organization in the field of international tourism development, which has offered tourists about 150 routes (routes)throughout the former Union.

According to research, about 100,000 foreign tourists visited the territory of the Soviet state within the framework of this organization between 1929 and 1934, and in 1934-1937 their number reached 700,000 people . From year to year, the number of tourists has increased. One in three tourists are citizens of the United States, and tourists mainly visited in order to study the existing socialistic reality or get acquainted with cultural tourism, that is, historical monuments and museums. In the post-World War II period in 1947-1968, the All-Union Organization "Inturist" made several innovations in the development of tourism infrastructure and the training of qualified personnel. In 1955, a historical event took place in the history of the organization, that is, a special charter was adopted regarding the travel of local citizens abroad. Changes in the development of domestic and foreign tourism began to be evident by 1956. It was during this period that the central tourist areas were visited by five times more foreign tourists than in previous periods.

In conclusion, by the 1950s, the tourism industry around the world was following the path of development. In Uzbekistan, the tourism sector was formed in organizational and economic terms in accordance with the requirements of the Soviet state. During this period, there was an increase in the flow of tourists to Uzbekistan. In addition to traveling to the republic, tourists visited the republic for recreation, treatment, conducting research, holding cultural meetings. The subordination of tourism infrastructure in Uzbekistan, the modern tourism industry to the interests of the Soviet state prevented this industry from becoming an important sector of the economy, despite the natural climatic conditions calculated in important aspects for the development of internal and external tourism in the republic, the scale of ancient architectural monuments, ethnographic and historical specificity, the presence of cultural monuments.

With wide opportunities for the development of tourism in Uzbekistan, they could not be used in the interests of the Uzbek people in the conditions of Central domination. Tourism and communication through it have served as the wheel of progress in all periods, while various knowledge, ideas, experiences, observations and impressions from this background have passed from one region to another, from one people to another, enriching them, the field in question has not been taken seriously. As a result, there were practically no cases of intellectual and material-subject exchange in the development of tourism in the republic.

Used literature and sources

1. Зияева Д. Хориж сайёҳлари Туркистонда тадбиркорлик ҳақида // Мозийдан садо. 2008. №1 (37). –Б. 32–33.
2. Мирзаев Р. Свен Хеддининг Буюк Ипак йўлидаги кашфиётлари // Мозийдан садо. 2004. № 3. – Б. 44.

3. Большая Советская Энциклопедия. Том 43. – М.: Государственное научное издательство БСЭ, 1956. – С. 437.
4. Путрик Ю.С. Истории туризма. – М.: Профиздат, 2014. – С. 202.
5. Pfaff A. Heinrich Moser: Ein Lebensbild / Adam Pfaff. – Schaffhausen: [s.n.], 1875; Официальный сайт компании H. Moser&Cie [Электронный ресурс] // Режим доступа:http://www.h-moser.com/ru/company.
6. Summary of the Results of Dr. Sven Hedin's Latest Journey in Central Asia (1899-1902). Sven Hedin. The Geographical Journal. Vol. 20, No. 3 (Sep., 1902), pp. 307-315 (9 pages). Published By: The Royal Geographical Society (with the Institute of British Geographers)

BOLTAYEV Bobir Baxtiyorovich
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi
dotsenti, t.f.f.d, (PhD)

O‘ZBEKISTONDA XALQARO TALABLARGA MOS MUZEYLARNI SHAKILLANTIRISH OMILLARI

Annotasiya: *Ushbu maqolada 1991 yilda boshlangan va hozirgi kungacha davom etayotgan muzey taraqqiyoti tarixining yangi bosqichi batafsil muhokama qilinadi. Qanday qilib muzeylar rivoji O‘zbekistondagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning aksi emas, balki ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda ma’naviy madaniyatning tiklanish jarayonini muzeylarning o‘z ko‘rgazmalari bilan qo‘shayotgan hissasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ushbu maqolada muzey sanoatining rivojlanish bosqichlari va amalga oshirilgan ishlar, shuningdek, uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni ochib berishga harakat qilinadi .*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekmuzeyi, profil, ekspozitsiya, fond, ko‘rgazma, saqlash, faollashtirish, standart, omil, rejim, tashkil etish, effekt, sahna, ekspeditsiya, badiiy, statsionar, hunarmand, kolleksiya, dizayner, zaxira, muzeyshunos, saqlash.*

Аннотация: *В этой статье подробно речь идёт о новом этапе истории развития музеев, начавшийся с 1991 года до современного времени. Как развитие музеев стало не отражением, а неотъемлемой частью социальных и экономических преобразований Узбекистана. Почти уже сегодня невозможно представить процесс возрождения духовной культуры без того вклада, который вносит музеи своими экспозициями. Кроме того, в данной статье сделано попытка раскрыть этапов развития музейной индустрии и проделанной работы, а также факторы, препятствующие ее развитию.*

Ключевые слова: *Узбекмузей, профиль, экспозиция, фонд, выставка, хранение, активация, стандарт, фактор, режим, организация, эффект, пейзаж, экспедиция, художественный, стационарный, ремесленник, коллекционер, дизайнер, заповедник, музеолог, сохранение.*

Annotation: *This article describes in detail a new stage in the history of the development of museums, which began from 1991 to the present time. How the*

development of museums became not a reflection, but an integral part of the social and economic transformations of Uzbekistan. Almost today, it is impossible to imagine the process of reviving spiritual culture without the contribution that museums make with their expositions. In addition, this article attempts to reveal the stages of development of the museum industry and the work done, as well as the factors that hinder its development.

Key words: *Uzbekmuseum, profile, exposition, fund, exhibition, storage, activation, standard, factor, mode, organization, effect, landscape, expedition, artistic, stationary, artisan, collector, designer, reserve, museologist, preservation.*

O‘zbekistonning mustaqil suveren, demokratik davlat sifatida tiklanishi va rivojlanishi jarayonida ro‘y berayotgan ulkan tarixiy o‘zgarishlardan dalolat beruvchi tarixiy obidalarni bugungi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash haqida g‘amxo‘rlik qilish zarur. Muzey fondlarini saqlashda har xil guruhlardagi harorat va namlik sharoitlarini hisobga olgan holda muzey ashyolarini saqlash uchun eng samarali sharoitlarni yaratishga, havoni ifloslantiruvchi jismlardan himoya qilishga, to‘g‘ri yoritishga, va nihoyat, muzey ashyolarini mexanik shikastlardan himoya qilishga, shu jumladan, zarur hollarda muzey fondlarini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. Zamonaviy muzey ishini jahon va xalqaro tashkilotlar darajasida tashkil etishda ilmiy yordamchi materiallardan foydalanish katta ahamiyatga ega. U maketlar, suratlar, xaritalar, chizma va rejalar, zamonaviy texnika vositalari, audio va video jihozlar orqali tomoshabinga muzey ekspozitsiyasi haqida hikoya qiluvchi voqealarni yanada chuqurroq to‘liq va yorqinroq his etishga yordam beradi. Tarixiy-madaniy yodgorliklarni qayta tiklash va rivojlantirishda, hamda katta kuchga ega bo‘lgan ma’naviyatni insonlarning ongiga singdirishda muzeylarning o‘rni beqiyos. Darhaqiqat, O‘zbekistonda jahon madaniyatining o‘ziga xos an’analarini o‘zida jamlagan hamda saqlashga intilayotgan YUNESKO kabi nufuzli tashkilot himoyasiga olingan qadimiy Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi keng nishonlanishi bu fikrimizning yorqin dalili desak aslo xato qilmaymiz[1,223- bet]. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, O‘zbekistondagi tarixiy obida va qadimiy ziyoratgohlarni sanab o‘tish juda ham qiyin bo‘lgan davlatlar sirasiga mansubdir. Shu kunlarda olimlarimiz tomonidan respublikamizdagi muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida muzeylar faoliyatini rivojlantirishning maxsus bir qancha ilmiy tamoyillari ishlab chiqidi [2, 24-27-betlar] .

O‘zbekiston Respublikasidagi barcha muzeylarning asosiy qismini o‘lkashunoslik, tarix va memorial yo‘nalishdagi muzeylar tashkil etadi. Respublika muzeylari orasida Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlarida joylashgan uchta yirik muzey-qo‘riqxonalari mavjud. Bular Samarqand, Buxoro va Xiva tarixiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonalaridir. Muzeylar tarmog‘iga shuningdek, uchta yirik san’at muzeylari ham kiradi: Tasviriy va xalq amaliy san’atining ajoyib kolleksiyasiga ega

Davlat san’at muzeyi; Rus va o‘zbek xalqining ilg‘or tasviriy san’atining noyob kolleksiyalari, Qoraqalpog‘iston xalq amaliy san’atining nodir kolleksiyalari mavjud Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat xalq amaliy san’ati muzeyi va I.V.Savitskiy nomidagi Davlat san’at muzeyi. Samarqand muzey-qo‘riqxonasining eng qiziqarli kolleksiyasini ta’kidlash joiz. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Farg‘ona, Jizzax viloyatlari va Qo‘qon shahri o‘lkashunoslik muzeylarida ham san’at bo‘limlari tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqa. Respublikaning har bir viloyatida o‘lkashunoslik muzeylari mavjud bo‘lib, ular Toshkent viloyatining bir qator sanoat shaharlari – Angren, Olmaliq, Chirchiqda ham faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘lkashunoslik muzeylarida tabiat bo‘limlari ochilgan bo‘lib, ularning faoliyatida O‘zbekistondagi yagona tabiiy fanlar muzeyi – O‘zbekiston Davlat tabiat muzeyi yordam va ko‘mak berib kelmoqda. Yurtimizdagi deyarli barcha O‘lkashunoslik muzeylarida tarix bo‘limlari yetakchi rol o‘ynaydi, ularda yurtimiz tarixiga oid eksponatlar to‘planadi, tadqiq qilinadi va targ‘ibot ishlari bilan doimiy ravishda uzviy bog‘langan holda olib boriladi.1992 yilda M.T.Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga aylantirildi[6, b.1-4]. Uning tarkibiga sobiq Xalqlar do‘stligi muzeyi, antiqa buyumlar muzeyi va V.I.Lenin nomidagi markaziy muzeyning Toshkent filiali kiritildi. Bugungi kunda vatanimiz tarixining eng qadimiy davriga tegishli boy eksponatlar jamlangan markazlardan biri, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidir [3,34-35-betlar].

O‘zbekistondagi bir qator boshqa muzeylar qatori ushbu muzeyning ham ko‘plab eksponatlari jahon miqyosida shuhrat qozongan. Ushbu muzeylarda bugungi kecha –kunduzda mablag‘larni ilmiy jamg‘arish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish masalalari katta amaliy ahamiyatga ega. Ko‘pincha tarixning tirik guvohlari, o‘tmishning bebaho boyliklari saqlanishining dalillari muzey ashyolarining to‘g‘ri ilmiy hisob-kitoblari, ularni to‘g‘ri tasniflash, ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan talqin qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlarga bog‘liq bo‘lmoqda.

Mustaqillik davrida inson bilimi va faoliyatining turli sohalarini aks ettiruvchi yangi muzeylar paydo bo‘la boshladi. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlariga muvofiq Temuriylar tarixi davlat muzeyi (1996 r.)[4, 5-bet]. Toshkentdagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyi (1996 r.) tashkil etildi[5, 8-12 b]. Ushbu muzeylar tashkil etilganidan keyingi bir necha yil ichida doimiy eksponat va ekspozitsiyalar ochildi, noyob eksponatlar kolleksiyalari to‘plandi, keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi, tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ortib borayotganligi kuzatildi. Mustaqillik yillarida Jizzax viloyatida ham tarixiy muzeylar, Navoiy shahrida tarixiy-o‘lkashunoslik muzeyi, Samarqand shahrida Alisher Navoiy memarial muzeyi, Buxoro shahrida al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, A.Fitrat, F.Xo‘jayev uy-muzeylari, Qo‘qonda esa Muqimiy nomidagi shahar muzeylari ochildi. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Xalq amaliy san’ati muzeyi, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, Samarqand, Buxoro, Xiva muzey-qo‘riqxonalarini rivojlantirish va moliyalashtirish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqildi va amalga oshirish choralari ko‘rildi.

Mustaqillik yillarida jami 35 ta yangi muzey tashkil etilgan bo‘lib bundan tashqari, 1998–1999 va 2001–2018 yillarda muzeylar sonining sezilarli o‘sishi

kuzatish mumkin [7, b.31–33].

O‘zbekiston Respublika “O‘zbekmuzeyi” jamg‘armasi Buxoro muzey-qo‘riqxonasining muzeyga tashrif buyuruvchilar, birinchi navbatda, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun mo‘ljallangan bir qancha kichik formatdagi ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlariga homiylik qildi. Bir paytlar viloyatdan olib chiqib ketilgan, hozirda yaqin va uzoq xorijdagi, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasining qator muzeylarida saqlanayotgan madaniy boyliklarni aniqlash ishlari olib borildi. Respublika Tashqi ishlar vazirligi ko‘magida O‘zbekiston muzeylari ekspozitsiyalarini boyitish maqsadida eng noyob buyumlarning nusxalarini tayyorlash masalalari hal etilildi. Muzey ishida barcha tarixiy davrlar, ayniqsa, mustaqillik davriga oid kolleksiyalarni tizimli ravishda ilmiy jihatdan o‘zlashtirish muhim o‘rin tutadi. Ilmiy ekspeditsiyalar va ko‘rgazmalar o‘tkazish, muzey boyliklarini sotib olish uchun mablag‘lar nihoyatda kam bo‘lsa-da, muzeylar o‘z kolleksiyalarini to‘ldirish imkoniyatlarini ishga solmoqda. Arxeologiya, etnografiya yo‘nalishlariga tegishli zamonaviy voqealarni hujjatlashtirish bo‘yicha dala tadqiqotlari olib borilmoqda, hunarmandlarga oid rassomlarning yangi asarlari ham muzey fondlariga uni boyitish maqsadida sotib olinmoqda . Birgina 1998 yilning o‘zida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi muzeylarga 7544 ta muzey qiymatidagi ashyolar kelib tushgan. 1998 yilda birgina Buxoro muzey-qo‘riqxonasi kolleksiyalariga Poykend manzilgohidan 4185 ta arxeologik va numizmatik ashyolar olib kelib qabul qilib olingan bo‘lib, ular orasida kushon va temuriylar tangalari borligi, alohida kishilarda qiziqish uyg‘otadi. Shahar va umuman viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimida muzeylarning ahamiyati sezilarli darajada o‘zgardi. Iqtisodiyotni markazlashtirish sharoitida turizm industriyasining real foydalari aholining ayrim guruhlari iqtisodiy faoliyatini qayta yo‘naltirishga yordam berdi. Muzey asoschilari orzu qilgan an’anaviy hunarmandchilik va xalq amaliy san’atining tiklanishi dolzarb vazifalar doirasiga o‘tib, haqiqatga aylana boshladi [8,42- bet]. Muzey madaniy-tarixiy muhitning tiklanishiga asos va bu jarayonning katalizatoriga aylandi. Muzey tomonidan to‘plangan mablag‘lar “madaniy ishlab chiqarish”ga jalb qilinib, uni kengaytirish uchun ishlatila boshlandi, yaratilgan huquqiy asoslar esa amalga oshirilgan kaspiy faoliyatning kafolati bo‘lib xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida muzeylardagi vaziyat tubdan o‘zgardi, bir tomondan, muzey faoliyatining asosiy natijalariga e'tibor qaratilgan bo‘lsa, muzey rivojlanishining ushbu bosqichini oldingi bosqichlar bilan taqqoslash imkoniyatini berdi. Agar yangi iqtisodiy shart-sharoitlar joriy etilgan dastlabki yillarda asosan kichik mahalliy muzeylar (100 kv.m.gacha ko‘rgazma maydoni) ochilgan bo‘lsa, 1991 yildan keyin keng ko‘lamli ko‘rgazma obyektlarining rolini oshirishning aniq tendentsiyasi paydo bo‘la boshladi. Bu yuqorida aytganimizdek, muzeyning ma’naviy-ma’rifiy muassasa sifatida ko‘rishda davom etganlarni ishonchini yana bir karra oshirdi va oqladi. Demak, hujjatlarni taqdim etishda ba’zi rasmiyatchilik belgilarining namoyon bo‘lishi, ko‘rgazmalarning yetarli darajada tomoshabin emasligi va natijada ularning past mashhurligi, uni maishiy majmualar bilan to‘ldirish zarurati, ayniqsa, muzeyda arab xattotlik kurslarining ochilishi munosabati bilan keyingi yillarda nafaqat mutaxassislar – tarixchilar,

sharqshunoslar, balki keng jamoatchilik uchun yanada jozibador qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Shunday qilib, taqdim etilayotgan eksponatlar mazmunini idrok etish va baholashga qodir tashrif buyuruvchilar salmog‘i kengaytirildi[f. m- 348 . jild 1. ish. 68, v 253].

Xalq hunarmandchiligiga bag‘ishlangan yangi ko‘rgazmalar, muzeylar, ustaxonalar tashkil etilayotgani hunarmandlarning bir-biri bilan, o‘z mehnatini qadrlay oladigan, o‘z e’tibori bilan qadimiy kasblar nufuzini qo‘llab-quvvatlay oladiganlar bilan uchrashadigan, muloqot qiladigan maskanlarga aylantirdi.[10, 4b] . Bu haqda quyida batafsil to‘xtalib o‘tamiz, ammo hozircha 1991-yilda boshlangan muzeylar tarixidagi yangi bosqich haqiqatan ham o‘ziga xosligini ta’kidlamoqchimiz. Muzeylarning rivojlanishi ko‘zgu emas (ilgari shunga intilishgan), balki mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda ma’naviy madaniyatning yuksalish jarayonini muzeylarning o‘z ko‘rgazmalari bilan qo‘shayotgan hissasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ammo muzeyning madaniy faoliyatini faollashtirishni faqat diniy an'analarni tiklash bilan bog‘lash noto‘g‘ri bo‘ladi, garchi busiz Sharq me'morchiligi, san'ati, adabiyoti, falsafiy tafakkuri va hattoki xalq hunarmandchiligining o‘tmishini ham, kelajagini ham tasavvur qilish qiyin. Davlatimiz rahbarining maxsus qarori qabul qilingandan so‘ng, muzey yodgorliklarni ta’mirlash, yangi doimiy eksponatlar va ko‘rgazmalar ochish, ularni xalqaro standartlarga javob beradigan badiiy dizaynini shakillantirish, obidalarni rekonstruksiya qilish, nashriyot faoliyatini faollashtirish, muzey-qo‘riqxonalarni kompyuterlashtirish bo‘yicha yangi vazifa va uni 2010 yilgacha rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan edi.Xuddi ana shu dasturlar asosida muzey daromad manbalaridan birini nashriyot faoliyatini keng rivojlantirishda ko‘rishimiz mumkin.

Masalan: kataloglar, ilmiy ishlar, sayyohlar orasida talab katta bo‘lgan ommabop adabiyotlar nashr etish o‘z navbatida bukletlar va yo‘l ko‘rsatgichlarini ishlab chiqish shular jumlasiga mansubdir !. Hozirgi kunda respublikamizning juda ko‘p muzeylari homiylarni jalb qilishga, xalqaro tashkilotlardan grantlar yutib olishga, yangi pullik xizmatlar ko‘rsatishga harakat qilib kelmoqdalar[11, 56-58-betlar].Albatta vaqt oliy hakam buning ham samarasi albatta ijobiy o‘z echimini topadi deb o‘ylaymiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda maqolada ko‘tarilgan ko‘plab muammolar o‘z yechimini kutmoqda va kelgusida keng qamrovli, fanlararo va xalqaro tadqiqotlar mavzusi bo‘lishi mumkin. O‘zbekistondagi barcha muzey binolarida, ashyolarni saqlash va o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, eksponatlarni loyihalash va badiiy bezash, kompyuter va orgtexnika bilan ta’minlash kabi o‘lchamlar bo‘yicha barcha xalqaro standartlarga javob beradigan sharoit yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Almeev R.V. O‘zbekiston muzeylari va ularni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy istiqbollari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – P. 287.
2. Almeev R.V. Buxoro muzey shahri. – Toshkent: Fan, 1999. – P. 129 .

3. Садыкова Н.С. Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека // Наука в Узбекистане. Т.П. Общественные науки. Ташкент:Фан, 1974.-(Общ стр.168).Стр-34-35,
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об организации мероприятий по созданию Государственного музея истории Темуридов», от 14 марта 1996 г.. https://lex.uz/docs/397515
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrida Olimpiya shon-shuhrati muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori /1996 y. https://lex.uz/docs/473895
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21 apreldagi “O‘zbekiston tarixi muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori 1992 г. https://lex.uz/docs/424564
7. Альмеев Р.В. Из истории создания и развития Бухарского музея заповедника // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 2000. – № 1. – Стр.83.
8. Альмеев Р.В. Пайкендский семисвечник // Moziydan sado. –№3.Тошкент, 2010.-(Общ стр.65), стр-42.
9. Buxoro muzeyi arxivi . F. M- 348 . yig‘ jil 1. ish. 68, v 253.
10. Гребенюк И. Музей кузнечных ремесел // Народное слово. 1993. 8 января. -С. 4.
11. Sodiqova N.S. O‘zbekistonda muzey ishi. Toshkent: Fan, 1975. – B.300 .

АБДУЛЛАЕВА Нигора Санжаровна
Америка технологиялар университети ректор маслаҳатчиси
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),

ШАРҚ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ ЎЗБЕК КАШТАЧИЛИК ВА ЗАРГАРЛИК БУЮМЛАРИ

Аннотация: *Ўзбекистоннинг бой маданий мероси нафақат юртимиздаги музейлар тўпламларида балки дунёнинг кўплаб нуфузли музейлари ва шахсий коллекцияларидан ҳам жой олган. Мақолада Ўзбекистон маданий меросининг кўплаб намуналари сақланадиган Москвадаги Шарқ давлат музейи коллекцияларидан жой олган каштачилик ва заргарлик буюмларининг тавсифи келтирилиб, уларнинг музейда тўпланиш йўллари ҳақида мулоҳазалар берилган.*

Калит сўзлар: *Шарқ давлат музейи, каштачилик, заргарлик, маданий мерос, сўзана, артефакт.*

Қадимги тош давридан бугунги замонга қадар тарихий тараққиёт жараёнида Ўзбекистон худудида моддий ва бадиий маданиятнинг ўзига хослиги, хусусиятлари ва қонуниятларини акс эттирувчи кўплаб осори атиқалар яратилган. Ўзбекистоннинг ушбу тарихий-маданий мероси ғоят бой ва ранг-барангдир. Унинг катта қисми Ўзбекистондаги давлат музейлари, илмий-тадқиқот институтлари тўпламлари, галереялари ёки архивларида сақланади.

Лекин унинг яна бир салмоқли қисми (булар асосан матолар, замонавий рассомларнинг асарлари, сопол буюмлардир) турли сабабларга кўра, Ўзбекистон ҳудудидан ташқарида – Осиё, Америка, Африка, Европа ва Россиянинг турли музейлари ёки хусусий коллекциячиларнинг фондида сақлаб келинмоқда. Аксарият ҳолларда бу мерос кенг жамоатчилик у ёқда турсин, ҳатто мутахассис олимларга, қадимий, ўрта асрлар ва замонавий тасвирий ва амалий санъат тадқиқотчиларига ҳам дуруст таниш эмас ёки умуман маълум бўлмаган. Бунинг турли сабаблари бор. Жумладан, сиёсий, иқтисодий, айирбошлаш, илмий омилларни, кўп ҳолларда эса фойда кўриш илинжида фақат олибсотарлик мақсадларини бу қаторга киритиш мумкин.

“Ўзбекистоннинг маданий мероси дунё тўпламларида” лойиҳаси Россиядаги Шарқ давлат музейининг ўзбек коллекцияси билан янада яқинроқ танишиш имконини беради, бунга музейнинг мультимедиа материаллари орқали эришиш мумкин[5].

XIX асрдан бошлаб ўзбек газламалари, гиламлари ва кашталари ушбу ҳудудга ташриф буюрган Европа ва Россия сайёҳлари, савдогар, тадқиқотчи ва мусаввирларнинг жиддий эътиборини тортган. Маҳаллий ҳунармандчилик буюмларига ташқаридан бўлган талаб, қолаверса, ҳудудда бозор муносабатларининг аста-секин шаклланиши аёлларнинг сотиш учун гилам ва кашталар кўпроқ тўқиши заруратини келтириб чиқарган. Каштанинг тижоратга айланиши, унинг улгуржи ишлаб чиқарилиши йирик шаҳар марказлари – Шаҳрисабз, Нурота, Бухоро, Самарқанд, Тошкент учун хос бўлган. Шу билан бирга савдода хонадон сандиқларида сақланиб келинган қадимий ашёлар ҳам пайдо бўлган – ташриф буюрувчилар томонидан бу буюмларга бўлган сунъий талаб-таклифни фаоллаштирган. Натижада кўплаб артефактлар ишлаб чиқарилган жойидан узоқлашган. Тижорат соҳасининг жараёнга жалб қилиниши тўқимачилик буюмларидан анъанавийлик пардасини олиб ташлаган – аввалларимуҳим тўй рамзи бўлган гиламлар эндиликда маҳсулотга айланган.

Замонавий дунёда туризмга барча соҳа инфратузилмаларининг ривожланишига бевосита ва билвосита таъсир кўрсатадиган ижтимоий-иқтисодий ҳодиса сифатида қаралади. Жаҳон сайёҳлик ташкилоти (ЖСТ) маълумотларига кўра, бугунги кунда туризм жаҳон иқтисодиётининг юқори даромадли ва динамик ривожланаётган тармоқларидан бири ҳисобланади.

Республикада замонавий, юқори самарали ва рақобатбардош туризм мажмуасини яратиш мақсадида; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-2666-сон Қарори; 2016 йил 2 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-4861-сон Фармони; 2017 йил 16 августдаги “2018–2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3217-сон Қарори, каби қонун ва хужжатлар қабул қилинган.

Республиканинг 1993 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бутунжаҳон сайёҳлик ташкилотига (ЮНВТО) аъзо бўлиши ички туризм йилномасидаги муҳим босқич бўлди. У билан ҳамкорлик 1994 йилда дунёнинг 19 давлати Ипак йўли бўйлаб сайёҳлик бўйича Самарқанд декларациясини, 1999-йилда ЮНВТО, ЮНЕСКО ва Европа Кенгаши томонидан қўллаб-қувватланган Туризм ва маданий меросни сақлаш бўйича Хива декларацияси,

2002-йилда “Ипак йўли бўйлаб туризм тўғрисида”ги Бухоро декларацияси қабул қилинди.

Ўзбекистон тарихи давлат музейи ва Украина Республикаси улуғ ватан уруши тарихи давлат музейи билан хамкорликда “II жахон уруши даврида Ўзбекистон ахолисининг хаёти ва ғалабага қўшган хиссаси” мавзусида музей архив фонди ашёлари асосида кўргазма ташкил этилди.

1960 йили Ўзбекистон тарихи давлат музейи илмий ходими, археолог Лазарь Израилевич Альбаум Сурхандарё вилоятининг Термиз, Ангор, Шеробод, Янгиариқ, Жарқўрғон, Шўрчи ва Саросиё туманларида археологик объектларнинг текширув ишларини олиб боради. Бу археологик экспедиция таркибига Л.И.Альбаумдан ташқари В.А.Нильсен, В.А.Козловский ва топограф А.Шукуровлар кирган.

Л.И.Альбаум Санъатшунослик институти илмий ходими Б.А.Турғунов, Токиодаги СОКА университети профессори археолог олим Кюдзо Като билан бирга ўзбек – япон қўшма археологик экспедициясига асос соладилар ва Далварзинтепа ёдгорлигида қазишма ишларини олиб борадилар.

1955 йили Гарвард университети “John S. Scheberlein – Engel. Guide to Scholars of the History and Kulture of Central Asia. Harvard University/ Cambridge. 1955. year” Ўрта Осиё тарихи ва маданияти билан шуғулланувчи олимлар рўйхатида археолог, илмий ходим, тарих фанлари номзоди Л.И.Альбаум номини хам эълон қилади.

Л.И.Альбаум немис профессори Б.Б.Брентьес билан немис тилида “Wachter des qoldes Zur Geschichte und Kultur mittelasiatischer Volker vor dem Islam” (Berlin 1972) ва “Herren der Steppe. Zur Geschichte und Kultur mittelasiatischer Volker islamischer Zeit” (Berlin 1976) ислом кириб келшунча ва ислом даври археологиясига бағишланган илмий асарларини хамкорликда эълон қилган.

Кейинчалик ушбу китоблар Японияда япон тилига таржима қилиниб 1980 йили нашр этилган. 1982 йили эса Польшада поляк тилида ўқувчиларга тақдим этилган. 1980 йили япониялик ўқувчиларга шунингдек рус тилида нашр қилинган “Живопись Афрасиаба” китоби япон тилига таржима қилиниб нашр этилган.

Совет хукуматининг ташаббуси билан “совет музейларининг 100 асори атикалари” каторидан Ўзбекистон халқлари тарихи музейининг тош илон ва иккита тоғ эчкиси тасвири ва инсон тасвири тоғ парчасида ўрин олган. Бу экспонатлар Япониянинг Токио шахрида 1971 йили “Нихон Кейдзай” газетаси ва Энзейден жанобларини ташаббуси билан намойиш этилган.

Музейнинг бир қатор ашё ва экспонатлари 1971 йили Япониянинг Токио шахрида, 1972 йили АҚШнинг Нью-Йорк шахрида, 1975 йили Бельгиянинг Брюссель шахрида, 1976 йили Германия Демократик Республикасининг Ганновер ва Лейпциг шахарларида кўргазмаларда қатнашади ва халқаро миқёсида эътироф этилади.1984 йили Финландиянинг Хелсинки шахрида, 1985 йили Япониянинг Осака шахрида Эрмитаж музейи билан хамкорликда археологик ва асосан буддизм тарихи бағишланган катта кўргазмаларга тайёргарлик ишлари амалга оширилади.

Ундан ташқари айнан шу йилларда хориждан музейда малака ошириш учун ёки музей фондларидан фойдаланиш учун илмий ходимлар ташрифларини кузатишимиз мумкин. Масалан АҚШнинг Смит қизлари колледжининг илмий тадқиқотчиси Джоан Афферик хоним, Афғонистон Араб Республикасидан доктор Мухаммад Шаркий, Афғонистон Араб Республикасидан музейлар департаменти директори доктор Мухаммад Анвар Катаванжи, Венгриялик олимлар Миклаш Габари ва Вера Габари Чанк, Туркиялик профессор Гюнюль Оней каби тадқиқотчи, Японияниг Осака шахрида жойлашган "Этнография" музейининг илмий ходилари каби олим, давлат арбоблари музейнинг фаолияти ва илмий салохияти билан яқиндан танишганлар.

Ойбек номидаги Ўзбекистон халқлари тарихи музейи илмий кенгашининг 1975 йил 19 августида № 15 сонли баённомасида 35 номдаги 70 та музей экспонатларини Бельгиянинг Брюссель шахрида ташкил этилаётган "Совет Ўзбекистони" номли кўргазмада иштирок этиш масалалари кўриб чиқилади.

Ойбек номидаги Ўзбекистон халқлари тарихи музейи билан бирга Ўзбекистон музейлари экспонатларининг умумий оғирлиги 5 тоннани ташкил этган. 1975 йилнинг 14 сентябрида экспонатлар Тошкентдан Москвага, Москвадан Брюселльга етиб борган. Кўргазма 1975 йилнинг 23 сентябр соат 18.00 очилган. 1975 йилнинг 12 октябр куни кўргазма ёпилган. Кўргазманинг умумий майдони 1200 квадрат метрни ташкил этган.

1975 йилнинг 19 октябр куни экспонатлар Брюссель – Москва – Тошкент йўналишида музейга қайтиб келган.

1980 йили ЮНЕСКО нинг юбилей тантаналари Францияниг Париж шахрида ўтказилади. Ўзбекистондан Тошкент шахрида жойлашган Ойбек номидаги Ўзбекистон халқлари тарихи музейи танланади. Музей илмий кенгашининг тавсияси билан кўргазмада 42 та номдаги экспонат ва ноёб ашёлар Франция пойтахти Париж шахрида кўргазмада қатнашади.

1971 йилнинг август – сентябрь ойларида Францияниг Париж шахрида ИКОМ нинг 9 генерал ассомблеясида музей директори Н.С.Садикова қатнашади. Музейга вақтинча рахбар этиб бўлим бошлиғи М.Султонова тайинланади. ИКОМ 9 генерал ассомблеяси "Музей инсон хизматида: бугун ва эртага" мавзуси танланади.

1980 йилнинг 25 октябиридан – 5 ноябригача Мексиканинг Мехико шахрида бўлиб ўтган ИКОМнинг 12 генерал ассомблеясида қатнашган. Генерал ассомблея ишида собиқ иттифокдан 38 делегат қатнашиш истагини билдиради, лекин фақат 24 делегатга ассоблея ишида қатнашиш хуқуқи берилади.

Ўзбекистон тарихи давлат музейи экспонатлари Германия Федератив Республикасининг Ганновер шахридаги ЭКСПО 2000 халқаро кўргазмасида Ўзбекистон музейлари қаторида Ўзбекистон тарихи давлат музейи хам 1000 яқин ашё ва экспонатлари билан қатнашган.

ИКОМ (International Council of Muzeums, инғл. ICOM) – нодавлат касбий халқаро ташкилот 1946 йилда Парижда (Франция) ташкил топган.

ИКОМнинг 141 мамлакатда 45 000 дан ортиқ аъзоси бор.

1977 йилдан бутун дунёда анъанавий тарзда 18 май “Халқаро музейлар куни” сифатида кенг нишонланиб келинмоқда. Бу ҳақда “Халқаро музейлар маслаҳати” (International Council of Museums, ICOM) ташкилотининг 1977 йилдаги йиғилишида қарор қабул қилинган.

Жумладан 1971 йили 27 май куни собиқ иттифоқ ва Миср араб республикаси билан дўстлик алоқалари ўрнатилади. Ойбек номидаги Ўзбекистон халқлари тарихи музейида хам Миср араб республикаси билан дўстлик комитети тузилади. Ушбу комитет таркибига А.М.Акрамов, Л.Г.Левтеева, К.Турсуналиев, Х.Д.Садиқов, ва О.Б.Спейскийлар аъзо қилиб сайланади.

2003 йилнинг апрель ойида Нью-Йорк шахридаги «Гиламлар тарихи санъати» мавзусидаги кўргазмада музей ўз экспонатлари билан иштирок этди. Музей «Буюк ипак йўли ва унинг мероси» номли кўргазмада иштирок этди (Япония).

2003 йил май ойида Ўзбекистон тарихи давлат музейининг ноёб экспонатларидан бири хисобланган икки бошли илон тош тумор экспонати АҚШ нинг Нью-Йорк шахридаги Метрополитен музейида ташкил этилган “Илк шахарлар санъати” кўргазмасида (май-август) иштирок этди.

2007 йилда Корея Республикасининг Корейс миллий либослар ташкилоти билан биргаликда “Корея миллий либослари” кўргазмаси очилди.

2009 йил 16 ноябридан 2010 йил 26 сентябрига қадар Корея Республикаси Миллий музейда “Ўзбекистоннинг қадимий маданияти” номли кўргазма муваффақиятли намойиш этилди. Ушбу кўргазмада Ўзбекистон тарихи давлат музейдан жами 52 та экспонатлар намойиш этилган.

2011 йилнинг 14-16 июнь кунлари ЮНЕСКОнинг Тошкент шахридаги бўлими томонидан ташкил этилган **“Музейда археология ва этнография: тўплаш, ҳужжатлаштириш ва интерпретация муаммолари”** тренинги бўлиб ўтди.

Тренинг Россиянинг халқаро экспертлари Россия ФА Антропология ва этнография музейи директори Ю.Купина ва Санкт-Петербург Давлат Университети тарих музейи директори И.Тихоновлар иштирокида ўзаро фикр алмашинувлар ва музокаралар тарзида ўтказилди.

Япония Фонди ва Ўзбекистон тарихи давлат музейи ҳамкорликда “Ўзбекистонда инсон ресурслари ва маданий мерос мухофазаси” бўйича 2012 йилнинг 21 сентябридан 3 октябригача илмий амалий тренинг ташкил этилди. Ушбу тренингда Япониялик мутахасислар – проф. Аоки Сигеро (Бутун жаҳон маданий мероси факультети, Сайба Университет), доктор Фурошо Хироаки (Комадзава Университети) ва доктор Хаякава Ясухиро (Илмий тадқиқот бўлими, Консервация маркази, Токио маданий ёдгорликлар институти) ўз маърузалари билан иштирок этдилар.

Тренинг республика миқиёсида 15 та ёш археолог, реставратор ва музейшунослар иштирок этди. 11 кун давом этган тренингда ёш мутахасислар Фаёз-тепа буддавийлик ибодатхонасидан топилган лойдан ишланган хайкалларни консервация, тозалаш, таъмирлаш ҳамда уларни тадқиқ этиш

жараёнидан қандай ҳужжатлаштириш ва флурицент рентген нурлари орқали анализлар олиш усуллари билан яқиндан танишишди.

Музей ўз экспонатлари билан Швейцария (Давос), Малайзия (Куала-Лумпур), Франция (Париж), Германия (Ганновер), АҚШ (Нью-Йорк, Вашингтон, Пенсильвания), “Лувр” Париж Франция, Берлин Германия, Жидда Саудия Арабистони, Пекин Хитой, Сеул Жанубий Кореяда ўтказилган хорижий кўргазмаларда иштирок этди.

Музей ходимлари чет элдаги бир қатор йирик музейларда: Корея (Корея Миллий музейи, Сеул); Германия (Германия Археология институти, Берлин), Япония (Миллий Табиатшунослик музейи, Токио), Миср (Маданият вазирлиги, Қоҳира)да бўлиб, тажриба орттирдилар.

2014 йил 3 сентябрь куни Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 23 йиллигига бағишлаб “Ариранг – Кореянинг қалби!” номли кўргазма очилди. Кўргазма Корея Республикасининг Ўзбекистондаги элчихонаси, Чонсон илмий-тадқиқот институти, Корея Миллий Этнография музейи билан ҳамкорликда ташкил этилган.

Корея Республикаси Миллий этнография музейи, Чикаго университети Шарқ институти, ХХР Шанхай музейи, ХХР Лоян музейи, Токио университети музейи, Уммон Султонлиги Миллий музейи, Қозоғистон Миллий музейи, Давлат Эрмитажи (Санкт-Петербург), Россия Фанлар академиясининг Археология институти, Россия Фанлар академияси Узоқ Шарқ бўлимининг Узоқ Шарқ халқлари тарихи, археологияси ва этнографияси институти, Беларусь Республикасининг Миллий рассомлик музейи (Минск), Қирғизистон Миллий Музейи ва бошқалар билан ўзаро англашув ва ҳамкорлик тўғрисида меморандумлар имзоланди.

2013 йилда ЎзР Фанлар академияси, Я.Ғуломов номидаги Археологик тадқиқотлар институти билан Хитой Халқ Республикасининг Шаньси провинциясидаги Шимоли-ғарбий университетининг Археология бўлими ўртасида ўзаро ҳамкорлик шартномасини имзоланди. Шартномага кўра 2015 йилда Самарқанд вилояти Нуробод туманидаги Сазаған қишлоғидаги мозор-қўрғонларни ўрганишдан бошланган ва 2017 йили Сурхондарё вилояти Бойсун туманидаги Работ ёдгорлигида қазишмалар олиб борилди ва ушбу қазишмаларнинг натижасида “Юэчжи ва қанғларнинг археологик аниқланиши” номли кўргазма Ўзбекистон Фанлар Академияси Археологик тадқиқотлар институти, Хитой шимоли-ғарбий университети билан ҳамкорликда ташкиллаштирилди. Ушбу кўргазмада қабрлардан марҳумларнинг ҳаётлик даврида фойдаланган турли туман меҳнат ва ов қуроллари, тошлардан ясалган тақинчоқлар, заргарлик буюмлари, кулолчилик маҳсулотлари топилган. 2019 йил 22 февраль.

Ўзбекистон республикаси фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи ҳамда Чикаго университетининг шарқ институти ўртасида 2018 йил 3 апрел куни англашув меморандуми имзоланган.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи ва Мўғулистон Фанлар академияси Тарих ва археология институти (АСМ) ўртасида ҳамкорлик меморандумига 2018 йил имзо

чекдилар.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи ва Хитой Халқ Республикасининг Шанхай музейи билан ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш мақсадида 2018 йилнинг май ойида англашув меморандуми имзолаган.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи ҳамда Хитой Халқ Республикасининг ижтимоий фанлар академияси Археология институти ўртасида ўзаро ҳамкорлик тўғрисида 2019 йилнинг 4 январ куни ахдлашув меморандум имзоланди.

Ўзбекистон фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи (Ўзбекистон Республикаси) директори Исмоилова Жаннат Ҳамидовна Лоянг музейи (Хитой Халқ Республикаси) директор Хие Хужун 2019 йилнинг 7 март куни ўзаро ахдлашув меморандумни туздилар.

Шу келишув асосида Хитой халқ республикаси Лоян шахар тарих музейи билан хамкорликда кўргазма ташкил этилади. “Бухорога қайтиш: Тан сулоласи ҳукмронлиги даврига оид генерал Ан Пу ва унинг рафиқаси қабридан топилган тарихий-маданий мерос” номли кўргазма Хитой Халқ Республикаси Лоян шахри музейи билан ҳамкорликда ташкил этилди ва у 2019 йил 20 июндан 20 сентябргача давом этди.

Ўзбекистон Респбликаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги “2021 йилда Лувр музейида (Париж шахри) Ўзбекистон музей экспонатлари кўргазмаси ўтказилишини ташкил этиш ҳамда хорижда Ўзбекистон музей фондларининг самарали намойиш қилинишига шароитлар яратиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 331-Ф-5455-сон фармойиши.

2024 йил 14 январь кунига қадар давом этадиган кўргазмада Германиянинг Берлин давлат музейлари тўпламларидан 65 та ва Ўзбекистон музейлари тўпламларидан 285 та экспонат намойишга қўйилган.

2023 йилнинг ноябридан 2024 йилнинг январь ойигача Пекиндаги “Гугун” Император саройи музейида “Бир макон, бир йўл” анжумани доирасида Маданий мерос ва археология соҳасида “Бир макон, бир йўл” ҳамкорлиги” номли археологик кўргазма очилди.

У ерда Ўзбекистон Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи ва Санъатшунослик институти тўпламларида сақланаётган 18 та экспонат намойиш этилмоқда.

2019 йилнинг 14 март куни Ўзбекистон тарихи давлат музейи ва Умон султонлиги миллий музейи ўртасида маданий-маърифий ва музей сохаларида ўзаро алоқаларни яхшилаш бошқа вазифаларни ўз ичига олувчи ахдлашув меморандумининг асосий вазифалари келишилган холда имзоланди.

Беларус Республикаси Миллий санъат музейи бош директор В.И.Прокопцов ва Ўзбекистон фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи директор Ж.Х.Исмоилова 2019 йилнинг август ойида самарали ҳамкорлик қилиш бўйича томонларнинг бир неча таклифлари бўйича ўзаро ахдлашув мкмарандумини имзоладилар.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи ва Россия Фанлар академиясининг Узоқ Шарқ халқлари тарих,

археология ва этнография институти бўлими ўртасида ўзаро ёрдам тўғрисида томонлар келишиб олдилар.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи дунёдаги талаб юқори музейлардан бири бўлишни ва одамларга замонавий Ўзбекистон ҳудудидаги инсоният тамаддуни тарихини кашф этиш имконини беришни, Ўзбекистонда XXI аср инновацион музей мажмуасини яратишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган.

Хуллас Ўзбекистон тарихи давлат музейининг халқаро алоқалари XX аср давомида ва XXI асрнинг илк йилларида жадал ривожланди. Ўзбекистон Республикасининг энг йирик илмий маърифий маскани сифатида музей рахбарияти ва илмий ходимлари бутун дунёга тарихимизнинг беқиёс сахифаларини томошабинларга ашё ва экспонатлар орқали етказиб келмоқдалар ва бу ишлар яқин келажакда самарали давом этади деган фикрдаман.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ;

1. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. “Музей, где хранятся реликвии истории”. “Premier Print”. Тошкент. 2014 йил. 83 – 87 бетлар.
2. “Ўзбекистон маданий мероси Ўзбекистон тарихи давлат музейи тўплами иккинчи қисм. Этнографик фонд. Тарих ёдгорликлари сақланаётган маскан”. XXVII китоб. Тошкент. 2020 йил. 13 – 15 бетлар.
3. А.Сотиволдиев. Н.Хасанов. “История в документах”. “Правда востока”. Тошкент. 1989 йил. 23 июль сони.
4. Минасянц В.С. “Лазарь Израилевич Альбаум интуиция и счастье поиска” Т. “Фан ва технологиялари нашриёт матбаа уйи” 2023 йил. 25 – 28 бетлар.
5. В.Спрешевский “Заморское путешествие”. “Правда вастока” №222. 4 стр. 20 сентября 1973 года
6. Ўз.ФА архиви 2 – опись. 59 - фонд, 218 - иш, 71 бет. “Паспорт музея и справка о деятельности музея 1971-1983 годах.”
7. Ўз.ФА архиви 2 – опись. 59 - фонд, 293 - иш, 150 бет. “Протоколы ученного совета музея. 1975 год. 11 января”
8. Ўз.ФА архиви 2 – опись. 59 - фонд, 307 - иш, 36 бет. “Матереалы международного выстовки. 1975 год.”
9. Ўз.ФА архиви 2 – опись. 59 - фонд, 456 - иш, 29 бет. “Матереалы для экспонирование в Парижское выстовке. 1980 год.”
10. Ўз.ФА архиви 1 – опись. 59 - фонд, 122 - иш, 53 – 55бетлар. 161 бет. “Материалы по конгрессам международного совета музеев. 1966 год.”
11. Ўз.ФА архиви 2 – опись. 59 - фонд, 5 - иш, 225 бет. “Приказы директора музея. 1958 год. 8 февраля.”
12. Ўз.ФА архиви 2 – опись. 59 - фонд, 610 - иш, 49 – 51 бетлар. 123 бет. “Годовые отчеты по грантам 1994 – 2002 г.” 1994 год.

BADALOV Akbar

MAMMADOV Emin
National Academy of Sciences of Azerbaijan
Institute of Archaeology and Anthropology
Doctor of Philosophy in History dosent
akb_badalov@mail.ru
emint82@mail.ru

TRADE AND CULTURAL RELATIONS OF ATROPATENE AND CAUCASIAN ALBANIA WITH THE MIDDLE EAST

Abstract:*The presence of a significant number of archaeological artefacts discovered in Azerbaijan provides substantial evidence for the close cultural and historical connections between ancient Azerbaijan and the Middle Eastern region. These connections, which have persisted over many centuries, have facilitated the exchange of cultural values and moral principles, contributing to the development of civilisations in the Caucasus and the Middle East.*

Keywords: *Atropatene, Caucasian Albania, numismatics, trade.*

Аннотация: *Наличие значительного количества археологических артефактов, обнаруженных на территории Азербайджана, является весомым доказательством тесных культурно-исторических связей между древним Азербайджаном и ближневосточным регионом. Эти связи, сохранявшиеся на протяжении многих веков, способствовали обмену культурными ценностями и моральными принципами, способствуя развитию цивилизаций на Кавказе и Ближнем Востоке.*

Ключевые слова: *Атропатена, Кавказская Албания, нумизматика, торговля.*

Archaeological research in Azerbaijan has yielded substantial evidence that substantiates the vigorous commercial and cultural exchange between Atropatene and Caucasian Albania with the Middle East. The system of international trade routes known as the ‘Great Silk Road’ operated from the late 2nd century B.C. to the 16th century. It crossed a large geographical area, stretching from China in the east to North Africa and Spain in the west, and facilitated the interaction of heterogeneous populations characterised by significant differences in customs, rituals, forms and levels of cultural development.

Long before the emergence of the Silk Road, human communities inhabiting different geographical regions and possessing contrasting natural resources were capable of producing certain goods, the surplus of which could be traded. For example, archaeological evidence shows that as early as the Upper Paleolithic, people were transporting volcanic glass (obsidian) and flint over long distances, often hundreds of kilometres, to make tools and weapons.

Subsequently, as the social division of labour intensified, the hitherto sporadic

interactions between these groups gradually became more regular. This process was greatly influenced by the development of metal technology, the improvement of tools of production, the diversification of commodities, the emergence of class societies and the rise of states, especially cities, which served not only as political, administrative and cultural centres, but also as centres of craft production and trade.

Obviously, certain geographical regions have historically played a key role in the context of international relations, and this phenomenon can be explained by their strategic position. Such regions include the territory of Azerbaijan, which serves as a channel for the transport of goods and people between Europe and Asia, as well as between the northern steppes and the countries of the Ancient East. In addition, the Caspian region occupies a strategically favourable position, facilitating trade and transport between the Caspian region and the Black Sea region.

Archaeological finds show that the tribes inhabiting the territory of Azerbaijan in the 6th-4th millennia B.C. entered into various interactions with neighbouring regions and ancient Eastern countries [Narimanov. 1987. C. 158-164]. The development of metalworking, in particular bronze and iron smelting, and the presence of rich deposits of these metals in the Caucasus led to a significant expansion of trade relations. Archaeological studies have shown that in the IV-III millennia B.C. some groups of the Ubeid and even more Uruk archaeological cultures of Mesopotamia migrated to the Caucasus. According to the researchers' hypothesis, the main motive for these settlers was the presence of significant metal deposits in this region [Munchayev. 2007. C. 8-9].

After the military campaign of Alexander the Great to the East in 334-324 BC, international trade relations developed rapidly. From that time until the second third of the first century B.C. there was a synthesis of Greek culture with the culture of the East. In the annals of the Mediterranean and the Near East this epoch is recognised as Hellenistic. This period was characterised by profound transformations in all spheres of society, the emergence of new forms of government and urban centres. A notable aspect of this era was the emergence of global trade, which covered all countries of the world known at that time.

Towards the end of the second century BC, a route from China was included in the network of trade routes that characterised the Hellenistic world. This event subsequently led to this route being referred to in historical discourse as the ‘Great Silk Road’. This event occurred during the reign of Mithridates II (124-87 BC) in Parthia. Mithridates II is considered the first king in world history to maintain diplomatic relations with both Rome in the West and China in the East. He received the first Chinese ambassador to Parthia. The Parthian state, which existed until 224 AD, was a central link in the global trade network. Trade with China was conducted during this period, exchanging goods such as silk, paper, lacquer and other handicrafts.

During this period, the Great Silk Road facilitated trade and cultural exchange between the four major empires: Roman, Parthian, Kushan, and Han (China). Subsequent medieval empires, including the Sassanid, Byzantine, Arab Caliphate and Mongol empires, also played an important role in the functioning of the Silk Road. The development of international trade has been of interest to all states and

nations, both in ancient and modern times. In the Hellenistic period, two states emerged on the territory of Azerbaijan: Albania in the north and Atropatene in the south, which was accompanied by the development of numerous cities. The development of transit trade routes through the territory of Azerbaijan played a significant role in the emergence of these states, as well as in the subsequent development of crafts and trade [Babayev. 1998. C.16-30].

In ancient times, numerous dynamic branches of the Great Silk Road passed through the territory of Azerbaijan. Ancient Greek and Roman authors provide some information about these routes. For example, Strabo, a writer of the first century AD, recorded three routes passing through Albania (Strab., XV, B, 8; III, 5; IV, 5; VII, 3). One of these routes is believed to have travelled along the western coast of the Caspian Sea from south to north, and another led to Iberia (modern Georgia). The third route is known to have been a waterway that transported Indian goods along the Oxus (Amu Darya), the Caspian Sea and the Kura River, partly continuing overland to the Black Sea region. This waterway is also documented by the Roman author Pliny the Elder in his encyclopaedic work Naturalis Historia (Plin., NN, V, 52). The caravan route along the western coast of the Caspian Sea was also mentioned by the author of the II century AD Claudius Elianus. In particular, he wrote that Caspians living in the territory of Northern Azerbaijan salted and dried fish and transported it to Ecbatana on camels. It was also recorded that high quality glue was obtained from fish entrails (El. XVII, 17). Subsequently, medieval authors mentioned transit trade routes passing through the territory of Azerbaijan.

The existence of these trade routes and trade links of Azerbaijan in the ancient and medieval periods is evidenced by numerous imported objects found during archaeological excavations. These are toreutics, gliptics used mainly as seals, separate glazed vessels, beads made of glass, Egyptian paste, fire-red Indian carnelian, mother-of-pearl, cowrie shells, various fibulae of Roman manufacture, ivory figurines, chalcedony figureheads, faience pendants in the form of scarabs, hands and many others. Numerous scientific articles and monographs are devoted to these finds [Aslanov. 1965. C. 94-102; Khalilov. 1985. C.183-187; Koshkarly. 1985; Davudov. 1996; Gadzhiev. 1997; Rasulova. 2008].

Numerous imported coins, found both as large hoards and in single specimens, testify to Azerbaijan's trade links in antiquity. Among the imported coins are coins of Alexander the Great, Thracian king Lysimachus, Greek-Bactyrian kings, as well as kings of Parthia, Egypt, Roman coins of the republican and imperial periods [Pakhomov. 1962. C. 106-112].

The Roman inscription of 84-96 AD in Gobustan and the Greek inscription of the 2nd century AD, found in the Sheki district, are of significant interest for determining the direction of transit routes that passed through the territory of Albania in the ancient era. The inscriptions were left by Roman centurion of the twelfth legion Julius Maximus and Greek Ailius Jason [Trever. 1959. P. 339-346].

Archaeological discoveries demonstrate that Atropatene and Caucasian Albania were integrated into the system of international trade and cultural exchange, with imported goods (ceramics, glass, metal products) and technologies (construction, craftsmanship) testifying to close ties with the Middle East. In

addition, coin and jewellery finds indicate the economic and cultural influence of the Parthian and Sassanid empires.

The presence of archaeological materials in Azerbaijan substantiates the pivotal role played by Atropatene and Caucasian Albania in facilitating transit trade and cultural exchange between the Caucasus and the Middle East. These historical connections have been identified as a significant catalyst for the evolution of local crafts, architecture and religious practices, thereby imprinting a distinctive historical imprint on the region.

References:

Aslanov G. General characteristics of glyptic monuments found during excavations in Mingechevir // Bulletin of the Academy of Sciences of the Azerbaijan SSR Series of General Sciences, No. 2. - Baku, 1965.; Khalilov J. Material culture of Caucasian Albania (4th century BC - 3rd century BC). Baku, 183-187; Koshkarly K. Ancient and early medieval toreutics of Azerbaijan. Baku, 1985; Davudov O. Material culture of Dagestan of the Albanian period (3rd century BC - 4th century AD). Makhachkala, 1996; Gadzhiev M. Between Europe and Asia. From the history of trade relations of Dagestan in the Albanian-Sarmatian period. Makhachkala. 1997; Rasulova M. Trade, economic and cultural relations of Caucasian Albania with the ancient and Hellenistic world: 4th century BC - 3rd century AD. Baku, 2008.

Babayev I. The Great Silk Road and Azerbaijan. Yesterday, Today, Tomorrow / Collection of articles dedicated to the International Conference on the Development of the Europe-Caucasus-Asia Transport Corridor. - Baku, 1998.

Munchaev R. Uruk culture (Mesopotamia) and the Caucasus / In the book: Archaeology, ethnography and folklore of the Caucasus // The latest archaeological and ethnographic research in the Caucasus: Proceedings of the international scientific conference. Makhachkala, 2007.

Narimanov I. Culture of the most ancient agricultural and pastoral population of Azerbaijan (Eneolithic era of the 6th-4th millennia BC). – Baku. 1987.

Pakhomov E. Antique coins of Albania as part of the Azerbaijan SSR // Questions of the history of Caucasian Albania. Baku: Academy of Sciences of the Azerbaijan SSR, 1962.

Trever K. Essays on the history and culture of Caucasian Albania IV century BC - VII century AD - M.-L.: Publishing House of the USSR Academy of Sciences, 1959.

КАСИМОВА Шахноза
Музейшунослик кафедраси доценти

ЗАМОНАВИЙ МУЗЕЙШУНОСЛИКДА БРЕНДИНГ ТУШУНЧАСИ

Аннотация: *Мақолада замонавий музейни тарғиб қилиш ва музей имиджини янгилаш стратегиясини ишлаб чиқиш учун брендлаш имкониятлари кўриб чиқилган, музей брендингининг асосий таркибий қисмлари ва замонавий амалиётдан мисоллар келтирилган. Музей бренди билан доимий равишда ҳар томонлама ишлаш унинг барқарор ривожланиши ва замонавий маданий маконда рақобатбардошлиги кафолати эканлиги аниқ маълумотлар орқали кўрсатиб берилган.*

Калит сўзлар: *музей, брендинг, имидж, айдентика, музей бренди, логотип дизайни, музей экспозицияси.*

Аннотация: *В статье рассматриваются возможности брендинга для разработки стратегии продвижения современного музея и обновления музейного образа, представлены основные компоненты музейного брендинга и примеры из современной практики. Установлено, что постоянная комплексная работа с брендом музея является гарантом его устойчивого развития и конкурентоспособности в современном культурном пространстве.*

Ключевые слова: *музей, брендинг, имидж, айдентика, музейный бренд, дизайн логотипа, музейная экспозиция.*

Annotation: *The article examines the possibilities of branding to develop a strategy for promoting a modern museum and updating the museum's image, presents the main components of museum branding and examples from modern practice. It has been established that constant comprehensive work with the museum's brand is a guarantee of its sustainable development and competitiveness in the modern cultural space.*

Keywords: *museum, branding, image, identity, museum brand, logo design, museum exhibition.*

Музейнинг маданий маконда максимал кенг жамоатчилик учун мўлжалланган муассаса сифатида замонавий позицияланиши “бренд” каби маркетинг илгари суриш воситаси билан ишлашга замин яратди. Айни пайтда брендни ривожлантириш, шакллантириш ва илгари суриш масаласи бутун дунё музейлари учун муҳим аҳамиятга эга. Бренднинг кўпгина таърифлари мавжуд, уларнинг деярли барчаси “савдо белгиси” ва “маҳсулотнинг комплекс рамзи” каби тушунчаларни ўз ичига олади. “Бренд” тушунчаси ушбу номнинг образлар, ғоялар ва эмоциялар тўпламида ифодаланган жамоавий идрок этилишини ўз ичига олади. Бренд орқали аудиторияга истеъмолчида маълум бир маҳсулот ёки хизматдан фойдаланиш истагига таъсир қилувчи маълум ассоциацияларни уйғотадиган хабар узатилади.

Брендинг – бу брендни бошқариш жараёни. Музей амалиётига нисбатан ушбу тушунчани музей қиёфаси ва музей маҳсулотини яратиш, сақлаш ва

оммалаштиришга қаратилган кўп компонентли узоқ муддатли фаолият деб таърифлаш мумкин.

“Бренд” атамаси профессионал музей ҳамжамияти томонидан дарҳол қабул қилинмади. “Музей” тушунчаси институционал даҳлсизлик билан, “бренд” эса фақат тижорат фаолияти билан боғланар эди. Тарафдорлар ўз нуқтаи назарларини ҳимоя қилишда музей даромадининг ҳамда манфаатдор томонлар иштирокининг ошиши, музей амалиётининг янги тажрибасининг тўпланиши, музейнинг яшовчанлиги, жамият учун аҳамиятининг сақланиши ва ошиши каби далилларни келтиришган.

Замонавий жаҳон музей ҳамжамияти музейни илгари суриш учун брендниг муҳимлигини тан олади. Музей брендини бошқариш жараёни ИКОМ Халқаро маркетинг ва жамоатчилик билан алоқалар бўйича қўмитаси томонидан 2014 йилдаги “Музей брендинги. XXI-асрда “музейлар” тушунчасини қайта кўриб чиқиш” конференциясида кўриб чиқилган. Бу ерда йирик миллий музейлар ва галереялар ҳамда минтақавий муассасаларнинг музей қиёфасини янгилаш бўйича мисоллари тақдим этилган. Конференция ташкилотчиларининг табрик нутқида айнан брендинг қадриятларни таъминлаган ҳамда ўз долзарблигини сақлаган ҳолда музей ташкилотлари идентиклигининг янгиланишида ҳал қилувчи рол ўйнаши таъкидланди. У музейларнинг бутун операцион фаолиятини қайта англаш жараёнини бошлаб беради [1].

Музей брендини ривожлантириш ва илгари суриш стратегиясини қуриш кўп поғонали, узоқ муддатли ва пухта ўйланган жараён ва шу билан бирга ташкилотнинг муҳим алоқа канали ҳамдир. Бренд корпоратив идентиклик ҳақидаги битта тушунарли хабарни ҳамда музей билан боғлиқ барча нарсаларни ҳамма манфаатдор томонларга – ташриф буюрувчилар, шериклар, оммавий ахборот воситалари, ходимларга илгари суради [2]. У мувофиқлаштирувчи ресурс сифатида иштирок этиши ва ташкилот фаолиятини янада мувофиқлаштирилган йўлга йўналтириши, музей стратегиясини кўринарли ва сезиларли қилиши мумкин [3]. У унинг характерини яхшилайди, мақсадларини белгилайди, ўзига эътиборни ва натижа ўлароқ кейинчалик ривожлантириш учун маблағ жалб қилишда ёрдам беради. Бренд – бу нафақат чиройли образ, балки кўп йилларга мўлжалланган музей қиёфасини яратиш демакдир.

Бренд статик тавсиф эмас. Музейни ўраб турган муҳитдаги барча ўзгаришлар ва музейнинг барча ҳаракатлари унинг брендида акс этади ва унга таъсир қилиши мумкин. Музейда бренд музейлар томонидан қўлланиладиган тараққиёт стратегияларига ва умуман маданий ҳаёт ва жамиятдаги ўзгаришларга мувофиқ ўзгаради [4].

Музей брендини бошқариш ва музейни позициялаш стратегияси яхлит таассурот уйғотадиган, музей миссиясини етказадиган ва уни рақобатчилардан ажратиб турадиган кўплаб элементлар мувофиқлаштирувини ўз ичига олади. Брендни илгари суриш учун асосий қадам – бу музей томонидан ўз мақсадлари ва қадриятларининг аниқ ифодаланишидир. Ушбу қадриятлар – ном, шиор, логотип, визуал айдентика,

яратилаётган маҳсулот, бренд эгалари каби бренд билан боғлиқ барча компонентларга киритилган.

Бренд – бу биринчи навбатда, номдир. У музей қиёфасини аниқлашда ва унинг маданий маконда позицияланишинида рамзий рол ўйнайди. Ном музейнинг моҳиятини етказади ва унинг индивидуаллигини кўрсатади. Ном нуқтаи назаридан музей консерватив тузилма бўлиб туюлиши мумкин – бир қатор музейларда номлар бир неча асрлардан бери мавжуд ва бу номнинг замирида турган маълум бир ихтисос мавжуд. Бироқ, сўнгги йигирма йил ичида дунёдаги кўплаб музейларнинг номлари ўзгарди.

Собиқ номнинг ўзгариши ва ребрендинг музейларга “эскирган муассаса” имиджидан узоқлашишга, ташкилотдаги тузилмавий ўзгаришларни акс эттиришга, унинг ўзига хослигини таъкидлашга ва номни музейнинг янгиланиши ва янги позицияланишининг “драйвери” қилишга имкон берди. Ҳозирги вақтда тавсифловчи номлардан иқтисодий ва абстракт номларга ёки уларнинг комбинациясига ўтиш тенденцияси кузатилмоқда. Абстракт ном уни илгари суриш мақсадида ушбу ном билан “ижодий ишлаш” учун янги имкониятлар очиш усули сифатида қаралмоқда [5].

Масалан, «Метрополитен-музей» – «Мет», «Виктория и Альберт музейи» – «V&A»; «Британия Санъати Миллий Галереяси» (National Gallery of British Art), кейинчалик «Тейт Галереяси» (the Tate Gallery), Teyt (Tate) брендининг уйи сифатида шўъба («Тейт Модерн», «Тейт Британ», «Тейт Ливерпуль», «Тейт Сент-Айвс») бўлинмаларга эга бренд уйи сифатида «Тейт» (Tate), Қрим Валидаги Третьяков галереяси – Янги Третьяковка ва ҳк.

Логотип дизайни музей брендинги тизимидаги навбатдаги қадам – визуал айдентика ёки ягона фирма услубини яратиш билан бевосита боғлиқ. Айдентика бренд идентификатори, унинг бренднинг моҳиятини акс эттириши учун керакли образни яратишга ёрдам берадиган “визуал” тили сифатида иштирок этади. Яхлит фирма услуби бренд ҳақидаги биринчи таассуротни шакллантиради, унинг мақомини оширади ва ташкилотни рақобатчилардан ажратиб туради [9].

Музейнинг фирма услуби унинг визуал воситаси бўлган ҳамма нарсага ёйилади. У музейнинг кириш жойлари, ходимларнинг бейжлари ва формалари, босма маҳсулотлар, музейнинг фирма ҳужжатлари, сувенир, шу жумладан гастрономик маҳсулотлар; сайт; музей дўкони; музей кафеси ва таомномаси; реклама афишаларининг ягона бир ҳил дизайнини белгилайди. Визуал айдентикани яратиш жиддий график ишлаб чиқиш ва универсал дизайн тизимини талаб этади. Уни ишлатиш бўйича қоидалар тўплами бренд китобида (brandbook) мавжуд.

Жамоат зоналари, музей мажмуасининг асосий экспозицияси ва навигация тизимини жойлашнинг (безашнинг) ягона фирма услуби, шунингдек музейнинг ички инфратузилмасини ривожлантириш ва жиҳозларни модернизация қилиш билан биргаликда уларнинг қулайлиги томошабинлар томонидан маконнинг самарали идрок этилишига таъсир қилади. Бу музейни замонавий, даврга мос маконга айлантиради, у ўз бойликларини ташриф буюрувчига визуал тарзда етказади ва музей

брендининг танилишини ошириш учун ишлайди.

Музей маҳсулотини яхши идрок этиш учун музей ташриф буюрувчилар учун қулай психологик шароитларни яратиши муҳимдир. Бундай муҳит музей ходимлари томонидан яратилади. Ҳар бир ходим музей брендини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш орқали унинг ривожланишига ўз ҳиссасини қўшади, шунинг учун нотижорат ташкилотларнинг маркетинг бўйича мутахассислари ички алоқаларга, ходимларга ҳурмат ва инклюзив муносабатда бўлишга, ходимларнинг тезкор тескари алоқасига алоҳида эътибор беришади. Бу жамоа ичида ишонч маданиятини яратади, мотивацияни оширади ва бутун музейнинг ривожланишига дахлдорлик ҳиссини беради [6]. Музей бренди ҳамма нарсада доимий сифатни кафолатлаши керак, уни сақлаш эса профессионаллик ва ходимларнинг ташкилотнинг барча даражаларида иштирокини талаб қилади.

Ходимлар орқали музей ўзининг муайян қадриятларини томошабинларга узатиши мумкин. Музей директори, кураторлари, музей экспертлари, экскурсоводлар профессионал характеристикалар ва шахсий брендни маданият муассасаларига проекциялаш орқали ташкилот брендини шахсийлаштиришади [10]. Бу ташриф буюрувчида эмоционал жавобнинг пайдо бўлишига ёрдам беради, шахсий алоқа туйғусини яратади ва музей маҳсулотига ишончни мустаҳкамлайди.

Бошқа маданият муассасалари ва тижорат компаниялари билан қўшма маҳсулотнинг пайдо бўлиши (банк карталари, машҳур брендлар иштирокида мерчлар, сувенир маҳсулотлари ва ҳоказоларни ишлаб чиқариш) кўринишидаги коллаборациялар корпоратив шериклар билан ўзаро муносабатларнинг яна бир машҳур усули ва музей брендини визуал қатор орқали оммалаштириш механизмидир. Дизайнерлар ва ишлаб чиқарувчилар учун бу истеъмолчиларни жалб қилиш учун янги ғоялар манбаи, музейлар учун – замонавий контекстга ўрнашиш усули ва қўшимча даромаддир. “Коллаборацион” маҳсулотнинг турига қараб, музей ёки кўргазма логотипи ва слоганидан фойдаланиш, шунингдек музей коллекциясидаги предметларини намойиш қилиш ёки уларнинг нусхаларини яратиш орқали даромад олиши мумкин [11]. Бу музей сувенирининг ролини қайта англашга олиб келади – у музейдан ташқарида кенг тақдим этилганда музейнинг ўзига ташриф буюришнинг "вазифадоши"га айланади. Америка музей дўконлари Ассоциацияси маълумотларига кўра, сувенирлар савдоси музейларга 5 дан 25% гача йиллик даромад олиб келади [11]. Йирик музей муассасаларига сувенир маҳсулотларига эътибор ва брендлар билан ҳамкорлик (масалан, Нью-Йорк замонавий санъат музейига) музейлардан алоҳида савдо нуқталарини очиш, маҳсулотларни машҳур маркетплейсларда ва ҳатто чет элларда сотиш имконини беради.

Музей брендига ва уни бошқаришга доимий эътибор унинг долзарблигини сақлаш, исталган идентикликни акс эттириш ва музей имиджини ҳимоя қилиш имконини беради. Изчил яратиладиган музей қиёфаси, унинг яқин ва яхши таниш бўлган позицияси жамоатчиликни жалб қилади ва ташкилотга қизиқишни сақлайди. Иқтисодий жиҳатдан, бренднинг

машҳурлиги музейнинг бозордаги барқарор мавқеининг кафолати, унинг рақобатбардошлигини оширувчи омилга айланади. Тўғри тушунилган ва ишлатиладиган бренд музейлар учун жуда муҳимдир. У унинг барқарор ривожланиши ва ташриф буюрувчилар ҳамда шериклар билан ўзаро алоқалари учун йўл бошловчи бўлиши мумкин.

Адабиётлар:

1. Yui-Tan Chang. Preface; Saloniemi M.R. Preface // Museum Branding: Redefining Museums for the 21st Century. Selected Papers from the ICOM MPR 2014 Conference. Taiwan, 2015.
2. Olins W. The Brand Handbook. – London, 2008.
3. Stallabrass J. The Branding of the Museum. Essay. 09.2018 / – URL: https://julianstallabrass.files.wordpress.com/2018/09/museum-as-brand-essay.pdf.
4. Пашкус М.В. Особенности формирования и специфика оценки бренда музея // Проблемы современной экономики. – 2018.
5. Kjeldsen A.K., Schmeltz L. What's in a museum name? A study of name changes among Danish museums // Nordisk Museologi. – 2016.
6. Espiritu E.K. Branding for small and mid-size museums relationships, messaging, and identity: A Thesis … for the Degree Master of Arts in Museum Studies. – San Francisco, 2018.
7. Новое пространство русского искусства. Новая Третьяковка. – URL: https:// ony.ru/work/t-brand.
8. Фирменный стиль, айдентика, бренд – что же заказывать в брендинговом агентстве? URL: https://vc.ru/marketing/204053-firmennyy-stil-aydentika-brend-chto-zhe-zakazyvat-v-brendingovom-agentstve .
9. Полынская Г.А., Карапетян Э.Т. Исследование восприятия посетителями идентичности бренда Мультимедиа Арт Музей, Москва // Управление экономическими системами: – № 94. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-vospriyatiya-posetitelyami identichnosti-brenda-multimedia-art-muzey-moskva
10. Осиновская И. Бренды пришли в музеи. Почему они сделали это именно сегодня? // URL: https://kp.vedomosti.ru/artguide/article/2021/06/24/875120-brendi-prishli-v-muzei.
11. Лунина Л. Искусство «мерча»: музейные магазины и сувениры // Сайт газеты "The Art Newspaper Russia"/ URL: https://www.theartnewspaper.ru/posts/20211221-uwvg .

ISAKOVA Muqaddas Badirovna
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
"Dizayn" kafedrasi dotsenti

MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI, MUAMMO VA YECHIMLAR.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muzeyshunoslikning rivojlanish omillari va ularning faktorlari, muzeylarning samarali faoliyatini ta'minlash va ularni rivojlantirishda turli hil omillar haqida fikr yuritiladi. Muzey rivojlanishidagi muammolar, ularga taklif sifatida yechimlar tahlil qilinadi. Muzeylardagi eksponatlar, ularning saqlanishi muzeyshunoslikning muhim aspektlari, turli kolleksiyalarini tashkil qilish saqlanishi va ularning kelajak avlodlar uchun yetkazib berish haqida fikr bildiriladi.*
Kalit so'zlar: *resurs, eksponat, konservatsiya, mobil ilovalar, virtual, intraktiv. iste'dod, resurs,zaruriyat .*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются факторы развития музееведения и их факторы, различные факторы обеспечения эффективной деятельности музеев и их развития. Анализируются проблемы развития музея, их решения как предложения. Артефакты в музеях, их сохранность являются важными аспектами музейного дела, организация различных коллекций, хранение и их передача будущим поколениям.*
Ключевые слова: *ресурс, выставка, сохранение, мобильные приложения, виртуальные, интерактивные. талант, ресурс,необходимость.*

Annotation. *This article examines the factors of the development of museology and their factors, various factors for ensuring the effective operation of museums and their development. The problems of the museum's development and their solutions as proposals are analyzed. Artifacts in museums, their preservation are important aspects of museum business, organization of various collections, storage and their transfer to future generations.*
Keywords: *resource, exhibition, conservation, mobile applications, virtual, interactive. talent, resource, necessity.*

Muzeyshunoslikning rivojlanish omillari ko'plab faktorlarga bog'liq bo'lib, ularning har biri muzeylarning samarali faoliyatini ta'minlash va rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi. Bular orasida muammolar va ularni yechish yo'llari mavjud. Muzeylar ko'pincha moliyaviy resurslar yetishmasligi sababli o'z faoliyatini kengaytira olmaydi, yangi eksponatlar olishda yoki ta'mirlash ishlari olib borishda muammolar yuzaga keladi. Xususiy sektordan yoki homiylikdan qo'shimcha moliyaviy resurslar topish talab etiladi. Mahalliy va xalqaro grantlar va subsidiyalarni izlash orqali ham muzey faoliyatlarini kengaytirish mumkin. Muzeylarda eksponatlarni saqlash va ularni muntazam ravishda yangilab borish muammosi mavjud bolib, buning oldini olish uchun eksponatlarni raqamlashtirish va virtual arxivlar yaratish mumkin.

Zamonaviy saqlash texnologiyalarini qo'llash va konservatsiya ishlarini

kuchaytirish usullarini ham ijobiy natija berishi mumkin. Eksponatlarning saqlanishi bo‘yicha bir necha muammolar yuza kelishi mumkin masalan, Ko‘plab muzeylarda eksponatlar eski va zaif materiallardan yasalgan bo‘lishi mumkin. Bunday materiallar (masalan, qog‘oz, yog‘och, mato, teri) tezda eskiradi yoki mikroorganizmlar, bakteriyalar va o‘zgarishlar sababli zararlanishi mumkin. Muzeylar ichidagi namlik, temperatura, va yorug‘lik darajasi eksponatlarning holatiga ta’sir qilishi mumkin. Yuqori namlik yoki o‘zgaruvchan harorat materiallarning tez eskirishi va yomonlashishiga olib keladi. Eksponatlar jismoniy shikastlanish, o‘g‘irlik yoki zararli tashrif buyuruvchilardan himoyalanmagan bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina muzeylarda xavfsizlik tizimlari kuchaytirilgan bo‘lsa-da, ba’zida xavf-xatarlar mavjud. Eksponatlarning saqlanishi uchun malakali konservatorlar va muzeyshunoslar kerak. Ba’zida, bu sohada tajribali mutaxassislar yetishmaganida konservatsiya ishlari samaradorligiga ta’sir qiladi. Eksponatlar maxsus konservatsiya usullari orqali saqlanishida materiallarni tabiiy konservatsiya, masalan, qog‘oz, mato yoki yog‘ochni himoya qilish uchun kimyoviy moddalar va texnikalar qo‘llaniladi.

Muzey interyerlarida harorat va namlik darajasini boshqarish uchun maxsus havalandırma tizimlari va konditsionerlar o‘rnatilishi zarur. Shuningdek, yorug‘lik darajasi ham juda muhim bo‘lib, u faqat eksponatlar uchun xavfsiz bo‘lgan darajada bo‘lishi kerak. Eksponatlarning raqamlashtirilishi ularning saqlanishi uchun muhim qadamdir. Bu jarayon orqali eksponatlarning yuqori sifatli fotosuratlari va videolarini olish, ularni raqamli formatda saqlash mumkin. Raqamlashtirilgan eksponatlar, hatto ular jismonan zararlangan taqdirda ham, muzeyda saqlanishi mumkin. Eksponatlarni saqlash uchun maxsus joylar yaratishi kerak. Bu joylar to‘liq iqlim nazoratiga ega bo‘lishi kerak, shuningdek, eksponatlarni tashqi omillardan himoya qiluvchi maxsus qutilar, yoritish tizimlari va xavfsizlik choralari bilan jihozlanishi lozim. Eksponatlar va ularning saqlanishi bo‘yicha mutaxassislar (konservatorlar, muzeyshunoslar)ning malakasini oshirish zarur. Ular zamonaviy konservatsiya texnikalarini bilishlari, yangi materiallar va usullarni o‘rganishlari talab etiladi. Muzeylar o‘zaro hamkorlik qilib, eksponatlar saqlanishi va konservatsiya bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganishlari kerak. Buning uchun xalqaro konservatsiya institutlari bilan hamkorlik qilish, ilmiy konferensiyalar va seminarlar tashkil etish orqali tajribalar almashinadi. Eksponatlar va ularning saqlanishi muzeylarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim rol o‘ynaydi. Muzeylar eksponatlarning sifatli va xavfsiz saqlanishi uchun zamonaviy konservatsiya metodlarini qo‘llashlari, malakali mutaxassislarni jalb qilishlari, shuningdek, eksponatlarni raqamlashtirish va iqlim nazoratini amalga oshirish orqali o‘z faoliyatini samarali ravishda rivojlantirishi mumkin.

Muzeylarning ta’lim va ilmiy tadqiqot faoliyatlari ko‘pincha cheklangan resurslar bilan amalga oshiriladi. Muzeyshunoslarning ilmiy izlanishlari va pedagogik faoliyatlari samarali bo‘lmasligi mumkin. Buning uchun Muzeylarda ilmiy va ta’lim dasturlarini kengaytirish, xalqaro ilmiy tadqiqotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ta’limni rivojlantirish uchun malakali xodimlarni jalb qilish muhim omillardan hisoblanadi. Muzeylarning ko‘plab ziyoratchilarga ega bo‘lmasligi va bu bilan ular o‘z faoliyatini iqtisodiy tomondan rivojlantira olmasliklari ham muammoli

vaziyatlardan biri hisoblanadi. Bunday holatlarni oldini olish uchun Turli xil marketing strategiyalarini ishlab chiqish, masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali muzeyni targ‘ib qilish mumkin. Muzeylarda interaktiv ko‘rgazmalar, ko‘rgazma dasturlari, va maxsus tadbirlarni tashkil etish, yosh avlodni jalb qilish uchun ta’lim dasturlari va ko‘rgazmalarni ishlab chiqish ham ijobiy natija beradi. Muzeylarni yangilash, shuningdek, raqamli va interaktiv texnologiyalarni joriy etish, smart muzeylar, mobil ilovalar orqali virtual ko‘rgazmalar va ko‘rgazmalarni taqdim etish, yangi texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini eksponatlar va ko‘rgazmalar uchun foydalanish jarayonlarini amalga oshirish mumkin.

Muzeyshunoslikning rivojlanishiga yordam berish uchun yuqoridagi omillarni hal etish zarur bo‘lib, ularning har biri muzeylarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlashga yordam beradi. Muzeylar nogiron insonlar uchun qulayliklar yaratish orqali ularning madaniyat va san'atga bo‘lgan kirishini oshirishi mumkin. Nogironlarni qo`llab-quvvatlash va ular uchun qulay muhit yaratish har bir muzeyning ijtimoiy mas'uliyatidir. Buning uchun bir qator amaliy choralar va usullarni joriy etish zarur hisoblanadi Muzeyga kirishda zinapoyalar bo‘lmasligi yoki ular uchun maxsus platformalar, liftlar va rampalar o‘rnatilishi kerak. Bu nogironlarning o‘zlari yoki yordamchilari bilan muzeyga erkin kirish imkoniyatini ta’minlaydi. Nogironlar uchun maxsus aravachalar, yoki yordamchi texnikalar muzeyga kirishda va eksponatlarni ko‘rishda ularga yordam beradi. Muzey interyerida va tashqarisida keng yo‘llar, eshiklar va ko‘rgazmalarni ko‘rish uchun oson o‘tish imkoniyatlari bo‘lishi kerak, bu esa nogironlar aravachasi yoki boshqa yordamchi vositalar bilan yurish imkoniyatini yaratadi. Ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun eksponatlar haqida Braille yozuvi yoki maxsus yozuvlar joylashtirish kerak. Bu ularga eksponatlarning ta’rifini o‘qishga yordam beradi. Muzeyda ko‘rish imkoniyati cheklanganlar uchun audio qo‘llanma tizimlari (masalan, og‘zaki tavsiflar) joriy etish. Bu tizimlar tashrif buyuruvchilarga eksponatlar haqida tushuntirishlar berish, ularning tarixiy ahamiyatini etkazish uchun ishlatiladi. Ovozli tavsiflar yoki ekranda yozilgan matnlar orqali nogironlarni xabardor qilish mumkin. Ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun masalan, ko‘rgazmalarni audio tasvirlash yordamida taqdim etish mumkin.

Nogironlar uchun maxsus mobil ilovalar yaratish, bu ilovalar yordamida ular muzeyda o‘z yo‘lini topishi, eksponatlar haqida ma’lumot olishi va interaktiv ko‘rgazmalardan foydalanishi mumkin. Masalan, mobil ilovada audio tasvirlar, Braille matnlari yoki video tavsiflar bo‘lishi mumkin. Nogironlar uchun sensorli ekranlar yoki interaktiv displeylar orqali eksponatlar haqida to‘liq ma’lumot olish mumkin. Bu ko‘rgazmalarni faol ishtirok etib ko‘rish imkoniyatini beradi. Muzeylar nogironlar uchun maxsus ko‘rgazmalar tashkil etishi mumkin. Bunday ko‘rgazmalar interaktiv elementlarga ega bo‘lib, nogironlarning jismoniy va kognitiv ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Nogiron insonlar uchun muzeyda qulayliklar yaratish nafaqat ularning madaniyatga kirishini ta’minlaydi, balki jamiyatning tenglik va inklyuzivlik prinsiplariga hurmatni namoyish etadi. Muzeylar bunday ehtiyojlarni hisobga olib, turli choralar va texnologiyalarni joriy etish orqali o‘z ziyoratchilari uchun qulay va foydali muhit yaratishi mumkin.

Madaniy merosni muzeylashtirish bu jamiyatning tarixiy, madaniy va san'at

asarlarini, an'analarini va me'moriy yodgorliklarini saqlash, ularga nisbatan hurmatni oshirish va ularni kelajak avlodlarga etkazish jarayonidir. Muzeylashtirish madaniy merosni himoya qilish va uni umumiy jamoatchilikka namoyish etish uchun zarur vosita hisoblanadi. Bunday jarayon, nafaqat materiallarni saqlashni, balki madaniy va tarixiy qiymatini aniqlashni, o‘rganishni, tarbiyaviy va ta’limiy maqsadlarni ham ko‘zlaydi. Madaniy merosni muzeylashtirishning asosiy aspektlarini ham tahlil qilish muhim omillardan hisoblanadi. Muzeylar bu ob'ektlarni nafaqat saqlash, balki ularning madaniy va tarixiy ahamiyatini taqdim etib, keng omma uchun ta’limiy imkoniyatlar yaratadi. Madaniy merosni muzeylashtirishda uning to‘liq va to‘g‘ri tasnifi zarur. Har bir ob'ektni o‘ziga xos tasnifga qarab joylashtirish va uni kataloglash orqali uning o‘rni va qiymatini aniqlash muhimdir. Bu jarayon jamiyat va ilmiy tadqiqotchilar uchun mazmunli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Madaniy merosni ro‘yxatga olish, arxivlash va saqlashning barcha metodologiyasi saqlanish jarayonini ilgari suradi. Madaniy merosni muzeylashtirishning ajralmas qismi bu uning konservatsiyasi va restavratsiyasidir. Madaniy ob'ektlar vaqt o‘tishi bilan yomonlashishi yoki zararlanishi mumkin, shuning uchun ularni saqlashda maxsus texnikalar va usullar qo‘llaniladi. Konservatsiya jarayoni ob'ektning asl holatini saqlashga qaratilgan, restavratsiya esa uning eskirgan qismlarini tiklashni o‘z ichiga oladi. Muzeylarda ko‘rsatiladigan madaniy meros odamlarni o‘rganish va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ajoyib resursdir. Madaniy ob'ektlar tarixni o‘rganish, eski an'analarni saqlash va o‘tgan davrlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, muzeylar madaniy merosni ommalashtirish va jamoatchilikka taqdim etish orqali ta’limiy funktsiyalarni bajaradi. Ular ziyoratchilarga interaktiv dasturlar, ko‘rgazmalar va ta’limiy seminarlar orqali madaniy tarixni tushuntiradi. Madaniy merosni raqamlashtirish bu uning elektron formatga o‘tkazilishi, uning kengroq auditoriyaga taqdim etilishi va saqlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli arxivlar va virtual ko‘rgazmalar orqali, dunyoning istalgan joyidan madaniy ob'ektlarga kirish mumkin. Raqamlashtirish, shuningdek, asarlarni saqlash va ularga zarar etkazilmasdan o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Madaniy merosni muzeylashtirish jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega. Ular madaniy turli-tumanlikni tushunishga yordam beradi, madaniy ajralishlarni kamaytiradi va kelajak avlodlarga o‘tganlarning tajribasini etkazish imkoniyatini yaratadi. Muzeylar madaniy merosni saqlash orqali xalqning tarixi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan bog‘liq aloqalarni saqlaydi, bu esa milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Madaniy merosni saqlash va muzeyda ko‘rsatish uchun katta miqdorda moliyaviy resurslar talab etiladi. Boshqa sohalar bilan taqqoslaganda, madaniy merosni saqlash ko‘pincha yetarli mablag‘ni ta’minlay olmaydi. Madaniy merosga xavf tug‘diruvchi omillar mavjud: tabiiy ofatlar (yer silkinishi, suvlashish), iqlim o‘zgarishi, odamlarning beparvoligi, vandalizm va o‘g‘irliklar kabi. Bu muammolarni hal qilish uchun xavfsizlik choralarini mustahkamlash zarur. Madaniy merosning zamonaviy texnologiyalar orqali saqlanishi va arxivlanishi, eski texnologiyalar bilan bo‘lgan aloqani saqlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Raqamlashtirish, masalan, eski ob'ektlarning

asl holatini taqdim etishda muammolar yaratishi mumkin.

Madaniy merosni saqlashda xalqaro hamkorlik zarur. Biroq, har bir mamlakatning madaniy merosni saqlashdagi yondoshuvlari va resurslari turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli, xalqaro standartlar va hamkorlikni ta’minlash o‘ziga xos muammo bo‘lishi mumkin. Madaniy merosni muzeylashtirish nafaqat materiallarni saqlashni, balki ularning tarixiy va madaniy ahamiyatini tushuntirishni, ta’limiy dasturlarni amalga oshirishni, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni talab qiladi. Bu jarayon ijtimoiy, ilmiy va madaniy jihatdan jamiyat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, kelajak avlodlarga milliy va global merosni etkazish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Вревская Н. А. Особенности построения экспозиции в музеях Великобритании для слепых и слабовидящих людей Молодой ученый. 2017. № 14. С. 675–678. Режим доступа: moluch.ru/archive/148/41498.
2.Тактильная модель в музее. Инструкция по применению О. Ш, М. Справочник руководителя учреждения культуры. 2019. № 3. С. 84–89.
3. Rebecca A. Buck “"Museum Registration Methods” darslik 2014 № 0. C. 75–78.
4. "The Museum: A History" by Tony Bennett uslubiy qo`llanma 2015 y.23-25.
5. Исакова М. Б. ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДОСТУПНОСТИ ДЛЯ ИНВАЛИДОВ АРХИТЕКТУРНЫХ ОБЪЕКТОВ НА РАЗНЫХ ЭТАПАХ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ //Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X). – 2024. – С. 97-100.
6. Badyrovna I. M. Enhancing Social Activity Through Design Ideas in the Inclusion Process //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 53. – С. 1029-1031.
7. Isakova M. B. MODERN APPROACHES TO THE ORGANIZATION OF A SPECIALIZED CENTER FOR THE POPULATION WITH DISABILITIES //Art and Design: Social Science. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 27-31.
8. Fahriddinovna S. M. The formation of art and Architecture of the Ancient Period //European Journal of Arts. – 2023. – №. 1. – С. 22-26.
9. Sultanova M. F. The Significance of the Stylistic Solution of Tashkent Cultural and Educational Theater Buildings in Modern Design //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress.

O‘ROLOVA Mo‘tabar Mamarajabovna,
O‘zbekiston tarixi davlat
muzeyi ilmiy xodimi

URUSH YILLARIDA AYOLLARNING MAORIF, ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Urush yillarida O‘zbekiston xotin-qizlari xayriya, maorif, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi roli, turli sohalar ravnaqi va faoliyatida buyuk matonat namunasini ko‘rsata olganliklari bayon etilgan. O‘zbekiston ayollari front uchun zarur mahsulotlar yetkazib berish bilan birga, evakuuatsiya jaryonida ko‘plab turli millat bolalarini farzandlikka olib, tarbiyasiga oldilar, ota-onalik mehrini ko‘rsatdilar. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada nafaqat frontda, balki front ortida ham o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan g‘urur-iftixor, unitilmas qadriyat, ulkan jasorat namunasini namoyon etdilar.*
Kalit so‘zlar: *Urush, Xayriya, Ilm-fan, Maorif, Madaniyat, Kadr, Evakuatsiya Tinchlik, Jasorat, G‘alaba, Xotira.*

Annotation: *This article describes the role of women in Uzbekistan in the fields of charity, education, science and culture, as well as the development and activities of various fields. In addition to delivering the necessary products for the front, the women of Uzbekistan during the evacuation adopted and raised many children of different nationalities and showed parental love. In the victory over fascism not only at the front, but also in the rear, they showed an example of pride, unforgettable value, and great courage characteristic of the Uzbek people.*
Key words: *War, Charity, Science, Education, Culture, Personnel, Evacuation World, Courage, Victory, Memory.*

Аннотация: *В данной статье описывается роль женщин Узбекистана в сферах благотворительности, образования, науки и культуры, а также развития и деятельности различных сфер. Помимо доставки необходимых продуктов для фронта, женщины Узбекистана во время эвакуации усыновили и воспитали множество детей разных национальностей, проявили родительскую любовь. В победе над фашизмом не только на фронте, но и в тылу они показали пример гордости, незабвенной ценности, большого мужества, свойственного узбекскому народу.*
Ключевые слова: *Война, Благотворительность, Наука, Образование, Культура, Кадры, Эвакуационный мир, Мужество, Победа, Память.*

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda maorif, ilm-fan va madaniyat sohasida xotin-qizlarning o‘rni katta bo‘lib, turli sohalar ravnaqi va faoliyatida buyuk matonat namunasini ko‘rsata olganlar. Maorif, ilm-fan va madaniyat sohalari bir biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani holda, tizim takomillashtirilishni talab etardi. Xotin-qizlardagi shijoat va mas’uliyat ushbu holatlarni ijobiy tomonga o‘zgartirishga omil bo‘la oldi.

Zero, urush harakatlari boshlanar ekan, o‘zbek o‘g‘lonlari safida xotin-qizlari ham jang maydonlari sari yo‘l oldi. Front ortida ham har jihatdan rivojlanishi zarur bo‘lgan sohalar taqdiri ayollar ishtirokida amalga oshdi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyov – “Xalqimiz front ortida fidokorona mehnat qilib, urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdi. O‘ta og‘ir va mashaqqatli yillarda xalqimiz insonparvarlik va bag‘rikenglikni namoyon etib, “- o‘sha og‘ir yillarda, bir burda non tanqis bo‘lgan yillarda, O‘zbekiston urush tufayli uy-joysiz qolgan minglab oilalarga boshpana berdi, non berdi, qanchadan-qancha yetim-yesirlarni boshini siladi” [1].

Darhaqiqat, Ikkinchi jahon urushi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, fan, maorif va madaniyat kabi sohalar harbiy xolatga moslashtirildi. Kadrlar masalasi bilan bog‘liq holatlarni bartaraf etish dolzarb bo‘ldi. Urushning dastlabki kunlaridanoq frontga otlangan erkaklar o‘rni bilan bog‘liq barcha sohalardagi mashaqqatli mehnat turlari ayollar zimmasiga yuklandi. O‘zbek xotin-qizlari, front ta’minoti, urush g‘alabasi uchun jon dili bilan mehnat qildilar. Notanish kasblarni o‘rganib soha mutaxassislariga aylandilar. Front maydonini strategik jihatdan kengayib borar ekan, xalqlar hayoti, ishlab-chiqarish korxonalari, zavod va fabrikalar taqdiri tahlika ostida qolayotgan bir paytda o‘zbek ayollari tashabbusni o‘z zimmasi oldi. Minglab insonlar taqdiri tahlika ostida qolgan keskin bir vaziyatda barcha holat evakuatsiya jarayonlariga qaratildi. Hukumat tomonidan murojaatlar uyushtirilib, miting va qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston SSR XKS va O‘zbekiston KP Markaziy Komitetining respublika qaroriga [2] asosan, kolxozchilar, shahar va qishloq ishchilarining oilalariga qarindosh sifatida qabul qilindi [3]. 1941 yil 1 sentyabr holatiga ko‘ra, respublikaga birgina Ukraina SSR dan 5717 kishi kelgan bo‘lsa, oktyabr-noyabr oylarida ularning soni 54029 kishini tashkil qildi. Jami, O‘zbekistonga 1 millionga yaqin odam kelgan bo‘lib, ulardan 200 ming bolalar [4] bo‘lgan. O‘zbekistonga ko‘chirilish jarayonlari amalga oshirilar ekan, evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirish, ularning bepul ovqatlanishi uchun zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

1941 yil oktyabrda O‘z Kompartiyasi (b) Markaziy Qo‘mitasi va O‘zSSR SNK qarori bilan Ta’lim Xalq Komissariyati Markaziy Evakuatsiya Markazini tashkil qilinib, respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari evakuatsiya qilingan bolalarga yordam berish, Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Andijon, Samarqand va Namangan shaharlarida tashkil etilgan bolalar oshxonalarida bepul ovqatlanishiga[5] imkoniyat yaratildi.

Evakuatsiya qilingan bolalarga keng ko‘lamli yordam ko‘rsatish harakati davom etar ekan, viloyatlarda O‘zbekiston SSR kasaba uyushma komissiyasi tomonidan ayollar yig‘ilish o‘tkazib, ulardan 178 nafar ta’lim xodimlari halok bo‘lgan askarlarning farzandlariga ta’lim-tarbiya berish istagini bildirdi.

Xalqimizning evakuatsiya jarayonidagi yuksak insonparvarlik harakatini namoyon etib, frontorti va frontdagi ko‘plab insonlarini qattiq ruhlantirdi. O‘zbek oilalari ko‘plab begunoq bolalarni farzandlikka ola boshladilar. Masalan, Samarqandlik Ikkinchi jahon urushi nogironi Hamid Samadov, Toshkentlik temirchilar oilasi bo‘lgan Shomahmudovlar oilasi turli millatlarga mansub bo‘lgan

14 bolani o‘z tarbiyasiga olib, avaylab, ardoqlab voyaga yetkazdi.

O‘zbek xalqining tolerantligini ko‘rsata olgan, yuksak vatanparvarlik va sharaf namunasi bo‘lgan Temirchi Shomahmudov, uning rafiqasi, farzandlari aks ettirilgan skulptura kompozisiyasi manumenti Toshkentda Xalqlari do‘stligi saroyida markaziy qismida bunyod etilgan. Bu yuksak jasorat manumenti bronza va granitda abadiylashtirildi.

Shuningdek, Stalingrad yaqinida, Belorusiya, Moskva yaqinidagi janglar ishtirokchisi Kattaqo‘rg‘onlik Hamid Samatov oilasi 13 bolani, Buxorolik Muazzam va Sharafa Djurayevlar oilasi, Bahrixon aya Ashurxo‘jayeva 8 nafar farzandni tarbiyalashga g‘amxo‘rlik qildilar[6].

Bolalarni qabul qilib olish, ularni bolalar uylariga, jamoalarga joylashtirish, yakka tartibda tarbiyaga olish, o‘qitish, ishlab chiqarishga yuborish, adashib yurgan, balog‘atga yetmagan, qarovsiz qolgan bolalarni topib ro‘yxatga olish, ularni rejali joylashtirish kabi mas’uliyatli ishlarni bajarishda respublika Maorif Xalq Komissarligi va uning xodimlari, Toshkent shahar partiya komiteti xotin-qizlari bo‘limlari [7] faol bo‘lganlar. Shuningdek, bolalarni xonadonlarga va aniq manzilga topshirish ishlarini mehribon, dilkash jamoatchi ayollar sharaf bilan bajardilar. Jamoatchi xotin-qizlar yordamida bolalar medisina ko‘rigidan o‘tkazilib, yuvintirilib, toza kiyimlar kiygizib, ovqatlantirilgan [8].

1942 yilda Toshkent shahrida fashizmga qarshi o‘tkazilgan mitingda insonparvarlik fazilatlarini yurakdan xis qilgan Bahri xola, o‘zbek ayoli so‘zga chiqib shunday degan edi: «Bizda yetim bolalar bo‘lmaydi, mening oilamda ruslar, beloruslar, ukrainlar, tatar qizi tarbiyalanib, maktabda o‘qiyapti. Dushmanni tezroq tor-mor keltirish uchun frontga yordam berish niyatida [9] o‘zbek ayollari turli millat farzandlariga mehr berib, munosib vatanparvarlik qilib tarbiyalashdi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi 1943 yil 3 yanvardagi qarori bilan Toshkent ayollarining O‘zbekiston ayollariga evakuatsiya qilingan bolalarga g‘amho‘rlik qilish va tarbiyalash to‘g‘risida murojaatini ma’qulladi[10]. Ayollar o‘rtasida ishlashni kuchaytirish uchun 1943 yil may oyida O‘zbekiston Kompartiyasi (bolsheviklar) Markaziy Qo‘mitasida, ijtimoiy ta’minotga g‘amxo‘rlik qilish bilan bir qatorda, oilaviy front askarlari siyosiy ishlarning tashkilotiga aylandi [11]. Ayollar o‘rtasida ishlashni kuchaytirish uchun 1943 yil may oyida O‘zbekiston Kompartiyasi (bolsheviklar) Markaziy Qo‘mitasida, ijtimoiy ta’minotga g‘amxo‘rlik qilish bilan bir qatorda, oilaviy front askarlari siyosiy ishlarning tashkilotiga aylandi. O‘zbekiston nemis fashist bosqinchilari tomonidan bosib olingan hududlardan 1 millionga yaqin Sovet fuqarolarini qabul qilib, ularni uy-joy, ish va oziq-ovqat bilan ta’minlash uchun juda ko‘p harakatlarni amalga oshirdi [12]. 200 mingdan ortiq bolalarni samimiy qabul qilib, o‘n minglab bolalar o‘lim panjasidan qutqarib qolindi. Ular xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga ishga, o‘qishga yuborildi, ota-onasiga, qarindosh urug‘ilariga topshirildi.

Evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish va joylashtirishni tashkil qilish uchun qo‘mitalar va komissiya, shaharning keng jamoatchiligi jalb qilinib ular bolalar xonalari va yotoqxonalari ustidan tumanlardagi maktablarga homiylik tashkil etgan[13]. Evakuatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar muntazam nazorat ostida tashkil etib borilgan. Shu o‘rinda shahar kengashi huzurida va barcha tumanlarda

ko‘cha bolalariga yordam berish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan qo‘mitalar va ko‘chirib keltirilgan bolalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha shahar komissiyasi faol nazorat o‘rnatgan. Qo‘mitalar va komissiya bolalarning sog‘lig‘i va ularning ovqatlanish me’yorini yaxshilash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilganlar. Bolalar uchun mo‘ljallangan oshxonalar tashkil etganlar. 1941 yildan respublika boshqaruvi frontga qaratilib, ishlab chiqarishni jadallashtirish, xayriya ishlarini takomillashtirish, ta’minot va mablag‘ topish, uni o‘rinli taqsimlash borasidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurati mavjud edi. Ma’lumki, urush yillari o‘zbek xalqi va butun tashkilotlar a’zolari xayriya ishlarini amalga oshirdilar [14].

Zero, bag‘rikeng o‘zbek xalqi o‘z xoxishlari bilan mudofaa fondi uchun shaxsiy mablag‘lari hisoblangan pul, taqinchoq, qimmatli buyumlarni hukumatga topshira boshladilar. O‘zbek xalqining beminnat sahovati zamirida otashin qalb, yuksak tolerantlikni ko‘rish mumkin edi. Butun mamlakat miqiyosidagi tashabbuslar, mitinglar, yig‘ilishlar, takliflar xalqqa, turli soha vakillariga ma’lum qilinib, qo‘llab-quvvatlandi.

Ikkinchi jahon urushi Xalq ta’lim tizimi, Oliy ta’lim tizimi, ilmiy-tadqiqot institutlari uchun sinovli davr bo‘ldi. Birinchidan, ta’lim sohasi vakillari, professor-o‘qituvchilari urushga chaqirilishi, ta’lim tizimining pasayishi, byudjet mablag‘larining kamayishi, ikkinchidan, evakuatsiya qilingan bolalarni bog‘cha va maktablarga joylashtirish, ta’lim va tarbiya berish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar o‘z yechimini kutardi. Dastavval, ta’lim xodimlari ota-onasiz qolgan bolalarning qarovsiz qolishini oldini olish zarurati turar edi. Evakuatsiya qilinganlarning katta qismi bolalar va o‘spirinlar edi. Barcha bolalarni qabul qilish, tartibga solish va tahsil olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, respublika partiya, sovet, komsomol va kasaba uyushma tashkilotlari, xalq ta’limi organlari, butun jamoatchilikning mashaqqatli mehnatini talab qildi [15].

Shuningdek, Xotin-qizlar xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari, qurilish maydonchalari, yirik mudofaa korxonalari, kolxoz va sovxozlarda bolalar bog‘chalari, yasli va bolalar maydonchalari ochilishida matonat ko‘rsatdi. 1941- 43 yillarga kelib bog‘cha va yaslilarda kecha-kunduzgi guruhlar tashkil qilindi[16] tarbiyalana boshlagan.

Shu o‘rinda Xalq maorifi uchun 1940-42 yillarda ko‘plab maktab binosi evakuatsiya qilingan korxona va gospitallarga bo‘shatib berildi. Ta’lim tizimida qonunning amalda o‘z o‘rnida bajarilmasligi, o‘quvchilarning ta’lim jarayonlariga to‘liq ishtirok etilmasligi, ota-onalarning farzandlarini mehnatga jalb etishlari oqibatida ta’lim sifatining pasayishiga olib keldi. Natijada ko‘plab xalq ta’limi xodimlarining frontga ketishi, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ining o‘sishi pedagog kadrlar tayyorlashni kengaytirishni talab qildi. Urush davom etayotgan bir davrda voyaga yetgan yoshlarning, aholining bir qismini armiyaga chaqirilishi, shuningdek ko‘plab ayollar, qariyalar va o‘spirinlarning ishlab chiqarishga, ijtimoiy va mudofaa ishlariga jalb etilishi, yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish uchun maktab va xalq ta’limi organlari mas’uliyatini yanada oshirdi.

Respublikada Oliy va o‘rta maxsus ta’limni rivojlantirish borasida xotin-qizlar ishtiroki asta sekin ko‘zga tashlana boshlar ekan, ular ilmiy-amaliy

jarayonlarda ishtirok etib, fan sohalarida tadqiqot olib borib, jamiyat salohiyatini oshirishga katta hissa qo‘shdilar. Urush yillarida Evakuatsiya qilingan ta’lim muassasalari bilan birgalikda Oliy o‘quv yurtlari 10 mingdan ziyod, texnikumlar esa 3,7 mingga yaqin mutaxassislar yetishtirdi. Oliy va o‘rta ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibining muhim qismini tashkil etgan ayollar talabalarni tayyorlash va tarbiyalashda katta rol o‘ynadilar. Bo‘lajak kadrlarni o‘quvchi yoshlarga ta’lim berish, ta’lim rejalarini bajarishga erishish, intizom, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi ulug‘vor ishlar tashabbuskori va tashkilotchilari sifatida ish olib bordi.

Ma’lumki, urushning ilk kunlari madaniyat va san’at xodimlaridan ham katta matonat, shijoat va zahmatni talab qilgan. Askarlar, ko‘ngillilar, xotin-qizlar singari san’atkor, shoir va yozuvchilar ham frontda va front ortida munosib hissa qo‘shganlar. Dastlabki kunlardanoq O‘zbekiston yozuvchilari va bastakorlari asarlari ommani fashizmga qarshi kurashga, fidokorona mehnatga safarbar qildi[17].

O‘zbek shoirlari urush mohiyatini chuqur anglagan holda ish ko‘rib, o‘zlarining yirik hissalarini qo‘shdilar. G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Mirtemir, Zulfiya, Temir Fattoh, Chustiy, Sobir Abdulla, [18] G‘ofur G‘ulom, Oybek, Shayxzoda, Hamid G‘ulom, Abdulla Qahhor, Zafar Diyor, Turob To‘la singari va boshqa juda ko‘p yosh shoirlar o‘z she’rlari blan jangchilar ruhiyatini oshirish maqsadida ijodiy mehnatga otlanganlar. O‘zbek badiiy kinosida Ikkinchi jahon urushining og‘riqli xolatlarini aks ettiruvchi filmlar dini, millati, jinsidan qat’iy nazar barchaga birdek ta’sir etib kelmoqda. Asrlar davomida xalqimizdagi tolerantlik, yuksak insoniy fazilatlar kinofillarda ham o‘z aksini topgan.

Sovetlarning Ikkinchi jahon urushidagi tarixiy g‘alabasida frontda qahramonona kurashgan va front ortida fidokorona mehnat qilgan o‘zbek ayollarining ulkan o‘rni bor. O‘zbek ayoli butun dunyo oldida qat’iyatli, irodali vatanparvar, askarlarni qurol-yarog‘ va buyuk sinovlarga da’vat etgan shaxs sifatida namoyon bo‘ldi.

Vatanparvar xotin-qizlar va ayollar tarbiyasiga olgan bolalar turli millat bolalari edi. Ular shodlikni ham, g‘am-g‘ussani ham birga baham ko‘rdilar. Ularni oq yuvib, oq taradi, yaxshi tarbiya berdi va o‘qitdi. Farzandlikka olingan bolalar oliy ma’lumotli, o‘rta ma’lumotli va turli kasb egalari bo‘lib yetishdilar [19]. Oilalar onalik mehrini berib, ta’lim-tarbiya berdilar. Uy-joy, boshpana berdilar. Bir burda nonini baham ko‘rdilar. Ularni kasb-hunarga o‘rgatdilar. Sog‘ligi uchun qayg‘urdilar.

Urush paytida ayollar mehnati har sohada alohida ahamiyat kasb etdi. Oziq-ovqat, neft, paxta tozalash va to‘qimachilik sanoatida ayollarning ishtiroki misli ko‘rilmagan darajada oshdi. Vatanparvar ayollar barcha kuchlarini Vatanga xizmat qilish, g‘alaba uchun sarfladilar.

O‘zbekiston ayollarining his-tuyg‘ulari va fikrlari ko‘plab mitinglarda, uchrashuvlarda ifoda etildi, ular bir ovozdan Vatanni himoya qilishga, mamlakat mudofaasini mustahkamlashga, jamoat ishlab chiqarishida faol ishtirok etishga, mehnat unumdorligining doimiy o‘sishiga erishishga va inqilobiy hushyorlikni oshirishga tayyorligi va qat’iyatliligini e’lon qildilar.

Urush davrining qiyin sharoitida bir qator maxsus ma’muriy tadbirlarni

muntazam ravishda amalga oshirish, bir qator qonun hujjatlarini qabul qilish orqali sanoatni ishchi kuchi bilan ta’minlash masalasini hal qildi. Ishchi kuchi mudofaa sanoati foydasiga respublika xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari o‘rtasida taqsimlandi. Yangi mehnat rejimini tasdiqlagan qonunlar qabul qilindi, bu esa kadrlar almashinuvini sezilarli darajada kamaytirdi. Ishdan bo‘shatilganlik va korxonalardan o‘zboshimchalik bilan chiqib ketganlik uchun qattiq javobgarlik o‘rnatildi va korxona rahbarlariga sanoatda majburiy ish vaqtini joriy etishga ruxsat berildi.

O‘zbekiston xotin-qizlari barcha sohalarda ishchilar yetishmovchiligini bartaraf etishda muhim rol o‘ynadilar. Ko‘p minglab ayollar ishtiyoq bilan fabrika va zavodlarga, qurilish maydonchalariga borishdi, qahramonona mehnat namunasini ko‘rsatib, ba’zan katta jismoniy kuchlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil murakkab kasblarni muvaffaqiyatli egallashdi.

O‘zbek xalqining yuksak vatanparvarligi kadrlar muammosini, ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasida uyushgan ravishda qayta taqsimlash, ularni mehnat zaxiralari tizimi orqali takomillashtirilgan o‘qitish va mehnatga layoqatli aholini, ayniqsa, ayollarni ishlab chiqarishga keng jalb qilish orqali o‘z vaqtida hal qilishga imkon berdi. O‘zbekistonning ayollari sanoatning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримов. И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Т., 1996. Т.3. –Б. 80-81.
2. С.Турдиев. Улуғ ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги.-Т.: Фан, 1987. -Б.5.
3. Султанова Т. Трудовой подвиг женщин-хлопкоробов Узбекистана в годы войны. – Ташкент: «Узбекистан», 1974. -С.14.
4. Узбекская ССР в годы великой отечественной войны (1941-1945 гг.) Том I. Узбекистан в первый период великой отечественной войны (1941-ноябрь 1942 гг.) –Т.: «Фан», 1981. –С.58.
5. Вклад трудящихся Узбекистана в Победу в Великой Отечественной войне. -Т.: «Фан»,1975. -С.115-116.
6. Узбекская ССР в годы великой отечественной войны (1941-1945 гг.) Том I. Узбекистан в первый период великой отечественной войны (1941-ноябрь 1942 гг.) –Ташкент: «Фан», 1981. –С.58-59.; Вклад трудящихся Узбекистана в Победу в Великой Отечественной войне. -Т.: «Фан»,1975. -С.42.
7. Турдиев С. Улуғ ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги.-Т.: Фан, 1987. -Б.15.
8. Турдиев С. Улуғ ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги.-Т.: Фан, 1987. -Б.6-7.
9. Турдиев С. Улуғ ватан уруши йилларида Ўзбекистон

меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги.-Т.: Фан, 1987. -Б.9-12.
10. Исмаилова С. Братское сотрудничество узбекского и украинского народов в годы великой отечественной войны (1941-1945). Автореферат. Дисс. на соис. ученой степ. канд. истор. наук. –Самарканд: 1966. -С.12.
11. Узбекская ССР в годы великой отечественной войны (1941-1945 гг.) Том II. Коренной перелом (ноябрь 1942-1943 гг.) –Т.: «Фан», 1983. -С.18.
12. Узбекская ССР в годы великой отечественной войны (1941-1945 гг.) Том III. Коренной перелом (1941-1945 гг.) –Т.: «Фан», 1985. -С.314.
13. Уразаев Ш. Ташкентский городской Совет в годы Великой Отечественной войны. -Т.: «Узбекистан», 1968. -С.53.
14. Вклад трудящихся Узбекистана в Победу в Великой Отечественной войне. -Т.: «Фан»,1975. -С.152.
15. Вклад трудящихся Узбекистана в Победу в Великой Отечественной войне. -Т.: «Фан», 1975. -С.115-116.
16. Узбекистан в годы великой отечественной войны (1941-1945) / Ўзбекистон улуғ ватан уруши йилларида (1941-1945). –Ташкет .: «Фан», 1966. -С.164.
17. Узбекистан в годы великой отечественной войны (1941-1945) / Ўзбекистон улуғ ватан уруши йилларида (1941-1945). –Т.: «Фан», 1966. -С.191.
18. Ўз МА. Ватан учун. 1945 йил. 2 сентябрь. № 174 (6343). -Б.2.
19. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). – Т., 1985. Т.3. –С.217.

IMOMOV Musurmon Pirnazarovich
Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti dekani

ZARIPOVA Manzura Pardatursun qizi
Pedagogika fakulteti,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
sarvarzumaboev0@gmail.com

MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya:*Ushbu maqola muzeyshunoslikning rivojlanish omillari va mavjud muammolarni o‘rganadi. Yangi texnologiyalar, moliya, ilmiy izlanishlar, ta’lim va boshqaruv tizimi kabi omillar muzeylar faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Muammolar, jumladan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, boshqaruvdagi kamchiliklar va jamiyatning muzeylarga bo‘lgan munosabatini yaxshilash zarurati tahlil qilinadi. Maqolada bu muammolarni*

bartaraf etish uchun taklif etilgan yechimlar ham ko‘rsatiladi.

***Kalit so‘zlar**: Muzeyshunoslik, rivojlanish omillari, texnologiyalar, moliya, ilmiy izlanishlar, muzey boshqaruvi, jamiyat, madaniy meros, ta’lim, marketing, resurslar, innovatsiyalar, virtual muzey.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на развитие музееведения, а также существующие проблемы в этой области. Новые технологии, финансирование, научные исследования, образование и управление являются ключевыми аспектами для улучшения эффективности работы музеев. В статье анализируются проблемы, такие как ограниченные финансовые ресурсы, недостатки в управлении и необходимость улучшения общественного отношения к музеям. Также предлагаются решения для устранения этих проблем.*

***Ключевые слова:** Музееведение, факторы развития, технологии, финансы, научные исследования, управление музеем, общество, культурное наследие, образование, маркетинг, ресурсы, инновации, виртуальные музеи.*

***Abstract:**This article explores the factors influencing the development of museology and the existing issues in the field. New technologies, finance, scientific research, education, and management play a crucial role in improving the effectiveness of museum operations. The article analyzes problems such as limited financial resources, management deficiencies, and the need to improve public relations with museums. Solutions to overcome these issues are also proposed.*

***Keywords:** Museology, development factors, technologies, finance, scientific research, museum management, society, cultural heritage, education, marketing, resources, innovations, virtual museums.*

Muzeyshunoslik — bu muzeylar va ularning kolleksiyalarini o‘rganish, muzey faoliyatini rivojlantirish, va madaniy merosni saqlash bilan bog‘liq ilmiy soha. Muzeylar jamiyatda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular tarixiy, madaniy va ilmiy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda markaziy vazifani bajaradi. Muzeyshunoslikning rivojlanishi nafaqat muzeylarning faoliyatini yaxshilash, balki jamiyatning madaniy va ilmiy darajasini oshirish uchun ham zarur. Hozirgi kunda, yangi texnologiyalar, iqtisodiy resurslar va ilmiy izlanishlar kabi omillar muzeyshunoslikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun kompleks yechimlar talab etiladi. Ushbu maqolada muzeyshunoslikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Muzeyshunoslikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator omillar mavjud. Bu omillar nafaqat muzeylar faoliyatining samaradorligini oshirish, balki ularning jamiyatda tutgan o‘rnini mustahkamlashga ham yordam beradi. Quyida muzeyshunoslik sohasining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va ular bilan

bog‘liq muammolarni ko‘rib chiqamiz.

1. Yangi texnologiyalar va raqamli transformatsiya

Bugungi kunda texnologiyalar muzeyshunoslik sohasining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida muzeylar o‘z kolleksiyalarini raqamlashtirish, virtual turlar va interaktiv dasturlarni joriy qilish imkoniyatiga ega. Bu esa, o‘z navbatida, muzeylarni keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Raqamli transformatsiya muzeylarga o‘z resurslarini samarali boshqarish va yangi avlodni jalb qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish ko‘plab mablag‘ va texnik yutuqlarni talab qiladi, bu esa ba’zi muzeylar uchun muammo bo‘lishi mumkin.

2. Moliya va investitsiyalar

Muzeylarning rivojlanishi uchun doimiy moliyaviy yordam zarur. Aksariyat muzeylar davlat tomonidan moliyalashtirilsa-da, bu resurslar ko‘pincha cheklangan. Muzeylarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun turli manbalardan mablag‘ yig‘ish zarur. O‘z-o‘zini moliyalash, homiylik dasturlari va muzey turlarini tashkil etish orqali muzeylar o‘z faoliyatlarini kengaytirishlari mumkin. Bunda turizm, muzeylarga bag‘ishlangan maxsus tadbirlar va eksponatlar sotish kabi usullar ham qo‘llanilishi mumkin.

3. Ta’lim va ilmiy izlanishlar

Muzeylar faqat tarixiy va madaniy merosni saqlash bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy va ta’limiy markazlar sifatida ham xizmat qilishadi. Muzeylarda tashkil etilgan ta’limiy dasturlar, ilmiy anjumanlar va tadqiqotlar yangi avlodni ilmiy izlanishlarga jalb qilishda muhim o‘rin tutadi. Muzeyshunoslikning rivojlanishi, ayniqsa, ilmiy izlanishlar va yangi kashfiyotlar bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi kunda ilmiy izlanishlar uchun yetarli resurslar va malakali mutaxassislar zarur, chunki ular muzeylarning ilmiy va ta’limiy funksiyalarini samarali bajarish uchun muhim ahamiyatga ega.

4. Jamiyat va madaniy merosni saqlash

Muzeylar jamiyatning madaniy va tarixiy merosini saqlovchi muhim muassasalardir. Jamiyatning muzeylarga bo‘lgan munosabati va ularning o‘rni madaniy merosni saqlashda katta rol o‘ynaydi. Muzeylar o‘z faoliyatida faqat turistik jozibadorlikni emas, balki jamiyatni tarbiyalash va madaniy ongni shakllantirishni ham maqsad qilishi kerak. Buning uchun muzeylar jamiyatning barcha qatlamlariga erishishi, ilmiy va madaniy tadbirlar o‘tkazishi zarur. Aksariyat muzeylar ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lishi va turli kommunikatsion vositalardan foydalanishi kerak.

5. Muzey boshqaruvi va marketing

Muzeylar samarali boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi zarur. Boshqaruv va marketing sohalarida mavjud zaifliklar muzeylarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Muzeylar uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish, yangi auditoriyalarni jalb qilish va muzeyning brendini yaratish muhimdir. Shuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va xodimlar malakasini oshirish muzeylarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Tajriba va sinovlar natijalari

Muzeyshunoslik sohasida amalga oshirilgan tajriba va sinovlar natijalari, ko‘plab muzeylarning rivojlanishiga yordam bergan muhim faktorlardan biri bo‘ldi. Ushbu tajribalar va sinovlar orqali, muzeylarning ilmiy va madaniy o‘zgarishlarga moslashish qobiliyati, yangi texnologiyalarni joriy etish, auditoriyalarni kengaytirish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish borasidagi yutuqlar ko‘rsatilgan. Quyida ba’zi tajribalar va sinovlarning natijalari taqdim etiladi:

1. Raqamli texnologiyalarni joriy etish

Ko‘plab muzeylar raqamli texnologiyalarni o‘z faoliyatiga joriy etish orqali o‘z resurslarini keng auditoriyaga taqdim etdi. Masalan, ayrim muzeylar virtual turlarni taklif etib, global auditoriyaga erishish imkoniyatini yaratdi. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida juda muhim bo‘ldi, chunki fizik ravishda muzeylarga tashrif buyurish imkoniyati cheklangan edi. Sinov sifatida raqamli ko‘rgazmalar va virtual eksponatlar tashkil etilgan muzeylarda, ko‘rsatilgan eksponatlarning onlayn tashriflari va izohlarini kuzatish orqali foydalanuvchilar soni oshdi, bu esa muzeylarning global miqyosda tanilishiga yordam berdi.

2. Moliya va homiylik dasturlari

Birinchi sinovlar muvaffaqiyatli bo‘lib, muzeylarning moliyaviy mustahkamligini ta’minlash uchun turli homiylik dasturlari va ijtimoiy mas'uliyatli loyihalar amalga oshirildi. Ayrim muzeylar, homiylar va xususiy sektor bilan hamkorlikda o‘z mablag‘larini oshirdi. Bu tajriba orqali, muzeylar yangi homiylik tizimlari, donorlardan mablag‘ yig‘ish va sponsorlardan qo‘llab-quvvatlash orqali o‘z moliyaviy holatini barqarorlashtirdi. Tajriba natijalariga ko‘ra, muzeylar o‘z faoliyatini kengaytirish va yangilanish uchun yangi moliyaviy manbalarni izlashni davom ettirish zarurligini ko‘rsatdi.

3. Ta’lim dasturlari va ilmiy izlanishlar

Muzeylarda ilmiy tadqiqotlar va ta’limiy dasturlarni amalga oshirish orqali, yosh avlodni ilmiy izlanishlarga jalb qilishning ijobiy natijalari kuzatildi. Sinov sifatida taqdim etilgan ta’lim dasturlari va ilmiy seminarlar muzeylarga yangi auditoriya, ayniqsa yoshlarni jalb qilishga yordam berdi. Ilmiy-tadqiqotlar va anjumanlar o‘tkazish orqali, muzeylar o‘z ilmiy imidjini mustahkamladi va

mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirdi.

4. Muzey boshqaruvi va marketingni rivojlantirish

Muzeylar boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun bir qator tajriba va sinovlarni amalga oshirdi. Bunda yangi marketing strategiyalarini ishlab chiqish va muzeylarning brendini yaratish asosiy o‘rinda turdi. Sinovlar orqali ko‘rsatilganidek, samarali marketing va kommunikatsiya tizimi muzeylarning tashrif buyuruvchilar sonini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi. Ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish, targ‘ibot va reklama kampaniyalarini tashkil etish orqali, muzeylar o‘z brendini yaratish va yangi auditoriyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

5. Jamiyat bilan aloqalar va madaniy merosni saqlash

Muzeylarning jamiyat bilan aloqalarini yaxshilash va madaniy merosni saqlashdagi sinovlar muvaffaqiyatli bo‘ldi. Muzeylar ko‘plab ijtimoiy tadbirlar, festivallar va ko‘rgazmalar tashkil etish orqali jamiyatning turli qatlamlarini o‘ziga jalb etdi. Jamiyatga xizmat qiluvchi muzeylar o‘z faoliyatini yanada kengaytirishga muvaffaq bo‘ldi va madaniy merosni saqlashni samarali amalga oshirishda muhim o‘rin egalladi.

Muzeyshunoslik sohasining rivojlanishi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning samarali ishlashi muzeylarning jamiyatdagi ahamiyatini oshirishga yordam beradi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, ilmiy izlanishlar va ta’limiy dasturlar orqali muzeylar o‘z faoliyatini kengaytirishga erishmoqdalar. Shuningdek, muzeylarning jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlash va madaniy merosni saqlashda o‘ziga xos muhim rol o‘ynaydi. Sinovlar va tajribalar orqali amalga oshirilgan ijobiy o‘zgarishlar muzeylarning innovatsion va ta’limiy imkoniyatlarini kengaytirishga, yangi auditoriyalarni jalb qilishga, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, muzeylar boshqaruv tizimini takomillashtirish, marketingni rivojlantirish va yangi strategiyalarni joriy etish orqali o‘z o‘rnini mustahkamlashda davom etmoqda.

Muzeyshunoslik sohasidagi muammolarni hal qilish va rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda, ilmiy izlanishlar, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Kelajakda muzeylar faqat madaniy merosni saqlash emas, balki jamiyatning rivojlanishiga va bilim olishga xizmat qiladigan markazlarga aylanishi kerak. Bu borada amalga oshirilgan ishlar va yutuqlar, muzeyshunoslik sohasining kelajakda yanada rivojlanishiga asos yaratadi.

Muzeyshunoslik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar

1. Moliya va mablag‘ taqchilligi

Muzeylar va ularning tadqiqotlari uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar ko‘pincha cheklangan bo‘ladi. Mablag‘ning yetishmasligi yangi eksponatlar sotib olish, ularni saqlash va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish jarayonlariga to‘sqinlik qiladi. Bu holat muzeylarning texnologik jihatdan rivojlanishiga va ilmiy ishlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yechim: Muzeylarga davlat tomonidan beriladigan subsidiya va grantlarni oshirish, shuningdek, xususiy sektor va xayriya tashkilotlari bilan hamkorlikda mablag‘ jalb qilish zarur. Muzeylarning faoliyatiga qiziqish uyg‘otish uchun turli ijtimoiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish mumkin.

2. Eksponatlar va materiallarni saqlash muammolari

Muzeylarda saqlanadigan eksponatlar va materiallarning saqlanishi ularning sifatini saqlash uchun juda muhimdir. Ko‘p muzeylarda eski materiallarning konservatsiyasi va saqlanishi uchun zarur texnik imkoniyatlar yo‘qligi, natijada eksponatlar buzilib, yo‘qolishi mumkin.

Yechim: Modern texnologiyalarni qo‘llash va ilmiy konservatsiya metodlaridan foydalanish zarur. Muzeylar uchun maxsus ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, yangi saqlash texnologiyalarini joriy etish muzeyshunoslikni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Kadrlar tayyorlash va malakali mutaxassislar yetishmasligi
4. Muzeyshunoslikni rivojlantirish uchun malakali mutaxassislar, tadqiqotchilar va konservatorlar kerak. Ammo hozirgi kunda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, muzeyshunoslik bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimi unchalik rivojlanmagan. Bu muzeylarning ilmiy ishlarini samarali olib borishiga to‘sqinlik qiladi.

Yechim: Muzeyshunoslik bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlikni kuchaytirish kerak. Shuningdek, muzeylarda malaka oshirish dasturlarini tashkil etish zarur.

4. Texnologiyalar va raqamli resurslardan foydalanish

Hozirgi kunda texnologiyalarning rivojlanishi muzeylarning faoliyatida ham o‘z aksini topmoqda. Ko‘plab muzeylar raqamli arxivlarni yaratish va interaktiv texnologiyalarni o‘rnatish orqali eksponatlar va materiallarni keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Biroq, bu jarayon

Yechim: Muzeylarga raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun o‘quv va ko‘mak dasturlarini ishlab chiqish, xususan kichik va o‘rta hajmdagi muzeylar uchun raqamli imkoniyatlarni kengaytirish zarur.

5. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish

Muzeylar o‘z faoliyatini keng auditoriyaga tanitishda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanishda muammolarga duch kelmoqda. Bu, ayniqsa, kichik va hududiy muzeylar uchun muammo hisoblanadi, chunki ular resurslarning cheklanganligi sababli keng targ‘ibot imkoniyatlaridan foydalana olmaydi.

Yechim: Muzeylarni ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda kengroq tanitish, ular uchun reklama va targ‘ibot kampaniyalarini ishlab chiqish muhimdir.

Xulosa Muzeyshunoslik rivojlanishi ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, bu omillar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Muzeylarning samarali faoliyat yuritishi uchun moliya, kadrlar tayyorlash, texnologik rivojlanish, konservatsiya va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, muzeylar va muzeyshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, hamda malakali mutaxassislar tayyorlash zarur. Muzeyshunoslik sohasining rivojlanishi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, har bir omil o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy resurslar, ilmiy izlanishlar, jamiyat bilan aloqalar va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish orqali muzeylar o‘z faoliyatini yanada samarali va rivojlangan shaklda olib borishlari mumkin. Shuningdek, muzeylarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini oshirish, madaniy merosni saqlash va yangi avlodni ilmiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda ularning roli katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov, F. (2020). Muzeyshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

2. Karimova, S. (2019). Muzey va madaniy meros: yangi yondashuvlar. Tashkent: TDPU nashriyoti.

3. Nasimov, S. (2018). Muzeyshunoslikning rivojlanishi: tarixiy va zamonaviy qarashlar. Toshkent: SciencePress.

4. Soliev, R. (2021). Muzeyda raqamli texnologiyalar. Toshkent: Innovatsion Ta’lim.

5. Tursunov, A. (2017). Muzey boshqaruvi va marketing. Toshkent: Ekonomika va statistika.

6. Yusupov, M. (2015). Muzeylar va jamiyat: madaniy aloqalar. Tashkent: “Moliya” nashriyoti.

ko‘pincha yuqori xarajatlarni talab qiladi va barcha muzeylar bu imkoniyatlardan foydalanishga qodir emas.

МУМИНОВ Искандар Талибович
Руководитель проекта
ННО Международный общественный
Фонд имени Шарафа Рашидова

ЦИФРОВОЙ ИСТОРИЧЕСКИЙ АРХИВ ФОНДА ШАРАФА РАШИДОВА КАК УДОБНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПОИСКА МАТЕРИАЛОВ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА

Аннотация: *В публикации автор рассказал о плюсах Цифрового исторического архива при использовании его в поиске материалов о зарубежных визитах Шарафа Рашидова в советский период Узбекистана. Полученные в результате поиска данные можно применить в других цифровых проектах Фонда, таких, как интерактивная карта. Также эти материалы можно использовать для обновления экспозиций музея в Джизаке, связанных с зарубежными визитами Шарафа Рашидова.*

Ключевые слова: *Шараф Рашидов, зарубежные визиты, цифровой исторический архив, контекстный анализ, фронтальный обзор, периодика, интерактивная карта, обновление музеев.*

Maqola haqida: *Nashrda Sharaf Rashidovning O‘zbekistonning Sovet davridagi xorijiy tashriflari haqidagi materiallarni izlashda qulay vosita sifatida Digital Historical Arxivedan foydalanishning afzalliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilgan. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, buni Fondning boshqa raqamli loyihalarida, masalan, Interaktiv xaritada amalga oshirish mumkin. Olingan materiallardan Sharaf Rashidovning xorijiy safarlariga oid Jizzaxdagi muzey eksponatlarini yangilash uchun foydalanish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Sharaf Rashidov, xorijiy tashriflar, raqamli tarixiy arxiv, kontekstual tahlil, frontal sharh, davriy nashrlar, interaktiv xarita, muzey yangilanishi.*

Abstract: *The publication presents data on the advantages of using the Digital Historical Archive as a convenient tool for searching for materials on Sharaf Rashidov's foreign visits during the Soviet period of Uzbekistan. Based on the data obtained, this can be implemented in other digital projects of the Foundation, such as the Interactive Map. The obtained materials can be used to update the expositions of the museum in Jizzakh related to Sharaf Rashidov's foreign visits.*

Keywords: *Sharaf Rashidov, foreign visits, digital historical archive, contextual analysis, frontal review, periodicals, interactive map, museum renewal.*

Международный общественный фонд имени Шарафа Рашидова (далее Фонд) разработал и создал Цифровой исторический архив (далее ЦИА), который вобрал материалы об эпохе и деятельности Шарафа Рашидова [1].

В ЦИА собраны архивные материалы из разных источников, фотографии, фонодокументы, кинохроника, периодика разных лет, а также другие данные. Эти материалы рассортированы по тематикам от дипломатии до экономики и искусства.

Если в 2022 году объем цифровых материалов составлял около 7 терабайтов, то к концу 2024 года достиг более 11 терабайтов, из которых в ЦИА было занесено 280 гигабайтов и 4311 архивных документов в цифровой форме. Еще предстоит большая работа по внесению данных, но благодаря ЦИА эти данные можно систематизировать, а также проводить тематический поиск.

Исследовательская часть. ЦИА Международного общественного фонда имени Шарафа Рашидова позволяет конвертировать исторические документы в электронный вид и загружать их в базу данных, вести учет и хранение документов, проводить аналитику и находить скрытые связи между электронными документами. Также в ЦИА предусмотрен быстрый многофакторный (за один раз можно использовать до четырех факторов) поиск данных по метаданным. Можно создавать краткие отчеты к каждому документу и выводить их на печать.

По своим техническим характеристикам ЦИА разработан на платформе 1С 8.3, с использованием Библиотеки стандартных процедур (БСП) версии 3.1.9.277. Это приложение разработано по технологии управляемых форм, что позволяет работать с базой данных как в локальной сети, так и через интернет.

Метаданные электронного документа можно хранить на трех языках и четырех алфавитах (узбекский – кириллица, узбекский – латиница, русский, английский), вводить данные можно на любом из этих языков.

ЦИА дает возможность отбирать тематические материалы о деятельности Шарафа Рашидова, в том числе по хронологии, регионам, странам и персоналиям, с кем он встречался во время своих зарубежных визитов. Используя ЦИА, удалось собрать, систематизировать и вычленить из общего объема данных материалы, касающиеся зарубежных визитов Шарафа Рашидова.

Данные по зарубежным визитам Шарафа Рашидова собирались из местных архивных источников, архивов РФ, Италии, а также периодических местных советских, центральных советских, иностранных изданий. При поиске материалов о зарубежных визитах Шарафа Рашидова использовался фронтальный обзор всей периодики с 1955 по 1983 годы.

В работе использовались публикации центральных газет, таких как «Правда», «Известия». «Правда» была главной коммунистической трибуной в Советском Союзе, рупором идеологической линии Коммунистической партии и правительства СССР. Центральная газета «Известия» – официальный орган Верховного Совета СССР. А также публикации газеты «Правды Востока», которая была органом ЦК Коммунистической партии Узбекской ССР, Верховного Совета и Совета Министров Узбекистана, газеты «Красный Октябрь» Сызранского Горкома и Райкома, Горсовета, Райисполкома и

Таким образом, статья направлена на выявление тех тенденций и проблем, которые актуальны для музеев Узбекистана в рамках кросс-культурных взаимодействий, и поиск путей их решения с учетом современных вызовов и возможностей для дальнейшего развития музейной сферы в стране.

II. Главная часть.

Музееведение Узбекистана находится на пути активной модернизации и интеграции в международное сообщество. Однако этот процесс сопровождается целым рядом проблем, связанных с кросс-культурными взаимодействиями[3]. Эти вызовы в первую очередь касаются вопросов балансирования национальной и глобальной идентичности в музейной практике, подготовки квалифицированных специалистов и внешних политических и экономических ограничений.

Одной из ключевых проблем в области музееведения Узбекистана является балансирование между национальной культурной идентичностью и глобальными музейными тенденциями. Узбекистан обладает богатым культурным наследием, которое активно продвигается на международной арене. В то же время в последние десятилетия усиливается глобализация, которая требует от музеев адаптации к международным стандартам и интересам.

Музеи сталкиваются с необходимостью внедрения международных стандартов в своей работе, что иногда вступает в противоречие с традиционными подходами и методами работы. Важным вопросом становится сохранение и представление национального наследия в контексте глобальных тенденций. Например, создание выставок, ориентированных на международную аудиторию, может подвергать сомнению способы интерпретации объектов, что иногда приводит к конфликту между сохранением аутентичности и потребностью в унификации подходов для привлечения более широкой аудитории.

Кроме того, существует опасение, что избыточное влияние западной музейной практики может затмить уникальные черты узбекской культуры. Вопрос о том, как сохранить и демонстрировать локальные особенности, не теряя при этом взаимопонимания с глобальной аудиторией, остается актуальным.

Другим важным аспектом является нехватка специалистов, обладающих глубокими знаниями о международных музейных практиках и тенденциях. Музееведение в Узбекистане только начинает развивать свои кадры в контексте современных требований, что приводит к дефициту

высококвалифицированных кадров, способных эффективно работать в условиях кросс-культурного взаимодействия.

Кроме того, система подготовки музейных работников в Узбекистане часто не успевает за быстро меняющимися мировыми стандартами. Важно наладить сотрудничество с международными образовательными и исследовательскими учреждениями для обмена знаниями и опытом. Отсутствие доступа к современным программам обучения и стажировкам в ведущих музеях мира также ограничивает возможности узбекских специалистов для внедрения новаторских идей и технологий в работу музеев.

Решение этой проблемы требует не только совершенствования образовательной системы, но и создания условий для постоянного обмена опытом и интеграции в международные сети музеев и культурных учреждений.

Несмотря на позитивные изменения последних лет, когда Узбекистан активно стремится укрепить свои международные позиции, политическая и экономическая нестабильность может стать значительным барьером для устойчивого развития музейной сети в контексте глобальных тенденций.

Таким образом, кросс-культурные взаимодействия в музееведении Узбекистана сталкиваются с множеством вызовов, включая конфликт культурных идентичностей, нехватку подготовленных специалистов и политические экономические ограничения. Однако с учетом активного стремления к модернизации и международному сотрудничеству, можно ожидать, что эти проблемы будут постепенно преодолеваться. Для этого необходимо продолжать усилия по балансированию национальной и глобальной идентичности, развивать образовательные и профессиональные обмены, а также учитывать политические и экономические условия, которые будут способствовать созданию устойчивых международных культурных связей[4].

III. Научно-теоретические предложения и рекомендации.

Кросс-культурные взаимодействия играют ключевую роль в развитии музееведения в Узбекистане, открывая новые горизонты для трансформации и улучшения музейной деятельности. В последние десятилетия, благодаря глобализации, культурным обменам и международным сотрудничествам, Узбекистан стал важным участником глобальной музейной сети. Это взаимодействие позволяет не только обогатить культурное наследие страны, но и значительно улучшить профессиональные практики в сфере музееведения.

Расширение культурных горизонтов: Кросс-культурные взаимодействия открывают новые возможности для знакомства с мировой музейной практикой. Это способствует внедрению современных технологий в музейное дело, использованию новых форматов экспозиций, а также развитию международных выставок, которые помогают укрепить связи с зарубежными партнерами.

Обогащение коллекций и знаний: Музеи Узбекистана через взаимодействие с зарубежными учреждениями имеют возможность обмена

коллекциями, а также получения новых знаний и экспертных оценок. Это не только увеличивает ценность экспонатов, но и способствует их лучшей сохранности, исследованию и интеграции в международный контекст.

Развитие кадров и образовательных инициатив: Кросс-культурное сотрудничество способствует обмену опытом и обучению музейных специалистов. Совместные образовательные программы и тренинги с международными экспертами способствуют повышению квалификации и улучшению профессиональных навыков сотрудников музеев.

Сохранение и популяризация культурного наследия: Узбекистан имеет уникальное историко-культурное наследие, которое в рамках международных кросс-культурных проектов может быть представлено широкой аудитории. Музеи, активно взаимодействующие с международными партнерами, могут более эффективно решать задачи по сохранению и популяризации своего наследия на мировом уровне.

Развитие международных партнерств и проектов: Узбекистан должен активнее развивать партнерские отношения с ведущими музейными организациями по всему миру. Для этого необходимо создавать условия для участия музейных специалистов в международных конференциях, выставках и симпозиумах. Это укрепит связи с мировым музейным сообществом и позволит обмениваться знаниями и опытом.

Инвестиции в современные технологии: Внедрение современных технологий, таких как цифровизация коллекций, виртуальные туры, интерактивные выставки, обеспечит доступ к музейным ресурсам для более широкой аудитории, в том числе международной. Узбекистан должен активно инвестировать в эти направления, чтобы повысить привлекательность своих музеев.

Усиление образовательных программ: Для повышения квалификации музейных работников Узбекистану следует разработать специальные курсы и программы обучения, ориентированные на современные тенденции музееведения и кросс-культурные взаимодействия. Студенты и профессионалы должны иметь доступ к международным образовательным платформам и возможности для стажировок за рубежом.

Поддержка сохранения культурного наследия: Сохранение культурных объектов в Узбекистане должно стать приоритетом, особенно в рамках глобальных кросс-культурных проектов. Важно поддерживать не только физическую сохранность, но и историческую и культурную значимость объектов, обеспечивая их интеграцию в мировую культуру.

Привлечение туристов и развитие музейной инфраструктуры: В целях популяризации музеев Узбекистана и повышения их привлекательности для туристов, необходимо улучшать музейную инфраструктуру, создавать условия для удобного посещения и организации культурных мероприятий. Это также будет способствовать увеличению международных культурных обменов.

Кросс-культурные взаимодействия могут значительно ускорить развитие музееведения в Узбекистане, предоставив новые возможности для

расширения горизонтов музейной деятельности и повышения международного признания культурного наследия страны.

Список использованной литературы:

1. Джураев, К. (2018). Культурная дипломатия Узбекистана: роль музеев в международном сотрудничестве. Ташкент: Узбекская государственная академия искусств.
2. Куликова, М. С. (2019). Цифровизация музеев и ее влияние на кросс-культурные взаимодействия. Москва: Институт культурной политики.
3. Шарафуддинов, М. А. (2020). Музееведение в Центральной Азии: традиции и новации. Ташкент: Восточный университет.
4. Руденко, С. И. (2020). Глобализация и трансформация музеев: проблемы сохранения идентичности. Москва: Академический проект

AMANXODJAYEVA Gulnora Nigmatdjanovna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi
amanxodjayeva@mail.ru

MADANIY MEROS VA XALQARO HUQUQIY TIZIMNING TADRIJIY RIVOJLANISHI

Anotatsiya :*Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida ratifikatsiya qilingan va tarixiy madaniy yodgorliklar muhofazasiga joriy qilingan xalqaro huquqiy xujjatlar xronologik asosda tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu meyoriy xujjatlarning ko'char va ko 'chmas madaniy boyliklar muhofazasida tutgan o'rni tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniy meros, yodgorliklar, Afina xartiyasi, Gaaga konvensiyasi, Rerix Pakti, muxofaza, ratifikatsiya, xalqaro meyo'riy xuquqiy xujjatlar*

Аннотации:*В данной статье на хронологической основе проанализированы международно-правовые документы, ратифицированные в конце XIX-начале XX века и внесенные в историко-культурные памятники, а также исследована роль этих нормативных документов в соотнесении движимых и недвижимых культурных ценностей.*

Ключевые слова: *Ключевые слова: культурное наследие, памятники, Афинская Хартия, Гаагская конвенция, пакт Рерикса, мухофаза, ратификация, международные культурные документы.*

Annotations: *This article chronologically analyzes international legal documents ratified in the late XIX-early XX century and included in historical and cultural monuments, and also examines the role of these normative documents in the correlation of movable and immovable cultural values.*

Key words: *cultural heritage, monuments, Athens Charter, Hague Convention,*

rerix Pact, governorate, ratification, international cultural documents.

XX asr boshlariga kelib, ko‘p davlatlarda madaniy merosni asrash masalalari milliy darajada ishlab chiqilgan edi. Ammo milliy huquq normalari xalqaro darajada ko‘pincha o‘zaro zid kelib qolayotgan edi. Shu tariqa yodgorliklarni va san’at asarlarini asrashning xalqaro tizimini yaratishga zarurat keskin ortib boraverdi, bu haqida yodgorliklarni himoya qilish sohasida ishlayotgan mutaxassislarning konferensiyalarida, kongresslarda, turli-tuman yig‘ilishlarda so‘z borar edi.

1889 yilda Butunjahon ko‘rgazmasi doirasida Parijda arxitektor Sharl Garnye raisligida o‘tkazilgan “Yodgorliklar va san’at asarlarini muhofaza qilish bo‘yicha birinchi xalqaro kongress” faqat madaniy merosni asrashga bag‘ishlangan birinchi yig‘ilish bo‘lib tarixga kirdi. U 1885 yilda tuzilgan va Sharl Normann boshchilik qiladigan “Parij yodgorliklarining do‘stlari” (Amus des Monuments Parisiens) tashkilotining sa’y-harakatlari tufayli bo‘lib o‘tdi.

Tashkilot a’zolari va ularning tarafdorlari konservatsiyalashga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish qoidalarini himoya qilishar va ular bu jihatdan XIX asr o‘rtalarida Violle-de-Dyuk tomonidan e’lon qilingan stilistik ta’mirlash qoidalariga tayanuvchi Fransiya tarixiy yodgorliklar komissiyasiga nisbatan g‘oyaviy muxolifatda turishar edi. Kongressda Yevropa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Shimoliy Amerika mamlakatlari vakillari qatnashdi. Ishtirokchilar orasida Rossiya imperiyasidan haykaltarosh Mark Antakolskiy, vitse-admiral I.F.Lixachev, grafinya P.S.Uvarova bor edi.

Madaniy merosni qo‘riqlash (muhofaza qilish) masalasini o‘rganishda tarixiy va nazariy-metodologik yo‘nalish yaqqol qo‘zga tashlanadi. Birinchi yo‘nalish madaniy merosni o‘rganish tarixini o‘z ichiga olsa, ikkinchisi esa, terminologiya sohasidagi nazariy ishlanmalarni, yodgorliklarni baholashning ilmiy mezonlarini, fanlararo bilimlarning turi sifatida qadimiy narsalarni qo‘riqlash sohasining tavsifini qamrab oladi.

Hozirgi adabiyotlar dunyoda yangi madaniy mo‘jiza (fenomen) – madaniy va tabiiy meros sohasida ta’lim berishning paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

Merosning qadrlilik tavsifi mezonlari: xronologik, sakral, memorial, estetik, noyoblilik va ijtimoiy qadrlilik.

Xronologik mezon – bu obyektning qurilishi va hozirgi zamon o‘rtasidagi vaqt oralig‘ining uzunligi bilan o‘lchanadigan “obyektning” yoshi.

Sakral mezon obyektlarning faqat diniy mansubligini emas, balki obyektlarning jamiyatni anglashdagi roli nuqtai nazaridan “muqaddasligini” belgilaydi: milliy mustaqillik, etnik noyoblik, shaxsni sotsiumning qismi sifatida anglash, qo‘riqlanadigan obyektlarning ochilmagan jihatlarini tadqiq etadi. Sakrallik prinsipi tarixiy shaxslarni baholashda ham qo‘llaniladi (knyazlar, qirollar, imperatorlar, olimlar, donishmandlar, yozuvchilar va h.k.).

Memorial mezon – bu obyektning muayyan shaxs yoki tarixiy voqea bilan bog‘liqligini aniqlashdir. Memorial mezon yodgorlikni aniqlashtirish, uning relikvarligini tushuntirish nuqtai nazaridan predmetning noyobligini aniqlashtirishni taqozo etadi, bunda obyektning alohida e’zozlanadigan shaxsga, holatga, voqeaga daxldorligini anglashda yuqori darajada emotsional ta’sir ko‘rsatadigan o‘ziga

xosliklarni oydinlashtirish zarur bo‘ladi.

Estetik mezon – obyektga baho, tavsif beriladigan yoki obyekt tasniflanadigan belgidir. Fanda estetika muammolari katta qiziqish uyg‘otadi va u hali yechim topishdan ancha uzoqdadir. Haqiqiy estetik baholash muayyan tayyorgarlikni, qiyoslash uchun ma’lumotlar to‘plamini, ilmiy bilimlarni taqozo etadi.

Madaniy merosni asrash sohasida xalqaro hamkorlik shakllanishining boshlanishi Xalqaro muzeylar kengashi (keyingi o‘rinlarda XMK deb ataladi) faoliyati bilan bog‘liqdir. Uning paydo bo‘lish tarixi Fransiyaning 1922 yildagi Millatlar ligasi doirasida Intellektual hamkorlik bo‘yicha xalqaro komissiya tuzish haqidagi taklifiga borib taqaladi. 1926 yilda Fransiyaning moliyaviy ko‘magida Parijda Xalqaro intelektual hamkorlik instituti tuzildi, u amalda komissiyaning ishchi organiga va Millatlar ligasining doimiy kotibiyatiga aylandi. Komissiya o‘z faoliyatini 1939 yilda tugalladi, Institut esa 1940 yilgacha faoliyat ko‘rsatdi, keyin 1945 yilda qayta ochildi va o‘z faoliyatiga 1946 yilda nuqta qo‘ydi hamda o‘z vakolatlarini yangi tuzilgan YUNESKOga topshirdi.

Kongressda Sh.Normann tomonidan urush vaqtida madaniy merosni himoya qilish to‘g‘risida xalqaro konvensiyani imzolash va Yodgorliklarning qizil xoch tashkilotini tuzish g‘oyasi birinchi marta ilgari surildi.

Oradan qirq yil o‘tgach, musavvir, faylasuf va jamoat arbobi Nikolay Rerix Madaniyat qizil xoch tashkilotini tuzish g‘oyasini yana kun tartibiga qo‘ydi. Kongress ishtirokchilari madaniy boyliklarni o‘g‘irlash va noqonuniy olib ketish; ta’mirlash doirasida yodgorlikning asl holatini saqlab qolish; tarixiy rejalar va chizmalarning xalqaro arxivlarini barpo etish; yodgorliklar buzilganda keng jamoatchilikka ularning chizmalari, mulyajlari yoki fotosuratlarini taqdim qilish lozim masalalariga daxldor ichki qonunlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati kabi muhim muammolarni ko‘tarib chiqdilar.

1889 yildagi kongress XX asrda madaniy merosni muhofaza qilishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Muhokamalar doirasida keyinchalik madaniy va tabiiy merosni asrashning zamonaviy mafkurasiga aylangan qator g‘oyalar, fikr-mulohazalar bildirildi. 1931 yilda Afina shahrida o‘tkazilgan Arxitektorlar va tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarning birinchi kongressi XMK faoliyatining ilk muhim qadamlaridan biri bo‘ldi. Kongress yakunida Tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash bo‘yicha Afina hartiyasi qabul qilindi. Afina hartiyasi o‘tgan davrlarning badiiy merosi mutlaq qadriyat, boylik ekanligini e’tirof etdi. U yodgorlikni ta’mirlashdan ko‘ra o‘z holicha asrash va konservatsiyalashning ustunligini tasdiqladi, ta’mirlash so‘nggi chora ekanligini ta’kidladi.

Afinada belgilangan dasturning amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida 1933 yilda XMK bo‘linmasi sifatida tuzilgan tarixiy yodgorliklar bo‘yicha xalqaro komissiya Afina kongressining amaliy natijalaridan biri bo‘ldi. Komissiya tarkibiga nafis san’at va tarixiy yodgorliklar bo‘yicha milliy davlat organlaridan vakillar kiritildi.

Qohiradagi konferensiya akti arxeologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikni boshlab berdi va bu sohadagi ichki normalarning shakllanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Uning qoidalari 1956 yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan

arxeologik qazishmalarni xalqaro tartibga solish prinsiplarini belgilab beruvchi Tavsiyanomalarda to‘ldirildi va kengaytirildi. 1969 yilda qabul qilingan va 1992 yilda qayta ko‘rib chiqilgan Arxeologik merosni muhofaza qilish to‘g‘risida Yevropa konvensiyasi bu sohadagi navbatdagi qadam bo‘ldi.

Madaniy boyliklarni o‘g‘irlash va noqonuniy olib ketishga qarshi kurashish. Arxeologik qazishmalarni reglamentatsiya qilish (tartibga solish) muammolari madaniy boyliklarni o‘g‘irlash va noqonuniy olib ketishga qarshi kurashish masalasini keskin kun tartibiga qo‘ydi. 1930-yillardayoq bu masalani xalqaro darajada hal qilishga birinchi urinishlar bo‘lgan edi. Bu davrga kelib, bu masalaga daxldor ichki normalar ko‘p davlatlarda nazarda tutilgan edi. Davlatlar olib chiqish taqiqlangan o‘ta qimmatli ashyolar ro‘yxatini tuzish; mamlakat tashqarisida sotilishini cheklash maqsadida san’at asarlarining ichki tasnifini yaratish; noqonuniy olib ketganlik uchun jinoiy jazo va baland miqdordagi jarimalar belgilash orqali o‘z milliy boyliklarini himoya qilishga harakat qildilar. Biroz tafovutlariga qaramasdan shunga o‘xshash choralar Italiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda qo‘llandi.

Iqtisodiy va moliyaviy tanazzulni keltirib chiqargan Birinchi jahon urushi tugagandan so‘ng san’at asarlarini ommaviy eksport qilish xavfi paydo bo‘ldi. Shu sababli ko‘p mamlakatlar madaniy boyliklarni olib chiqish haqidagi qonunlarni keskinlashtirdilar, bu bilan nafaqat kolleksionerlar va san’at mahsulotlari dilerlarining, balki san’at asarlari egalarining ham noroziligini keltirib chiqardilar. Masalan, 1920 yilda Fransiyada Xalq maorifi va nafis san’atlar vazirligining ruxsatisiz milliy manfaatni ifodalovchi barcha san’at asarlari va tarixiy ashyolarni olib chiqishni taqiqlovchi ko‘pchilikka maqbul bo‘lmagan qonun qabul qilindi. Olib chiqishga ruxsat berilgan ashyolar o‘z baholangan qiymatining 25%igacha yetuvchi to‘lovga tortildi.

1923 yil 24 yanvardagi Avstriyaning federal qonuni tarixiy, badiiy yoki madaniy boylik ashyolarini, jumladan, yashab turgan va vafotiga 20 yil bo‘lmagan mualliflarning asarlarini olib chiqishni taqiqladi. Ammo bu qonunning qabul qilinishi o‘sib borayotgan majburiy sotuvlardan milliy boylikni himoya qilish uchun yetarli bo‘lmay qoldi. Keskin moliyaviy tanazzul vaziyatida hukumat boyliklarni sotishga va olib chiqishga ko‘p marta ruxsat berishga majbur bo‘ldi.

Ammo bu masalalar milliy normalarda batafsil aks ettirilganiga qaramasdan madaniy boyliklar o‘g‘irlangan yoki noqonuniy olib ketilgan holatlarda 1930 yillardagi huquq darajasi ularning qaytarilishini kafolatlay olmasdi. Xalqaro huquq hatto milliy kolleksiyalardagi asarlarni ham samarali himoya qila bilmasdi. Milliy qonunlardagi ziddiyatlarni amalda bartaraf qilishning iloji yo‘q edi; bu masalalarni faqat mazkur sohadagi xalqaro bitimlar doirasida hal qilish mumkinligi aniq bo‘lib qoldi.

Xalqaro darajada madaniy boyliklar uchun qo‘shimcha kafolatlar zarurligini birinchilardan bo‘lib kapitan D.Fiorili 1905 yilda Venetsiyada bo‘lib o‘tgan Xalqaro badiiy kongressda ko‘rsatib o‘tgan edi. Shu vaqtdan boshlab bu g‘oya jamoatchilik o‘rtasida va ilmiy doiralarda qo‘llab-quvvatlana va rivojlana boshladi. 1930 yillarda bu masala Xalqaro muzeylar qo‘mitasida ko‘rib chiqish obyektiga aylandi, u yo‘qotilgan, o‘g‘irlangan va noqonuniy olib ketilgan madaniy boyliklarni qaytarish

to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyalarning bir nechta loyihasini tayyorladi. 1933 yilda ishlab chiqilgan 12 moddadan iborat birinchi loyiha xalqaro intellektual kooperatsiya instituti, Millatlar ligasi Kengashi va Assambleyasi, ko‘pgina mamlakatlarning hukumatlari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi. Ammo AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya loyihani qo‘llab-quvvatlashmadi. Natijada 1936 yilda 25 moddadan iborat loyihaning yangidan to‘ldirilgan va kengaytirilgan tahrir varianti paydo bo‘ldi.

Loyihaga muvofiq davlat o‘z hududidan o‘g‘irlash yoki sotish orqali noqonuniy olib chiqilgan paleontologik, arxeologik, tarixiy va madaniy boyliklarni qaytarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ldi (1-modda). Loyihada mulkiy huquqni cheklash nazarda tutilmagan edi, konvensiya ta’sir doirasiga tushuvchi ko‘p ashyolar keyinchalik unga cheklovlar kiritishga sabab bo‘ldi.

XIX asrdayoq urushlarga bag‘ishlangan xalqaro darajadagi turli normalarda tarixiy yodgorliklarni asrashga qaratilgan ayrim tavsiyalar bildirilgan edi. 1874 yilda Rossiya tashabbusi bilan chaqirilgan konferensiyada qabul qilingan Urush huquqi to‘g‘risidagi Bryussel deklaratsiyasida madaniy boyliklarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortish mumkinligi xalqaro-huquqiy amaliyotda birinchi marta nazarda tutildi. Bu deklaratsiya ratifikatsiya qilinmaganiga qaramasdan 1899 va 1907 yillardagi Gaaga tinchlik konferensiyalarida qabul qilingan quruqlikdagi urush qonunlari va odatlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi.

1899 yildagi Konvensiyaning 27-moddasi qoidalari “qamal va bombardirovka paytida imkon boricha ibodatxonalarni, fan, san’at va homiylik maqsadlarga xizmat qiluvchi binolarni, tarixiy yodgorliklarni, gospitallar va bemorlar va yaradorlar to‘plangan joylarni, bunday binolar va joylar bir vaqtning o‘zida harbiy maqsadlarga xizmat qilmasa, vayron qilmaslik” choralarini ko‘rishni yukladi. Shu mazmun bilan ushbu modda 1907 yildagi urush qonunlari va odatlari to‘g‘risidagi to‘rtinchi konvensiyaga kirdi. Bu normalarning yodgorliklarga nisbatan tatbiq etib bo‘linmasligi Birinchi jahon urushi vaqtidayoq ayon bo‘lib qoldi, o‘shanda ayniqsa Fransiya va Belgiyadagi yodgorliklar jiddiy shikastlangan va vayron bo‘lgan edi. Jumladan, Luvenda joylashgan o‘n beshinchi asrga mansub gotika usulidagi ibodatxona, G‘arbiy Yevropadagi qadimiy Luven universitetining kutubxonasi vayronaga aylandi; Reymsdagi kafedral sobor jiddiy shikastlandi; Ipr va Arras vahshiylarcha bombardimon qilindi.

Birinchi jahon urushi tugashi bilan jamoatchilik tomonidan bu yo‘nalishda navbatdagi qadam qo‘yildi. Taklif qilingan loyihalar urush olib borishning yangi shart-sharoitlariga yuqori darajada moslashganligi bilan ajralib turardi. Bern universitetining professori F.Vetter va Jeneva universiteti yuridik fakultetining professori Pol Morio 1915 yil 15 aprelda Jenevada bo‘lib o‘tgan jamoatchilik yig‘ilishida bu masalani hal qilishga qaratilgan takliflarni bildirdilar. Ular urush vaqtida arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish choralarini amalga oshirishni nazorat qilish maqsadida “Oltin xoch” xalqaro tashkilotini tuzish g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha, betaraf davlatning boshlig‘i yoki Gaaga xalqaro sudining prezidenti urushuvchi tomonlargai yodgorliklardan strategik maqsadlarda foydalanishni taqiqlash mandatiga ega bo‘lishi kerak.

Yodgorliklarni ajratuvchi belgilar bilan belgilash ham taklif qilindi. Bu g‘oyalar 1915 yil 15 avgustida endi Bryussel konferensiyasida yanada rivojlantirildi. Unda Germaniya, Avstro-Venriya va Shveytsariya vakillari Jenevada taklif qilingan yodgorliklarni muhofaza qilish va belgilash dasturini tahlil qildilar. Urush vaqtida yodgorliklarni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro komissiya tuzish rejasi konferensiyaning yakuni bo‘ldi.

Gollandiya arxeologiya jamiyati va Gaaga yuristlar komissiyasining loyihalari o‘zining aniqligi va barcha jihatlarning to‘la o‘ylanganligi bilan ajralib turardi. Gollandiya arxeologiya jamiyati 1918 yilda maxsus konvensiya tuzish yo‘li bilan urush vaqtida tarix va san’at yodgorliklarini muhofaza qilishni tartibga solishni amalga oshirishga da’vat qiluvchi ma’ruzani tayyorladi va Gollandiya Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etdi, shunday konvensiya loyihasini ham kiritdi. Loyihada madaniy merosni muhofaza qilishning samaradorligi ularni tinchlik davrida himoya qilish choralariga bevosita bog‘liq qilib qo‘yildi. Urush vaqtida ayrim yodgorliklarni asrash uning atrof-muhitini asrashni amalga oshirish mumkinligi g‘oyasi ilgari surildi. Shundan kelib chiqqan holda Rim, Parij, Florensiya, Venetsiya kabi katta miqdordagi madaniy boyliklar to‘plangan qator shaharlarni demilitarizatsiyalashgan shaharlar deb e’lon qilish taklif etildi.

Angliya, Fransiya, Gollandiya, Italiya, Yaponiya va AQSH vakillaridan iborat Gaaga yuristlar komissiyasi 1922-1923 yillar mobaynida havo urushini olib borish qoidalarini ishlab chiqdi, ularda alohida qiymatga ega madaniyat yodgorliklarini maxsus himoya qilishni ta’minlash taklif qilindi. Jumladan, himoya qilinadigan binolarga oq va qora rangli ikki uchburchakdan iborat markirovka qo‘yish taklif qilindi. Mashhur yodgorliklar atrofida 500 metrlik radiusdan oshmaydigan alohida qo‘riqlash hududlarini o‘rnatish taklifi bildirildi. Havo urushini olib borishning Gaaga qoidalari baribir qabul qilinmadi. Ammo 1930 yillarning ikkinchi yarmida XMK aynan ana shu loyihani urush vaqtida yodgorliklarni muhofaza qilish bo‘yicha konvensiya loyihasini ishlab chiqishda asos sifatida qabul qildi.

1935 yilda Panamerika mamlakatlari tomonidan imzolangan Rerix Pakti ko‘p sonli loyihalar va takliflarning qonuniy davomi bo‘ldi, ammo u konvensiyaga imzo qo‘ygan ko‘pchilik davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinmasdan qoldi. Pakt ham tinchlik paytida, ham urush vaqtida madaniy merosni muhofaza qilishni nazarda tutardi. Himoya ostiga olinadigan tarixiy yodgorliklar, ilmiy, badiiy, maorif va madaniyat muassasalarining keng talqini xalqaro yuristlar va tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, hujjatning asosiy kamchiligi bo‘ldi, bu holat ularning daxlsizligi qoidasini qo‘llashga imkon bermadi. Daxlsizlik qoidasiga samarali amal qilish kafolat beruvchi choralarni nazorat qilishni tashkil etish bo‘yicha takliflarning yo‘qligi Paktning ikkinchi asosiy kamchiligi edi. Shunga qaramasdan Rerix Pakti o‘z davrning boshqa ko‘plab takliflaridan farqli o‘laroq hayotga tatbiq etildi, faqat yodgorliklarni qo‘riqlash masalasiga bag‘ishlangan xalqaro konvensiya pretsedentiga aylandi, dunyo miqyosida madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha qudratli jamoatchilik harakatining paydo bo‘lishiga olib keldi.

1964 yilga kelib YUNESKO “Madaniy boyliklarning noqununiy olib o‘tish va eksportini taqiqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Tavsiyanoma ishlab chiqildi. O‘rta asrlarga keliboq Rim me’morchiligida obyektlar ko‘char va ko‘chmas

obyektlarga bo‘lingan. Faqatgina, 1970 yillarga kelib faqat ko‘char madaniy boyliklarga qaratilgan "Xususiy madaniy mulkni olib kirish va olib chiqishga doir ta’qiq va ogohlantirish prinsiplari” konvensiyasi ishlab chiqildi.

Madaniy mulkni olib chiqishga doir noqonuniy harakatlar bilan bog‘liq muammolar eng ko‘p Yevropa mamlakatlarida, xususan, Italiyada ko‘rish mumkin. Bunga madaniy qadriyatlarning 70% dan ortig‘i ushbu mamlakatda joylashganligi sabab bo‘lishi mumkin. Har yili Italiyada 19 mingga yaqin o‘g‘rilik sodir etiladi. Italiya mafiya tashkilotlari qora bozorda madaniy merosni yo‘q qilishga ulkan hissa qo‘shgan. Ular qadimgi Italiya davlati resurslarining yo‘q qilinishiga olib keldi. Natijada, Italiyada, shuningdek, boshqa ko‘plab mamlakatlarda Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Meksika va boshqa qator davlatlarda madaniy mulkni eksport qilishni nazorat qiluvchi bir qator qonunlar qabul qilindi va o‘z navbatida noqonuniy ish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu mamlakatlarda madaniy mulkni eksport qilish amalga asosan muayyan ruxsatnoma (litsenziya oshiriladi) ostida. Ammo, barcha davlatlarda litsenziyalar olish uchun qonun-qoidalar farq qiladi. Masalan, Meksika arxeologik obyektlardan topilgan ashyolarga ruxsatnoma chiqarmaydi Indoneziyada esa uchun eksport litsenziyasi faqat maxsus ro‘yxatdan o‘tgan yodgorliklar uchun beriladi. Buyuk Britaniyada quyidagi qoidalar qo‘llaniladi: mamlakat hududidan qo‘lyozmalar, hujjatlar 70 yildan ko‘proq vaqt oldin olingan arxivlar, fotosuratlar uchun ruxsat beriladi. Litsenziya esa har qanday ahamiyatga ega madaniy boyliklarga beriladi, tarixiyligi kamida 100 yil (badiiy asarlarni hisobga olgan holda). Agar ularning narxi 4 ming funtdan kam bo‘lsa. Ushbu qoidadan mavjud istisnolar madaniy boyliklarni ilmiy tadqiqotlar, almashinuv va ko‘rgazmalar uchun maqsadlarda eksport qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Germaniyada 1955 yil 6 avgustdagi federal qonun "Nemis madaniy boyliklarini noqonuniy eksportdan himoya qilish"ni nazarda tutadi. Madaniy yodgorliklarni eksport qilish uchun ma’lum bir ruxsatnomaning mavjudligi chegarani kesib o‘tishda zarurdir. Bunday ruxsat Madaniyat vazirligi tomonidan beriladi, yoki ilmiy intelektual madaniy boyliklarga Germaniya Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi beradi.

Polshada yodgorlikni chet elga ruxsatsiz eksport qilish yoki belgilangan muddat ichida uni qaytarib bermasa, qamoq jazosi bilan jazolanadi. Buning uchun yodgorliklarni sotishda yoki vositachilik qilish esa ularni chet elga eksport qilish ham qamoq va jarima bilan jazolanadi. 1975 yilda Madaniy boyliklarning kontrabandasi Markaziy kurash byurosi tashkil etildi. U aniq vazifalar soni: madaniy boyliklar ustidan nazoratni kuchaytirish, madaniy boyliklarning xavfsizligini ta’minlash, o‘g‘irlikni minimallashtirish, madaniy qadriyatlar, shuningdek o‘g‘irlangan narsalarni yashirishga qarshi kurash belgilangan edi. Bu tashkilot asosida INTERPOL tashkiloti ham tuzildi. Turli davlatlarning barcha badiiy ekspertizaga doir uyushgan tuzilmalarida keng tarqalgan, ammo madaniy boyliklar asosan faol eksport qilinadigan mamlakatlarda o‘zaro farqlar mavjud.

Mamlakatlarni ikki guruhga bo‘lish mumikn: Birinchi guruh Iordaniya, Gretsiya, Italiya, Amerika, Afrika va Osiyo kabi davlatlarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, ba’zi bir madaniy boyliklar sirasiga kiradigan tovarlarni eksport qilishni taqiqlash Braziliya, Meksika, Argentina kabi mamlakatlarda bir xil qonuniy asosga ega ekanligi kuzatiladi. Juda muhim

Italiyaning bojxona qonunchiligi o‘rtasidagi farq shuki davlat madaniy boyliklarni qayta olib kirishi mumkin, lekin ko‘p bo‘lmagan muddatga besh yildan ortiq. Ammo qonundagi ushbu bo‘shliq firibgarlar tomonidan faol foydalanilmoqda. Ushbu sxema quyidagicha ishlaydi: madaniy qiymat eksport qilinadi va muddat tugagandan so‘ng, asl madaniy boylik soxta nusxa asosida mamlakatga qaytarib olib kelinadi.

Ikkinchi guruhga quyidagilar kiradi: Yaponiya va Shimoliy Amerika.

Eng faol import qilingan madaniy boyliklar AQSH hududiga to‘g‘ri keladi. Bu rivojlangan ilmiy faoliyat bilan bog‘liq. Har kuni ilmiy hujjatlarga doir qadriyatlar ular ushbu davlat chegarasini kesib o‘tadilar. Sohada bojxona regulyatsiyasi madaniy boyliklarning noqonuniy boyliklarni qat’iy rejimga olish asosida amalga oshiriladi. Bu sohaga oid o‘n to‘qqizta qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Madaniy qadriyatlarni eng faol import qiladigan davlat Yaponiyadir. 1950 yilda, to‘g‘risidagi qonun madaniy boyliklarni muhofaza qilish to‘g‘risida belgilangan. Ushbu Qonunda faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar bojxona nazoratida muhim rol o‘ynaydi.

INTERPOL tashkiloti 1947 yildan boshlab bu masalalar ustida ish olib bormoqda. Ushbu tashkilot bilan bog‘lanish Interpol ichki ishlar vazirliklari doirasida yaratiladi. Bugungi kunda Interpol Milliy Markaziy Byurolari faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda Interpol Bosh kotibiyati ma’lumotlar bazasini ishlab chiqdi. Bunda san’at asarlari: Avtomatik qidirish (Automatic Search Faciliti), tizimi ishga tushrildi. 2016 yil boshida noyob 58.0000 dan ortiq madaniy boyliklarning matnli va rasmli tavsiflari kiritilgan. Ushbu ro‘yxat ularning harakatlanish oqimini kuzatishga imkon beradi va bir vaqtning o‘zida barcha bo‘limlarga ma’lumot yetkaziladi. Shu maqsadda keyinchalik EASYFORM deb nomlangan dastur yozilgan. Ushbu dastur banki har uch oyda yangilanib turadi. Ushbu bank o‘g‘irlangan madaniy ma’lumotlar haqida ma’lumot beradi. Ayni paytda yangi dastur "Obyekt Identifikatsiyasi" yaratildi. Ushbu dastur quyidagi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan: Yevropa Kengashi, YUNESKO, YEXHT, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro Muzeylar kengashi (IKOM) va Interpol.

Ushbu dastur xalqaro akt hisoblanadi, madaniy qadriyatlarni soddalashtirish va tizimlashtirishga qaratilgan o‘g‘irlangan narsalarni aniqlash uchun yaratilgan.

Bojxona sohasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy asoslari

1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
O‘zaro kelishuv bo‘yicha ko‘p tomonlama xalqaro huquqiy shartnomalar Asosida ma’muriy yordam huquqni muhofaza qilish bojxona xizmatlari. 1977 yildan 9 iyunda Xalqaro konvensiya “O‘zaro ma’muriy bojxona huquqbuzarliklari oldini olishda yordam berish, tergov”	Ikki tomonlama xalqaro huquqiy bo‘yicha kelishuvlar hamkorlik va o‘zaro yordam bo‘yicha bojxona ishlari.	Ko‘p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda yuridik yordam fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar borasida qisman ishlatiladi. Amalga oshirish jarayoni huquqiy, qidiruv va ular bo‘yicha boshqa harakatlar ichidagi ishlar fuqarolik, ma’muriy va jinoiy yurisdiksiya asosida olib boriladi.	Bojxona huquqbuzarligiga oid ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalarda ziddiyatli vaziyatlar borasida normative dastur qonun chiqaruvchi jinoyatchilik haqida boshqaruvda aniq javobgar shaxs uchun umumiy jazo shaklini belgilagan.

Madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 23 mart “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida”gi 131-son Qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishini rasmiylashtirish bo‘yicha Yo‘riqnoma”ni amaliyotga tadbiq etilishi. Bu tarkibiy munosabatlar tashkilotga hamma uchun kirish imkoniyatini berdi va bu orqali madaniy boyliklar bilan bog‘liq xalqaro ma’lumotlar bazasi tashkil etildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Congres international pour la protection des oeuvres d’art det des monuments, tenu a Paris du 24au 29 juin 1889. Proces-verbuax sommaire. Paris: Imprimerie nationale, 889. P 32 .
2. The Athens Charter for the Restoration of Historic Monuments (1931) // International Charters for Conservation and Restoration / ICOMS. Munchen. 2004. Vol. I. P. 31-33 (Monuments and Sites).
3. Renoliet J.-J. L’UNESCO outbliee. La Societe des Nations et la cooperation intellectuelle (1919-1946). Paris: Publications de la Sorbonne. 1999. P. 352.
4. Visscher Ch. De. Lf protection des patrimonies artistiques et historiques nationaux. Necessite d’une reglamentation international // Mouseion. – Pris: Office international des musees, 1983. Vol. 43-44. P. 7-33.
5. Goy R. Le regime international de l’importation et du transfert de propriete des biens culturels. // Annuaire francfis de droit international. Paris, 1970.Vol. 16. P. 605-624.
6. Projet de Convention internationale pour la protection des patrimoine historiques et artistiques nationaux (Nouvelle redaction 1936) // Mouseion . – Paris: Office international des musees, 1936. Vol. 33-34. P. 283-289.
7. Богуславский М.М. Международная охрана культурных ценностей. М.: Междунар. отношения, 1979. 192 с.
8. Конвенция о законах и обычаях сухопутной войны // Полное собрание законов Российской империи. Собр. 3-е. Т. 20 (1900 г.). Часть 1. СПб., 1902. С. 419-429.
9. Foundoukidis E. L’Office international des Musees et la protection monuments et des oeuvres d’art en temps de guerre // Mouseion. Paris: Office international des musees, 1936. Vol. 35-36. P. 187-200.
10. Международная Конвенция "О мерах, направленных на запрещение и предупреждение незаконного ввоза, вывоза, и передачи права собственности на культурные ценности". https://ru.unesco.org/news/borba-s-nezakonnym-oborotom-kulturnyh-cennostey-soveshchanie-gosudarstv-uchastnikov-konvencii .

SAFAYEV Mansur Maxmudovich
O‘zbekiston fanlar akademiyasi,
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
Kichik ilmiy xodimi
safoyevmansur8@gmail.com

MUZEYLARDA GILAMDO‘ZLIK AN’ANALARI

Annotatsiya: *Maqolada muzeylarda gilamdo‘zlik an’analarini namoyish etish orqali turizmni rivojlantirish masalasi yoritiladi. Ozarbayjon Milliy gilam muzeyi misolida muzeylarda gilamdo‘zlik an’analarini yo‘lga qo‘yish tajribasi o‘rganilib, uning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, O‘zbekistondagi muzeylarda gilamlarning namoyish etilishiga e’tibor qaratilib, bu boradagi imkoniyatlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Ozarbayjon, jonli muzey, gilamdo‘zlik, madaniy turizm, hunarmandchilik, turizm, Xorazm.*

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос развития туризма посредством демонстрации традиций ковроткачества в музеях. На примере Национального музея ковра Азербайджана изучается опыт внедрения традиций ковроткачества в музеях и показывается его значение. Также уделяется внимание экспонированию ковров в музеях Узбекистана и анализируются возможности в этом направлении.*

Ключевые слова: *Азербайджан, живой музей, ковроткачество, культурный туризм, ремесло, туризм, Хорезм.*

Abstract: *The article addresses the issue of developing tourism by showcasing carpet weaving traditions in museums. Using the example of the National Carpet Museum of Azerbaijan, the experience of establishing carpet weaving traditions in museums is examined, and its significance is highlighted. Additionally, attention is given to the display of carpets in Uzbekistan's museums, and the opportunities in this area are analyzed.*

Keywords*: Azerbaijan, carpet weaving, craftsmanship, cultural tourism, Khorezm, living museum, tourism.*

Madaniy turizm bugungi kunda jahon sayyohlik sanoatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash va global madaniy aloqalarni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda madaniy turizmga madaniyat, tarix va an’analar bilan bog‘liq obyektlarni o‘rganish hamda bu jarayondan yanada faol bilim olishga qaratilgan faoliyat sifatida ta’rif berilgan. U sayohatchilarni moddiy va nomoddiy madaniyatni tadqiq etishga undab, ularning dunyoqarashini boyitadi. Xususan, muzeylar madaniyatni asrash va ommalashtirishda yetakchi o‘rin tutadi, shuningdek nafaqat tarixiy yodgorliklar haqidagi ma’lumotlarni saqlash, balki nomoddiy madaniy merosni jonlantirish va keng jamoatchilikka namoyish etish uchun ham xizmat qiladi.

Moddiy va nomoddiy madaniyatning uyg‘unlashuvi madaniy turizmni rivojlantirishning muhim poydevoridir. Moddiy madaniyat namunalari san’at asarlari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini o‘z ichiga olib, alohida ahamiyatga ega bo‘lsa, nomoddiy madaniyat an’analar, urf-odatlar va hunarmandchilik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu ikki jihatni birlashtirish madaniyat haqida har tomonlama va to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. O‘z navbatida, gilamdo‘zlik san’ati ana shunday uyg‘unlikning yorqin namunasidir.

Gilamdo‘zlik nafaqat moddiy madaniyatning o‘ziga xos ko‘rinishi, balki xalqning urf-odatlari va an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan nomoddiy boylik hamdir. O‘zbekiston gilamdo‘zlik san’ati o‘zining qadimiy ildizlari va rang-barang naqshlari bilan nafaqat mintaqaviy, balki jahon madaniy merosining ajralmas qismidir. Muzeylarda gilamdo‘zlik an’analarini namoyish etish, milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish orqali turizm sohasida yangi imkoniyatlar taqdim qiladi.

Shunday qilib, biz tadqiqotimizda O‘zbekistonda gilamdo‘zlik tarixini, uni muzeylar orqali sayyohlarga namoyish etish imkoniyatlarini va madaniy turizmni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish vazifasini qo‘ymoqdamiz. Shuningdek, bu jarayonda moddiy va nomoddiy madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning turizm sanoatiga ta’siri yoritiladi. Bunday yondashuv nafaqat tarixiy merosni saqlab qolish, balki uning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkonini ham beradi.

Gilamdo‘zlik O‘zbekistonning madaniy merosining muhim qismi bo‘lib, madaniy turizm va muzeyshunoslikda katta ahamiyatga ega. Bu san’at nafaqat xalqning boy tarixi va an’analarini aks ettiradi, balki mamlakatning sayyohlik salohiyatini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Gilamdo‘zlikning bu sohalarga qanday ta’sir ko‘rsatishini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Xo‘sh, madaniy turizmda gilamdo‘zlikning o‘rni qanday? Avvalo, u sayyohlarni jalb etishga xizmat qiladi.

O‘zbek ustalari tomonidan yaratilgan gilamlar o‘ziga xos naqshlari va yuqori sifati bilan mashhur. O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar ko‘pincha an’anaviy gilamlarni xarid qilishga qiziqadi, bu esa ustaxonalar va hunarmandchilik markazlariga ekskursiyalarga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi.

Gilamdo‘zlik madaniy boyish darajasini ochib beradi va o‘zbek madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Uni o‘rganish sayyohlarga xalqning an’analari va urf-odatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Gilam to‘qish ustalari ko‘pincha naqshlar va ranglar uyg‘unligining ma’nosi haqida hikoya qilishadi, bu esa sayohatchilar tajribasini boyitadi.

Turistik salohiyat iqtisodiy rivojlanish vazifasini qo‘yadi va ish o‘rinlarini yaratishga ko‘maklashadi, shu bilan mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlaydi. Gilam ishlab chiqaradigan hunarmandchilik ustaxonalari sayyohlar uchun jozibador markazga aylanib, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va daromadni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, muzeyshunoslik va madaniy merosni saqlashda gilamdo‘zlikning o‘rni beqiyos. Masalan, Toshkentdagi Amaliy san’at muzeyi gilam san’atini saqlash va namoyish etishda muhim rol o‘ynaydi. Gilam to‘qishga

bag‘ishlangan ekspozitsiyalar avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’analar va ko‘nikmalarni asrab-avaylashga yordam beradi.

Muzeylar tashrif buyuruvchilar gilam to‘qish texnikasi, uning tarixi va ahamiyati haqida ma’lumot olishlari mumkin bo‘lgan ko‘rgazmalar va mahorat darslarini tashkil etish orqali o‘zbek madaniyati va an’analariga bo‘lgan qiziqishni oshirishga hissa qo‘shadi.

Gilam va boshqa amaliy san’at turlariga bag‘ishlangan festival va ko‘rgazmalar alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar mahalliy aholi va sayyohlarning e’tiborini tortib, o‘zbek madaniy merosini ommalashtirishga xizmat qiladi.

Madaniy turizm va muzeyshunoslikda gilamdo‘zlikdan muvaffaqiyatli foydalanishga misollar keltiramiz:

Toshkentdagi gilamlar festivali. Har yili o‘tkaziladigan ushbu festival butun dunyodan ustalar va sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. U yerda gilam to‘qishning an’anaviy usullari namoyish etiladi va mahorat darslari o‘tkaziladi.

Buxoro va Samarqand kabi shaharlardagi hunarmandchilik ustaxonalariga ekskursiyalar. Sayyohlar gilamlar to‘qiladigan ustaxonalarga tashrif buyurib, ularning yaratilish jarayonini kuzatishlari mumkin, bu esa noyob tajriba yaratadi.

Ozarbayjon Milliy gilam muzeyi (Azərbaycan Milli Xalça Muzeyi) bu sohadagi eng yorqin namunadir. Ushbu muzey nafaqat moddiy boyliklar - noyob gilamlar va boshqa amaliy san’at namunalari tufayli, balki nomoddiy merosni, ya’ni gilamdo‘zlik san’ati va uning qadimiy an’analarini ommalashtirish orqali ham xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. Muzey faoliyati sayyohlarga milliy san’atning tarixiy ildizlari va uning zamonaviy rivojlanish jarayonlari haqida chuqur tushuncha hosil qilish imkonini beradi, shuningdek, ushbu an’analarda bevosita ishtirok etish imkoniyatini taqdim etadi.

Ozarbayjon gilamdo‘zlik san’ati 2010-yilda YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani uning xalqaro miqyosda tan olinganligini tasdiqlaydi. Bu e’tirof Ozarbayjon gilamlarining o‘ziga xos to‘qish uslubi va ularning boy madaniy merosi jahon miqyosida yuqori baholanayotganidan dalolat beradi [5].

Hozirgi kunda muzey nafaqat Ozarbayjon milliy merosini aks ettiruvchi maskan, balki madaniy turizmni rivojlantirishning muhim markaziga ham aylangan. Muzeyning asosiy zallarida Ozarbayjon gilamdo‘zligi bilan bog‘liq noyob to‘plamlar namoyish etilmoqda, ular ushbu hunarmandchilik san’atining tarixi va rivojlanish jarayonini yoritib beradi. Bundan tashqari, muzeyning sayyohlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida bir qator innovatsion dasturlar joriy etilgan [6].

Muzeyda gilam to‘qish bo‘yicha 8 ta darsdan iborat maxsus kurslar tashkil etilgan. Bu mashg‘ulotlar nafaqat mahalliy aholi, balki xorijlik sayyohlar orasida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Kurslar doirasida ishtirokchilarga gilamdo‘zlik san’ati sirlari o‘rgatiladi, bu esa sayyohlarga boy madaniy merosni chuqurroq anglash imkonini beradi. Kurslar nafaqat muzeyga e’tiborni jalb qiladi, balki uning byudjetiga qo‘shimcha daromad ham keltiradi [2].

Bundan tashqari, muzeyda muntazam ravishda bolalar uchun mahorat darslari o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotlar oila a’zolarining muzeyga bo‘lgan qiziqishini

oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar oilaviy tashriflar sonini ko‘paytirishga yordam beradi va bolalarda Ozarbayjon madaniy merosiga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Mahorat darslari orqali bolalar nafaqat gilamdo‘zlik an’analari bilan tanishadilar, balki milliy san’atga o‘z hissalarini qo‘shish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar [1].

Muzeyning madaniy turizmni rivojlantirishdagi muvaffaqiyati uni xalqaro maydonda ham e’tirof etilgan namunaga aylantirdi. Ozarbayjon milliy gilam muzeyi tajribasi madaniy turizm va muzeyshunoslik sohasidagi yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida boshqa mamlakatlar uchun ibrat bo‘la oladi. Shu bois mazkur muzey faoliyatini chuqur o‘rganish va uning tajribasini milliy miqyosda joriy etish turizm rivoji uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi elchixonasi (Toshkent shahri) huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazida tashkil etilgan “Olovlar mamlakati naqshlari” ko‘rgazmasi madaniy turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2017-yilda tashkil etilgan ushbu muzey ikki xalq o‘rtasidagi madaniy va badiiy aloqalarni mustahkamlash uchun noyob platforma hisoblanadi. U mamlakatimizda Ozarbayjon gilamdo‘zligining boy an’analari va madaniy merosini keng targ‘ib qilib, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga hissa qo‘shyapti [3].

Bunday ekspozitsiyalar xorijiy mehmonlar va mahalliy aholini nafaqat Ozarbayjonning madaniy merosi, balki mintaqaning umumiy madaniy boyliklari bilan tanishtirish orqali madaniy turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stona va birodarlik munosabatlarini mustahkamlashga zamin yaratadi. Bunday loyihalar nafaqat tarixiy merosni asrab-avaylash, balki madaniyatlararo muloqotni rag‘batlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda gilamdo‘zlik an’analari qadimiy tarixga ega bo‘lib, muzey fondlarida saqlanayotgan noyob gilamlar xalq amaliy san’atining nodir namunalaridir. Biroq, afsuski, mavjud muzeylar gilam to‘qish an’analarini ommalashtirishga yetarlicha e’tibor qaratmayapti. O‘zbekistonda to‘liq etnografik yo‘nalishga ega bo‘lgan muzeyning yo‘qligi ham bu sohaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Bugungi kunda gilamdo‘zlik an’analarini rivojlantirish va ommalashtirishni milliy madaniyatni saqlash va madaniy turizmni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida ko‘rish lozim. O‘zbekistonda etnografiya muzeylarining tashkil etilishi bu borada muhim qadam bo‘lib, xalq amaliy san’ati namunalarini jahon miqyosida namoyish etish imkonini beradi. Afsuski, bunday muzeylarning yo‘qligi milliy madaniyatimizni xalqaro miqyosda ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Bunday tashabbuslar nafaqat hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlaydi, balki madaniy turizmni rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Ustaxonalardagi mahorat darslari va gilam to‘qish jarayonini kuzatish imkoniyati sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ayniqsa, gilamlarni tabiiy usulda yaratish, shuningdek, bu jarayonda ishtirok etish madaniy turizmning tobora boyib borayotgan shakllaridan biridir. Shu tariqa, O‘zbekiston gilamdo‘zlik san’atini xalqaro maydonda keng targ‘ib qilish

bilan birga, sayyohlar oqimini ko‘paytirish imkoniyati yaratilmoqda.

Ustaning ipak gilamlari mahalliy va xorijiy sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Birinchidan, madrasada gilam to‘qish ustaxonasining tashkil etilishi uni tashrif buyuruvchilar e’tiborini tortadigan “jonli muzey”ga aylantiradi. Ipak gilamlar to‘qish ustaxonasi noyob joy hisoblanadi. Bu yerda ayollar qadimiy texnologiyalar asosida jun va ipakdan qo‘lda gilam to‘qishadi. Xiva gullarining yaratilishini ko‘rish, iplarni bo‘yash usullari bilan tanishish, qadimiy gilamlarni tomosha qilish va boshqa ko‘plab narsalarni ko‘rish mumkin. Ikkinchidan, usta ipak gilamlarda XIV-XV asrlarga xos miniatyuralarni, qadimiy eshik va devorlardagi naqshlarni aks ettirishga intiladi. Bu esa, o‘z navbatida, gilamdo‘zlikning tarixiy ildizlarini tarixiy manbalar asosida qayta tiklashga olib keladi.

Ushbu qadriyatlar tizimi orqali mahalliy va xorijiy sayyohlar nafaqat odamlarning intilishlari, zamonaviy texnik imkoniyatlari, ularning hayoti va faoliyati uchun zarur bo‘lgan estetik va badiiy qarashlariga muvofiq yaratilgan moddiy tashkil etilgan muhitni kuzatishlari va mahsulotlarni xarid qilishlari, balki avloddan avlodga o‘tib kelayotgan odamlarning matonatini va ijodkorligini his qilishlari mumkin. Turizmni saqlab qolish va barqaror rivojlantirish jarayonida an’anaviy hunarmandchilik bandlik muammosini hal qilish, minglab ishchilarning iqtisodiy hayotini barqarorlashtirish va ijtimoiy rivojlanishga sezilarli yordam ko‘rsatadi. Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reyestri yuritilib, hunarmandchilik ishlab chiqarishining turizm bilan aloqalari mustahkamlanmoqda. Ushbu reestrda qo‘lda gilam to‘qish yo‘nalishida 30 ga yaqin hunarmand ro‘yxatga olingan.

2016-yilda AQSH Davlat departamenti tomonidan qo‘llab-quvvatlangan “O‘zbek ipak san’ati” loyihasi doirasida M.Matkarimov “O‘zbekiston turizm sanoatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” maxsus diplomga sazovor bo‘ldi hamda Santa-Fe shahrida o‘tkazilgan xalqaro gilam ko‘rgazmasida Xalqaro an’anaviy gilamdo‘zlik uyushmasining sertifikatini qo‘lga kiritdi. M. Matkarimovning mahsulotlari Yaponiya, Avstriya, Avstraliya, Italiya, Germaniya, Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Buyuk Britaniyaga eksport qilinmoqda [4]. Uning an’anaviy gilamdo‘zlikni qayta tiklash va davom ettirish, bu san’atni dunyoga tanitish hamda kelajak avlodlarga yetkazishdagi hissasi beqiyosdir. Bugungi kunga qadar ustoz yuzlab shogirdlar tarbiyalab yetkazdi.

O‘zbek xalq hunarmandchiligidan turizm sohasida foydalanishning asosiy maqsadi jahon xalqlari orasida hunarmandchilikni ommalashtirishdan iborat. Xususan, mahalliy hunarmandchilikni noyob sayyohlik obyekti va madaniy turizmning targ‘ibot unsuri sifatida ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, hunarmandchilik tegishli hududlarda istiqomat qiluvchi aholini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, mintaqa madaniyatini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazishga ko‘maklashadi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgan bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarni jalb etgan holda muayyan hududlarda hunarmandchilikning rivojlangan turlariga mos yo‘nalishlarda muzeylar tashkil etish sayyohlarda katta taassurot qoldiradi va O‘zbekistonga yanada ko‘proq sayyohlarni jalb etadi.

Shunday qilib, gilamdo‘zlik nafaqat O‘zbekistonning madaniy merosini

saqlab qoladi, balki sayyohlar tajribasini boyitish va mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash orqali madaniy turizm va muzeyshunoslikni rivojlantirishga ham faol hissa qo‘shadi.

Xulosa va takliflar

Gilamdo‘zlik san’ati O‘zbekiston xalq amaliy san’atining boy merosi hisoblanib, madaniy turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu soha nafaqat moddiy meros - noyob gilamlar, to‘qimachilik buyumlari va hunarmandchilik an’analarini, balki nomoddiy meros - ushbu san’at bilan bog‘liq qadimiy texnologiyalar, urf-odatlar va mahoratni ham o‘z ichiga oladi. Moddiy va nomoddiy merosning uyg‘un rivojlanishi nafaqat milliy madaniyatni saqlash, balki uni xalqaro miqyosda ommalashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Madaniy turizmga ta’siri

1. Muzeylarda gilamdo‘zlik an’analarini qayta tiklash: Muzeylarda gilamdo‘zlik bo‘yicha ustoz-shogird darslari, maxsus ko‘rgazmalar va amaliy tadbirlarni tashkil etish sayyohlar uchun unutilmas taassurot qoldiradi. Bunday dasturlar sayyohlar oqimini ko‘paytirish va mahalliy hunarmandchilik an’analarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

2. Madaniy ongni shakllantirish: Gilamdo‘zlikni o‘rganish jarayonida yoshlarda o‘z madaniyatiga hurmat, qadimiy an’analarga qiziqish va milliy iftixor tuyg‘usi shakllanadi. Bu ularning madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tavsiyalar

1. Gilamdo‘zlikka ixtisoslashgan muzey tashkil etish: O‘zbekistonda gilamdo‘zlik an’analarini qayta tiklaydigan etnografik muzey barpo etish lozim. Bunday muzey nafaqat sayyohlar uchun jozibador maskan, balki ilmiy va amaliy tadqiqotlar markaziga ham aylanadi.

2. Hunarmandchilik festivallari va ko‘rgazmalari: Gilamdo‘zlik san’atiga bag‘ishlangan har yillik xalqaro festivallar va ko‘rgazmalarni o‘tkazish orqali O‘zbekistonning madaniy boyligini yanada keng targ‘ib qilish mumkin.

3. Gilamdo‘zlik maktablarini rivojlantirish: Yoshlar o‘rtasida hunarmandchilikni ommalashtirish maqsadida maktab va kollejlar negizida gilamdo‘zlik to‘garaklarini tashkil etish zarur. Bu yoshlarni amaliy san’atga jalb qilish va milliy merosni davom ettirish imkonini beradi.

4. Sayyohlar uchun interaktiv dasturlar: Muzeylarda sayyohlarga gilam tayyorlash jarayonini kuzatish va unda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi interaktiv dasturlarni yo‘lga qo‘yish lozim. Bu ularning madaniy tajribasini boyitadi va madaniy turizmni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA. Madaniy turizm va gilamdo‘zlik san’atini rivojlantirish, moddiy va nomoddiy merosni uyg‘unlashtirish O‘zbekistonning madaniy brendini mustahkamlashga va xalqaro sayyohlik yo‘nalishlarida uning mavqeini oshirishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, ushbu qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish ularni milliy merosning davomchilari sifatida tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Madaniy turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida madaniy merosni asrash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning sayyohlik salohiyatini sezilarli

darajada oshirishi, sayohatchilar tajribasini boyitishi va xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://azcarpetmuseum.az/az/educator Ko‘rildi: 15.01.2025.
2. https://azcarpetmuseum.az/ru/ticket Ko‘rildi: 15.01.2025.
3. https://azculture.uz/uz/muzeylar.php?link=gilam-muzeyi Ko‘rildi: 17.01.2025.
4. https://handicraftman.uz/matkarimov-madrim-2005-yildan-buyon-hunarmand-uyushmasi-xiva-shahar-bolimi-a-zosi/ Ko‘rildi: 17.01.2025.
5. https://ich.unesco.org/en/RL/traditional-art-of-azerbaijani-carpet-weaving-in-the-republic-of-azerbaijan-00389 Ko‘rildi: 14.01.2025.
6. 2019-yil noyabr oyida Ozarbayjon Milliy gilam muzeyida ilmiy safarda bo‘lgan O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi ilmiy xodimi Gazizova Alfiya bilan suhbat. 15.01.2025.

YUNUSOV Komiljon Alimdjanovich
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
mustaqil izlanuvchisi
komiljonyunuszoda@gmail.com

MUZEY ILMIY KONSEPSIYASI VA EKSPOZITSIYASINING MUVOFIQLIGI

Annotatsiya. *Maqolada muzey ilmiy konsepsiyasi va ekspozitsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida, shuningdek, ilmiy konsepsiyaga mos ekspozitsiya yaratishga doir muammolar xususida fikr yuritiladi. Turli ilmiy manbalar va arxiv materiallariga tayanib yozilgan ushbu maqolada ekspozitsiya yaratishdan oldin uning konsepsiyasini ishlash jarayonida e’tiborga olish lozim bo‘lgan jihatlar, hamda konsepsiya ishlab chiqilgandan so‘ng ekspozitsiya tashkil etishda duch kelish mumkin bo‘lgan masalalar haqida fikrlar taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *muzey ilmiy konsepsiyasi, ekspozitsiya, ashyolar, madaniy meros, tashkiliy ishlar, Temuriylar tarixi davlat muzeyi.*

Jahonning ko‘plab muzeylarida, xususan, O‘zbekiston muzeylarida ham ekspozitsiyani qanday tashkil etish masalasi muzeyshunoslar uchun bahsli hisoblanadi. Bunday bahslarga eksponatlarning tarkibi, yetarlilik darajasi, ko‘rgazma zalining hajmi va boshqa omillar sabab bo‘ladi. Bu borada e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir jihat muzey ilmiy konsepsiyasidir. Muzey ilmiy konsepsiyasi muzey haqida tasavvur hosil qilish, uning maqsad va vazifalarini anglash, hamda ekspozitsiya rejasi haqida tushunchaga ega bo‘lish uchun eng zaruriy ma’lumot yoki hujjat hisoblanadi. Muzeylarda ilmiy konsepsiya bilan aloqador kamchiliklar boshqa masalalarga nisbatan ahamiyatsiz emas. Jumladan, mutaxassislar yetishmasligi (masalan, turli buyumlarni ta’mirlashga ixtisoslashgan

restavratorlar, muzey pedagoglari, numizmatiklar, manbashunoslar, tilshunoslar, arxeologlar, etnograflar va hokazo), moliyaviy yetishmovchiliklar, texnik muammolar kabi og‘riqli nuqtalar bilan birga ko‘rgazma mohiyatini ochib bera olish ham muhim jihat hisoblanadi. Zero, biror mavzuni to‘la yoritib berish uchun eng birinchi navbatda konsepsiya yozish va uning asosida ashyolarning yetarli to‘plamini tuzish talab etiladi. Afsuski, aksariyat muzeylarda ekspozitsiya tarkibi bilan bog‘liq yetishmovchiliklar uchrab turadi va bu muzeyning o‘z yo‘nalishidagi faoliyatiga, o‘z mavzusini yoritib berishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, maqolada muzey konsepsiyasi va ekspozitsiyasiga oid masalalar va ularning yechimi uchun tavsiyalar taqdim etiladi.

Mazkur mavzuga doir alohida dissertatsiya yoki ilmiy maqolalar topilmaganligi sababli, turli muzeyshunos olimlarning konsepsiya va ekspozitsiyaga oid fikrlari va boshqa tegishli ma’lumotlar asosida maqola tayyorlandi [1, 282]. Xususan, muzeylar paydo bo‘lishi tarixini o‘rganish davomida shunday xulosaga keldimki, qadimgi Mesopotamiya, Gretsiya, Rim, Misr va boshqa davlatlarda kolleksiyalar saqlab namoyish etilgan [2, 12], ammo o‘rta asrlarga kelibgina Yevropadagi kolleksiyalar ilk muzeylardan deya tan olinadi [3, 44-45]. Masalan Eshmol, Luvr va Britaniya muzeylari. Sababi, ular ma’lum maqsad va g‘oya asosida shakllantirilgani uchun konsepsiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan [4, 383]. Ko‘rib turganimizdek, muzey konsepsiyasi paydo bo‘la boshlagan davrdan kolleksiyalardan iborat joylar yangi darajaga ko‘tarildi, muzey sifatida shakllandi. XX asrning o‘rtalaridan IKOM a’zolari faoliyati, so‘ngra, 70-yillarning oxiridan IKOFOM a’zolarining muhokamalari ortidan muzey ilmiy konsepsiyasi ta’riflari ishlab chiqila boshlandi [4, 417]. Bu jarayon esa muzeylarning shakllanishi yo‘lidagi eng muhim bosqich bo‘ldi, deb ayta olamiz. Sababi, aynan konsepsiya yaratilishi ortidan ekspozitsiya ma’lum tartibda namoyish etilishi kerakligi, tarkibida qanday ashyolar bo‘lishi lozimligi, qanday g‘oyani ilgari surishi va tashrifchilarga qanday taassurot baxsh etishi kerakligi kabi masalalar nazariy jihatdan o‘z yechimini topdi.

Konsepsiya tufayli biz muzeylar va ularning ekspozitsiyalari haqida aniq tasavvurga ega bo‘la boshladik. Masalan, nima uchun qadimiy kitoblarni saqlayotgan kutubxonalar muzey bo‘la olmasligi, yoki qadimiy hujjatlarni saqlayotgan arxivlar muzey emasligi konsepsiya orqali anglanadi. Aksincha, hech qanday qadimiy ashyoga ega bo‘lmagan joylar ham muzey deb atalmoqda. Misol uchun faqatgina virtual tasvir, monitor, matn va suratlardan iborat ekspozitsiyani muzey deyish qanchalik to‘g‘ri? Bu an’anaviy muzey konsepsiyasi tamoyillariga ko‘ra muzey bo‘la olmaydi.

O‘zbekistondagi tarix muzeylarida mana shunday tarixiy bo‘lmagan ashyolarning haqiqiy madaniy meros namunalaridan ko‘proq bo‘lishi kishini mulohazaga chorlaydi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi va Toshkent muzeyi ekspozitsiyasi bino maketlari, surat va mulyajlar bilan to‘ldirilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Aslida, Temuriylar tarixi davlat muzeyining ekspozitsiyasi konsepsiyasida temuriylar davrini yoritish uchun puxta reja ishlab chiqilgan, ammo bu rejani amaliyotga tatbiq etish yo‘lida bir qancha muammolar mavjud. Ularni quyida sanab o‘tish mumkin:

- Temuriylar hukmronligidan keyin ularning merosini saqlash uchun

qayg‘urilmadi, kelajak avlodga yetkazish uchun mas’uliyat bilan yondashilmadi;

- Temuriylar davridan saqlanib qolgan oz miqdordagi ashyolar esa asosan xorijiy davlatlarga olib chiqib ketilgan. Ularni qaytarish uchun qilinayotgan harakatlar samarasiz bo‘lib kelmoqda. Bu ko‘proq Rossiya imperiyasi va sovet hukumati davridagi siyosat bilan bog‘liq.

Shu kabi sabablar tadqiqotchi D. Qurbonova tomonidan ham o‘rganilgan. Endi Temuriylar tarixi muzeyi konsepsiyasiga nazar tashlasak, unda ekspozitsiyani 6 ta bo‘lim asosida, 37 mavzuga taqsimlagan holda yoritish rejalashtirilgan edi. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra, rejadagi ko‘plab mavzular uchun tarixiy ashyolar topilmadi. Quyida, ko‘rgazmada aks ettirishning imkoni bo‘lmagan mavzularni sanab o‘tamiz:

1-bo‘lim – Mo‘g‘ullar istilosi davrida Xorazmshohlar davlati. (Bo‘limning tarkibidagi mavzular esa quyida yozilgan)

1. Xorazmshohlar davlati va Chingizxon istilosi.

2. Mo‘g‘ullar istilosi. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy ahvoli.

3. Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashlar (Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Mahmud Torobiy, sarbadorlar).

2-bo‘lim – Amir Temurning tavalludi va uning navqironlik yillari.

1. Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodirning tug‘ilishi.

2. Amir Temur Kesh amiri.

3. Amir Temurning yoshlik yillari tarixiy manbalarda va xalq og‘zaki ijodida.

3-bo‘lim – Movarounnahrda markazlashgan mustaqil davlat tuzilishi.

1. Amir Temur va Amir Husayn.

2. Amir Temur Movarounnahr amiri.

3. Farg‘ona va Shoshning bo‘ysundirilishi hamda Amir Temurning qo‘ng‘irotlik Yusuf so‘fi va Husayn so‘filarga qarshi kurashi [7].

Mazkur mavzular Amir Temur va temuriylar davri tarixini tushunishda katta ahamiyatga ega hamda konsepsiyaga kiritilgani oqilona rejadir. Ammo, bu mavzularni yoritish uchun hozirgacha O‘zbekistonda ham, jahonning boshqa davlatlarida ham yetarli tarixiy ashyolar saqlanib qolmagan. Ularni zamonaviy suratlar va matnlar bilan cheklanib auditoriyaga yetkazish muzey tamoyillariga mos kelmaydi.

Temuriylar muzeyida faqatgina Mironshoh Mirzo va Gavharshod Begim uzuklari nusxalari, Mirzo Ulug‘bekka tegishli nefrit qadahning nusxasi, Iskandar Sultonga taqdim etilgan tole’noma nusxasi, Amir Temur farmoni bilan tayyorlangan toshbitikning fotosurati kabi buyumlar joylashtirilgan. Original deb hisoblanuvchi buyumlar esa temuriylar davriga mansub bo‘lib, tangalar, sopol va bronza idishlar, qisman shisha va yog‘och buyumlar va boshqa ashyolardan iborat. Ushbu muzey misolida tafakkur qilganda, muzey konsepsiyasi bilan birgalikda muzey ekspozitsiyasi ham dolzarb ahamiyatga ega ekani oydinlashadi. Zero, Temuriylar tarixi bilan bog‘liq muzeyni temuriylarning shaxsiy buyumlarisiz tasavvur etish juda mushkuldir. Bunday muammo faqatgina ushbu muzeyga xos emas. O‘zbekiston, Eron, Misr va Gretsiya kabi boy tarixga ega davlatlarga tegishli aksariyat yodgorliklar Yevropa muzeylarida namoyish etilmoqda. Shu sababli ham mazkur davlatlarda muzey tashkil etib, konsepsiyasini ishlaganda, ekspozitsiyani nima bilan

boyitish masalasi yuzaga chiqadi.

Ayni shu o‘rinda ashyolarning o‘zi yetarli bo‘lmasligini ham tan olish lozim. Tarixiy davrlar haqida hikoya qilish, ekskursovod tomonidan tashrifchilarga ma’lumot berish uchun o‘tmish haqida manbalar talab etiladi. O‘zbekistonning qadimiy tarixi haqida Avesto, qoyatosh va devoriy suratlar, tosh bitiklar, hamda buyumlar yuzasida yetib kelgan manbalarni hisobga olmasa, asosan Xitoy, Vizantiya, yunon, arman kabi atrofdagi xalqlar yozib qoldirgan materiallar asosida qadimiy tariximiz qisman yoritiladi. Aslida bular ham yetarli emas. Ustiga-ustak, bizning tariximizga oid atamalar xorijiy manbalarda o‘z ohangida qayd etilmagan. Ko‘rinib turganidek, muzeylarda tariximizni yoritish borasida hali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ko‘plab ishlar mavjud.

Xulosa o‘rnida aytganda, muzey ekspozitsiyasini tashkil etish murakkab jarayon bo‘lib, bu borada sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda mukammal konsepsiya yozish, muzey binosining me’moriy yechimlarini ekspozitsiyaga muvofiq qilish [5], hamda, mutaxassislar bilan birga ekspozitsiyani boyitish chora-tadbirlarini ko‘rish talab etiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda eng birinchi navbatda madaniy meros namunalarining yaxlit ro‘yxatini shakllantirishni, xorijdagi barcha yodgorliklarimizning nusxalarini bo‘lsa-da olib kelishni, ekspozitsiyani konsepsiyaga muvofiq yaratish va mavzular uyg‘unligiga, ketma-ketligiga qat’iy rioya qilishni, nihoyat, mazmunli ekskursiya orqali ekspozitsiyaning kemtik joylarini yopib ketishni tavsiya etgan bo‘lardim [6, 113]. Sababi, har qanday tarix muzeyida barcha davrlar uchun ashyolar yetishmaydi. Bu borada qo‘shimcha vositalar orqali ekspozitsiyaning yaxlitligini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Илалов Ильгиз. Музееведение. – Ташкент, 2006.

2. Agzamxodjayev S. (2021) Muzeyshunoslik va arxivshunoslik. O‘quv uslubiy majmua. – Toshkent.

3. Owen Hopkins. The Museum. From its Origins to the 21st Century. – London, 2021. – pp. 44-45.

4. Петер ван Менш. К методологии музеологии. – Москва, 2018.

5. Nishonova, K. (2019). Modern exhibition design of Uzbekistan museums. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (71), 357-359. DOI: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2019.03.71.24

6. Шляхтина Л.М. Основы музейного дела: теория и практика. Учебное пособие. – Москва, 2009.

7. O‘zbekiston MA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1323-yig‘ma jild, 205-211-varaqlar.

KADIROV Mansurbek Bazarboyevich
Oriental universiteti II bosqich magistr talabasi

MUSTAQILLIK YILLARIDA MUZEYLARGA OID ISLOHATLAR

Annotatsiya: *Muzeylar har bir davlatning o‘z tarixini, urf-odatlarini va qadimiy yodgorliklarini avlodlarga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston o‘z milliy merosini saqlash va boyitish maqsadida muzeylar tizimini tubdan isloh qildi. Ushbu maqolada, davlatning ushbu sohada olib borgan islohotlari va ularning madaniyat hamda iqtisodiyot rivojidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Muzey islohotlari, madaniy merosni saqlash, muzeyshunoslik tamoyillari, muzeylar modernizatsiyasi, innovatsion muzey texnologiyalari.*

Annotation: *Museums play a vital role in preserving and transmitting history, traditions, and ancient monuments to future generations. Since gaining independence, Uzbekistan has carried out fundamental reforms in the museum system to protect and enrich its national heritage. This article explores the reforms implemented by the government in this area and their impact on the development of culture and economy.*

Keywords: *Museum reforms, preservation of cultural heritage, principles of museology, museum modernization, innovative museum technologies.*

Аннотация: *Музеи играют важную роль в сохранении и передаче истории, традиций и древних памятников будущим поколениям. В годы независимости Узбекистан провел кардинальные реформы музейной системы с целью сохранения и обогащения национального наследия. В данной статье рассматриваются реформы, реализованные государством в этой сфере, а также их влияние на развитие культуры и экономики.*

Ключевые слова: *Реформы музеев, сохранение культурного наследия, принципы музееведения, модернизация музеев, инновационные музейные технологии.*

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo‘lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o‘tmish merosimizni o‘rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ‘ib etish borasida ham tub burilish yasadi. So‘nggi yillarda muzey faoliyatiga oid qabul qilingan qonun va normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganishga asoslangan. Xususan, 2017-yilga qadar muzeylar faoliyatiga oid 46 ta me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularga O‘zbekiston Respublikasining 2 ta qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmoni, 2 ta qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19 ta qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar kiradi. Ushbu

hujjatlar muzeylarning tashkiliy va huquqiy asoslarini mustahkamlash, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro aloqalarni kengaytirish imkonini yaratdi [5].

Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar qatorida O‘zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni [1] 1998 yil 12 yanvarda qabul qilinib, u muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularni xalqning ma’naviy axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini yanada oshirish maqsadida “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tuzildi. “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi respublika bo‘ylab tarqalgan turli muzeylarni qo‘llab-quvvatlash, yangi texnologiyalarni joriy qilish va muzeylar faoliyatini ilg‘or tajribalarga asoslangan holda yangilashga alohida e’tibor qaratdi. Jamg‘arma faoliyati davomida muzeylar o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada samarali yo‘lga qo‘yish, ko‘rgazmalar tashkil qilish va madaniy-tarixiy merosni keng ommaga yetkazish borasida katta qadamlar tashladi.

Mazkur qarordan ilhomlangan “O‘zbekmuzey” xodimlari qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Mavjud barcha o‘zbek muzeylari fondidagi eksponatlarni yagona ro‘yxatini tuzish, eksponatlarni doimiy himoya qilish sharoitlarini yaxshilash, saqlanayotgan eksponatlarning qat’iy nazoratini ta’minlash, ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlardagi muzeylarda saqlanayotgan tariximizga va ma’naviy boyligimizga oid osori-atiqalarni, shuningdek, qadimiy qo‘lyozmalarni ro‘yxatga olish, ularni xalqimizga tanishtirish, shuningdek, muzeylardagi nodir eksponatlarni dunyoga olib chiqish, jahon xalqlariga tanishtirish sohasida tegishli tashkilotlar bilan hujjatlar ishlab chiqish, shartnomalar tuzish ishlarini olib bormoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy va ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish to‘g‘risida”gi hamda “Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarning samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarorlariga javoban qator tadbirlar ishlab chiqildi. Shunga ko‘ra, mamlakatdagi barcha muzeylarda har oyning bir kuni **“Ochiq eshiklar kuni”** deb e’lon qilindi. Shu kuni muzeylarga o‘quvchilar, talabalar va boshqa tomoshabinlarga muzey xodimlari bepul xizmat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, tariximizning yorqin iz qoldirgan allomalarga bag‘ishlab, muzeylarda “Barhayot siymolar” mavzusida adabiy kechalar, “Istiqlol, ma’naviyat va muzey” mavzusida tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Ayniqsa, Imom al-Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Manguberdi, Ogahiy, Boborahim Mashrab va boshqa allomalarga bag‘ishlab muzeylarda o‘tkazilayotgan tadbirlar yoshlarni ajdodlar merosiga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy, madaniy, tarixiy merosni o‘rganish orqali Farg‘oniy, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Amir Temur, Muhammad Rahimxon – Feruz, Najmiddin Kubro kabi allomalar qomusiy bilimga ega, yuksak insoniy fazilatli siymolar bo‘lganligini anglaymiz.

Muzeylar madaniy-ma’rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy

hujjatlar, madaniy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o‘rganib, ko‘rgazmalarga taqdim etish, shuningdek, ta’lim va ilmiy tadqiqot markazi sifatida faoliyat yuritishdir.

Yurtimizda yangi-yangi muzeylarning tashkil etilishi, poytaxtdagi eng yirik va nufuzli Temuriylar davri tarixi, qatag‘on qurbonlari xotirasi, mamlakatimiz janubida joylashgan Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyining ochilishi hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida nihoyatda katta ishlarning amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko‘rsatib turgan barcha katta-kichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlol ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e’tibor bilan qaralmoqda. Jumladan, O‘zbekiston tarixi muzeyining qaytadan ochilishi, muzey ekspozitsiya zallarining yangi loyiha va rejalar asosida jihozlanishi fikrimizning yorqin dalilidir. Barcha viloyat hududlarida joylashgan boshqa muzeylar faoliyatida ham yangilanish, yaxshilanish sari qadam qo‘yilayotgani sezilib turibdi. Muzeylar faoliyatini yaqindan o‘rganish, ularning mazmun va ma’no jihatdan rang-barang turlarini ajrata bilish, xalq ommasi orasida keng targ‘ib etishning xilma-xil usullarini joriy qilish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko‘rinadiki, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning hozirgi bosqichida muzeylar faoliyatini umumiy tarzda tahlil etish, undan xulosalar chiqarish juda muhimdir. Mustabid-sovet tuzumi davrida milliy-ma’naviy qadriyatlarning toptalishi, aholi o‘rtasida ruhiy tushkunlikning yuzaga kelishi, muzeylarga rahbarlik qilishdagi ma’muriy usullarning yanada takomillasha borishi mexanizmini ilmiy jihatdan tahlil etish hozirgi kun madaniy-ma’naviy jarayonlari uchun juda zarur, bu esa mavzuning dolzarblik darajasini yanada oshiradi deb hisoblaymiz.

2017-yil 15-fevralda qabul qilingan Prezident farmoni asosida “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tugatildi [2]. Uning funksiyalari yangi tashkil etilgan Madaniyat vazirligiga o‘tkazildi. Shu tariqa, muzeylar faoliyatining muhim jihatlari yagona boshqaruv ostida takomillashtirildi. Bu esa muzey sohasida islohotlarni davom ettirish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish va muzeylar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga zamin yaratdi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligi mamlakatdagi deyarli barcha muzeylarning faoliyatini boshqaradi. Ushbu muzeylar O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosini saqlash, tadqiq etish va ommaga taqdim etish vazifasini bajaradi. Madaniy meros agentligi 2021-yil 21-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzurida tashkil etildi [3]. Ushbu qaror, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan yangi strategiyaning bir qismi sifatida qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son va 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonlari bilan Turizm va madaniy meros vazirligidan ajratilgan holda Madaniy meros agentligi faoliyati qayta tashkil etildi [4]. Agentlikning tashkil etilishi, O‘zbekistonning

madaniy merosini saqlash va rivojlantirish bo‘yicha yangi mexanizmlar yaratish zarurati tufayli yuzaga keldi. Tarixiy va madaniy obyektlarning yo‘qolishi va yaroqsiz holga kelishi, ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan choralar ko‘rishni talab qildi.

Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 12 sentyabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunini e’lon qilinishi muzeylar ish faoliyatini qayta tashkil etish, ularni me’yoriy-hujjatlarini Qonun asosida yuritish, nodir-noyob xalq mulkini saqlash, kelajakka etkazish yo‘l yo‘riqlari belgilab berilganligi bilan qimmatlidir. Mustaqillik yillarda muzeylarga bo‘lgan e’tibor va talab oshib bormoqda. Bu albatta, muzeylarning ijtimoiy vazifalari bilan bog‘liq. O‘zbekiston hududida mavjud muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma’naviy axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g‘urur va iftixorni, istiqlol va Vatanga hurmat, sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talabiga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Yana shu qatorda muzeylarni internet tizimi bilan bog‘lash va ilmiy jihatdan markaz bo‘lishdir.

Muzeylar millatning tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda yosh avlodni ma’naviy yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirilib, muzeylarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ilmiy-tadqiqot ishlari rivojlantirildi va ularning ma’naviy-ma’rifiy hayotdagi o‘rni yanada oshdi. Ayniqsa, muzeylar faoliyatini takomillashtirishga oid qabul qilingan farmon va qarorlar sohaga zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

O‘zbekiston muzeylari faoliyatida so‘nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, muzey fondlarida saqlanayotgan noyob eksponatlar elektron kataloglar orqali raqamlashtirilmoqda, ularning 3D modellashtirilishi amalga oshirilmoqda va virtual muzeylar tashkil etilmoqda. Bu esa madaniy merosni yanada kengroq auditoriyaga yetkazish, xorijiy hamkorlikni rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, zamonaviy muzeyshunoslik tendensiyalariga mos ravishda interaktiv texnologiyalar joriy etilib, ekspozitsiyalarni jonli va qiziqarli tarzda namoyish etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu kabi ilg‘or yondashuvlar natijasida muzeylar nafaqat ilmiy-ma’rifiy markaz, balki turizm va madaniy hamkorlikning muhim bo‘g‘iniga aylanishda davom etmoqda.

Ushbu islohotlar natijasida mamlakat bo‘ylab yangi muzeylar tashkil etildi, mavjud muzeylar rekonstruksiya qilindi va ularga innovatsion texnologiyalar tatbiq etildi. Muzey fondlaridagi eksponatlarni kataloglashtirish, raqamlashtirish va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, muzeylarda

ommaviy tadbirlar, tarixiy-ma’rifiy kechalar va ilmiy anjumanlar tashkil etilishi natijasida ularning jamoatchilik hayotidagi roli sezilarli darajada oshdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning madaniy merosini saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan islohotlar izchil davom etmoqda. Muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni xalqaro andozalar asosida modernizatsiya qilish va global hamkorlikni kuchaytirish orqali bu jarayonga yangi sur’at berilmoqda. Shu sababli, muzeyshunoslik sohasi kelajakda ham mamlakat madaniy va ilmiy taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://lex.uz/ru/docs/-209722?ONDATE=18.07.2005%2000 28.02.2025 ko‘rildi.
2. https://daryo.uz/2017/02/16/ozbekteatr-va-ozbekmuzey-tugatiladi 26.02.2025 ko‘rildi.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Madaniy_meros_agentligi 22.02.2025 ko‘rildi.
4. https://madaniymeros.uz/news/658?lang=uz-latn 25.02.2025 ko‘rildi.
5. **Muzeyshunoslik**. O‘quv qo‘llanma. / O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. – T.: “Turon–Iqbol”, 2018. – B. 224.

JUMANAZAROV Zohidjon Eldor o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
zohidjonjumanazarov7@gmail.com

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MADANIY XOTIRA VA TARIXIY MEROSNI SAQLASHGA TA’SIRI

Annotatsiya. Muzeylar o‘zining an’anaviy vazifasi – artefaktlarni saqlashdan tashqari, ilmiy-ma’rifiy hamda turizm markazlari sifatida ham rivojlanib bormoqda. Zamonaviy muhitda dolzarbligini saqlab qolish maqsadida ular raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga moslashmoqda. Muzeylarda texnologik transformatsiya ikki asosiy yo‘nalishda kechmoqda: raqamlashtirish (digitization) va raqamli texnologiyalarni joriy etish (digitalization). Ushbu maqola muzeylarda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarining ularning funksional roli hamda xotira yaratish jarayoniga ta’sirini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Muzeylar, turizmni rejalashtirish, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, xotira yaratish, jamoaviy xotira.

Muzeylar XVIII asr ziyolilari va hukmron tabaqalari tomonidan ikki asosiy maqsadda tashkil etilgan: keng jamoatchilikni ma’rifiy jihatdan rivojlantirish hamda tarix va madaniyatni arxivlash[13]. Johanson va Olsen muzeylarning an’anaviy mafkurasi bilan zamonaviy turizm o‘rtasidagi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni muhokama qilib, muzeylarning turizm tizimida qanday ishtirok etishini tahlil qiladilar. Vaqt o‘tishi bilan muzeylar turistik diqqatga sazovor joylarga aylangan bo‘lib, ular tashrif buyuruvchilarga muayyan manzilning madaniyati, tarixi va artefaktlarini namoyish etish bilan birga, chiptalar, suvenirlar, oziq-ovqat va ichimliklar savdosi orqali turizm xarajatlarini qo‘llab-quvvatlaydi[12].

Madaniy va meros obyekti sifatida muzeylar turizm taklifining ajralmas qismidir. Capstick turistlar muzeylarga asosan bilim olish maqsadida emas, balki umumiy ta’til dasturining bir qismi sifatida tashrif buyurishlarini ta’kidlaydi. Ushbu tashrifdan zavqlanish darajasi esa, ularning tanish yoki mashhur ob’ektlarni tanib olishiga bog‘liq[5]. McKercher va Du Cros o‘zlarining madaniy turizmga bag‘ishlangan kitobida muzeylarga tez-tez murojaat qilishadi. Ularning ta’kidlashicha, turli xil turistlar orasida madaniyatni o‘rganish asosiy sabab bo‘lgan va chuqur madaniy tajribaga intiladigan “maqsadli madaniy turistlar” Hongkongdagi muzey tajribalarining eng katta iste’molchilari bo‘lgan. Muzeylarning turistik diqqatga sazovor joy sifatidagi ahamiyati tashrif buyuruvchilar statistikasi orqali yanada ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. Masalan, Yangi Janubiy Uelsning Muzey va Galereyalari tomonidan 2014-yil avgustidan 2015-yil martigacha o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tashrif buyuruvchilarning 59 foizi mahalliy aholi, 41 foizi esa turistlar edi (xalqaro va davlatlararo farqlanmagan holda). Ko‘rinib turibdiki, XX asr oxiridan boshlab muzeylar turizmda muhim rol o‘ynamoqda[9].

Turizm dunyo miqyosidagi sotsiomadaniy hodisa bo‘lib, ayniqsa muzeylarga katta ta’sir ko‘rsatgan. Herreman esa muzeylar “institutsional identifikatsiya va kontsepsiya inqirozi”ni boshdan kechirayotganini ta’kidlaydi. Turizm va muzeylarga ta’sir ko‘rsatadigan omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, muzeylar jamiyatdagi o‘z roli va funksiyasini doimiy ravishda o‘zgartirib borayotgani ushbu sharhning turizm sohasidagi olimlar va amaliyotchilar uchun dolzarbligini oshiradi. Bu ayniqsa, muzeylardagi raqamlashtirish va digitalizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tushunishda muhimdir.

Muzeylarning jamiyatdagi roli o‘zgarib borar ekan, “edutainment” (ta’limiy ko‘ngilochar) tushunchasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. P. Balloffet, F.H. Courvoisier va J. Lagierlar an’anaviy tarzda tashrif buyuruvchilar muzeylarni sovuq va begona muhit sifatida qabul qilishganini ta’kidlaydi. Shundan so‘ng, muzey mutaxassislari tashrif buyuruvchilarni yanada faol ishtirokchi qilish maqsadida interaktiv va foydalanuvchiga qulay tajribalarni joriy etish orqali edutainment yondashuvini qabul qildilar[2]. Muzeylarning o‘z an’anaviy rolidan chiqib, rivojlanishiga tashqi va ichki

omillar, jumladan, muzeylarning zamonaviy sharoitlarda dolzarbligini saqlab qolish zarurati, turizm sohasidagi o‘rni va texnologik taraqqiyot sabab bo‘ldi.

Texnologiyaning rivojlanishi muzeylarda keng tarqalgan umumiy tendensiyani – raqamli transformatsiyani keltirib chiqardi. Raqamli transformatsiya “axborot, hisoblash, aloqa va ulanish texnologiyalarining kombinatsiyasi orqali muayyan ob’ektning xususiyatlarida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqarishga qaratilgan jarayon” sifatida ta’riflanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy qilish virtual reallik, kengaytirilgan reallik va sun’iy intellekt kabi texnologiyalarni qo‘llash orqali muzeylarda tashrif buyuruvchilar ishtirokini oshirish, tajriba sifati va bilim olish jarayonini yaxshilashga qaratilgan[7]. Raqamlashtirish esa jismoniy kataloglarni (masalan, artefaktlar va kitoblar) raqamli shaklga o‘tkazish orqali ularni saqlash, ularga kirish yoki umumiy foydalanishni osonlashtirish jarayonidir[18]. Raqamlashtirish va digitalizatsiyaning umumiy jihatlaridan biri shundaki, ular muzeylarda xotira yaratish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega.

Muzeylar shaxsiy va jamoaviy xotira shakllanishida muhim o‘rin egallagan muassasalardir. Jamoaviy xotira – bu shaxslar, guruhlar va jamoalar tomonidan umumiy o‘tmish voqealariga oid bilim yoki tajriba sifatida baholanadi[3]. Muzeylarda xotiralarni qayta tiklash qobiliyati raqamli transformatsiya orqali sezgi vositalari yordamida oshirilishi mumkin.

Raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish 1970-yillarda texnologik inqilob boshlanganda paydo bo‘ldi, ammo texnologiyadan foydalanish 1960-yillarning oxirida boshlangan edi. O‘sha davrda u asosan kolleksiyalarni qayd etish va boshqarish uchun qo‘llanilgan[16]. Digitalizatsiya(raqamli texnologiyalarni joriy etish) – bu raqamlashtirilgan kontentni qayta ishlash jarayoni bo‘lib, u tashrif buyuruvchilarning tajribasini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Muzeylar digitalizatsiya bo‘yicha rejalarga virtual reallik, kengaytirilgan reallik va sun’iy intellektni qo‘shish orqali rivojlanishni davom ettirdi[1].

Muzeylarda raqamli o‘zgarishlar uchta asosiy maqsadga xizmat qiladi:

1. *Eksponatlarni raqamlashtirish* – jismoniy ashyolarni vizual tarzda onlayn namoyish qilish orqali ularni saqlash va tabiiy yemirilishining oldini olish
2. *Kontentga qulay kirish imkonini yaratish* – raqamlashtirish muzey ma’lumotlarini joylashuv, harakatchanlik va resurslar cheklovlaridan mustaqil ravishda taqdim etish imkonini beradi.
3. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish* – bu texnologiyalar biznes faoliyatini o‘zgartirish va optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

S. Fissi, E. Gori, A. Romolini, va M. Contri tomonidan muzeylarda ishlatiladigan texnologiyalar uch toifaga ajratilgan:

- *Onlayn vositalar* – muzey veb-saytlari va virtual sayohatlar yordamida foydalanuvchilarning muzey tarkibiga kirishini ta’minlash va ularni muzeyga jismonan tashrif buyurishga undash.

- *Joyida (on-site) ishlatiladigan vositalar* – tashrif buyuruvchilarning tajribasini oshirish uchun virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish.
- *Boshqa vositalar* – muzeyning umumiy faoliyatini yaxshilashga yordam beruvchi texnologiyalar, masalan, 3D bosib chiqarish, bu muzeylarning estetik jozibasini oshirish bilan birga yanada interaktiv o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan ikkita raqamli texnologiya *virtual reallik va mobil ilovalar* sanaladi.

D.A. Loaiza-Carvajal, M.M. Morita, va G.M. Bilmeslar virtual reallik tushunchasini simulyatsiya, interaktivlik va immersion (to‘liq sho‘ng‘ish) kabi omillar bilan bog‘lashadi. Virtual reallik – bu foydalanuvchilarga real dunyoga o‘xshash raqamli muhitni interaktiv ravishda his qilish imkonini beradigan texnologiya hisoblanadi. Virtual muzeylarning dastlabki shakllari kompyuter ekranlari orqali foydalanuvchilarga taqdim etilgan bo‘lsa, keyinchalik virtual reallik texnologiyalarining rivojlanishi bilan foydalanuvchilar maxsus VR ko‘zoynaklari va joystiklar yordamida yanada chuqurroq sho‘ng‘ish tajribasini boshdan kechirish imkoniga ega bo‘ldilar.

Virtual reallik texnologiyasi muzeylarda ta’lim berish uchun kuchli vosita bo‘lsa-da, bu texnologiyadan foydalanish muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, jismoniy eksponatlar raqamli shaklga o‘tkazilganda ularning *autentiklik, aniqlik va tasvir sifati*ga ta’sir qilishi mumkin.

Bundan tashqari, muzeylarda *mobil ilovalar* ham samarali qo‘llanilmoqda. Ushbu ilovalar quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqiladi:

- Tashrif buyuruvchilarga ta’lim jarayonida yordam berish.
- Muzey ma’lumotlarini izlash va tadqiq qilish imkonini yaratish.
- Foydalanuvchilar bilan muzey o‘rtasida interaktiv aloqa o‘rnatish[6].

Mobil ilovalar shuningdek *o‘yin elementlari* bilan ham boyitilgan bo‘lishi mumkin. O‘yin elementlari tashrif buyuruvchilar uchun qiziqarli va interaktiv tajriba yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, *kengaytirilgan reallik (AR)* texnologiyalari ham muzeylarda qo‘llanilib, bu orqali jismoniy va raqamli dunyo uyg‘unlashadi[14]. Virtual reallikdan farqli o‘laroq, kengaytirilgan reallik texnologiyalari *haqiqiy muhitni* qo‘shimcha raqamli elementlar bilan boyitadi. Virtual reallik esa foydalanuvchilarni butunlay raqamli dunyoga sho‘ng‘ishga majbur qiladi.

Digitizatsiya(raqamli texnologiyalarni joriy etish)ning muzeylardagi roli shundaki, u jamoatchilik va muzeylar o‘rtasida virtual ko‘prik yaratishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish – bu analog ma’lumotlarni raqamli iste’mol uchun skaner kabi qurilmalar yordamida konvertatsiya qilish jarayoni hisoblanadi[10]. Raqamlashtirish muzeylarga eksponatlar mazmunini tushuntirish va muzey kolleksiyalari bo‘yicha bilim taqdim etish orqali tashrif buyuruvchilar bilan munosabatni qayta shakllantirish imkonini berdi[11]. Bu jarayon muzeylarga o‘z tashrif buyuruvchilari bilan aloqani mustahkamlashda, ularni madaniy, ta’limiy va hatto siyosiy diskurslarga jalb etishda katalizator vazifasini bajaradi[18].

Raqamlashtirish muzey axborotini hammaga ochiq qilib, madaniy va ilmiy merosni saqlash hamda innovatsion kontent yaratish imkonini beradi. Muzeylar xotira yaratish maydoni sifatida ham raqamlashtirish ta'sirida o'zgardi; xotira tushunchasi va o'tmish qanday aks ettirilishi hamda material qanday talqin qilinishi o'zgargan. Ijtimoiy tarmoqlarda muzey ma'lumotlarini tarqatish tashrif buyuruvchilarga xotirani yangi usulda saqlash imkonini berdi. Masalan, ba'zi muzeylar o'z xotira maydonlarini sokin muhitda ko'rsatishni afzal bilsa, raqamlashtirish orqali ***raqamli xotira yaratish*** – post ulashish yoki sharh qoldirish orqali amalga oshiriladi.

Shunga qaramay, muzeylar barcha eksponatlarni raqamlashtirish jarayonida moliyaviy cheklovlarga duch keladi. **Masshtabli raqamlashtirish juda qimmatga tushishi mumkin,** shuning uchun muzeylar foydalaniladigan texnologiyalarni puxta tanlashi muhim. Raqamlashtirish tufayli muzey kontentidan foydalanish internet orqali global darajada ochiq va keng tarqalgan bo'lib qoldi.

Biroq, raqamlashtirish har doim ham foydali bo'lavermaydi. **Stauffer** ta'kidlashicha, bu jarayonda ba'zi ma'lumotlar yo'qolishi mumkin. **Jismoniy eksponatlarni raqamli shaklga o'tkazish ma'lumotlarni saqlashga yordam beradi, ammo ayrim tafsilotlar o'tkazib yuborilishi mumkin.** Masalan, COVID-19 pandemiyasi sabab muzeylar raqamlashtirishga ehtiyoj sezdi, ammo bu jarayonning ayrim salbiy ta'sirlari ham mavjud.

Muzeylar o'quv maskani sifatida uzoq tarixga ega[15], ammo **raqamlashtirish va raqamli transformatsiya muzeylarni ta'lim maydoniga aylantirdi. Biroq, muzeylar raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq muammolarga duch keladi:**

- ***Ma'lumotlarning demokratizatsiyasi*** – muzey aktivlarining global onlayn taqsimlanishi ma'lumotlarning ishonchliligiga tahdid solishi mumkin[10].
- ***Kontekst masalasi*** – eksponatlar haqidagi ma'lumotlarni jismoniy yoki virtual tarzda qanday taqdim etish haqida ehtiyotkorlik bilan o'ylash kerak[4].

Virtual reallik tizimlari muzey kontentini jonlantirib, eksponatlar bilan chuqurroq tanishish imkonini beradi. **E. Ch'Ng, Y. Li, S. Cai, va F. Leowlar** fikriga ko'ra, tashrif buyuruvchilar nostalgiya orqali muzey kontentiga bog'lanishadi[8].

Shu bilan birga, **raqamlashtirish jismoniy muzeylarning ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Marty** tadqiqotida **ko'pchilik tashrif buyuruvchilar 24 soat davomida muzey kontentidan foydalanish imkonini kutayotganini** ta'kidlagan[17]. Bu esa **jismoniy muzeylarning dolzarbligini shubha ostiga qo'yishi mumkin.**

Texnologiya bilan muvofiqlik har bir tashrif buyuruvchi uchun har xil. C**. Traboulsi, M. Frau, & F. Cabiddular** tadqiqotiga ko'ra**,** katta yoshdagi tashrif buyuruvchilar soddaroq texnologiyalarni afzal ko'radilar[20]. Shu bois, ***muzeylar raqamlashtirish strategiyasini o'z auditoriyasiga mos ravishda ishlab chiqishi*** **kerak.**

Muzeylarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish jarayonlari tobora ortib bormoqda, chunki muzeylar tarixiy kolleksiyalar va madaniy yodgorliklarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish hamda ta'lim vositasi sifatida

xizmat qilish maqsadida tashkil etilgan. Muzeylarda innovatsion va strategik yondashuv asosida raqamlashtirish va raqamli transformatsiyadan foydalanish natijasida tashrif buyuruvchilar uchun umumiy tajriba sezilarli darajada yaxshilandi. Muzeylar endilikda butun dunyo bo‘ylab turli muzey jamoalarini bog‘laydigan o‘zaro aloqador makonga aylandi; bu esa faqat raqamlashtirish orqali amalga oshdi.

Shunga qaramay, muzeylarning zamonaviy davrga moslashishi jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish bir qator muammolarni yuzaga keltirdi. Biz o‘tkazgan tizimli sharh natijasida to‘rtta asosiy muammo aniqlandi:

1. Muzey kolleksiyalari va maqsadlarining kengayishi natijasida muzey tushunchasi va uning zamonaviy jamiyatdagi roli noaniq bo‘lib qoldi.
2. Raqamlashtirish va raqamli transformatsiya texnologik tengsizlik va raqamli qurilmalar imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib qoldi.
3. Muzeylarning raqamlashtirishga tobora ko‘proq bog‘lanib borishi natijasida ularning jismoniy makon sifatida dolzarbligi savol ostida qoldi.
4. Muzeylar va madaniy meros joylarida xotira va jamoaviy xotira shakllanish jarayonini o‘rganish muhim ahamiyatga ega, chunki bu joylarda tarixiy voqealar va jamiyat xotirasiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud.

Raqamli texnologiyalar va raqamlashtirish muzeylarda xotira shakllanishiga qanday ta’sir qilishini yaxshiroq tushunish uchun qo‘shimcha empirik tadqiqotlar zarur. Kelajak tadqiqotlari muzey kuratorlari va tashrif buyuruvchilari kabi turli manfaatdor tomonlarning qarashlarini empirik tahlil qilish orqali raqamli texnologiyalarning muzeylarda xotira yaratishga qanday ta’sir qilishini tushunishga qaratilishi kerak. Olingan ma’lumotlar keyinchalik texnologik tengsizlik va raqamli qurilmalarga kirish imkoniyatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga xizmat qilishi va natijada muzeylarni hamma uchun ochiq va inklyuziv makon sifatida shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alony, I., Haski-Leventhal, D., Lockstone-Binney, L., Holmes, K., & Meijs, L. C. P. M. (2020). Online volunteering at DigiVol: An innovative crowd-sourcing approach for heritage tourism artefacts preservation. Journal of Heritage Tourism, 15 (1), 14–26.
2. Balloffet, P., Courvoisier, F. H., & Lagier, J. (2014). From museum to amusement park: The opportunities and risks of edutainment. International Journal of Arts Managemt, 16(2).
3. Bar-Tal, D., Oren, N., & Nets-Zehngut, R. (2014). Sociopsychological analysis of conflict-supporting narratives: A general framework. Journal of Peace Research, 51(5), 662–675.
4. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. Qualitative Research in Psychology, 3(2), 77–101.
5. Capstick, B. (1985). Museums and tourism. International Journal of Museum Management and Curatorship, 4(4), 365–372.
6. Charitonos, K., Blake, C., Scanlon, E., & Jones, A. (2012). Museum learning via social and mobile technologies: (How) can online interactions enhance the visitor experience? British Journal of Educational Technology, 43(5), 802–819.

7. Choi, B., & Kim, J. (2021). Changes and challenges in museum management after the COVID-19 pandemic. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, 7(2), Article 148.
8. Ch'Ng, E., Li, Y., Cai, S., & Leow, F. T. (2020). The effects of VR environments on the acceptance, experience, and expectations of cultural heritage learning. Journal on Computing and Cultural Heritage, 13(1), 1–21.
9. DE CAMPOS, M. D. R. C. (2021). Museums, tourism and interpretation of the heritage. Revista Rosa dos Ventos – Turismo e Hospitalidade, 13(3), 894.
10. Enhuber, M. (2015). Art, space and technology: How the digitisation and digitalisation of art space affect the consumption of art—a critical approach. Digital Creativity, 26(2), 121–137.
11. Fan, C. W., & Wang, Y. H. (2020). The concept study of knowledge value added in museum digital archives. WSEAS Transactions on Advances in Engineering Education, 17, 99–106.
12. Johanson, L. B., & Olsen, K. (2010). Alta museum as a tourist attraction: The importance of location. Journal of Heritage Tourism, 5(1), 1–16.
13. Hakimian, S. (2010). The Beirut national museum and collective memory: Sanctuary, repository, or interactive space? Near Eastern Archaeology, 73(2/3), 182–188.
14. Hammady, R., Ma, M., & Temple, N. (2016). Augmented reality and gamification in heritage museums.
15. García-Martín, I., & Ortega-Mohedano, F. (2020). Communication and Education at Museums in Castille and León: Digital habits in a crossroad revolution. ACM International Conference Proceeding Series, 566–570.
16. Kamariotou, V., Kamariotou, M., & Kitsios, F. (2021). Strategic planning for virtual exhibitions and visitors' experience: A multidisciplinary approach for museums in the digital age. Digital Applications in Archaeology and Cultural Heritage, 21, e00183.
17. Marty, P. F. (2008). Museum websites and museum visitors: Digital museum resources and their use. Museum Management and Curatorship, 23(1), 81–99.
18. Stauffer, A. (2012). The nineteenth-century archive in the digital age. European Romantic Review.
19. Stauffer, B., & Horstmann, B. (2021). Directors' perspective: A transatlantic discussion on the role of museums. Journal of Museum Education, 46(1), 10–16.
20. Traboulsi, C., Frau, M., & Cabiddu, F. (2018). Active seniors perceived value within digital museum transformation. The TQM Journal, 30(5), 530–553.

KARAYEV Fayozjon Kazakdjanavovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

fayyozdjon.karayev@gmail.com

ISAKOVA Dilso‘z Sho‘hratovna

Magistratura talabasi

isakovadilsuz14@gmail.com

MUZEYSHUNOSLIK RIVOJINING YANGI BOSQICHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeyshunoslikning yangi bosqichi, avvalo, raqamli texnologiyalarni joriy etish, virtual eksponatlar va interaktiv ko‘rgazmalarni tashkil etish, shuningdek, muzeylar va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni yangi shakllarda rivojlantirish bilan bog‘liq. Zamonaviy muzeylar, o‘z navbatida, ta’lim, turizm, madaniyatni targ‘ib qilish kabi bir nechta sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Muzeyshunoslikning rivojlanishi, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, yangi tadqiqot metodlarini qo‘llash va zamonaviy jamiyatning ehtiyojlariga mos keladigan xizmatlarni yaratishga ham yo‘naltirilgan. Biz ushbu maqolada muzeydagi buyumlarni ma’lumotlar bazasini shakllantirish haqida so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: *Muzeyshunoslik, raqamli texnologiyalar, madaniy meros, muzey va jamiyat, muzeylarning roli, muzeylarning rivojlanishi, muzeylarning ahamiyati.*

Har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an’analar hamda qadimiy yodgorliklarni o‘rganishga va saqlashga intilishi tabiiy hol. Bu borada esa muzeylarning o‘rni beqiyos. Chunki ular o‘tmishdan kelgan madaniyat, ma’rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimga solingan yig‘indisi bo‘lib, amaldagi tartiblarga muvofiq saqlanadi va namoyish qilinadi. 1977 yildan buyon dunyoda an’anaviy tarzda 18-may Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tarixiy merosimizni o‘zida saqlovchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, Islom Karimov yurtimiz tarixini, ko‘p yillik merosini o‘zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo‘yicha bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, 1994 yilda “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Natijada yurtimiz tarixini o‘zida to‘liq aks ettiruvchi 3 mingdan ortiq asori atiqalar va noyob eksponatlarga ega muzey tashkil topdi. Yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarimiz nomini tiklash va ularning boy moddiy-madaniy merosni yosh avlodga yetkazib berish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Tabiiyki, tarix muzeylari xalq o‘tmishi va xotirasining ifodasi hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda Qashqadaryo viloyatida ham muzeyshunoslikka oid keng miqyosdagi ishlar olib borildi. Jumladan, Qarshi shahridagi Qashqadaryo

viloyatining tarixiy muzeyi 1981-yilda tashkil etilgan. Shahrisabzdagi muzeylar orasida eng mashhuri Amir Temur muzeyi 1996-yilda tashkil etilgan. Muzey Amir Temurning vatani bo‘lgan Shahrisabz shahrining tarixini, madaniyatini va uning yirik davlat arbobi sifatidagi o‘rnini aks ettiradi.

Biz hozirda axborot asrida yashamoqdamiz. Buning rivojlanishi natijasida muzeydagi buyumlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirishga extiyoj tug‘ildi. Bu ishni quyidagicha amalga oshirishimiz mumkin.

Ma’lumotlar bazasini quyidagicha shakllantirishimiz mumkin.

Buyumlarni ro‘yxatga olish: Har bir buyumni identifikatsiya qilish, uning nomi, maqsadi, ishlab chiqarilgan yeri va davri haqida ma’lumot kiritish.

Kategoriyalarni belgilash: Tarixiy buyumlar arxeologik, san'at, etnografik, numizmatik va boshqalar kabi kategoriyalarga bo‘linishi kerak. Bu har bir buyumni tegishli toifaga ajratishga yordam beradi.

Tavsifnoma va tafsilotlarni kiritish: Har bir buyumning fizikal xususiyatlari (o‘lchami, materiali, holati), tarixiy yoki madaniy ahamiyati va u bilan bog‘liq tarixiy voqealar haqida ma’lumotlar.

Fotografiyalar va tasvirlar: Buyumlarning yuqori sifatdagi tasvirlarini qo‘shish orqali ma’lumotlar bazasining vizual boyligini oshirish.

Geografik ma’lumotlar: Buyumning topilgan joyi yoki muzeyda saqlanayotgan joy haqida ma’lumotlar.

Ma’lumotlar bazasini tuzilishini quyidagicha tashkillashtirishimiz mumkin.

ID (identifikatsiya raqami): Har bir buyumga unikal identifikatsiya raqami berish.

Nom: Buyumning to‘liq nomi.

Turkum: Buyumning qanday turkumga mansub ekanligi (masalan, ashyolar, qurollar, kiyimlar, san’at asarlari va boshqalar).

Xususiyatlar: O‘lchami, materiali, holati va boshqa fizikal tavsiflar.

Tavsif: Tarixiy yoki madaniy ahamiyati.

Manba: Buyumning qayerdan topilganligi yoki muzeyga qanday kelgani (masalan, arxeologik qazishmalar, donativlar, va h.k).

Fotografiyalar: Har bir buyumning tasvirlari.

Muzey nomi va joylashuvi: Qaysi muzeyda saqlanayotgani va uning joylashuvi.

Texnik Talablar

Ma’lumotlar bazasining platformasi: Ma’lumotlar bazasi tizimi sifatida SQL, Access yoki veb platformalarda (masalan, MySQL) ishlash mumkin. Agar muzeylar ko‘p bo‘lsa, bulutli tizimlardan foydalanish ham qulay.

O‘zgartirish va yangilanish: Ma’lumotlar bazasining o‘zgartirilishi yoki yangi buyumlar qo‘shilishi uchun tezkor tizim yaratish.

Xavfsizlik va Arxivlash

Zaxiralash va ma’lumotlar xavfsizligi: Ma’lumotlar bazasi maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash zarur. Yedek nusxalar yaratish va ma’lumotlar shifrlash tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Fizik xavfsizlik: Tarixiy buyumlar saqlanayotgan joylarda zarur xavfsizlik choralari ko‘rish, shuningdek, xodimlarni o‘qitish va monitor qilish.

Ma’lumotlar Bazasi Yaratish Jarayoni

Tadqiqot va tahlil: Har bir buyum haqida barcha mavjud ma’lumotlarni yig‘ish.

Ma’lumotlarni tizimlashtirish: Yig‘ilgan ma’lumotlarni ma’lum bir tizimda, masalan, elektron formatda saqlash.

Texnik bazani ishlab chiqish: Ma’lumotlar bazasini qurish va uni to‘ldirish, barcha funksiyalarni integratsiya qilish.

Sifatni ta’minlash: Ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish va kerakli yangilanishlar kiritish.

Amaliy Qo‘llaniladigan Asboblar

Google Sheets yoki Excel: Dastlabki bosqichda ma’lumotlarni boshqarish va sinovdan o‘tkazish uchun ishlatilishi mumkin.

Access yoki SQL ma’lumotlar bazalari: Katta ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun.

Muzeylar uchun maxsus dasturlar: Masalan, TMS (The Museum System) yoki Embark kabi dasturlar tarixiy buyumlarni boshqarish uchun ishlab chiqilgan.

Ushbu yondashuvlar orqali Qashqadaryo viloyatidagi muzeylardagi tarixiy buyumlar ma’lumotlar bazasini samarali ravishda shakllantirish va ularni tizimli saqlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, muzeyshunoslikka berilgan yuksak e’tiborning samarasi o‘laroq mazkur sohada quyidagi misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirildi:

- muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

- muzey ishini samarali yo‘lga qo‘yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg‘arma tashkil etildi.

- mustaqillik yillarida O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo‘yicha qator ko‘rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi.

Yuqorida sanab o‘tilgan soha rivojidagi muvofaqqiyatlar O‘zbekistonda muzeyshunoslik sohasini taraqqiy etishiga mustahkam zamin yaratgan omillardir. Tashkil etilgan va etilayotgan ko‘plab yangi muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga egaligini singdirgan holda, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari bilan tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Jumaeva, N. (2018). *Muzeyshunoslik va madaniy merosni saqlash*. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

2. Ismoilov, B. (2017). *Muzeyshunoslikning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari*. Tashkent: San'at nashriyoti.

3. Tursunov, A. (2020). *Raqamli texnologiyalar va muzeylar: yangi imkoniyatlar*. Tashkent: Yangi avlod.

4. Sharipov, M. (2019). *Muzeyshunoslikda innovatsiyalar va raqamli yondashuvlar*. Tashkent: Fan va texnologiya.

5. Karimov, T. (2021). *Muzey va jamiyat: madaniy almashinuv va ta’lim*.

Toshkent: O‘quvchi nashriyoti.

6. Yuldashev, A. (2016). *Muzeylar va madaniyat: o‘zgaruvchan dunyoda yangi tendensiyalar*. Tashkent: Ilm-fan nashriyoti.

7. Akhmedov, N. (2022). *Madaniy meros va uning muzeyshunoslikdagi o‘rni*. Tashkent: Ta’lim va ilm.

8. Murodov, B. (2018). *Muzeyshunoslik va innovatsiyalar: yangi istiqbollar*. Tashkent: Yoshlar nashriyoti.

9. Oripov, R. (2020). *Muzeylarda raqamli texnologiyalar va interaktiv eksponatlar*. Toshkent: Madaniyat va san'at.

10. Rakhimov, K. (2017). *Muzeyshunoslikda xalqaro hamkorlik*. Tashkent: O‘zbekiston jurnalistikasi nashriyoti.

SALOYEVA Ozoda
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik: tarixiy-madaniy obyektlarni
konservatsiy va restavratsiya qilish
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
ozodasaloyeva@gmail.comu

BUXORO SHAHRIDAGI ART RESTORANLARNING MADANIY TURIZMDAGI O‘RNI.

Annotatsiya*:Ushbu maqolada Buxoro shahridagi art restoranlarning shahar turizmini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati, madaniy turizm iqtisodiyotining rivojlanishida muzeylarda qo‘shimcha xizmatlar sohasini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Art restoranlarning madaniy turizm rivojiga ta’siri shaharda tashkil etilgan restoranlar misolida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *art restoran, art do‘kon, sayyoh, gastronomik turizm, mehmonxona, karvonsaroy, memoriy yodgorlik, turistik klaster, madaniy turizm.*

Annotation: *This article focuses on the role and importance of art restaurants in the development of urban tourism in Bukhara, and the development of additional services in museums in the development of the cultural tourism economy. The impact of art restaurants on the development of cultural tourism is studied using the example of restaurants established in the city.*

Keywords: *art restaurant, art shop, tourist, gastronomic tourism, hotel, caravanserai, memorial monument, tourist cluster, cultural tourism.*

Аннотация: *В данной статье особое внимание уделяется роли и важности художественных ресторанов в развитии городского туризма в Бухаре, развитии дополнительных услуг в музеях в развитии культурно-туристической экономики. Влияние художественных ресторанов на развитие культурного туризма изучено на примере ресторанов города.*

Ключевые слова: *арт-ресторан, арт-магазин, турист, гастрономический туризм, гостиница, караван-сарай, мемориальный памятник, туристический кластер, культурный туризм.*

Buxoroning turizm salohiyatini yuksaltirish, xorijlik sayyohlar oqimini, sayyohlik yonalishlarini kopaytirish, yangi mehmonxona va mehmon uylari barpo etish, xizmat korsatishni yaxshilash borasida keng kolamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2021-yilda Buxoroga 30,8 ming xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bolsa, 2022-yilda bu korsatkich 550 ming nafarga yetdi. Joriy yilning birinchi choragida qadimiy Buxoroga kelgan xorijlik mehmonlar soni 400 ming nafarga yetdi.

Qadimiy va hamisha navqiron Buxoro ozining betakror jozibasi bilan maftun etadi. Zero, shaharning ming yillik tarixiy evolyutsiya davrini bosib otgan betakror memoriy obidalari ozgacha sehr va korkamlikka ega. Labi Hovuz, Ark qal’asi, Nodir Devonbegi madrasasi, Somoniylar maqbarasi va boshqa obidalar o‘zining dizayni,

sharqona go‘zalligi bilan ajralib turadi.

Otgan yillar statistikasiga yuzlansak, 2021-yilda Buxoroga 1 million 405 ming, 2022-yilda esa 2 million 700 mingdan ortiq mahalliy sayyoh tashrif buyurgan bolsa, joriy yilning aprel oyida bu korsatkich 1 million 200 ming kishini tashkil etdi.

Malumot uchun: viloyatga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlarning 58 foizi MDH davlatlaridan, 21 foizi Yevropa davlatlaridan, 17 foizi Osiyodan, 4 foizi esa AQSH dan.

Joriy yil oxiriga qadar qadimiy va hamisha navqiron Buxoroga 1 million 200 ming nafardan ortiq xorijiy va 3 milliondan ortiq mahalliy sayyohlar tashrif buyurishi kutilmoqda [1].

Buxoroga sayyohlar oqimini oshirishning yana bir muhim omillaridan biri bu gastronomik turizmdir. Bu yonalishda 50 ta sharqona uslubda restoran va kafelar barpo etildi. Bu esa 500 ga yaqin yangi ish orni yaratish imkonini beradi. Bugungi kunga qadar 54 ta ochiq ayvonlar jihozlandi, 1350 ta yangi ish orni yaratildi, mehmonlarga gastronomik xizmat korsatish yuqori saviyada boshlandi.

2023 yil oxiriga qadar qadimiy shaharda yana 15 ta mehmonxona, 20 ta oilaviy mehmon uyi va 10 ta hostel foydalanishga topshirildi. Ochiq terrasalar, restoran va oshxonalar tashkil etish hisobiga 4 ming 200 ta yangi ish orni yaratish choralari korilmoqda [2]. Shuningdek, Buxoro salohiyatidan foydalanib, 8 ta markaziy kochada joylashgan 50 ga yaqin zamonaviy binolarning birinchi qavatlarida yuzdan ortiq restoran, kafe va xizmat korsatish shaxobchalarini joylashtirish imkoniyatlari organilmoqda.

Viloyatda xorijlik va mahalliy sayyohlarga muntazam xizmat korsatuvchi restoranlar soni 115 tani tashkil etadi. Binolar tomlarida ayvonchalar ishga tushirilishi hisobiga korsatilayotgan xizmatlar hajmi oshiriladi.

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-30-mart kunlari Buxoro viloyatiga amalga oshirgan tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda otkazilgan yigilish bayonida belgilangan topshiriqlarning ijrosini taminlash maqsadida, viloyat mehmonlariga yuqori sifatli xizmat korsatuvchi yana bir yangi hashamatli restoran oz faoliyatini boshladi. Buxoro shahar A.Yassaviy kochasida joylashgan, “Maroqand Premium” MChJ tomonidan ochilgan, loyihaning umumiy qiymati 10 mlrd somni tashkil etib, restoran oz bagriga bir vaqtning ozida 700 kishini sigdira oladi. Shuningdek, Yevropa va Sharq taomlarini tayyorlashga ixtisoslashgan mazkur restoranda 6 ta 20-30 orinli VIP zallar hamda 1 ta 280 kishiga moljallangan katta yiginlar zali va yozgi terrace ham mavjud bolib, unda barcha qulayliklar yaratilgan [3].

Buxoro viloyatining turistik infratuzilmasi boyligi bois ayni damda sohada malakali kadrlarni tayyorlash dasturi ijrosi yolida ham bir qator kolamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, joriy yilning 13-iyun kuni viloyat Turizmni rivojlantirish departamenti hamda Ozbekiston oshpazlar uyushmasi bilan hamkorlikda Buxoroda joylashgan “Империя вкуса” restoranida viloyatga tashrif buyuruvchi xorijiy va mahalliy mehmonlarga xizmat korsatuvchi mehmonxona, restoran va umumiy ovqatlanish shaxobchalari xodimlari malakasini oshirish maqsadida, “Ozbekistonda gastronomik turizm” mavzusida oquv seminari tashkil etildi. Mazkur seminar treningda viloyatdagi oz faoliyatini olib borayotgan 10 dan ortiq jumladan: “Turon

Plaza”, “Grand Buxara”, “Mehtar Anbar” mehmonxonalari hamda “Ipak yoli”, “Labi Hovuz”, “Sham”, “Голубые Купола”, “Green house”, “Mohichehri Zamon”, “Nodir Devonbegi”, “Budreddin”, “Xonadon” va “Империя вкуса” kabi ozining kopgina tashrifchilariga ega mashhur restoranlar rahbarlari va ishchi xodimlari ishtirok etishdi. Ushbu restoranlarning faoliyatiga yuzlanadigan bolsak, Badriddin restorani Buxoro shahridagi mashhur art restoranlardan biri hisoblanadi. Ushbu restoran Labi hovuz ansamblining yon tomonida joylashgan. Restoran tashkil etilganiga 7 yil to‘ldi. Restoran binosi mashhur Badriddin karvonsaroyi hisoblanadi. Badriddin karvonsaroyi — O‘zbekistonning Buxoro shahri tarixiy markazida joylashgan madaniy meros yodgorligi. O‘zbekiston moddiy va madaniy merosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan.

Buxoro shahridagi yana bir art restoran Siyohgaron masjidi me’moriy yodgorligi binosida tashkil etilgan. Ushbu masjid 19-asr me'morchiligiga oid bo‘lib, hozirda ancha yaxshi saqlangan va tashrifchilar uchun ajoyib maskanga aylantirilgan hisoblanadi. Ushbu masjid ichida art restoran 2016-yillarda tashkil etilgan.

Sahrodagi sharqona ertak: Bukhara Desert Oasis & SPA. Cho‘lda, "sivilizatsiyadan yiroq" maskanda, sokin va ortiqcha shovqin-suronsiz noodatiy hordiq chiqaradigan ajoyib manzildir. Bukhara Desert Oasis & SPA turistik klasterining o‘ziga xos jihatlari juda ko‘pdir.

Buxoro viloyati, Romitan tumanida joylashgan Bukhara Desert Oasis & SPA innovatsion turistik klasteriga Ekologiya vazirligi va Turizm qomitasi tomonidan katta press-tur tashkil etildi.

Bukhara Desert Oasis & SPA 2020-yil mart oyida ishga tushirilgan bo‘lib, hududi 8 gektarga teng. Mahalliy va xorijiy sayyohlarga turistik xizmatlar ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Takidlanishicha, klaster yiliga 24 000 nafar xorijiy sayyoh va 270 000 nafar mahalliy sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Hozirda klasterda 50 dan ortiq ish o‘rni yaratilgan.

Majmuada 30 xildan ortiq turistik xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan, tarixni o‘zida zamonaviy namoyon qilgan 700 o‘rinli “Шатер Эмира” (“Amir chodiri”) restorani, ochiq havoda dam olish maqsadida 3000 o‘rinlik “Karvon Saroy” maydoni, 35 000 o‘ringa mo‘ljallangan “Varaxsha” restorani, 30,0 gektar maydonda agro-eko bog‘lar va innovatsion issiqxonalar barpo etilgan.

Bukhara Desert Oasis & SPA klasterida ekstremal va ekoturizmni rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda. Djiplar va kvadrotsikllar yordamida sayr qilish, parashyutdan sakrash, ot va tuya poygalari kabi sayyohlarni qiziqtiruvchi bir qator xizmatlar mavjud [6]. Safari uslubidagi ekstremal sayrlar — sayyohlar xotirasida ajoyib taassurotlar bilan bir umr qolishi aniq. Ushbu maskan shu turdagi hordiq uchun ayni muddaodir.

“Шатер Эмира” (“Amir chodiri”) restorani Buxoro va umuman Buyuk Ipak Yoli tarixini vizual tarzda mujassam etgan katta joy. Dizaynerlik jihatidan etnik buyumlar, sharqona dekoratsiya, gilamlar va idishlarga etibor qaratilgan. Menyuda ozbek milliy va yevropa taomlari taqdim etiladi. Restoran sayyohlarni haqiqiy “Sharqona ertak” tomon chorlaydi. Uning fonidagi yorqin fotosuratlar etiborni jalb

etmasdan qolmaydi.

“Amir” restorani, “Karvon Saroy” maydoni, “Varaxsha” ochiq osmon ostida restoranlari va “Sari degi” deb nomlangan turli tematikaga mo‘ljallangan ovqatlanish nuqtalarida turli millatlarga mansub mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun restoran xizmatlari tashkil etilgan[7]. Takidlanishicha, mehmonlar uchun tayyorlanadigan barcha turdagi ovqatlarga kerakli poliz va go‘sht mahsulotlari turistik klasterning o‘zida yetishtiriladi va barchasi ekologik toza hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-30-mart kunlari Buxoro viloyatiga amalga oshirgan tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda otkazilgan yigilish bayonida belgilangan topshiriqlarning ijrosini taminlash maqsadida, yana bir yangi ovqatlanish shaxobchasi oz faoliyatini boshladi. Viloyatga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy mehmonlar konglidan ozining yuqori sifatli xizmat korsatishi va milliylik ruhida barpo etilgan restoran hashamatligi, qulayligi bilan joy olmoqda. Buxoro shahar B. Naqshband kochasida joylashgan, “Shergiron” MCHJ tomonidan tashkil etilgan “Sarafon al-Rashid” art restorani oz mijozlariga ega. Buning natijasida 10 ga yaqin yangi ish orinlari ham yaratildi.

Ayni restoran oz bagriga bir vaqtning ozida 80 tashrifchini sigdira oladi hamda ozining turli-tuman, takrorlanmas tamga ega milliy hamda Yevropa taomlari bilan mahalliy aholi va viloyat mehmonlari konglidan joy olgan.

Shuningdek, mazkur restoran yuqori zamonaviy uslubda tamirlangan bolib, songgi jahon standartlari talabiga javob bera oladi hamda tashrifchilar uchun unda barcha qulayliklar yaratilgan.

Buxoro shahridagi art restoranlarning faoliyati bilan shaharda tashkil etilgan bir nechta restoranlar misolida tanishib chiqdik. Art restoranlarning yutuqlari bilan birga bir qancha kamchiliklari ham mavjud. Birinchi navbatda art restoran muzeylarga yaqin hududda joylashgan bolishi kerak. Buxoro shahridagi Labi hovuz ansambli tarkibida joylashgan art restoran va uning yonidagi Badriddin art restoranlari qulay va kerakli manzilda tashkil etilgan[5]. Ularning ichki korinishi ham sayyohlar etiborini jalb qila oladi. Hozirda bu ikki art restorandan tashrifchilarning qadami uzilmaydi. Chunki u yerda tayyorlanadigan milliy taomlar juda mazali, menyu yaxshi tuzilgan, asosan Buxoroning iqlimiy sharoitiga moslangan, foydalilik koeffitsiyenti yuqori bolgan va sayyohlar uchun maqul boladigan taomlar tayyorlanadi. Art restoranlar faoliyatida hududning mavsumiy va iqlimiy sharoitidan kelib chiqib taomlar menyusini tuzish va taomlarni malakali oshpazlar tomonidan sifatli tayyorlanishini nazorat qilish muhim sanaladi. Belgilangan muddat orasida restoran xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan turli seminarlarni amalga oshirib borish zarurdir. Buxoro shahridagi art restoranlarning kopchiligida bu ish yolga qoyilgan va art restoranlarda malakali xodimlar faoliyat korsatib kelayotganligi bitiruv malakaviy ishi tadqiqoti davomida organilib chiqildi. Bundan tashqari, sayyohlarning asosan bahor va yoz mavsumlarida koproq tashrif buyurishini etiborga olgan holda, sayohat davomida turli muammolarga uchramasligi, hazm jarayonlarida nomutanosib tomonlar bolmasligi uchun bevosita shu jihatlarga ham alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Menyular ham qiziqarli va etiborni jalb qiladigan qilib tuzilishi, unda asosan

ishtahani ochadigan och ranglardan, masalan, yashil, sariq ranglardan koproq foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari, muzeylar va art restoranlar faoliyatida hamkorlikni ham togri yolga qoyish muhimdir. Masalan, muzeylarda sayohat qilib, ekskursiyalar otib bolingandan song, ekskursovod tomonidan tashrifchilarga ozlariga yaqin restoranning vizitkasi yoki broshyurasi taqdim etilib, art restoranga yonaltirilsa, sayyohlar, albatta, unga tashrif buyurishadi. Bu jarayonda muzeylar tashrifchini art restoranga yonaltirish orqali, yani restoranga keladigan mehmonlar sonini oshirayotgani uchun ham foyda olishi mumkin. Mazkur holatda art restoranlar bilan bir qatorda muzeylarga ham daromad kelishi mumkin. Muzeylar oziga destinatsion jihatdan yaqin bolgan art restoranlar bilan shartnoma tuzib, ekskursiyadan song tashrifchilarga restoran haqida qoshimcha malumot berib, u yerda tayyorlanadigan taomlarning foydali jihatlari haqida sayyohlarga malumot taqdim eta olishi ham muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Demak, muzey turizmida faqatgina muzeylarni tomosha qilish, suvenir mahsulotlarini sotib olishgina emas, balki togri ovqat tanovul qilish ham insonning kayfiyati kotarilishiga, keyingi sayohatini davom ettirishida ijobiy natijalarga erishishiga sabab boladigan omillardan biridir.

Art restoranlar tarkibida kichkinagina art dokonlar ham tashkil qilish mumkin. Unda asosan gastronomik turizmga xos bolgan, sayyohning Buxoroga sayohatini eslatib turadigan, boshqa savdo markazlarida takrorlanmaydigan kundalik buyumlardan tashkil topgan shinamgina burchak tashkil etish ham sayyohlar uchun qiziqarli holat hisoblanadi. Sayyohlar taom tanovul qilib bolgandan song, ularni xarid qilib esdalik uchun olib ketishlari mumkin boladi.

Shunday qilib, art restoranlar madaniy turizm rivojida muhim ahamiyat kasb etadi hamda ularda xizmat korsatishni yaxshilash, ularning ichki unteryeriga va tashqi korinishiga alohida ahamiyat qaratish muhimdir. Negaki, muzeylar, art mehmonxonalar, art restoranlar, art dokonlar yurtimizning madaniyatini, milliyligini, sharqona korinishini ozida namoyon etadigan maskanlardir.

Darhaqiqat, milliy dizayni bilan shahar korkiga kork qoshayotgan serviqor art restoranlar Buxoroda gastronomik turizm rivojida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki art restoranlar madaniy turizm rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmdan keladigan asosiy daromad manbalari qo‘shimcha xizmatlar sohasini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bukhara tourism offical.#kuzgi_turistik_mavsumda_Buxoro.2023-yil 16-sentabr.https://m.me/Bukhtourism development
2. Muhamedova M.S.”Ozbekistonda madaniy turizm rivojidagi tizimli loyihalashtirish metodlari”. Моддий маънавий ва умумбашарий қадриятлар Республика илмий амалий анжумани тўплами. Тошкент 2024. Б. 56-59.
3. Тоҳиров Ш. Бухоро ҳақида йўл кўрсаткич. Ўзбекистон маданияти. №27.1975 йил, 4 апрель.
4. Gastronomik turizm.2024.02.10. Vikipediya https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Gastronomik_turizm
5. Badriddin karvonsaroyi.2022-yil 6-yanvar. Vikipediya https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Badriddin_karvonsaroyi

6. Sahrodagi sharqona ertak: Bukhara Desert Oasis & SPA majmuasiga tashrif buyurish uchun 7 ta sabab 27-sentabr 2023-yil. https://www.afisha.uz/uz/gorod/2023/09/27/bukhara-desert-oasis-spa
7. Дурович А.П. Маркетинг гостиниц и ресторанов: Учебное пособие / А.П. Дурович, /. - М.: Новое знание, 2005. — С.156
8. Назарова Г.М., Мирзаев М.Ф. Законы туризма. Ташкент: Изд. Узбекистан, 2003, С.63

XASANOVA Nodira A'zam qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
2-bosqich mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

TOSHKENT SHAHAR LANDSHAFTIDA, MONUMENTAL HAYKALTAROSHLIKNING O'RNI

Annotatsiya: *Toshkent shahridagi monumental haykaltaroshlik asarlari shahar landshaftining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning estetik ko'rinishini bezatish, tarixiy va madaniy merosini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu haykallar nafaqat shaharning tarixiy o'tmishini aks ettiradi, balki shahar aholisining ma'naviy va ijtimoiy birligini mustahkamlashda ham katta rol o'ynaydi. Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslarning haykallari Toshkentning madaniy merosini va tarixiy ahamiyatini ta'kidlab, shaharning identitetini shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *Landshaft, shahar arxitekturasi, monumental haykaltaroshlik, bog'-park san'ati, haykaltarosh, atoqli shaxslar portretlari.*

Аннотация: *Монументальные скульптуры Ташкента стали неотъемлемой частью городского ландшафта, играя важную роль в украшении его эстетического облика и сохранении исторического и культурного наследия. Эти памятники не только отражают историческое прошлое города, но и способствуют укреплению духовного и социального единства его жителей. Памятники таким великим личностям, как Амир Темур и Алишер Навои, подчеркивают культурное наследие Ташкента и его историческое значение, формируя идентичность города.*

Ключевые слова: *ландшафт, городская архитектура, монументальная скульптура, искусство садов и парков, скульптор, портреты выдающихся личностей.*

Abstract: *The monumental sculptures of Tashkent have become an integral part of the city's landscape, playing a crucial role in enhancing its aesthetic appearance and preserving its historical and cultural heritage. These statues not only reflect the city's historical past but also play a significant role in strengthening the spiritual and social unity of its residents. The statues of great figures such as Amir Timur and Alisher Navoi emphasize Tashkent's cultural heritage and historical*

importance, shaping the city's identity.

Keywords: *Landscape, city architecture, monumental sculpture, garden-park art, sculptor, portraits of prominent figures.*

Shahar arxitekturasi va landshafti bu, shaharlarni yaratish va rivojlantirishda ahamiyatli rol o‘ynaydigan ikki asosiy soha. Har biri o‘ziga xos tamoyillarga ega bo‘lib, shahar muhitini tashkil etish va uning estetikasi, funksionalligini belgilaydi.

Shahar arxitekturasi shaharlarni va uning joylashuvini tashkil qilish, ularning binolarini, ko‘chalari, maydonlarini, transport tizimlarini va boshqa inshootlarni loyihalash bilan shug‘ullanadi. Bu soha quyidagi jihatlarga e'tibor qaratadi:

Shaharni rejalashtirish: Shaharni tashkil qilishda hududiy rejalashtirish, infratuzilma, vaqti-vaqti bilan yaxshilanishi kerak bo‘lgan joylarning optimallashtirilishi muhim. Bunda yashash joylari, savdo maydonlari, sanoat va boshqa sohalar bir-biriga qarab tartibga solinadi.

Funksionallik va estetik: Shahar binolarining dizayni va ularning estetikasi muhim, chunki ular nafaqat amaliy, balki vizual ta’sirga ham ega. Zamonaviy shaharlar ko‘pincha yuqori texnologiyalarni va ekologik dizaynni o‘z ichiga oladi.

- **Tarixiy va madaniy meros:** Ba’zi shaharlarda eski arxitekturaviy obidalar va tarixiy inshootlar ham muhim rol o‘ynaydi. Shahar arxitekturalari bu elementlarni saqlab qolish, modernizatsiya qilish va ularga yangi dizaynlar qo‘shish bo‘yicha ishlaydi.

Shahar arxitekturasini yaratishda landshaft dizayni ham muhim rol o‘ynaydi. Arxitektorlar binolarni, ko‘chalari va jamoat joylarini loyihalashda landshaft arxitekturasidan foydalangan holda, tabiiy va sun'iy elementlarni uyg‘unlashtiradilar. Bu birgalikda shaharning umumiy ko‘rinishini, qulayligini va yashash uchun maqbul muhitni yaratadi.

Shahar landshaftida, monumental haykaltaroshlikning o‘rni juda muhim. Haykaltaroshlik asarlari nafaqat estetik va san’at asarlari sifatida, balki shaharlarning madaniy, tarixiy va ijtimoiy identitetini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Monumental haykaltaroshlik asarlari, asosan, shaharning ko‘rinishini, aholi ruhiyatini, shuningdek, tarixiy va madaniy voqealarni yodga solish maqsadida yaratiladi.

Monumental haykaltaroshlikning shahar landshaftidagi o‘rni

1. **Tarixiy va madaniy merosni ifodalash:** Monumental haykaltaroshlik asarlari ko‘pincha muhim tarixiy voqealar, shaxslar yoki madaniy merosni yodga soladi. Masalan, yirik shaxslarning haykallari (bu siyosiy rahbarlar, yozuvchilar, san’atkorlar yoki jangchilar bo‘lishi mumkin) yoki yirik tarixiy hodisalar — bu shaharning o‘tmishidagi muhim lahzalar haqida xabardor qiladi.
2. **Estetik va simvolik ahamiyat:** Haykaltaroshlik san’ati shahar landshaftini bezashda muhim rol o‘ynaydi. Monumental asarlar ko‘pincha shaharning markaziy maydonlarida, ko‘chalarda yoki parklar va bog‘larda o‘rnatiladi, bu esa shaharni yanada jozibali va takomillashtirilgan qiladi. Bu asarlar simvolik ma’noga ega bo‘lishi mumkin, masalan, erkinlik, tenglik, baxt va boshqa insoniyat qadriyatlarini ifodalovchi haykallar.
3. **Shahar identitetini yaratish:** Haykaltaroshlik shaharning identitetini mustahkamlashda muhim vositadir. Shaharning simvoli bo‘lgan yirik haykallar yoki

haykaltaroshlik asarlari, shaharni tashrif buyuruvchilar uchun tanish va unikal qilib ko‘rsatadi. Shuningdek, haykaltaroshlik asarlari shaharning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini yoritishda xizmat qiladi.

4. **Jamoat ruhiyatini shakllantirish:** Monumental haykaltaroshlik shahar aholisining ruhiyatiga ta’sir qiladi. Haykallar, ayniqsa, markaziy joylarda bo‘lsa, aholining birligini, faxrini va mashaqqatli mehnatini aks ettiradi. Bu san’at asarlari jamoatni birlashtiruvchi, jamoaviy ruhiyatni shakllantiruvchi element sifatida xizmat qiladi.
5. **Konsentratsiya va diqqatni jamlash:** Yirik monumental haykallar shaharning o‘ziga xos diqqat markaziga aylanishi mumkin. Misol uchun, ma’lum bir haykal yoki monumental asar shaharning markazida joylashganda, u joyni aniq ajratib, odamlarni o‘sha hududga jalb qiladi. Bu, o‘z navbatida, shaharning estetik ko‘rinishini yaxshilaydi va o‘ziga xosligini oshiradi.

Toshkent shaxrida juda ko‘p nuqtalarda tarixiy siymolar, san’at va adabiyot vakillari, siyosiy arboblarga atalgan portretli monumental yodgorliklar mavjud. Shuningdek, mavzuli kompozitsiyalardan: “Ezgulik” monumenti, “Motamsaro ona” haykali, “Vatanga qasamyod”, “ Bahtiyor ona” haykali kabilar shular jumlasidandir. Quyida shaxar arxitekturasida o‘z o‘zni va ahamiyatiga ega bo‘lgan ba’zi yodgorliklar haqida so‘z boradi.

She’riyat mulkining sultoni buyuk shoir Alisher Navoiy haykali istiqlolning ilk yilida Toshkent shahrida qad rostladi. 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yillligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi 1- prezidenti I.A.Karimov tashabbusi orqali bunyod etilgan. Alisher Navoiy memorial majmui me’morlar: V.Akopjanyan, D.Latipov hamda haykaltaroshlar: E.Aliyev, N.Bandeladze, V.Degtyarov hamkorligida yaratilgan. Bog‘ning tepalik qismidagi (rotonda) an’anaviy uslubdaa ishlangan: ustunlarga o‘rnatilgan feruza gumbaz, ichi ganchkorlik bilan bezatilib, shoirning tinchlik va ezgulikni madh etuvchi quyidagi misralari bitilgan:

Olam ahli , bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

Markazda qad rostlagan Alisher Navoiy o‘tkir va zehnli nigohi ila to‘g‘riga qarab turibdi. Obraz tik holda, mutafakkir bir qo‘llarida xassa bo‘lib, cho‘pon va bosh kiyim (salla) da gavdalangan. Mahobatli haykaltaroshlik talablariga to‘liq mos keluvchi majmuaning har bir detali Navoiy siymosiga mutanosib. Memorial majmuaga marmar zinalar orqali chiqiladi. Milliy bog‘ hududidagi yirik jamoat binolari – Xalqlar Do‘stligi saroyi, Oliy majlis binosi, Abulqosim madrasasi, aylana shaklidagi sahna va amfiteatr uyg‘unlikda yaxlit majmua hosil qiladi.

2017-yilda milliy bog‘ hududida bo‘lib o‘tgan rekonstruksiya sababli haykal ham o‘girilib qo‘yilgan va ta’mirlangan. 2020-yil fevral oyida Alisher Navoiy tavallud kuni arafasida qayta ochilishi bo‘lib o‘tgan.

Toshkent ramzlaridan biri bo‘lgan mazkur haykalning surati, 1994-yilda muomalaga chiqarilgan 5 so‘mlik valyutasiga tushirilgan edi.

Amir Temur saroyida 7 yil yashagan mashxur tarixchi Ibn Arabshox Sohibqironning surati va siyratini shunday ta’riflaydi:

“Temur baland bo‘yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag‘oyat kuchli va salobatli. Oq-qizil yuzli, keng yelkali, qaddi-qomati kelishgan. Sersoqol, o‘ng qo‘I

va o‘ng oyog‘i zahmdor, ikki ko‘zi bamisoli ikki shamday porlan turadigan. Yog‘on ovozli ulug‘ligi o‘ziga yarashgan, qat’iy azmu qaror bilan so‘zlaydigan, haqgo‘y kishi edi. U zimdan qarash va ko‘z ishoratlarini sezadigan, idrokli, sinchkov har qanday ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz berishi mumkin bo‘lgan hamma ishni oldindan ko‘rib bilib turar edi [1].

Ushbu nodir manbaa asosida rassom Malik Nabiyev Amir Temur obrazini yaratdi. Ushbu yaratilgan portret hozirgi kunga qadar yaratilgan AmirTemur haykallari uchun asos qilib olindi. Sobiq hukumat davrida deyarli nomi tilga olinmagan ulug‘ ajdodlarimizdan biri Amir Temurning obrazini yaratishda ko‘plab haykaltaroshlar faol qatnashishdi. O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov boshchiligida muhokama va tanlov guruhi tuzildi. Natijada 1993-yil Toshkentda Amir Temurning otda o‘tirgan holati, Shaxrisabz (tug‘ilgan yeri)da 1996-yil tik turgan holati, 1996-yil Samarqandda taxtta o‘tirgan obrazi yaratildi. Asarlarning yaratilishi haqida Birinchi rahbar I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida batafsil to‘xtalib o‘tilgan: “1993-yili Toshkent shaxridagi Amir Temur xiyoboniga o‘rnatiladigan haykalni ilk bor muhokama qilganimiz esimda. Haykaltaroshlar taqdim etgan variantda Sohibqiron qo‘liga nayza tutgan holda tasvirlangan edi. Men bunga e’tiroz bildirib, “Sohibqiron bobomiz qo‘lida nayza emas, otning jilovini tutib turgani ma’qul, - degan fikrni bildirdim.- Buning ramziy ma’nosi bor. Chunki, saltanatda nayza ko‘targan odamlar ko‘p bo‘lgan, ammo jilov Amir Temurning qo‘lida bo‘lgan. Bu mustahkam davlat tizimini qo‘lda mahkam tutib turishni anglatadi. Shu bilan birga, buyuk ajdodimizning ikkinchi qo‘lini baland ko‘tarib, dunyodagi barcha insonlarga tinchlik-omonlik, baxtu saodat tilayotgan asnoda aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Qolaversa, xalqimizda har bir ish bismilloh aytib, o‘ng qo‘l , o‘ng oyoqdan boshlanadi. Bu haykalda esa, ot nima uchundir chap oyoqdan odim tashlayapti Muhokama ishtirokchilari bu fikrga qo‘shilishdi va haykaltaroshlar bildirilgan fikrlar asosida yangi variantni yaratishdi. 1996-yili Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Samarqand va Shaxrisabz shaharlarida ulug‘ bobomizga atab haykal o‘rnatish bo‘yicha amaliy ishlar bajarildi. Dastlabki loyiha va takliflarga ko‘ra Samarqanddagi haykal timsolida Sohibqironning avji kuch-quvvatga to‘lgan navqironlik pallasi, ya’ni yigitlik davrini, Shahrisabzdagi haykal orqali esa uning beg‘ubor bolalik holatini ifodalash mo‘ljallangan edi. Men muhokama paytida Sohibqiron siymosini xronologik tarzda emas, balki, yagona fundamental obraz sifatida tasvirlash maqsadga muvofiq ekani haqida o‘z fikrimni bildirdim: “Amir Temur obrazini turli davrlarga bo‘lmasdan, uning favqulodda buyuk aql-zakovati, jasorati va azmu shijoatini yaxlit holatda mujassam ifoda etish har jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Toki Amir Temur siymosini kim qayerda ko‘rmasin, uning mardona, ulug‘vor va donishmand qiyofasini bexato taniy oladigan bo‘lsin”. Shu o‘rinda aytish joizki, Samarqand shaxrida o‘rnatiladigan haykalning dastlabki variantga ham hozirgidan biroz boshqacha edi. Unda Sohibqiron qo‘lida qilich ushlagan qiyofada tasvirlangan edi. Men bu masalaga bag‘ishlangan so‘nggi muhokamalarning birida bunday badiiy yechimga e’tiroz bildirib, “To‘g‘ri Amir Temur davlat boshqaruvida xarbiy kuchga ham tayangan, ammo uning o‘nta ishdan to‘qqiztasini kengashu mashvarat bilan, qolgan bittasini qilich bilan bitirdim, degan so‘zlarini unutmaslik kerak”, deb

qilichni Sohibqironning yonida, qiniga solingan holatda aks ettirish lozimligini ta’kidladim. Chunki shunda uning siymosida, men xalqimning ximoyasi, yurtimning mudofaasi uchun har lahzada kurashga tayyorman, lekin dunyoda tinchlik-barqarorlik hukmron bo‘lishini istayman, degan g‘oya o‘z ifodasini topgan bo‘lar edi. Biz ko‘p tortishuv va fikr almashuvlardan so‘ng Sohibqironning qo‘llarini bir-biriga qo‘yib turgan holatini ham o‘zgartirdi, barmog‘idagi “Kuch- adolatda” degan mashxur so‘zlar bitilgan uzugini bo‘rttirib ko‘rsatishga qaror qildik. Ma’lumki, bu uzuk va uning ko‘zidagi hikmatli ibora Amir Temurni butun dunyoga mashxur qilgan. Bu shiorda bobokalonimizning hayotiy e’tiqodi teran aks etgan. Shuning uchun uzukni tasvirlashga albatta e’tibor qaratish kerak, degan xulosaga keldik. Ushbu muhtasham haykallarni ming-minglab yurtdoshlarimiz, chet ellik mehmonlar ko‘rishi, ulardan zavqlanishi, faxrlanish, bizning kimligimiz, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanimizni aynan shunday asarlar orqali his etishini xisobga olib, men, Sohibqironning yuzidan nur yog‘ilib turishi kerak, degan mazmundagi fikrni bildirdim. Bugungi kunda poytaxtimizning Amir Temur xiyoboniga, Samarqanddagi Ko‘ksaroy, Shaxrisabzdagi Oqsaroy maydoniga xox kechqurun-qachonki borib qaramang, chindan ham Sohibqiron siymosida doimo nur jilvalanib turganini ko‘rishingiz mumkin.[2]” Asar muallifi Ilhom Jabborov.

Monumental haykaltaroshlik shahar landshaftida nafaqat estetik nuqtai nazardan muhim, balki u shahar madaniyati, tarixi va ijtimoiy qadriyatlarini yodga solish va saqlash uchun ham muhim vositadir. Bu san’at asarlari shaharlar uchun markaziy element sifatida, ularning ko‘rinishini yaxshilashda, aholi birligini oshirishda va tarixiy merosni saqlashda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mustaqillik davri o‘zbek monumental haykaltaroshlik san'ati. – T.: SMI-ASIA, 2011. – 88 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. 2007
3. Po‘latov D. O‘zbeksiton san’ati. O‘quv qo‘llanma.- “Namangan” nashriyoti. 2018
4. Haykaltaroshlik.O‘zbekiston tasviriy san'ati antalogiyasi / T. Qo‘ziyev loyihasi; tahrir hay'ati: H. Aminov [va boshqalar]. – T.: “San'at” jurnali nashriyoti, 2011
5. O‘zbekiston haykaltaroshligi katalogi (1991-2006) / O‘zbekiston Badiiy akademiyasi. – T.: OOO MEDIA LAND, 2006. – 32 b.

TURGUNOVA F.N.
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
O‘qituvchisi

RESPUBLIKADA VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI MUZEYLARINING SO‘NGI YILLARDA FOND ISHI: MUAMMO VA YECHIM

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Viloyat tarixi va madaniyati muzeylarning fond ish faoliyati, raqamlashtirish tizimining muzeylarda olib borilish jarayonlari hamda muzeylarga eksponatlarning yig‘ilish tartibi yoritib o‘tilgan. Respublikaning ayrim viloyatlari Namangan, Navoiy, Jizzax, Andijon, Farg‘ona Kabir bir qator muzeylarning faoliyati yortiligan.*

Kalit so‘zlar: *kolleksiya, eksponat, ekspozitsiya, konstruksiya, numizmatika, etnografiya, arxeologiya, fotoarxiv.*

Аннотация*: В данной статье освещены вопросы управления музейными коллекциями в региональных музеях истории и культуры, процесс цифровизации в музеях, а также порядок сбора экспонатов. Рассмотрена деятельность ряда музеев в некоторых регионах республики, включая Наманган, Навои, Джизак, Андижан и Фергану.*

Ключевые слова: *коллекция, экспонат, экспозиция, конструкция, нумизматика, этнография, археология, фотоархив.*

Annotation*: This article highlights the issues of museum collection management in regional history and culture museums, the process of digitalization in museums, as well as the procedure for collecting exhibits. The activities of several museums in certain regions of the republic, including Namangan, Navoi, Jizzakh, Andijan, and Fergana, are examined.*

Keywords: *collection, exhibit, exhibition, construction, numismatics, ethnography, archaeology, photo archive.*

Muzeylar milliy madaniyat va tarixni asrab-avaylash, ilmiy tadqiqotlar olib borish va jamoatchilikka taqdim etish markazi hisoblanadi. Viloyat tarixi va madaniyati muzeylarining fond ishi esa muzeyning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u madaniy merosni yig‘ish, saqlash, qayta tiklash va tadqiq qilishni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda muzey fondlari ustida olib borilgan ishlar yangi bosqichga ko‘tarilib, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali muhim natijalarga erishildi.

Fondlar boyitilishi va yangi eksponatlarning qo‘shilishi bilan viloyat tarixi va madaniyati muzeylari fondlari sezilarli darajada boyitildi. Jumladan: 2018-2019 yillar – Tarixiy va etnografik buyumlar yig‘ish bo‘yicha maxsus ekspeditsiyalar tashkil etildi. Bu davrda 5 000 dan ortiq yangi eksponatlar muzeylarga kelib tushdi. 2020 yil – Qadimiy qo‘lyozmalar, arxeologik topilmalar va san’at asarlarini muzey fondlariga jalb etish bo‘yicha maxsus dasturlar amalga oshirildi. 2021 yil – Xususiy kolleksiyalardan qimmatli buyumlar xarid qilinib, davlat muzey fondiga kiritildi.

Fond ishining raqamlashtirilishi va elektron katalog yaratish jarayonlari sezilarni darajada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan. Muzey fondlarining raqamlashtirilishi bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar olib borildi:
2019 yil – Fond hujjatlarining elektron bazasini yaratish bo‘yicha dastlabki ishlar boshlandi. 2020 yil – 100 mingdan ortiq eksponatlar elektron katalogga kiritilib, ularning tasniflanishi amalga oshirildi. 2021 yil – “Muzey fondi” axborot tizimi joriy etilib, eksponatlar bo‘yicha ma’lumotlar ommaviy ravishda internet platformalarida e’lon qilina boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni ijrosi yuzasidan, Jizzax viloyat hokimining 2020-yil 21-noyabrdagi “Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi filiali shaklida Mirzacho‘l va Forish tumanlarida O‘lkashunoslik muzeylari tashkil etish to‘g‘risida”gi 335-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining filiali shaklida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Forish va Mirzacho‘l tumani o‘lkashunoslik muzeylari tashkil etilgan.
Hozirgi kunda Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi hamda uning 5 ta filiallaridan iborat:
1.Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi (filial)
2.Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi (filial)
3.Zomin tuman tarixi muzeyi (filial)
4.Mirzacho‘l tuman o‘lkashunoslik muzeyi (filial)
5.Forish tuman o‘lkashunoslik muzeyi (filial) dan iborat.

Bino 1989 yilda madaniyat saroyi sifatida qurilgan, hozirgi kunda binoda tuman madaniyat markazi faoliyat yuritadi. Bino muzey balansida emas. Muzeyda eksponatlar soni 63 tani tashkil etadi. Mirzacho‘l tumani O‘lkashunoslik muzeyiga 2023 yil davomida jami tashrif buyuruvchilar 1466 nafarni tashkil etadi[4].

Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi 1934 yilda tashkil etilgan bo‘lib, muzey binosi 1982 yilda qurilgan. Muzeyning bosh binosining 1-qavatida joylashgan ma’muriyat, muzey xodimlari va fond saqlash xonalari, shuningdek, 2-qavatda joylashgan tasviriy san’at ekspozitsiyasi 2020-2021 yillarda kapital ta’mirlandi. Muzey maxsus qurilgan binoda faoliyat ko‘rsatadi. Xozirgi kunda muzeyning 3-qavat ekspozitsiya zali, fasad va tom qismi ta’mirga muhtoj. Isitish sovitish, yoritish tizimlari talab darajasida jihozlangan. Muzey ashyolarini saqlanishi O‘zbekiston Respublikasi muzeylar to‘g‘risidagi Qonuni talablariga javob beradi. Muzeyning jami ashyolari soni 156271 ta, shundan, 114947 ta ashyo asosiy fond, 41324 ta ashyo yordamchi fond. Muzey fondidagi ashyolarni ro‘yxatga olish bo‘yicha 26 ta kirim (KP) va 12 ta inventar kitoblar (INV) yuritilib kelinmoqda. Mazkur kitoblarda har bir ashyo maxsus tartib raqamlar va qisqacha izohlar bilan belgilangan.

Shu kunga qadar, asosiy fondga oid bo‘lgan arxeologiya ashyolari va kolleksiyasidan 46 112 ta, numizmatika kolleksiyasidan 609 ta, foto va hujjatlar kolleksiyasidan 4322 ta, grafik asarlar kolleksiyasidan 230 ta grafik asarlar, qo‘lyozma va toshbosma kitoblar kolleksiyasidan 1292 ta kitoblar, shuningdek muzeyning Paxtaobod tuman filialida 299 ta, Cho‘lpon yodgorligi bo‘limida

saqlanayotgan 132 ta jami 52 996 ta muzey ashyolari va kolleksiyalari kirim kitobi (KP) va inventar kitoblardagi (INV) tavsiflari bilan taqqoslangan holda xatlovdan o‘tkazildi.

Xatlov jarayonidan o‘tkazilgan 52 996 ta muzey ashyolari va kolleksiyalari muzeyning kirim kitobi (KP) va inventar kitoblaridagi (INV) ko‘rsatilgan tavsiflari va raqamlariga mos kelishi aniqlandi.

Restavratsiya qilingan ashyolarning pasportlari yuritilgan. Mazkur pasportlarda ashyoning dastlabki holati, restavratsiya jarayonidagi va restavratsiyadan keyingi holatlari fotosuratlar bilan ko‘rsatib o‘tilgan.

Muzey ashyolarining 78-mingdan ortig‘i bugungi kunda elektron goskatalog portaliga joylashtirish uchun suratga olinib, 38-mindan ortig‘i portalga joylashtirilgan[4].

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi Kosonsoy tumani filiali 1980 yilda tashkil etilgan, muzey oliy toifali muzeylar qatoriga kiradi. Muzey binosi 2007 yilda qurilgan. Muzeydagi eksponatlar soni 10006 ta bo‘lib, fond bo‘limida 5 ta KP kitob va 9 ta INV kitobi mavjud. Muzeyda 2023 yilda jami 43 ta ko‘rgazma tashkil etilgan bo‘lib, shundan 23 ta ko‘chma ko‘rgazma. Shu yili tashrif buyuruvchilar soni 13604 ta bo‘lib, shundan xorijiy tashrif buyuruvchilar soni 31 ta. Namangan viloyati tarixi va madaniyati muzeyining o‘zi 1920 yilda tashkil topgan, 1988 yilga kelib muzey uchun maxsus bino qurilgan. Muzeyda jami eksponatlar soni 110615 ta, shundan asosiy fondda 26348 dona, ilmiy ko‘makchi fondda 84267 donani tashkil etadi. KP kitobi 37 dona, INV kitobi esa 57 dona. Muzey ma’muriyatining 13.07.2022 yil 01-03-20/65 sonli buyrug‘iga asosan “San’at” bo‘limidagi 1634 dona eksponatlar xatlovlar o‘tkazildi. Muzey ma’muriyatining 19.07.2022 yil 01-03-20/66 sonli buyrug‘iga asosan “Etnografiya” bo‘limidagi 3017 dona eksponatlar xatlovlar o‘tkazildi. 2023 yilda tashkil etilgan ko‘rgazmalar soni- 37 ta undan ko‘chma ko‘rgazmalar soni- 9 ta chet elda kurgazmalar tashkil etilmagan. 2023 yilda tashrif buyuruvchilar soni- 86544 nafar shundan xorijlik tashrif buyuruvchilar soni- 190 nafar[4].

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi 1894 yilda tashkil etilgan bo‘lib, muzey binosi 1985 yilda qurilgan. Bino maxsus muzey uchun qurilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil dekabrdagi 975-sonli qaroriga asosan ta’mirlash ishlari boshlanib, 90%ga bajarilgan. Isitish tizimlari yangilangan. Ashyo saqlash holati qoniqarli darajada. Eksponatlar soni 100 449 dona. Asosiy fond 94 980, ilmiy yordamchi fond 5469 dona.

Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi 1934 yilda tashkil qilingan. Muzey binosi 1982 yilda qurilgan. Muzeyning jami ashyolari soni 156271 ta, shundan, 114947 ta ashyo asosiy fond, 41324 ta ashyo yordamchi fond. Jumladan, muzey fondida jami 156271 ta muzey ashyolari va muzey kollleksiyalari mavjud bo‘lib, ulardan asosiy fond 114947 tani, ilmiy-yordamchi fond 41324 tani tashkil etadi.

Shu kunga qadar, asosiy fondga oid bo‘lgan arxeologiya ashyolari va kolleksiyasidan 46 112 ta, numizmatika kolleksiyasidan 609 ta, foto va hujjatlar kolleksiyasidan 4322 ta, grafik asarlar kolleksiyasidan 230 ta grafik asarlar, qo‘lyozma va toshbosma kitoblar kolleksiyasidan 1292 ta kitoblar, shuningdek

muzeyning Paxtaobod tuman filialida 299 ta, Cho‘lpon yodgorligi bo‘limida saqlanayotgan 132 ta jami 52 996 ta muzey ashyolari va kolleksiyalari kirim kitobi (KP) va inventar kitoblardagi (INV) tavsiflari bilan taqqoslangan holda xatlovdan o‘tkazildi.

Xatlov jarayonidan o‘tkazilgan 52 996 ta muzey ashyolari va kolleksiyalari muzeyning kirim kitobi (KP) va inventar kitoblaridagi (INV) ko‘rsatilgan tavsiflari va raqamlariga mos kelishi aniqlandi.

2023 yilda tashkil etilgan ko‘rgazmalar soni - 42 ta, shundan ko‘chma ko‘rgazmalar soni - 8ta. 2023 yilda tashrif buyuruvchilar soni- 73303 nafar shundan xorijlik tashrif buyuruvchilar soni- 318 nafar.

Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi 1975 yilda Qarshi shaxrida tashkil topgan. 2007 yilda muzey binosi moslashtirilgan. Muzeyda jami eksponatlar soni 39024 dona. Asosiy fond kirim kitobi 4 dona, vaqtinchalik saqlash 1 dona, invintar kitob 15 dona. Muzey binosi moslashtirilgan bo‘lib alohida 2 ta fond xonalari mavjud. Muzey fondidagi ashyolarni ro‘yxatga olish bo‘yicha 26 ta kirim (KP) va 12 ta inventar kitoblar (INV) yuritilib kelinmoqda. Mazkur kitoblarda har bir ashyo maxsus tartib raqamlar va qisqacha izohlar bilan belgilangan.

-2021 yil hisobida – 219ta eksponat muzey fondiga qabul qilingan.

-2022 yil – 338 ta eksponat qabul qilingan.

-2023 yil – 194 ta eksponat qabul qilingan.

Muzey fond xonalari buyumlarni saqlash uchun yetishmochiligi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligi tomonidan 2023 yil 26-dekabr sanasida №018 reystr raqami bilan Birinchi toifali muzey sifatida faoliyat yuritilishi belgilangan. 2023 yil davomida muzeyda 11 ko‘rgazma tashkil qilindi.

-2023 yil davomida horijiy davlatlarda ko‘rgazma tashkil etilmagan.

-Mahalliy tashrif buyuruvchilar soni 29 102 tani tashkil qiladi.

-Xorijiy tashrifchilar soni 23 tani tashkil qiladi.

Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi Navoiy viloyati hokimligi tomonidan 1992 yil 30 dekabrdagi 12/284-sonli qarori bilan taxminan 1960-1970 yillarda hammom sifatida qurilgan bino 1992 yil muzey balansiga olinib, kapital ta’mirlangan holda muzey uchun moslashtirilgan. 2017 yilga kelib qayta ta’mirlangan. 2024 yilning 31-iyul holatiga ko‘ra, Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida 26166 ta ashyo mavjud. Vazirlar mahkamasi va Bosh prokraturasining 2022 yil 16 iyuldagi 65-sonli qo‘shma yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2022 yil 20 iyuldagi 02/14-sonli buyrug‘iga asosan Kp kitobi, INV raqamlar hamda viloyat muzeyi va filial muzeylarida saqlanayotgan muzey ashyolari va kolleksiyalari xatlovdan o‘tkazildi. Joriy yilning oktabr oyida Qosim Shayx majmua muzeyi hamda Qiziltepa tuman tarixi muzeyida saqlanayotgan muzey ashyo va kolleksiyalarini xatlovdan o‘tkazish.

Abstract: *The article examines the current state of restoration and conservation of ancient works of art, including archaeological and museum items in Uzbekistan. In particular, it provides brief information on research institutes in this field and existing restoration laboratories in major museums. The article also describes the reforms implemented in this area, international cooperation and training of local restorers in recent years. It mainly discusses significant problems that are relevant today and proposes solutions to eliminate them.*

Keywords: *archeology, museum, collection, exhibit, restoration, laboratory, international cooperation.*

O‘zbekiston ko‘hna tamaddun beshiklaridan biri hisoblanib, mazkur hududda ibtidoiy davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan katta davriylikni qamrab oluvchi bir necha minglab yodgorliklar aniqlangan. Ulardan arxeologik qazishmalar orqali topilgan son-sanoqsiz tarixiy-madaniy ashyolar bizning qadimgi tariximizni

ochilmagan qirralarini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun, ularni saqlash, tadqiq etish va keng jamoatchilikka namoyish qilish orqali davlat iqtisodiyotiga, shu bilan birga jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish dolzarb masalalar biri hisoblanadi. Arxeologik ashyolarni asrab qolish, eksponat holatiga keltirish va umrini uzaytirish restavratorlar vazifasi hisoblanadi. Mazkur soha vakillariga arxeologik ekspeditsiyalar, muzeylar va ilmiy-tadqiqot muassasalarida extiyoj katta bo‘lib, bu mamlakatda restavratorlarning ham o‘z o‘rni borligini anglatadi. Shu jihatdan mamlakatimizda restavratsiya sohasini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqola O‘zbekistonda arxeologik va muzey ashyolarini restavratsiya qilish sohasining hozirgi kundagi holati, muammolari hamda ularning yechimlari bo‘yicha takliflar bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekistondagi muzeylar soni 127 tani, ulardagi jami eksoponatlar soni esa 2,2 mln tashkil etgan7 (*1-jadval*). Boshqa manbalarga ko‘ra muzeylar soni 2023 yil 1 yanvar holatida – 134 ta ko‘rsatilgan8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy muzey fondining davlat katalogi rasmiy sayti ma’lumotlariga ko‘ra, muzeylar soni – 55 ta, eksponatlarning umumiy soni – 351 335 tani tashkil qilgan9. Undan tashqari, Respublikada o‘nlab ilmiy-tadqiqot muassasalarining kolleksiyalari, galereyalar hamda o‘zida san’at asarlarini jamlagan to‘plamlarda bir necha yuz mingdan ortiq turli davrlarga oid tarixiy-madaniy va san’at ashyolari mavjud. Qolaversa, arxeologik izlanishlar natijasida ularning soni ortib bormoqda. Endilikda mazkur osori-atiqalarni saqlash, ilmiy tadqiq etish, restavratsiya va konservatsiya qilish hamda namoyishga qo‘yib turizm sohasida foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda arxeologiya va muzey ashyolarini restavratsiya va konservatsiya tarixiga nazar tashlasak, uning ibtidosi qadimgi davrlarga borib taqalsa, ilmiy-amaliy o‘rganilishi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Avvalda “havaskor” tadqiqotchilar, keyinchalik professional mutaxassislar tarixiy shaharlardagi me’moriy obidalar va ularning badiiy bezaklari fiksatsiya va restavratsiya qilingan bo‘lsa, asta-sekin yer ostidan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan osori-atiqalar ham mutaxassislarni jalb qila boshladi. Vaqt o‘tishi bilan yirik shaharlarda muzeylar va ulardagi kolleksiyalar sonining ortishi ularni saqlash hamda eksponat ko‘rinishiga olib kelish uchun zaruriy ishlarni amalga oshirishni talab qila boshladi. Shu tariqa asta-sekin restavratsiya ustaxonalari paydo bo‘ldi (*O‘lmasov, 2023*). Maqsaddan kelib chiqib restarvatsiya tarixini bayonidan cheklangan holda mamlakatimizdagi ko‘zga ko‘ringan restavratsiya laboratoriyalariga qisqacha ta’rif beramiz hamdaa so‘nggi yillarda sohada amalga oshirilayotgan ishlar, sohadagi muammolar va ularning yechimlari xususida so‘z yuritamiz.

Ilmiy-tadqiqot institutlarining restavratsiya laboratoriyalari

Bugungi kunda Respublikamizda arxeologik ashyolar va muzey eksponatlarini restavratsiya va konservatsiyasi bo‘yicha bir necha laboratoriyalar

7 https://yuz.uz/news/ozbekiston-muzeylarida-suratlar-soni-nechta
8 https://kun.uz/ru/news/2023/05/18/skolko-muzeyev-funksioniruyet-v-uzbekistane
9 http://goskatalog.uz/catalog?fond_id=102

faoliyat yuritmoqda. Xususan, ular ichida eng faol va ko‘zga ko‘ringan ishlarni amalga oshirayotgan laboratoriyalardan biri Madaniy meros agentligiga qarashli Samarqand arxeologiya institutining “Kimyoviy texnologik tadqiqotlar, arxeologik topilmalarni restavratsiya va konservatsiya qilish laboratoriyasi” hisoblanadi10. 1965 yilda Afrosiyobda maxobatli devoriy suratlar topilishi bilan bog‘liq mazkur o‘ziga xos ustaxona 1970 yildan hozirgi kunga qadar faoliyat yuritib kelmoqda. Laboratoriyaga u tashkil topgan paytda t.f.d., prof. A.A. Abdurazakov ko‘p yillar mudirlik qilgan bo‘lsa, 1999 yildan k.f.n. M.A. Reutova rahbarlik qilib kelmoqda. Uzoq yillik mehnat natijasida ulkan tajribaga ega bo‘lgan laboratoriyada bir necha o‘nlab jonkuyar va o‘z kasbining fidoiylari bo‘lgan restavratorlar yetishib chiqdi. Ularga Sh.Ilxomov, M.Qambarov, M.Reutova, G.Axadova, G.Po‘latova, A.Islomov, R.Krivoshey, V.D. Ruzanov, J.Sukasnyats, B.Boliyev va boshqalarni misol keltirish mumkin. Hozirga kelib ular safini M.Sultonova, G.Umarova kabi iqtidorli yoshlar to‘ldirmoqda.

O‘zbekistonda qadimgi san’at asarlari va arxeologiya ashyolarini restavratsiya va konservatsiya qilish hamda fizik-kimyoviy tadqiq qilish yo‘lga qo‘yilgan ilk ilmiy-tadqiqot muassasalardan biri shubhasiz Fanlar akademiyasi qarashli San’atshunoslik institutidir. Yarim asrdan ortiqroq vaqt mobaynida mazkur laboratoriya xodimlari tomonidan qazishmalarda ko‘plab tarixiy yodgorliklar saqlab qolindi va umri uzaytirildi. Laboratoriya mutaxassislari arxeologik ashyolarni kimyoviy usullar bilan mustahkamlash bo‘yicha yangi ishlanmalar va usullar ishlab chiqdi. Yangi kashfiyotlar sobiq Butunittifoq miqyosida patentlandi. Shu bilan birga, ular tomonidan sopol, mato, metal kabi buyumlarning fizik-kimyoviy tahlil ishlarini amalga oshirildi. “San’at asarlarini ilmiy restavratsiya va konservatsiya qilish eksperiment laboratoriyasi” 1960 yilda Instituning “O‘zbekiston san’atshunoslik ekspeditsiyasi” (O‘zSE) tarkibida kimyogar Ye.F. Fedorovich rahbarligida tashkil topgan. Laboratoriyaga kimyogar mutaxassislar S.Vivdenko, S.Levushkina, V.Luneva, N.Sotnikova hamda haykaltaroshlar V.Lunev, D.Ruzыbayev, X.Xusnutdinxodjayev kabi sohaga oid turli yangi mutaxassislar jalb qilingan. 90-yillarning oxiriga kelib O‘zSE restavratorlariga uzoq yillar Samarqanddagi arxeologiya institutida ishlagan kimyogar-restavrator Sh.Ilxomov va rassom A.Islomovlar kelib qo‘shildi. 2000-yillarning o‘rtalariga kelib oldingi avlod vakillari o‘z o‘rinlarini yoshlarga bo‘shatib berdi. Avvalda bo‘limga rassom-restavrator A.O‘lmasov, keyinchalik birin-ketin, Yu.Syuch, U.Raxmonov, M.Beknazarova, B.Vaxobjonov, biroz muddatdan so‘ng ular o‘rniga A.Normurodov, O.Tolliyev, G.Alimjonova, A.Tojiyevalar keldi (*Ulmasov, 2022*).

Arxeologik topilmalar restavratsiyasi haqida gap ketganda, O‘zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining restavratsiya laboratoriyasini ham eslab o‘tish joiz. O‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab institutning arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Amudaryoning quyi oqimining ikkala qirg‘og‘ida, keyinchalik esa Qoraqalpog‘istonning deyarli butun hududida joylashgan qadimiy yodgorliklarda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Mustaqillik sharofati bilan institutda xalqaro aloqalar rivojlanib, ilk

10 https://www.arxeologiya.uz/kimyoviy-texnologik-tadqiqotlar

tashkil etilgan ekspeditsiyalardan biri Qoraqalpoq-Avstraliya arxeologik ekspeditsiyasi Toshqirmon vohasidagi yodgorliklar va Aqchaxon-qal'a (yoki Qozoqli-Yatkan) yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Natijada institutda ko'plab arxeologik ashyolar to'planib, ular asosida "Orol arxeologiyasi muzeyi" tashkil etildi. Muzey ashyolarini restavratsiya qilish va konservatsiya qilish ushbu institutda ko'zga ko'ringan rassom-restavrator V.N. Yagodin tomonidan amalga oshirildi.

Muzeylarning restavratsiya laboratoriyalari

Nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyo o'lkasida eng ko'hna va ilk tashkil topgan muzeylardan biri – O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi hisoblanadi. Muzey fondi Markaziy Osiyoda yashagan halqlarning rivojlanish tarixini namoyish etuvchi 250 mingdan ortiq ashyolarga ega. Muzeyda uzoq yillik ishlagan ilmiy xodimlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu maskanda faoliyat yuritgan ilk kashshof restavrator M.V. Stolyarov bo'lgan. Mazkur moziygoh fidoiy ilmiy xodimlarining ishlarida muzeyga umrini bag'ishlagan va uning rivojida o'zining munosib hissasini qo'shgan mutaxassis Turdi Mirgiyazov (1896-1951 yy.) tajribali restavrator sifatida tilga olinadi. L.I. Albaum mutaxassisligi va professional faoliyatiga ko'ra arxeolog-tarixchi bo'lsa ham, qazishmalarda topilgan ashyolarni restavratsiya va konservatsiya qilish, ularni muzey eksponatlari sifatida ishlov berish va ekspozitsiyalar tashkil qilishda ham faol bo'lgan Shuningdek, muzeyda u tashkil topgandan hozirgi kungacha bo'lgan davrda faoliyat yuritgan restavratorlar va sohaga aloqador mutaxassilarga M.Stolyarov, T.Mirgiyazov, N.Nexorosheva, V.Minasyans, O.Aripdjanov, A.Gorin, D.Qayumova, N.Qalandarova va boshqalarni misol keltirish mumkin (*O'lmasov, 2024*).

Namunaviy restavratsiya laboratoriya sifatida nafaqat O'zbekiston yoki O'rta Osiyo, balki butun jahonga dong'i ketgan I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat san'at muzeyini kelitirsh mumkin. Igor Vitalevich Savitskiy asos solgan mazkur muzeyda mil. avv. III asrdan to XX asrning 20-30 yillariga oid yuz mingga yaqin noyob madaniyat va san'at ashyolari jamlangan. Muzeyda dastlabki restavratsiya ishlarini I.Savitskiyning o'zi bajargan. Muzeyning rasmiy veb-sahifasida restavratsiya bo'limi 1966 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgani qayd qilingan. Undagi ma'lumotlardan muzeyda turli yo'nalishlarda faoliyat yuritgan restavratorlar eslanadi. Ular orasida A.Kvon, E.Joldasov, Yu.Buslov, J.Kuttimuratov, R.Kovaleva, R.Xalitov, R.Bayramova, A.Shpade, Z.Gasanova, K.Bekimbetov, D.Samekeyev, R.Matchanovlar nomini ko'rish mumkin (*O'lmasov, 2024*).

Mamlakatimizdagi ko'hna, eng yirik va mashhur muzeylar qatoriga O'zbekiston Davlat san'at muzeyini kiritish lozim. Muzey 1918 yilda tashkil qilingan bo'lib, uning asosida sobiq Rossiya imperiyasining knyazi N.K. Romanov kolleksiyasi yotadi. Uning kolleksiyasida rus va G'arbiy Yevropa ustalarining rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik asarlari, mebel, chinni, bronza va boshqa amaliy san'at ob'ektlari mavjud. Manbalardan muzeyda tasviriy san'at asarlarini restavratsiya qilish laboratoriyasi 1935 yilda tashkil qilinganini bilish mumkin. O'zbekistondagi muzeylar ichida ilk tashkil bo'lgan mazkur tajribaviy ustaxona

birinchilardan bo‘lib rassom-restavrator N.N. Nexorosheva faoliyat yuritgan. Uning mohir qo‘llaridan muzeyning 200 dan ortiq dastgohli rangtasvir asarlari restavratsiya qilinadi. Laboratoriyaning yana bir jonkuyar rassom-restavratori P.S. Projelutskaya muzeyda qisqa muddat ishlashiga qaramasdan 20 dan ortiq san’at asarlarini hayotga qaytargan (*Muxamedova, 2020*).

Muzeyda faoliyat ko‘rsatgan restavratorlarga Z.G‘ulomov, A.Yo‘ldoshev, haykaltarosh-restavratorlar D.Ruzыbayev, ganch bezaklar restavratsiyasi bilan shug‘ullangan V.Kapelkinlarni misol keltirish mumkin. Mustaqillikdan so‘ng muzeyda rangtasvir asarlarni ko‘payishi restavrator mutaxassislarni jalb qilishga turtki berdi. Shu maqsadda muzeyga rassom-restavratorlar Bobur Meliyev, Dilshod Azizov Baxtiyor Botirovlar taklif qilindi.

2000-yillarning boshlariga kelib Respublika muzeylari va ilmiy-tadqiqot muassasalari ta’mirlash laboratoriyalarida ilmiy-ijodiy o‘sishning sustlashishini kuzatish mumkin. Bunga avvalo ayrim laboratoriya xodimlarining nafaqa yoshiga to‘lgani, shuningdek, o‘sha paytdagi mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatni sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Aniqrog‘i, xodimlarning oylik maoshlarining keskin pasayib ketishi ularning ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi va ko‘plab mutaxassislar rivojlangan xorij davlatlariga doimiy yashash uchun ko‘chib ketdi. Laboratoriya mutaxassislari tomonidan bir necha o‘n yillar davomida yig‘ilgan bilimlar, tajriba va ko‘nikmalar keyingi avlodga estafeta bo‘lib o‘tmadi. Chunki maoshlarning kamligi sohaga yosh kadrlarni jalb qilishga ojizlik qildi. Natijada orada biroz uzilishlar bo‘ldi.

So‘nggi yillarda sohada ijobiy ishlar amalga oshirilayotganini kuzatish mumkin. Bunga avvalo sohaga hukumatning davlat siyosati darajasida e’tibor qaratayotgani, muhim qaror va farmonlar imzolanayotganini ko‘rsatish mumkin. Jumladan, O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyuldagi №598-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi qoshida “Madaniy meros ob’ektlari va san’at ashyolarini restavratsiya qilish ilmiy-tadqiqot markazi” tashkil topgan. Qarorning 1-ilovasida tasdiqlangan markaz tuzilmasiga ko‘ra bu yerda Tasviriy san’at, Dekorativ-amaliy san’at, Arxeologiya va tadqiqotlar, Qo‘lyozmalar bo‘limlari va Fizik-kimyoviy tadqiqotlar laboratoriyasi, Rentgenografik va fotolaboratoriya, shuningdek, Baholash va ekspertiza va Vaqtincha saqlash bo‘limlari bo‘lishi kerak. Har bir bo‘lim va laboratoriyaga 2 tadan shtat birligi ajratilgan11. Markaz Nizomiga ko‘ra, uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib, madaniy meros ob’ektlarini konservatsiya, restavratsiya qilish va asrash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni va ishlarini amalga oshirish; yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda bu sohada mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish orqali restavratsiya ishlarini rivojlantirish; muzey faoliyati tizimini takomillashtirishga ko‘maklashish, madaniyat va san’at muassasalarida konservatsiya va restavratsiya ishlarini yaxshilash belgilangan.

Markaz qisqa faoliyat davrida Yevropaning Italiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarida san’at yodgorliklari va muzey ashyolarini restavratsiyasi

11 https://lex.uz/docs/4427574

sohasidagi qator ilmiy-tadqiqot muassasalari va muzey laboratoriyalariga tashrif buyurdi. Xususan, markaz delegatsiyasi a'zolari sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajribalar, laboratoriyadagi shart-sharoitlar, shuningdek, restavratsiya fanining rivojida hissa qo‘shayotgan zamonaviy texnologiyalar, professional kadrlar tayyorlash, oliy o‘quv yurtlarining faoliyati hamda ularning tajriba va yutuqlari bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo‘ldi ((*O‘lmasov, 2021*).

Shuningdek, 2019 yil 19 dekabrdagi «2020-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 1019-son qarorida:

– kolleksiyalarni boshqarish, eksponatlarni saqlash va konservatsiya qilish tizimini takomillashtirish. Jumladan, muzeylar kolleksiyalarini saqlash va konservatsiya qilish siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

– Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg‘armasi huzuridagi Restavratsiya ilmiy-tadqiqot markazida restavratsiya faoliyati bo‘yicha kurslarni joriy qilish;

– O‘zbekiston Davlat san'at muzeyi madaniy aktivlarini restavratsiya qilish. Madaniy aktivlarni restavratsiya qilish uchun yetakchi xorijiy restavratorlar bilan shartnomalar tuzish masalasini o‘rganish kabi vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan12.

Muzey ashyolarini restavratsiya va konservatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi PF-6000-son Farmonida ham aks etgan. Xususan, Farmonning O‘zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan Maqsadli ko‘rsatkichlari jadvalida "Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini restavratsiya, konservatsiya qilib borish" belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra muzey ashyolarini restavratsiya va konservatsiya qilib borish yillar kesimida (2021 yilda 100 ta bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilga borib 230 tani tashkil qiladi) olib borilishi nazarda tutilgan. Farmonda shuningdek, 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab Toshkent arxitektura-qurilish instituti, K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn, O‘zbekiston milliy universitetida madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya (konservatsiya) qilish bo‘yicha yo‘nalishlar tashkil etish belgilab qo‘yilgan13.

2022-yil 27-may kuni qabul qilingan "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" qarorida 2022-2024-yillarda davlat muzeylarida ixtisoslashtirilgan restavratsiya laboratoriyalarini tashkil qilishning manzilli rejasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, noyob muzey ashyolari va kolleksiyalarining replikatsiyalarini tayyorlash hamda ularni realizatsiya qilish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar ham belgilab berilgan14.

Rejada 2022-2024 yillarda 14 ta davlat muzeylarida ularning yo‘nalishi, ekspozitsiyasi, fondlari va boshqa omillardan kelib chiqib ixtisoslashgan restavratsiya laboratoriyalari tashkil qilinishi ko‘rsatilgan. Qaror kuchga kirgandan shu kungacha manzilli rejada belgilangan vazifalarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak,

12 https://lex.uz/ru/docs/4654077
13https://lex.uz/docs/4829149
14 https://lex.uz/docs/6040013

ko‘plab muzeylarda mavjud laboratoriya sharoitlari yaxshilangan va ayrim kerakli jixozlar bilan ta’minlangan. Lekin, shunga qaramasdan muzey laboratoriyalarida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan jixatlar mavjud. Masalan, restavratsiya uchun kerakli asbob-uskunalar yetishmaydi, ayniqsa, ximreaktivlar bilan ta’minlashda muammolar yetarlicha. Ayrim muzeylarda restavratsiya laboratoriyalari alohida bo‘lim sifatida mavjud emas, balki 1-2 shtat birligi asosida faoliyat yuritadi. Asosiysi muzeylarning yo‘nalishlaridan kelib chiqib restavratorlarning maqomi aniq belgilanmagan, ya’ni rangtasvir restavratori yoki matolar restavratori va h.k. Avvalda mavjud bo‘lgan restavratorlarning toifalari ham bugunga kelib o‘z kuchini yo‘qotgan.

Sohadagi jiddiy muammolardan yana biri bu restavratsiya laboratoriyalarining shart-sharoitlari va moddiy-texnik bazalarining yetarli emasligida deyish mumkin. Qolaversa, restavratsiya va profilaktik konservatsiya jarayonlari uchun kerakli asbob-uskunalar, jixozlar, asosiysi ximreaktivlar yetishmasligi amaliy jarayonlarning juda sust borishiga sabab bo‘lmoqda. Ilmiy-tadqiqot institutlari va muzeylarda kerakli kimyoviy moddalar olish uchun mablag‘ yetarli emas. Hatto muassasalarning maxsus raqamlaridagi o‘z mablag‘larni kerakli asbob-uskuna va jixozlar, kimyoviy moddalr sotib olish uchun sarflashda ko‘plab qiyinchiliklar mavjud.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Respublika bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va muzeylarda restavratsiya laboratoriyalari yetarli emas. Borlarida ham holat bir xil emas, ya’ni ayrim muzey laboratoriyalariga e’tibor kuchliroq, ayrimlariga esa umuman yo‘q. Lekin, ba’zi restavratsiya laboratoriyalari ko‘zga ko‘rinadigan ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Mazkur laboratoriyalardagi uzoq davriylikni qamrab olgan uzluksiz jarayon va to‘plangan amaliy tajribalarni avloddan-avlodga yetkazilishi o‘ziga xos restavratsiya maktablari shakllanishiga turtki bergan. Bunga Samarqand arxeologiya instituti, I.Savitskiy nomidagi san’at muzeylarini misol keltirish mumkin. Mazkur maskanlardagi tajribali va malakali restavratorlarning ilmiy ishlanmalari O‘zbekistonda san’at yodgorliklarni restavratsiya qilish sohasini rivojlantirishda amaliy ahamiyati katta. Shuningdek, ular tomonidan ishlab chiqilgan arxeologik ashyolarni restavratsiya va konservatsiya qilish va saqlash usullari nafaqat o‘zlarining laboratoriyalari, balki Respublikaning boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari va muzeylari restavratorlari uchun xizmat qilib kelmoqda.

Bundan kelib chiqadiki, sohadagi mavjud kamchilik va muammolarga qaramasdan sezilarli muvaffaqiyatlar ham bor. Alalqissa, har qanday sohaning rivoji o‘sha yerdagi mutaxassislarning fidoiyligi, o‘z kasbini sevishi va ma’suliyatni his qilishiga bog‘liq. Umuman olganda esa, arxeologiya va muzey ashyolarini asrab-avaylash nafaqat mutaxassislarning vazifasi, balki davlat va jamiyatning umumiy mas’uliyatidir. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamjamiyatning faol ishtiroki va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish O‘zbekistonda restavratsiyaning dolzarb muammolarini hal etishda zarur qadam bo‘ladi. Biz birgalikda madaniyatimiz va tariximizni kelajak avlodlar uchun saqlashga muhim hissa qo‘shishimiz mumkin.

Takliflar

Endilikda Respublikada restavratsiya sohasini tubdan yaxshilash, yosh kadrlarni jalb qilish, sohani rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

- Milliy restavratsiya markaziga Respublika bo'yicha sohani muvofiqlashtirish (koordinatsiya)ga ixtisoslashtirish;

- markazda sohaning alohida tor ixtisosliklari (sopol, tosh, metal, yog'och, shisha, mato va h.k.) bo'yicha restavratorlar tayyorlash kurslarini tashkil qilish;

- markazda xorijiy tajribali mutaxassislarni jalb qilgan holda ma'lum bir mavzularga yo'naltirilgan trening va seminarlar tashkil qilish;

- markaz qoshida restavratorlarga toifalar beradigan attestatsiya komissiyasini tuzish;

- restavratsiya laboratoriyalari mavjud ilmiy-tadqiqo institutlari va muzeylarning kutubxonalarini sohaga oid xorijiy ilmiy-texnik adabiyotlar, qo'llanmalar bilan ta'minlash (eng muhimlarini tarjimalar qilish);

- restavrator mutaxassisligiga ilmiy xodim toifasini berish;

- sohada tahsil olayotgan talabalar va yosh mutaxassislarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarga o'qishga, malaka oshirishga yuborish;

- soha oliy va o'rta-maxsus ta'lim yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarining ta'mirlash laboratoriyalarini moddiy-texnik bazasini yaxshilash, zamonaviy asbob-uskunlar, instrumentlar, restavratsiyada foydalaniladigan xom-ashyo va kimyoviy moddalar bilan ta'minlash;

- shuningdek, sohaga oid ilmiy, ilmiy-texnikaviy adabiyotlar, qo'llanmalar, zamonaviy dasturlar va h.z.lar bilan ta'minlash zarur va shart.

Restavrator kadrlarni tayyorlash borasida:

- talabalarni o'quv-amaliyot darslarini erkin olib borishi uchun institut binosida sharoit yaratib berish, moddiy-texnik bazasini yaratish va laboratoriya jixozlari bilan ta'minlash;

- institut bilan mutaxassislikka tegishli muassasalar (muzey, ta'mirlash markazlari, ekspeditsiyalar va b.) o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish;

- yuqoridagi muassasalarda ushbu mutaxassislikka bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish;

- poytaxt va viloyatlarda ushbu tizimdagi faoliyatni muvofiqlashtirish, yoki kadrlarni viloyatlarda ishlashga bo'lgan xoxishini oshirish va xakazo.

Bugungi kunda ushbu noyob mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini yanada yaxshilash va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb o'ylaymiz. Ya'ni:

oliy ta'lim muassasasiga iloji boricha litsey va kollej talabalarini konkurs asosida qabul qilish;

ularni soxaga bo'lgan qiziqishi borligini xisobga olish, ular bilan bevosita mutaxassis – o'qituvchini suxbatini ta'minlash;

mutaxassislik bo'yicha o'quv soatlari ko'rsatkichini oshirish;

taklif qilinayotgan yosh o'qituvchilarni ushbu soxa rivojlangan (xorij) muassasalarida malakasini oshirishini ta'minlash;

intellektual kadrlar tayyorlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha mutaxassislik (masalan, xaykaltaroshlik, kulolchilik) darslarini kiritish;

talabalarning yozgi amaliyot darslarini mutaxassislikdan kelib chiqib (masalan, arxeologik qazishmalarda, ta’mirlash markazlarida) o‘tashini ta’minlash va hakozo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muxamedova M.S. XX asrda O‘zbekistonda muzey ishi amaliyotida tasviriy san’at asarlari restavratsiyasi maktabining shakllanishi // TDPU ilmiy axborotnomasi. №9, 2020. – B. 200-204. (ISSN 2181-9580).
2. O‘lmasov A.F. Restavratsiya sohasida xorij tajribasi (Germaniya misolida) // K.Bexzod nomidagi MRDI Axborotnomasi. – Toshkent, 2021. №4 (8). – 42-47 b.
3. Ulmasov A.F. Nauchno-restavratsionnaya deyatelnost Uzbekistanskoy iskusstvovedcheskoy ekspeditsii Instituta iskusstvoznaniya // Materialы mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Almatы «Qazaq universiteti», 2022. – S. 116-120.
4. O‘lmasov A.F. O‘zbekistonda restavratsiya tarixi // SAN”AT jurnali, 2023. – 3-son. – 20-22 betlar.
5. Ulmasov A.F. Restavratsionnaya shkola Gosudarstvennogo muzeya iskusstv Respubliki Karakalpakstan imeni I.V. Savitskogo // Vestnik KOAN RUz, №4 (273). – Nukus, 2023. – S. 46-50.
6. O‘lmasov A.F. O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyining restavratsiya faoliyatiga doir // Moddiy-ma’naviy meros va umumbashariy qadriyatlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 16-kitob. – T.: O‘zR FA O‘TDM, 2024. – B. 341-349.

Internet resurslar:

7. https://yuz.uz/news/ozbekiston-muzeylarida-suratlar-soni-nechta
8. https://kun.uz/ru/news/2023/05/18/skolko-muzeyev-funksioniruyet-v-uzbekistane
9. http://goskatalog.uz/catalog?fond_id=102
10. https://www.arxeologiya.uz/kimyoviy-texnologik-tadqiqotlar
11. https://lex.uz/docs/4427574

1-jadval



O‘zbekistonda muzeylar va ulardagi restavratorlar sonining qiyosiy ko‘rsatkichlari

YAMANE Momoka,
University of Tsukuba,

RETHINKING BUDDHIST SCULPTURE PRODUCTION IN CENTRAL ASIA THROUGH SCIENTIFIC ANALYSIS OF MUSEUM COLLECTIONS

Abstract: *This presentation examines the results of scientific analysis of the production techniques used for Central Asian Buddhist sculptures in museum collections. It also explores the potential for applying scientific methods to sculptures in museums worldwide to comprehensively elucidate the development of Buddhist sculpture production in Central Asia.*

The origin of the Buddha image is believed to date back to the Gandhara region (now northwestern Pakistan) around the first century AD (Takada 1987 etc.). In Gandhara, early Buddha worship images were primarily produced as stone carvings made of schist, mainly in narrative reliefs. However, from the 3rd century onward, modeling sculptures made primarily of lime gradually replaced the traditional stone carvings. In the region spanning eastern Afghanistan to southern Uzbekistan, following Gandhara, numerous polychrome modeling sculptures have been discovered in Buddhist monuments, leading to the development of a distinct multi-Buddhist artistic tradition that differed from conventional stone arts. The production of modeling sculptures remained prevalent in this region until the decline of Buddhism due to Islamization after the 7th century, influencing Buddhist art in

East Asia via the Tarim Basin. Therefore, the Buddha images initially created as stone statues in Gandhara evolved into modeling sculptures in Central Asia, marking a new phase in Buddhist art.

The emergence and development of Buddhist modeling sculptures are significant for understanding not only the Central Asian Buddhist culture but also the evolution of Buddhist worship from Central Asia to East Asia. Despite their importance, research on Central Asian Buddhist sculptures has remained stagnant for many years. This stagnation is primarily due to conventional research methods being limited to formal analysis based on visual observation. Buddhist sculptures exhibit considerable variation even within the same region or archaeological site, making it difficult to identify regional and chronological patterns solely through stylistic analysis. As a consequent, it was necessary to define and classify sculptures based on technical and material characteristics. However, past research in this area was limited (Tarzi1986, Varma1987etc.), with little progress made thereafter. One of the key challenges has been that conventional observation-based methods were insufficient for accurately distinguishing production techniques, especially in terms of material composition. In addition to the methodological challenges, the study of Central Asian Buddhist sculptures has been hindered by the limited number of excavated examples from academic research, the unknown provenance of many sculptures, and the difficulty of relating them to historical and cultural developments in Central Asia.

However, in recent years, scientific analyses of Buddhist sculptures have begun to reveal details about their production techniques and materials (Ohlídalová et al. 2016, Pannuzi et al. 2019, Verri et al. 2019, Lluveras-Tenorio et al. 2022, Lopéz-Prat et al. 2022, 2024-a, b etc.), and efforts are also being made to clarify issues related to origin (Carlo et al. 2019). The introduction of scientific methods is expected to advance the study of Buddhist modeling sculptures by enabling the identification of material characteristics and resolving provenance issues that could not be addressed through conventional observation methods. However, past studies have been limited in both scope and depth, primarily focusing on individual production techniques and materials rather than systematically examining the production periods and regions. Furthermore, Buddhist sculptures from various regions of Central Asia are dispersed across museums worldwide, making comprehensive study challenging.

To address these issues, this study employs scientific methods to analyze Central Asian Buddhist sculptures, collect data on their technical and material characteristics, and compare them with sculptures in museum collections worldwide to systematically elucidate the production of Central Asian modeling sculptures.

So far, 31 pieces from the Hirayama Ikuo Silk Road Museum collection, originating from northwest Pakistan to Afghanistan, have been subjected to non-destructive analyses such as X-ray fluorescence (XRF), and microscopic observation, 11 pieces have been undergone X-ray diffraction (XRD), thin section, cross-section analyses to examine technical aspects and variations in production. Furthermore, observations and microscopic examinations of sculptures from Hadda (Bagh Gai, Tapa Kalan, Tapa-i Kafariha) in the Musée Guimet were conducted to

clarify surface characteristics.

The results reveal that the chemical composition of the outer modeling paste ("shaping paste") of the sculptures in the Hirayama Ikuo Museum collection includes lime, gypsum, and clay, as well as a mixture of lime and gypsum. In the latter type, the main chemical composition consists of Ca and S are the main elements, but the proportion of S does not correspond to pure gypsum, suggesting three possibilities: (1) a gypsum matrix with a calcium carbonate mixture (solidified by gypsum technology), (2) a lime matrix with a gypsum mixture (solidified by lime technology), or (3) a lime-gypsum matrix (where both solidification processes coexisted). Previous studies have reported mixtures of type (1) and (2) in sculptures from Hadda and Tepe Narenj (Pannuzi et al. 2019: no. 6, 7, Lopez-Prat et al. 2024-a: TN1). The third type, "lime-gypsum matrix" was considered possible by Verri et al. (2019), but was not confirmed in their study.

To verify lime-gypsum mixed technology, XRD and thin section analyses were conducted on a sample from the shaping layer of a sculpture with a lime-gypsum chemical composition (#102950). The XRD result indicates the material consists of gypsum, calcite and quartz. Thin section analysis reveals a calcareous matrix with birefringence lower than that of pure calcite and an absence of gypsum mineral fragments, suggesting that gypsum is distributed throughout the calcareous matrix. This indicates that the sculpture was likely made from a mixture of slaked lime and gypsum hemihydrate.

Based on these findings, Buddhist modeling paste can be classified into four types: (1) clay-based, (2) lime-based, (3) gypsum-based, and (4) lime-gypsum mixtures. Moreover, by classifying sculptures in the collection based on their shaping paste, distinctive color patterns were identified for each type, suggesting the existence of multiple production units.

To summarize the current assumptions, sculptures with lime-based material used for the shaping layer tends to be associated with pale skin color, black hair, and red skin lines, created using earth pigments. This appears to be the predominant type in the Gandharan art production region, which includes northwestern Pakistan and eastern Afghanistan (Hadda).

In contrast, when gypsum-based material is used for the shaping layer of the sculptures, it is characterized by a reddish skin tone and black hair. This color pattern is commonly found in sculptures excavated from Buddhist temples northern Hindu Kush Mountains, with some examples also known from southeastern Afghanistan, including Mes Aynak and Tepe Narenj (Tisucká & Stančo eds 2016: Cat. no. 33, 35, 41, 48; National Museum of Afghanistan 2012; Forgione 2019: 10, 11, 12, etc.). While previous analyses have not reported the use of gypsum in northwestern Pakistan, the use of gypsum-based material for the outer layer is well known in examples from the Hindu Kush region (e.g., Del'verzin Tepe, Kara Tepe, Tepe Narenji, Mes Aynak, etc.). This suggests that the use of gypsum in sculpture production may be linked to specific areas within this region and spread throughout the region.

The lime-gypsum mixture used for the shaping layer is characterized by yellowish skin and hair colors. While this type of modeling paste has not yet been reported in

sculptures from excavated sites, the distinctive color pattern has been confirmed in Hadda sculptures from the Musée Guimet collection through recent investigations. To the best of the author's knowledge, this color pattern has not been documented in other regions, suggesting that the lime-gypsum mixture may be specific to this area.

Regarding clay, it is commonly used in sculptural production throughout Central Asia. However, the use of reddish clay for the outer layer is known as a distinctive feature of sculptures from the late 7th century in the southern Hindu Kush (Forgione 2019: 132). Based on the analysis of sculptures in the Hirayama Ikuo Silk Road Museum collection, this type exhibits a lead-red layer on the surface, which was also reported in sculptures from Fondukistan (Pannuzi et al. 2019).

Moving forward, the future research directions will focus on increasing the number of analyzed sculptures from academic excavations, expanding the database on their production, clarifying regional and chronological characteristics, and establishing a methodology for identifying the regional and chronological traits of sculptures in museum collections with unknown provenance. By achieving these goals, we aim to explore the historical development of Buddhist modeling sculpture production by connecting academic excavations with dispersed sculpture collections worldwide and situating each case within its historical context. Specifically, the author plans to analyze excavated artifacts from the Mehsanda and Larma sites, both housed at Kyoto University. Additionally, beginning this fall, we hope to conduct a survey of excavated sculptures in Uzbekistan. Through these investigations, we seek to clarify the characteristics of modeling sculptures derived from academic excavations and explore the historical and cultural development of modeling sculpture production. If we can firmly establish indicators of the regional and chronological nature of their production, this will provide crucial data for the historical classification of these Buddhist sculptures, whose origins remain unclear.

Acknowledgement:
I would like to express my sincere gratitude to the members of the Hirayama Ikuo Silk Road Museum, including Director Dr. Toko Hirayama, Mr. Yuichi Otsuka, and Mr. Tatsuhiko Maeda, as well as Mr. Nicholas Engel, curator of the Musée Guimet, and Prof. Yoko Taniguchi, Prof. Masaki Kurosawa from the University of Tsukuba, and Mr. Motomitsu Momii for their invaluable cooperation in conducting this research. I also extend my appreciation to Ms. Cindy Shin Yee Lau for her careful review of this article.
This work was partially supported by the JSPS International Joint Research Acceleration Fund (Overseas Collaborative Research) 23KK0008.

References:

Carlo, Rosa et al. 2019 Geological overview of Gandharan sites and petrographical analysis on Gandharan stucco and clay artifacts, *Restauro Archeologico*, 27(1), pp. 12-39.

Forgione, Guilia. 2019 Clay and colours: Tracking technologies and theories of vision in the ancient Buddhist art of Afghanistan, *Restauro Archeologico*,

27(1), pp.128-139.
Lluveras-Tenorio, Anna. et al. 2022 An Insight into Gandharan Art: Materials and Techniques of Polychrome Decoration, *Heritage*, 5(1), pp.488-508.
López-Prat, Monica. et al. 2022 The role of plants and fibers in modelling monumental terracruda sculptures of Silk Roads: Archaeobotanical analyses from Buddhist sites of Tepe-Narenj and Qol-e-tut(Kabul, Afghanistan), *Heritage Science*, 10(67)
López-Prat, Monica. et al. 2024-a The modeling pastes of the monumental terracruda sculpture of Silk Roads: Archeometric study of the Tepe Narenj and Qol-e-tut examples (Kabul, Afghanistan), *Archaeometry*, 66, pp. 76-99.
López-Prat, Monica. et al. 2024-b Shaping the sacred along the Silk Roads: the millenary artistic tradition of making "monumental terracruda sculptures", *Journal of Archaeological Science: Reports*, 54, 104454.
National Museum of Afghanistan., 2012, *Mes Aynak: New Excavations in Afghanistan.*
Pannuzi, Simona. et al. 2019 Polychromy and gilding in the Gandharan sculptures from Pakistan and Afghanistan: samplings from Museum Guimet in Paris, Civic Archaeological Museum of Milan and Museum of Oriental Art of Turin, *Restauro Archeologico*, 27(1), pp.40-81.
Takada Osamu 1987 *The origin of Buddhist statue*, Iwanami Shoten, Publisher.
Tarzi, Zémaryalaï. 1986 La technique du modelage en argile en Asie Centrale et au Nord-Ouest de l'Inde sous les Kouchans, *La continuité malgré les ruptures. Ktèma* , 11, pp. 57-94.
Tisucká, Marika., Stančo, Ladislav. eds. 2016 *Afghanistan. Rescued Treasures of Buddhism*. National Museum, Prague.
Varma, Karma. 1987 *Techniques of Imaging in Gandharan and Indo-Afghan Stucco*. Proddu.
Verardi, Giovanni., Paparatti, Ohlídalová, Martina. et al. 2016 Technical Analysis, 6. Material and technology of clay-based figural sculptures and wall-paintings, *Afghanistan. Rescued Treasure of Buddhism*. Marika Tisucká, Ladislav Stančo (eds), Czech. pp.126-139.
Verri, Giovanni et al. 2019 Investigations of a Gandharan stucco head of the Buddha at the Victoria and Albert Museum (IM. 3-1931), *Les couleurs de l'Antique,* 48, pp.136-149.

МАММАДОВА Айгюн Муса гызы,
Главный специалист фонда Нумизматики Национального Музея Истории Азербайджана, преподаватель Западно-Каспийского Университета, доктор философии по истории, Азербайджан, Баку.
aygun_kons@mail.ru
Orcid: 0000-0002-0274-5191

МЕЛИКОВ Аладдин Мехман оглу,
Ведущий научный сотрудник Института Философии и Социологии Национальной Академии Наук Азербайджана, доктор философских наук, доцент Института Теологии, Азербайджан, Баку.
aladdin.malikov@mail.ru
https://orcid.org/0000-0001-5830-6764

МОНЕТЫ ПЕРИОДА ИБН СИНЫ КАК ВАЖНЫЕ ФАКТЫ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ И ФИЛОСОФИИ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ

Аннотация: *2025-й год ознаменован 1045-летием со времени рождения выдающего ученого Абу Али Хусейна ибн Абдаллаха ибн Сины, изучение наследия которого не теряет актуальности и по сей день.*

Впервые в статье изложена информация о музейных материалах – монетах конца начала X - XI вв. Эти средневековые находки являются важным фактом не только монетной чеканки, городов и торговли периода, а также показателем мировоззрения, культуры, религии и философии. Благодаря нумизматическому определению и топографии таких монет разъясняются также связи Азербайджана и Узбекистана.

Ключевые слова: *музей, Ибн Сина, средние века, монеты, города*

Annotation: *The year 2025 marks the 1045th anniversary of the birth of the outstanding scholar Abu Ali Hussein ibn Abdullah ibn Sina, the study of whose legacy has not lost its relevance to this day.*

For the first time, the article presents information on museum materials - coins of the late early 10th - 11th centuries. These medieval finds are an important fact not only of coin minting, cities and trade of the period, but also an indicator of worldview, culture, religion and philosophy. Thanks to the numismatic definition and topography of such coins, the connections between Azerbaijan and Uzbekistan are also explained.

Keywords: *museum, Ibn Sina, Middle Ages, coins, cities*

Основными платежным средством периода являлись серебряные монеты. Поэтому наш анализ составлен на основе таких находок.

Серебряные монеты – дирхемы ширваншахов Азербайджана (вес 3; 4 г), чеканенные от имени Мухаммеда бин Ахмеда (981 - 991), Йазида III бин Ахмеда (991-1027), Манучехра I бин Йазида (1027 - 1034), Абу Мансура Али бин Йазида (1034-1043) также содержат имена халифов Аббасидов (Таи

лиллаха, Гадир-лиллаха, Гаим биамриллаха).

Важными монетами исследуемого нами периода являются также серебряные и биллоновые монеты - дирхемы Шеддадидов (2 - 3 г), чеканенные от имени правителей Азербайджана (Фадл I Мухаммед – 985 -103; Абуль Фатх Муса бин Фадл – 1031 - 1033, Али II Лашкари – 1033 - 1049).

На вышеперечисленных монетах кроме имен, превосходных титулов (гордость государства, мечь правителя правоверных и др.) местного правителя арабским почерком чеканились основные исламские изречения, аяты из Корана, год чеканки согласно году хиджры, монетный двор. Основные монетные дворы периода находились в городах Азербайджана – ал-Йазидиййа (ныне Шемаха), Гянджа, Барда и др.

Ибн Сина был придворным врачом саманидских эмиров и дейлемитских султанов, некоторое время был визирем в Хамадане. В Фонде Нумизматики Национального Музея Истории Азербайджана хранятся фельсы (НФ 9128; НФ 20822; вес – 2; 3 г) Бухары периода правления саманидского правителя III Нуха бин Мансура (365 - 387 = 976 - 997). Но еще известны дирхемы (вес – 3 г) и двойные дирхемы (вес – 7 г и выше) этого правителя чеканенные в Самарканде, Балхе, аш-Шаше (Ташкенте), Нишапуре. Его золотые динары (3 - 4 г) чеканились в Херате, Нишапуре, Сиджистане.

При жизни Ибн Сины, после смерти Саманида III Нуха правили его сыновья – Мансур II (387 – 389 г.х.), Абд ал-Малик II (389 г.х.), Исмаил (390 – 395 г.х.) монеты которых дошли до наших дней.

Хотелось бы особо отметить также о группе монет этого периода – серебряных дирхемах Аббасидов. Период Ибн Сины также известен дирхемами ат-Таи (363 – 381 г.х.) и аль-Гаима (422 – 467 г.х.) со средним весом 3 - 4 грамма.

Ныне музей Ибн Сины, расположенный на его родине в поселке Афшона, в 40 км от Бухары является основным центром повествующим о его жизни и творчестве. По велению судьбы он был захоронен в городе Хамадан (Иран), в котором в честь его возвышен мавзолей.

Завершая наш обзор, следует отметить основные выводы. Как и другие философы средневековья Абу Али Хусейн ибн Абдаллах ибн Сина вынужден был покинуть свою Родину в связи с учебой и работой. Но, его ценные произведения, отражающие основные заключения философской, медицинской и др.наук дошли до наших дней как важный исторический-философский факт.

Сопоставляя редкие монеты данного периода, чеканенные от имени средневековых правителей Аббасидов, Ширваншахов, Шеддадидов, Саманидов, найденные в Азербайджане и др. странах туркского мира ясно проявляются торговые связи, в которых основная роль принадлежала также городам Ирака, Азербайджана, Ирана, Узбекистана.

Исламские изречения, узоры и др.показатели отражены на памятниках, монетах и др. фактах периода. Именно эта философия восхваляла единство, человечество и благие намерения. Исламская философия данного периода ясно проявлена не только в изготовлении и разработке духовно-материальных материалов и архитектуре, но и в письменных трудах ученых.

Рис. 1. Серебряный дирхем. Ширваншахи. V Мухаммед бин Ахмед (981 - 991), 3,9 г

Рис. 2. NF 28974. Серебряный дирхем. Шеддадиды. I Фадл бин Мухаммед (985 - 1030), Гянджа, 401 г.х. = 1000, 2,6 г (Фонд Нумизматики Национального Музея Истории Азербайджана).

Список литературы:

1. Меликов А.М. (2021). Выдающий философ Андалусии Ибн Рушд известный на Западе как Аверроес // журнал «Наука и жизнь». Баку: с. 54 – 59 (на азерб.) // https://dx.doi.org/10.13140/RG.2.2.22617.65124

2. Маммадова А.М. (2022). О монетах Саманидов, чеканенных в Узбекистане // Музейшунослик XXI асрда: тадқиқотлар, анъаналар ва инновациялар. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2022 йил 28 февраль), с. 53 - 59

АБДУЛАҲАТОВ Нодиржон

тарих фанлари доктори, Фарғона вилояти педагогик маҳорат маркази профессори.
an_igp@mail.ru

ФАРҒОНА МУЗЕЙИНИНГ ҚЎЛЁЗМАЛАР КОЛЛЕКЦИЯСИ

Аннотация: *Ушбу мақолада Фарғона вилоят тарихи ва маданияти давлат музейида сақланаётган қўлёзмалар ва уларнинг асраб-авайлаш чора-тадбирлари тўғрисида сўз юритилади.*

Калит сўзлар: Қўлёзма, хазина, кутубхона, агиография, адабиёт, луғат, тарих.

Аннотация: *В статье рассматриваются рукописи, хранящиеся в Ферганском областном государственном музее истории и культуры, и меры, принимаемые для их сохранения.*

Ключевые слова: Рукопись, сокровищница, библиотека, агиография, литература, словарь, история.

Abstract: *The article examines the manuscripts stored in the Fergana Regional State Museum of History and Culture and the measures taken to preserve them.*

Keywords: Manuscript, treasury, library, hagiography, literature, dictionary, history.

Ҳар бир халқнинг тарихи унинг ўтмиши ҳақидаги муқаддас хотирадир. Шу боисдан маданиятнинг юксак поғонасига кўтарилган халқлар ўз тарихига, ёдгорликлар ва қўлёзмаларига меҳр-муҳаббат билан қарайдилар, авайлаб-асрайдилар, доимо синчиклаб ўрганадилар. Негаким, уларнинг қадр-қимматини ҳеч бир нарса билан ўлчаб бўлмайди[1.89]. Шу сабабдан Туркистон заминида қадимда ҳукмронлик қилган машҳур сулолалар ўз саройларида минглаб нодир қўлёмлардан иборат кутубхоналар ташкил этганлар. Ўша даврларда “хазина” сўзи маънавий бойликлар тўпланган мана шундай кутубхоналарга нисбатан ҳам қўлланиб келинган.

Тарихнинг гувоҳлик беришича X-XII асрлардаги Хоразм, Бухоро, Самарқанд кутубхоналарида қўлёзма китоблар шу қадар кўп жамланган эдики, уларнинг сон-саноғи тўғрисида аниқ маълумотлар мавжуд эмас. Жумладан, Бухородаги кутубхона Хоразм маъмун академияси кутубхонаси машҳур бўлиб, халқимизнинг буюк фарзанди, қомусий олим Абу Али ибн Сино ҳам

шу ерда мутолаа қилган. Ғазнавийлар сулоласининг асосчиси Маҳмуд Ғазнавий ҳам жуда кўп қўлёзма ва китоблар тўплаган. Тарихчилар таърифича, унинг кутубхонаси ердан шифтгача қадимги ва янги китоблар билан тирбанд бўлган. Аждодларимиз азалдан қўлёзма китобларни ардоқлаб, уларни келгуси авлодлар учун кўз қорачиғидай асраб келганлар. Юртимиздан донғи дунёни тутган кўплаб улуғ олим ва мутафаккирларнинг чиққани ҳам бежиз эмас[2.223]. Бу ҳолат XX аср бошларида чоп этилган хорижлик тадқиқотчилар асарларида ҳам ўз ифодасини топган.

Заки Валидий Тўғон (1890–1970) 1915 йилда Петроградда чоп этилган “Фарғона вилоятидаги Шарқ қўлёзмалари” номли мақоласида Фарғона водийси аҳолисининг шахсий коллекцияларида ноёб қўлёзма асарлар асрлар давомида сақланиб келганини таъкидлаб ўтади[3]. Минг афсуски, ушбу қўлёзма китобларнинг аксарияти собиқ советларнинг мустабид тузумининг дастлабки даврларидаёқ йўқ қилинди. Кейинчалик бу йўқотишлар 50-йилларга қадар давом этди. Халқимизнинг неча асрлар мобайнида йиғиб келган, минглаб нодир бебаҳо қўлёзма асарлари кули кўкка совурилди. Тарихчи олим Сайфиддин Жалиловнинг “Бухорийлар қиссаси” китобида бу ҳақда шундай ёзади: “30-йилларда фаол ҳаракат қилган машъум “ГПУ” ташкилотининг айғоқчилари томонидан муллолар хонадони тинтув қилинганда, мабодо араб ёзувидаги биронта китоб топилса, ундай шахс “шўрога ёт унсур” деб айбланарди. Ўз даврининг олимлари бўлмиш исломий уламоларимиз жон сақлаш учун энг қимматли маънавий бойликлари ҳисобланган барча илмий-исломий китобларини қопларга солиб, қабристонларга кўмиб яширишга мажбур бўлганлар. Тинтувда қўлга тушганлари “ГПУ”чилар томонидан куйдириб юборилган. Оқибатда, аждодларимиздан қолган қимматли маънавий-маърифий бойлигимиз бўлмиш қадимий китоблар шафқатсизларча йўқ қилинди. Тарихимиз билағонларидан, 20-йилларда шўро ташкилотларида ишлаб, сўнгра ноҳақ бир мунча йил қамоқда ётиб чиққан андижонлик қария Олимжон Саркаров хотирасида мазкур ҳодисалар тафсилоти сақланган эди: “Қулоқ”ни синф сифатида тугатиш сиёсатига ўтилгач, жон сақлаш учун ватанни ташлаб чет элга чиқиб кетишга мажбур бўлган айрим бадавлат ва мулло-уламоларимиз Қошғар йўлидаги Эргаштом божхонасида ГПУ ходимлари томонидан тинтув қилиниб, олиб кетаётган бойликлари ва ноёб китоблари тортиб олинган. Тинтув натижасида тўпланиб қолган китоблар, “тоғ бўлиб кетган” ва уларга ўт қўйилиб ёндирилган”[4.21-22]. Ўша даврларга оид ҳужжатларда ҳам нодир қўлёзма китобларни йўқ қилинишига доир тарихий фактлар қайд этилган. Андижонлик тарихчи Роза Раҳматулина ана шундай ҳужжатлардан бири бири ҳақида қуйидагиларни ҳикоя қилади: “Андижон вилояти музейида андижонлик бой ва уламоларнинг китобларини мусодара қилиш тўғрисида Якубов Мирзага 1919 йил 17 ноябрда берилган мандат сақланиб келмоқда. Бу китобларнинг мусодара қилинишига, йўқотилишига Султонбек қатъий норозилик билдирган. Биз музей ходимлари 1959 йили шу китобларни топиш учун кўп қидирув ишлари олиб бордик. Якубовнинг айтишича, Мирқосим, Мирфозил ва Аҳмадбекҳожи

хонадонларида чармга ёзилган эски китоблар кўп бўлиб, улар Искандар Зулқарнайндан тортиб, Қорахонийлар давригача ёзилган қўлёзмалар бўлган. Лекин биз уларни ҳеч қаердан топа олмадик. Демак, улар эгаларида сақланмаган. У китоблар “Оқ уй” деб номланган магазин ертўласига жойлаштирилиб, мусулмон китобхонларига берилмаган. Сайфи Зияев ва Аҳмаджон Муллагалиевларнинг айтишича, 1928 йилда эски китоблар “Оқ уй” орқасида шўро ҳукумати томонидан ёндирилган”[5.42.].

Калит сўзлар: *Қават қалъа, Миздакхан, Жанпиққалъа, Шемаха қалъа, Кўна Ургенч, зооморфные изображения, Кўкрак тақинчоқлари, Қўл тақинчоқлари, сиргалар, аребек, ҳайкел, айшық, тумар.*

Аннотация: *Статья посвящена синтезу материалов средневековой археологии Южного Приаралья (XII-XIV вв.) и каракалпакского народного прикладного искусства, которые хранятся в фонде Государственного музея искусств Республики Каракалпакстан имени И.В. Савицкого. Основной вопрос касается синтеза зооморфного изображения, его метода, способов применения и техники производства.*

Ключевые слова*: Кават-кала, Миздахкан, Джанпык-кала, Шемаха кала, Куна Ургенч, зооморфные изображения, Нагрудные украшения, Ручные украшения, серьги, аребек, хайкел, айшик, тумар.*

Abstract: *The article is devoted to the synthesis of materials from the Middle Tribal Archaeology of the Southern Aral Sea (XII-XIV captives) and Karakalpak folk applied art, which are kept in the collection of the I.V. Savitskiy State Museum of Arts of the Republic of Karakalpakstan. The main question is the synthesis of zoomorphic image, its method, methods of application and production techniques.*

Keywords: *Kavat-kala, Mizdahkan, Janpik-kala, Shemaha-kala, Kuna Urgench, zoomorphic images, Chest ornaments, Hand jewelry, earrings, arebeck, haiku, ayshik, tumor.*

КИРИШНИНГ АСОСИЙ МАСАЛАЛАРИ

Ҳайвонларнинг бадиий талқинини ифодаловчи зооморф тасвирлар, айниқса, Қорақалпоғистон маданий мероси контекстида археология ва этнографияда муҳим ўрин тутади. И.В.Савицский номидаги санъат музейи ноёб коллекция сақловчиси бўлиб, унда XII-XX асрларга оид зооморф мотивлар мавжуд. Ушбу тасвирлар нафақат турли даврларнинг эстетик

афзалликлари ва рамзийлигини акс эттиради, балки маҳаллий аҳолининг кундалик ҳаёти, эътиқодлари ва урф-одатлари ҳақида муҳим маълумот манбаи бўлиб хизмат қилади.

Ушбу музейда қўлланиладиган музейлаштириш тамойиллари маданий меросни сақлаш ва тарғиб қилишга қаратилган. Музей коллекцияси доирасида олиб борилаётган тадқиқотлар зооморф тасвирларнинг тарихий контексти ва бадиий хусусиятларини чуқур англашга ёрдам беради. Сақлаш ва тарғиб қилишнинг замонавий усулларини жорий этиш нафақат ушбу қадриятларни емирилишдан ҳимоя қилиш, балки уларни кенг аудиторияга етказиш имконини беради.

Шундай қилиб, археологик ва этнографик ашёлардаги зооморф тасвирлар нафақат бадиий объектлар, балки Қорақалпоғистон халқининг ўзига хослиги ва анъаналарини сақлаб қолишга ёрдам берадиган муҳим маданий артефактлардир.

ТАДҚИҚОТНИНГ МЕТДОЛОГИК ВА АМАЛИЙ АСОСЛАРИ

Жанубий Орол бўйи Ўрта Осиёнинг маданий ўчоқларининг бири бўлиб, унинг далили сифатида Амударъёнинг бўйларида жойлашган Ўрта асрларда яшаган халқларнинг турмуш маданиятининг ривожланиши натийжасида келиб чиққан ва уларнинг маҳаллий яшаш жойлари билан шаҳарлари ҳудудларида олиб борилган археологик қазишмалар натийжасида топилган моддий бойликлар бўлиб ҳисобланган - кулол идишлар, ҳар ҳил металлардан ишланган тақинчоқлар, ҳар ҳил рузғор буюмлари ва ҳ.к буюмлар бунга мисол бўла олади.

Бў топилмалар орқали ўша даврдаги халқларнинг шакилланишининг тамал тоши бўлиб, ўша маданиятнинг қай даражада авж олиб гуллаб ривожланганлигини археологик топилмалардаги безакларда кўришимиз мумкун. Улар орасида икки тамони сирланган кашин сапол идишлар кўплаб учрашади. Идишнинг ташқи тамони қалин шиша қатлами билан қопланиб кўркам нақшлар билан безатилган. Сапол идишлар орасида кашин буюмлар бу ҳудудларда XII-аср оҳири ва XIII-аср бошларида пайдо бўла бошлаганлигини кўзатамиз, айниқса Олтин Ўрда даврида (XIII-XIVаа) ҳунармандлар томонидан салмоқли ҳажмда ишлаб чиқарилганлигини кўрамиз [4]. Сабаби халқ орасида бундай идишлар амалёти жиҳатидан қулайлиги, маданий кўркамлиги ва сифати билан ажралиб турган.

Қорақалпоғистон Республикаси И. В. Савицкий номидаги давлат санъат музейи Археология фондида, сапол буюмлар орасида XII — XIV -асрларда маҳаллий ҳунармандлар томонидан ишланган кашин идишлар, косалар ва козалар сақланмоқда. Бў буюмлар ўрта асрларнинг Қават қалъа, Миздакхан, Жанпик қалъа, Шемаха қалъа, Кўна Ургенч ва ҳакозо ҳудудларидан топилган бўлиб, улар геометрик, ўсимлик, зооморф ва эфиграфик безаклар билан безатилган. Бундай безаклар орасида ўзининг ўзига ҳослиги ва кўркамлиги билан ажралиб турувчи безак бу кам учрайдиган зооморф безаклар.

Бундай безаклар билан безалган кулолчилик дастгоҳида таёрланган, яримта айлана шар шаклига эга сапол идиш (КП-36735, ИНВ-695,) ўзига ҳос қизиқиш уйғотади. Идиш ўсимлик-геометрик ва зооморф безаклар билан ички

томони безатилган. Композициянинг марказида узун тумшуқли ва кўкраги ташқарига чиқган, боши юқорига қараб турган катта қуш атрофида гуллар жойлашган. Қушнинг жуда узун ингичка оёқлари, ажойиб қуйруғи ва оқ фонда безатилган катта кўк нуқталар ва ингичка чизиқлар билан чизилган ёркин ҳар хил патлари тасвирланган. Қушнинг қанотлари нуқталар билан ингичка қилиб тасвирланган. Буткул композициянинг юқори тамонида кенг феруза рангли чизиқ билан безатилган. Унинг юқорисида араб имлосида - "иқбол" (муваффақият) сўзи изма-излик билан кайталанилган. Ҳарфларнинг юқори ва пастки томонларида нақш қилиниб кўк нуқталар қўйилган. Идишнинг чети кичкина кўк чиннигўл тизилган шаклда чизиқ билан безатилган. Косанинг ташқари томони юқорига қараб узун чизиқлар билан безатилган бўлиб, улар бир-бири билан боғланиб, камарларни пайдо қилади. Идишнинг тубидан ташқари ҳамма жойи тиниқ сир билан қоплонган. Идишнинг диаметри 19,5 см, баландлиги 8,5 см, тубининг диаметри 7,5 см, деворининг қалинлиги 0,5 см. Коса Жанпик қалъа ёдгорлигини қазиш вақтида топилган (расм 1:2).

Яна битта ажойиб буюм Кўна Урганчдан топилган идиш бўлаги (КП-36174, ИНВ-62, КП-2997, ИНВ-696) (расм1:1,3). Кулолчилик дасткоҳида ишланган, баланд айлана тубига эга, оч яшил рангда сирланган, идишнинг ички тубида доирасимон тарзда ичига қўш расми тасвирланган. Расм атрофига тоқ яшил ранг ва кўк нуқтали безаклар жойлаштирилган. Қуш ўрдакга ўхшайди, боши юқорига қараб кўтарилган. Идишнинг ташқи томони релъефли арка кўринишидаги нақш билан безатилган.

Зооморф безакларни металдан ишланган буюмларда ҳам ўрта асрларда кенг тарқалганлигини кўришимизга бўлади. Улар қаторида бронза ойналар бўлиб, XIII-XIV асрларга тегишли Амударёнинг пастки оқими ҳудудларида жойлашган ўрта аср ёдгорликлари Шемаха қалъа, Жанпик қалъа, Миздакхан ва бошқада ўрта асрларга тан карвон-саройлардан яхлит ва бўллакларга бўлинган кўринишдаги бронза ойналар археологик қазишма натийжасида топилган [5].

Бундай бронза ойналар музейимизнинг археология фондида сақланиб келинмокда (КП-41481, ИНВ-1492) (1.4). Шўлардан ён томони яримта шар кўринишдаги мураккаб бўрма нақшлар билан безатилган, марказида бир жуфт балиқлар айлана кўринишида тасвирланган бронза ойна. Яна битта шакли ва ишланиши томонидан юқоридаги ойнага жуда ҳам ўхшаш. Яна битта зооморф безакларга эга бронза ойна, (КП-3772/97, ИНВ-86) доира шаклда жойлаштирилган тўрт ҳайвоннинг шохлари билан квадратни шакиллантирган. Бу тасвирланган ҳайвонлар тоғ эчкилари бўлиши мумкин (1. 8).

Биз зооморф нақшлар билан безатилган металдан ишланган буюмларни солиштириб кўрганимизда, ўхшашлик томонидан XIX аср оҳири ва XX аср бошларига тегишли Қорақалпоқ аёл қизларининг тақинчоқларида ва эркак кишиларга тегишли бўлган буюмларда ҳам кўришимиз мумкун. Қорақалпоқ аёл қизларининг тақинчоқлари асосан кумушдан тайёрланган, Улар 3 турга бўлинади:

1- Кўкрак тақинчоқлари (*Хәйкел, айшық, тумар, түймалар, гилт шалғыш, өңгир муншоқ*);

2- Қўл тақинчоқлари (*билак узук* ва *узуклар*);
3- Бош тақинчоқлари (*сирғалар, аребек*).

Бундай тақинчоқлар музейимизнинг Қорақалпоқ халқ амалий санъати бўлими фондида сақланиб келинмоқда (КП-22278, М-2307) (1.9) *Хайкелнинг* пастки томони туя кўринишида ишланган, бундан бошқа (КП-4003 М-1734) ҳайкелнинг пастки қисми қушнинг бошига уҳшаш қилиб ишланган (расм 1:12). Хайкелларни ишлайдиган заргарларнинг ҳар бирининг ўзгача ишлаш усуллари бўлган. Шу сабабдан бу буюмларнинг безалиши тарафидан ва шакли томонидан ҳар хил кўринишларда учратиш мумкин. Маълумотларга қараганда, заргарларнинг ишлаш сирлари фақатгина яқин инсонлари бўлган шогирдларига гина ўтган.

Яна битта ажойиб кўриниши жиҳатидан саккиз сонин эслатувчи тақинчоқ *Гилтшалғышлар* (расм 1:5,6,7) юқориги томонида бир бирига қараб туришган қўшлар, ҳайвонлар кўринишида безак бериб ишланган.

Қорақалпоқ эркак кишилари ўзларига тегишли буюмларини ҳар ҳил безаклар билан безаган. Эркаклар биринчи навбатта отларининг аслаха буюмларини безаган ва ўзларига тегишли айрим буюмлар безалган, уларга мисол қилиб шуларни келтириш мумкин Дагмент белбоғлар(камар)ни айта оламиз. Дагмент белбоғлар эркакларнинг белига тақиб юрувчи қиммат баҳоли камари (расм 10). Дагмент белбоғларнинг илиб қўядиган илгаклари лотин алфбосидаги S ҳарифи кўринишида ва ғоз бойини шаклида, илгакнинг учи ғознинг тумшиғи кўринишида ишланган [2].

Эркак кишиларнинг камарлари йирикроқ қилиб ишланган, аёлларнинг камарлари эса ингича қилиб ишланган (расм 1.11).

Бундай зооморф турдаги безакликлар маданияти ҳар хил ишончлар ва атроф муҳит, одамларнинг табиат билан яқин бўлиши ва тиғиз алоқада бўлиши сабабидан вужудга келган. Одамлар табиат билан ҳамиша яқин алоҳида бўлган, шу бойсдан ҳам ўзларининг яшаб турган муҳитини ўзларининг фойдаланадиган буюмларида акс эттириб безакларда кўрсатган. Қадимий замонлардан вужудга келган бундай безаклар XIX-XX аср ва замонавий типдаги Қорақалпоқ халқи тақинчоқларида сақланиб қолганлигини кўрамиз. Бундай безаклар фақатгина тақинчоқларда гина эмас. Бундан бошқа Қорақалпоқ халқи буюмларида гилам, кийимларда, ҳар хил рузғор буюмларида шу кўринишдаги зооморф безакларни учратиш мумкун. Уларнинг ҳар бириниинг ўз номлари бор, Улар: *ғаз мойын, қумырсқа бел, қой тиси, тышқан из, бөри көз, қус тили, балық көз* ва ҳ. к жониворлар номлари ва азолари билан номланган ҳар хил нақш безакларни учратамиз [3].

Бундан ташқари яна бошқада тақинчоқларнинг ишланиш усулларини солиштириб қарайдиган бўлсак «Ремесло Хорезма в XIII-XIV вв» (XIII-XIV-асрлардаги Хоразм ҳунармандчилиги) деган, М.Ш.Қидирниязовнинг маҳоласида Шахрлик, Миздахқан ва Олтин Ўрда давридаги маҳалий деҳкончилик билан шуғулланган аҳоли истиқомат қилган жойлардан тақинчоқ ва сирғаларнинг топилганлигини айтиб ўтади [6]. Топилмаларни XVIII-XIX асрлардаги сирғалар билан солиштириб қараганимизда ўхшашлик томонларини кўришимиз мумкин.

И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоқ давлат санъат музейи археология бўлими фондидаги (КП-40024, ИНВ-312) (расм 1:13) сороқ кўринишидаги Жампиқ қалъадан топилган яна бир ажойиб суроқ шаклидаги сирға пастки қисмида кичик мунчоқлар билан безатилган, ва Миздахкан тарихий ёдгорлигидан топилган (расм 1:15) Ўрта асрларга тегишли сирға иккита юмалоқдан ва симдан иборат бўлиб, И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоқ давлат санъат музейи фондидаги КП-3859 (расм 1:16) сўнгги даврга тегишли сирғанинг пастки қисми ичи бўш учбурчакли кўринишда, майда нуқталар билан безатилган, тепа қисми дойрасимон бўлиб, сал кичик кўринишда, улар арқон сим билан чирмаб бириктирилган. Бундай ўхшашликларни уларнинг илмоқларида ҳам аниқ кўриш мумкин [1].

Яна битта Олтин Ўрда давридаги маҳалий деҳқончилик билан шуғулланган аҳоли истиқомат қилган жойдан топилган сирға ҳам (расм 1:14) оддий сўроқ белгиси кўринишида, уни музейдаги маржонли сирға билан (КП-2635) (расм 1:17) солиштирадиган бўлсак симнинг тепа учи илмоқ кўринишида бўлиб унга маржон билан феруза мўнчоғи занжир орқали бириктирилган, пастида бир дона маржон ва 10 тийинлик илдирилган.

ХУЛОСА

Демак, қорақалпоқ заргарлари томонидан ишлаган сирғаларда Ўрта асрларга тегишли бўлган хусусиятлар яққол кўзга ташланади, бу Қорақалпоқ заргарлик санъатининг эрта даврлардан-оқ яхши ривожланганлиги ва яқин даврларгача уларнинг ишлаш техникаси безатилиши авлоддан авлодга утиб ривожланиб келганлигидан дарак беради. Орадан қанча вақт ўтсаҳамки қорақалпоқ сирға намуналарининг сақланиб қолиниши, бу заргарлик буюмлари қорақалпоқ қиз-келинчакларнинг, аёлларнинг чиройига-чирой гўзаллик қушиб, ҳаётида катта аҳамиятга эга. Бундай бебаҳо заргарлик намуналарини асраб авайлаб, уларни тарғибот-ташвиқот этиш, илмий жиҳатдан чуқурроқ ўрганишимиз керак.

И.В.Савицский номидаги музей коллекциясининг археологик ва этнографик ашёларидаги зооморф тасвирлар муҳим маданий артефактлар бўлиб, улар Қорақалпоғистон меросини сақлаш ва тарғиб қилишга ёрдам беради. Музейлаштириш ва олиб борилган тадқиқотлар натижалари ушбу объектларнинг ҳудуднинг тарихий ва маданий контекстини тушуниш учун муҳимлигини таъкидлайди. Сақлаш ва тарғиб қилишнинг замонавий усулларини жорий этиш нафақат ушбу қадриятларни ҳимоя қилиш, балки ўтмиш ва ҳозирги замон ўртасидаги боғлиқликни мустаҳкамлаган ҳолда келажак авлодлар учун ҳам фойдаланиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абинязов А.Сырғалардың салыстырмалы түрлери // Қубла Арал бойы археологиясы, этнографиясы, тарийх ҳәм тарийнамасының актуал мәселелери атамасындағы халық аралық илимий-теориялық конференция. Нөкис, 2019.

2. Архивные материалы Центральной Азии. Том VI. / Алламуратов.А. Каракалпакское декоративно-прикладное искусство. Вопросы художественного своеобразия. – Самарканд: МИЦАИ, 2019.

3. Богословская И. Каракалпакский орнамент: образ и смысл. Алматы, МИЦАИ, 2019, – 220 с.
4. Ватурская Н.Н. «Хронологическая классификация».М,1959. стр 323
5. Доспанов О.Т. Жампыққала орта әсирлер естелиги. Нөкис. 1992 ж.
6. Кдырниязов М-Ш. «Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веков» Нукус. 1989 г.

1-расм. Антропоморфик тасвирлар (кушлар ва хайвонлар) тасвирланган археология ва халк амалий санъати буюмлари.

1-3 – XII-XIV-асрларга оид кушлар тасвирланган кашин идишлари (Куня Урганч, Шемаха калъа); 4,8 – XII-XIII-асрларга оид балик ва кийиклар тасвирланган бронза ойналар. (Жанпик калъа); 5-7 – XIX-XX аср бошлари тепасида кушлар тасвири туширилган қоракалпок кумуш кўкрак безаги "Гилт шалғиш"; 9.12 - XIX-XX аср бошларидаги туя ва кушлар тасвирланган "Ҳайкел" қоракалпок кўкрак безаклари (кумуш); 10-11 - Ўрдак бўйини тасвирланган қоракалпок еркаклар бел камарларининг бўлаклари"Ғаз мойын" (кумуш, шойи); 13-17 XIII аср (13- Жанпик калъа) ва XIX-XX аср бошларидаги саккиз шаклли сирғалар (кумуш, марварид, маржон).

КАРИМОВА Дилафрўз Обиджоновна
ЎзР ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи
Тарих илмий бўлими мудири
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

МУЗЕЙЛАР ХАЗИНАСИНИ БОЙИТГАН ОЛИМ

Аннотация: *Ушбу мақолада таниқли ўзбек археолог олими, академик Аҳмадали Асқаровнинг Ўзбекистон музейларини бойитишга қўшган хиссаси ёритилган. Музейлардаги олим томонидан топширилган ашёлар асосида яратилган экспозициялар ва улардаги ноёб экспонатларга эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *музей, археология, олим, Аҳмадали Асқаров, бронза даври, ёдгорлик, деҳқончилик маданияти, сопол буюмлар, қабр, заргарлик, топилма.*

Аннотация: *В данной статье освещён вклад известного узбекского археолога, академика Ахмадали Аскарова в обогащение фондов музеев Узбекистана. Особое внимание уделено экспозициям, созданным на основе переданных ученым артефактов, а также уникальным экспонатам, представленным в этих музеях.*

Ключевые слова: *музей, археология, ученый, Ахмадали Аскаров, бронзовый век, памятник, земледельческая культура, керамика, могила, ювелирные украшения, находка.*

Annotation: *This article highlights the contribution of the renowned Uzbek archaeologist, Academician Akhmadali Askarov, to the enrichment of museum collections in Uzbekistan. Special attention is given to the exhibitions created based on artifacts donated by the scholar, as well as to the unique exhibits displayed in these museums.*

Key words: *museum, archaeology, scientist, Akhmadali Askarov, bronze Age, monument, agricultural culture, ceramics, grave, jewelry, find.*

Ҳар қандай давлат тараққиёт сари интилар экан, доимо тарихга назар ташлаб, мавжуд урф-одатлар, анъаналар ва қадимий ёдгорликларни ўрганишга ва сақлашга интилиши табиий. Айниқса, бу борада музейларнинг ўрни беқиёсдир. Чунки музейлар ўтмишдан келган тарихий маданият, маърифат, табиат ёдгорликларининг яхлит тизимига солинган йиғиндиси бўлиб амалдаги қонун-қоидага мувофиқ равишда сақланади ва намойиш қилинади [1, – Б. 17-18].

Музейлар тузилиши жиҳатидан икки хил бўлади. Очиқ турдаги музейлар ва ёпиқ музейлар. Дастлабки очиқ осмон остидаги музейлардан бири "Скансен" оролида жойлашган бўлиб у 1891 йилда Джург Дюркрден томонидан Стокголмда (Швеция) очилган, унинг номи аксарият Европа тилларида этнографик музейларнинг номига айланди. Очиқ турдаги музейлар сирасига мамлакатимиздаги буюк тарихий шаҳарлар очиқ осмон остидаги

ёдгорлик-архитектура меъморий иншоотлар киради. Бунга кўҳна Бухоро, Самарқанд, Хива, Шаҳрисабз, Қўқон, Тошкент ва бошқа шаҳарлардаги тарихий меъморий ёдгорликлар, археологик жойлар ва ўтмиш асрларидаги қадимий аҳоли яшаган манзилгоҳ қолдиқларини мисол қилиб кўрсатишимиз мумкин.

Очиқ осмон остидаги музейларнинг ўзига хос томонларидан бири шундаки, улар майдони жиҳатидан турлича бўлади. Бундай турдаги музейларда айрим экспонатларни қўл билан ушлаш, ишлатиб кўриш имкониятининг мавжудлиги туристларга ўтмиш даври тўғрисидаги тасаввурларини янада яқинроқ ҳис қилиш имконини беради. Ушбу муассасалар тарихий ўтмиш ва замонавий дунё ўртасида кўприк бўлиб хизмат қилади.

Аҳмадали Асқаров узоқ йиллик фаолияти давомида археология соҳаси билан шуғулланиш билан бирга, ёдгорликлардан топилган ашёларни сақлаш ва намойиш этиш масалаларига ҳам бир вақтнинг ўзида жиддий эътибор қаратган ва буни ўзининг Ватан олдидаги маъсулияти, деб билган. Буни Аҳмадали Асқаров томонидан юртимизнинг йирик музейларига топширилган, уларда сақланиб келаётган ва экспозицияларида намойиш этиб келинаётган ашёларнинг мавжудлигида кўриш мумкин. Уларнинг маълум бир неча музейлар мисолида келтириб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Ўзбекистон ҳудудидаги қадимий моддий маданият ёдгорликларида ҳар йили археологик қазишмалар жараёнида очилиб, лекин музей экспонатларига айланмай, табиий ёғингарчиликлар туфайли нураб, бузилиб бораётган диний ва дунёвий характердаги монументал меъморий объектлар, уй-жой комплекслари, турли хил ҳунармндчилик ишлаб чиқариш объектлари, ҳаммомлар, ибодатхона ва масжидлар, шаҳар мудофаа деворлари, коммунал хўжалик объектлари – сопол қувурлар, канал ва ариқлар тизими ва бошқалар илмий-техник жиҳатдан таъмирланиб, кимёвий реставрация ва консервация усуллари орқали таъмирланиб, кимёвий қотирилиб, тарихий – этнографик музей экспонатларига айланмай, уларнинг йўқ бўлиб кетиши жуда ачинарли ҳол.

1970-йилларнинг ўрталаридан, Самарқанд Археология институти директори бўлиб фаолият олиб борган даврдан алоҳида эътибор қаратган. Бунга Афросиёб қадимги ёдгорлигини ҳамда Регистон ансамблини мисол қилиб келтириш мумкин. Самарқанд шаҳри ҳудудидаги йирик ёдгорлик Афросиёб – археологик объектини очиқ осмон остидаги музейга айлантириш зарурлигини асослаб кўрсата олган. Бу ҳақида олимнинг шахсий архивида мавжуд бўлган ҳужжатларни ўрганиш жараёнида етарли ва асосли маълумотга эга бўлиш мумкин.

Фақатгина 1970 йиллар учун эмас, ҳозирда ҳам моддий маданий меросни сақлаш, таъмирлаш зарурати долзарб масала бўлиб, таъмиршунос мутахассислар ва махсус лабаратория хоналари бўлишликни талаб этади. Янги ташкил этилган Ўз ФА Археология институти таркибида Аҳмадали Асқаровнинг ташаббуси билан археологик объектларни кимёвий қотириш ва консервация қилиш методларини ишлаб чиқиш масалалари билан

шуғулланувчи махсус бўлим ташкил этилган. Ушбу бўлим ҳозиргача ўз фаолиятини самарали давом эттириб келмоқда.

Аҳмадали Асқаров ташаббуси билан Самарқанд ҳудудидаги қадимий Афросиёб шаҳрини “Очиқ осмон остидаги музейга айлантириш” масаласида бир қатор ишлар амалга оширилган. Афросиёб ва республиканинг бошқа ёдгорликларида очиқ осмон остидаги музейни яратиш бўйича самарали иш олиб борадиган кучли ишлаб чиқариш базасига эга илмий-ишлаб чиқариш бирлашмаси ёки реставрация институтини яратиш учун қўшимча штат бўлинмалари ва тегишли моддий-техник база муҳим бўлиб, уларсиз ҳар қандай қимматли ғоя қоғозда қолади [2, – Б. 81-88].

Республиканинг энг йирик музейи Ўзбекистон тарихи давлат музейи бўлиб, Аҳмадали Асқаров ўзи раҳбарлигида олиб борилган археологик қазишмалар натижасида топилган ашёларни ушбу музейга топширган. Олим томонидан топширилган топилмалар таҳлили нафақат Ўзбекистон ҳудуди ёдгорликларида балки, Туркманистон ҳудудидаги дастлабки деҳқон жамоаларининг Номозгоҳ, Анов каби ёдгорликларида олиб борилган экспедициялардаги иштироки натижалари ҳам ушбу музейга топширилган. Музейга А.Асқаров томонидан жами 1214 та экспонатдан иборат 253 коллекция яратилган. Бугунги кунда музейда Аҳмадали Асқаров тадқиқотлари асосида яратилган экспозициялар мавжуд бўлиб, асосан экспозициянинг “Бронза даврида Ўзбекистон” бўлимидан жой олган. Унда Жанубий Ўзбекистон ҳудудидаги Сополлитепа ва Жарқўтон ёдгорликлари топилмалари ичидаги энг ноёб ашёлар бугун музейда бутун дунё ташрифчиларини ҳайратга солиб келмоқда. Ўша давр дафн маросимларини акс эттирувчи Жарқўтон ёдгорлигига тегишли аёл киши қабри топилган [6, 7] ҳолати бўйича музейга олиб келинган ва экспозицияда намойиш этиб келинмоқда. Кўплаб сопол буюмлар, давлатчилик рамзи ҳисобланган муҳрлар, бронзадан ясалган зеб-зийнат буюмлари ҳам шулар жумласидандир.

Аҳмадали Асқаров 1983 йилда Жарқўтон ёдгорлиги топилмалари асосида Шеробод археология музейини ташкил этилишида асосий масъулиятни ўз зиммасига олган ва олдига қўйган мақсадига эришган. Чунки, Шеробод ҳудуди бронза ва илк темир даври ёдгорликларга бой бўлиб, ёдгорликлардан чиққан топилмалар Тошкент ва Самарқанддаги йирик музейларга топшириб келинган. У ҳудуд ўқувчи ёшлари пойтахтга музейларни кўриш учун жуда кам ҳолатда ташриф буюришини англаган ҳолда олим ўша даврдаги давлат раҳбари Ш.Рашидовнинг 1982 йилда Жарқўтон ёдгорлигида олиб борилаётган экспедицияга ташрифи давомида ушбу ҳудуднинг ўзида ўқувчи ёшлар учун музей ташкил этишда амалий ёрдам беришларини сўрайди.

Кундузлари Жарқўтонда қазишмаларни давом эттириш билан бирга, музей қурилиши юклатилган топшириқни ўз вақтида бажариш учун кечалари ҳам ишлашга тўғри келди. 1982 йил октябрь-ноябрь ойларида музей биноси тикланди, декабр ойида музей комплекси майдонининг атрофи металл тўсиқлар билан ўралиб, 1983 йил февраль охиригача майдон турли хил мевали дарахтлар, турли гул кўчатлари экишга тайёр бўлди. Март ойида қурувчилар

охирги ишларини якунлаб, бинони бизга топширди. Самарқанддан атиргул кўчатлари олиб келинди. Бир вақтнинг ўзида, март ва апрель ойлари экспозиция зали, унга тегишли бўлган экспонат шкафлари тайёрланиб, уларга археологик материаллар илмийлик ва тарихийлик тилими асосида жойлаштирилди. 1983 йил 9 май куни Шароф Рашидов Жарқўтон музейи очилишига етиб келди [2, – Б. 113].

1983 йилда олим ташаббуси билан очилган ушбу музей 2010 йилларга келиб қаровсиз ҳолатга кела бошлади. Бу музей маълум вақт Жарқўтон ёдгорлигини ўрганиш учун келган француз ва ўзбек археологларининг илмий баъзаси вазифасини ҳам бажарди. Бироқ, 2020 йилларга келиб, тўлиқ қаровсиз ҳолатга келди. Музейни замонавий жиҳозлар билан бойитиш у ёқда турсин, қайта таъмирлаш ишлари ҳам олиб борилмади. Натижада, музейдаги топилмалар Термиз шаҳрида очилган “Термиз Археология музейи”га кўчирилди.

“Термиз Археология музейи”нинг 2-зали “Сурхон воҳаси бронза ва темир даврида” деб номланиб, ушбу экспозиция залида Аҳмадали Асқаров томонидан ўрганилган Сополлитепа, Жарқўтон ва Кучуктепа ёдгорликларидан топилган археологик ашёлар жой олган. Экспозицияда Жарқўтон ёдгорлиги қабристонидан топилган бир қабр тўлалигича акс эттирилган. Бундай қабр Ўзбекистон тарихи давлат музейига ҳам Аҳмадали асқаров ташаббуси билан олиб келинган ва ҳозиргача музейнинг “Ўзбекистон бронза даврида” номли доимий экспозиция залида намойиш этиб келинмоқда. Бу қабрнинг музей экспозиция залларида намойиш этилиши, ташрифчиларга бронза даври ўтроқ деҳқон жамоаларининг дафн анъаналарини қандай бўлганлигини аниқ тасаввур этиш имконини беради.

Бундан ташқари, “Термиз Археология музейи” ушбу экспозиция залида Аҳмадали Асқаров томонидан Сополлитепа ёдгорлигида олиб борилган археологик қазишмалар натижасида қўлга киритилган ноёб топилмалар – қурилиш асбоби – андава **(1-расм)** ҳамда хумо қуши **(2-расм)** шаклида ясалган сопол идишнинг маълум қисмлари сақланмаган ҳолатдаги топилма ўрин олган. Сопол буюмлар, зеб-зийнат буюмлари, бронзада камон ўқининг учлари, палаҳмон тошини кўриш мумкин.

Самарқанд давлат музей қўриқхонасида бугунгача Самарқанднинг қадимий ўтмиш тарихидан гувоҳлик берувчи топилмалар мужассамлашган. Бу топилмалар йиғилишида Аҳмадали Асқаровнинг ҳам хиссаси мавжуд. 1970 йилдан олим Самарқандда фаолият бошлаган кезларидан Самарқанддаги бронза даври Мўминобод қабристонида археологик экспедиция ишларини олиб борган ва экспедиция натижасида топилган ашёлар ушбу музейнинг Археология фондига топширилган. Бундан ташқари шу даврнинг ўзида олим Сурхондарё вилоятидаги Сополлитепа ва Жарқўтон ёдгорликларида ҳам экспедиция ташкил этган ва ўзи фаол иштирок этган. Ушбу ёдгорликларда топилган ашёлардан ҳам музей фондига топширган. Уларнинг ичида энг ноёб топилмалар бронза даврига тегишли най Мўминобод қабристонидан топилган.

Бундай топилмалар Ўзбекистоннинг кўплаб музейларига олим томонидан тақдим этиб келинмоқда. Ҳатто, талабалар учун Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети қошида “Ўқув археология музейи”ни ташкил этишга ҳам эришди.

Олим ташаббуси билан яратилган “Ўқув археология музейи” ўзбек халқи тарихи ва маданиятининг қадимги тош давридан то сўнгги ўрта асрларга қадар даврини қамраб олган [4].

Ушбу “Ўқув археология музейи”ни ташкил этишдан мақсад, Олий таълимнинг бакалавриат ва магистратура босқичлари талабаларини назарий билимларини музей экспозицияларидаги экспонатлар орқали чуқурлаштириш ва мустаҳкамлаш, халқимиз бой маданий мероси намуналарини намойиш этиш орқали ёш авлодни Она-Ватанга, унинг тарихига чексиз ҳурмат ва эҳтиром руҳида тарбиялаш, уларни маънавий баркамол кадрлар бўлиб етишишига кўмаклашишдан иборат бўлган.

Тарих билан узвий боғланган музей нафақат тарихий билимларни ўзлаштиришнинг ёрдамчи воситаси, балки ўтмиш тарихимизнинг кўзгусидир. Музей экспонатларининг маънавий ва маърифий ички дунёсига кира олган талабада инсон ботиний дунёсининг руҳий олами озиқланади, ватанга бўлган эътиқодини мустаҳкамлайди, одамнинг ички дунёси ва иродасини, иймон-эътиқодини бутун қилади, виждонини қўзғатувчи бекиёс руҳий куч уйғонади [5, – Б. 12]. Мана шу тарихий билимлар, уларни кўргазмали услубларда талабага етказишнинг ўзи истиқлол мафкурасининг негизи, манбавий асосидир. Бир сўз билан айтганда, шундай “Ўқув археология музейи” бугунги кун ёш тарихчиларни тайёрлашда зарур бўлган тарихий ўқув масканидир.

Афсуски, бу музей ташкил топгандан бери, расмий ходимларсиз, А.Аскаров ва унинг шогирдлари ҳамда Тарих факультети профессор-ўқитувчилари томонидан ташкилий ишлари, тозалик ишлари олиб борилмокда. Ушбу музей асосчиси Аҳмадали Аскаров ўзининг вазифаси сифатида, ёш тарихчиларни шакллантиришдаги хиссаси деб билиб, музей масъулиятини ҳозиргача ўз зиммасида сақлаб келмокда. Бироқ, ушбу музей янада ривожланиши, экспонатлар билан бойиши учун, махсус, расмий масъуллар бириктирилиши мақсадга мувофиқдир. Қолаверса, музей экспонатлар билан бойиши учун Тарих факультети талабаларини Археология фани дастурлари доирасида Ўзбекистон ҳудудидаги қадимий ёдгорликларга археологик амалиёт ўташга олиб бориш, талабада тарих илмининг қадимий даврларини ўрганишга хисса қўшиши ва энг муҳими шу талабалар орасидан келажакда Аҳмадали Аскаровдек етук археологларнинг издошлари шаклланишига замин яратилган бўлар эди.

Аҳмадали Аскаровни нафақат тарихчи – археолог сифатида, балки тарихни асраб, келажакка етказган олим сифатида эътироф этиш мақсадга мувофиқдир.

1-расм. Бронза даврига тегишли андава. **2-расм.** Хумо қуши шаклида ясалган сопол идиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. *Toshboyev F.E. Muzeyshunoslik. Toshkent. "Mahmud Az-Zamaxshariy". 2023. – B. 17-18.*
2. Асқаров А. Меҳнат ва курашда тобланган ҳаёт онларим. Тошкент, "Donishmand ziyosi". 2024. – Б. 81-88.
3. Асқаров А. Меҳнат ва курашда тобланган ҳаёт онларим. Тошкент, "Donishmand ziyosi". 2024. – Б. 113.
4. https://telegra.ph/Nizomiy-nomidagi-TDPU-Tarix-fakulteti-qoshidagi-Oquv-arxeologiya-muzeyi-02-05
5. Асқаров А. Мустақиллик йилларида тарих фанларини ўқитишда инновацион ёндашувлар // «Олий таълимда ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишнинг долзарб масалалари» мавзусида илмий-амалий конференция материаллари. 24 август, 2011 йил. – Б.12.
6. Каримова Д. Ўзбекистон тарихи давлат музейи коллекциясидан бронза даври қабри таҳлили // "Muzeyshunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, ananalar va innovatsiyalar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 3-kitob. Toshkent – 2023. – Б. 53-58.
7. Karimova D. Findings of the bronze age Sopollitepa monument preserved in the state history museum of Uzbekistan // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. 22-08-2023. Finlandiya. (SJIF) = 7.502 Impact factor. https://doi.org/10.5281/zenodo.8287095.

МУХАМЕДОВА Муниса Сабировна
Государственного музея истории Узбекистана
старший научный сотрудник, (PhD)

РАХМАНОВА Лобар
Государственного музея истории Узбекистана
научный сотрудник,

ИЗУЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА В 1980-1990 ГОДАХ

Аннотация:*К 1980-м и 1990-м годам было изучено положение музейной работы в Узбекистане, проведено большое количество научных дискуссий и масштабных комплексных исследований, результаты которых были опубликованы в архивных документов. Продолжалась реорганизация и расширение музейных сетей, произошли определенные структурные изменения. Во всех существующих исторических и краеведческих музеях появились экспозиции, демонстрирующие достижения новой системы, знакомящие широкую публику с ее идеями. Основное внимание было уделено проведению политико-просветительской работы с аудиторией. Однако, поскольку у них не было полноценных коллекций, место музейного экспоната заняли тексты, схемы, лозунги.*

Ключевые слова: *музейная работа, историко-краеведческий музей, экспозиция, музейная аудитория, зрительный зал музея, структурные изменения, крупное комплексное исследование.*

Annotasiya*: Bu davr o 'zbekiston muzey tarmoqlarini 1980-90 yillard qayta tashkil etish va kengaytirish davom etdi va ma'lum strukturaviyy o ' zgarishlar sodir bo ' ldi. Mavjud tarixiy va o'lkashunoslik muzeylarining barchasida davr siyosati yutuqlarini namoyish etib, uning g'oyalarini keng ommaga singdiruvchi ekspozisiyalar paydo bo'ldi. Asosiy e'tibor tomoshabinlar bilan siyosiy-ma'rifiy ish olib borishga qaratildi. Lekin ularda to'laqonli kollektsiyalar yo'q bo'lganligi sababli muzey predmeti o'rnini matn, sxema, shiorlar egalladi.*

Kalit so'zlar: *muzey ishi, tarixiy va o'lkashunoslik muzeylari, ekspozisiya, muzey tomoshabinlari, muzey auditoriyasi, strukturaviy o'zgarishlar, yirik kompleks tadqiqotlar.*

Annotation*: By the 1980s and 1990s, the situation of museum work in Uzbekistan was studied, a large number of scientific discussions and large-scale comprehensive studies were conducted, the results of which were published in archival documents. Despite the fact that museums are inextricably linked with the history of the country, the museum business has received its own internal logical development. The reorganization and expansion of museum networks continued, and certain structural changes took place. Expositions demonstrating the achievements of the new system and introducing its ideas to the general public have appeared in*

all existing historical and local history museums. The main attention was paid to conducting political and educational work with the audience. Due to the fact that they did not have full-fledged collections on museum subjects, they were replaced with texts, diagrams and slogans.

Keywords: *museum work, museum of local lore, exposition, museum auditorium, museum auditorium, structural changes, large comprehensive study.*

В начале 1980-х годов число посетителей музеев Узбекистана резко возросло. Работа музея была в центре внимания общества. Дискуссии о музеях, их деятельности, проблемах сохранения памятников культуры широко обсуждались не только в специальных, но и в печатных изданиях, газетах и журналах. Возросший интерес к музеям в обществе привел к повышению внимания общественности к музейной деятельности. К 1980-м годам одним из методов организации музеев в Узбекистане стало создание централизованной системы музеев. Основной целью таких объединений было улучшение контроля, а также более широкое и продуктивное использование музейных коллекций в идеологических и агитационных целях, повышение уровня областных, городских и районных музеев, решение задач по тематической реорганизации некоторых музеев. В каждом районе, городе и областных центрах были созданы краеведческие музеи. Усилилась работа по массово-идеологической пропаганде. Искусственно сократилась сфера музейной деятельности, ограничившись массово-идеологической работой, упростились методы и формы работы музеев. Значение культурных памятников, не соответствующих идеологии, было снижено. Уникальные особенности и индивидуальные черты музеев были унифицированы. Вопрос использования памятников в музейных экспозициях был неправильно решен, что оказало негативное влияние на развитие музеев в советский период. Различные изменения в системе музеев Узбекистана продемонстрировали рост интереса к музеям во всемирном масштабе и их неограниченные культурные возможности.

Одним из способов организации системы музеев при советской власти было создание централизованной системы музеев. Основной целью таких объединений было решение задач контроля и более широкого и продуктивного использования музейных коллекций в идеологических и пропагандистских целях, повышение уровня работы областных, городских и районных музеев, тематическая реорганизация отдельных музеев. К 1980-м годам в республике существовало 31 музей, из которых 17 были краеведческими, 3 — историческими, 3 — художественными, 2 — литературными и 1 — природоведческим музеем. В этом году в Самаркандском краеведческом музее, в музее Афросиаба были созданы новые экспозиции. Экспозиции краеведческих музеев в Сурхандарье, Кашкадарье и Ангрене были обновлены. В медресе Шердор в Самарканде открылась этнографическая экспозиция. Сформирован новый экспозиционный зал Андижанского областного краеведческого музея площадью 2 тыс. кв. метров. Общая экспозиционная площадь республиканских музеев в 1980 году

составляла 3.878 км², а к 1981 году увеличилась до 63.306 кв. метров. Из них для экспозиции было выделено 31.444 кв. метра (49 % от общей площади), для фондов — 7.121 кв. метр (11 % от общей площади). Музеи также добились значительных успехов в области массовой агитации и пропаганды. В этот период общий объем посещаемости музеев составил 3,6 миллиона человек. Среди них особенно выделялись следующие музеи: Музей Дружбы народов — 266 тысяч человек, Кокандский краеведческий музей — 144 тысячи человек, Бухарский музей — 618 тысяч человек, Сурхандарьинский музей — 103 тысячи человек. Наряду с традиционными формами коллективной работы постепенно внедрялись новые направления музейной деятельности, в том числе обслуживание посетителей, сотрудничество с другими художественными и культурными организациями, приобщение к деятельности политико-просветительских музеев. Активное участие в мероприятии приняли Музей дружбы народов, Ферганский краеведческий музей, Сурхандарьинский краеведческий музей, Бухарские музеи, Государственный музей истории культуры и искусств Узбекистана имени Акмаля Икрамова.

В 1981 году было проведено в общей сложности 56 608 экскурсий, которые посетили 1,6 миллиона зрителей, что составляет 46 процентов посетителей. Наибольшее количество экскурсий было организовано в Государственном музее истории культуры и искусства Узбекистана имени Акмаля Икромова – 14 666, в Музее-заповеднике «Ичан-Кала» – 9 679 и в Бухарском областном краеведческом музее – 7 625. В Республиканском музее природы – “Проблемы сохранения природы в Узбекистане”, в музее-заповеднике Ичан – Кала – “Искусство нового времени”, в Андижанском краеведческом музее – “Конституция-основной закон нашей жизни”. Было проведено 1327 лекций по музеям и 1829 лекций вне музея.

В 1981 году количество музейных работников составляло 1245 человек, из которых 439 были научными сотрудниками и экскурсоводами с высшим образованием, а 7 имели ученую степень. Поступления в бюджет музеев от оказанных услуг составили 3315 тыс. руб., а на деятельность музеев из бюджета было израсходовано 3348 руб. Некоторое развитие получила и деятельность передвижных выставок в музеях на территории республики. На основе темы” Узбекистан – Звезда Востока " Самаркандский государственный музей истории искусств и культуры организовал выставки в Самаркандском, Булунгурском и Нарпайском районах. В целях оказания методической помощи деятельности областных музеев в Музее дружбы народов был открыт отдел методической помощи. В нем были организованы научно-практические семинары по процессам оформления музейных предметов в народных музеях.

К 1981 году были созданы Самаркандский краеведческий музей, Дом-музей Сергея Бородина, дом-музей Мухтара Ашрафи, дом-музей Урала Тансыкбаева, дом-музей Ойбека. Мемориальный музей Ибн Сины в селе Афшана Бухарской области, Гулистанская картинная галерея Сырдарьинской области, Самаркандский государственный музейный заповедник и литературный музей имени Гафура Гуляма в городе Коканд. Наряду с

политической и научно– пропагандистской работой в музеях стали организовываться лекции. В музейных экспозициях также стали часто демонстрироваться предметы, связанные с религией. В качестве примера можно привести экспозицию Коран Усмана в Государственном музее истории Узбекистана. В музеях республики в том году было организовано несколько выставок: “Ислам и современность”, “Наука и религия”, “Курайская земля и небо”, “Ислам и женщина”. Эти выставки также проводились в колхозах, совхозах, на полях и в махаллях.

К 1982 году были открыты Самаркандский областной краеведческий музей, Самаркандский музей истории, Дом-музей С. Бородина в Ташкенте, Музей М. Ашрафи, Музей Ю. Фучика, Дом-музей У. Тансыкбаева, Дом-музей Ойбека, в Гулистане Сырдарьинской области были созданы Музей Ибн Сино и Галерея изобразительного искусства. В Самарканде создан государственный музей-заповедник. В Коканде открыт литературный музей имени Г. Гуляма. Завершено строительство нового здания Андижанского областного краеведческого музея с экспозиционной площадью2 тыс. кв. м.

Обновлены экспозиции Сурхандарьинского, Бухарского, Кашкадарьинского, Ангренского краеведческих музеев, Музея дружбы народов. В архитектурном памятнике Шердор в Самарканде открылась этнографическая экспозиция. Общая площадь музеев в республике по данным на 1980 год- увеличилось с 3878. кв.м. до 63306 кв. м. Экспозиция 31.444 кв.м. (49% от общей площади), 7,121 кв. м для хранения фондов. (11 процентов) площади. В 1980-1981 гг. фонд республиканских музеев увеличился на 60 тыс., а количество экспонатов превысило 1 млн.

К 1983 году новые музеи-заповедники были созданы в Бухаре и Самарканде. Общая площадь музеев республики по сравнению с 1982 годом составляет 26 188 кв.м. увеличилась на 100 000 кв.м. и составила 95 529 кв.м. Площадь, отведенная под экспозицию, составляет 36 924 кв.м., для фондов была выделена площадь 7615 кв. м. В 1983 году музейные фонды республики пополнились 11 079 экспонатами. К концу 1983 года количество предметов советской эпохи составило 264 564 000, что составляло 25% фонда.

Количество посетителей увеличилось в Самаркандском Государственном музее–заповеднике – 24587, Музее дружбы народов–2006, Государственном музее-заповеднике «Ичан-Кала» - 1 145, Бухарском областном краеведческом музее – 2183, в Андижанском областном краеведческом музее-1590. В 1983 году музеи посетили 5874,6 млн человек. Наблюдается рост числа посетителей в ряде музеев. Государственный музей заповедник Ичан - кала посетили 63,7 тыс. человек (721,6 тыс. человек за 1 год), Бухарский музей – 137,3 тыс. человек (838,8 тыс. человек за 1 год), Андижанский музей – 17,4 тыс. человек (40,6 тыс. человек за 1 год).

Нельзя сказать, что количество посетителей увеличилось во всех музеях. Потому что мы видим, что в некоторых музеях наблюдается снижение количества посетителей по сравнению с прошлым годом. Например, в Музее дружбы народов в 1982 г.-48 тыс. человек (1983 г. – 2397 тыс. человек), в Ферганском музее-59,6 тыс. человек (1983 г.–99,5 тыс. человек),в

Каракалпакском Государственном музее искусств – 24,8 тыс. человек(1983 г.-62,6 тыс. человек),в Андижанском музее – Сократилась до 10,5 тыс. чел. (1983 г.-22 тыс. чел.). В 1983 году в музеях республики было проведено 82 669 экскурсий, которыми посетило 2 316,7 млн. человек, что составляет 39% всех посетителей. Среди музеев, в которых было проведено наибольшее количество экскурсий, Самаркандский государственный музей-заповедник – 24587, музей-заповедник Ичан–Кала – 9963, музей Дружбы народов – 2424, Сурхандарьинский музей– 2575, Государственный музей искусств Узбекистана–5171, Республиканском музее природы-2029.

В музеях были организованы лекции на различные темы, посвященные современным процессам. Пропагандистских лекций, проведенных в музее - 1144 (в 1982 г. - 1094), лекций, проведенных вне музея - 2013 (1982 - 1919). Также активизировалось проведение различных выставок в музеях республики. В 1984 году 5 миллионов человек посетили 335 выставок, организованных музеями. Из них 256 были проведены за пределами города, в Намангане–44, в Республиканском музее природы -35, в Андижане -29, в Бухаре – 43, в Дирекции художественных выставок-19 выставок. Количество сотрудников, работающих в музеях республики, составило 1274 человека, из них научных сотрудников и экскурсоводов – 476, 7 человек имевшие ученую степень. В 1984 году в музеях было проведено 141 выставка, за пределами музея-309, в сельской местности-212. Вне музейной выставки посетили 1018,5 человек. В 1984 году музеи республики посетило 6195,3 тыс. зрителей, экскурсии прошли 42% посетителей-2601,8 тыс. человек.

Также в том году в музеях были проведены специальные научно-просветительские работы, посвященные особым дням и неделям. В Самарканде, заповедниках Бухарского государственного музея, Кокандском, Наманганском, Сурхандарьинском областных краеведческих музеях были проведены научно-просветительские мероприятия, такие как “День медицинского работника”, “День железнодорожников”, “День строителя”, “День школьника”, “Неделя колхозных работников”, “неделя сельской молодежи”. Кроме того, несколько крупных музеев республики стали заключать договоры о сотрудничестве со школой, колхозом и другими учреждениями. Для посетителей начались проводить тематические экскурсии. Из этого видно, что для посетителей, приезжающих по договору, стали проводиться тематические экскурсии. В 1985 году было проведено 113 696 экскурсий, которые обслужили 3077,9 посетителей. Всего было прочитано 1087 лекций на разные темы, 1753-за пределами музея и 854-в сельской местности. Всего на лекциях присутствовало 265,7 тыс. человек. За отчетный период 1985 года было проведено 471 местная и передвижная выставки. А в отчете по состоянию на 1 января 1986 года в музеях по всей республике участвовало в общей сложности 7064 тыс. человек.

В 1984 году в музеях Узбекистана активно проводились выставки. В Музее дружбы народов прошли выставки «Сила в единстве», «Единство в семье», «Ташкент–город мира и дружбы». Аналогичные выставки прошли в Государственном музее искусств Узбекистана, Кашкадарьинском областном

краеведческом музее, Сурхандарьинском областном краеведческом музее. В 1984 году в музеях было проведено 141 выставка, за пределами музея-309, в сельской местности-212. Выставку, которая проходила за пределами музея, посетили 1018,5 человек. В 1984 году музеи республики посетило 6195,3 тыс. зрителей, экскурсии прошли 42% посетителей-2601,8 тыс. человек.

К 1985 году в системе Министерства культуры Узбекистана насчитывалось 51 музей различных профилей, в том числе 3 исторических, 17 мемориальных, 18 краеведческих, 10 художественных, 2 литературных и 1 естественнонаучный. Также велась работа над постоянной экспозицией костюмов в Доме-музее Тамары Ханум. Утверждены архитектурно-художественные решения и тематическая экспозиция экспозиции Музея дружбы народов и Ферганского областного краеведческого музея. Общая площадь музеев республики составляет 105 тысяч квадратных метров. из них 42,5 тыс. кв.м. под экспозицию 8,2 тыс. кв.м. и территория была отведена под хранение денежных средств.

В 1985 году музейные фонды республики увеличились по сравнению с предыдущим годом на 23 тысячи единиц хранения, а общий объем музейного фонда составил 1 миллион 110 тысяч единиц хранения. В том году музеи сосредоточили все свое внимание на учете и правильном хранении экспонатов, постепенно музеи обеспечивались необходимыми предметами коллекционирования.

Музеи республики вели работу по обновлению экспозиции музея к 40-летию Победы в Великой Отечественной войне. Так, в Музей Дружбы народов поступили личные документы героев войны М.В.Черикова, Ш.У.Уснова, Н.Нурпесова. Ферганский областной краеведческий музей также собрал и экспонировал документы героев войны А. Саидбекова, С. Малабаева, С. Каримова.

Также в том году в музеях были проведены специальные научно-просветительские работы, посвященные особым дням и неделям. В Самарканде, заповедниках Бухарского государственного музея, Кокандском, Наманганском, Сурхандарьинском областных краеведческих музеях были проведены научно-просветительские мероприятия, такие как “День медицинского работника”, “День железнодорожников”, “День строителя”, “День школьника”, “Неделя колхозных работников”, “неделя сельской молодежи”. Кроме того, несколько крупных музеев республики стали заключать договоры о сотрудничестве со школой, колхозом и другими учреждениями. Для посетителей начались проводить тематические экскурсии. Из этого видно, что для посетителей, приезжающих по договору, стали проводиться тематические экскурсии. В 1985 году было проведено 113 696 экскурсий, которые обслужили 3077,9 посетителей. Всего было прочитано 1087 лекций на разные темы, 1753-за пределами музея и 854-в сельской местности. Всего на лекциях присутствовало 265,7 тыс. человек. За отчетный период 1985 года было проведено 471 местная и передвижная выставки. А в отчете по состоянию на 1 января 1986 года в музеях по всей республике участвовало в общей сложности 7064 тыс. человек.

В ноябре 1986 года в государственном музейном заповеднике “Ичан Кала” в городе Ургенч состоялось заседание Научно-методического совета Министерства культуры Узбекистана, на котором были рассмотрены вопросы открытия на базе музеев города Ташкента совместно с республиканскими научно-исследовательскими институтами сотрудниками музея практических курсов по историческому, краеведческому художественному экскурсоводству и с этого же года внедрены в практику.

В конце 1987 года в системе Министерства культуры Узбекистана начали действовать 53 музея различного профиля. Открылась новая экспозиция Дома-музея Г. Гуляма в Ташкенте. Обновлены экспозиции отделов советской истории Бухарского государственного музея-заповедника, Каракалпакского государственного краеведческого музея, Чирчикского городского краеведческого музея, краеведческих музеев Самаркандской, Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей. Новые экспозиции также начали создаваться в краеведческих музеях Андижана, Ферганы и Джизака. К этому времени расширялись и площади музеев. В 1987 году общая площадь музеев составляла 108 тыс. кв. м, из них 41 тыс. кв. м. для экспозиции потребуется около 11 тыс. кв.м. и были выделены средства на хранение. К концу текущего года было проведено около 400 выставок, более половины из которых были организованы в сельской местности. С годами качество выставок также возросло.

Музейные фонды также увеличились на 50 тысяч за счет обновляемых экспозиций и выставок в музеях, а фонды республиканских музеев увеличились на 1 млн. 300 тыс. экспонатов. К этому году в музеях возродилась научно-популярная работа. Музеи стали посещать более 11 миллионов человек в год. Также начали оказываться экскурсионные услуги прибывающим гостям и зрителям. Из этого видно, что в зависимости от уровня населения, школьников, студентов и иностранных гостей стали появляться экскурсии разного уровня. Было проведено 186 тысяч экскурсий, в которых приняли участие 1000 человек, прочитано около 4 тысяч лекций. Из них около 1,5 тыс. лекций было прочитано жителям сельской местности.

В музеях все еще имелись некоторые недостатки. Наиболее важной из них была нехватка специального музейного оборудования для идеальной организации и архитектурно правильной организации экспозиций и выставок в музеях. В связи с этим, в соответствии с постановлением Совета Министров Узбекистана от 11 декабря 1987 года №728 “О совершенствовании музейного дела в республике и его развитии” началось постепенное оснащение музеев. Прежде всего, он был оснащен видеомагнитофонами, телевизорами, звуковой аппаратурой, дисплеями и специальными компьютерами.

К 1989 году при министерстве культуры Узбекистана действовал 61 музей. Из них 21 краеведческий музей, 18 мемориальных музеев, 6 исторических музеев, 10 художественных музеев, 5 литературных музеев и 1 естественнонаучный музей. Деятельность музеев была направлена на создание экспозиции и выставок периода перестройки. При этом они стали отражать новые этапы переходного периода, изменения в обществе, новые методы

трансформации и активизации национальных традиций в искусстве и культуре.

При Самаркандском музее-заповеднике созданы Нуратинский и Пахтачинский районные краеведческие музеи, при Ферганском областном историко-краеведческом музее – Маргиланский музей литературы и искусства. А музей киноискусства перешел в ведение Министерства культуры Узбекистана. В 1989 году в доме, где он жил и творил Юнус Раджаби был открыт музей. (г. Ташкент, г. Улица Лопатина). Также в Ташкенте открылись Музей народной архитектуры и быта, медресе Кокалдаш, а в историческом жилом здании недалеко от массива Гульбазар открылась экспозиция национальных музыкальных инструментов.

Biroq, Rossiyada arxeologik merosni muzeylashtirishning eng keng tarqalgan, tarixan shakllangan shakli muzey-qo‘riqxona hisoblanadi.

Muzey-qo‘riqxona tarixiy-madaniy merosni saqlash va ulardan foydalanishning tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lib, muzey-qo‘riqxonada arxeologik obyekt to‘liq ochiladi, muzey muassasasining barcha faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni saqlash, o‘rganish va moslashtirishga qaratilgan. Yodgorlik keng doiradagi tashrif buyuruvchilar uchundir (tarix va arxeologiya sohasidagi mutaxassislar va oddiy sayyohlar uchun).

Arxeologik park - bu bizga G‘arbiy muzey an’analaridan kelib chiqqan tushuncha bo‘lib, dastlab muzey-qo‘riqxonaga qaraganda arxeologik merosni in situ (asl joyida) muzeylashtirishning erkinroq shaklidir.

Arxeologik parkda asosiy arxeologik ekspozitsiya majmuasini ushbu arxeologik majmuaning mavjudligi va faol rivojlanishi davrida hududda yashagan odamlarning hayoti va turmush tarzi bilan bog‘liq etnografik ekspozitsiya bilan to‘ldirishga ruxsat beriladi. Shuningdek, arxeologik merosni rekonstruksiya qilish va modellashtirish kabi muzeylashtirish usulidan foydalanishga ruxsat beriladi.

Bu turdagi muzeylarning paydo bo‘lishi XIX asrning 70-yillarida Shvetsiya va Norvegiyada bo‘lgan. Keyinchalik bu muzeylar Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham paydo bo‘lgan.

Bunday muzeylarni yaratish zarurati, ehtimol, XIX-XX asrlarda sanoatning faol o‘sishi, sanoat jamiyatining rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Ko‘plab xalqlarning turmush tarzi va an’analarini xavf ostiga qo‘ydi va shu bilan Yevropa davlatlarining tarixiy va madaniy merosi ulkan qatlamining yo‘q qilinishiga olib kelishi mumkin edi.

Bu holat shoshilinch choralar ko‘rishni talab qildi. Avvalo, yog‘och me’morchilik obyektlari va etnografik yodgorliklar saqlanishi kerak edi. Keyinchalik ma’lum bir madaniy jamoaning yoki davlat tarixining ma’lum bir davrining turmush tarzi va sharoitini aks ettiruvchi butun tarixiy-me’moriy majmualar, arxeologik yodgorliklarni yaratish rejalashtirilgan edi.

Umuman olganda, Jizzax viloyatida madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishda ilmiy jihatdan asoslangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Arxeologiya yodgorliklari nomlarini vazifasi bo‘yicha (tepa – Jizzax shahrida Qaliyatepa, qo‘rg‘on - Zomin tumanida Q‘org‘on, qoyatosh rasmlari - G‘allaorol tumanda Takalisoydagi qoyatosh rasmlari, ibodatxona - Baxmal tumanida Budda ibodatxonasi qoldig‘ini) muzeylashtirish Jizzax viloyati uchun turizm jozibasini yanada oshirgan bo‘ladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz hududida qadimgi davrlardan boshlab rivojlangan qishloqlar, shaharlar va sivilizatsiya markazlarining boy o‘tmishini arxeologik jihatdan tadqiq etish va tarixiy jarayonlarni tiklash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hududi tosh davridan boshlab o‘zlashtirilganligi, mamlakatimiz jahondagi ilk shaharsozlik va davlatchilik shakllangan markazlardan biri bo‘lganligi, tariximiz va madaniyatimiz chuqur ildizlarga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabrdagi «Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi 792-son qarori.
2. Шулепова Э.А. Музеефикация памятников как механизм использования культурного наследия в регионе. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. док. культ. Москва, 1998. -41 с.
3. Дятчина Е.А., Птухина И.С., Сохранение памятников культурного наследия/Conservation of cultural heritage. Construction of Unique Buildings and Structures, 2017, №4 (55). -P.95-114.
4. Спиридонова Т.И. Организационно-экономическая модель сохранения объекта культурного наследия: Дисс. на соис. учен. степ. к.т.н.: Спец. 08.04.01. Санкт-Петербург, 2016. 82 с.
5. Линч К. Образ времени / Пер. с англ. В.Л. Глазычева; Сост. А.В. Икопников; Пол ред. А.В. Икопникова. М.: Стройиздат. 1982. 328 с., ил. – Перевод изд.: The Image of the City / Kevin Lynch. – The M.I.T. Press.
6. Ильин О.Н. Инвестиции в сохранение объектов культурно-исторического наследия крупного города: Дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н.: Спец. 08.00.05. Санкт-Петербург, 2009. 188 с.
7. Эралиев Б., Остонакулов И., Акчаев Ф. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва

қадамжолари: Сирдарё ва Жиззах вилоятлари [Матн]/ - Тошкент. «Turon zamin ziyo», 2017.–Б.37-38.
8. Курязова Д. Ўзбекистондаги археологик объектлар ва уларни музейлаштириш йўли билан сақлаб қолиш масалалари. Ўтмишга назар. 2-қисм/Махсус сон. 2020. -Б.292-298.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-4068-son Qarori
10. Mukhamedova M.S. The role of Museuming the historical cities and ethnographic neighborhoods of Uzbekistan in cultural tourism. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281). VOLUME 02 ISSUE 09. Pages: 47-52
11. Постановление Кабинета Министров при Президенте Узбекской ССР, от 30.08.1979 г. № 612. «Об утверждении положения о главном научно-производственном управлении министерства культуры узбекской ССР по охране, реставрации, использованию памятников культуры и изобразительного искусства, строительству и ремонту новых памятников и монументов».
12. Каулен М. Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. — М.: Этерна, 2012. — 432 с. (61)
13. Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. М., 2012. С. 397.
14. Тишкин А.А., Гребенникова Т.Г. Современные формы актуализации археологического наследия. / Бобров В.В. (отв. ред.) Археологическое наследие Сибири и Центральной Азии (проблемы интерпретации и сохранения) // Материалы международной конференции. — Кемерово: Кузбассвузиздат, 2016. – 360 с.
15. Минеева И.М. Музеефикация археологического наследия на территории музея-заповедника «Ирендык» в Башкортостане: вопросы методологии // Наследие и современность. Альманах Института Наследия. М.: Изд-во Института Наследия, 2006. – Вып. 13. – 132–146 с.
16. Каулен М. Е., Сундиева А. А., Коссова И. М. Музейное дело России – 3-е издание (коллективная монография). // М.: Издательство ВК, 2010. – 403 с.
17. Медведь А.Н. Музеефикация памятников археологии в России (прошлое и настоящее). // М.: ГНОМ и Д, 2004. – С. 46 – 47.
18. Шульгин П.М. Историко-культурное наследие как особый ресурс региона и фактор его социально- экономического развития. // Мир России. Социология. Этнология. – СПб.: ВШЭ, 2004. – №2. – Т. 13. – 118 – 122 с.
19. Севан О.Г. Музеи под открытым небом в Европе. [Электронный текст] // Обсерватория культуры. М.: РГБ, 2006. – №3. – 60 – 61 с.

PEREMKULOV Jamshid
O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat
muzeyi bo‘lim mudiri,
katta ilmiy xodimi
peremkulov.j@history-museum.uz

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI REKREATSIYA MARKAZLARIDA INFRATUZILMA TARAQQIYOTI

Mazmuni: *Maqolada Toshkent viloyati hududidagi rekreatsiya markazlarining mustaqillikning dastlabki yillaridagi holati, u yerdagi shart-sharoitlar va zamonaviy infratuzilmalar bilan ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada hududda tashkil etilgan turizm yo‘nalishlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *rekreatsiya, turizm, agroturizm, ekoturizm, tarixiy-madaniy turizm, festivallar va boshqalar.*

Аннотация: *В статье анализируется состояние рекреационных центров на территории Ташкентской области в первые годы независимости, условия, которые там были, и проделанная работа по обеспечению их современной инфраструктурой. Кроме того, в статье освещены туристические направления, организованные в регионе.*

Ключевые слова: *рекреация, туризм, агро-туризм, эко-туризм, историко-культурный туризм, фестивали и др.*

Abstract: *The article analyzes the state of recreational centers in the Tashkent region during the early years of independence, the conditions that existed there, and the work done to provide them with modern infrastructure. In addition, the article highlights the tourism destinations organized in the region.*

Key words: *recreation, tourism, agro-tourism, eco-tourism, historical and cultural tourism, festivals, and others.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, shahar, tuman markazlari, shaharchalar va rekreatsiya markazlarida dam olish maskanlarini rivojlantirish, yashil zonalarni ko‘paytirish, ekologik muvozanatni saqlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi. O‘zR Prezidentining 2000 yil 26 aprelda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasida shaharsozlik va arxitekturani yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1], 2005 yil 26 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi viloyat, shahar va tuman markazlari qurilishida shaharsozlik normalarining bajarilishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [2], 2005 yil 30 avgustdagi “Shahar, shaharcha va qishloq fuqarolar yig‘inlarining bosh rejalarini ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [3] qarorlarida rekreatsiya markazlariga alohida urg‘u berildi. Unda rekreatsiya hududi atrof-muhitini hisobga olgan holda oqilona foydalanish, aholi punktlarida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, rekreatsiya markazlari infrastrukturasini tubdan isloh qilish, markaz hududida sport-

sog‘lomlashtirish majmualari va boshqa ijtimoiy soha ob’ektlarini ko‘paytirish orqali turizmni rivojlantirish masalalari o‘rin oldi[4].

Shu jumladan, Toshkent viloyatidagi rekreatsiya markazlarida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab dasturlar ishlab chiqildi. Mazkur dasturlarda viloyatdagi turizm imkoniyatlarini rivojlantirish va kuchaytirish, mahalliy va xorijiy turistlarni mintaqa madaniy-tarixiy merosi bilan tanitish, viloyatdagi rekreatsiya hududlarida yangi loyihalar asosida aholi dam olishi va turizmi uchun qulayliklarni kuchaytirish, transport hamda kommunal infrastrukturalarni zamonaviy texnologiyalar asosida rekonstruksiya qilish, yangi sayyohlik yo‘nalishlarni tashkil etish, shuningdek, turizm xizmatlarini sifatini oshirish va shuning asosida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish kabi masalalarga e’tibor qaratib kelinmoqda.

O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 20 sentyabrdagi “2013-2015 yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 259-sonli qarori qabul qilindi[5]. Mazkur qarorga ko‘ra, poytaxt viloyatida turizmni rivojlantirishning manzilli dasturi ishlab chiqildi. Mazkur qaror ijrosi tufayli, 2015 yilga kelib, viloyatda **turistik xizmatlar** 2012 yilga nisbatan 1,7 baravarga, ya’ni 22,317 mlrd. so‘mdan 37,4 mlrd. so‘mga oshdi. Sayyohlik xizmatlar eksporti 1,5 baravarga – 253,8 mingdan 372,5 ming AQSh dollariga o‘sdi. Turistlar soni o‘tgan yillar davomida 51,2 ming kishidan – 69,6 ming kishiga, shu jumladan, xorijiy turistlar soni 6300 kishidan 7300 kishiga o‘sdi. Shu bilan bir qatorda Toshkent viloyatida turistlar uchun infrastrukturalarni rivojlantirishga ham e’tibor kuchaydi. Viloyatdagi rekreatsiya markazlarida mehmonxonalar tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi. O‘tgan yillarda ularning soni 31 tadan 58 taga oshirildi. Ularda 2012 yilda 1317 ta o‘rin bo‘lgan bo‘lsa, 2015 yilga kelib bu ko‘rsatkich 2831 tani tashkil etdi[6].

Toshkent viloyati rekreatsiya markazlaridagi **mehmonxona va boshqa turizm infrastrukturalarini** qurish va rekonstruksiya qilish uchun 55,149 mln. AQSh dollari (shundan 39,267 mln. AQSh dollari tashabbuskorlar investisiyasi) ajratildi. 2014-2015 yillarda Toshkent viloyatidagi **madaniy-tarixiy meros ob’ektlari** holatini yaxshilash va restavratsiya qilish uchun 3,035 mln. AQSh dollari jalb etildi.

Toshkent viloyatida amalga oshirilgan mazkur dasturlar tufayli mintaqada turizm infrastrukturasi rivojlandi, sayyohlik xizmatlar turlari ko‘paydi, mintaqadagi turizm imkoniyatlarini namoyish qilish mumkin bo‘ldi, turistlar uchun zarur infrastrukturalar holati yaxshilandi, shuningdek, turizm sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari tashkil etildi. Dasturni amalga oshirishda jami 77,795 mln. AQSh dollari sarf etilgan bo‘lib, shundan 42,714 mln. AQSh dollari korxona va tashkilotlar mablag‘i, 26,376 mln. AQSh dollari bank kreditlari, 5,65 mln. AQSh dollari xorijiy sarmoyadorlar va 3,055 mln. AQSh dollari davlat byudjeti mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatdagi hususiy banklar Toshkent viloyatidagi rekreatsiya markazlarini rivojlantirish bo‘yicha loyiha tashabbuskorlariga imtiyozli kreditlar ajratdilar. Unga ko‘ra, Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasidan katta

bo‘lmagan foiz stavkasida (12 foiz), 5 yilga (12 oylik imtiyozli davr) berilishi belgilab qo‘yildi.

Mazkur dastur doirasida Toshkent viloyatidagi rekreatsiya korxonalarning moddiy-texnikaviy bazasini kuchaytirishga e’tibor qaratildi. 2013 yildan Toshkentdan Bo‘stonliq, Angren, Yangiobod, Parkent va boshqa rekreatsiya markazlariga qatnovchi yo‘nalishli avtobuslar soni oshirildi.

Shu bilan bir qatorda viloyatda quyidagi yangi sayyohlik yo‘nalishlari tashkil qilindi:

- **tarixiy** (Zangiota, Parkent va Oqqo‘rg‘on);
- **ekologik** – tabiat qo‘ynida dam olish (Bo‘stonliq, Parkent, Yangiobod);
- **sport va sog‘lomlashtirish** (Bo‘stonliq, Parkent, Yangiobod);
- **agroturizm** (Chinoz, Parkent) kabilar.

Ugom-Chotqol milliy bog‘iga muntazam ravishda ekskursiyalar tashkil etila boshlandi. Mazkur bog‘ 1990 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning umumiy yer maydoni 574 ming ga.ni tashkil etadi. U g‘arbiy Tyan-Shan tog‘li hududlarida dengiz sathidan 800-4000 metrdan ortiq balandliklarni o‘z ichiga olgan. Bog‘ hududida 3 ta sanatoriy, 4 ta pansionat, 100 dan ortiq dam olish maskanlari, 40 dan ortiq bolalar sog‘lomlashtirish maskanlari, 300 dan ortiq dala hovlilar, 2 ta ovchilik xo‘jaligi, 2 ta o‘rmon xo‘jaligi, 1 ta qo‘riqxona, 40 taga yaqin fermer xo‘jaliklari, 30 ga yaqin aholi punktlari hamda boshqa muassasa va tashkilotlar joylashgan[7]. Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i boshqarmasi tarkibiga Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi (35,7 ming ga), Ohangaron (183,2 ming ga) va Burchmullo (352,4 ming ga) o‘rmon xo‘jaliklari kiradi[8].

Shuningdek, Toshkent viloyatidagi rekreatsiya markazlarida turizmni yanada rivojlantirish maqsadida turli **festivallar** har yili o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi. Masalan, Parkent tumanidagi mahalliy uzumzorlarga har yili ekskursiya tashkil etilib, vino tayyorlash festivali o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, Bo‘stonliq va Chinoz tumanlarida baliq mahsulotlari festival-yarmarkasi, “Chimyon ekstrim” qishki sport o‘yinlari tog‘ bayram festivali, “Chimyon sadosi” nomli ekologik sayyohlik festivali kabilar o‘tkazildi. 2013 yildayoq turistlar uchun yo‘l belgilari, sayyohlik ob’ektlari joylashgan hudud xarita-chizmalari o‘rnatildi. 2014 yilga kelib, barcha madaniy va boshqa sayyohlik ob’ektlari aks etgan yagona ma’lumot stendlari ishlab chiqildi.

Rekreatsiya markazlarida infraturizm hamda xizmat ko‘rsatish va servis yo‘lga qo‘yildi. Xususan, Bo‘stonliq, Oqqo‘rg‘on, Parkent va Pskent tumanlarida dam oluvchi turistlar uchun transport xizmatlarini kengaytirish maqsadida Xojikent temir yo‘l vokzalidan rekreatsiya markazlariga yo‘lovchilarni tashish xizmatlari kengaytirildi, 10 ta sayyohlik avtobusi, yo‘nalishli taksi uchun 253 ta “Nexia” rusumidagi yengil avtomobil, 194 ta “Isuzu” rusumli avtobuslar sotib olindi.

Turistlar harakat yo‘nalishida **sanitar-gigienik markazlar** tashkil etishga katta ahamiyat qaratildi. Chimyon-Chorvoq rekreatsiya markazida 10 ta, Parkent tumanidagi rekreatsiya markazlarida 5 ta, Yangiobodda 3 ta, Tuyabo‘g‘iz suv ombori atrofida 2 ta markazlar qurildi. Har bir markaz o‘z navbatida 8 nuqtada joylashtirildi. Shuningdek, Chorvoq, Chimyon, Yangiobod va Kumushkon kabi

rekreatsiya hududlarida **shoshilinch va birinchi tibbiy yordam markazlari** tashkil etildi.

Loyiha doirasida Tuyabo‘g‘iz va Chorvoq suv omborlari etaklarida aholi uchun **cho‘milish zonalari (plyajlar)** barpo etildi. Mazkur zonalarda qutqaruv xizmatidan tashqari, yuvinish xonalari, soyabonlar, ovqatlanish, savdo va suzish anjomlari ijarasi kabi rastalar, sanitar-gigiena xonalari kabi barcha ob’ektlar qurildi.

Toshkent viloyatidagi **Yangiobod rekreatsiya markazi** faoliyati va ishlab chiqarish infrastrukturasini yaxshilash bo‘yicha 2014 yilda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, tog‘ chang‘isi anjomlarini ijaraga berish punktlari tashkil etilib, ovqatlanish shahobchalari qurildi. Bundan tashqari, bu yerdagi chang‘i va chana uchish maydoni 2500 metrga uzaytirilib, kanat yo‘lagi, tog‘ chang‘ichilari uchun mashg‘ulot maydonlari, kiyim almashtirish xonalari, chang‘i ustaxonalari kabi ob’ektlar qurildi, qor tozalovchi mashina sotib olindi, qor generatorlari o‘rnatildi.

Parkent tumaniga qarashli **Sumcha rekreatsiya markazida** ham infrasturturani rivojlantirish bo‘yicha 2015 yilda cho‘milish maydonlari rekonstruksiya qilindi. Markaz atrofidagi hududlar obodonlashtirildi. 220 o‘rinli mehmonxona va 50 nafar dam oluvchilarni sig‘dira oladigan kottedjlar qayta qurildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 6 sentyabrdagi 362-sonli qarori[9] qabul qilindi. Qarorda **Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi**ning tabiiy boyliklarini saqlab qolish va uni kompleks o‘zlashtirish, dam olish bazasini rivojlantirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishini jadallashtirish masalalariga e’tibor qaratildi.

Mazkur qaror asosida “Chotqol” aksiyadorlik kompaniyasi tashkil qilinib, uning Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi muhandislik tarmoqlari va dam olish ob’ektlaridan shartnoma asosida foydalanilishni ta’minlash, hududlar va sohil bo‘yi suvlarni maishiy axlat va chiqindilar tozalanishini tashkil etish, dam oluvchilarga, shu jumladan avtomobillar to‘xtash joylaridan foydalanganlik uchun belgilangan tartibda pulli xizmatlar ko‘rsatish kabi vazifalar yuklatildi.

2001 yil oxirida Chorvoq suv omborining 100 metrlik sanitariya zonasida joylashgan binolar va inshootlar buzilib ko‘chirildi. 2002 yilning I yarim yilligida G‘azalkent – Chorvoq – Baqacho‘l magistral kanalizatsiya kollektori, shu jumladan ikkita kanalizatsiya nasos stansiyasi va Ko‘priksoy ustidagi vant ko‘prik barpo etildi. Chimyonsoy kollektori qurilishi va Chirchiq kanalizatsiya tozalash inshootlari kengaytirildi, kurort-rekreatsiya zonasi o‘rmonzorga aylantirildi.

Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasida joylashgan turar joy va ma’muriy binolarning energiya ta’minoti (issiqlik ta’minoti va ovqat pishirish) manbalari bilan ta’minlandi.

Xo‘jakent temir yo‘l stansiyasida avtostansiya qurilishi tugallandi. Chorvoq suv omborining Baqacho‘l plyaj zonasida obodonlashtirish ishlari bajarildi. Chorvoq-Yusupxona avtoyo‘lini rekonstruksiya qilindi. Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasida o‘rmon daraxtlari va manzarali daraxtlarni joylashtirish sxemasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasida ob’ektlar qurayotgan tashkilotlarga qurilish uchun asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar import

qilishi uchun imtiyozlari berildi.

“Chotqol” aksiyadorlik kompaniyasi va muassislarning Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasi qurilishiga va uni rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan mablag‘lari soliqlarning barcha turlarini to‘lashdan istisno tariqasida uch yil muddatga ozod qilindi.

“Chotqol” aksiyadorlik kompaniyasi suvda qutqarish xizmatini binolar, suzish vositalari va maxsus g‘avvoslik anjomlari bilan ta’minlandi.

Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasidagi **Chimyon oromgohi** Toshkentdan 80 km shimoli-sharkda, Chotqol tog‘ tizmasining dengiz sathidan 1600 m baland qismida joylashgan. Mustaqillik yillarida Chimyon oromgohida sayyohlar, sportchilar va dam oluvchilarning dekabr-aprel oylarida qishki sport turlari bilan shug‘ullanishlari, qish ziynatidan bahramand bo‘lib salomatligini tiklashlari uchun sharoit yaratildi. Mehmonxona, restoran, kanat (osma) yo‘l va boshqa xizmat ko‘rsatish joylari bunyod etilib, foydalanishga topshirilgan. Chimyon oromgohida chang‘i va chanada uchish uchun uzunligi 300, 500, 800 va 1500 m, qiyaligi 25°-40° bo‘lgan trassalar barpo etilgan bo‘lib, Chotqol tog‘ tizmasida qorning sirpanchiqlik darajasi yaxshiligi bois uchun 2000 yilda Chimyon oromgohi yaqinida Beldorsoy havzasida «Beldorsoy» tog‘ chang‘i sporti markazi qurildi. Uning chang‘i uchish trassasi jahon standartlariga mos bo‘lgani uchun xalqaro chang‘i sporti federatsiyasi (FIS) tomonidan ro‘yxatga olingan. Chimyon oromgohi atrofidagi ajoyib qishki tog‘ manzarasi bu maskanga keluvchilarga zavq bag‘ishlaydi. Istiqlol yillarida Chimyon oromgohida 220 o‘rinli mehmonxona, kottejlar, 100 kishiga mo‘ljallangan restoran, uzunligi 700 va 2500 m. bo‘lgan 2 ta kanat (osma) yo‘l barpo etildi.

Chimyon rekreatsiya markazidagi kanat yo‘lagining yuqori qismiga ko‘taruvchi transport yo‘lagi 2015 yilda zamonaviy qurilma bilan qayta ta’mirlandi, boshqaruv punkti modernizatsiya qilindi.

Bugungi kunga kelib viloyatda jami 1055 sayyohlik ob’ekti mavjud bo‘lib, shundan 721 tasi tarixiy madaniy meros ob’ekti, monumental yodgorliklar, 67 tasi mehmonxona, 20 dan ortig‘i sanatoriy, sihatgoh va dam olish maskanlari hamda 247 ta boshqa yo‘nalishdagi turistik manzil va inshootlar turizm sohasida xizmat qilib kelmoqda[10].

So‘nggi yillarda O‘zbekistondagi rekreatsiya markazlarida turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish va ularga sayyohlarni jalb etish maqsadida mintaqa madaniyati, urf-odatlari, tabiati va taomlariga bag‘ishlangan videofilmlar yaratildi. Ularni ommaviy axborot vositalari va internet sahifalari orqali namoyish etish yo‘lga qo‘yildi. Rekreatsiya markazlari, ularning joylashgan o‘rni haqidagi to‘liq ma’lumotlar internet sahifalarida (Google Maps va boshqalarda) o‘z aksini topdi. Turli elektron ensiklopediyalarda mintaqadagi rekreatsiya markazlari tarixi, osoru-atiqalari haqidagi maqolalar, sayyohlik xaritalari chop etilishi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, bu borada har yili xorijiy OAV va chet el turoperatorlari uchun axborot-turizmi tashkil etildi.

Mintaqada turizm biznesi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar uchun har yili Toshkentda “Buyuk ipak yo‘lida turizm” halqaro sayyohlik yarmarkasi tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, milliy sayyohlik xizmatlar eksportiga

bag‘ishlangan xorijiy davlatlarda bo‘lib o‘tgan yirik xalqaro ko‘rgazmalarda mamlakatimizdagi rekreatsiya markazlari ham ishtirok eta boshladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasida shaharsozlik va arxitekturani yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 2595-sonli farmoni. 26 aprel, 2000 yil. http://lex.uz//pages/
2. “O‘zbekiston Respublikasi viloyat, shahar va tuman markazlari qurilishida shaharsozlik normalarining bajarilishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 62-sonli qarori. 26 aprel, 2005 yil.
3. “Shahar, shaharcha va qishloq fuqarolar yig‘inlarining bosh rejalarini ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 165-sonli qarori. 30 avgust, 2005 yil. http://lex.uz//pages/
4. Кучкарова М. Гигиеническая оценка городских рекреационных ресурсов и территорий в условиях стабильно возрастающей антропогенной нагрузки. // Экологический вестник. №11, ноябрь, 2010 г. С.9.
5. “2013-2015 yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi VM 259-sonli qarori. 20 sentabr, 2013 yil. http://lex.uz//pages/
6. Sarimsoqov E. Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i bioxilma-xilligi – barqaror taraqqiyot negizi. // Ekologiya habarnomasi. 1-son. 2014 yil. 17-bet.
7. Sarimsoqov E. Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i bioxilma-xilligi – barqaror taraqqiyot negizi. // Ekologiya habarnomasi. 1-son. 2014 yil. 15-bet.
8. O‘sha yerda, 17-bet.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 6 sentyabrdagi “Chimyon-chorvoq kurort-rekreatsiya zonasining tabiiy boyliklarini saqlab qolish hamda dam olish va sog‘lomlashtirish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 362-sonli qarori
10. Madiyeva R. Toshkent viloyatida sayyohlik imkoniyatlari kengaymoqda. // www.manzur.uz 11.01.2019.

ТЕМИРОВ Ф.У.
Бухоро давлат университети
т.ф.ф.д.(PhD) доцент

МАНҒИТЛАР СУЛОЛАСИ ДАВРИДА БУХОРОДА ЗАРДЎЗЛИК ВА ЗАРГАРЛИК САНЪАТИ

Мазмуни: *Ушбу мақолада зардўзлик ва заргарлик санъати тарихи, унинг келиб чиқиши, 1756-1920 йилларда Бухорода ҳукмронлик қилган Манғитлар сулоласи даврида ҳунармандлик анъаналари зардўзлик ва заргарлик санъати ҳақида, амирлар, давлат амалдорларининг махсус кийим кечаклари, аёлларнинг тилла-тақинчоқлари, билакузук, зебу-зийнат заргарлик буюмлари, зирак, балдоқ ва бошқалар тўғрисидаги маълумотлар илмий жиҳатдан таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *Манғитлар, ҳунармандчилик, зардўзлик, заргарлик, тўғнағич, зирак, балдоқ, билакузук, тўқимачилик, этикдўзлик, қандолатчилик, дурадгорлик.*

В данной статье научно проанализирована история золотошвейного дела и золотошвейного искусства, его происхождение, традиции национального ремесла, золотошвейное дело в период правления Мангытской династии в 1756-1920 годах, специальные одежды эмиров, высокопоставленных государственных чиновников, женские золотые украшения, браслеты, драгоценности, серьги на основе исторических источников.

Ключевые слова*: Мангыты, ремесло, золотошвейное дело, ювелирное дело, вязание, серёжка, браслет, ткачество, сапожное ремесло, кондитерское, столярное дело.*

This article deals with the history of goldsmithing and jewelry, its origins, the traditions of handicrafts during the Mangit dynasty in Bukhara in 1756-1920, the art of goldsmithing and jewelry, special clothing of emirs, government officials, women's gold jewelry, bracelets, ear-ring, baldness, etc. have been scientifically analyzed.

Keywords*: Mangits, handicrafts, goldsmithing, jewelry, knitting, bracelets, bracelets, textiles, shoemaking, confectionery, carpentry.*

Ўзбек заргарлиги жуда қадимий тарихга эга. Унга ибтидоий жамоа тузуми даврида асос солинган. Археологик топилмалардан маълумки, заргарлик санъати жуда қадимий санъат бўлган. Тош асрининг сўнгги даври неолит (янги тош даври)даёқ (мил.авв. VI-III минг йилликнинг охирида) шилдироқ мунчоқлар, ҳар хил тошлар, чиғаноқ, ҳамда суяклардан ясалган безаклар топилган. Бу эса заргарликнинг ривожланганлигидан далолат беради. Икки дарё оралиғида жойлашган Моваунаҳрда ажойиб ва қимматбаҳо заргарлик буюмлари ишланган. Мис даврида тўғнағич, зирак, балдоқ, билакузук, шилдироқ ва бошқалар металлдан ҳаттоки олтиндан ишланадиган

бўлди.

Эрамизгача бўлган I-асрдан бошлаб эрамизнинг VIII-асригача Айритом, Афросиёб, Далварзинтепа, Холчаён, Болаликтепада чиройли ҳайкал/девор безаклари орқали заргарлик санъати ривожланганлигини кўриш мумкин. Хоразмдаги Тупроққалъа деворларидаги тасвирлардан ўша даврдаги аёллар қулоқларига нафис зирак таққанликлари маълум бўлган.

Ўрта Осиёда ҳам зардўзлик жуда қадимдан ривожланиб келаётган халқ амалий санъати турларидан биридир. Бухоро қадим замонлардан буён ҳунармандчилик ишлаб чиқариш маркази бўлиб келган, у ерда ҳунармандчиликнинг юздан ортиқ тармоқлари бўлган. Манбаларнинг гувоҳлик беришича, X асрдаёқ Бухоро Ўрта Шарқнинг энг йирик тўқимачилик марказларидан бирига айланиб улгурган.

Бухоро амирларининг аксарият чопон (тўн)лари зардўзлик услубида тикилган. Масалан биргина Бухоро амири Музаффархоннинг зардўзи-заминдўзи тўнини тикиш ишлари 5 ой давом этган бўлиб 3 та моҳир ҳунарманд (бир хил услубдаги) биргаликда тикишган. Тўннинг оғирлиги 10 кгдан ортиқ бўлиб, яна устма уст кийилган. Зардўзлик-ҳунармандчиликнинг қадимий турларидан бири бўлиб, зар ип билан нақш (кашта) тикиш касби ҳисобланади.

Бухоро хонлиги даврига келиб ҳам Бухорода ўзига хос ипакчилик мактаблари фаолият юритган. Шу даврларда Бухорога ташриф буюрган чет эллик савдогарлар, элчилар ва сайёҳлар бежизга бухороликларни “Шарқ парижликлари” деб номлашмаган.

Бухоро миллий кийимлари Ўзбекистоннинг бошқа минтақалари кийимларидан серҳашамлиги ва ноёб зардўзи кашталари билан ажралиб туради. Бухоро ўзбеклари миллий кийимларнинг ноёб намуналари аҳоли ҳар бир тоифасининг ижтимоий аҳволидан келиб чиқиб тақдим этилган. Анъанавий миллий кийимларда қўшни давлатларнинг маданий таъсири кузатилади, унинг асосий шакллари ва айрим элементлари асрлар давомида яратилган. 1920 йилгача Бухорода 300 дан 350 нафаргача зардўз уста ишлаганлиги маълум

Бухоро воҳаси маҳаллий аҳолисининг XIX-XX асрларга оид кийимлари, зардўзлик буюмлари ташкил этади. Бухоро амирлиги тугатилгач ҳукумат ўтмишдан мерос бўлиб қолган осори-атиқаларга эгалик қилиш мақсадида уларни бир жойга йиғиш вазифасини биринчи масала сифатида қўйди. Биринчи ташкил этилган музей фондида жамланган ашёлар сони 168 та бўлган.

Ўрта Осиёда зардўзлар бошка хунармандчилик каби махсус ташкилотга уюшган эди. Улар устидан назорат килиб турадиган махсус ташкилот бўлган. Цех уставига ўхшаш рисолалари бўлиб, у диний расм-русумларга ҳамда урф-одатларга амал қилишни талаб этар эди. Зардўзларнинг кўпчилиги теварак атрофдаги гузарларга яқин жойларда яшар эдилар. Ўзи зардўзи санъати билан факатгина эркаклар шуғулланган. Аёл киши шариат коидаларига биноан, уйнинг ичкарисидан чикмаслиги лозим бўлган. Шунинг учун дин пешволарининг кўрсатмаси билан аёллар зардўзлик санъатига яқинлаштирилмаган. Ҳатто, аёл киши зардўзлик билан машғул

бўлса, зар иплар дархол кораяди, деган афсона ҳам тўқилган.

XIX ва XX аср бошларида каштачилик санъатининг бир тури бўлган зардўзлик Бухоронинг ўзига хос хусусиятини акс эттирган. Аслар давомида шаклланиб, мазмунан бойиган бу маънавий хазинанинг асосий қисмини халқ амалий санъати ташкил этади. Халқ яратган ҳунармандчилик турларининг бундай юксак санъат даражасига эришуви, ўтмишдан ҳозиргача узлуксиз давом этиб келаётган изланишлар самараси эканига тарих гувоҳлик беради. Мазмун жиҳатдан халқчил бўлган ва қимматбаҳо матодан таёрланадиган зардўзи кийимлар маҳаллий аҳолининг турли табақалари ўртасида кенг тарқалган ипак ип билан кашта тикишга қараганда нозик дидни талаб қилган. Бу кийим-кечаклар асосан амир саройдагиларнинг эҳтиёжи учун тикилган, баъзангина шаҳардаги бой аёнлар учун таёрланган. Эркаклар зар билан тикилган тўн, камзул, чакмон, чалвор, пояфзал, белбоғ, салла, кулоҳ кийишган.

XVIII охири ва XX аср бошаларида, яъни 1785 йилдан то 1920 йилгача Бухорода хукумронлик қилган манғитларнинг охирги сулоласига тааллуқли бўлган зардўзи кийимлари ҳозирги кунда бизгача етиб келган ягона ёдгорлик нусхаларидир. Адиб Садриддин Айнийнинг ёзишича, Бухорода 1889-1917 йилларда яшаган даврларида шаҳар ҳаётини ҳам чуқур ўрганади. У шаҳар хўжалигининг асосий тармоқлари бўлмиш ҳунармандчилик ва савдо-сотиқни бевосита кузатиб, бу борада ҳам қизиқарли маълумотларни беради. Хусусан, тўқимачилик, дегрезлик, этикдўзлик, қандолатчилик, дурадгорлик ва бошқа соҳалар тўғрисидаги маълумотлари эътиборга лойиқдир. Бухоро шаҳридаги бир қанча гузарлар, ҳунармандчиликдаги айрим технологик жараёнларни ҳам тасвирлаб ўтади. Шу билан бирга асарда Бухоронинг қадимий туманлари бўлган Шофиркон, Ғиждувон ва Вобкентнинг кўҳна ва тарихга бой бўлган Маҳаллаи Боло, Боғи Афзал, Тезгузар, Қораёғоч, Жилвон, Деҳнави Абдуллажон, Муҳаммад Боқи, Вардонзе қўрғони, шунингдек, Соктаре, Зарангари, Розмоз ва бошқа қишлоқларнинг турмуш тарзи, ҳунарманд ва деҳқончилиги, урф-одатлари ва маданияти ҳақида ҳам муҳим маълумотларни келтиради.

Бухоро манғит амирларидан Амир Насруллодан (1827-1860) бошлаб анчагина зардўзи кийимлар сақланиб қолган. Буюмларнинг кўпчилиги 1895 йилдан 1911 йилгача ҳукумронлик қилган амир Абдулаҳадхонга мансубдир, зеро бухоролик каштачиларнинг зардўлик санъати шу даврда гуллаб яшнаган деб ҳисобланади.

Бухорода сарой зардўзлик устахоналари бўлиб, улар аркда пошшолик биноларида, олий давлат амалдорларнинг ҳовлиларида жойлашган бўлиб, амир хазинаси томонидан таъминланиб турилган. 1860-1885 йилда саройда битта, 1885-1911 йилларда иккита устахона бўлган. Биринчи устахона давлатнинг бош вазири кушбегининг пошшолик уйида, иккинчиси амирнинг молия, хамда солик ишларини юритувчи закотчининг уйида эди. Кози Калон Бадриддиннинг уйида ҳам зардўзлик устахонаси бор эди. Унга подшоҳ рухсат бериб сарой устахоналари даражасида хуқуққа эга эди. Қози Бадриддиннинг уй устахонасида амирнинг махсус рухсатномаси билан

ҳар хил совға салом тайёрланар эди. Пошшолик зардўзлик устахонаси кушбеги ихтиёрида бўлган. Буюмлар миқдорининг қанча бўлишидан қатъий назар ҳар бир устахонада кунда йигирмадан қирк кишигача ишлаган.

XIX-XX аср бошларидаги зардўзлик ишида четдан келтирилган турли хил фабрика материаллари сингари махаллий жойдори газламалардан хам фойдаланилган. Бизгача етиб келган зардўзлик материалларининг жуда кўпчилиги, асосан, эркаклар чопонолари четдан келтирилган бахмаллардан тикилган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Альмеев Р.А. Бухара город музей. Т.:Фан. 1999й С-20
2. Вамбери А. Путешествне по Средней Азни (Из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву. Бухару и Самарканд - М., 1867.С-145
3. Гончарова П.А. Бухорода зардўзлик санъати 1986 й.
4. Дженкинсон А. Путешествия в Среднюю Азию 1558-1560 гг.//Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке Л.:ОГИЗ 1932. С-193
5. Бухорода зардузлик санъати” П.А.Гончарова.1986 й.

XOLIQOV Nodirjon Abduxalil o‘g‘li

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti assistenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

nodirjon.kholikov@univ-silkroad.uz

SAMARQAND VILOYATI TURISTIK SALOHIYATIDA MUZEYLARNING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzey tushunchasi haqidagi umumiy va olimlar fikrlari o‘rganilib, muallif tomonidan tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, Respublikamizda, xususan, Samarqand viloyatida joylashgan muzey obyektlarining statistik ko‘rsatkichlari jadval va diagramma ko‘rinishida keltirilib, bu bo‘yicha mulohazalar yuritilgan. Ushbu mulohahazalar asosida taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, turist, muzey, ko‘rgazma, eksponat.

Аннотация: В данной статье изучаются и анализируются общие и научные взгляды на понятие музея. При этом в виде таблиц и диаграмм представлены статистические показатели музейных объектов, расположенных на территории нашей Республики, в частности в Самаркандской области, и даны комментарии по этому поводу. На основе этих комментариев разрабатываются предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: Туризм, турист, музей, выставка, экспонат.

Abstract: This article studies the general and scholarly views on the concept of a museum and analyzes them. At the same time, presented statistical indicators of

museum objects located in our Republic, in particular in the Samarkand region in the form of tables and diagrams. The author made comments on this. Based on these comments, the author developed some proposals and practical recommendations.

Keywords: tourism, tourist, museum, exhibition, exhibit.

Kirish

So‘ngi yillarda turizm sektorini avvalgi maqomiga yetkazish, zamon talabidan kelib chiqib, yangi turmahsulotlar yaratish, tur va sayohatchilar xavfsizligini ta’minlash kabi ishlarda hamda sohani yangi, raqobatbardosh, zamonaviy kadrlar bilan ta’minlash, ilmiy izlanishlar olib borish va uni amaliyotga tatbiq etish, taklif-tavsiyalar ishlab chiqish kabi mezonlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham ushbu sektorning barqarorligini ta’minlash, iqtisodiyotning lokomotiv sohalaridan biriga aylantirish, O‘zbekiston Respublikasi turizm xizmatlari eksportini ko‘paytish hamda sohaning mamlakatimiz YaIM dagi ulushini oshirish borasida ham salmoqli ishlar bajarilmoqda. Ushbu sharoitda yurtimizdagi muzeylar hamda u yerda joylashgan qimmatli moddiy merosimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab “Muzey” terminining ma’nosi haqida so‘z yuritamiz. Muzey so‘zi lotincha “museum”, yunoncha “museion” (muzalar ibodatxonasi) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, san’at, texnika, tabiat namunalarini tarixiy va ilmiy-tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsalarni yig‘ish, saqlash, o‘rganish va xalqqa namoyish qilish bilan shug‘ullanadigan muassasa sifatida [1] ta’riflanadi. Muzey – bu madaniy-tarixiy, tabiy-ilmiy qadriyatlarni aniqlash, muzey predmetlari vositasida axborotni to‘plash va tarqatish uchun mo‘ljallangan tarixiy belgilangan, ko‘p qirrali ijtimoiy axborot muassasadir[2].

Bizning fikrimizcha, muzey – ma’lum bir xalq va yoki millatning o‘tmishi, moddiy-madaniy merosi haqida ma’lumot beradigan turistik obyektdir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot usullari

A.S. Yakubovning fikricha, “Muzeyning asosiy belgisi – ilmiy asosda tashkil etilgan va hisobga olish lozim bo‘lgan muzey predmetlarini to‘plash, saqlash, konservatsiyalash, muzeyshunoslik va sohaviy fanlarning ilmiy metodlari bazasida tadqiq qilish va ilmiy, ta`limiy-tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishlardan iborat bo‘lib, 1876-yil O‘rta Osiyoda birinchi muzey tashkil topgan va shundan e’tiboran O‘rta Osiyoda bosh muzeyning mavjudligi rasman tan olingan[3].

Wikipedia sayti ma’lumotlariga ko‘ra muzeylar[4] xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san’at asarlari jamlanadi, shu bilan birga, yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo‘lgan tarixiy qimmatga ega qo‘lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi hamda muzeyning o‘ziga xos ilmiy ommaviy va tarbiyaviy shakllari — ekspozitsiya, ko‘rgazmalardir.

Tadqiqot davomida analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, kuzatish, qiyoslash, statistik va iqtisodiy tahlil kabi usullarni qo‘llagan holda o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar

https://www.advantour.com/ platformasiga ko‘ra[5] Samarqand shahrida quyidagi san’at galereyalari va hunarmandchilik markazlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1. Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi;
2. Xalqaro tinchlik va birdamlik muzeyi;
3. Mirzo Ulug‘bek memorial muzeyi;
4. Madaniyat tarixi muzeyi;
5. Vinochilik muzeyi;
6. “Happy Bird” san’at galereyasi;
7. “Chorsu” san’at galereyasi;
8. Valentina Romanenko badiiy ustaxonasi.

Yuqorida sanab o‘tilgan muzeylarda qadimiy ashyolar: eski tangalar, zargarlik buyumlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kulolchilik buyumlari, freskalar, hattoki ibtidoiy mehnat qurollari kabi eksponatlar saqlanadi. Quyidagi jadvalda 2019-2023-yillarda Samarqand viloyatidagi muzey hamda ko‘rgazmalarga amalga oshirilgan tashriflar haqidagi statistic ma’lumotlar bilan tanishamiz (1-jadval).

1-jadval

2019-2023-yillarda Samarqand viloyati muzeylariga tashrif buyuruvchilar haqida ma’lumot [6]

№	Muzeylar nomi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi	9 683	4 603	11 119	15 096	11 302
2	Viloyat o‘lkashunoslik muzeyi	9 842	1 695	7 511	6 836	12 099
3	Mirzo Ulug‘bek muzey-majmuasi	575 626	47 836	165 229	186 355	212 626
4	Afrosiyob muzeyi	75 094	3 259	20 069	38 810	54 072
5	S. Ayniy uy-muzeyi	1 806	1 243	4 349	6 450	5 200
6	Kattaqo‘rg‘on shaxar tarixi muzeyi	8 331	2 997	7 150	9 464	6 385
7	Ishtixon tuman tarixi muzeyi	4 830	1 300	3 480	3 072	1 871
8	Paxtachi tuman tarixi muzeyi	3 113		3 834	5 455	2 539
9	Ergash Jumanbulbul yodgorlik muzeyi		250		2 101	1 062
10	Maxmudxuja Bexbudiy muzeyi				418	297
11	Buyuk Ipak Yo‘li ko‘rgazmasi					488
	Muzeylar bo‘yicha jami	**688 325**	**63 183**	**224 479**	**274 057**	**307 941**

1-jadval ma’lumotlariga asosan, 2019-2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek muzey-majmuasiga eng ko‘p tashrifchilar soni kuzatilgan bo‘lsa, Ergash Jumanbulbul

yodgorlik muzeyi, Maxmudxuja Bexbudiy muzeyi hamda Buyuk Ipak Yo‘li ko‘rgazmasi kabi obyektlarga tashrifchilar soni 2019-2021-yillarda deyarli kuzatilmagan.

Turizm sohasida asosiy potensialimizdan biri bo‘lgan muzeylar, Sharqning zamonaviy ustalari asarlarini namoyish etuvchi turli san’at galereyalari va hunarmandchilik markazlari muhim o‘rin tutadi. Ularning ko‘rgazmalarida rasmlar, haykallar, yog‘och, loy va metalldan yasalgan buyumlar namoyish etiladi. Quyidagi rasmda 2021-2023-yillarda Samarqand viloyatidagi muzeylar statistik ma’lumotlari diagrammalar ko‘rinishda taqdim etilgan (1-rasm).



1-rasm. 2021-2023-yillarda Samarqand viloyati muzeylariga tashrif buyuruvchilar sonining grafik ko‘rinishi [7]

1-rasm ma’lumotlarini tahlil qilamiz, Mirzo Ulug‘bek muzey-majmuasi, Afrosiyob muzeyi kabi obyektlarga tashriflar 2021-2023-yillar mobaynida o‘sish trendini ko‘rsatgan bo‘lsa, O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, S. Ayniy uy-muzeyi, Kattaqo‘rg‘on shaxar tarixi muzeyi, Paxtachi tuman tarixi muzeyi kabilarda turistlar tashrifi 2021-2022-yilda o‘sib, 2023-yilga kelib pasayish tendensiyasida bo‘lgan. Viloyat o‘lkashunoslik muzeyi hamda Buyuk Ipak Yo‘li ko‘rgazmasidan tashqari qolgan muzeylarda tashrifchilar soni 2021-2023-yillar mobaynida to‘liq kamayib borganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ushbu tahlil natijasi Samarqand viloyatidagi muzey obyektlardan samarali foydalanish darajasini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi. Bunga erishish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, turistlar tomonidan obyektlarni tomosha qilish uchun sarflanadigan o‘rtacha vaqtni ko‘paytirish lozim. Agar ushbu muddatni hech bo‘lmaganda har bir eksponat uchun 20 soniya miqdorida ko‘paytirganimizda edi, natija ko‘rsatkichi har bir turistdan yana ma’lum bir soatga oshgan bo‘lar edi.

Ikkinchidan, xorijiy turistlarning Samarqand viloyatida o‘rtacha qolish muddatining oshishi bir tomondan muzeylarga bog‘liq. Turistlar uchun barcha

muzeylarimizda yuqori sharoitlarni va infratuzilmani ta’minlash orqali ularning tashriflar sonini ko‘paytirishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida viloyat Yalpi Hududiy Mahsuloti hamda Turistik xizmatlar eksporti darajasini oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Samarqand shahri xorijiy va mahalliy turistlarning tashrifi hamda ularni joylashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha tumanlarga nisbatan yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda. Fikrimizcha buning asosiy sababi, infratuzilma hamda ziyorat obyektlarining aksariyati Samarqand shahrida joylashganligi va logistika xarajatlari bilan bog‘liq. Tumanlarda ham kerakli infratuzilma yaratilib, ziyorat obyektlari turistlar orasida ommaboplashtirilsa, o‘sha yerda mehmonlarni joylashtirish markazga kelib ketishdan ko‘ra arzonroqqa tushadi. Shuningdek, tumanlar iqtisodiyotida ham turizm xizmatlari eksporti rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Madvaliyev tahriri ostida O‘zbek tilining izohli lug‘ati “M” harfi 630-bet
2. A.S. Yakubov “Muzeyshunoslik fanidan ma’ruza matni” Samarqand davlat universiteti, Samarqand-2015, 4-bet
3. A.S. Yakubov “Muzeyshunoslik fanidan ma’ruza matni” Samarqand davlat universiteti, Samarqand-2015, 4,14-betlar
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey
5. https://www.advantour.com/uzbekistan/museums/samarkand-museums.htm
6. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan
7. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

XASANOVA Nargiza Sa’dullayevna,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,
“Muzeyshunoslik” kafedrasi v.b. dotsenti,
san’atshunoslik bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

MUZEYSHUNOSLIK TAMOYILLARI: MADANIY MEROSNI TADQIQ QILISH, AMALGA OSHIRISH, SAQLASH VA TARG‘IB QILISH

Annotatsiya: *Maqolada muzeylar yodgorliklarini saqlash va namoyish etish masalalariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada muzeylarning madaniy va ijtimoiy roli va ularning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy marketing usullari tahlil qilinib, uni amalga oshirish usullari haqida muallifning fikr mulohazalari o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy meros, yodgorliklar, ijtimoiy-madaniy muassasa, muzeylar, multimedia dasturlari, innovatsion yondoshuv.*

Аннотация: *В статье рассматривается сохранения и экспонирования музейных памятников. Также анализируется культурная и социальная роль музеев и современные маркетинговые методы повышения их эффективности, а также излагается мнение автора о методах его реализации.*

Ключевые слова: *культурное наследие, памятники, социально-культурные учреждения, музеи, мультимедийные программы, инновационный подход.*

Abstract: *The article examines the preservation and exhibition of museum monuments. It also analyzes the cultural and social role of museums and modern marketing methods to improve their effectiveness, and presents the author's opinion on the methods of its implementation.*

Keywords: *cultural heritage, monuments, socio-cultural institutions, museums, multimedia programs, innovative approach.*

Madaniy merosning davlat va mintaqaviy miqyosda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga faol kiritilishi, tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish mamlakatimiz uchun muhim masalalardan hisoblanadi. Shahar tarkibidagi zamonaviy muzey majmualarining arxitektura va fazoviy tashkil etilishi, jamoat joylarining bir qismiga aylangan bunday muzey va tarixiy, arxeologik majmualarning shakllanish xususiyatlari, jamoat markazi tarkibida bo‘lganligini inobatga olgan holda yodgorliklarni zamonaviy jamoat markazlarini rejalashtirish tarkibiga kiritish bugungi kunda madaniy merosni yangilashning eng samarali usullaridan biri hisoblanibgina qolmay ushbu tajriba allaqachon jahon tajribasida samarali foydalanib kelinayotgan jarayonlardan biri sanaladi.

Buning natijasida madaniy yodgorliklar shaharning yangi madaniy markazining bir qismiga aylanadi. Tarixdan ma’lumki yurtimiz madaniyati turli yo‘nalishlarni – adabiyot, din, san’at, me’morchilikning barcha bosqichlqrini bosib o‘tgan yuksak mamlakatlardan biri hisoblanadi. Buni bugungi kun jahon hamjamiyati ham tan olmoqda. Misol qilib muzeylarimizda saqlanib kelayotga turli asrlarga tegishli osori-atiqalarimiz jahonning dunyoga mashhur muzeylarida namoyish qilib kelinmoqda.

Bu borada O‘zbekistonda madaniy meros obyektlari, muzeylarni yangi zamonaviy yondoshuvlar asosidagi rivojlanishiga doir harakatlar, chora-tadbirlar olib borilishi reformaga muhtoj mavzulardan biridir. Zamonaviy muzeylarning holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bir nechta muzeylarni bitta fazoviy tuzilishga birlashtirish va yirik shahar majmualari sifatida muzey va madaniy klasterlarning paydo bo‘lishidan iborat aniq ifodalangan tendentsiya mavjud. Dunyo madaniy merosi yodgorliklari, muzeylarning rivojlanishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, muzeylar o‘z hududini kengaytirishga, uni yagona madaniy-savdo majmuasi sifatida boshqarishga harakat qilmoqda.

Muzey, qo‘shni me’moriy inshootlar, landshaft, ishlab chiqarish, oziq-ovqat va ko‘ngilochar sanoat zonalari yagona bir butunga birlashtirilgan. Muzey shahar, shahar yoki qishloq landshafti bilan aloqa o‘rnatishga intiladi, unga moslashishga harakat qiladi, chunki bu o‘ziga xos dunyo bo‘lib, uning mazmunini idrok etish uchun alohida yondoshuvni talab qiladi. Ushbu munosabatlar muzey binosiga yaqinlashganda paydo bo‘ladi, u kompozitsion jihatdan atrofdagi landshaft bilan bir butunlikni, uyg‘unlikni tashkil qilishi kerak. Muzey shahar to‘qimalariga va tabiiy muhitga kirib, “tarqalgan” ko‘rinadi. An’anaviy muzey makonining atrof-muhitga uyg‘unligi va singib ketishi bilan yangi madaniy landshaftni shakllantiradi. Muzeyning yangi qiyofasini shaharning zamonaviy faol jamoat

maydoni sifatida taqdim etish mumkin. Bunday strategiya shaharsozlik nuqtai nazaridan muzeylarning zamonaviylikka kiritilib, shahar jamoat joylarining muhim elementiga aylanishiga olib keladi.

Xalqimizning qadimiy tarixidan so‘zlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, o‘rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish g‘oyat muhim vazifa. Milliy davlatchiligimiz tarixini o‘zida aks ettirgan va kelajak avlodlarga moziydan xabar beruvchi bunday yodgorliklarni, tarixiy-madaniy obidalarni asrash har bir fuqaroning burchidir. Bu yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat va daxldorlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Har yili dunyoda 18 aprel – Xalqaro yodgorliklar va obidalar kuni sifatida nishonlanadi.

O‘zbekistonning barcha hududlarida madaniy meros yodgorliklari bo‘lib, ushbu majmualarni jahon tajribasini qo‘llagan holda muzeylashtirish, ularni muhofazasi, konservatsiya va restavratsiya jarayonlarini amalga oshirish har qachon dolzarb bo‘lib kelgan. Ularning aksariyati mahalliy aholi o‘rtasida, uzoq tarixga ekanligi, ulardagi har bir asori-atiqa naqadar qimmatli ekanligi to‘g‘risida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, muhofaza qilish, keng ommalashtirish, olimlar, mutaxassislar bilan hamkorlikda mahalliy yoshlardan ko‘ngilli tadqiqodchilar guruhini tuzish, ularga seminar treninglar tashkil etish, arxeologik, etnografik, ilmiy tadqiqotlarning sir-asrorlarini o‘rgatish, kashf etilmagan qirralarini tadqiq qilishni tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, yodgorliklarning saqlanib qolgan qismini tabiiy va antropogen asrlardan favqulodda vaziyatlardan, buzilib ketishdan asrash maqsadida ularning ust qismini xorijiy mamlakatlardagi kabi yopish ochiq ayvon (naves) bilan muhofaza qilish zaruriyati bor.

Yurtimiz xorijiy va ichki turizmini rivojlantirish, aholi madaniy saviyasini oshirishda bir qator chora tadbirlar ya’ni zamonaviy texnologiyalarda foydalangan holda tarixiy madaniy yodgorliklarning tarixi, undagi tarixiy-me’moriy obyektlar, u yerda amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari, topilgan madaniy meroslar haqida ma’lumotlar beruvchi elektron kiosklar, multimedia dasturlari yoki vebsaytlar yaratishni yo‘lga qo‘yish kabi masalalarni qamrab oladi.

Ushbu tamoyillarga rioya qilgan holda, muzeyshunoslik madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishda samarali hissa qo‘shishi, uning kelajak avlodlar uchun ochiq manba sifatida yetkazish va madaniy saviyani oshirishni ta’minlashi mumkin. Bu majburiyat nafaqat tashrif buyuruvchilar tajribasini yaxshilaydi, balki madaniy ahamiyatni chuqurroq tushunishga ham yordam beradi, jamiyatlarni uning faol hamkorligini himoya qilishda faol ishtirok etishga undaydi.

Bu sa’y-harakatlar jamiyat qadriyatlari, an’analarini aks ettiruvchi innovatsion ko‘rgazmalar va dasturlar yaratib keng jamoatchilikka namoyish etish, muzeylar madaniy almashinuv dasturlarini o‘rganish va tashkil etishning faol markazlariga aylantiradi.

Madaniy merosni asrab-avaylash sohasidagi tadqiqotlar va tatbiq qilish tarixiy, me’moriy va ekologik tadqiqotlarni o‘zida mujassam etgan ko‘p tarmoqli yondashuvni o‘z ichiga olgan holda rivojlanadi. Ushbu keng qamrovli tadqiqotlar merosning moddiy va nomoddiy tomonlarini hurmat qiladigan samarali saqlash

strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Madaniy meros obyektlarining aslligi va yaxlitligini saqlash va ularni zamonaviy foydalanishga moslashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar. Ushbu muvozanat meros obyektlari dolzarb va kelajak avlodlar uchun ochiq bo'lishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Madaniy merosni targ'ib qilish ijtimoiy hamjihatlik va madaniy o'ziga xoslikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etayapti. Zamonaviy muzeyshunoslik innovatsion marketing strategiyalari orqali jamoatchilikni jalb qilish va madaniy merosni targ'ib qilishga e'tibor qaratib, muzeylarning jamiyatning faol ishtirokchilari sifatidagi rolini ta'kidlaydi. Bu turli xil auditoriyalarning ehtiyojlarini tushunish va tashrif buyuruvchilar tajribasini yaxshilash uchun xizmatlarni moslashtirishni o'z ichiga oladi.

Samarali muzey marketingi takliflarni muayyan tashrif buyuruvchilar segmentlariga moslashtirish uchun tomoshabinlarni puxta o'rganishga tayanadi. Ushbu tadqiqot muzeylarning dolzarb va ochiq bo'lishini ta'minlab, jamoatchilik bilan rezonanslashadigan dasturlar va ko'rgazmalarni ishlab chiqish haqida ma'lumot beradi.

Muzeylar o'z faoliyatini targ'ib qilish va jamoatchilikni jalb qilish uchun turli marketing strategiyalaridan, jumladan, raqamli aloqa va ijodiy reklamadan foydalanadi. Ushbu yondashuv madaniy meros haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi va takroriy tashriflarni rag'batlantiradi, natijada san'at va tarixni chuqurroq qadrlashga yordam beradi.

Xulosa o'rnida yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tarixiy-madaniy merosni saqlashga qaratilgan zamonaviy me'yoriy-huquqiy bazani, har xil turdagi muzey muassasalarini tashkil etish, ularning faoliyat shakllarini tartibga solish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda muzeyshunoslikning rivojlanishi munosabati bilan madaniy meros va yodgorliklarni muzeylashtirishning yangi shakllarini qonun hujjatlarida rasmiylashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Uning samarali ishlashi uchun bir qator dolzarb vazifalarni hal qilish va yanada kuchaytirishni talab qiladi.

Shuningdek, bugungi kun talabi bo'lgan muzeylarning madaniy va ijtimoiy roli va ularning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy marketing usullaridan foydalanish orqali tashrif buyuruvchilarni jalb qilish va ommalashtirish uchun innovatsion marketing strategiyalarini qabul qilish zarurligini ta'kidlaydi. Muzeyshunoslik tamoyillarini madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishni ta'minlaydigan amaliyotlarni tadqiq qilish va amalga oshirish zamonaviy muzeyshunoslik sohasida har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Бородько М.В. ЮНЕСКО: история создания и современная структура/М.В.Бородько//Педагогика. - М., 2000. №2

2. Богуславский М.М. Международная охрана культурных ценностей. - М.: Междунар. Отношения, 1979.

3.Яни Херреман. Показ, эспонирование и выставки // Управление музеем: практическое руководство. – Франция. ИКОМ. 2004.

4. www.akademiai.com POLLACK PERIODICA. An International Journal for Engineering and Information Sciences. DOI: 10.1556/606.2018.13.2.21 Vol. 13,

No. 2, pp. 219–229 (2018).

5. Пиляк С.А. Интерпретация материального культурного наследия в контексте музея. Научный журнал Аналитика духовной культуры// ORCID: 0000-0002-8910-8741. – с.337-347.

AXMEDOV Jasurbek Zokirjonovich
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi
t.f.f.d (PhD), dotsent

MOHIR HUNARMAND RASULJON MIRZAAHMEDOV IJODIGA CHIZGILAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Marg‘ilon ipakli matolarni ishlab chiqarish hunarmandchiligi hamda mohir usta Rasuljon Mirzaahmedov ijodi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *atlas, adras, beqasam, shoyi, a’lo baxmal, turmabelbog‘, janda, alafa, mato, abrband, gulabardor.*

An’anaviy hunarmandchilik O‘zbekistonda juda katta tarixga ega. Uning rang-barang yo‘nalishlari va turlari ajdodlarimizning o‘troq hayot tarziga o‘tishi, shaharlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog‘i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to‘qimachilik vujudga keldi (Vodiyda Chust madaniyati, xorazim vohasida Kaltaminor madaniyati, Surxondaryodagi Sopollitepa va boshqa). Milloddan avvalgi II asrdan boshlab hunarmandchilik maxsulotlari savdosida Buyuk ipak yo‘li muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ip mato, gilam (Urganch Shosh), shoyi (Marv), mis va temirdan yarog‘-aslaha, pichoq tayyorlash (Farg‘ona), shoyi matolar, shisha mahsulotlari tayyorlash (Buxoro) avj oldi. XIII asrda mo‘g‘ullar bosqini hunarmandchilik rivojiga zarba berdi. Temuriylar davlatining vujudga kelishi hunarmandchilik rivojiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘rta Osiyoda hunarmandchilikning barcha turlari XX asrning 20-yillarigacha saqlandi. Buxoro, Samarqand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik katta rol o‘ynaydi. Biroq keyinchalik kollektivlashtirish, xususiy mulkchilikka qarshi kurash va sanoatlashuvning jadallashuvi oqibatida hunarmandchilikga qat’iy zarba berildi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zamirida qaytadan tiklandi. O‘zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori hususiylashtirlishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning hususiy

korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o‘zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartbdagi mehnat foaliyati shaklida rivojlana bordi.

Davlat tomonidan hunarmadchilikni rivojlantirishga qaratilga chora-tadbirlar hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unitilgan ba’zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Buning natijasida hozirgi kunda O‘zbekistonda hunarmandchilikning unutilayotgan va unitilgan turlari ham qayta tiklanib, yanada rivojlanishiga zamin yaratildi. Ayniqsa hunarmadchilik markazlarining tashkil etilishi soha rivojiga xizmat qildi. Ana shunday hunarmandchilik markazlaridan biri Marg‘ilon shahrida joylashgan. Marg‘ilon Buyuk ipak yo‘lida joylashgan bo‘lib, madaniy almashinuv va iqtisodiy hamkorlikda muhim o‘rin egallagan. Eramizdan avvalgi III asrda Marg‘ilon hunarmandlari ipakli matolarni ishlab chiqarishni rivojlantirishgan va Osiyodan Yevropaga qadar yetkazib bergan.

2007-yilda Atlas va Adras to‘qish ana’nalarini davom ettirish va kelajak avlodga yetkazish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO hamkorligida Marg‘ilon shahridagi Said Axmad Xo‘ja madrasasida Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi tashkil etildi. Markazda Rasuljon va Rahimjon Mirzaahmedovlar (9 avlod vakillari), Alisher Axmadaliev va Maxmudjon Tursunov (3 avlod vakillari) hamda Sherzodjon G‘oziev (2 avlod vakili)lar faoliyat yuritmoqda.

Marg‘ilon shahrida atlas, adras, beqasam va shoyi to‘qish bilan 500 dan ortiq ustalar shug‘ullanib keladilar. Ularga yordam beruvchi oila a’zolari va shogirdlari bilan hisoblaganda 3000dan ortiq odam shu hunar bilan mashg‘ul. Markaz ustalari qadimiy matolarni va tabiiy bo‘yoqni shuningdek boshqa maktablar matolarini tiklashda faol ishtirok etishmoqda. Qadimiy Buxoro “A’lo Baxmal” matosi to‘qilish texnikasini qayta tiklaganligi uchun 2005-yilda Rasuljon Mirzaahmedov YUNESKOning a’lo sifat sertifikati bilan taqdirlandi.

Marg‘ilonda abrbandchi ustalar sulolasiga alohida hurmat-e’tibor bilan qaraladi. Mirzaahmedovlar oilasi shulardan biri. Rasuljon Mirzaahmedov shoyi mato ishlab chiqarishning barcha usullarini puxta bilgani uchun mohir usta-abrbandchi sifatida nom qozongan. Usta gul solish va tandaga rang berish san’atini otasidan o‘rgangan. 1990-yilda “Yodgorlik” korxonasida gulabardorlikni o‘rganish maqsadida Muhammadjon Karimovga shogirtlikka tushgan. So‘ngra, Nabijon Toshtemirovdan to‘quvchilik sirlarini o‘rgana boshlagan.

Ish jarayonini bosqichma-bosqich tushuntirarkan, usta barcha detallarni ishonch bilan aytadi va maroq bilan tushuntiradi. Bu jarayonda, dastlab ipak ishlab chiqarilib, keyin ishqorchi ipakni oppoq holatga kelguncha yuvadi. Davrakash talabgorning buyurtmasiga asosan 200 metrdan 600 metrgacha cho‘zib beradi. Davrakashdan keyin qatchi xomashyoni ikki qatlab beradi. Abriband gul soladi. So‘ngra ranglovchi adrasga rang beradi.

Rang berish bosqichi yakuniga yetganidan so‘ng oshdi-qo‘shdi jarayoni amalga oshiriladi. Bunda yana ikki qat 200 metrdan 400 metrgacha orqaga qaytish amalga oshiriladi. Undan keyin gulabardor tig‘dan 40 sm yoki 50 sm o‘tkazadi. So‘nggi

bosqichda esa mahsulot to‘quvchiga keladi.

Atlas yoki adras ishlab chiqarishning har bir bosqichi alohidda-alohida odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Jarayon murakkab bo‘lganligi bois, barcha bosqichlar bitta odam tomonidan bajarilishi juda kam uchraydigan holat.

Sovetlar davrda atlas asosan Marg‘ilondagi “Atlas birlashmasi”da ishlab chiqarilgan. Bu birlashmada to‘qishgacha bo‘lgan barcha bosqich faqat qo‘lda amalga oshirilgan.

Qo‘lda to‘qilgan matolar esa “Yodgorlik” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Ushbu korxona Turg‘unboy Mirzaahmedov tomonidan 1973-yilda tashkil etilgan. Bu korxonada yerda to‘qiladigan dastgohlar bo‘lgan. Ularda asosan 65 smlik matolar to‘qilgan. 1930-yildan 1990-yilgacha 65 smlik atlaslar to‘qilgan. Ular mahalliy ishlab chiqaruvchi kombinatlar tomonidan tayyorlangan.

Eni 80 smgacha bo‘lganlarni atlas, adraslar “Ata” deb nomlangan mexanik stanoklarda to‘qilgan. Eni 50 smlik matolar uyda yashirincha, “tavakkal” usulida ishlab chiqarilgan va bozorlarga olib chiqib sotilgan.

R.Mirzaahmedov olov baxmal ustida juda ko‘p izlanishlar olib boradi. Usta 1997-yilda Buxoroda yashagan kezlari mazkur matoni kolleksionerlarga to‘qib bergan. 2005-yili amerikalik dizayner Oskar de la Renta kolleksiyasini namoyish etgandan keyin, olov baxmal mashhurlikka erishgan.

Muzeylarda XIX asrga doir atlas topish mushkul. Bu davrga oid adras matolar ko‘p uchraydi. Ularning 50% ipak, 50% esa ipdan tashkil topgan bo‘ladi. Bunda matoning pandasi ipak, arqog‘i ip, deydi usta.

Bugungi kunda eng yaxshi adras Buxoro adrasi hisoblanadi. Shuning uchun dunyodagi eng mashhur kolleksiyalar va muzeylarda saqalanayotgan adraslar Buxoroga hosdir. Ularda ba’zan hisori adraslarni ham uchratish mumkin. Hisor adrasning arqog‘i bo‘yalgan bo‘ladi.

R.Mirzaahmedov o‘z faoliyatini 2005-yildan Xorazmda davom ettirgan. U Turmabelbog‘ va alocha matolarini qayta tiklagan. Turmabelbog‘ matosining to‘qilishi noyob hisoblanadi. Bu matoning to‘qilish texnikasini qayta tiklashda meksikalik mutaxasislar bilan hamkorlik qilgan. Keyinchalik R.Mirzaahmedov Boysunda markaz ochib, o‘sha yerda faoliyat yuritgan. Boysunda ham bir qancha matolarni qayta tiklashda faol ish olib borgan.

Usta bilim berish va hunar o‘rgatishning an’anaviy “ustoz-shogird” tizimini o‘ta qadrlaydi. 2007-2009-yilarda Afg‘onistonda abrli matolar tiklanishida qatnashgan hamda ustalarga abriband va tabiiy rang chiqarish usullarini o‘rgatgan.

XIX-XX asrlarga doir Buxoro a’lo baxmali ayrim muzeylarda saqlanadi. U faqat Buxoro amiri uchun to‘qilgan bo‘lishi mumkin. Dunyoning turli muzeylarida saqlanayotgan bu matoning nusxalari va to‘qilish texnikasi bir xilligi bunga asos. Demak, a’lo baxmalni amir va uning oilasi uchun bitta oila ishlagan, degan xulosa kelib chiqadi.

R.Mirzaahmedov 2005-yil Xorazmda yo‘qolib ketgan turmabelbog‘ va a’lochani tiklangan. Usta 2006-yil Boysunda “janda” va “alafa” matolarini tiklagan. Hozirgi kunda janda matosi to‘qiladi, ammo alafa matosi to‘qilmaydi. Alafa nomi arab alifbosidagi birinchi alif harfidan olingan.

Bugungi kunda mato ishlab chiqaruvchi hunarmandlar deyarli yangilik

qilmaydi. Yangi matolarning aksariyati ota-bobolar yaratgan elementlarni almashtirish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy dizaynerlar ham mavjud elementlardan nusxa olib, o‘zlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazmoqda.

R.Mirzaahmedov hozirgi vaqtda chitgarlikning shakllari ustida ham tadqiqotlar olib bormoqda. Izlanishlari natijasida “O‘zbek chitgarlik san’ati” kitobni nashr qilindi. 2005-yilda R.Mirzaahmedov UNESCO safeligida Osiyo–Tinch Okeani mintaqasida o‘tkazilgan tanlovda “Eng yaxshi hunarmand” maqomini olgan. Usta yaratgan noyob mato namunalari New York, Vashington, Burundiya sultoni galareyasi va boshqa ko‘plab mueylarda saqlanmoqda va namoyish etilmoqda.

Foydalanilgan manbalar

1. Matnda 2024-yil 13-18-avgust kunlari Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Farg‘ona viloyatida amalga oshirilgan etnofolklor ekspeditsiya jarayonlarida R.Mirzaahmedovdan olingan intervyu materiallaridan foydalanildi.

2. Ўзбекистон номоддий маданий мероси. Тошкент, 2017.

3. Б.Нодир. Нить соединившая поколения. Альбом-каталог. Ташкент, 2017.

NURULLAYEVA Zulayho Ravshan qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI tayanch doktorant
zulayho9294@mail.ru

MILLIY BOSH KIYIMLARNI TADQIQ ETISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: *Bosh kiyimi sifatida do‘ppilar tarixi ko‘p asrlarga borib taqaladi. Ko‘plab tadqiqotchilar va san’atshunoslar tomonidan bosh kiyimlarning tarixi va tasvirlari o‘rganilgan. Ushbu maqolada o‘zbek milliy liboslarining bir qismi bo‘lmish, do‘ppilarning shakllanish tarixiga oid tadqiqotlar va izlanuvchilar haqida fikr yuritilgan. Do‘ppilarning tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi, do‘ppilarning choklari, tasvirlari va yozuvlari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar va ularning qisqacha izohlari haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Do‘ppi, bosh kiyim, madaniy meros, Kerrey, shakl, semantika.*

Аннотация: *История тюбетеек как головного убора насчитывает много веков. История и изображения головных уборов изучались многими исследователями и искусствоведами. В данной статье рассматриваются исследования и исследователи, связанные с историей формирования тюбетеек, являющихся частью узбекской национальной одежды. Представлены сведения об изучении тюбетеек исследователями, проведенных исследованиях по швам, изображениям и надписям на тюбетейках, а также краткие комментарии к ним.*

Ключевые слова: *Тюбетейка, головной убор, культурное наследие, Керрей, форма,семантика*

Abstract: *The history of doppi (traditional Uzbek skullcaps) as headwear dates back many centuries. Numerous researchers and art historians have studied the history and depictions of this headwear. This article discusses research and researchers on the historical development of doppi, which are an integral part of Uzbek national attire. Information is provided on the study of doppi by researchers, including investigations into the stitching, patterns, and inscriptions on doppi, along with brief explanations of these findings.*

Keywords: *doppi, headwear, cultural heritage, Kerrey, shape,semantics*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xalqimiz tarixini chuqur o‘rganish, uni ilmiy asosda tadqiq etish, qadimiy manbalar, milliy boyliklar va qadriyatlarni, madaniy merosimizni tiklash, davlatchilik tarixining ildizlarini ochib berish respublikamiz madaniy, ma’naviy hayotidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Bu borada ayniqsa milliy va madaniy boyliklarimizni asrab avaylash, ularni muhofazalash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim dasturulamal vazifasini o‘tamoqda[4]. So‘nggi yillarda ayniqsa, an’anaviy milliy liboslarimiz va milliy bosh kiyimlarimizni targ‘ib qilish hamda ularning tarixini tadqiq qilish borasida muhim ustuvor vazifalar bajarilmoqda.

Shu o‘rinda aytish joizki, milliy bosh kiyimlari- do‘ppilar haqida qiziqarli va kerakli izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlar zamirida, bosh kiyimlarning ilmiy, tarixiy, diniy xususiyatlarini o‘rganish va tavsiflash, hamda, ularni saqlash va muzey ekspozitsiyasida namoyish etish masalalari yotadi.

Milliy bosh kiyimlarni tadqiq etishda, shakl va bezak sematikasi masalalari san’atshunoslikning qiziqarli muammolaridan biri hisoblanadi. Sharq an’anaviy san’atida har qanday tasvir ma’lum ma’noga ega. Bu borada ko‘plab tadqiqotchilar va san’atshunoslar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Do‘ppilarning tarixi, kelib chiqishi, turlari, ular anglatadigan ma’nolar hamisha san’atshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Milliy liboslarimiz va bosh kiyimlarimiz haqida qadimgi yozma manbalar, jumladan, “Avesto”[1] da, shuningdek, o‘rta asrlarda M.Koshg‘ariy[5], qomusiy olim A.Beruniy va davlat arbobi Zaxiriddin Muhammad Bobur asarlarida qimmatli ma’lumotlar berilgan. 30-yillarga kelganda, O‘zbekiston amaliy-bezak san’ati alohida janr va ko‘rinishlarga bo‘lib o‘rganilgan. A.S.Morozovaning tadqiqotlarida asosan asrimizning 30- yillariga qadar yig‘ilgan materiallar tahlil etilgan. Bosh kiyim va liboslardagi naqshlarning ma’nolariga katta e’tibor berilib, 30- yillardan to 80-yillar oralig‘ida amaliy-bezak san’atiga endigina kirib kelayotgan va keyinchalik keng tarqalgan tematik mavzular esa qisman izohlanadi. Bugungi kungacha fanda etnografiya, milliy liboslar va bosh kiyimlar haqida ko‘plab tadqiqotlar bajarilgan. O‘zbekiston muzeylarida O‘zbekiston liboslari va bosh kiyimlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan yirik tadqiqotlardan biri N.Sodiqovaning “O‘zbek milliy bosh

kiyimlari XIX-XX asrlar” [10] asari hisoblanadi. Mazkur asar yoshga, marosimga, hududga oid liboslarni farqli xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri va XX asrda urf bo‘lgan an’anaviy bosh kiyimlar, do‘ppi va ro‘mollar turli viloyatlar kesimida atroflicha o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotda etnolog, o‘lkashunos, arxeolog, san’atshunos mutaxasislar tomonidan Respublikamizning turli mintaqalariga xos kiyimlarning mahalliy-lokal xususiyatlari, tikilishi va kiyilishidagi o‘ziga xoslik, shuningdek kiyimlar evolyutsiyasi turli manbalar materiallari asosida tahlil etilgan.

Bundan tashqari XIX asr oxiri - XX boshlari o‘zbek milliy bosh kiyimlari etnografik nuqtayi nazardan o‘rganilgan adabiyotlarga I.Jabborov, T.A.Abdullaev, S.A.Xasanova, O.A.Suxareva, G.K.Zunnunovalar[11] ham o‘z hissalarini qo‘shishgan. San’atshunoslik, dizayn, muzeylardagi kiyim-kechak, libos, bosh kiyim kolleksiyalarini tadqiq qilish nuqtayi nazaridan o‘rganilgan adabiyot va ilmiy tadqiqotlarga G.A. Pugachenkova[15], S.M.Maxkamova, N.Sodiqova, Z.I.Raximova, R.Ya. Rassudova, G. K. Yo‘ldasheva, K. Jumaev, A. Ashirov, L.Levteeva, I. Bogoslavskaya[13], K.Tursunaliev[16], G. K. Xasanbaeva, B.P.Torebaev, D. A. Faxretdinova ilmiy izlanishlarini sanab o‘tish mumkin.

Juda ko‘p izlanuvchilar do‘ppilardagi bezak va naqshlarni sharxlab berganlar. Ular tabiat hodisalari haqidagi kishilarning ramzlarida ifodalagan murakkab dunyoqarashini aks ettirgan. Bezak, ashyolar, kashtalar tabiat hodisalari tog‘risidagi ramzlarning yoddan ko‘tarilgan yoki vaqtlar o‘tishi bilan unutilgan jihatlarini o‘zida saqlab qoladi. Har qanday belgi va ularning majmuasi qisqa shaklga ega bo‘lsada, ularni tasvirlash va tavsiflash mumkin. Chunki ular ma’lum bir axborotni o‘zida jamlaydi.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida faoliyat olib boruvchi tarixchi olimalardan biri L.Levteeva hisoblanadi. L.Levteevaning ilmiy maqolalarida O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining etnografik kolleksiyalari chuqur tadqiq qilingani bilan kata ahamiyatga ega. L.Levteeva va I. Bogoslovskayaning “XIX-XX asrlardagi O‘zbekiston do‘ppilari” [13] albomi do‘ppi kabi milliy dekorativ-amaliy san’at turining tarixi va rivojlanishini, do‘ppilarning turli xillari va mahalliy xususiyatlari haqida gapirib, o‘quvchiga o‘zbek milliy kostyumining ushbu tarkibiy qismi, uning mazmuni va uslubi, evolyutsiyasining murakkab jarayonini kuzatishda yordam beradi.

Do‘ppidagi choklarning ham o‘ziga xos ramziy ma’nolari bo‘lib, ular D.Murodovaning tadqiqotlarida o‘rganilgan. D. Murodovaning 2004-yildagi “O‘zbekiston do‘ppilari” hamda “Do‘ppido‘zlik san’ati” [7] nomli risolalarida zardo‘zlik va do‘ppilarda qo‘llaniladigan chok turlarini, ularning qanday usulda tikilishini izohlab bergan.

San’atshunos va rassom M. Foziliy o‘zining “Do‘ppi kosmogoniyasi yoki bu bodom tasviri emas” [3] nomli 2005-yildagi ilmiy risolasida ham aynan shu mavzuga murojaat qiladi va do‘ppilarda yashiringan semantik ma’nolarni izohlab beradi. U o‘z ilmiy izlanishlarida do‘ppilardagi olam tasvirlarini o‘rgandi. San’atshunos do‘ppidagi tasvir avlodlar davomiyligini ta’minlovchi homila bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa do‘ppidagi qalampirmunchoq tasviri do‘ppi egasini turli balo-qazolardan va ins-jinslardan asrovchi ilohiy himoya

vositasi bo‘lgan, deb ta’kidlaydi.

Falakiyotshunos olim S. Azizovning yozishicha, do‘ppining oq-qora rangi tunkun bilan, to‘rt tomoni olamning t,o‘rt tomoni bilan, to‘rt tomonida uchtadan aylana dumaloq ko‘rinishdagi jami o‘n ikkita shaklni o‘n ikkita burj bilan qiyoslash mumkin. Dumaloq do‘ppi - samo gumbazi ifodasidir.

Tarix fanlari nomzodi Zahriddinbobir Haydarovning ilmiy qarashlari bo‘yichado‘ppidagi tasvirlar qadim ajodlarimizning samoviy tasavvurlari asosida shakllangan bo‘lishi bilan birga ilohiy himoya vositasi ham bo‘lgan bo‘lsa kerak. Aynan shu sababga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida erkaklaming do‘ppisiz, yalangbosh yurishlari noaxloqiy alomat tarzida tushunilgan.

San’atshunos Elmira Gyulning 2013-yilda yozgan “Samoviy bog‘lar va zamin bog‘lari” nomli monografiyasida yozishicha, bodom naqshlari Misrda paydo bo‘lgan, u yerda bug‘doy boshog‘ini o‘lmaslik belgisi sifatida ramziy qilgan. Pokistonda u “Kerrey” deb ataladi, bu urdu tilida “mango urug‘i” degan ma’noni anglatadi, “XIX-XX asrlardagi O‘zbekiston do‘ppilari” albomi do‘ppi kabi milliy dekorativ amaliy san’at turining tarixi va rivojlanishini, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining keng to‘plamidagi va shaxsiy to‘plamlarda mavjud namunalardan kelib chiqqan holda, turli xillari va mahalliy xususiyatlari haqida gapirib, o‘quvchiga o‘zbek milliy kostyumining ushbu tarkibiy qismi, uning mazmuni va uslubi, evolyutsiyasining murakkab jarayonini kuzatishda yordam beradi. Albomning foto qismida ilgari mavjud bo‘lgan va hozirgi kunda O‘zbekistonning turli mintaqalarida joylashgan turli xil do‘ppilar mavjud. [10, 128].

Do‘ppilardagi yozuvlar bo‘yicha san’atshunos va kolleksioner Irina Bogoslavskaya izlanishlar olib borgan. Bogoslavskayaning shaxsiy do‘ppilar kolleksiyasida ham yozuvli do‘ppilarni uchratamiz. Kolleksiyadagi XIX asga oid bunday do‘ppilar haqida u o‘zining “XIX-XX asr boshlaridagi O‘zbekistonning do‘ppilari” kitobida yozadi. Usta Pirnazar tomonidan yaratilgan do‘ppilarni tahlil qiladi. Ulardan birida “Pirnazar usta Muhammad Aminxon uchun tikdi. Uni tabriklayman”, ko‘rinishida tikilgan. O‘rta Osiyolik taniqli kolleksioner Boris Anatolevich Golenderning ham bu haqda ma’lumot bergan. XIX asrda “xon” lavozimi, shuningdek, O‘rta Osiyo mamlakatlarining hukumat vakillari, amaldorlar hamda e’tiborli avlodlar sardorlari duxobadan yozuvli do‘ppilar kiyishgan. Ulardan eng taniqlisi Xiva xonligining Qo‘ng‘irot inoqlari sulolasi beshinchi avlodi vakili Muhammad Aminxon hisoblanadi. U o‘n yil (1845-1855) davomida Xorazm xonligini boshqarib, Eron bilan Turkman qabilasi chegarasiga egalik qilish uchun kurashgan va u 1855 yilning 20 mayida Seraxs shahrining qamali chog‘ida vafot etgan.

XIX asrning 40-yillarida yashagan, aslida Buxoroda tug‘ilgan usta Pirnazarning Xorazm xoniga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin? Do‘ppida bitilgan tabrik Muhammad Aminxonning davlat tepasiga kelishi yoki uning g‘alabasiga bag‘ishlangan, degan taxminlar yuradi. Nega usta zargarning Muhammad Aminxonga bunchalik e’tibor qaratishining asl mohiyatini hali hech kim aniqlamagan. Ammo Pirnazar zargarning ushbu yozuviga xaridorlar albatta e’tibor bergani kishini taajublantiradi. Ushbu yozuv do‘ppining uzunasiga 19 santimetr

hajmda bitilishida ham bir ma’no bor. Markazda to‘q qizil va och jigarrang duxoba fonida to‘rt tilla gulbargi bo‘lgan katta gul shakli kiritilgan. Har bir gulbarg markazdan dunyoning to‘rt tomonini ko‘rsatgan, bu go‘yoki kompas vazifasini o‘taydi. [9, 14]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, milliy libosimizning bir bo‘lagi bo‘lgan do‘ppining ijtimoiy hayotda qayta qadr topayotganligi va san’at darajasiga ko‘tarilishi, shubxasiz quvonarli holdir. Tahlil qilib shuni aytish mumkinki, bosh kiyimlarni tadqiq va tatqiq etish va kelgusi avlodga boy madaniy merosimiz haqida ma’lumot berish orqali xalqimizning azaliy an’analarini saqlab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avesto. Albom-monografiya (SO‘zboshi T.Maxmudovniki). - T.:Sharq., 2021.
2. Bozorboyeva U. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent 2022. 107 b
3. Foziliy M. Do‘ppi kosmogoniyasi yoki bodom tasviri emas. T.: San’at. 2005.
4. Gaybullayeva.Y. Do‘pillar tarixidan. Toshkent: Moziydan sado. 2010. 2-3.bet
5. Jabborov I. Uzbek xalqi etnografiyasi. - T.: O‘Qituvchi, 2018. -149 b
6. Karimova Nodira Qaxramon Qizi Milliy va zamonaviy libos dizaynini yaratishda o‘zbekiston tarixiy – me’moriy obidalarining o‘rni // Interpretation and researches. 2023. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-va-zamonaviy-libos dizayniniyaratishda-zbekiston-tarihiy-memoriy-obidalarining-rni (дата обращения: 29.04.2023).
7. Koshg‘ariy M. Devoni lug‘otit turk. Uch tomlik (A.Mutalibov tarjimasi). -T.: Fan, 1960-1963-yillar. 3 tomlik. 3-tom. - 467 b
8. Murodova.D. O‘zbekiston do‘ppilari-Toshkent.2004.
9. Nurullayeva Z. Bitiruv malakaviy ishi . Toshkent: 2020. 59 b
10. Nurullayeva Z. Milliy bosh kiyimlarning tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2023. 128 b.
11. Raupova D. “XIX asr oxiri XX asr boshlari uzbek milliy liboslari mintaqaviy tiplari” magistrlik dissertatsiyasi T-2018, 6-b
12. Sodiqova N,Gaybullayeva Y. ‘‘O‘zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar’’.Toshkent: Sharq.2014.10 bet
13. Zunnunova G. Maxallada yashovchi uzbeklarning an’anaviy va zamonaviy kiyimlari//Toshkent maxallalari: an’analar va zamonaviylik. Toshkent, 2020.
14. Бикжанова М.А. Одежда узбечек Ташкента XIX – начала XX в.//Костюм народов Средней Азии. Историко–этнографические очерки.– М.,1979.С.147-148.
15. Богословская И., Левтеева Л. Тюбетейки Узбекистана XIX-XX веков.–Т., 2006.- С.10, 26, 48-49, 110.

16. Богословская Дотронувшись до нити золотой…/// История искусств. 2006.
17. Ҳакимов А., Файзиева В. Ўзбекистон Давлат санъат музейи ноёб хазинасидан.–Т.,2014. – С. 60.
18. Пугаченкова Г.А. К Истории паранджи // СЭ. 1962. № 3. С. 191-195.
19. Турсуналиев К. Все цвета радуги. (Тюбетейки и головные уборы узбеков XIX -XX вв.). -Т.:Фан.

BOYMIRZAYEV S.B.
Alfraganus universiteti
(PhD), Xalqaro munosabatlar va tarix
kafedrasi katta o‘qituvchi
boymirzayevsarvar@gmail.com

XORAZM TARIXI HAQIDA SO‘ZLOVCHI ARXEOLOGIK TOPILMALAR
(O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi eksponatlari misolida)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm arxeologiya-etnografik ekspeditsiyasining faoliyati natijasida topilgan va O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondida saqlanayotgan hamda ekspozitsiyada namoyish etilayotgan ashyolarning ba’zi birlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ekspeditsiya, topilma, eksponat, arxeologiya fondi, S.P. Tolstov, haykal, sopol, metall.*

Аннотация: *В данной статье освещены некоторые находки, обнаруженные в результате деятельности Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, которые хранятся в археологическом фонде Государственного музея истории Узбекистана и экспонируются в экспозиции.*

Ключевые слова: *Экспедиция, находка, экспонат, археологический фонд, С.П. Толстов, статуэтка, керамика, металл.*

Annotation: *This article highlights some of the artifacts discovered as a result of the activities of the Khorezm Archaeological-Ethnographic Expedition, which are stored in the archaeological fund of the State Museum of the History of Uzbekistan and displayed in the exhibition.*

Keywords: *Expedition, discovery, exhibit, archaeological fund, S.P. Tolstov, figurine, ceramics, metal.*

Qadimgi tariximizni o‘rganishda arxeolog-olimlarni hissasi beqiyos bo‘lib, XX asr tadqiqotlarida bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holatni yurtimizda keng ko‘lamli va uzoq yillar olib borilgan TAHT (Turkiston arxeologiya havaskorlar to‘garagi), XAEE (Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedisiyasi), KATE (Kesh arxeologik-topografik ekspedisiyasi), Pomir-Farg‘ona arxeologik ekspedisiyasi kabi

bir qator ekspedisiyalar natijasida qo‘lga kiritilgan hamda ilmiy tadqiqot muassasalari va muzeylarga taqdim etilgan arxeologik ashyolar bilan izohlashimiz mumkin.

Muzeylar madaniy-ma’rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy hujjatlar, madaniy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o‘rganib ko‘rgazmalarga qo‘yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Arxeologiya fondida Xorazm arxeologiya – etnografiya ekspedisiyasi natijasida kirib kelgan topilmalar mavjud bo‘lib, ushbu topilmalar Xorazm qadimiy o‘tmish tarixini yoritishda o‘ziga xos etalon sifatida xizmat qiladi. Bu ekspedisiya topilmalarining deyarli katta qismi ekspedisiya asoschisi S.P.Tolstov tomonidan keltirib topshirilgan.

XAEE 1937-1991 yillarda o‘z faoliyatini olib borgan. Ushbu davrda 400 dan ortiq yodgorlik ochilgan. 14 tasi turli holda qazilgan. XAEE tadqiqotlari nafaqat Amudaryo deltasida, balki Sirdaryoning quyi oqimlarida, Sharqiy Kaspiy bo‘yida, Ustyurt platosida va Qoraqum va Qizilqum cho‘llarining markaziy hududlarida ham o‘tkazilgan. Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlaridagi eng mashhur yodgorliklar, shu jumladan To‘praqqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Janbas-4 manzilgohlari o‘rganilgan. Xorazmning o‘ng qirg‘og‘idagi oazislar, Tagisken va Uygarak qabristonlari, jetay qal’a-shaharchalari, quyi Sirdaryoning "botqoq shaharchalari" va boshqalar misol sifatida keltirishimiz mumkin [1, 6].

S.P. Tolstovning o‘zi “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” nomli asarida ekspidesiyani boshlash arafasini shunday xotirlaydi: Biz qadimgi Xorazm harobalarini birinchi marta kelib ko‘rgan sovet arxeologlaridan emas edik. 1928-1929-yillarda xorazmshohlarning o‘rta asrlardagi poytaxti – Urganch (hozirgi Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyatidagi Ko‘xna Urganch shaharchasi) atrofida A.Yu. Yakubovskiy ekspidesiyasi ish olib borgan. 1936-yilda toshkentlik arxeologlar Yahyo G‘ulomov va Turdi Mirgiyozovlarning expedisiyasi Mang‘it qishlog‘i yaqinidagi Qubatav tepaligida yangi eraning bir ming yilligi o‘rtalariga mansub bo‘lgan zardushtiy qabristonini topib, birinchi marta qadimiy, islomga qadar Xorazm yodgorligiga duch kelganlar. 1937 yili Y. G‘ulomov janubiy Qoraqalpog‘istonning “Qadimda sug‘orilgan yerlari” va arxeologik qazishmalarining qaytadan boshlagan va o‘rta asrlarga mansub Guldursin va Norinjon shahar xarobalarini hamda Shobboz yaqinidagi Pilqal’aning yangi eraning dastlabki asrlariga mansub bahaybat xarobalarini tekshirib chiqdi. O‘sha yili xuddi shu joyda bizning expedisiyamiz ham ish boshladi [2, 33].

Ekspedisiyalar natijasida arxeologik, antropologik, numizmatik to‘plamlar, ko‘plab badiiy buyumlar, haykallar va rasmlarning na’munalari, zargarlik buyumlari, qadimgi oromiy, turkiy, arab yozuvlari va boshqalar jami 3,5 million donadan ortiq materiallar to‘plangan. Ular Ilmiy-texnik jihatdan o‘rganilganidan so‘ng to‘plamning katta qismi Rossiya va MDH mamlakatlaridagi muzeylarga saqlash va ekspozisiyada namoyish qilish uchun berilgan [3, 7].

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining arxeologiya fondida nafaqat o‘lkamizning turli hududlaridan balki qo‘shni davlatlarda ham olib borilgan arxeologik ekspedisiyalar natijasida topilgan 75000 dan ortiq eksponatni o‘zida

mujassam etgan 250 ta kolleksiya mavjud [4]. Ularning orasida S.P. Tolstov rahbarligidagi XAEE (Xorazm arxeologiya-yetnografiya ekspedisiyasi) tomonidan olib borilgan ekspedisiya natijalarining bir qismi saqlanmoqda. Jumladan, 76, 82, 90, 155, 157, 172, 210, 211, 242, 322 -sonli kolleksiyalarda sopol, tosh, munchoqlardan iborat bir nechta turdagi 2400 yaqin ashyo o‘rin egallagan [5]. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining arxeologiya fondida saqlanayotgan ashyolarning 76-sonli kolleksiyasi nafaqat yurtimizning turli hududlarida balki, qo‘shni davlatlarda ham olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan 150 dan ortiq ostadonlardan iborat. Ostadonlarni yasalish usuliga, topilgan hududuga yoki ularda qanday tasvirlar mavjud ekanligiga qarab bir nechta guruhlarg ko‘ra ajratishimiz mumkin. Ularning orasida, XAEE tomonidan muzeyga topshirilgan ostadonlar alohida ajralib turadi. Xususan, Arxeologiya fondida saqlanayotgan ushbu ostadonning boshqa ostadonlardan farqi, unda ayol kishi o‘tirgan holatda tasvirlangan.

Ostadon quyidagicha tavsiflanadi: u miloddan avvalgi I - milodiy II-asrlarga oid bo‘lib, o‘tirgan yosh ayol tasvirlangan, ichi bo‘sh haykal ko‘rinishidagi loydan ishlangan. Haykalning asosi to‘rtburchak shaklda yuzi keng, bir oz uzun iyagi bilan tasvirlanganb qoshlar uzun, burun ko‘prigi ustida qo‘shilgan. Ko‘tarilgan qovoqli ko‘zlari kichik va bodomsimon. Buruni biroz egilgan. Quloqlari kichik va teshilgan. Oyoqlari bo‘rtma holatda tasvirlangan, ingichka uzun oyoqlarining birinchisi ikkinchisining pastki qismidan sezilarli darajada yuqorida joylashgan. Kiyimning tafsilotlari zaif, aniq bo‘lmagan chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. Ko‘ylak yoki uzun va keng sharf tizzadan to‘piqqacha tushadi. Keng etagi o‘rindiq bo‘ylab yoyilganga o‘xshaydi va to‘lqinsimon jingalak bilan bezatilgan bo‘lib, bo‘rtma shaklda uzatiladi. Uning yuqori qismi (belidan pastki) qismidan ajratiladi; Kesish pastki orqa darajasidan boshlanadi va old tomondan tizzalar bo‘ylab cho‘ziladi. Qopqoqni biriktirish uchun yon tomonlarda ikkita juft teshik mavjud. Uning o‘ng tomoni gips bilan restavratsiya qilingan.

Balandligi – 71,7 sm; tag qismi – 22 sm, uzunligi – 35 sm, balandligi – 20 sm.

Miloddan avvalgi I – milodiy II-asr. Mazkur eksponat 1950-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanidagi Qo‘yqirilganqal’a yodgorligidan topilgan. I.V. Saviskiy tomonidan restavratsiya qilingan. O‘zbekiston tarixi davlat muzey ekspozisiyasining 3-zalida namoyish etilmoqda [6].

Navbatdagi Ostadon oq alebastrdan, yuqoriga qarab biroz kengaygan, to‘rtburchaklar quti shaklida, to‘rtta oyoqdan tashkil topgan. Ustki qismi to‘rtburchak shaklga yaqin shaklga ega bo‘lgan qopqoq bilan yopilgan. Uzunligi - yuqori qismi - 57,5; tag qismi - 54,5 sm; kengligi - 29 sm; 27 sm; yuqori qismi qopqog‘i bilan - 42,5 sm; oyoqlari - 7,3 sm; devor qalinligi 2,1 dan 4,2 sm gacha.

VI-VIII asrlarga oid. A.V. Gudkova rahbarligida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri shahridan 18 kilometr uzoqlikdagi To‘q qal’a yodgorligida olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan [7, 184]. 1963 yil 20 avgustda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi (O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi) qabul qilingan [8].

Arxeologiya fondining 82-sonli kolleksiyasidan Jonbosqal’a [stoyanka 5-B] yodgorligdan topilgan 2 dona ashyo o‘rin olgan bo‘lib, ularning birinchisi

ovalsimon, jigarrang rangda lekin qora dog‘lari bor. 10x6x4.5o‘lchamda; ikkinchisi esa donmaydalagichning saqlanib qolgan bir qimi. Jigarrang, 6.5x6x3.5 o‘lchamda [9, 40]. Ular 1963-yilda muzeyga topshirilgan [10].

1945 yilda S. Tolstov tomonidan Xorazmning ibtidoyi madaniyatiga xos 18 ta makonni “Jonbos” nomi ostida birlashtirgan. Jonbos – 4 ni qazish paytida qo‘lga kiritilgani va Xorazm neolitining boshqa makonlari (Jonboz 5 va boshqalar) dan to‘plangan materiallar eng qadimiy Xorazm aholisi olib borgan madaniy va etnik aloqalarning ba’zi yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatini beradi. Pompey Trog asarlarida va eng so‘ngi Xitoy manbalarida tilga olingan qadimgi O‘rta Osiyoning “ming shahri” to‘g‘risidagi masalani hal qilishga imkon bergan [11, 206].

Muzey arxeologiya fondining 90-sonli kolleksiyasida XAEE tomonidan mayda tosh uchrindilari, hayvon suyaklari, dengiz chig‘anog‘ining bo‘lagi hamda yupqa (ingichka) sopol buyum bo‘laklari mavjud. Mavjud tutqichlari ingichka. Sopol idish bo‘laklarining ba’zi birlarida “archa shoxi” shaklidagi naqshlari mavjud. Idishlar qo‘lda yasalgan. Ulardan olovda foydalanilganligi uchun tashqi tomoni qorayib qolgan. Bu Kaltaminor madaniyatiga xos an’anadir. Sopol buyumlar qizil angobda bo‘yalgan. Ular qo‘lda yasalgan. Kolleksiyada 96 ta ashyo o‘rin egallagan [12]. 1946-yilda Y.G‘. G‘ulomov va V.I. Sprishevskiylar tomonidan topilgan. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga esa 1964-yilda topshirilgan.

155-kolleksiyada ingichka jumrakli sopol buyumlarning qismlari, mikrolitlar hamda bronzadan ishlangan munchoq mavjud [13]. Neolit davriga oid Dingilji-6 yodgorligidan S.P. Tolstov rahbarligida 1957-1960 yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan [14]. Buyumlar dastlab SSSR FA etnografiya institutiga jo‘natilgan. 1965 yilda V.I. Sprishevskiy tomonidan muzeyga topshirilgan. Dastlab ularning soni 178 dona bo‘lgan. Ashyolarning 10 donasi 1972 yilda Samarqand muzeyiga berilgan. 10 donasi 1979- yil 30-mayda muzeyda tashkil etilgan komissiya tomonidan foydalanishga yaroqsiz deb topilgan [15]. Neolit davri jamoalarida mehnat qurollarini takomillashtirish bilan bir qatorda hunarmandchilikning bir qator tarmoqlarikulolchilik, to‘quvchilik, zargarlik kabi sohalari ixtiro qilindi.

Eng qadimgi sopol buyumlarning na’munalari aynan 155-sonli kolleksiyada saqlanmoqda.

157-kolleksiyada Anqaqal’a-5 yodgorligida 1956-57 yillarda amalga oshirilgan arxeologik-yetnografik ekspidesiyaning natijalari o‘rin olgan. Topilmalar dastlab SSSR FA etnografiya institutiga jo‘natilgan. 1965 yilda V. Sprisheviskiy tomonidan muzeyga topshirilgan [16]. Ushbu kolleksiyada asosan sopol xumchalarning qismlari o‘rin olgan. Xumchalar olovda pishirilgan yoki ovqatni pishirish uchun ishlatilgan.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining 210-kolleksiyasida Sirdaryo bo‘yidagi Sarlitoshqal’adan topilgan sapol buyumlar joy olgan [17]. Bu kolleksiyada saqlanayotgan ashyolarning barchasi qo‘lda yasalgan sopol idishning bo‘laklaridir. Idishning bo‘yin qismida to‘lqinsimon bezak mavjud. Bundaan tashqari idishning qorin qismida chiziqlardan iborat naqshlar ham uchraydi. Ularning barchasi Arxeologiya fondida saqlanmoqda.

211-sonli kolleksiya 1958-1959 yillarda Xoraxm arxeologiya-yetnografiya

ekspidesiyasi tomonidan Xazaraspda olib borilgan izlanishlar natijasida topilgan sopol buyumlarining qismlaridan iborat bo‘lib, S.P. Tolstov 1958 yida muzeyga topshirgan [18].

Muzeyga topshirilgan Xazarasp yodgorligidan topilmalarining miqdori 2005 dona bo‘lib, ularning barchasi 10 ta metalldan ishlangan yashiklarda saqlanadi. Ushbu kolleksiya qizg‘ish rangli, pishirilgan loydan ishlangan sopol, tosh, shisha, farfor buyumlar va ularning bo‘laklaridan iborat.

Arxeolog tomonidan topib o‘rganilgan ushbu manzilgohlar qadimgi davr madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Arxeologik topilmalar O‘zbekiston hududida yashagan qadimiy xalqlarning ming yillik tarixini, ana shu davrda kechgan murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jarayonni xolisona o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Muzey ekspozisiyalarida namoyish etib kelinayotgan eksponatlar muzey tematikasini ochish bilan birga eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini ham o‘zida aks ettiradi.

Muzey ekspozisiyasi bilan tanishgan har bir tomoshabin, undan rang-barang axborot oladi. U har kunlik tomoshabinlarni o‘z vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аржанцева И. А. Хорезм. История открытий и исследований. Этнографический альбом. Ульяновск: ООО "Артишок", 2016. – С. 6.
2. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T., 1964. – B. 33.
3. Аржанцева И. А. Хорезм. История открытий и исследований. Этнографический альбом. Ульяновск: ООО "Артишок", 2016. – С. 7.
4. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi bosh xazinaboni R. Gulyamovning 2023 yil xisoboti.
5. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 82, 90, 155, 157, 210, 211, 242 сонли коллексия китоблари.
6. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 76-сонли коллексия китоби.
7. Гудкова Л .В. Ток-кала. Наука' Ташкент-1964. – С. 184.
8. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 76-сонли коллексия китоби.
9. Аржанцева И. А. Хорезм. История открытий и исследований. Этнографический альбом. Ульяновск: ООО "Артишок", 2016. – С. 40.
10. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 82-сонли коллексия китоби.
11. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T., 1964. – C. 206.
12. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 90-сонли коллексия китоби.
13. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 155-сонли коллексия китоби.
14. Толстов С. II. Древний Хорезм. – С. 142.

15. Ўзбекистон тарихи давлат музейи буюмларни қабул қилиш комиссиясининг 1979- йил 30-майдаги 2-сонли қарори.
16. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 157-сонли коллексия китоби.
17. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 210-сонли коллексия китоби.
18. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 211-сонли коллексия китоби.

ҚОРАБОЕВ Усмон Ҳосилович
Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий Рассомлик ва дизайн институти профессори, фалсафа фанлари доктори

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ РАССОМИ АЛИШЕР АЛИКУЛОВНИНГ ТАРИХИЙ МАҲОБАТЛИ РАНГТАСВИР АСАРЛАРИ ҲАҚИДА

Аннотация: *Мақолада Ўзбекистон халқ рассоми Алишер Аликуловнинг Имом Бухорий илмий-тадқиқот маркази ҳамда Тошкент шаҳридаги Ғалаба боғи ёдгорлик мажмуасидаги "Шон-шараф" музейида ишланган маҳобатли рангтасвир асарлари ҳақида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *Алишер Аликулов, рассом, маҳобатли рангтасвир, бадиий асарлар, ёдгорлик мажмуаси, Имом Бухорий илмий-тадқиқот маркази, "Шон-шараф" музейи.*

Маълумки, XX аср охири - XXI аср бошларида Ўзбекистон рангтасвиридаги бадиий жараёнларни аниқлаш жадал суратлар билан ривожланди. Бу даврда муносиб ижод қилган Алишер Аликулов Ўзбекистон махобатли рангтасвир санъатининг ривожига улкан ҳисса қўшиб келаётган иқтидорли рассомлардан бирига айланди. У она юрти тарихи ва халқининг анъаналарини, буюк тарихий шахс, аллома ва саркардаларининг образларини махобатли ва рангтасвир асарланрида моҳорат ила тасвирлаб келмоқда. Таниқли рассом Алишер Аликулов Давлатимиз томонидан муносиб тақдирланган[1].

[1] Республикамиз ва хориж (Озарбайжон, Туркия, Миср, АҚШ ва бошқалар) даги халқаро кўргазмаларда фаол иштирокчиси бўлган рассом 1996-йилда Темурийлар даври тарихига бағишланган ижодий иши учун "Шуҳрат" медали билан мукофотланган ва қатор маҳобарли асарлари учун 2001 йилда Ўзбекистон Бадиий академияси "Олтин медали" билан тақдирланган. Шунингдек, 2003 йилда Ўзбекистон Республикаси санъат арбоби унвони билан тақдирланди. Рассом АҚШдаги халқаро Ёзувчилар ва рассомлар уюшмаси аъзоси (штат Огайо), Ўзбекистон бадиий Академияси аъзоси, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган Маданият ходими.

Таниқли олим А.Эгамбердиевнинг фикрларига кўра, А.Аликуловнинг ижодий йўлини бир неча тарихий даврларда яратган асарлари асосида ажратиб ўрганиш мумкин:

Биринчи давр бу А.Аликуловнинг исломгача бўлган даврни талқин этадиган асари фақат 1996 йилда ишланган “Қадимги Бақтрия спорт ўйинлари (Олимпия шон-шуҳрати музейи) деворий сурати бўлиб, бошқа бу давр ҳақида асарлари мавжуд эмас.

Иккинчи даврда бу IX-XII асрлар Ўрта Осиё илм-фанида “шарқ ренесанси” деб ном олган даврни талқин этадиган, яъни бир қатор илм-фанда ном қозонган алломалар Имом Бухорий, Ал-Фаробий, Ибн Сино, Беруний, Ал-Фарғоний ва бошқа тарихий шахсларнинг сиймоларини яратган.

Учинчи давр бу Амир Темур ва Темурийлар даври бўлиб рассом учун муҳим ўрин тутади, унинг бир қатор асарлари: “Шоҳона ов”(1995), “Байроқ учун жанг”(1996йил), “Қалъанинг олиниши”(1999йил), “Елчилар қабули”(2006йил), “Қабул”(2005йил) “Ватан учун” (1999-2000йиллар), “Амир Темурнинг Тўхтамишхон устидан ғалабаси”,”Самарқанд бозори”(1996), “Амир Темур жаҳон тарихида”(2001) каби рангтасвир ва деворий суратлари орқали Республикамизнинг истиқлолга эришиши, Амир Темур шахсига ва тарихга бўлган ҳаққоний муносабат тикланиши, миллий қадрият ва анъаналаримизнинг қайта тикланиши жараёнидаги Темурийлар даври тарихини талқин этган асарлари кенг ўрин эгаллайди.

Тўртинчи давр бу XVII-аср Ўзбек хонликлари даври бўлиб, рассом ушбу давр тарихини талқин этувчи асарларида биз фақат ижтимоий-маиший жараёнлар, асосан оддий халқнинг одатий турмуш тарзи акс этган асарлар: “Бухоролик келин” (2012йил), “Сардоба” (2011йил), “Совға” (2017йил), “Эртакчи” (2002йил), “Сувчи” (2005йил), “Бухоролик аёл ва бола” (2001йил), “Қайтиш” (2005йил), “Машшоқлар” (2012йил), “Муножотни тинглаш” (2011йил), “Никоҳ шартномаси” (2009йил), “Қизлар базми” (2007йил) ва бошқа асарларида талқин этилган, рассомнинг бу даврга нисбатан муносабати Темурийлар даври тарихига нибатан юқори эмас[2].

Рассом маҳобатли ва дастгоҳли рангтасвир услубларида, турли жанрларда самарали ижод қилиб келмоқда. Асарлари мавзуси жиҳатидан асосан, Ўзбекистон тарихига оид туркум асарлардан ташкил топган. Уларда юртимиз тарихига бағишланган воқеликлар, тарихий шахслар қиёфалари, анъаналар ва маросимларни реалистик услубда акс эттиради. Масалан: “Амир Темурнинг Тўхтамиш устидан ғалабаси” ва "Самарқанд бозори” (1996, Темурийлар тарихи давлат музейида), “Амир Темур мақбараси”, “Байроқ учун жанг” (1996) ва “Қасрнинг забт этилиши” (1998, иккаласи ҳам Марказий офицерлар уйида), “Амир Темурнинг Тўхтамишхон устидан қозонган ғалабаси” (2002, Ўзбекистон тарихи давлат музейи), “Совға” (2003) ва бошқа дастгоҳ асарлари. Айниқса, “Улоқ”, “Кураш”, “Пойга”, “Ёяндозлик”, “Найза улоқтириш”, “Тош кўтариш” каби асарларида ҳам миллий ўйинларимиз ранг-

[2] Эгамбердиев А. XX аср Ўзбекистон рангтасвирида картина ривожи. Докторлик диссертацияси автореферати. Сан. фан. доктори. – Т. 2009. – 52 б.

баранг, мураккаб композицияга эга реалистик йўналишда яратилган[3].

Ўзбекистон халқ рассоми Алишер Аликулов ижодининг бой ва серқирра эканлигини ҳисобга олиб, биз мазкур мақолада фақат унинг икки муҳум асари - Имом Бухорий илмий-тадқиқот маркази ҳамда Тошкент шаҳридаги Ғалаба боғи ёдгорлик мажмуасидаги “Шон-шараф” музейида ишланган маҳобатли рангтасвир асарлари ҳақида фикр юритамиз.

Алишер Аликулов ижоди – бу ўзбек маҳобатли ва амалий рангтасвир санъатида муҳим ўрин тутгани учун президентимиз Ш. Мирзиёев ташаббуслигида қайта бунёд этилган Имом ал-Бухорий мажмуасининг қатор монументал асарлар билан бойитиши ўта аҳамиятлидир.

Мажмуанинг ички қисмидаги музей деворий қисмларида Алишер Аликулов томонидан “Имом Бухорийнинг илмий сафари” деб номланган маҳобатли рангтасвир асари диққатни тортмасдан иложи йўқ. Рассом ал-Бухорий ҳаёт йўлини тўлиқ ўрганиб чиқиб, унинг ёшлик чоғидан тортиб, кексалик давригача бўлган қиёфаларини тасвирлади.

Асарда образларнинг хатти-ҳаракатига монанд бўлган либослари, атрофидагиларнинг ал-Бухорийга муносабати, олимнинг илмга шўнғиган қиёфаси рассом томонидан моҳирлик билан тасвирланган. Рассом асарни ишлаш жараёнида фалсафий тассаввурига таяниб ижод қилди, яъни асар араб алифбоси ёзуви ва Қуръони Карим, ҳадислар тўпламининг ўнгдан чап томонга қараб ўқилиш усулида ижодкор ўз асарини ишлашни ўнгдан чапга қараб бошлади.

Асар Имом Бухорийнинг ёшлик чоғидаги илмга чанқоқ нигоҳи, ўсмирлик давридаги зукколиги ва мусофирчиликда кечган кунлари ҳамда унинг юксак чуққига кўтарилган ҳаёт йўли асарда яққол ифодаланган. Бундан ташқари асарда қўлланган деталлар моҳирлик билан ишланганки, асар ўзида шу давр руҳини тасвирлайди.

Асардаги шамлар ал-Бухорийнинг сафар чоғида шам ёруғида илмга шўнғиган кунларини ёдга солса, нафис чизгилардаги араб ёзуви, неча асрлар давомида хаттотлик санъатини шаклланганлигини акс эттирган. Шулар қаторида ал-Бухорийнинг қўлида қум зарраларининг тезда тушиши ва у тутиб турган глобус, вақтнинг сув каби оқиб ўтиб кетиши, дунёни кезиб, энг ишончли ҳадисларни тўплашга бел боғлаганлиги рассом томонидан юксак дид билан ишланган.

Маҳобатли рангтасвир асаридаги ранглар уйғунлиги, нур-соя муттаносиблиги, либосларнинг давр руҳига мос ишланганлиги рассом ижодининг нозик қирраларини яна бир бор кашф этди.

Рассом А. Аликулов қаламига мансуб ушбу маҳобатли рангтасвир асари жорий йилда Самарқанд шаҳридаги ал-Бухорий комплексига ишланганига қарамасдан тезда ўз томошабинлари ва жаҳон сайёҳлари эътиборини қозонди.

[3] Илхомова Ё. Алишер Аликулов ижоди. Т:. МРДИ, “Санъатшунослик” йўналиши бўйича битирув малалавий иши. -2022.-36 б.

*****

А.Аликуловнинг кейинги йилларда яратган нуфузли ва йирик асарларидан бири - Иккинчи жаҳон урушига бағишланади. Президентимиз Ш.Мирзиёев ташаббуслари билан Иккинчи жаҳон урушида жасорат ва фронт ортида матонат кўрсатган кўпмиллатли Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган буюк Ғалабани таъминлашга қўшган муносиб ҳиссасини ёритиш мақсадида мақсадида Тошкент шаҳрида «Ғалаба боғи» ва унинг таркибида «Шон-шараф» давлат музейи, «Мангу жасорат» ва «Матонат мадҳияси» монументлари, тарихий-бадиий экспозицияларни ўз ичига олган ёдгорлик мажмуаси барпо этилди.

Боғ марказидан ўрин олган “Шон-шараф” музейи экспозицияларига маҳобатли рангтасвир устаси, рассом Алишер Аликулов раҳбарлигида (эни 22 метр, бўйи 5 метрдан иборат) ишланган асар “Тошкент вокзалининг бир куни” деб номланади. Мойбўёқ техникасида ишланган ушбу тўрт қисмдан иборат композицияда уруш вақтида эвакуация қилинган аҳоли ва ота-онасидан ажраган болаларни ўзбек халқи томонидан қабул қилиниши жараёни, фронтга жўнаб кетишга ҳозирланган вагонлардаги аскарлар, ўзбек анъаналарига хос урф-одат билан кузатилаётган ўғлонлар, ўғлини урушга кузатаётган онанинг фарзандига нон тишлатаётгани, уруш йилларида Ўзбекистон ҳудудидаги завод ва фабрикаларида меҳнаткаш ватандошларимиз томонидан ишлаб чиқарилган ҳарбий маҳсулотларнинг фронтга жўнатилиши, почтачи келтирган газетдан бир гуруҳ одамларга сўнгги маълумотларни етказиш жараёни ҳамда кабутарларни озиқлантираётган беғубор болаларни кўриш мумкин. Айниқса шу охирги образни акс эттириш билан рассом тинчлик рамзи ҳисобланган кабутарлар орқали келажакка умид, ёруғ ва тинч-тотув кунлар келишини тасвирлаган.

Алишер Аликулов тарих, этник қадриятларни яхши биладиган ижодкор ҳисобланади. Унинг асарларида Она-Ватанга бўлган садоқат, ватанпарварлик, меҳнатсеварлик туйғуларининг самимий ва соф эканлигига гувоҳ бўлиш мумкин.

Бугунги кунда ижодкорнинг кўплаб асарлари хорижий музейлар ва шахсий коллекцияларда сақланмокда. Алишер Аликулов Ўзбекистон тарихини ўзининг маҳобатли рангтасвир асарлари орқали тараннум этиб, ёш авлод тарбиясида Ватанга садоқат ва ундан фахрланиш туйғуларини сингдираётган ватанпарвар ижодкор рассомларимиздан биридир. А.Аликулов асарлари манзара, батал жанрларида яратилиб, тарихий мавзудаги асарлари аниқ тарихий воқеаларни реал ифодалайди ва уларда ортиқча бўрттириш кузатилмайди.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, маҳобатли рангтасвир санъати устаси Алишер Аликуловнинг юқорида таърифланган Имом Бухорий илмий-тадқиқот маркази ҳамда Тошкент шаҳридаги Ғалаба боғи ёдгорлик мажмуасидаги “Шон-шараф” музейида ишланган маҳобатли рангтасвир асарлари Ўзбекистон Республикасининг санъат ва меъморчилик соҳаси тарихида ўзининг муносиб ўрнини эгаллайди. У ўзининг сермазмун ва сержило асарлари туфайли, XX аср охири - XXI асрда яшаб, ижод қилган

рассом сифатида танилди ва санъатда муносиб ўрин топди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Акилова К. Поиски смысла. Ташкент, - Санъат, 2016. 154 с.
2. Хакимова У. Персональная выставка художника Алишера Аликулова "Эхо веков" в залах Галереи НБУ (https://www.kultura.uz/view_3_r_10774.html).
3. Ходжаева С. Алишер Аликклов ижодида ўтмишга назар. //Ҳакимов А.А. ЭГО лойиҳаси: замонавий санъатнинг тахлили. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 119-120.
4. Шарипова А. Ижро санъати қадриятлари: қалб баҳси. / Санъат. - Тошкент. 2012. -№ 2. - Б. 32-34.
5. Эгамбердиев А. XX аср Ўзбекистон рангтасвирида картина ривожи. Докторлик диссертацияси автореферати. Сан. фан. доктори. – Т. 2009. – 52 б.
6. Илхомова Ё. Алишер Аликулов ижоди. -Т:. МРДИ, “Санъатшунослик” йўналиши бўйича битирув малалавий иши. -2022. -57 б.

БЕГАЛИЕВА Дилфуза Эгамқуловна.,
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети
Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
dilfuzabegalieva73@gmail.com

АРЗХОНА - МЕЪМОРИЙ МЕРОС ЁДГОРЛИГИ

Аннотация: *Ушбу маколада Хива хонлиги ҳукмдорларининг Кўришишхонаси, Арзхонаси ҳақида маълумотлар берилган. Ҳукмдорлар давлат бошқаруви билан боғлиқ фаолияти давомидаги саройда халқнинг арз-додини тинглаши, уларнинг арзини Арзхонада эшитганлиги ҳамда ушбу бинонинг қурилиш тарихи билан боғлиқ бўлган маълумотлар берилган. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, қайси ҳукмдорлар томонидан қурилганлиги, мазкур қурилишга қандай усталар жалб этилганлиги каби жиҳатлар ҳам акс этган. Бинонинг қурилиш бўлинмалари, нечта хона ва бу хоналарда кимлар фаолият олиб борилганлиги билан боғлиқ масалалар ҳақида ҳам фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *Хива хонлиги, давлат бошқаруви, ҳукмдор, Кўришишхона, Арзхона, сарой, ариза ва шикоятлар, арз маросими, тартиб-қоида.*

Хива хонлиги ўзбек давлатчилик тарихида муҳим ўрин эгаллаган қадимий ўлкалардан биридир. Унинг бой тарихи, унинг бутунжаҳон цивилизацияси ривожига қўшган ҳиссаси, айниқса давлатчилик анъаналари, маданий меросни сақлаш ва келгуси авлодга етказиш, уларнинг тарихини

ўрганиш бугунги минтақа тарихини тадқиқ этишда долзарб масалалардан бири бўлиб турибди.

Хоразм-дунё цивилизациянинг қадимий ўчоқларидан бири ҳисобланади. У ўзининг ноёб ёдгорликлари билан машҳурдир. Бунёд этилган меъморий иншоотлар давлатчилик тараққиётини кўрсатувчи мезонлардан саналади. Зеро, бугунги кунда давлатимиз раҳбари томонидан илгари сурилган "маданий мерос объектларини асраш"[1, ПҚ-177] масаласида мавжуд маданий меросни музейлаштириш, тадқиқ ва тадбиқ этиш давр талабларидан ҳисобланади. Хива хонлигининг маданий мероси сифатидаги ҳукмдорлар Арзхонаси бу борада муҳим ўрин тутади.

Кўринишхона Арзхона номи билан ҳам юритилган. Саройда ҳукмдор томонидан халқнинг арз-додини тинглаш ёки хорижий элчиларни қабул қилиш учун, Кўринишхоналар [2, 327-328] мавжуд бўлган. Бу ерда ҳафтада бир марта мажлис ўтказилиб турилган ва сирли суҳбатлар жойи деб ҳам аталган[3, 87]. Мунис ва Огаҳийнинг "Фирдавс ул-иқбол" асарида Арабшоҳий хонларидан Шерғозихоннинг "ҳар ҳафтада икки марта кўруниш берур эрди" деб, маълумот берилган[4, 101].

Арзхоналар қурилиши учун моҳир, яхши усталар жалб этилган. Хусусан, Хива Шайбонийлар сулоласи ҳукмдори Арангхон (1688 – 1690) томонидан қурилган Кўрунишхона ва унинг наққош устаси Мавлоно Вафо ҳақидаги маълумот манбада ўз аксини топган[5, 95]. Бу сарой Хивадаги иккинчи Арк, ҳукмдор-хоннинг қасри сифатида қурилган[6, 218].

Хива Қўнғиротлар сулоласи ҳукмдорларидан Оллоқулихон ҳам Тошҳовли номли саройида ҳарам, меҳмонхона, уч йўлакли айвонлардан ташқари арзхона қурдирган. Бу ерда 1830 – 1838 йиллар мобайнида бир неча даврга бўлиниб қурилиш ишлари олиб борилган. 1830 – 1834 йилларда ҳарам ва меҳмонхона қурилган орадан икки йил ўтгач, 1837-1838 йилларда арзхона қуриб тугатилган. Айрим тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, арзхона қуриш мўлжалланмаган[7, 41-44].

Сарой Оллоқулихоннинг буйруғи билан вазир Муҳаммад Яъқуб меҳтарнинг чизмаси (лойиҳаси) асосида қурилган. Тадқиқотчи О. Муталов фикрига кўра, ушбу сарой 1829 – 1839 йиллар оралиғида қурилган[8, 30]. Тошҳовли саройининг қурилишига меҳтар Муҳаммад Юсуф масъул шахс этиб тайинланган ва қурилишга Нур Муҳаммад Тожи сўнгра уста Қаландар Хивақий бошчилик қилган. Уста Қаландар саройни деярли 8 йил давомида битказган[9, 294]. Сарой қурилишида каттабоғлик Абдулла қаландар, ҳазорасплик Абдулқодир, хонқалик Одина Муҳаммад, Юсуф каби ўз даврининг машҳур усталари иштирок этишган[10, 294].

Келтирилишича, бинонинг меъморий безаклари Оллоқулихон даврига тегишли. 1926-1936 йилларда ёдгорликка катта зиён етказилган. Бинони қайта таъмирлаш ишлари яхши натижа бермаган. Берилган топшириққа кўра яъни 1933 йили бинонинг томи очилиб, қайта ёпилган ва бунинг натижасида унинг шифти ва устунларига намгарчиликдан жиддий шикаст етган. Бинонинг супаси, қабулхона ва айвон қисмидаги пол қоплама плиткалари кўчириб олиб кетилиб, талон тарож этилган. Ёдгорликнинг

ғарбий томонидаги хонасига олиб кирадиган нақшинкор ва пишиқ кесаклар ёқлаб юборилган. Юқорида таъкидланганидек, 1933 йилда қайта тиклаш ишлари бинонинг асл қиёфасини жиддий бузилишига олиб келган[11, 437].

Ҳукмдорларнинг саройдан ташқарисидаги ҳовлиларида ҳам арз маросими ўтказилган. Хусусан, Муҳаммад Раҳимхон II ёз фаслида ўзининг шаҳар ташқарисида қурилган Қибла Тозабоғ номли ҳовлисида фуқаролар арзини қабул қилган. Ҳовлида алоҳида арзхона бўлган[12, 30].

Хоннинг маҳобатли ҳовлиларидан бири Нуриллабой номли саройи ҳам валиаҳд Асфандиёрхонга атаб қурилган бўлиб, бу ерда ҳам халқнинг арзлари эшитилган. Ҳовлининг умумий саҳни 185,6х143 метр бўлиб, шундан 27,3х32,1 метрни эгалланган қисми қабулхона, 82х71 метр саҳни арзхонани ташкил этган. Саройнинг шимолида атрофи девор билан ўраб олинган ҳовузли боғ ҳам бўлган. Арзхона саройнинг асосий биноларига ёндош ҳолда шимол ва ғарбга қарата тирсаксимон йўналишда солинган бўлса, кўринишхона алоҳида майдон сифатида унинг шимолроғида жойлашган[13, 34-35].

Тадқиқотчи К. Худойбергановнинг қайд этишича, Хива хонлари қароргоҳи Кўҳна Аркнинг арзхонаси мармар ўратошига қуйидаги мазмундаги шеър ёзилган. Унда хоннинг шахс сифатида қандай ҳукмдор бўлганлиги, мол-дунё ҳавасидан кўра, одиллик ва мазлумлар додига етиш ҳамиша юксакроқ қадрланганлиги битилган[14, 147-148]. Мазкур битик Сайид Муҳаммадхоннинг буйруғи билан сангтарош уста Ислом Хўжа Хоразмий томонидан 1857 йилда оқ мармарга насталиқ хатида ўйиб ёзилган.

Арзхона биноси 29 қисмдан иборат бўлган. Жумладан, арзгўйлар 10 та даҳлиздан ўтиб, ҳукмдорнинг олдига кирганлар. Ундан ташқари меҳтар, қушбеги ва девонбеги маҳкамалари қаторида ясовулбоши маҳкамаси ва умумий маҳкама хоналар бўлган. Катта амалдорлар ва оқсоқоллар йиғиладиган махсус хона ҳам мавжуд бўлган. Ҳукмдорнинг буйруқ ва фармонларини кутиб турадиган жаллодлар хонаси бўлиб, арзчилар хон олдидан чиққанларидан кейин шу хонадан ўтишган. Хон ғазабга келганда уларни ўлимга ҳукм қилар ёки зиндонга ташлатиб, савалатган. Маҳкум бўлганлар шу хонада жаллод қўлига топширилган. Бу бинода яна хонга арзга келган ва хонга салом бериб кетувчи хон авлодлари кирадиган даҳлиз ва йўлаклар солинган.

Девонхона, оқсоқоллар йиғиладиган хона, қушбеги маҳкамаси кабиларга туташ бўлиб, у ерга кириладиган даҳлиз ва дарвоза бўлган[15, 298-299].

XIV асрларда Ўрта Осиёга саёҳат қилган Ибн Батутанинг гувоҳлик беришича, Хоразм амирининг шундай одати бўлганки, қози ва хаттотлар ҳар куни унинг қабулхонасига келиб махсус жойга ўтирган. Қозининг рўпарасида бош амирлардан бири ва саккиз нафар катта турк амирлари ҳамда “ёзғувчи” деб аталадиган шайхлар жойлашган. Улар шикоятларни шу тарзда эшитишган[16, 361].

Юқоридаги фикрлардан хулоса сифатида айтиш мумкинки, тарихий-маданий мероснинг тарихини ўрганиш билан бир қаторда қадр-қимматини

ёш авлоддан бошлаб, жамоатчилик онгига етказиш муҳим саналади. Ҳукмдорларнинг Кўринишхонаси, Арзхонаси каби маданий мерос объектларини синчиклаб ўрганиш тарихий манзарани аниқроқ ва тўлароқ тасаввур этиш имконини беради. Шу нуқтаи назардан, тарихий-маданий мероснинг қадр-қимматини англатувчи адабиётларни яратиш ва улар билан таълим муассасаларини таъминлаш мақсадга мувофиқдир. Зеро бугунги кунда тарихий-маданий меросни кўз қорачиғидай асраб-авайлаш дунёдаги замонавий мамлакатлар сиёсатининг муҳим йўналишига айланиб улгурди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Маъмурий ислоҳатлар доирасида маданий мерос соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 01.06.2023 йил. ПҚ-177-сон. https://lex.uz/ru/docs/6481847?ONDATE=01.01.2025%2000.
2. Кўриниш – туркча сўз. Подшоҳ ва хоннинг қабули. Қабул қилинадиган жой кўринишхона деб аталган. Элчиларни кўринишхонада қабул қилиш ва бу сўзнинг этимологик жиҳатлари ҳақида батафсил қаранг: Н. Аллаева. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. (XVI-XIX asrlar).Toshkent. 2019. 327-328 бб.
3. Дружинин Н.М. В страну туркмен и узбеков. – Спб: 1816. 87 б.
4. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. –Тошкент.: “Янги аср авлоди”, 2010. 101 б.
5. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. ... 95 б.
6. Худойберганов К. Хива кўхна қалъа. Маъсул муҳаррир Аҳмедов А. – Тошкент.: “Хоразм Маъмун академияси”, 2012. 218 б.
7. Булатова В.А., Ноткин И.И. Хива Обидалари. – Тошкент:. “Ўзбекистан”, 1972. 41-44 бб.
8. Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. Тошкент.: “Ofset Print” 2005. 30 б.
9. Атошов С.Б. Тошҳовли саройи архитектуравий тузилиши. // Iqro jurnali. УДК: 71.03. 2023. E-ISSN: 2181-434.
10. Йўлдошев М. Хива феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент.: “Ўздавнашр”, 1959. 294 б.
11. Ҳамидова М.С. Хоразм воҳаси тарихий ёдгорликларини ўрганишда Яҳё Ғуломов тадқиқотларининг ўрни (ЎзР МДА ҳужжатлари асосида) Хоразм тарихи. Замонавий тадқиқотларда. Тошкент-Урганч. Navroz. 2019. 437 б.
12. Абдурасулов У. В Хиву в поисках справедливости: церемония “Арздод” в Хивинском ханстве. // Ozbekiston tarixi. 2015. – № 2. 30 б.
13. Исламов Ф. Хива хонларининг шаҳар ташқарисидаги саройларининг ўзига хос хусусиятлари // Маданият чорраҳаси. 2021. №1. III жилд. – Тошкент.: 34-35 бб.
14. Худойберганов К. Паҳловон Маҳмуд ёдгорлигининг Хива хонлари тарихини ўрганишдаги ўрни. Тошкент.: 147-148 бб.

15. Йўлдошев М. Хива хонлиги феодал ер эгалиги … 298-299 бб.
16. Ибн Баттута. Саёҳатнома. Туҳфат ан-нуззор фи ғаройиб ал-амсор ва бажоиб ал-исфор. (Ғаройиб шаҳарлар ва ажойиб сафарлар ҳақида назар солиҳларига туҳфа) – Тошкент.: “Sharq”, 2012. 361 б.

ESHMATOVA N.

O‘zbekiston tarixi muzeyi filiali

Toshkent muzeyi yetakchi mutaxassisi

QOVUNCHI MADANIYATI VA UNING TOSHKENT VOHASIDAN BOSHQA HUDUDLARGA TARQALISHI

Annotatsiya: *Qovunchi madaniyati miloddan avvalgi II asrdan milodiy VI asrgacha davom etgan Markaziy Osiyoning muhim arxeologik madaniyatlaridan biridir. Uning nomi Toshkent vohasidagi Qovunchitepa xarobasidan olingan bo‘lib, bu madaniyat Toshkent vohasi, Sirdaryoning o‘rta oqimi va Farg‘onaning shimoliy-g‘arbiy hududlarida keng tarqalgan. Ushbu maqolada Qovunchi madaniyatining shakllanishi, rivojlanishi, iqtisodiy faoliyati, diniy e'tiqodlari va madaniy aloqalariva tarqalgan regionlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent vohasi, Qovunchitepa, Qovunchi I, Qovunchi II, Choshtepa, Mingo‘rik, So‘g‘d, Farg‘ona, hunarmandchilik.*

Qovunchi madaniyati Toshkent vohasidagi qadimgi dehqonchilik bilan shug‘ullangan tub aholi madaniyati asosida shakllangan. "Xalqlarning buyuk ko‘chishi" davrida bu hududga sarmatlar, hunlar va boshqa xalqlar kirib kelishi natijasida Qovunchi madaniyati ularning etnik va madaniy ta’siri ostida rivojlangan. Arxeolog G.V. Grigoryev 1934-1937 yillarda Qovunchitepa va Shoshtepa kabi joylarda qazish ishlarini olib borib, madaniy qatlamlarning aniq stratigrafiyasini belgilashga muvaffaq bo‘lgan. Bu tadqiqotlar Qovunchi madaniyatini ikki asosiy davrga ajratishga yordam berdi: Qovunchi I (miloddan avvalgi II-I asrlar) va Qovunchi II (milodiy I-IV asrlar va V-VI asrlar).

Qovunchi madaniyatini yaratgan xalqlar chorvachilik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar.

Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi aholining ma’lum qismi mil.avv. III-milodiy V asrlarda o‘troq hayot kechirganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, O‘tror, Oqtepa, Qorovultepa, Qovunchi, Choshtepa, Mingo‘rik xarobalari o‘rnida qanharlarning qo‘rg‘onlari va ko‘hna shaharlari bo‘lgan [3, 76].

Qovunchi madaniyati davrida Toshkent vohasi shaharsozlik va me'morchilik sohalarida sezilarli yutuqlarga erishgan. Majmualarda mahalliy an'analarga asoslangan me'morchilik maktabi shakllangan bo‘lib, yuksak mudofaa inshootlariga ega shaharlar barpo etilgan. O‘sha davrdagi ark va uning atrofida bir yoki ikki qishloqdan iborat aholi punktlari joylashgan bo‘lib, ularning ayrimlari mudofaa

devorlari bilan o‘ralgan edi. Shaharlar hunarmandchilik va savdo-sotiqning asosiy markazlari sifatida xizmat qilgan

Qovunchiliklar asosan dehqonchilik va yaylov chorvachiligi bilan shug‘ullanishgan. Irrigatsiya tizimining takomillashishi natijasida dehqonchilik yanada rivojlangan. Metallga ishlov berish, xususan, temirchilik va jez asboblar quyish ancha rivojlangan bo‘lib, bu hunarmandchilikning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Kulolchilikda sopol idishlar yasash asosiy o‘rin tutgan, ularning turi va shakli ko‘paygan. Masalan, Qovunchi I davrida ko‘vacha, tovoq kabi qizg‘ish yoki bo‘g‘iq qo‘ng‘ir rangdagi sopol idishlar tarqalgan bo‘lsa, Qovunchi II davrida quloqli xurmachalar, hayvon shaklidagi bandli idishlar keng tarqalgan

Qovunchiliklar dehqonchilik ma’budalari, olov va ajdodlarga sig‘inishgan. Arxeologik topilmalarda diniy marosimlar uchun mo‘ljallangan idish qopqoqlari, ko‘ralar, ikki boshli qo‘chqor yoki shoxli ho‘kiz boshlari shaklidagi o‘choq poytaxtliklari aniqlangan. Bu buyumlar tutatqi solish yoki qurbonlik marosimlarida foydalanilgan

Milodning dastlabki asrlarida Qovunchi madaniyati janubga tomon tarqalib, Sug‘d va Qashqadaryo hududlaridagi mahalliy madaniy majmualarga ta’sir ko‘rsatgan. VI asrga kelib, O‘rta Osiyoning markaziy vohalari bilan iqtisodiy va savdo aloqalarining kuchayishi hamda umumsug‘d madaniyati ta’sirida Toshkent vohasida Qovunchi madaniyati o‘ziga xos alomatlarini yo‘qotib, butun Movarounnahrga xos yagona madaniyat shakllana boshlagan.

Qovunchi madaniyati faqatgina Toshkent vohasida tarqalibgina qolmay, balki shimol, garb, janub va janubi-sharqiy hududlarga ham tarqaladi. Farg‘ona, Ushtrushona, So‘g‘d va hatto Baqtriyaning shimoliy hududlarigacha kirib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

Buxoro vohasidagi Romish VII kompleksida qo‘lda ishlangan sopol idishlarda Qovunchi II madaniyati ta’siri sezilarli bo‘lgan [1, 130].

Shuni ham takidlash kerakki, qovunchi madaniyati ko‘proq chorvachilik bilan bog‘liq hududlarga kengroq tarqalgan bo‘lsa-da, o‘troq asosan hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi madaniyatiga ham ta’sir ko‘rsatganligini kuzatish mumkin.

Kabanovning fikricha, yangi etnik qatlam sifatida kelib o‘rnashgan chorvador aholi Naxshabning o‘zlari uchun qulay bo‘lgan sero‘t dasht hududlariga joylashadi [4, 118]. Bu fikrning tasdig‘i sifatida Qashqadaryo vohasining quyi qismida qovunchi madaniyati ta’siri kuchli, yuqori qismida esa uning aksi. Xuddi shu holatni Samarqand Sug‘di yoki Markaziy Sug‘dga ham taalluqli deb aytish mumkin. Arxeolog Yarkulov A. tadqiqot olib borgan Ulustepa ham Samarqandning janubi-g‘arbida Naxshab bilan chegarada, dashtli hududda joylashgan. Shuning uchun bu yerda ham qovunchi madaniyati ta’siri kuchli bo‘lgan.

Sirdaryoning o‘rta oqimlarida shakllangan qovunchi madaniyatini IV asrdan So‘g‘d va ayniqsa Farg‘ona vodiysiga ta’siri ancha katta bo‘lganligini alohida ta’kidlashimiz kerak [5;6, 91-101]. Shu hududlarni arxeologik komplekslarida haqiqatdan ham qovunchi madaniyatini ta’sirini katta bo‘lganligini ayniqsa qo‘lda tayyorlangan idishlar sonining ko‘payganligida yaxshi ko‘rinadi.

Aholining Sirdaryo bo‘ylaridagi dasht hududlaridan So‘g‘d va Xorazm orqali

O‘rta Osiyoning boshqa dehqonchilik hududlari tomon kirib kelishi bu an’anaviy hisoblanadi.

Qovunchi madaniyatining ta’sir doirasi hatto O‘zbekistonning janubiy mintaqalari - Surxon vodiysigacha kirib borgan. Arxeolog T. Annaev o‘zining “Shimoliy Toxaristonning ilk o‘rta asrlar keramikasini bir guruhi” nomli maqolasida ko‘rsatib o‘tgan [2, 270].

Qovunchi madaniyatining tarqalish hududlari moddiy madaniyatida o‘z aksini ayniqsa ko‘proq ko‘rsatadi. Buni biz hunarmandchilikning eng keng tarqalgan turlaridan biri kulolchilikda ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan hududlarda ham aynan kulolchilik maxsulotlari orqali bu madaniyatning tarqalishi aniqlangan.

Ushbu madaniyatning tarqalishi xususida olimlarning fikrlari turlichadir. Masalan, S.P. Tolstov sopollarning qo‘pollashib ketganiga quldorlik tuzumining inqirozini sabab qilib ko‘rsatsa, S. K. Kabanov esa kidaritlarning vohaga kirib kelishi bilan bog‘lagan. I.E. Masson, G.V. Shishkina, S.B. Lunina, R.X. Sulaymanov va boshqalar qovunchi madaniyatining shimoldan janubga ta’siri bilan izohlagan [7, 38].

Qovunchi madaniyati Toshkent vohasi va unga tutash hududlarning qadimiy tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi mahalliy aholi madaniyatining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Arxeologik tadqiqotlar orqali aniqlangan me'morchilik yodgorliklari, hunarmandchilik buyumlari va diniy marosimlarga oid topilmalar bu madaniyatning boy merosini ochib beradi. Qovunchi madaniyati nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham mintaqaning madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (Mil.avv. VIII – mil. IV asrlar). Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
2. Sattorov N. O‘zbek xalqi etnogenezining shakllanish jarayonlari va uning rivojlanish bosqichlari. Markaziy Osiyo tarixining dolzarb muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2022-yil 25-noyabr, Toshkent-2022.
3. Xoliqova R.E. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Turon-Iqbol», 2020.
4. Кабанов С.К. Культура селских поселений Южного Согда III-VI вв. «Фан», Т, 1981.
5. Ураков Б. Культура Бухарского оазиса второй половины I тысячелетия до н.э. – первой половины I тысячелетия н.э. (на основе изучения керамических материалов). Автореф. дис. канд. ист. наук. М., 1982.
6. Исамиддинов М., Матбабаев Б., Кучкаров Т. Предварительное изучение керамики поселения Куюлтепа северной Ферганы. ИМКУ, вып. 18, Т.: «Фан», 1983.

7. Исомиддинов М. Сополга битилган тарих. “Фан”, Тошкент, 1993.

КАРИМОВ Элёр
Ўзбекистон давлат
Саньат музейи илмий ходими

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ САНЬАТ МУЗЕЙИДА САҚЛАНАЁТГАН XIX-XX-АСРЛАРГА ОИД РУС РАССОМЛАРИ ИЖОДИ (И.АЙВАЗОВСКИЙ МИСОЛИДА)

Аннотация: *Мазкур мақолада Иван Айвазовский ва бошқа рус рассомларининг ижоди,унинг денгиз борасида яратган асарлари ва шу билан бирга қайси усулда расм чизгани ва уни қайси рус рассомлари ва шоирларини этиборини тортгани ва бошқалар кўриб чиқилади. Бундан ташқари И.Айвазавскийнинг ўз ижоди борасида қайси давлатларга саёхат қилгани, унинг ютуққа ва мақсадга эришисида қаерларда ўқиганига хам этибор берилди. Жумладан Россияда XIX-асрнинг биринчи ўн йилликларида бирин-кетин янги тенденциялар услублар пайдо бўла бошлади. Мазкур асрнинг бошида классицизм тупида романтизм пайдо бўла бошлади. Шунинг билан бирга мазкур мақолада ушбу даврда яшаган таниқли рус рассомларидан Карль Брюлов ва бошқалар ҳақида ҳам гап кетади.*

Калит сўзлар: *Ўзбекистон, музей, рус, рангтасвир, Айвазовский, сайёр, марина (денгиз)*

Annotation:*This article examines the work of Ivan Aivazovsky and other Russian artists, his works on the sea, as well as the technique he used to paint, which Russian artists and poets he influenced, and others. In addition, attention is paid to which countries Aivazovsky traveled in his work, where he studied in order to achieve his goals and achievements. In particular, in the first decades of the 19th century, new trends and styles began to emerge in Russia one after another. At the beginning of this century, romanticism began to emerge on the basis of classicism. At the same time, this article also talks about the famous Russian artists of this period, Karl Bryullov and other artists.*

Key words: *Uzbekistan, museum, russian, painting, traveler,Aivazovskiy, marina(sea)*

Аннотация: *В данной статье рассматривается творчество Ивана Айвазовского и других русских художников, его работы на тему моря, а также техника, которую он использовал для написания картин, на каких русских художников и поэтов он оказал влияние и др. Кроме того, уделяется внимание тому, в каких странах Айвазовский путешествовал в своем творчестве, где он учился, чтобы достичь своих целей и достижений. В частности, в первые десятилетия XIX века в России одно за другим стали возникать новые течения и стили. В начале этого века на основе классицизма*

начал зарождаться романтизмМ. В то же время в данной статье также говорится о знаменитых русских художниках этого периода Карле Брюллове и дрогой художники

Ключевые слова: *Узбекистан, музей, русский, живопись, путешественник, Айвазовский, марина (море)*

Мазкур мақола Ўзбекистон саънатшунослигида кам ўрганилган долзарб мавзулардан бири XIX-XX-асрларга оид рассомларнинг ижодини ўрганишга бағишланади. Уларнинг асарлари Ўзбекистонга ташриф буюраётган хорижий саййёхлар этиборини тортмоқда. Бу эса танланган мавзунинг долзарблигини белгилайди. Музейга хар йили минглаб сайёхлар ташриф буюради. Ўзбекистон Давлат санъат музейида рус рангтасвири тарихида ўчмас из қолдирган передвижниклар(сайёр рассомлар) номи билан машҳурлик қозонган бир гуруҳ ижодкорларнинг асарлари сақланади. Мазкур рассомлар Иван Крамской, Иван Шишкин, Иван Аивазовский ва бошқалардир. Миллий санъатшунослигимизда кам ёритилган ушбу рассомлар ижодини янада чуқур ўрганиш ва музейда сақланаётган асарларни илмий таҳлил этиш муаллифнинг етакчи вазифаларидан бири ҳисобланади. Шу жиҳатдан ҳам мавзу муҳим аҳамиятга эгадир.

Сайёр рассомлар орасида маринист[1] сифатида танилган Иван Константинович Айвазовский ижодига назар ташлайдиган бўлсак, у ёшлигидан денгиз тўлқинлари, кўпик, булутлар ва қуруқликларни тасвирлаш техникасига қизиққан ва марина[2] жанрини жуда тез ўзлаштирган. И.Айвазовский 1817-йилда Қримда, Феодосияда туғилган. Унинг ёшликдаги қизиқишлари жуда кенг эди, бўлажак рассом яқин ўтмишда яшаб ижод қилган рангтасвир усталари ва замондошлари асарларини ўрганган. Мисол учун С.Щедрин, К.Брюллов, Ф.Бруни каби рассомлардан рангтасвир сирларини ўрганади.

1833-йилда И.Айвазовский Санкт-Петергбургга келди ва шу ерда Бадиий академияга ўқишга кирди. 1834-йилда И.Айвазовскийнинг ижодий изланишлари шу қадар тез суратда давом этдики ва шу қадар ёркин ишлар билан ажралиб турдики, 1835-йил Бадиий Академия кенгаши унинг “Денгиз устидаги фазо” (“Этюд воздуха над морем”) асари учун 2-даражали кумуш медал билан тақдирлайди. И.Айвазовский яратган асарлар ўз даврининг таниқли шахслари, санъат ва маданият арбоблари, жумладан А.Пушкин, В.Жуковский, И.Крилов ва М.Глинкаларнинг этиборини тортди. Натижада, 1836-йил баҳорида Айвазовский кемаларнинг амалий сафари пайтида Болтиқ флотига ўқув машғулотларига юборилди. Бу биринчи танишув Айвазовский Россия денгиз флоти билан чуқур мехр ва ижодий алоқасининг бошланиши эди. 1836 йилнинг ёзида ҳарбий кемаларда сузиш нафақат ўзгарувчан денгиз элементларини кузатиш заҳирасни бойитди, балки унга елканли кемалар дизайни,уларни бошқаришнинг бутун мураккаб тизими билан яқиндан танишиш имконини берди. Денгиз унинг ижодий йўлини белгилаб берувчи

[1] Маринист – денгизларни тасвирловчи рассом
[2] Марина – денгиз тасвирига бағишланган жанр

асосий омил ва илҳом манбаига айланди. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, рассом натурадан(реал ҳаётдан) фойдаланиб, узоқдан келаётган савдогарларни, ов қилаётган балиқчиларни, меҳнат қилаётган йигитларни, ҳар бир ҳодиса ва фигурани ҳаққоний тасвирлашга ҳаракат қилди.

Рассомнинг улкан меҳнат қобилиятини И.Айвазовскийнинг барча замондошлари айтиб ўтган. Сермаҳсул ижоди натижасида, у Бадиий Академиянинг пенсионери[3] сифатида Италияга йўлланмани қўлга киритади. У Италияда бир неча йил истиқомат қилиб, 1840-йил давомида у 13 та, 1841-йил давомида 7 та, 1842-йил давомида эса 20 та асар яратади. Италияда катта муваққият билан намойиш этилган И.Айвазовский асарлари Санкт-Петербургга илмий кўргазма учун юборилган. Бундан ташқари, И.Айвазовскийнинг ижоди орқали эришилган шон-шуҳрати тезда бутун дунёга тарқалади ва рассомнинг ватанида катта мамнуният билан қайтишига замин яратади.

Ўзбекистон давлат санъат музейида И.Айвазовскийнинг “Феодосия яқинидаги қирғоқ тўлқини”, “Даштдаги қуёшнинг ботиши”, “Денгиз”, “Қора денгиз”, “Елканли кема билан денгиз”, “Денгизнинг кўриниши” каби асарлари сақланади. Рассомнинг биргина “Феодосия яқинидаги қирғоқ тўлқини” деб номланган асарининг яратилган йили аниқ бўлиб, у 1884 йилга тегишлидир. Заҳирадаги рассомнинг ҳар бир картинаси унинг шахсий дастҳати билан имзоланганлиги мутахассисларнинг эътиборига лойиқдир. Ушбу картиналарда рассом асосан денгизни ва қирғоқ бўйини тасвирлаган, шу билан бирга қирғоққа урилаётган тўлқинларни ҳам атрофлича ифодалаган. “Даштдаги қуёшнинг ботиши” асарида эса фақатгина қуруқликни акс эттирган. Шу жиҳатдан музей коллекциясида сақланувчи машҳур рус маринистининг қаламига мансуб асарлар унинг ижодида яратилган асл экспонатлар сарасига киритилади.

Рассомнинг **“Феодосия яқинидаги қирғоқ тўлқини”** асарини таҳлил қилар эканмиз, ундаги денгизни ва тўлқинларни, шу билан бирга қирғоққа қайиқни боғлайдиган жойни ҳам кўришимиз мумкин. Барчасини мусаввир диққат билан тасвирлаш билан бирга қирғоқ ёнидани бепаён кенгликни ва узоқдаги тепаликларнинг ҳолатини синчковлик билан ёзган. Шунингдек асарда узоқдаги кеманинг кўриниши ва унинг денгиздаги ҳаракатини ҳам тасвирлаган. Ушбу асар рангтасвир услубида яратилган бўлиб, композициянинг аксарият қисми осмон билан тўлдирилган. Асарнинг биринчи планида сокин денгиз тасвирланган. Картина бўйига 45,5 см., энига 72.8 см. ҳажмда матога мойбўёқда яратилган.

[3] Пенсионер – Бадиий Академиянинг стипендиати бўлиб, стипендия (пенсия) кумуш ва олтин медали соҳибига берилган.

Рассом ижодини ўрганган санъатшунос-олимларнинг тадқиқотларида келтирилишига кўра, И.Айвазовский умри давомида олти мингга яқин асар яратган бўлиб, ундан 4 мингтаси денгиз кўринишига бағишланган, қолган 2 мингтасида қуруқликни акс эттирган. Демак, И. Айвазовскийнинг музейда сақланувчи **“Даштдаги қуёшнинг ботиши”**асари хақида гапирадиган бўлсак, картинада рассом қуёш ботаётган холатни тасвирлаш билан бирга узоқдан келаётган отлар подасидан чиқаётганган чангни хамда даштдаги тегирмонни, у ердаги хўкизларни ва ўрдакларни қаторлаб юришини тасвирлаган. Шу билан бирга узоқдан шахарнининг кўрининшини ва яна бир тегирмонни композицияга киритган. Картина 52,5 х 76,7 см. ҳажмда матога мойбўёқ ёрдамида яратилган.

Шу билан бирга И.Айвазовскийнинг **“Денгиз кўриниши”** асари ҳам диққатга сазовордир. Унда денгизнинг тинч ҳолати тасвирланган. Асар булутли кундуз пайтининг шоирона тасвирига бағишланган булиб, унда денгизнинг ҳаратга келиши аниқ кўрсатилмаган, аксинча, унинг тинч ва сокин ҳолатига урғу берилган. Сувдаги очиқ елканли кеманинг қалқиб туриши, хаттоки унинг соясида хам моҳирона ифодаланган. Асар бўйига 17 см., энига 27 см. ҳажмда матога мойбўёкда ёзилган. Музей тўпламида сақланувчи И.Айвазовскийнинг асарлари характери хилма-хиллиги жиҳатидан тадқиқотчиларда қизиқиш уйғотади, рассом ижодини янада чуқурроқ ўрганишга, қолаверса уни турли даврларга ва босқичларга ажратиб таснифлашга ундайди.

Шунингдек музейда И.Айвазовскийнинг “**Қора денгиз**” асари сақланади. У хақида гапирадиган бўлсак, асарда жўшқин ва шиддатли шамол пайтида эгилиб бораётган кема тасвирланган. Денгизнинг тўқ ранги асарнинг номини белгилаб беради. Рассом айнан Қора денгизнинг ўзига хос кўринишини муҳрлашга ва шу билан бирга унинг спецификани томошабинга етказиб беришга ҳаракат қилган. Қизил байроқли кема очиқ денгизда харакатланаётган пайти, унинг ёнидан учиб ўтаётган оқ қушлар (чайкалар?) картинани бошқа асарлардан ажратиб турувчи унсурлар ҳисобланади.

Композициянинг катта қисмини осмон эгаллаганини ва ундаги динамик суртмаларни инобатга олиб, воқеа кучли ёмғир пайтида тавирланганлигини таҳмин қилиш мумкин. Асар бўйига 24 см. Ва энига 32 см. ҳажмда матога мойбўёқ ёрдамида ёзилган.

Ўзбекистон давлат санъат музейида И.Айвазовскийнинг нафақат рангтасвир асарлари, балки унинг графикаси ҳам намойиш этилган**. "Елканли кема билан денгиз"** ва "Денгиз" асарлари рассомнинг графика услубига мурожаат этиб яратган ижод маҳсулидир.

И.Айвазовскийнинг "Елканли кема билан денгиз" асари ноанъанавий вертикал кўринишда ҳал этилган бўлиб, композицияда денгиз ва якка кемани кўришимиз мумкин. Унинг техникаси графика туринининг сувбўёқ услубида яратилганлиги асарга бутунлай ўзгача жозиба бахш этади. Унда тасвирланган тўфонли холати картинага драматик психологик хусусият бағишлайди. Рассом алоҳида деталларга эътибор бериб, айниқса тўлқинларни акс эттиришда нур-соя ўйинидан маҳорат билан фойдаланган. Асар 12,5х8.5 см. ҳажмда картонга сувбўёқ (акварел)ёрдамида чизилган.

Рассомнинг кейинги график асари **"Денгиз"** деб номланади ва унда денгизда рўй берган кема ҳалокатидан бир парча тасвирланган. Композициянинг чап қисмида чўкаётган кема ва унинг ёнида одамлар ўтирган қайиқ тасвирланган. Ўнг қисмида эса кема томон сузаётган қайиқни кўришимиз мумкин. Асар графиканинг кам учрайдиган техникасида яратилган, у қоғозга гуаш ёрдамида гризайл услубида ёзилган. Айнан шуниси билан ҳам қадрли, шу сабабли ушбу асар келажакда ўта нозик консервация ва эҳтиёткорона реставрация шартларига муҳтож. Асар бўйига 18 см. ва энига 26.5 см. ҳажмда яратилган.

1846 йил давомида И.Айвазовский Севестопол, Феодосия, Кереч ва Одессия каби шаҳарларда ижодий сафарлар уюштиради ва 27 та асар яратади[1][37]. Уларнинг аксарияти Константинопльга сўнги саёҳат ва архипелак бўйлаб сузиб ўтиш таасуротлари остида тасвирланган. Шу билан бирга ўша йили у Ревел, Вйборг, Красная Горка манзараларини яратади, шунингдек денгиз жангларига бағишланган туркум устида иш олиб боради.

Феодосияда порт қурилаётганини ва темир йўл қурилаётганда Айвазовский воқеалар олдидан Феодосия портини тўхтаташ жойларида параходлар ва сокин ойдин тунда денгиз бўйлаб ҳартакатланаётган поэзд билан тасвирланган расмни чизди. 1850-йилда Айвазовский машҳур "Тўққизинчи тўлқин" картинасини чизди. Бу расмда бўронли тундан кейин пайдо бўлган эрта тонг тасвирланган. Устунлар вайроналари остидан нажот излаётган бир гуруҳ одамлар устида қилиб тасвирлаган. Айвазовский қандай қилиб тўлқинлар босими остида кема аста секин парчаланиб, денгизчилар ҳалок бўлганини аниқ тассавур остида чизган. Рассом шу туйғуни ўзимизда уйғотиб, келаётган тиниқликни тонг шафақининг ёркин нурини,тонг шафақининг ёркин нурини, қуёшнинг ҳаётбахш нури ва илиқлигини янада кескинроқ ҳис қилади, курашнинг ғалабали якунига умид ва ишонч уйғотади.

1851-йилда Айвазовский Қора денгиз флотининг ҳаракатларида қатнашди. Бу уни яхши денгиз флоти билан бойитди. Ушбу саёҳатда у флот билан алоқаларни мустаҳкамлади ва кенгайтирди. Рассом бу борада бир қатор расамлар чизган. Улардан иккитаси Феодосияда саънат галериясида сақланади. Биринчиси, Севастопол кўрфазига кўтарилган "Владимир параходининг келиши" асарини тасвирланган. Қуёш нурлари билан кўтарилган кемалар ва қирғоқдан кўтарилган кемалар ва пароход тутини, тонгнинг қизғин нурини шинингдек денгиз устидаги булутларни тасвирлаган.

И.Айвазовскийни ҳамма денгиз рассоми сифатида билади. Аммо унинг истеъдоди турли жанрларда, ғояларга ва кутилмаган мавзуларга бегона эмас эди. Айвазовскийнинг картиналари мавзуларни диверсификация қилиш истаги ижодининг дастлабки йиллардан бошланган. Сўнгра бу истак "Хаос" каби асарларида, умрининг иккинчи ярмида эса "Волга манзараси" ва "Даштдаги шамол тегирмони" каби картиналарида, ўзига яқин ҳаёт ва табиатни акс эттирувчи картиналарда ифодаланган.

[1] Н.Барсамов. И.Айвазовский. Симферополь: Кримиздат, 1950.

Шунинг билан бирга И.Айвазовскийнинг “Шимолий денгиздаги бўрон”(1865), “Бўрон”(1872), “Қора денгиз” (1881), “Венеция(1849)”, “Крит ороли(1867)”да каби асарлари рассомнинг чет элга саёхатлари натижасидир[2][155].

И.Айвазовский номининг шуҳрати нафақат бутун Россия бўйлаб, балки унинг ташқарисида ҳам тарқалди. Айвазовскийнинг гўзал тасвирлари кўпчиликни биринчи марта жанубий табиат ва денгиз билан таништирди. Айвазовский санъати рус табиатининг хилма хиллиги ва бойлиги ғоясини кенгайтирди.

Хулоса қилиб айганда, Ўзбекистон Давлат саньат музейида сақланаётган XIX-XX-асрларга оид рус рассомлар, ва хусусан И.Айвазовский ижоди кенгроқ тадқиқ этилишни, кенг оммага тарғибот ва ташвиқот этилишини талаб қилади. Ушбу мақолани ёзиш билан бирга биз XIX-XX-асрларга оид рус рассомларидан И.Айвазовскийнинг ижод йўлини ўргандик ва уларнинг яратган асарлари билан танишиб чиқдик. Асосан мусаввирлардандан Айвазовский асарлари Ўзбекистон давлат саньат музейидаги денгиз борасида яратган асарлари хорижий сайёхларнинг диққатини тортгани этиборга лойиқдир.

Тадқиқод натижалари шуни кўрсатадики Айвазовский денгиз ҳаёти билан боғлиқ барча воқеаларга ўз санъати билан жавоб бериб, жонли ифодалаб берганини кўришимиз мумкин. Шунингдек, Айвазовский картиналарга ўзгача ҳаётлик бахш этиб, томошабинларда санъатга қизиқиш уйғотади. Рассомнинг улкан меҳнат қобилиятини Айвазовскийнинг барча замондошлари айтиб ўтган. Жумладан, буни тарихни кейинги давларда хам кўриш мумкин. Мазкур таниқли рус рассомининг асарлари хорижий сайёхларнинг этиборини тортиш билан бирга ўзбек томошабинларида хам қизиқиш уйғотмокда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. 1-том Toshkent, 2000.
2. Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. 7-том Toshkent, 2004.
3. Н.Барсамов. И.Айвазовский. – Симферополь: Кримиздат, 1950.
4. Г. К. Леонтьева К. Брюллов. – Ленинград , 1986.
5. Н.Г.Машговцев. И. Е. Репин. – Москва, 1957.

[2] Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. 1-том. Toshkent 2000

SAFAYEV Mansur Maxmudovich
O‘zbekiston fanlar akademiyasi,
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
ilmiy xodimi
safoyevmansur8@gmail.com

NUROTA GILAMLARINING TADQIQI

Annotatsiya: *Maqolada 1944-1946-yillarda Nurota hududida o‘tkazilgan etnografik ekspeditsiyaning gilam san’ati va etnik tarixni o‘rganishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu ekspeditsiya davomida gilam to‘qish texnologiyasi va gilam mahsulotlari o‘rganilib, bu san’atning o‘ziga xos jihatlari hujjatlashtirilgan. Shuningdek, maqolada 1975-yilda muzey tomonidan Nurota hududiga yuborilgan ekspeditsiya natijalariga asoslanib, gilam san’ati va o‘rmak-dastgohlarning muzeylashtirilishi masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot Nurota gilamchiligining madaniy, etnografik va ilmiy ahamiyatini saqlash, shuningdek, ushbu san’atning muzeylarda saqlanishi va hujjatlashtirilishining zarurligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: Nurota, V.G.Moshkova, gilamdo‘zlik, muzeylashtirish, an’anaviylik.

Abstract: *This article analyzes the significance of the ethnographic expedition conducted in the Nurata region from 1944 to 1946 in studying carpet art and ethnic history. During this expedition, carpet weaving techniques and products were examined, and the unique aspects of this art form were documented. The article also explores the museumification of carpet art and weaving looms, based on the results of an expedition sent by the museum to the Nurata region in 1975. The study emphasizes the importance of preserving the cultural, ethnographic, and scientific significance of Nurata carpet weaving, as well as the necessity of conserving and documenting this art form in museums.*

Keywords: Nurata, V.G. Moshkova, carpet weaving, museumification, traditionalism.

Аннотация: *В статье анализируется значение этнографической экспедиции, проведенной в Нуратинском регионе в 1944-1946 годах, для изучения коврового искусства и этнической истории. В ходе этой экспедиции были исследованы технология ковроткачества и ковровые изделия, документально зафиксированы особенности этого искусства. Также в статье рассматривается вопрос музеефикации коврового искусства и ткацких станков на основе результатов экспедиции, направленной музеем в Нуратинский регион в 1975 году. Исследование подчеркивает важность сохранения культурного, этнографического и научного значения нуратинского ковроткачества, а также необходимость сохранения и документирования этого искусства в музеях.*

Ключевые слова: *Нурата, В.Г.Мошкова, ковроделие, музеефикация, традиционность.*

O‘zbekistonda gilamdo‘zlik san’ati uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, turli mintaqalarda shakllangan an’anaviy uslublar, rang-barang naqshlar va tabiiy bo‘yoqlardan foydalanish madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. “O‘zbekiston gilamdo‘zligi” tushunchasi “o‘zbek gilamdo‘zligi” iborasi bilan to‘liq mos kelmaydi, chunki mamlakat hududida turli etnik guruhlar – o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, arablar, turkmanlar, qirg‘izlar, qozoqlar va tojiklar qadimdan gilam to‘qish bilan shug‘ullanib kelgan [5. - C.7]. Shu sababli, O‘zbekistonda gilamchilik an’analarini tadqiq etishda nafaqat milliy, balki hududiy va etnografik jihatlarni ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Xorazm, Samarqand, Urgut, Nurota, Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida gilamchilik an’analari saqlanib, mahalliy xususiyatlarga ko‘ra rivojlanmoqda [4. - Б.518].

Sovet davrida O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti uchun asosiy ilmiy yo‘nalishlardan biri o‘zbek xalqining etnogenezi masalasi bo‘lgan. Ushbu ilmiy yondashuv doirasida, 1944-yilda Nurota hududida o‘tkazilgan etnografik ekspeditsiya mintaqaning etnik tarkibi va migratsiya jarayonlarini aniqlashga qaratilgan [8]. Tadqiqot jarayonida turkman jamoalarining kelib chiqishi, mahalliy aholi bilan o‘zaro aloqalari hamda ularning xo‘jalik va madaniy hayoti o‘rganilgan. Sirdaryodan ko‘chib kelish haqidagi rivoyatlar tarixiy manbalar bilan solishtirilib, ularning ilmiy asosi baholangan. Shu nuqtai nazardan, Moshkova Nurota hududiga oid gilamlarni tadqiq qilishda etnik tarkibning tarixiga alohida to‘xtalib, gilam san’atini xalqlarning etnogeneziga bog‘lab, bu sohadagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratgan.

Nurota tog‘ oralig‘i hududlari azaldan tojik va turkiy xalqlarning turli etnik guruhlaridan iborat aholining xilma-xilligi bilan ajralib kelgan. Gilam to‘qish san’ati faqat turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan edi. Nurota hududida yashovchi turkman guruhlari til va turmush tarzi jihatidan o‘zbek jamiyatiga moslashgan bo‘lsa-da, ularning tarixiy ildizlari turkman xalqi bilan bog‘liq. Rivoyatlarga ko‘ra, bu guruhlar qadim zamonlarda Sirdaryodan Nurota hududlariga ko‘chib kelib, shu yerda doimiy yashab qolishgan. Tarixiy manbalar ham bu hududlarning IX-X asrlarda o‘g‘uzlar yashagan va keyinchalik hozirgi Turkmaniston, Eron hamda Kichik Osiyoga ko‘chgan ilk nuqtalardan biri bo‘lganini tasdiqlaydi.

Nurota tog‘larida uzoq yillardan beri yashab kelayotgan turkmanlardan tashqari, bu hududga turli davrlarda hozirgi Turkmaniston hududlaridan ham turkman qabilalari ko‘chib kelgan. XV-XVI asrlarda Mang‘ishloq, XVII asrda esa - ersari qabilalari Nurotaga joylashgan [7, - C.67-85].

Nurota tog‘ oralig‘ida yashovchi o‘zbeklarning gilamdo‘zlik an’analari 1944-yilgacha deyarli o‘rganilmagan. Moshkovaning ta’kidlashicha, O‘rta Osiyo

gilamlari haqida mavjud bo‘lgan rus va xorijiy adabiyotlarda ushbu hudud gilamchiligi haqida hech qanday ma’lumot mavjud emas. Ana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida Moshkova 1944 va 1946-yillarda ikki marotaba ekspeditsiya safarlarini amalga oshirgan. Ushbu ilmiy sayohatlar davomida u faqatgina ayrim gilam ishlab chiqariladigan hududlar bilan tanishishga muvaffaq bo‘lgan.

Ekspeditsiya natijalari Nurota turkmanlarining gilamdo‘zlik an’analari haqida aniq tasavvur hosil qilishga hamda ayrim mualliflar tomonidan Nurota turkmanlarining gilam mahsulotlarini noto‘g‘ri ravishda qoraqalpoqlarnikiga nisbat berilgan ta’riflarga aniqlik kiritishga imkon berdi [7, - C.67-85]. Nurotaliklarning gilamlarida, Turkman gilamlariga xos bo‘lgan gyolli kodi (muayyan medalon-gyollarning qat’iy bir qabila doirasida qo‘llanilishi) ishlatiladi. Bu holat yirik qabila jamoalarining urug‘chilik asosidagi identifikatsiyasini saqlab qolishlari bilan bog‘liq bo‘lib, kichik guruhlarning yirik qabilalar tarkibiga qo‘shilib ketishi yoki ular tomonidan o‘troq turmush tarziga o‘tish jarayoni bilan izohlanadi [6, - Б.131].

Moshkova Nurota turkmanlarining gilam mahsulotlarini aholidan olingan namunalarga va ekspeditsiyalar davomida hunarmand ayollardan olingan batafsil ma’lumotlarga asoslanib tavsiflagan. Tadqiqot jarayonida naqsh va motivlarga oid chizmalar ishlab, har bir buyum uchun ilmiy tavsif kartochkalari tuzilgan. Ekspeditsiya davomida jami 64 ta gilam mahsuloti tavsiflangan. Moshkovaning mazkur ishlari Nurota gilamdo‘zlik an’analarini hujjatlashtirishda va bu hududga oid gilamlarni muzey fondlarida ilmiy asosda tasniflashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, u O‘zbekistonning yirik muzeylari uchun tuzilgan ilmiy pasportlar ustida ham faol ishlagan. Bu faoliyati orqali Moshkova Nurota gilamchiligi haqidagi dastlabki ilmiy asoslarni yaratgan, lekin uning fundamental monografiyasi vafotidan keyin nashr etilgan. Mazkur monografiyaning bir bo‘limi “Nurota tog‘lari oralig‘idagi turkman urug‘iga mansub o‘zbeklarning gilamchilik san’ati” deb nomlanib, Nurota gilamchiligining tarixiy va madaniy kontekstini chuqur tahlil qilib, bu sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy poydevor yaratgan.

1970-yillarda O‘zbekistonda muzeylarda etnografik tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida maxsus bo‘limlar tashkil etildi. 1972-yilda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi (hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi) qoshida etnografiya bo‘limi ochilib, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyidagi (hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi) folklor sektori folklor va etnografiya sektori sifatida qayta tashkil etilgan [3. -C.198.]. Bu tashabbuslar muzeylarning etnografik fondlarini boyitish, an’anaviy madaniyatni hujjatlashtirish va tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

1975-yilda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimlarining Nurotaga uyushtirgan ekspeditsiyasi davomida hududdagi hunarmandchilik faoliyati har tomonlama o‘rganilgan. Muzey fondlarida mavjud bo‘lmagan turli moddiy madaniy meros namunalari – hunarmandlarning mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari,

kiyim-kechak, kashtachilik, zargarlik buyumlari, mis va sopol idishlar, dehqonchilik asboblari to‘plangan. Shu bilan birga, ushbu buyumlar bilan bog‘liq hunarmandchilik an’analari, usta-shogird tizimi, maxsus atamalar va marosimlarga oid ma’lumotlar ham qayd etilgan. Ekspeditsiya oldidan tadqiqotchilar Nurota hunarmandchiligi va etnografiyasiga doir ilmiy manbalar, shuningdek, muzey arxiv hujjatlarini o‘rgangan[1].

Ushbu ekspeditsiya natijalariga ko‘ra, Nurota gilamchilik an’analari mahalliy iqtisodiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mintaqa qorako‘l qo‘ylarini yetishtirishga ixtisoslashgani sababli, ilgari uy sharoitida gilam to‘qish ham keng tarqalgan. Ekspeditsiya ishtirokchilari tomonidan ushbu jarayonni aks ettiruvchi bir qancha buyumlar tavsiflangan. Xususan, Ungalova Omona tomonidan qo‘lda to‘qilgan sholcha-alacha va palos to‘qish uchun ishlatilgan o‘rmak-dastgoh xarid qilingan [2]. Mazkur buyumlar nafaqat hunarmandchilik an’analarining moddiy ifodasi sifatida, balki gilam to‘qish amaliyotining muzey muhitida aks ettirilishi mumkinligi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Muzey xodimlarining o‘rmak-dastgohni sotib olishi, ehtimol, Nurota gilamchilik an’analarining texnologik xususiyatlarini ilmiy o‘rganish va hujjatlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Bunday nodir ashyolar, agar muzey ekspozitsiyasida namoyish etilgan bo‘lsa, nafaqat hunarmandchilik jarayonlarini yoritishda, balki tashrif buyuruvchilarga an’anaviy gilam to‘qish usullarini jonli tasavvur qilish imkoniyatini yaratishda muhim rol o‘ynagan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Nurota gilamchilik an’analarini o‘rganish tarixiy-etnografik ekspeditsiyalarning muhim natijalaridan biri sifatida qadrlanadi. Bu ekspeditsiyalar ancha avval amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning to‘plagan ma’lumotlari bugungi kunda ham ilmiy va madaniy ahamiyatga ega. Ushbu merosni chuqurroq yoritish uchun yangi ekspozitsiyalar tashkil etish, mintaqaviy gilamlar haqida ma’lumotnomalar tuzish va an’anaviy uslublarni tizimli hujjatlashtirish zarur. Bu orqali nafaqat gilamchilik san’ati qayta jonlantiriladi, balki xalqning madaniy xotirasi ham mustahkamlanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

7. O‘z FA MA 59-fond, 2-ro‘yxat, 444-ish, 94-varaq;
8. O‘z FA MA 59-fond, 2-ro‘yxat, 444-ish, 96-97-varaqlar;
9. Наука в Узбекистане. Т.2.Общественные науки. Т.: Фан, 1974. - 344 с
10. Хакимов А. Ўзбекистон санъат тарихи. Қадимги давр, ўрта асрлар, ҳозирги замон [Матн] - Тошкент: Zilol buloq, 2022,- 528 б.
11. Эльмира Гюль. Ковры Узбекистана: история, эстетика, семантика. 2019. – 256 с.
12. «Ўзбекистон маданий мероси» муаллифлик туркуми: «Ўзбекистон гиламдўзлиги: асрларга тенгдош анъана» китоб-альбоми./Ф.Ф. Абдухолиқов, Э.В. Ртвеладзе, Э.Ф. Гюль, Е.Г. Царева, 2020. // Тошкент: «Silk Road Media», «East Star Media» МЧЖ, «Darakchi inform servis» МЧЖ буюртмасига кўра, 2020. - 448 б.

13.Мошкова, В. Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX - начала XX веков. - Ташкент : Фан, 1970. — 254 с., 18 л. ил.
14.Мошкова В. Г. Этнографическая экспедиция к туркменам Самаркандской обл., «Советская этнография», 1946, № 1, стр. 241.

JABBAROVA Latofat Tulkinjonovna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti,
Muzeyshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi
latofat_85@bk.ru

KURALBAYEVA Kamilla Dilshodovna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti,
Muzeyshunoslik ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

ARXITEKTURA OBYEKTLARIDA MUZEYLAR TASHKIL ETISH VA MOSLASHTIRISH JARAYONLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarixiy arxitektura binolarini muzeylashtirish, ekspozitsiya tashkil etish va ko'chma ko'rgazmalar faoliyatiga moslashtirish tajribasi xorijiy hamda mahalliy miqyosda Luvr muzeyi, O'zbekistondagi "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi misolida tahlil etilgan. Shuningdek, yodgorliklarni muzeylar faoliyatiga moslashtirishda ularni konservatsiya qilishda ilmiy tajribaviy loyiha ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish istiqbollari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *muzey, muzeylashtirish, ekspozitsiya, loyihalashtirish, Luvr muzeyi, "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi, obyekt, arxitektura.*

Аннотация: *В данной статье проанализирован опыт музеефикации, организации экспозиций и адаптации исторических архитектурных зданий для проведения передвижных выставок как в зарубежном, так и в местном масштабе на примере музея Лувр и Государственного музея-заповедника "Коканд". Также, обоснованы перспективы разработки и внедрения в практику научно-экспериментального проекта по консервации памятников при их адаптации к музейной деятельности.*

Ключевые слова: *музей, музеефикация, экспозиция, проектирование, Лувр, Государственный музей-заповедник "Коканд", объект, архитектура.*

Abstract: *This article analyzes the experience of museification, exhibition organization, and adaptation of historical architectural buildings for mobile exhibitions, both internationally and locally, using the examples of the Louvre Museum and the State Museum-Reserve "Kokand" in Uzbekistan. The article also discusses the prospects for the development and implementation of a scientific-experimental project for the conservation of monuments during their adaptation for*

museum activities.

Key words: *museum, museification, exhibition, design, Louvre, State Museum-Reserve "Kokand", object, architecture.*

"Zamonaviy muzeyning muhim vazifalaridan biri muzeylashtirish jarayonini amalga oshirishdir. Ushbu atamaning umume'tirof etilgan tushunchasi quyidagichadir: "muzeylashtirish atamasi muzeyga moslashtirish yoki (umumiy ma'noda) inson faoliyati va tabiiy joyning asosiy nuqtasi bo'lishi mumkin bo'lgan hayotning muhim nuqtasini o'ziga xos muzeyga aylantirishdir". Muzeyshunoslik nuqtai nazaridan, muzeylashtirish - bu tabiiy yoki madaniy muhitdan jismoniy yoki konseptual narsalarni ajratib olishga va unga muzey maqomini berishga harakat qiladigan faoliyat"[2, 57].

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra muzey binolarining 80 % avval boshqa maqsadlarda qo'llanilgan saroy, qal'a, diniy qurilmalar, jamoat va boshqa soha uchun qurilgan binolarga joylashtirilgan. Odatda bu binolarning interyerlari muzey vazifalariga moslab qayta rekonstruksiya qilib moslashtiriladi [3, 50]. Jahon amaliyotida buning yorqin namunalaridan biri sifatida Luvr muzeyini misol keltirish mumkin. Dastavval muzey binosi saroy-qa'la sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, 1793-yilda omma uchun ochiq muzeyga aylantiriladi. Birinchi ekspozitsiya fransuz rassomi Yuzer Robert tomonidan loyihalashtirilgan. Luvr muzeyi bugungi kunda nafaqat binosi balki ekspozitsiyasini ham muzey talablari asosida to'g'ri moslashtirilganligi bilan ajralib turadi. 1981-yilda Luvr muzeyi binosi old qismini loyihalashtirish bo'yicha e'lon qilingan tanlovda amerikalik arxitektor Yo Ming Pey loyihasi g'olib deb topiladi. Avvaliga tanqidchilar tomonidan salbiy fikrlar bildirilgan bo'lsada, keyinchalik oynali piramida tarixiy binoga zarar yetkazmagan holda loyihalashtirilgan omadli loyiha sifatida tan olindi.

XX asr 50-90-yillarida eksponatlar sonining o'sishi sababli muzey ekspozitsiyasiga bir qator o'zgartirishlar kiritilib, ichki interyer qismida restavratsiya ishlari olib boriladi. Ikkinchi va uchinchi qavatlardagi ekspozitsiyalar yangi texnologiyalar asosida qayta jihozlanadi. Luvr muzeyi ekspozitsiyasida qizil, qora, jigarrang rang kabi ranglardan foydalangan holda, hozirgi kunda muzey interyerini yoritishda keng foydlanilayotgan LED lampalari ishlatilgan. Google, Apple, Samsung kabi dunyoning eng ilg'or kompaniyalari homiyligida so'nggi innovatsion texnologiyalar yordamida jihozlangan [4, 43]. Eksponatlar asosan xronologik asosda ketma-ket joylashtirilgan. Ammo ekspozitsiyalar joylashuvida ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Masalan, bir rassom yoki bir davrga tegishli bo'lgan asarlar bir-biridan uzoqda joylashtirilganligi tashrifchiga noqulaylik tug'diradi.

Muzeylarni moslashtirilgan binolarda joylashtirishning asosiy talablari bu tashrifchilar uchun erkin harakatlanish imkoniyati, nogironlar uchun maxsus yo'laklarning mavjudligi, muhofaza qilish choralari va harorat-namlik rejimidan to'g'ri foydalanish sanaladi. Luvr muzeyi bugungi kunda ushbu talablarning deyarli barchasiga javob bersada, doimiy tashrifchilarga to'la Mona Liza hamda Qadimgi Yunoniston kolleksiyalari namoyish etiladigan ko'rgazma zallarida harorat-namlikni bir tekisda ushlab turish imkoniyati mavjud emas.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistondagi aksariyat madaniy meros obyektlari interyerlarining sochilib ketganligi va tarqoqligi tufayli tarixiy saroy va qarorgohlarni konservatsiyalash imkoni bo‘lmadi. Turli siyosiy jarayonlar ta’sirida saroy va qarorgohlar bo‘laklarga bo‘linib, turli tashkilotlar ixtiyoriga berilgan edi. Buning oqibatida birorta ham saroy-muzeyni dastlabki ko‘rinishida qayta tiklashning iloji topilmadi. Qo‘qon, Buxoro, Xiva va boshqa joylarda saqlanib qolgan saroy binolaridan ommaga g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishda foydalanish mumkinligi sababli ularning aksariyati muzeyga aylantirildi.

Mana shunday madaniy meros obyekti hisoblangan “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasi moslashtirilgan binoda joylashgan. Muzey 1925-yilda Farg‘ona Okurg ijroqo‘mining qarori bilan Xudoyorxon o‘rdasining saqlanib qolingan qismida tashkil etildi. 1925-yili Turkiston respublikasi Markaziy ijroiya komiteti Sredazkomstaris va Farg‘ona oblast ijroiya komitetining so‘nggi Qo‘qon xoni Xudoyorxonning sobiq saroyini Sredazkomstaris ixtiyoriga topshirish haqidagi iltimoslarini qabul qildi [6, 92].

Muzey 1929-yilgacha “Okrug muzeyi”, 1929-yildan “Rayonlararo muzey”, 1959-yildan “Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi”, 2017-yildan esa muzey “Qo‘qon madaniyati tarixi davlat muzeyi” [5, 36], 2019-yildan “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasi [1] maqomini oldi.

Muzeyga aylantirilgan tarixiy bino Qo‘qonning so‘nggi xoni Said Muhammad Xudoyorxon topshirig‘i bilan 1865-1870-yillarda 5 yil davomida qurilgan. Saroy qurib bitkazilganda dastlab 8 gektar bo‘lgan. Rus harbiy bosqini vaqtida harbiy garnizonga aylantirilgan va juda ko‘p qismlari vayron qilib yuborilgan. Hozirgi darvoza aslida 3 chi darvoza hisoblanib, unga qadar yana 2 ta darvoza va 2 ta saroy (tashqi va o‘rta saroy) bo‘lgan. Hozirgi ichki saroy qismi ham to‘liq holatda saqlanmagan. Ammo old qismi va saqlanib qolgan peshtoqlari aksar qismi original holatda saqlangan. Devorlari ganj, koshin bilan bezatilgan.

Sredazkomstaris vakili 1925-yil 5-iyulda muzey tashkil etish uchun Qo‘qon shahriga xizmat safariga jalb qilinadi, viloyat ijroiya komiteti, Sredazkomstaris va boshsa aloqador tashkilotlarning faol yordami bilan ikki yillik qizgin tayyorgarlik ishlaridan so‘ng, nihoyat, Farg‘ona muzeyi ochiladi. Muzey, dastlab, tabiat, turmush, tarix va xalq xo‘jaligini, xususan, Farg‘ona viloyatida qishloq va xo‘jaligini aks ettiruvchi o‘lkashunoslik sohasida ish olib boradi. Shahar markazida muzey ochilishi katta madaniy-oqartuv ahamiyatiga ega bo‘ldi. Saroy atrofi bog‘-rog‘lardan iborat ekanligidan muzey dam olish joyiga aylandi. Mehnatkashlar o‘z jonajon o‘lkalarining tabiati, tarixi, iqtisodi, adabiyoti va san’ati bilan tanishish uchun keng imkoniyatga ega bo‘ldilar.

Biroq, muzey ekspozitsiyalarida jiddiy nuqsonlar mavjud edi. Xususan, bu kamchilik mavzularni bir-biriga bog‘lamasdan, alohida-alohida namoyish etish va voqealarni yoritishda izchil tarixiy prinsip buzilganligida yaqqol ko‘rindi [6, 23].

Qo‘qon shahrining durdonasi hisoblangan “O‘rda” Qo‘qon xoni Xudoyorxon saroyi bugungi kunda ham o‘zining hashamdorligi bilan tomoshabinlarni hayratga soladi. Saroy to‘rt gektarga yaqin to‘g‘ri burchakli maydonni egallaydi va ko‘p hovlili kompozitsiyani tashkil etadi. Sharq tomondagi bosh darvozaga keng yo‘lak olib boradi. Darvozaxona peshtoqiga arab imlosida yirik harflar bilan “Arki oliy

Said Muhammad Xudoyorxon” deb yozilgan. Saroy shu yerlik ustalar mulla Suyarqul, usta Solixo‘ja va buxorolik usta Fozilxo‘ja hamda me’mor Mir Ubaydulla rahbarligida, asosan, pishiq g‘ishtdan qurilgan. Bosh peshtoq, darvozaxona va tantana zallari zeb berib ishlangan. Boshqa binolarning pardozi odmi. Sharqiy peshtoq o‘rtasida kirish tomonning ulug‘vorligini ta’kidlash maqsadida mezanali peshtoq qad ko‘targan. Ichkariga qarab ochiladigan o‘ymakor darvoza keyinchalik usta Qodirjon Haydarov tomonidan ta’mirlangan, peshtoqning yon tomonlari uncha chuqur bo‘lmagan to‘g‘ri burchakli tokchalar bilan bezatilgan. Ayvon havozasi qator muqarnas va sharsimon ko‘zachali yog‘och o‘ymakor ustunlar bilan ishlangan. Tashqi zallarning ichki qismlari guldor va rang-barang koshinlar hamda o‘yma ganch naqshlar bilan bezatilgan. Shiftlarga gul solinib, ularning o‘rta qismida havozak ishlangan. Xonalarning tepa qismi ganch muqarnaslar bilan hoshiyalangan. Ayvon devorlariga ravoqlar ishlanib, naqshlar bilan bezatilgan.

Muzeyning inqilobgacha bo‘lgan o‘tmish tarixi bo‘limi ekspozitsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida qurilgan Xiva hokimlarining sobiq saroyi Toshhovliga joylashtirildi. Tashqi tomondan tishli devorlar bilan o‘ralgan, 163 xona, 3 katta va 5 kichik saroychalarga ega bo‘lgan bu ulkan saroy butunligicha to‘la saqlanib qolgan O‘rta Osiyodagi kamdan kam o‘rta asr komplekslaridan biridir.

Bugungi kunda madaniy meros obyekti hisoblangan muzeyga moslashtirilgan saroyda 1226,2 kv.m.da ekspozitsiya joylashgan bo‘lib, hozirgi kungacha muzey fondida o‘lka tarixi, tabiati, madaniyati, san’ati, etnografiyasi va boshqa sohalar bo‘yicha jami 34 mingdan ortiq eksponat to‘plangan.

2011-yilda muzey mutaxassislari tomonidan muzeyning yangi ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqilib, muzey ekspozitsiyasi yangilandi. Ekspozitsiya arxeologiya, numizmatika, hattotlik va kitobot, qurol aslahalar, etnografiya, tasviriy va amaliy san’at bo‘limlaridan iborat [5, 37].

Xulosa qilib aytganda, muzey ekspozitsiyasi yangilangan bo‘lsada, ayrim zallar tematikasida xatoliklar xali ham bartaraf etilmagan. Masalan, ibtidoiy davr ekspozitsiyasida davrlar ketma ketligi noto‘g‘ri tuzilgan, bu davrda Zardushtiylik davri fotosining qo‘llanilishi noo‘rin. Zardushtiylik dinining ibtidoiy davrga aloqasi yo‘q. Bu keyingi xona ya’ni Temuriylar davriga ham xosdir. Muzey ekspozitsiyasida fotolar ketma-ketligi noto‘g‘ri joylashtirilgan. Paleolit va neolit davrlarining o‘rtasidagi mezolit davri tushib qolgan. Xonalarda yorug‘lik tizimidan to‘g‘ri foydalanilmagan. Ekspozitsiya tuzilishida ham kamchiliklar mavjud. Bu esa kelgan tashrifchilarga ekskursiya o‘tish jarayonini qiyinlashtiradi. Masalan ekspozitsiyada san’at va madaniyat, aholi fotolari, Qo‘qon darvozasi, me’morchilik obidalari, harbiy buyumlar va ma’lumotlari kiritilgan. Ularni alohida bo‘limlarga ajratib qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi “Sarmishsoy”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 443-son Qarori. https://lex.uz/docs/-4358328.
2. Ключевые понятия музеологии. – Москва, 2012.

3. Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг Мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. ном.дис.– Ташкент, 2009.
4. Кусерова А., Сарайкина С., Сотова Л. Феномен Лувра как туристского объекта мира: современные тенденции // № 1, Сервис в России и за рубежом. – Москва, 2021.
5. Нишанова К. Қўқон шаҳар ўлкашунослик музейи // № 3, San'at. – Тошкент, 2013.
6. Содиқова Н.Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Т.: Фан, 1981.

RASULOVA Feruza
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali
Toshkent muzeyi bosh mutaxassis

TOSHKENT VOHASIDA SHISHASOZLIK TARIXIDAN

Annotasiya: *Shisha insoniyat kashf etgan noyob ixtirolardan biri. Qadimgi Sharq xalqlarida shishaning paydo bo'lishi bilan bog'liq bir qancha rivoyatlar bor. O'zbekiston hududida ilk shishasozlikka oid buyumlar mil. avv. XI-IX asrlarga oid. X-XIII asrlarda esa shishasozlik ishlab chiqarilishi O'zbekiston hududida eng rivojlangan vaqt bo'lib, Toshkent vohasi bu vaqtda shisha ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylandi.*

Kalit so'zlar*: Ko'kcha-3, Jonbosqal'a, Qo'hna Termiz, Abrliq, Kindiktepa, Binkat va b.*

Аннотация: *Стекло – одно из редких изобретений человечества. Существует несколько легенд, связанных с происхождением стекла у народов Древнего Востока. Первая стекольная продукция на территории Узбекистана относится XI-IX векам до нашей эры. В X-XIII веках производство стекла было наиболее развито на территории Узбекистана и Ташкентский оазис стал в это время одним из центров стекольного производства.*

Ключевые слова: *Кукча-3, Жанбаскала, Старый Термез, Абрлык, Киндиктепе, Бинкет и др.*

Abstract: *Glass is one of the rare inventions of mankind. There are several legends related to the origin of glass among the peoples of the Ancient East. The first glass production in Uzbekistan dates back to the 11th-9th centuries BCE. In the 10th-13th centuries, glass production was most developed in Uzbekistan, and the Tashkent oasis became one of the centers of glass production at that time.*

Keywords: *Kukcha-3, Zhanbaskala, Old Termez, Abrlyk, Kindiktepe, Binket.*

O'zbekiston qadim davrdan o'zining turli hunarmandchilik sohalari bilan dunyoga mashhur. Hunarmandchilik ichida ayniqsa shishasozlik o'ziga xos o'rin

tutadi. Inson turli zebi-ziynatlar va maishiy buyumlar tayyorlashda shishaning foydali va turli xususiyatlarga ega bebaho xomashyo ekanligini anglab, unga yuqori baho bergan. Shisha birinchi bor qayerda va qachon kashf qilingani aniq ma’lum emas, ammo shishasozlikning qadimiy markazi sifatida ko‘hna Sharq mamlakatlari, va eng avvalo Misr, Mesopotamiya, Finikiya, keyinroq O‘rta Osiyo nazarda tutiladi[1,132].

Shisha faqatgina uning o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha xususiyatlariga ega va bu haqida ko‘hna zamonlarda ishlangan shisha buyumlar guvohlik beradi. Bizning davrlargacha ajoyib tarzda saqlanib kelgan bu ashyolar yuksak madaniyatning bebaho yodgorliklaridir. Shisha ma’lum bo‘lgan barcha moddalar ichida yagona massaligi bilan ajralib turadi. Turli hil bebaho xususiyatga ega bo‘lganligi uchun shishadan keng ko‘lamda foydalanilgan, u turli ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan buyumlarning mutlaq xomashyosidir. Odamlar shishaning sehrli xususiyatlarini darrov anglab olmaganlar. Shishasozlik murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bu yo‘l haqida turli chiroyli afsonalar bor. Afsonalardan biri – xitoy afsonasi bo‘lib, unda aytilishicha: qachonlardir qudratli imperator yashab, u nihoyatda nilufar gullarini yaxshi ko‘rgan, bog‘ida esa bu gulning rango-rang tusli har xil navlari o‘sib, ular botayotgan quyoshning zarrin nurlari, erta tongning pushti holati, bulutli osmonning to‘q ko‘k tusi, qon kabi quyuq alvon rangi kabi bo‘lgan. Gullar ichida boshqalaridan ajralib turuvchi yagona nilufar guli bo‘lib, uning gulbarglari havo kabi shaffof va suvday tiniq ekan. Bu ajoyib nilufar gullarini tomosha qilish uchun turli mamlakatlardan odamlar kelib turishgan. Kunlardan birida kuchli bo‘ron ko‘tarilib shaffof nilufarning bandi sinib qoladi. Hukmdor donishmandni chaqirtirib, unga gulga qayta tiklashni buyuradi. Donishmand ko‘p o‘ylanib – fikrlaydi. Ertasi kuni u imperatorga xuddi shunday gul olib keladi, Gul olmos kabi qattiq bo‘lib, gulbarglari quyosh nurlarida tovlanardi.Donishmand muammoni qanday hal qildi, u nilufar piyozboshini yoqib, uni kuliga qush va ohak aralashtiradi va shu bilan shishshaning asosiy o‘zak qismini kashf etadi[2,107].

Yozma manbalar va arxeolog mutahassislarimizning qazilmalari orqali ochilgan topilmalar O‘zbekiston hududida juda qadim zamonlardan buyon shisha keng qo‘lamda ishlatilayotganligidan darak beradi. Xorazm viloyatidagi miloddan avvalgi XI-IX asrlarga oid Ko‘kcha-3 yodgorligini qazish jarayonlarida shishasozlikka oid boy topilma ochilib, juda ko‘p och ko‘kish rangli shisha munchoqlar, taqinchoqlar topilgan. Turli shakl va rangdagi taqinchoqlar Jonbosqal'a va Ko‘hna Termiz yodgorliklaridan ham topilgan, ular miloddan avvalgi I asrlarga oid tarixiy ashyolardir. Tarixiy manbalarga ko‘ra V asrdayoq yurtimiz shishapazlari besh xil rangda shisha ishlab chiqarib, ular g‘arb shishalaridan a’lo sifati bilan ajralib turgan, ayni vaqtda Samaqandda ham yuqori sifatli rangli shisha tayyorlangan. Shisha tayyorlashda turli texnik usullardan foydalanilgan. Idishlarda qaynoq va sovuq holatda qilingan ishlovlar: rel'efli o‘yiq, gravirovka, silliqlash kabilar ko‘rinadi. Shishaning charxlovchi dastgoh, qaychilar, qisqich, maxsus pichoqlar kabi asboblari ayniqsa turli shisha buyumlar tayyorlash uchun qolip jamlamalari bo‘lgan. Qoliplar asosan metalldan tayyorlanib, ikki qismga bo‘lingan, yon tomoni kavsharlangan. X-XIII asrlar O‘zbekiston hududida shishasozlikning eng gullab-rivojlangan davridir, ayniqsa hozirgi Toshkent viloyati hududi shishasozlik

markazlaridan biri sifatida mashhur bo‘lgan. 1963 yil Angren daryosining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Abrliq shaxristonini qazish chog‘ida kattagina shisha mahsulotlari topilgan. Shahriston IX-XII asrlarda rivojlanib, arxeolog olimlar fikricha bu yerda mahalliy shisha ishlab chiqrilgan. Shisha buyumlar och sariq-yashil tusli shishadan tayyorlanib, turli vazalar, qadahchalar, suvdan bankalar, finjonlar, likopchalar kabi ro‘zg‘or hamda tibbiyot uchun maxsus idishlardan tashkil topgan.

Toshkent dengizi yaqinidagi o‘rta asrlarga oid Kindiktepa shahristonini qazish chog‘ida juda ko‘plab shisha marjonlar topilib, ular yashil, kulrang-sariq, zumrad, qora va oqish tusli ekan.

Toshkent shahrining Olmazor mavzesini qurish paytida esa shishasozlik ustaxonasi qoldiqlari hamda turli shaffof yashil va sariq tusli shishalar jamlanmasi topilgan. Bu hudud o‘rta asrlarda rivojlangan Binkat shahri sifatida ma’lum[3,129]. Topilgan shisha idishlar tiniqligi va ustki qismi yaltiroqligi bilan ajralib turadi. Barcha shisha buyumlarni vazifasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- oshxona idishlar – kosacha, tovoq, stakan, qadah, ko‘zacha, vazalar;
- xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlari – tuvak, sumak, deraza oynalari;
- atir-upa - dorixona idishlari, ular ham 2 guruhga bo‘lingan: dori va atir-upa saqlash uchun idishlar va ularni tayyorlash uchun mo‘ljallangan idishlar;
- kimyoviy idishlar – kolbalar va alembik shisha idishlar.

Shishasozlik Binkatda ayniqsa X asr oxiri – XI asr o‘rtalarida nihoyatda ravnaq topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Моддий маънавий мерос ва умумбашарий қадрият. ТДТМ “Lesson press” нашриёти. 2016 йил, 132 б.
2. Ревес А.М., Минасянц В.С., Левтеева Л.Г. “Памятники минувших поколений”. ТМИУ. Ташкент 2020 г. 107 стр.
3. “Ташкент. Энциклопедия”. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент-2009 йил, 129 б.

NASRITDINOVA Munira
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
Kichik ilmiy xodim
munira0434@mail.ru

“TOSHKENT” TOPONIMI TALQINIGA DOIR

Аннотация: *Maqolada Toshkent toponimiga oid yozma manbalar, arxeolog va tarixchi olimlarning talqinlari, fikr-mulohazalari tahlil qilingan.*
Калит сўзлар: *Toshkent, Choch, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Vey-shu, Shi va h.z.*
Аннотация: *В статье анализируется письменные источники, интерпретации и мнения археологов и историков относительно топонимии Ташкента.*
Ключевые слова: *Ташкент, Чач, Абу Райхан Беруни, Махмуд Кашгари, Вей-шу, Ши и.т.д.*
Abstract: *The article analyzes written sources, interpretations and opinions of archaeologists and historians regarding the toponymy of Tashkent.*
Keywords: *Tashkent, Chach, Abu Rayhan Berouni, Mahmoud Kashgari, Wei-shu, Shi, etc.*

“Toshkent” toponimi aslida xuddi shu shaklda yozma manbalarda milodiy XI asrdan boshlab uchray boshlagan ushbu toponimning aynan qachon va qanday tarixiy voqeliklar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lganligi masalasida shu paytgacha bir-biridan farqli fikrlar bildirilgan va hozirgi kunda ham bildirilmoqda. Darhaqiqat, “Toshkent” nomining shu shaklda yozma manbalarda ilk bor uchrgan paytida – X-XI asrlardayoq bu toponim ustida munozaralar bildirilgan bo‘lib, bu Abu Rayhon Beruniy (973-1048) va Mahmud Koshg‘ariylar (1008-1105 (?)) uni turkiy asosda tushuntirishi misolida ham o‘z tasdig‘ini topadi.

Shu o‘rinda Toshkent nomi, xususan uning qadimgi nomi “Choch” atamasi borasida yaqin yillarda bildirilgan fikrlar ham masalani yoritishda o‘ziga xos o‘rin tutadi, deb o‘ylaymiz. Jumladan, Sh. Kamoliddin Choch nomining etimologiyasiga bag‘ishlangan maxsus maqolasida Choch so‘zi turkiycha “tosh” so‘zi bilan aloqali ekanligini ta’kidlash bilan birgalikda, “sug‘diy tilda ham “choch” so‘zi “tosh” yoki “tog‘” ma’nolarini bildiradi” deb yozadi va A. Muhammadjonovning mazkur fikrini dalil sifatida keltiradi [1,45-51]. Shuningdek, ayni joyda ushbu tadqiqotchining o‘zi mazkur toponim asosida turkiy va ket (enisey) tillaridagi “tosh” ma’nosidagi so‘z yotishini ta’kidlaydi-yu, “tosh” ma’nosini beruvchi “choch” so‘zining bir-biridan farqli til oilalariga mansub ket, turkiy va sug‘diy tillardan dastlab aynan qaysi biriga mansub bo‘lganligini aytmay o‘tadi. Bu esa masalani yanada chigallashtiradi. Ya’ni mazkur tadqiqotchilarning ushbu fikrlari “Choch” so‘zining aynan qaysi tilga xos so‘z bo‘lib, keyinchalik qaysi biridan ikkinchisiga o‘tganligi masalasini yoritib beraolmaydi.

Ulardan farqli ravishda Yu.F. Buryakov, G‘. Boboyorov va F. Maqsudovlar bu

so‘zning aslida turkiy negizga egaligini, dastlab prototurkchada “chach” yoki “chech” bo‘lgan ushbu toponimning lug‘aviy ma’nosi “tosh”, “feruza toshi”, “qimmatbaho tosh” ekanligini olg‘a suradilar [2, 6-11; 203]. Ular o‘z fikrlarining tasdig‘i sifatida quyidagi dalillarni keltirib o‘tishadi: “G‘arb tarixiy-lingvistik adabiyotida Choch nomining prototurkcha “tosh” ma’nosini anglatuvchi biror so‘zdan shakllanganligi haqidagi fikrlar ham uchrab turadi. Jumladan, atoqli nemis turkologi V. Bang fikricha, qadimgi turkiy čaš dan shakllangan taš (tosh) so‘zi uzoq bir davrni bosib o‘tgan bo‘lib, uning izlarini chuvash turkchasidan topish mumkin, ya’ni: t’šul<*čaš<taš va hakozo[3, 50; 195; 101-115]. Tadqiqotchi hozirgi turkiy tillarda tash, tas, tosh shakllarida ishlatiladigan “tosh” so‘zining oltoy tillari oilasiga mansub ba’zi tillardagi, shu jumladan mo‘g‘ulcha shakli chul, chulu ekani va turkiy tillar orasida faqat chuvashchada chul/chol tariqasida saqlanganiga asoslanib, ushbu so‘z quyidagicha bosqichlarni bosib o‘tganini ilgari suradi: chul<*chash<tash. Qadimgi xun-bulg‘or tillari va boshqa sharqiy turkiy tillarni taqqoslagan atoqli turkolog olim O. Pritsak esa xitoycha Vey-shu (“Shimoliy sulola tarixi”) yilnomasida “tosh” ma’nosidagi syunnu (xun)larga oid so‘z tariqasida qayd etilgan če-še so‘zini *ča[l]č so‘zidan shakllangan, deb hisoblaydi. Olimning fikricha, qadimiy prototurkcha shakli <*čalč bo‘lgan ushbu so‘z shakliy o‘zgarish (transformatsiya)ga uchrab, chuvashchada čul, boshqa turkiy tillarda esa taš ko‘rinishini olgan[4, 509]. Fikrimizcha, shunga o‘xshash holatni “bosh” ma’nosini bildiruvchi qadimgi turkiy *balč>bal/bač>baš so‘zida ham kuzatish mumkin”[5, 30].

Mazkur tadqiqotchilar fikricha, ushbu ma’lumotlar Choch so‘zi etimologik jihatdan “tosh” ma’nosini bildirganini tasdiqlaydigan dalillar bo‘lib, ayni paytda hozirgi turkiy tillarda qattiq minerallarning bir turini bildiruvchi “tash/tosh” so‘zining eng qadimgi turk (prototurk)chasi dastlab chalch shaklida bo‘lgan va o‘z navbatida u oltoy tillariga xos chulu, chul so‘zlari bilan o‘zagi birdir. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, keyinchalik chalch so‘zi asosida “tosh” ma’nosini bildiruvchi chal va chach/chash shakllari vujudga kelib, so‘ngra chach/chash so‘zidan tash (tosh) so‘zi shakllangan. O‘z navbatida bu shakl, ya’ni “tosh” shakli turkiy tillarning aksariyatida o‘rin olgan bo‘lsa, chuvash turkchasida qadimiy shakl o‘zgarmagan holda chul o‘laroq qo‘llanilishda davom etgan. Bu holat chuvashchaning boshqa turkiy tillardan alohida rivojlanib, izolyatsiyalangan bir muhitda yashashda davom etganligi va natijada prototurkchaning o‘ziga xosliklarini saqlaganini e'tirof etgan mazkur tadqiqotchilar o‘z fikrlari tasdig‘i sifatida bir necha misollar keltirishgan[6, 200-203].

Aslida Toshkentning qadimiy nomi va uning lug‘aviy ma’nosi, qanday etnomadaniy muhitda kelib chiqishi borasida ilk ilmiy fikrlar XIX asr oxiri – XX asr boshlaridayoq bildirila boshlagan edi. Jumladan, frantsuz olimi E. Shavann voha nomining V asrga tegishli xitoy manbalarida «Shi» tarzida qayd etilishi va ushbu so‘zni ifodalaydigan iyeroglif xitoychada “tosh” ma’nosi bildirishini ta’kidlab, u bilan vohaning turkiycha nomi Toshkent orasida bog‘liqlik borligini olg‘a surgan edi[7, 140].

Shunga qaramay ba’zi tadqiqotchilar Toshkent so‘zini turlicha izohlashgan, hatto bu nom “tosh” bilan aloqali emas, deb qaragan hollar ham bo‘lgan. Ba’zi

tadqiqotchilar esa mutlaqo asossiz ravishda bu nomni “arablar, musulmonlar yashaydigan shahar” ma’nosida “Tojikkent” sifatida izohlab, Toshkent uning qisqargan shakli ekanligini olg‘a surgan hollar ham bo‘lgan. Ammo bu fikr tarafdor topmagan va qisqa vaqt mobaynida tadqiqotchilarning ilmiy bahs-munozaralaridan chetda qolib, unutilib ketgan edi.

Bu masalada aytib o‘tish kerakki, buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg‘ariylar tomonidan keltirilgan talqinlarning hanuzgacha o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, ularning har ikkalasi ham o‘rta asrlarda yashagan ko‘pchilik olimu-ulamolardan farq qilgan holda, har bir masalaga nihoyatda sinchkovlik bilan qarab, keltirayotgan ma’lumotlarini dalillar asosida yozishga harakat qilishgan. Ayniqsa, qomusiy olim Beruniy biror masalaga to‘xtalar ekan, u haqda o‘zidan oldin bildirilgan fikrlarga shubha bilan qarab mushohada yuritgan olim sifatida mashhur bo‘lsa, Koshg‘ariy esa nimaiki yozmasin, hoh u bir atama yoki so‘z, hoh biror elat yoki joy nomi bo‘lsin, bevosita o‘zi borib ko‘rib, qanoat hosil qilgach, o‘z asarida joy bergan elshunos olim sifatida ma’lum. Shu jihatdan olganda, har ikkala olimning Toshkent haqida yozgan satrlari qiymatlidir.

Beruniy o‘zining «Hindiston» va “Qonuni Mas'udiy” asarlarida Toshkent so‘ziga doir quyidagicha qiymatli fikrlarini bayon qilgan: «*Tili boshqa bo‘lgan [xalqning] yerli xalqqa hukmronlik qila boshlashi bilan nomlar tezroq o‘zgaradi. Ko‘pincha, tillari [boshqa xalq] u so‘zlarni kelishtirib ayta olmay qabul qiladi, [natijada o‘sha] ismlarning ma’nosi o‘zgarib, shu ko‘yicha yunon odatlari singari, o‘z tillariga kiradi. Ko‘rmaysanmi, tosh so‘zi [asli] turkcha ism bo‘lib, Shosh shaklini olgan. Toshkand – toshli qishloq demakdir. Jug‘rofiya asarida u Burj al-Hijora [Tosh qal'a] deb nomlangan»[8, 232]; “Binkat – Shoshning poytaxti, turkchasi Toshkenddir*”[9, 426].

Ahamiyatlisi shundaki, ushbu satrlarni alloma Hindistondagi aholi manzillari, turli shahar va boshqa joylarning nomlanishi va ularning lug‘aviy ma’nosi, umuman olganda kelib chiqishiga doir mavjud bahslarga o‘z munosabatini bildirishi mobaynida aynan Toshkentni namuna sifatida keltiradi va uni shubhasiz turkiy so‘z sifatida talqin qiladi. Ushbu ma’lumot mazmunidan ham ayon bo‘ladiki, shaharning mahalliy nomi aslida Toshkent bo‘lgan, arablar kelgach, bu yerning nomi ular talaffuziga moslashib Shosh shaklini olgan. Shu o‘rinda Beruniyning hamasri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida Toshkent nomiga doir bildirgan quyidagi so‘zlari ham diqqatga sazovor: “*Tarkan/Tashkan – Shosh shahrining nomidir… Asl nomi Toshkend, “Tosh shahar” ma’nosidadir”; «Butun Mavoraunnahr, Yankanddan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand – Semizkand, Toshkand – Shosh, O‘zkand, Tunkand nomlarining hammasi turkchadir. Kand so‘zi turkcha shahar demakdir*” [10, 63].

Tadqiqotchilarning fikricha, har ikkala alloma asarlaridan keltirilgan dalillar orasida bir-biriga shu qadar hamohanglik borki, aftidan ular bitta manbadan olingandek ko‘rinadi. Beruniy va Koshg‘ariy ma’lumotlari orasidagi o‘xshashlik nafaqat Toshkent misolida ko‘rinadi, balki qadimiy Samarqand nomiga doir bildirgan fikrlari ham bir-birini takrorlaydi. Ya’ni, Beruniy “Samarqand – turkchasi

esa Semizkend, ya’ni “semiz, bo‘liq/unumdor” shahar ma’nosidadir” deb yozsa, Koshg‘ariy “Samarqand turkcha Semizkend, katta shaharligi tufayli shunday nomlangan” mazmundagi fikrlarini bayon qiladi. Ehtimol, ushbu ma’lumotlar shahar nomining ilk davrlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador bo‘lmasligi ham mumkin. Biroq, mazkur ma’lumotlar mavjudiyati, aynan ular yashagan davrda shahar nomi haqida shunday talqinlar borligini ko‘rsatishi bilan birgalikda, bu yer aholisining muhim bir qismini turkiy aholi tashkil etganidan darak beradi.

Garchi, “Devonu lug‘atit turk”da ayrim ma’lumotlarning Beruniy asarlaridan olingani haqida to‘g‘ridan- to‘g‘ri ma’lumotlar uchramasa ham, aksariyat tadqiqotchilar Mahmud Koshg‘ariy keltirgan ma’lumotlarni o‘zidan qariyb o‘ttiz besh yosh katta bo‘lib, asarlarini undan ancha oldin yozgan Beruniydan olganligi haqida hamfikrdirlar. Chunki, har ikkala olim ham mintaqaning o‘ziga xos etnomadaniy hududi – Amudaryo-Sirdaryo oralig‘i va unga qo‘shni hududlar etnik holatini yaxshi bilishgan bo‘lib, bu davrda mazkur hududlarda asosan ikki etnos – forsiy va turkiylar ko‘pchilikni tashkil qilishar edi. Ulardan biri diniy-madaniy hayotda o‘zining nisbatan keng ta’sir doirasiga ega bo‘lsa, ikkinchisi ijtimoiy-siyosiy hayotda ustuvor etnos sifatida bilinar edi. Xususan, forsiy til Movarounnahrda arab tili bilan birgalikda ilm-fan tili vazifasini bajarib, turli etnoslar o‘zaro muloqot tili sifatidi undan unumli foydalanishar, turkiy til esa ilm-fanda, xususan adabiyotda tobora ularga tenglashishga harakat qilishi bilan birgalikda, asosan harbiy-ma’muriy sohalarda ko‘proq ishlatilmoqda edi.

Darhaqiqat, har ikkala olim o‘z asarlarini yozar ekan, ma’lumotlarni o‘sha davrdagi mavjud real voqelikdan olganliklari aniq. Ma’lumki, Beruniy yashab ijod qilgan davr dastlab Xorazmda Ma’muniylar, Movarounnahrda Somoniylar sulolasi hukmronligi davriga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, keyinchalik ushbu sulolalardan birinchisi o‘rnini G‘aznaviylar, ikkinchisining o‘rnini esa Qoraxoniylar sulolalari egallagan bir pallaga teng keladi. Ayniqsa, uning asarlari G‘aznaviylar muhitida dunyo yuzini ko‘radi. O‘sha davrda ham mintaqa aholisining turli-tumanligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, allomaning turkiy atama va joy nomlariga diqqat qaratgani alohida ahamiyatga molik. Mahmud Koshg‘ariy bo‘lsa, asosan Qoraxoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan hududda tug‘ilib, voyaga yetgan bo‘lsa-da, o‘z asarini Bag‘dodda, yana bir turkiy sulola bo‘lmish Saljuqiylar muhitida ilm ommasiga taqdim qiladi.

Ammo, bu ushbu allomalar keltirgan mazkur shaharlar haqidagi ma’lumotlar aynan shu davrda paydo bo‘lganidan darak bermaydi. Chunki, har qanday joy nomining shakllanishi ma’lum bir muddat oladi va u haqda aytilgan fikrdan ancha oldin paydo bo‘ladi. Darvoqe, Toshkent nomi mazkur allomalar yashagan davrdan qariyb besh yuz yil avval xitoy yilnomalarida Shi “tosh”, qariyb ming yil oldin esa mahalliy manbalarda Choch “feruza toshi, qimmatbaho tosh” ma’nosida mavjud edi[11, 203].

Toshkent nomi, garchi xuddi shu shaklda milodiy X asrlar atrofida yozma manbalarda uchray boshlagan bo‘lsa-da, uning ilk debochasi bu asrdan ancha uzoq davrlarga, hattoki miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Milodning ilk asrlariga taalluqli numizmatik materiallar va yozma manbalarida dastlab “Choch” uchragan toponimning o‘ziyoq lug‘aviy jihatdan “tosh” so‘ziga aloqador bo‘lib, bu nomning

milodiy ilk mingyillikning o‘rtalarida xitoy yilnomalarida “Shi”, ya’ni “tosh” tariqasida tarjima qilingan holda qayd etilganligi buning eng yorqin dalilidir. Demak, vohaning X asrdagi nomi – “Toshkent” bekorga, bo‘sh bir joyda paydo bo‘lmagan, aksincha, ham kelib chiqish jihatidan, ham etnolingvistik jihatdan yagona asosga ega bo‘lgan joy nomi sifatida mintaqa tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Камолиддин Ш.С. К этимологии названия Чач (Шаш)//Чач-Бинкет-Ташкент (историческое прошлое и современность). Материалы научной конференции. -Т.: 2007. 45-51 с.
2. Буряков Ю.Ф. К динамике развития городской культуры древнего и средневекового Чача // Материалы научной конференции «Чач - Бинкет - Ташкент (историческое прошлое и современность)». – Т.:, 2007. 6-11 с. Мақсудов Ф., Бабаяров Ғ. К этимологии топонима Чач//Материалы научной конференции посвященной 2200-летнему юбилею города Ташкента. -Т.: “Фан”, 2009., 203 с.
3. Bang W., Rahmeti G.R. Oğuz Kağan Destanı. İstanbul, 1936. S. 50; Aalto, 1977:194; Aalto P. The name of Tashkent // Central Asiatic Journal. Vol XXI, Wiesbaden, 1977. P. 195. Аальто, 2005:102. Аальто П. Имя «Ташкент» (Перевод и комментарии А.К. Акишева) // Shygys, 2005, 1. 101-115 с.
4. Pritsak, 2002:509. Pritsak O. Türk-Slav Ortak Yaşamı: Güneydoğu Avrupa’nın Türk göçebeleri // Türkler, 2, Ankara, 2002. S. 509.
5. СИГТЯ, 2006:30. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Пратюркский язык-основа. Картина мира пратюркского этноса по данным языка. Отв. ред. Э.Р. Тенишев, А.В. Дыбо. М., 2006. 30 с.
6. Мақсудов Ф., Бабаяров Ғ. К этимологии топонима Чач//Материалы научной конференции посвященной 2200-летнему юбилею города Ташкента. -Т.: “Фан”, 2009., 203 с.
7. Chavannes, 1903:140. Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции, вып. 6. СПб., 1903. 140 с.
8. Беруний, 1965:232. Абу Райҳон Беруний. Ҳиндистон. Танланган асарлар. II ж. Тошкент: Фан, 1965. 232 б.
9. Абу Райҳон Беруний. Қонуни Масъудий. 1-5 мақолалар. Танланган асарлар. V ж, 1-китоб, - Т.: “Фан”, 1973. 426 б.
10. Кошғарий, III:164-бет (DLT, I, 443). Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк / Тарж. ва нашр. С.М. Муталлибов. II том. Тошкент, 1960. 63 б.
11. Мақсудов Ф., Бабаяров Ғ. К этимологии топонима Чач//Материалы научной конференции посвященной 2200-летнему юбилею города Ташкента. -Т.: “Фан”, 2009., 203 с.

IBROXIMOVA Aziza Abbasovna
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
Ilmiy xodimi
e-mail: aziza665@gmail.com

MUZEYGA TASHRIFCHILARNI JALB QILISH VA MADANIY MEROSNI TARG‘IB QILISHDA YANGI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Annotatsiya. *Zamonaviy muzeylar yangi ijtimoiy-siyosiy madaniyat markazi bo‘lib hisoblanib, ular faqatgina tarixiy meros, osori-atiqalarni targ‘ib etish bilan kifoyalanmay, balki zamonaviy badiiy jarayon kechinmalari haqida ham tushuncha berishi lozim. Ushbu maqolada muzeylarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali bugungi kunda muzeyni qiziqarli maskanga aylantirish, keng ommani jalb etish, innovatsion yo‘nalishni rivojlantirish, kolleksiyani raqamlashtirish, butun dunyo hamjamiyatini muzey kolleksiyalari bilan internet orqali habardor qilish, zamonaviy texnologiyalar (VR, AR) multimediyadan foydalanish, internet tizimida ma’lumotlar bazasini yaratish kabi tғshunchalarning nazariy jihatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *muzey, texnologiya, innovatsiya, VR, AR, tashrifchi, raqamlashtirish, internet, Web-saytlar.*

Аннотация. *Современные музеи считаются центрами новой социально-политической культуры, которая должна не только пропагандировать историческое наследие, историю, но и давать представление о современном художественном процессе. В данной статье рассматриваются такие теоретические аспекты, как превращение музея в интересное место, привлечение широкой публики, развитие инновационного направления в музеях, оцифровка коллекции, информирование всего мирового сообщества о коллекциях музея через интернет, использование современных технологий (VR, AR) мультимедиа, создание базы данных в системе интернет.*

Ключевые слова: *музей, технологии, инновации, VR, AR, посетитель, оцифровка, интернет, веб-сайты.*

Abstract. *Modern museums are considered centers of a new socio-political culture, which should not only promote historical heritage, history, but also give an idea of the modern artistic process. This article discusses such theoretical aspects as turning the museum into an interesting place, attracting the general public, developing innovative trends in museums, digitizing the collection, informing the entire world community about the museum's collections via the Internet, using modern multimedia technologies (VR, AR), and creating an Internet database.*

Keywords: *museum, technology, innovation, VR, AR, visitor, digitization, Internet, websites.*

Muzeylar madaniyatni targ‘ib qilivchi va merosni saqlovchi institut sifatida doimiy ravishda zamonaviy dunyo muammolariga duch kelib, tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini qondirish va o‘z kolleksiyalarini keng auditoriyaga qulay va qiziqarli taqdim etish uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga intilmoqdalar. Zamonaviy texnologiyalar bu jarayonda muhim ro‘l o‘ynaydi va

muzeylar faoliyatini tashkil etish va tashrifchi tajribasini boyitish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi [1, 17]. Muzeylarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali bugungi kunda muzeyni qiziqarli maskanga aylantirish mumkin [2, 34].

Muzeylar keng ommani jalb qilish, ta'limga hissa qo'shish va bilimlarni mustahkamlash kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Jamoat bilan muloqot qilish va madaniy merosini ommalashtirish muzey vazifasining ajralmas qismidir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda muzeylar tashrif buyuruvchilarni jalb qilish, madaniy merosni keng jamoatchilikka targ'ib qilish orqali jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajaradi. Hozirgi kunda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda muzeylarda qollanilib kelayotgan turli xil innovatsion texnologiyalar mavjud [3, 374].

Dastlabki muzey va texnika muloqoti o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. 1963-yilda birinchi bo'lib amerikalik mutaxassislar Milliy muzeyda kompyuter yordamida muzey kolleksiyalarini axborotlashtirishga harakat qildilar. Keyingi 30-40 yil davomida zamonaviy texnologiyalar muzeyning yagona ichki axborot tizimini yaratish, ular asosida muzey kolleksiyalarini hisob-kitob va nazorat qilish tizimini yaratsihda katta ta'sir ko'rsatdi. Avval ushbu tizim eksponatlar ro'yxati bilan chegaralangan bo'lsa, texnika asrida ularni raqamlashtirish, muzey saytlariga chiqarish, butun dunyo hamjamiyatini muzey kolleksiyalari bilan internet orqali habardor qilish imkoniyatlari ochildi [4,36] .

Teatr, kutubxona, madaniy - ma'rifiy muassasalar insonlar dunyoqarashini shakllantirish va ma'naviy barkamollikka yetaklovchi ilmiy ma'rifiy maskan hisoblanadi. Hozirgi kunda zamonaviy inson e'tiborini zamonaviy texnika bilan uyg'unlashgan muzeylargina jalb qila oladi. Ba'zi muzeylar hozirda o'zini noan'anaviy ko'rinishda namoyon qilmoqda. Bunday mezeylarda tashrifchiga eksponat bilan muloqot qilishi imkoni yaratiladi. Masalan, Germaniyadagi "sensorium" muzeyida zamonaviy texnika obyektlari, fizik hodisa va jarayonlar namoyish etiladi. Bu yerga tashrif buyurganlar fizika qonunlarini turli o'yin va interaktiv shakllarda qabul qilib olishlari mumkin. Bunday zamonaviy muzeylar tashrifchialr talablariga javob beruvchi hamda zamonaviy texnika bilan uyg'unlashgan ekspozitsiyalar tashrifchilar hayotining ajralmas qismiga aylanadi [4,37].

Muzeylarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, jumladan, bu borada yangi Web-saytlar yaratish muzey ishi rivojida muxim masalalardan biri xisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ishlab chikilishi tomoshabinlar va muzey xodimlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi [5,66].

XXI asr zamonaviy yuqori texnologiyalar keskin rivojlanib hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Muzeylar, kutubxonalar, arxivlar, adabiyot va san'at sohalari kabi yo'nalishlar ham o'z faoliyatini zamonaviy texnologiya bilan uyg'unlashtirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, CD-ROM, VR, AR, multimediya va boshqalarning paydo bo'lishi muzeylar faoliyatida zamonaviy yangi yo'nalishlar, shu bilan birga ularni qo'llagan holda ilmiy tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borishga imkon beradi [4,38].

VR va AR muzeylarda immersiv va interaktiv ekspozitsiyalarni yaratishga

yordam beradi. Zamonaviy muzey hududida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar "ikkinchi haqiqat", "boshqa madaniyat" mavzularini dolzarb ekanligini namoyish qilib, muzeyga tashrif buyurgan ommaviy auditoriyaning ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi [6].

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, muzeylarda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat tashrif buyuruvchilar tajribasini boyitibgina qolmay, balki madaniy merosni turli tomoshabinlar uchun yanada qulayroq va qiziqarli qiladi. Britaniya Muzeyi, Smithsonian Milliy tabiiy tarix muzeyi, Luvr, MoMA kabi yirik muzeylarning loyihalari informatыion texnologiyalrni muzey amaliyotiga qanday qilib muvaffaqiyatli integratsiya qilish mumkinligini namoyish etadi va tashrif buyuruvchilar orasida noyob va unutilmas tajriba yaratadi [7,18].

Insoniyat internet tarmog‘i kompyuter va turli mobil qurilmalardan keng foydalanishi axborotni to‘plash va qayta ishlash, ularni jamiyat a’zolariga taqdim etishdek ulkan imkoniyatga ega bo‘lgan hozirgi davrda, ushbu raqamli ma’lumotlar egalari oldida bepoyon kenglik paydo bo‘ldi [7,20].

Muzeylarni axborotlash va internet tizimida malumotlar bazasini yaratish tomoshabinning muzey bilan tanishishida o‘zaro muloqot ko‘rinishini beradi. Eksponatlar haqida to‘la malumot berish va o‘zaro muloqot jarayoni yangicha zamonaviy madaniy jarayonni yaratmoqda [5,66].

Agar muzeylar elektron hujjatlashtirish va raqamli tasvir uslublaridan foydalanib o‘z kolleksiyalarining zamonaviy axborot taminlash uslubini yaratsalar, bu ularga xalqaro internet tarmogida o‘zlarini tanishtirish imkoniyatini beradi [5,67].

Texnologiyalar artefaktlarni raqamlashtirish va ularning natijalari bilan almashishda yanada mukammal vositalar taqdim etmoqda. Yangi texnologiyalar o‘rta asr yurtuqlarini hozirgi kunda Internet tarmog‘i orqali uzatish va ulardan keng ommaning foydalanish imkonini beradi [7,20].

Muzeylarni axborotlash va internet tizimida ma’lumotlar bazasini yaratish tomoshabinning muzey bilan tanishishda o‘zaro muloqot ko‘rinishini beradi, eksponatlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berish va yangicha zamonaviy-madaniy vaziyatni yaratadi [12,10]. Bundan tashqari, doimiy internet tizimidan foydalanuvchilarining muzey elektron pochtasidagi fikri jamlangan xolda, ularning qiziqishlari asosida yangi internet resurs bazalarini yaratish mumkin. Shuningdek, bu tarmoqlarda tasvir va matn uyg‘unligi orqali tomoshabinlar mavzuga xos uzluksiz yangi axborot tizimi bilan tanishadilar. Muzeylar Web-katalogining yaratilishi esa, mavjud boshqa muzeylar bilan maqsadli hamkorlik qilish imkonini beradi. Bu borada muzeylar o‘zaro birgalikda turli qiziqarli kolleksiyalar uyg‘unligida Web-saytlar va milliy kataloglar tuzishi ham samarali natijalar beradi. Xozirgi kunda mavjud Web-saytlar orqali turli muzeylarga qaratilgan barcha qiziqishlarni va Web tizimdagi foydali axborotlarni hamda yangicha elektron kataloglash, tasvirlarni elektron ko‘rinishda joylashtirish kabi uslublarni o‘rganish mumkin. Multimedia maxsulotlarini yaratish va undan muzey tajribasida foydalanilish, namoyish etiladigan loyihalar negizida tomoshabinlar uchun qiziqarli va foydali bo‘ladi. O‘zbekiston madaniyati va tarixini muzeylar kolleksiyasi doirasida internet tizimi orqali tanishtirilishi va zamonaviy dasturlar yaratilishi kelajakda muzeylar faoliyatida yangicha innovatsion ko‘rinishlarni yo‘lga

qo‘yilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy muzeylar yangi ijtimoiy-siyosiy madaniyat markazi bo‘lib hisoblanadi, ular faqatgina tarixiy meros, osori-atiqalarni targ‘ib etish bilan kifoyalanmay, balki zamonaviy badiiy jarayon kechinmalari haqida ham tushuncha berishi lozim. Endilikda, muzey loyihalarini innovatsion shakllarida yaratish keng tus olmoqda [8,39].

O‘zbekistonda 130 dan ortiq muzeylar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ularning hammasi ham zamonaviy tashrifchilarning talabini qondira olayotganligi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Muzeylar faoliyatini tahlil etar ekanmiz, ohirgi o‘n yil davomida ularning faoliyatida zamonaviy ko‘rgazmalar, ekspozitsiyalar va innovatsion loyihalar paydo bo‘laganini va yangi zamonaviy muzeyshunoslik taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa qo‘shayotganligining guvohi bo‘lish mumkin [10, 6].

XXI asr muzeylar uchun innovatsiyalar asri deb belgilangan. Muzeylarda innovatsiya – bu ko‘p qirrali tashkillashtirish, boshqarish, yangiliklar kiritish, global mavzularga bag‘ishlangan muammoli maqsadga yo‘nalgan ko‘rgazmalarni tashkil etishdir. So‘nggi yillarda muzeylar elitar belgilardan ozod bo‘lib, o‘tgan asrning klassik konsepsiyasidan yiroqlashgan holda, materiallarni namoyish etishning yangi usullarini tatbiq etdi [8,39]. Mahsus muzey tuzilmalari hamda qiziqarli muzeyshunoslik dasturlari yaratildi. Muzeyshunoslik zamonaviylikning ijtimoiy va siyosiy muammolariga yuz tutgan holda integratsion va innovatsion rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda.

YuNESKO tomonidan 2015-yil 17-noyabrda qabul qilingan “Muzeylarni jamiyatda tutgan o‘rni va ularning xilma-xilligi, muzey va kolleksiyalarni saqlash va targ‘ib etish bo‘yicha tavsiya” da Xalqaro muzeylar qo‘mitasi yordamida ishlab chiqilgan tavsiyalar XXI asr muzeylari konsepsiyasida innovatsion yo‘nalishni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Tavsiyaning uchinchi bobida globallashuv davrida muzeylarning iqtisodiyot va jamiyat bilan o‘zaro aloqasi, muzeylar faoliyatida axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash haqida fikr yuritiladi [10,22].

Hozirgi davrda muzeylarning noyob eksponatlarini namoyish qilishda virtual muzey ekspozitsiyalari yaratish ehtiyojini vujudga keltirmoqda, bu esa muzey ishini zamonaviy texnologiyalarga moslashtirishni talab qiladi. Muzey ishining kelajakdagi rivoji interfaol ekspozitsiyalarning sezilarli ravishda ko‘payishi va namoyish etishning zamonaviy vositalaridan keng foydalanish binoan bog‘liq [11,10]. Virtual muzeylar mamlakat tarixi va madaniyatini o‘rganish imkoniyatini, shuningdek, bebaho madaniy merosni saqlash va yangi avlodlarga etkazishga yordam berib, mamlakatning noyob madaniy merosini mamlakat ichida va undan tashqarida ommalashtirish va targ‘ib qilish uchun qimmatli vositaga aylanmoqda[12, 15].

Muzeylarni axborotlash va internet tizimida ma’lumotlar bazasini yaratish tomoshabinning muzey bilan tanishishda o‘zaro muloqot ko‘rinishini beradi, eksponatlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berish va yangicha zamonaviy-madaniy vaziyatni yaratadi [12,10].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Култашева Н.Д. Интеграция информационных технологий в музей:

мировой опыт и перспективы. Muzeylarning yangi konsepsiyasi: muzeylar faoliyatida IT texnologiyalar integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami – T.: MRDI nashriyoti, 2024-y. – B. 17-22.

2. Рўзиқулов Алишер Бозорович. Музей экспозицияларини замонавий ахборотлаш муаммолари. Muzeylarning yangi konsepsiyasi: muzeylar faoliyatida IT texnologiyalar integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami – T.: MRDI nashriyoti, 2024-y. – B. 34-38.

3. Sikder MD Zulkernine. Museum, Collection management and New Technology. The Jahangirnagar Review, Part C, Vol. XX and XXI. 2008-2009 & 2009-2010. − PP. 373-389.

4. Ismoliova J.X. Noan’anaviy muzeylar // Moziydan sado № 3 (67). 2015. − B. 36-38.

5. Muhamedova M. Muzeylarning zamonaviy modifikatsiyasi // Moziydan sado № 2-3 (46-47). 2010. − B. 66-68.

6. Надежда Гордеева. Тренды музейных технологий 2024 // https://vinchi-interactive.ru/journal/trendyi-texnologii-mu-2023

7. Milosh M., Qayumov R., Samarov X. Madaniy merosni raqamlashtirishdagi hamkorlik // Moziydan sado № 1(89). 2021. − B. 20-25.

8. Muhamedova M.S. Muzeylar va madaniy turizm // Moziydan sado № 3 (67). 2015. − B. 39-40.

9. Ismoilova J.X. Muzeylar-moziy maktabidir // Moziydan sado №4.(64). 2014. − B. 6-7.

10. Ismoilova J.X. Muzey tarqaiyotining ustuvor yonalishlari // Moziydan sado № 2 (74). 2017. − B. 22-24.

11. Qayumova Sh. Muzeylar va zamonaviy texnologiyalar // Moziydan sado № 1(57). 2013. − B. 10-11.

12. Ташкенбаевич Т. Т. Виртуальные музеи Узбекистана: новые возможности для изучения истории и культуры. Muzeylarning yangi konsepsiyasi: muzeylar faoliyatida IT texnologiyalar integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami – T.: MRDI nashriyoti, 2024-y. – B. 14-16.

ТУРАЕВА Наргиза
“Фондларнинг илмий сектори”
бўлими илмий ходими
nargizaxon.1993@mail.ru

ФОТОНЕГАТИВЫ КАК ОБЪЕКТ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ И СОХРАНЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ

Аннотация: *В этой статье рассказывается о фото-негативе, который является оригиналом фотодокумента, в виде единичного негативного изображения, полученный на прозрачном носителе в результате съемки с последующей химико-фотографической обработкой и предназначенный для изготовления копий фотодокумента (Методические рекомендации по приему и описанию фотодокументов, в том числе в цифровом виде).*

Ключевые слова: *фотонегативы, история, архивирование, сохранение культурного наследия, цифровизация, археология, исторические исследования.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fotohujjatning asl nusxasi bo‘lgan, keyinchalik kimyoviy-fotografik ishlov berish bilan suratga olish natijasida shaffof tashuvchiga olingan va fotohujjatning nusxalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan yagona negativ tasvir ko‘rinishidagi foto negativ haqida so‘z yuritiladi (fotohujjatlarni qabul qilish va tavsiflash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, shu jumladan raqamli ko‘rinishda).*

Kalit so‘zlar: *fotonegativlar, tarixi, arxivlash, madaniy merosni saqlash, raqamlashtirish, arkeologiya, tarixiy tadqiqotlar.*

Annotation: *This article describes a photo negative, which is the original of a photo document, in the form of a single negative image, obtained on a transparent carrier as a result of photography with subsequent chemical-photographic processing and intended for making copies of the photo document (Methodological Recommendations on Acceptance and Description of Photo Documents, including in digital form).*

Keywords: *photonegatives, history, archiving, preservation of cultural heritage, digitization, archaeology, historical research.*

Фотонегативы представляют собой важный источник информации для научных исследований, культурной и исторической археологии. Они играют значительную роль в сохранении исторической памяти, воссоздании культурного контекста и анализе изменений, происходящих в разных сферах жизни общества. Данная статья рассматривает фотонегативы как объект исследования с точки зрения их значимости для различных научных дисциплин, особенностей их создания и использования в археологических и исторических исследованиях.

С момента появления фотографии в XIX веке фотонегативы стали важнейшими носителями информации об окружающем мире, отражая события, личностей и особенности жизни того времени. В научных и архивных исследованиях фотонегативы остаются одним из самых значимых источников для восстановления истории, поскольку они обеспечивают уникальную возможность зафиксировать реалии, которые невозможно передать через текстовые источники. Таким образом, они представляют собой не только технологический артефакт, но и культурное наследие, содержащее данные о политических, социальных и культурных процессах различных эпох.

Қымбат баҳалы ҳәм ярым қымбат баҳалы таслар	+ 15+18 °С	50-55%
Тери хам пергамент	+16 +18 °С	50-60%
Ағашлар	+15 +18 °С	50-60%
Гезлемелер	+15 +18 °С	55-65%
Сүйеклер	+14 +15 °С	55-60%;
Қағазлар	+17+ 19 °С	50-55%
Ақ-қара фотосүўретлер	+12 °С	40-50%

Музей предметлерин комплекс сақлаў көрсеткишлери төмендегилерден ибарат: температура +18±1°С, салыстырмалы ығаллық 55%±5%.

Белгиленген температура шараятларын тәмийинлеўдиң ең исенимли усылы кондиционер болып табылады.

Тери, ағаш, гезлеме, қағаз ҳәм басқа органикалық гигроскопик материаллардан исленген буйымлар ҳәм жоқары, ҳәм төмен ығаллықта зыян көреди.

Жоқары ығаллықта бул материаллар аңсат ғана исинеди, талшықлары арасындағы тығызлық бузылады ҳәм материал деформацияланады (яғный, өз формасын жоғалтады). Мысалы, ҳәдден тыс ығаллық болса, пергаменттиң дәслепки жағдайына зыян жетеди, нәтийжеде, оның үстиндеги әййемги жазыўлардың нәзик бояў қатламы төгиле баслайды. Жоқары ығаллық плис (когере баслайды) пайда болыўына алып келип, органикалық материалларды жоқ етеди, жүдә қурғақ ҳаўа болса олардың көпшилигин кеудирип жибереди, материалға азырақ тийсе де бузылып кетиўи мүмкин. Әсиресе, температураның кескин артып кетиўи ямаса төменлеп кетиўи реңли сүўретлеў, мүсиншилик, ағаш оймашылығы, сондай-ақ, ҳәр түрли кеңейиў коэффициентине ийе материаллардан исленген (мәселен, ағаштың ҳәр түрли түринен исленген ойма нағыслы мебель) материаллар ушын жүдә қәўипли.

Ығаллықтың кескин өзгериўи де зыянлы. Ҳәр бир өзгерис жүз бергенде, материалдың тез тәсирлениуши бет қатламы ишки қатламына салыстырғанда деформацияланады. Егер ығаллықтың өзгериўи тез-тез тәкирарланса, жарылыўлар ҳәм бузылыўлар пайда болады.

Музейге алып келинген затлардың температура-ығаллық тәртибин анықлаў ушын, оның алдын қандай шараятларда сақланғанлығын билиў зәрүр. Мысалы, жер асты суўлары тәсиринде болған археологиялық шийше буйымға төменлетилген ығаллық керек, ызғар жерден қазып алынған археологиялық ағаш буйымды болса жүдә жоқары ығаллықта сақлаў керек.

Температура-ығаллылық режиминиң ең қолайлы параметрлери қәнигелер тәрепинен үйренилген. Температура-ығаллық тәртибиниң салыстырмалы универсал көрсеткиши, температура +18+1 °С ҳәм ығаллық 55% + 5% есапланады.

Жақтылық унамсыз тәсир ететуғын материалларды, жақтылықтан қорғайтуғын фонд курылмасында сақлаў керек. Олар менен ислегенде жақтылық 50-75 люкстан аспаўи керек (Люкс (лк) - жақтылық дәрежесиниң өлшем бирлиги).

Жақтылық себепли жүз беретуғын физикалық өзгерислер, материал структурасының жемирилиўинде, беккемлигиниң жоғалыўында, қысқарып (яки киширейип) қалыўында көринеди. Олар ҳәм тәбийий, ҳәм жасалма жақтыландырыўшыларда бар инфрақызыл нурларының тәсиринде жүз береди: буны көбирек қыздырыў лампалары тарқатады. Жақтылық тәсиринде болатуғын зыянланыў, нурдың интенсивлиги ҳәм оның қанша даўам етиўине байланыслы. Жақтылықтың өзгериўине көз тез бейимлесетуғынлығы себепли, оның дәрежесин арнаўлы ускенесиз анықлап болмайды. Сонлықтан жақтылық **люксметр** деген әсбап пенен өлшенеди.

Жақтылық тәртиби заттың материалы, реңи ҳәм сақланыў дәрежесине қарап орнатылады. Реңли сүўрет, лак, ағаш, боялмаған тери ҳәм сүйек жақтылыққа орташа шыдамлы болып, олар ушын 150 люкстан аспайтуғын жақтылық усыныс етиледи. Жақтылыққа жоқары шыдамлы материаллардан - металл, реңсиз шийше ҳәм тас, гүлал, гипс сыяқлыларды тек туўрыдан-туўры багытланған қуяш нурларынан сақлаў зәрүр. Жақтылыққа орташа шыдамлы материаллардың жақтылық тәртиби бирдей емес: сүўрет тонировкасы,

үстинги қатламы қараяды, ҳәр түрли тереклер - ғоза, қызыл терек, еменнен таярланған материаллар жақтылықта күйиўи мүмкин, соның ушын олардың үстине гезлеме жабылады.

Сақлаў фондлары ҳәм экспозициядағы ҳаўаның патасланыўына қарсы гүресиў, сондай-ақ, температура-ығаллық тәртибиниң зәрүр параметрлерин сақлап турыў ушын ҳаўаны шаңсызландыратуғын, тазалайтуғын, температураны, ығаллықты нормада услап туратуғын заманагөй үскенелерден пайдаланылады. Фондларда, экспозиция ҳәм көргизбе залларында температура-ығаллық тәртибин бақлаў психрометр, гигрометр, термометр яки өзи жазыўшы үскенелер - гигрограф, термографлар жәрдеминде әмелге асырылади. Үскенелердиң көрсетпелери, әлбетте, арнаўлы журналға жазылады. Температура ҳәм ығаллық көрсеткишлери суткасына 2 мәрте арнаўлы дәптершеге жазып барылады.

Музей предметлериниң жоқары сақлаў тәртибин тәмийинлеўде оларды ҳаўа патасланыўынан қорғаў зәрүр. Себеби, бул олардың жемирилиўи ҳәм гөнериў процесслерин келтирип шығарады.

Шаң ҳәм курым суў сиңиретуғын материаллардың тесиклерине кирип, материалдағы ығаллықты услап туради, химиялық процеслерди күшейтеди, реңли дөретпелердиң бояў қатламында патаслық-дақлардың пайда болыўына алып келеди. Шаң биологиялық зыянкеслер ушын қолайлы орталық жаратады.

Микроорганизмлер - бактериялар көп түрдеги материалларды жемиреди. Биринши гезекте органикалық материаллардан таярланған, ягный реңли сүўрет, қағаз, гезлеме, сүйек, тери, ағаш материаллары зыянланады. Моғорланатын (когеретин) барлық түрлери кетириў қыйын болган дақ пайда етеди, айырымлары болса талшықларды жемиреди. Әсиресе, ығаллық 70%, температура +20 °С болса, Моғорланыу (когериу) процеси тезлеседи. Моғорланыу (когериу) замаррықлары менен зыянланыў, замаррық бөлеклери ҳәм ҳаўа арқалы өтетуғын бактериялар ямаса зыянланған затлар менен байланыста жүз береди. Соның ушын, пилисленген (когерген) зат өз алдына сақланады. Моғорланыу (когериу)дың алдын алыў мақсетинде музей үскенелери ўақты-ўақты менен формалдегидтиң 2% ли спиртли араласпасы менен тазаланады.

Металл, шийше ҳәм керамика буйымларынан басқа музей буйымлары ушын жәнликлер, ягный ҳәр түрли қоңызлар, күйелер, гүбелеклер, тараканлар, шыбынлар жүдә қәўипли. Олар музейге айналардан, есиклерден яки музейге алып келинген затлар арқалы киреди. Оларды жоқ етиў ушын суйық инсектицидлерден пайдаланылады. Ҳәрбир музейде затлардың зыянланганлығын тексеретуғын арнаўлы бөлме ҳәм зыянсызландыратуғын арнаўлы камера болады. Ягный дезинфекция камерасы болады.

Жоқарыда айтылған мағлыўматлыр тийкарында И.В.Савицкий атындағы Қарақалпақстан мәмлектлик көркем өнер музейи Археология бөлими фондларында сақланып атырған айрым экспонатларды мысал етип айтсақ [3]:

1.Нумизматикалық материалларды қолда исленген қағаз конвертлерге салып ағаш қутыларға вертикал тәризде жайластырылған.

3. Керамика ҳәм тастан исленген буйымлар металл стеллажларда бир бирине тиймеген халда жайластырылған. Бул стеллажларға қуяш нурының туўрыдан-туўры түспеўи тәмийинленген.

4. Индивидуал табылмалар секцияларға бөлинген қағаз қутышаларға салынып арнаўлы ағаш қутыларға жайластырып кутылар темир шкафқа орналастырылған.

Тилекке қарсы экспонатларды талапқа сай турде сақлаў қыйынлығында айтып өтиу тийис себеби Қарақалпақстанда хаўа қурғақ болғанлығы ушын ығаллық дәрежесин услап турыў қыйын сол себепли фондымызда сақланып атырған айрым экспонатларымызды арнаўлы витриналарда сақлаўға мажбур болып атырмыз. Мысал етип айтсақ сүйектен ҳам ағаштан исленген айырым экспонатларымызды арнаўлы орынларда ягный үсти айналы витринада сақланбақта. Бул витриналарымызда ығаллықты сақлаў ушын суў қуйылған ыдыслырды койылды. Албетте бул жумыслар болим баслыгы, реставрация болими хызметкерлери менен ойласкан халда исленди.

Жуўмақ

И.В.Савицкий атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик көркем өнер музейинде сақланып атырған археологиялық естеликлерди таллаў мәдений мийрасты сақлаўға комплексли қатнастың әҳмиетин көрсетеди. Әсбап-үскенелерди сақлаў тек физикалық процесс емес, ал терең билим, көнликпе ҳәм турақлы жетилисип барыўды талап ететуғын илимий тараў. Климатты қадағалаўдың заманагөй усылларын қолланыў, арнаўлы коньтейнерлер ҳәм модулли сақлаў системаларынан пайдаланыў сийрек ушырасатуғын буйымлардың зыянланыўы ҳәм деградациясы менен байланыслы қәўиплерди азайтыў имканиятын береди.

Сақлаўшылар жумысының методологиялық өзгешеликлери, соның ишинде, пукта ҳүжжетлестириў ҳәм коньсерваторлар менен бирге ислесиў тек ғана експонатлардың сақланыўын емес, ал олардың илимий изертлеўлер ҳәм билимлендириў бағдарламалары ушын пайдаланыў имканиятын да тәмийинлейди. Басқа музейлер менен тәжирийбе алмасыў, халықаралық илажларда қатнасыў ең жақсы әмелиятлар ҳәм инновациялық шешимлерди енгизиўге хызмет етеди, бул болса, өз гезегинде, музейдиң әҳмиетли мәдений институт сыпатындағы орнын беккемлейди.

Солай етип, И.В.Савицкий атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик көркем өнер музейи тек ғана археологиялық естеликлерди сақлап қалмастан, ал музей әмелиятын қәлиплестириўде де белсене қатнасып, аймақтың мәдений мийрасын раўажландырыўға үлес қоспақта. Тәжирийбе алмасыў ҳәм заманагөй технологияларды енгизиўдиң әҳмиетине итибар қаратып, музей тарийх ҳәм мәдениятты сақлаў, оны келешек әўладларға жеткериўге үлкен үлес қоспақта.

Әдебиятлар:

1. Музейлер ҳаққында ӨзР низамы. // Өзбекстан Республикасы нызам ҳүжжетлери топламы, Но 03/21/721/0952; 26.11.2021-ж., 03/21/732/1098-сан)

2. Доспанов О.Т. Сержанова М.Б. Способы фондового хранения и консервации археологических предметов из кости // Qaraqalpaqstan Respublikası tariyxı hám mádeniyatı mámleketlik muzeyiniń 95 jıllıq yubileyine baǵıshlanǵan “Alís ásirler tariyxínan sír shertken muzey” temasındaǵı ilimiy – ámeliy konferenciya materiallari. No‘kis, 2024-j. 83-b.
3.Көркем өнер музейин есапқа алыў ҳәм сақлаў секторы материалларының дизими ҳәм барлығы.

Фото: Археология фондларындағы археологиялық буйымлардың сақланыў усыллары.

СКЕНДЕРОВ Пердебай
И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон давлат санъат музейи археология бўлими ката илмий ходими

ҚОРАҚАЛПОҚЛАРНИНГ ЎРТА АСРЛАР АРХЕОЛОГИК БЕЗАКЛАРИ ВА ЭТНОГРАФИК ЗАРГАРЛИК САНЪАТИ СИНТЕЗИ: АНЪАНАЛАР ДАВОМИЙЛИГИ ВА МАДАНИЙ МЕРОС

Аннотация: *Мақолада Жанубий Орол бўйи ўрта аср ёдгорликларида олиб борилган археологик қазишмаларда топилган металл тақинчоқлар XIX-XX аср қорақалпоқ анъаналарига оид заргарлик буюмлари билан қиёсий таҳлил қилинган. Заргарлик буюмларини тайёрлашнинг типологияси, материаллари ва техникаси кўриб чиқилади, бадиий анъаналарнинг давомийлиги ва маданий алоқалар аниқланади. Этник ва ижтимоий ўзигахослик нуқтаи назаридан безакларнинг рамзийлиги ва функционал мақсадига алоҳида эътибор қаратилган. Махолада ушбу ноёб маданий меросни музейлаштириш ва асраб-авайлаш масалаларига ҳам тўхталиб ўтилган.*

Калит сўзлар*: музей, археология, этнография, безаклар.*

Аннотация: *В статье проводится сравнительный анализ металлических украшений, найденных при археологических раскопках*

средневековых памятников Южного Приаралья, с ювелирными изделиями каракалпакской традиции XIX–XX веков. Рассматриваются типология, материалы и техника изготовления украшений, выявляются преемственность художественных традиций и культурные взаимосвязи. Особое внимание уделено символике и функциональному назначению украшений в контексте этнической и социальной идентичности. Работа также затрагивает вопросы музеефикации и сохранения этого уникального культурного наследия.

***Ключевые слова**: музей, археология, этнография, украшения.*

***Abstract:** The article compares the metal jewelry found during archaeological excavations of medieval sites in the South Aral Sea region with the jewelry of the Karakalpak tradition of the 19th-20th centuries. The typology, materials, and techniques for making jewelry are examined, and the continuity of artistic traditions and cultural interrelationships are identified. Special attention is paid to the symbolism and functional purpose of jewelry in the context of ethnic and social identity. The work also addresses the issues of museumification and preservation of this unique cultural heritage.*

***Keywords**: museum, archaeology, ethnography, jewelry.*

Кириш

Археологик тадқиқотлар ўтмишни қайта тиклашда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, қадимги жамиятларнинг моддий маданиятини ўрганиш имконини беради. Жанубий Оролбўйи ҳудудидан топилган энг қимматли топилмалар орасида И.В.Савитский номидаги Қорақалпоғистон давлат санъат музейи фондларида сақланаётган металл буюмлар алоҳида ўрин тутади. Мазкур топилмалар тақинчоқлар, уй-рўзғор буюмлари, қурол-яроғлар ва бошқа ашёларни ўз ичига олиб, минтақанинг қадимги аҳолиси ҳунармандчилигининг ривожланиши, иқтисодиёти ва маданий алоқалари ҳақида бебаҳо маълумотлар манбаи ҳисобланади. Уларни ўрганиш нафақат металлга ишлов беришнинг технологик жиҳатларини очиб беради, балки қўшни давлатлар ва маданиятлар билан тарихий алоқаларни кузатиш имконини беради.

Археологик ва этнографик металл безакларни музейлаштириш анъанавий музей усуллари ва замонавий технологияларни бирлаштирган ҳолда комплекс ёндашувни ўз ичига олади. Асосий йўналишлар таснифлаш, реставрация, экспозиция ечимлари, рақамлаштириш ва таълим лойиҳаларини ўз ичига олади.

Замонавий археологик ва этнографик безакларни музейлаштириш фанлараро ёндашувни талаб қилади. Рақамли технологиялар, интерактив экспозитсиялар ва илмий усуллардан фойдаланиш маданий меросни нафақат сақлаш, балки оммалаштириш имконини беради. Қадимги ва анъанавий заргарлик санъатининг синтези чукур тарихий ворисийликни намоён этиб, ҳунармандчилик анъаналарининг ривожланиши ва уларнинг замонавий этник безакларга таъсирини тушунишга ёрдам беради.

Жанубий Орол бўйи археологик шароитида металл буюмларнинг

аҳамияти.

Металл буюмлар моддий маданиятнинг муҳим элементи бўлиб, қадимги жамиятларнинг ривожланишда ражасини акс эттиради. Уларни ишлаб чиқариш юқори технологик жиҳозланганликни, хомашё мавжудлигини, махсус малака ва маҳоратни талаб қилади. Жанубий Оролбўйи археологик топилмалари контекстида металл буюмларни таҳлил қилиш минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожланиш манзарасини тиклаш имконини беради.

Биринчидан, металл буюмлар ҳунармандчилик ишлаб чиқариши ҳақида тасаввур беради. Металлга ишлов бериш технологияси, қўлланиладиган қотишмалар ва тайёрлаш техникасини ўрганиш турли тарихий даврларда металлургия даражасини аниқлаш имконини беради. Масалан, бронза, темир ва кумуш буюмларнинг мавжудлиги ҳар хил турдаги металлар ва уларга ишлов бериш усулларининг қай даражада ўзлаштирилганлигидан далолат беради. Буюмларнинг безаклари ва уларнинг услубий хусусиятлари қўшни цивилизацияларнинг таъсирини, шунингдек, маҳаллий саноъатнинг ривожланишини кўрсатиши мумкин.

Иккинчидан, металл топилмалари иқтисодий фаоллик кўрсаткичидир. Олтин ва кумуш тақинчоқлар каби зеб-зийнат буюмларининг мавжудлиги жамиятнинг табақалашуви, савдо алоқалари, аҳоли айрим табақаларининг бойлик даражасидан дарак беради. Металлургия марказлари ва хомашё етказиб бериш йўлларини таҳлил қилиш Жанубий Орол бўйи минтақасини Хоразм, Бақтрия, Сўғдиёна ва Форс каби қўшни ҳудудлар билан боғлаган савдо йўлларини кузатиш имконини беради.

Учинчидан, қурол-яроғ билан боғлиқ археологик топилмалар ҳарбий иш ва минтақанинг стратегик мавқеийи ҳақида қимматли маълумотлар беради. Қиличлар, ўқ учлари, зирҳ ва қуролларнинг бошқа элементлари муайян тарихий даврларга хос бўлган ҳимоя ва ҳужум тизимларини қайта тиклаш имконини беради. Бундан ташқари, уларнинг ишлаб чиқарилиши ва тарқалишини таҳлил қилиш турли халқлар ўртасидаги ҳарбий алоқалар ва маданий алмашинув даражасини аниқлашга ёрдамберади.

Шундай қилиб, Жанубий Орол бўйи археологик ёдгорликларидан топилган металл буюмларни ўрганиш минтақанинг тарихий ривожланишини тиклашда катта аҳамиятга эга. Ушбу артефактлар нафақат металлга ишлов беришнинг технологик жиҳатларини тиклашга ёрдам беради, балки жамиятнинг ижтимоий тузилиши, савдо алоқалари ва ҳарбий можароларни ҳам ёритиб беради. Ушбу топилмаларни сақлаш ва ўрганиш орқали Жанубий Орол бўйида яшаган қадимги халқларнинг тарихи ва маданиятини, уларнинг жаҳон цивилизацияси ривожига қўшган ҳиссасини чуқурроқ англаш мумкин.

Металл безакларни ўрганиш усуллари

И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон Давлат санъат музейи фондларида сақланаётган археология объектлари орасида Жанубий Орол бўйи антик ва ўрта аср ёдгорликларида кўплаб археологик тадқиқотлар натижасида тўпланган жуда кўп турли металл буюмлар мавжуд. Улар безаклар, уй-рўзғор буюмлари ва қуроллар ва ҳ.к.

Металл буюмларни маҳсус ўрганиш металлга ишлов бериш ҳунармандчилиги, маълум бир ҳудуд аҳолисининг иқтисодий ва маданий фаровонлиги, унинг қўшни давлатлар ва минтақалар билан алоқалари ҳақидаги маълумотларни тўлдириш имкониятини аниқлаш имконини беради.

Металл буюмлар орасида темир, мис, бронза ва кумушдан ясалган тақинчоқ ва безаклар, уй-рўзғор буюмлари, ўқ учлари яхши сақланган.

Тез-тез топиладиган бронза буюмлар орасида турли шаклдаги тақинчоқлар, бронзадан ясалган ясси қопламалар(накладка), ўқ учлари, мавжуд. Ой кўринишини эслатадиган ой сирғаси XI-XIV-асрларга ойд ўрта аср материаллари орасида Жанпик қалъа, Кават қалъа ва Катта Гулдурсун материаллари орасида кенг қўлланилади, шакли ва кўпинча услуби жиҳатидан бир хилликни кўзатамиз. (расм).

Бў шакилдаги сирғалар I минг йилликнинг биринчи ярими ўрталарига оид ёдгорликларда кенг тарқалган [9,174б р,91, 19-23]

И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон Давлат санъат музейи археология фондида Кават қалъа, Джанпик калъадан топилган бронзадан ишланган ой куринишидаги буюмлар сақланмоқда. №1 Кават калъадан КП-3772/727, КП-3772/728, КП-3772/729, КП-3772/760, КП-3570, КП-44841, №2 Джанпик калъа КП-3772/87 археологик қозишмалар вақтида топилган.

Бў археологик тақинчоқлар ҳар ҳил ёдгорлик ҳудудларидан топилишидан қатъий назар бир-бирига жуда ўхшаш. Бу Хоразмда ички савдонинг ривожланганлигидан дарак беради. У аста ингишкариб боради, ингичка учида илгакда осилиб турган.

Жанпик қалъанинг аҳолиситоғ-кон қазиболиш, ярим тайёр маҳсулотларни қайта ишлаш, ярим қимматбаҳо тошлар билан бойитиш билан шуғулланганлигини исботлайди [7, 77б].

Тоғ-конь саноати ўрта асрларда Султонуиздоғ тизмаси ёнбағрида жойлашган Жонпик қалъа манзилгоҳи атрофида металл рудаларини қазиб олиш, қайта ишлаш ва улардан фойдаланишнинг ривожланган тизими эди. Буни кўплаб шахталар, металлургия устахоналари, металлдан ишлов берилган уй-рўзғор буюмлари, эритиш учун печлар, шунингдек, кейинги болғалаш учун заготовкалар – критслар мавжудлиги тасдиқлайди. Археологик топилмалар металлургия ишлабчиқаришининг юқори даражасидан далолат беради, бу эса ихтисослашган ҳунармандчилик марказлари ва маҳаллий аҳолининг қўшни минтақалар билан савдо алоқалари мавжудлигини кўрсатади.

Жанпик қалъа атрофида, Султонуиздог тоғларида [1] металл рудаларини ўзлаштириш учун қадимий ва ўрта асрларга оид маълумотлар топилган [6; 8, 16-17-б; 4, 23-25-б]. 7-сонли қазишда кўп сонли печлар ва тоғ жинслари қолдиқлари, тигел ва металл шлаклари бўлган, металл ишлаб чиқариш билан шуғулланадиган ҳунарманд ҳоналарининг бир қисми қазилган.

Биз шу куринишга эга металдан ишланган заргарлик буюмларни солиштириб кўрганимизда, ўхшашлик томонидан XIX аср оҳири ва XX аср бошларига тегишли Қорақалпоқ аёл қизларининг тақинчоқларида кўришимиз мумкун. Қорақалпоқ аёлларининг заргарлик тақинчоқлари 3 тургабулинади.

Жанпиқ қалъадан топилган заргарлик буюмларини XIX - XX асрлардаги

қорақалпоқ усталарининг этнографик материаллари билан қиёсий таҳлил қилиш асрлар давомида мерос бўлиб келаётган заргарлик санъатининг барқарор анъаналарини аниқлаш имконини беради. Археологик топилмалар шакл, нақш ва ижро техникасининг ўхшаш элементларини кўрсатади, бу эса минтақада маданий анъаналарнинг давомийлиги ва заргарлик ҳунармандчилигининг барқарор ривожланишидан далолат беради.

Тақинчоқлар таснифи

Қорақалпоқ аёлларининг заргарлик буюмлари ва Жонпиқ қалъа топилмаларини учта асосий гуруҳга бўлиш мумкин:

1. Бош учунбезаклар

-Археологик топилмалар: диадемалар, пешона тақинчоқлари, бош тожлари.

-Этнографик безаклар: кумуш пластинкалар, тангалар, маржонлар билан безатилган анъанавий бош кийимлар (такя, сауке), шунингдек, пешона ва чакка тақинчоқлари.

2. Кўкракбезаклари

- Археологик топилмалар: массив кўкрак тақинчоқлари, зарб қилинган элементлари бўлган маржонлар, туморлар.

3. Қўлтақинчоқлари

-Археологик топилмалар: ўйма нақшли улкан билагузуклар, нақшинкор қистирмали узуклар.

-Этнографикбезаклар: олтинсуви юритилган кумушдан ясалган кенг билагузуклар, қуёш, ой ва ўсимликларнинг рамзий тасвирлари туширилган йирик узуклар.

Қадимги Жонпиқ қалъа безакларининг анъанавий қорақалпоқ буюмларига ўхшашлиги нақш мотивлари ва технологик усулларнинг барқарорлигини кўрсатади. Бу заргарликда маданий ворисийликнинг сақланиб қолиши, шунингдек, турли даврлар ўртасида ҳунармандчилик алоқалари ва технологиялар алмашинуви мавжудлиги ҳақидаги фаразни тасдиқлайди.

Қорақалпоқ аёллари сирғаларининг таснифи ва уларнинг Жонпиқ қалъа археологик топилмалари билан боғлиқлиги қуйидагича.

Қорақалпоқ усталарининг заргарлик санъати чуқур тарихий илдизларга эга бўлиб, антик ва ўрта асрларга бориб тақалади. Жанпиқ қалъада олиб борилган қазишмалар натижасида топилган тақинчоқлар орасида XIX-XX асрлардаги анъанавий қорақалпоқ буюмлари нақшларига ўхшаш бўлган кумуш ва мис зираклар топилган. Ушбу топилмалар қорақалпоқ аёлларининг сирғаларини қиёсий таҳлил қилиш ва таснифлаш имконини беради.

Балоғатга етмаган қизлар учун зираклардан:

Этнографик безаклар: *Шашакли сирға* – кичкина қизлар тақадиган шокилали зирак.

Археологик топилмалар: болалар учун мўлжалланган оддий геометрик нақшли кичик зираклар.

Балоғатга етган турмушга чиқмаган қизлар учун сирғалар

Этнографик безаклар:

Ҳалкаплисирға – ҳалқа элементли зираклар.

Собиқлисирға – тақинчоқнинг юқори ва пастки қисмларини бирлаштирувчи занжирли зираклар.

Балдакли сирға - массив қистирмали зираклар.

Силсинели сирға – кўплаб майда шокилалар билан безатилган зираклар.

Археологик топилмалар: ҳалқа симон ва илонсимон элементли зираклар, ярим ой ва ўсимликсимон нақшли шокилалар**.**

Ёш ва кекса келинлар учун сирғалар

Этнографик безаклар:

Сояу сирға – маржон ва феруза қадалган узун зирак.

Шийиртпак сирға – спиралсимон элементлари буралган зираклар.

Маржонли кумуш сирға - маржон билан безатилган кумуш зирак.

Археологик топилмалар: мураккаб геометрик ва ўсимликсимон нақшлар билан безатилган тош ва шиша қистирмали улкан зираклар.

Ёши улуғ кекса аёллар (момо)

Этнографик безаклар: ҳаёт даври ва доноликни ифодаловчи ой шаклидаги зираклар.

Археологик топилмалар: Марказий Осиё халқлари орасида кенг тарқалган диний тақинчоқларга хос ярим ой шаклидаги сирғалар.

Қорақалпоқ аёлларининг зиракларини таснифлаш заргарлик анъаналарининг сезиларли давомийлигини кўрсатади. Жанпиқ қалъадан топилган тақинчоқлар XIX - XX асрларга оид этнографик буюмлар билан умумий жиҳатларни намоён этади, бу эса минтақа заргарлик санъатида услубий хусусиятлар, рамзийлик ва технологик усулларнинг сақланиб қолганлигидан далолат беради.

Ой куринишидаги сирғаларнинг бирнечта, ҳарҳил кўринишлари мавжуд бўлиб улар ҳам ёшга қараб тақилган.

Улар орасида Буршикли сирғалар олоҳида урин тутади. Буршикли сирғанинг барча вариантлари туташмаган, баъзан эса туташган ҳалқа асосига қурилган. Болғаланган кумуш (ёки қотишма) пластинка ташқи томондан хилма-хил шакллар (кўпинча майда учбурчаклар) ҳосил қилувчи доначалар билан ўралган бўлади. Ҳалқа ичидаги бўшлиқ турли хил шакллар билан тўлдирилади. Буралган учлар, доирачалар ва икки доирага бўлиниш сирғани чиройли қилади: ички пастки сегментдаги ярим доира марказини тўлдирадиган учта доира билан тугайди; ички девор бир қаторли йирик дон билан безатилган. Бу қаторга кирадиган баъзи буюмларнинг ичида ўсимлик шаклидаги хилма-хил шакллар бўлади. Буни "ҳаётдарахти" деб тахминқилиш мумкин [2,71-б].

Буршикли сирғанинг пластинкасимон деворининг олд томонига оддий геометрик нақшлар ўйиб туширилган. Сирға номи буршик сўзидан олинган бўлиб, дон маъносини билдиради. Бундай буюмлар Волга бўйи халқларида бўлган. (Валеэв, 1969. Табл. 32-37). Эҳтимол, буқадимги Шарқнинг Ой рамзи билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Демак, қорақалпоқ заргарлари ясаган сирғаларда қадимги давр излари аниқ кўзга ташланиб, бу инсон маҳоратининг, ақл-қобилиятининг қадимдан

жуда яхши ривожланганидан дарак беради. Орадан қанча вақт ўтсаҳам қорақалпоқча сирға намуналарининг сақланиб қолишининг ўзи бу заргарлик буюмининг қиз-келинчакларнинг кўркига-кўрк қўшиб, турмушида ката аҳамиятга эга бўлиши билан бирга уларни тил-кўзданҳам сақлайдиган бўлганига далил бўлади. Шундай экан, бундай ноёб заргарлик намуналарини пухта сақлаб, тарғиб этиш, илмий жиҳатдан тадқиқ этишлозим.

Хулоса

Жанпиқ қалъа ва Жанубий Орол бўйининг бошқа археологик ёдгорликларидан топилган металл тақинчоқларни ўрганиш минтақа заргарлик санъати анъаналарининг давомийлигини кузатиш имконини беради. Этнографик маълумотлар ва археологик топилмалар таҳлили шуни кўрсатадики, қадимги усталар қўллаган услубий ва технологик усуллар қорақалпоқ маданиятида XIX - XX асрларгача сақланиб, етиб келган. Бу кумуш ва мисдан фойдаланишда, ўзига хос нақш мотивларида, безакларнинг рамзийлиги ва ижтимоий аҳамиятида намоёнбўлади.

Металл буюмларни музейлаштириш маданий меросни сақлашнинг муҳим жиҳати. У артефактларни ўрганиш, реставрация қилиш ва намойиш этиш бўйича комплекс тадбирларни ўз ичига олади. Безакларни тизимлаштириш ва таснифлаш алоҳида роль ўйнайди, бу нафақат уларни экспозицияда тақдимэтиш, балки тегишли даврларнинг маданий, диний ва маиший анъаналари билан боғлаш имконини беради.

Шундайқилиб, Жанубий Орол бўйи минтақасидаги металл безакларнинг археологик ва этнографик тадқиқотлари ҳунармандчилик ишлаб чиқариши, маданий алмашинув ва аҳолининг эстетик дидлари билан боғлиқ тарихий жараёнларни чуқурроқ тушунишга ёрдам беради. Замонавий музейлаштириш усуллари ушбу артефактларни келажак авлодлар учун сақлаб қолиш, уларни илмий ўрганиш ва кенг жамоатчиликка тақдим этиш имконини беради.

1-Расим

Археологик экспидицияларда топилган тақинчоқлар

2-Расим

XIX-XX аср Қорақалпоқ заргарлик санъати намуналари

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Амиров Ш., Алисон Б., Хожаниязов Г., Микеле М. Археологическое обследование гор Султануиздага // История и археология Приаралья, №1, Нукус, «Билим», 2019.С.248
2. Архивные материалы Центральной Азии.Том VI. / Алламуратов.А. Каракалпакское декоративно-прикладное искусство. Вопросы художественного своеобразия. – Самарканд: МИЦАИ, 2019.
3. Ватурская Н.Н. «Хронологическая классификация» стр 323
4. Доспанов О.Т. Жампыққала орта әсирлер естелиги. Нөкис. 1992ж.
5. Доспанов О.Т., Скендеров П.М. Ўрта асрлар бронза маҳсўлотларини ўрганиш масалалари // Ўрта осиё тарихи ва археологияси. Термиз, 2022
6. Лопатин С.В. Горные клады. - Советская Каракалпакия, 1965, 24 января
7. Манылов Ю.П., Кдырниязов М.Ш. Городище Джанпык кала. - Археология Приаралья, вып.2. Ташкент, 1984
8. Манылов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага в эпоху античности и средневековья. - АКД, Ташкент, 1972
9. Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовьях амударьи. Москва 2013г.

ЗИЯЕВА Раъно Алимжановна
Ўзбекистон тарихи давлат
музейи бўлим мудири
ranoshka_3485@mail.ru

КЎЧМАС ЁДГОРЛИКЛАРНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИДАГИ МАДАНИЙ ОБЪЕКТ ПАСПОРТИНИНГ ЎРНИ

Аннотация: *Ушбу мақолада маданий мерос объектлари паспори ва унинг ишлаб чиқиш жараёнлари маҳаллий ҳамда хорижий тажрибалар қамровида ўрганилган. Муҳим ноёб объектларни музейлаштиришда уларни ҳисобга олишда тизимлаштирилган илмий хужжатлаштириш тизимини талаб қилади. Бу жараёнда албатта маданий мерос объектларининг паспортини тузиш муҳим масалалардан саналади.*

Калит сўзлар: *паспорт, паспортлаштириш, маданий мерос, объект, ёдгорлик, меъморий обида,тарихий ва маданий ёдгорлик, хужжат.*

Аннотация: *В данном статье исследуется история объектов культурного наследия и процессы их развития в контексте отечественных и зарубежных экспериментов. Музеефикация важных уникальных объектов требует систематизированной системы научной документации при их рассмотрении. В этом процессе, безусловно, составление паспорта объекта культурного наследия является одним из важных вопросов.*

Ключевые слова: *паспорт, паспортизация, культурное наследие, объект, памятник, памятник архитектуры, памятники истории и культуры, документ.*

Annotation: *This article examines the history of cultural heritage sites and their development processes in the context of domestic and foreign experiments. Museification of important unique objects requires a systematic system of scientific documentation when considering them. In this process, of course, drawing up a passport of a cultural heritage site is one of the important issues.*

Keywords: passport, certification, cultural heritage, object, monument, architectural monument, historical and cultural monument, document.

Маданий ёдгорликлар объекти паспорти – бу ҳар бир маданий ёдгорликнинг рўйхатга олингани, уларнинг аҳамияти, тарихий, маданий ва меъморий хусусиятларини белгилаш, уларнинг ҳолатини кузатиш ва сақланиши учун масъул бўлган ташкилотларда муҳим маълумотларни ўз ичига олувчи хужжат саналади. Инсоният тарихида шахсни тасдиқловчи ҳужжатда идентификацион асосдаги маълумотлар киритилганидек, маданий мерос объектининг паспортида ҳам барча керакли маълумотлар ўрин олади. Масалан, ёдгорликнинг номи, унинг қурилган вақти ва санаси, ёдгорликка тегишли тарихий воқеалар, саналар ва бошқа далиллар ёзилади.

Маданий ёдгорликларни муҳофаза қилишнинг бошланғич босқичи XX асрнинг биринчи ярмидан шаклланган бўлиб, бу даврда ҳали маданий

ёдгорликларни ҳимоя қилиш бўйича муҳим илмий тизимлаштирилган йўналишлар шаклланмаган эди. 1930-1940 йилларда эса асосан Ғарбий Европа мамлакатлари тарихий ёдгорликларни сақлашга алоҳида эътибор қарата бошлади. Аммо ёдгорликларни ҳужжатлаштириш ва паспортизация қилиш жараёни тугалланган асосда 1950-60 йилларга келиб шаклланди. Маданий ёдгорликлар паспорти ягона халқаро реестр шакли ишлаб чиқишда ЮНЕСКО (Бутунжаҳон маданият ва табиат мероси ташкилоти)нинг хизмати катта бўлди. 1972 йилда қабул қилинган Жаҳон маданий ва табиий меросини ҳимоя қилиш тўғрисидаги Конвенция[11.] маданий ёдгорликларнинг глобал ҳимоясини таъминлаш борасидаги асосий ҳуқуқий вазифаларни белгилаб берди. Бу конвенция қонуности бандларида халқаро даражада ёдгорликларни илмий паспортлаштириш ва ҳужжатлаштириш бўйича махсус стандартлар ишлаб чиқилди. ЮНЕСКО билан ҳамкорликда ишлаган ташкилотлар, масалан ИКОМОС - маданий ёдгорликларнинг умумий рўйхатини шакллантириш ва унинг паспортлаштириш стандартларини ишлаб чиқишда муҳим роль ўйнади. Шунингдек, бу жараёнда бир қанча халқаро олимлар ва мутахассислар фикрлари жамланиб, таҳлилий муносабатлар асосида амалиётга жорий этилди.

Маданий ёдгорликларни ҳимоя қилиш ва уни рўйхатга олиш ишлари ҳам бежиз тезкорлик билан амалга оширилмади, чунки, турли зиддиятли тарихий-сиёсий жараёнлар, экологик муаммолар, биноларни функционаллиги асосида фойдаланилмаслик ҳолатлари натижасида меъморий ёдгорликлар ўз қадрини ва қийматини йўқотиб, вайрона ҳолатга келиб қолаётган эди. Натижада, ноёб архитектура объектлари йўқотила бошланди. Шу сабабли, деярли барча мамлакатларда маданий меросни миллий миқиёсда ҳимоя қилиш бўйича самарали ва узоқ муддатли чораларни кўриш учун махсус қонунлар ишлаб чиқиш, илмий тадқиқот ҳамда таъмирлаш марказлари ташкил этиш зарурияти туғилди.

Бу борада, маданий мерос объектларини сақлаш бўйича хорижий тажрибалар мисолида ҳужжатлаштириш жараёнини таҳлил этиш мақоланинг илмий методологик назариясини кўрсатиб беришда муҳим саналади. Хорижий қонунчиликда “тарихий ва маданий ёдгорликлар” атамасининг турли хил таърифлари мавжуд. Бу атама асосан, унинг “миллий”лик маъносини аниқ белгилаш орқали очиб берилади. “Тарихий ва маданий ёдгорлик” атамаси ёдгорликлар билан боғлиқ бир қатор қисқача фундаментал таърифларни беради. Масалан, АҚШ қонунчилик кодексига биноан тарихий ёдгорликлар “туманлар, ҳудудлар ва бинолар, иншоотлар ва объектлар миллий реестрида келтирилган[8; 9; 25-29.]”. Франция қонунларига кўра, “тарихий ва маданий ёдгорлик” тушунчаси иккита ҳусусиятни ўз ичига олади. Биринчиси, тарихий, бадиий, мифологик, илмий ва тасвирий қиймат бўлса, иккинчиси эса тарихий ёдгорлик ноёблик даражасини ҳуқуқий муҳофаза қилиш тартибини олади. Шундай қилиб, ваколатли давлат муассасалари хоҳишига кўра, ҳар қандай кўчар ва кўчмас мулк ва объектлар давлат муҳофазасига олинадиган тарихий ва маданий ёдгорликлар сифатида таснифланади. Буни Буюк Британия ва Польша қонунларида ҳам кузатишимиз мумкин[1; 2; 7.]. Буюк Британия ва

Польша қонунларида тарихий объектларни сақлаш ва муҳофаза қилишга доир бир қатор муҳим қонунлар ва механизмлар мавжуд. Ҳар бир давлатнинг тарихий меросни ҳимоя қилишга бўлган ёндашуви ва қонунчилик тартиби ўзининг махсус ҳусусиятларига эга. **Буюк Британия** ва **Польша** қонунларида тарихий объектларни сақлаш соҳасида кўп умумийликлар мавжуд, лекин ҳар бир давлатнинг қонунчилиги ўзининг миллий талабларига ва тарихига мослашган. Буюк Британияда ёдгорликлар "listed buildings" сифатида аниқ белгилаш орқали ҳимоя қилинади, Польшада эса ёдгорликларнинг ҳимоясига давлат томонидан қатъий йўл-йўриқлар ва махсус қонунлар асосида ёндашилади. Ҳар икки мамлакатда ҳам ёдгорликларни сақлашга йўналтирилган қонунлар тарихий ва маданий меросни ҳимоя қилишнинг муҳим ижтимоий вазифаси сифатида қабул қилинган.

Италияда тарихий архитектура объектларини сақлашга қаратилган қонунлар ва норматив-ҳуқуқий база мамлакатнинг бой маданий мероси ва унинг хавфсизлигига катта аҳамият қаратилади. Италиянинг тарихий ва маданий ёдгорликларини муҳофаза қилиш соҳасидаги қонунлар ва тадбирлар XIX-асрнинг охири ва XX-асрнинг бошларидан бошлаб шаклланган, ва ҳозирда ҳам бу йўналишдаги қонунчилик бўйича кўплаб муҳим қонун ва ҳуқуқий ҳужжатлар мавжуд [4; 5; 10.].

Ўзбекистон ҳудудида эса 1950 йиллардан бошлаб ёдгорликларни паспортлаштириш ишлари амалга оширила бошланди. Ўзбекистон Республикаси миллий архивида ҳам ёдгорликларни давлат муҳофазасига олиш бўйича бир қанча маълумотлар сақланиб келинмоқда. Узкомстарис раиси Низомиддин Хожанинг УзССР СНК Фанлар қўмитаси, маданият бошқармаси ва халқ комиссарлигига ёзган мурожаатига кўра, ЦИК ва СНКнинг 1932 йил 27 июньдаги №62 сонли келишувига биноан Узкомстарис ташкилотидан барча маданий ёдгорликлар ашёлари ўтганлиги қайд этилган. Улар орасида Тошкентнинг муҳим ёдгорликларидан бири Шайх Хованди Тоҳур мажмуаси ҳам киритиб ўтилган. Тўрт томондан тўртта кўчани бирлаштириб турувчи, эски ва янги биноларни ўзида мужассамлаган Шайхонтоҳур масжиди бу даврда кооператив коллежнинг чиқиш қисмида, унинг биносида эса профессорлар ётоқхонаси жойлашган бинога айланган эди. Шунинг учун янги барпо этилган икки қаватли бақувват бинонинг ички деворлари бузилиб, яшаш учун мослаштирилишига қарши бўлишган, уни жойлашган жойи ва кубаметри бўйича ҳам музейга мос келиши айтиб ўтилган[13;4-5.]. Яшаш учун одамларнинг кўчиб келиши ва ички деворларини уй сифатида мослаштиришига қарши бўлган Низомиддин Хожа ўзининг икки бетлик мурожаатида жон куйдириб гапиргани бежиз эмас. Чунки, қадимий иншоотларимизни асраб-авайлаш ва уларни келажак авлодга етказиб бериш, шунингдек, шаҳар марказида жойлашган бу бинони жамоат жойига айлантириш тарафдори бўлган ноёб шахслардан ҳисобланади.

1933 йил Узкомстарис раиси Иноғомов ва САМИИР археология бўлими бошлиғи Мирсоатов ва Узкомстарис илмий котиби В.Д.Жуковнинг далолатномаларида Шайхонтоҳурдаги айрим бинолар ҳусусида ёзиб ўтганлар. Бу далолатномага кўра, Юнусхон мақбараси (ўша даврда Кооператив биноси

бўлган), Шайхонтоҳур мақбараси, Қалдирғочбий мақбараси, Ғариб масжиди (ички муҳитини кўриш мумкин бўлмаслиги учун эшиги ёпиб қўйилгани аниқланган) бўйича изланишлар олиб борилган. Унга кўра қуйидаги фикрга келишган: бу иншоотларнинг ичи куруқшаб нурагани ва хажмининг ҳам мос келмаслиги учун уларни музей биноси сифатида ишлатиб бўлмаслиги кўзда тутилган. Юнусхон мақбарасини эса кўргазмалар ўтказиш учун бино сифатида фойдаланиш мумкин бўлиши айтиб ўтилган[13. 26v]. Бундан кўриниб турибдики, нураган иншоотларни таъмирлаш ўрнига, баққувватроғини музейлаштириш ишлари олиб борилганлигини кўрамиз. Қолган иншоотлар эса бизнинг давримизгача анча нураб қолган.

1977 йил 10 март Ўзбекистон Маданият вазирлиги томонидан бир қатор Ўзбекистон ҳудудида жойлашган ёдгорликларни бутуниттифоқ ёдгорликларни муҳофаза қилиш ҳимоясига олиш учун таклиф юборилади. Ўтган асрнинг 70 йилларида ҳам, нураб бораётган меъморий обидаларимизни келажак авлод учун етказиб бериш, ҳамда уларни бутуниттифоқ даражасидаги ҳимояга олиш учун Ўзбекистон Маданият вазирлигида ҳам

1930-40-йилларда янги иншоотларнинг қурилиши ва модернизация қилиниши даврида кўпгина ёдгорликлар ва қадимий иншоотлар нураб борди. Шунинг учун уларнинг айримлари музейга айлантирилиб, қайта тиклашга ҳаракат қилинди. Низомиддин Хожанинг мурожаатлари ва Узкомстарис раҳбарияти томонидан қилинган таклифлар, шунингдек, Шайхонтоҳур масжиди ва бошқа ёдгорликлар ҳақида олиб борилган тадқиқотлар ёдгорликларни сақлаш учун муҳим қадамлар бўлган. 1933 йилдаги далолатномалар ва ўша даврдаги тадқиқотлар меъморий ёдгорликларни музейлаштириш ва уларни замонавий эҳтиёжларга мослаштириши ишларини кўрсатиб берди. 1970-йилларда Ўзбекистон Маданият вазирлиги томонидан ёдгорликларни бутуниттифоқ даражасида ҳимоя қилиш ва уларни келажак авлодларга етказиш учун алоҳида таклифлар берилган. Бу жараёнлар натижасида Ўзбекистондаги меъморий ёдгорликлар халқаро ҳимояга олинишига интилишлар бўлган ва бу йиллар давомида ёдгорликларни сақлашга қаратилган кўплаб ишлар амалга оширилди. Шу тариқа 1950 йиллардан бошлаб Ўзбекистонда меъморий ёдгорликларни паспортлаштириш ва уларни муҳофаза қилиш бўйича амалга оширилган тадбирлар муҳим тарихий аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг натижалари бугунги кунгача ўз аҳамиятини сақлаб келмоқда.

Ўзбекистон Республикасида эса 2001 йил 30 августдаги “Маданий мерос объектларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонунида “ёдгорликлар”ни рўйҳати аниқ қилиб белгиланган. Бу рўйхатга бинолар ва иншоотлар, уларга боғлиқ бўлган санъат асарлари ва тарихий, маданий қадриятлар кирган[6]. Қонунга кўра, ёдгорликларни сақлаш ва ҳимоя қилиш учун махсус органлар белгиланган. Ўзбекистонда **Маданият вазирлиги** ва **Ўзбекистон Республикасининг Миллий тарихий ёдгорликларни сақлаш ва ҳимоя қилиш бўйича махсус ташкилотлар** давлат муҳофазасига олинган ёдгорликларнинг ҳолатини кузатиб бориш, уларни тиклаш, реставрация қилиш ва ёдгорликларнинг ҳар қандай бузилишини аниқлаш учун жавобгар

бўлади.

Бироқ мамлакатимиз ҳудудида маданият ёдгорликлари шу қадар кўпки, уларнинг ичида ҳозирги кунгача ҳисобга олинмаганлари ҳам учраши мумкин. Бу айниқса тарихий шаҳар ва қишлоқлардаги турар жой бинолари билан боғлиқ. Бундан ташқари, сўнгги 100-150 йил ёки ўн йилликларда бунёд этилган иншоот ва иморатлар илгари ўтказилган тадқиқотчилар нуқтайи назарида ёдгорлик туркумига кирмасдан, вақт ўтиши туфайли янгича қарашларга нисбатан ёдгорлик категориясига кириши мумкин.

Шунинг учун агар ёдгорлик илгари ҳисобга олинган бўлса, унинг илмий паспортини ўрганиб чиқиш лозим. Демак, ҳар бир ёдгорлик ўз илмий паспортига эга бўлади. Бу ҳужжатда ёдгорликнинг номи, жойлашган жойи, ёдгорликнинг умумий сақланганлик ҳолати қисқача баён қилинган бўлиши лозим. Шунингдек, схематик тарзда бош режаси, режа ҳамда умумий кўриниш тасвирлари акс эттирилган бўлиши керак. Бунда Ўзбекистон ёдгорликнинг умумий ҳолатини кўздан кечириши, ёзма маълумот тузиши, тарихий ва илмий манбаларни ўрганиши, археологик маълумотлар билан танишиши, архив ва музейларда тадқиқотчилик ишларини олиб бориши, муҳандислик ва аналитик маълумотларни тўплаши ва яхлит хулоса тузилганида асосий тадқиқотчилик фаолият турлари амалга оширилади.

Хулоса ўрнида айтиб ўтиш жоизки, 1950 йиллардан бошлаб, Ўзбекистонда ёдгорликларни паспортлаштириш ишлари амалга оширила бошланди. Бу жараённинг бошланиши муҳим тарихий аҳамиятга эга, чунки у даврда бир қатор тарихий ёдгорликларнинг ҳолати ўрганилиб, давлат муҳофазасига олинди. Бунинг натижасида ёдгорликларнинг ҳақиқий ҳолати, уларнинг архитектуравий аҳамияти ва таърихий қадрияти аниқланди. Шайхонтоҳур масжиди ва бошқа ёдгорликлар бўйича олиб борилган тадқиқотлар ёдгорликларнинг сақланишини таъминлашда муҳим қадам бўлди. 1970 йилларда Ўзбекистон маданият вазирлиги томонидан ёдгорликларни бутуниттифоқ ёдгорликлар сифатида ҳимоя қилишга қаратилган таклифлар юборилди. Бу ҳолда халқаро даражадаги ёдгорликларни ҳимоя қилишга интилишлар ортиб, Ўзбекистондаги маданий меросни сақлаш учун кўплаб тадбирлар амалга оширилди.

Орадан 30 йил ўтиб эса, 2001 йилда қабул қилинган "Маданий мерос объектларини ҳимоя қилиш тўғрисида"ги қонун, ёдгорликларнинг давлат муҳофазасига олиниши ва уларни ҳимоя қилишда муҳим юридик асос бўлди. Бу қонун ёдгорликларни сақлаш, тиклаш ва ҳимоя қилиш учун махсус органлар ва тадқиқот ишларини белгилаб берди. Қонун асосида, маданий мерос объектлари давлат муҳофазасига олинди. Бу ёдгорликлар ва объектлар ҳуқуқий жиҳатдан муҳофазага олиниб, уларнинг қандай қилиб сақланишини ва тикланишини белгилаш имконини берди. Қонунга асосан, ёдгорликлар давлат тасарруфига олиниши ва уларнинг муҳофазасига давлат органлари масъул бўлди. Қонунга асосан, тарихий ёдгорликларни сақлаш ва тиклаш ишлари учун махсус тадқиқотлар ва реставрация ишлари амалга оширилди. Бу жараёнлар ёдгорликларнинг тарихи, архитектураси ва маданий аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилди. Ёдгорликларни қайта тиклаш,

реставрация қилиш ва уларни замонавий талабларга мослаштириш ишлари учун мутахассислар ва олимлар жалб этилди. Ёдгорликларнинг аҳволи, жойлашган жойи, архитектураси, тарихий аҳамияти ва бошқа муҳим маълумотларни аниқлаш мақсадида уларни **паспортлаштириш** ишлари олиб борилди. Ёдгорликларнинг паспорти тузилиб, ҳар бир ёдгорлик ҳақида ҳужжат ва маълумотлар тўпланди. Бу маълумотлар ёдгорликларнинг ҳолатини кузатиш ва уларни ҳимоя қилишга ёрдам берди. Бу қонун асосида амалга оширилган муҳим ишлар ёдгорликларни сақлаш, уларни тиклаш ва замонавий эҳтиёжларга мослаштириш бўйича амалга оширилган тадбирлар Ўзбекистоннинг маданий меросини ҳимоя қилишда муҳим рол ўйнамоқда.

Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар

1. Ancient Monuments and Archaeological Areas Act. 1979 y.

2. Act on the Protection of Monuments and the Guardianship of Monuments. 2003y.

3. Виноградова Ю.В. Архитектурные паспорта на памятники Кирилло-Белозерского монастыря.// Научная статья.:М-2016.

4. Маданий мерос ва ландшафтни сақлаш тўғрисидаги қонун. 1975.

5. Маданий меросни сақлаш ва ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонун. 2004 йил.

6. “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш тўғрисида”// Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 3-моддаси. 2001 йил 30 август.

7. Planning (Listed Buildings and Conservation Areas) Act. 1990 y.

8. The United States Law "On the Protection of American Historical Districts, Buildings, Antiquities, and Other Objects of National Importance" № 470, 1935 y., chapter. 16;

9. The United States Law "On the Protection of Historical Monuments of National Importance", 1980, art. 1,2 // Foreign legislation in the field of preservation of cultural and natural heritage. Information collection. Moscow: Institute of Heritage, 1999. pp. 25-29.

10. Таърихий ва маданий ёдгорликлар учун махсус валидация. 1999y.

11. Умумжаҳон мероси Конвенциясини амалга ошириш бўйича амалий қўлланма. 2019й.

12. https://www.lex.uz/acts/25461

13. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-2296-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 58-ish, 30-varaq. Главное управление по охране памятников материальной культуры и музеев Министерства Культуры УзССР. Организация выставок по памятникам материальной культуры УзССР. 1933-34 гг.

BOLTAYEV Izzatbek Xurmatbek o‘g‘li
“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri.

JUMANAZAROVA Gozal Azadovna
“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi.

“ICHAN-QAL’A”DAGI AMALGA OSHIRILGAN ARXEOLOGIK IZLANISHLARNING AHAMIYATI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva shahrida xususan Ichan-Qal’adagi olib borilgan arxeologik ishlar izlanishlar va ularning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Y.G‘.G‘ulomov, M. Mambetullayev, Y.Yusupov, V.N.Yagodin, Xeykanik, Ko‘hna ark, Oqshixbobo, Arxeologik ashyo.*

Abstract: *This article provides information about the archaeological research conducted in Khiva, particularly in Ichan-Kala, and its significance.*

Keywords: *Y.G.Gulomov, M. Mambetullayev, Y.Yusupov, V.N.Yagodin, Heikanik, Old Ark, Akshikhabobo, Archaeological material.*

Аннотация: *В статье представлена информация об археологических исследованиях, проводимых в Хиве, в частности в Ичан-Кале, и их значении.*

Ключевые слова: *Ю.Г.Гуломов, М. Мамбетуллаев, Ю.Юсупов, В.Н.Ягодин, Хейканик, Кухня Арк, Акшайхабобо, Археологический артефакт.*

Xiva – O‘zbekistonning qadim shaharlaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, shahar miloddan avval V asrda barpo etilgan. Xiva o‘zining tarixiy o‘tmishi, me’moriy tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi jihatidan mazkur qadimgi shaharlar orasida alohida o‘rin tutadi. Ichan-Qal’a Xiva shahrining markazida joylashgan bo‘lib majmuada 58 ta Madaniy meros obyektlari va arxeologik yodgorliklari mavjud. Majmua 26 gektar maydonni egallagan.

Y.G‘.G‘ulomov shaharning topografik tuzilishi va mudofaa inshootlarini kuzatishlari asosida maskanning qurilishi va rivojlanish tarixini kushonlar davriga oidligi to‘g‘risida xulosaga kelgan edi. Yodgorlik miloddan avvalgi V asrda Xeykanik(Polvonyob) sug‘orilish inshooti etagida tekislikka to‘g‘ri burchak shaklda qad ko‘tarilgan (650x450m), ya’ni 26 ga. G.A.Pugachenkova shaharni milod boshlari bilan belgilagan. 1957-1960-yillarda V.A.Bulatova Ichan-Qal’a bir necha joyida shurflar olib borishi davrida o‘rta asrga oid madaniy qatlamlaridan olingan ashyolar tahliliga asnosida, uning vujudga kelishini X asr bilan belgilagan.

Z.S.Yukina 1976-1979-yillarda shahardagi Uch Avliyo yaqinida arxeologik tadqiqotlar olib borgan shurfdan ilk antik davriga oid sopol namunalarini topishga muyassar bo‘lgan. 1984-yildan Ichan-Qal’a mudofaa tizimini arxeologik jihatdan o‘rganishning yangi davri boshlangan. 1984-1985-yillarda Y.Yusupov, M.Mambetullayev, V.N.Yagodin Xivada arxeologik qazishmalani olib borganlar. Ammo, yodgorlik qadimiy madaniy qatlami arxeologik jihatdan o‘rganilmaganligi sababli, tarixiy sanasiga oid ilmiy ma’lumotlar tarixiy adabiyotlarda o‘z aksini topmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, keyingi tarixiy yillarda tadqiqotchilar tomonidan Xiva shahari vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish jarayonini

o‘rganish asosiy ob'ekt qilib belgilab olingan. 1988-1990-yillarda Ichan-Qal’a shimoliysharqiy burchagida, Tosh darvozadan 23m g‘arbiy tomondagi hududda arxeologik izlanishlar olib borilgan. XX asrning 80-yillarida Ichan-Qal’ada olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari asosida so‘nggi arxaika davri madaniy qatlamlaridan olingan ashyolarga asoslanib, uning tarixiy sanasi 2400 yil degan xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi M. Mambetullayev rahbarligidagi guruh mustaqillik yillarida Ichan-Qal’a janubiy-sharqiy devori va burjida arxeologik qazishmalarni olib borishi natijasida qadimgi davr qatlami o‘rganilgan. Ichan-Qal’ani ichki qismida arxeologik izlanishlarni olib borilishi natijasida 10 ta qurilish davri bo‘lganligi va unda hayot uzluksiz ravishda davom etganligi aniqlandi. Yodgorlik miloddan avvalgi V asrda Xeykanik sug‘orilish inshooti etagidagi tekislikka to‘g‘riburchak shaklda qad ko‘tarilgan(650x450m), ya’ni 26 ga. Ilk qurilish davrida yodgorlik to‘rt tomoni ikki qatorli paxsa devor bilan o‘rab olingan, ular o‘rtasidagi yo‘lak kengligi – 2 metr. Tashqi devor qalinligi 2,10 metr, ichki esa 1,70 metr, umumiy balandligi 0,85 metr. Tashqi devoridan old tomonga 3,5 metr, oraliq maydoni 27-30 metr masofali to‘g‘riburchakli burjlar joylashgan.Quyi (pastki) madaniy qatlamlardan topilgan sopol parchalari mil.avv. IV– III asrlar bilan belgilangan.

Ikkinchi qurilish davrida paxsa devor va uning to‘g‘riburchakli burjlar devoriga 1,50 metrni tashkil etgan kvadrat shaklli g‘om g‘ishtdan devor qad ko‘tarilgan (40x40x10sm). G‘arbiy devor o‘rtasida ark-a’lo joylashib, uning hajmi 170 x 120 metr, ya’ni 2 ga. Sharqiy devor o‘rtasida darvoza joylashgan, u ikki yon tomoni to‘g‘riburchakli burjlar bilan mustahkamlangan.Uning oldi tomonini himoya qilgan bir tirsakli labirint inshooti devor qoldiqlari sezilmaydi. Uchinchi qurilish davrida tashqi devorga qo‘shimcha devor qurilish ishlari keng tus olgan, natijada uning balandligi rostlanadi, uning massivligi oshib borgan. Arxeologik ashyolar tahliliga ko‘ra, mudofaa devor va burjlar milodiy I-III asrlarda ta’mirlangan. To‘rtinchi qurilish davrida devor va burjlarga tashqi tomondan 0,42-0,52 metr qalinlikda paxsa devor yopishtirilib qurilishi bois, uning mahobatligi va massivligi yanada oshib borgan. Arkda qo‘shimcha jamoat inshoti bunyod qilingan(Oqshixbobo). Shahar shimol devorida - 8 ta, sharqida - 11 ta, g‘arbida - 14 ta, janubiy devorda - 9 ta. Markaz to‘rtta darvozasida - 8 ta, arki devorida esa - 2 ta burjlar, ularning soni - 52 ta bo‘lgan. Beshinchi qurilish davrida esa shahar mudofaa kompleksida ta’mirlash ishlari yanada faolashgan. Tashqi devor atrofi aholi tomonidan o‘zlashtirilishi munosabati bilan, uning joylashishi va tarhi tuzilishida o‘zgarishlar yuz beradi. Aholi joylashgan sarhad tarixiy adabiyotlarda Dishanqal’a atamasi sifatida o‘rin olgan.

2021-yilda Ko‘hna ark saroyining janubi-sharqiy tomonidagi maydonda arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Ushbu maydon 584 kvadrat metrni tashkil etadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra xon qabulxonasigacha bo‘lgan ushbu bo‘sh maydonda zich joylashgan binolar mavjud bo‘lgan. Binolar uchta hovli atrofida jamlangan. Birinchisida, darvoza oldida elchilar xonning qabulini kutishgan, ikkinchisida zambaraklar joylashgan, uchinchisida xon devoni qaror topgan.

Olib borilgan arxeologik qazishmalarning dastlabki bosqichida mazkur maydonda joylashgan imorat qoldiqlari aniqlangan. Bu yerda 1,3 metr kenglikda

pishgan g‘ishtlardan barpo etilgan, shimoldan janubga yo‘nalgan imorat poydevori ko‘zga tashlanadi. Undan g‘arbda pishgan g‘ishtdan terilgan pol va uning o‘rtasida tashnov (adan) joylashgan. Ushbu topilmalar qazishmaning eng yuqori, ya’ni shahar hayotining so‘nggi davr qatlamlariga tegishli bo‘lib, aniqlangan sopol buyumlar asosida XIX asr bilan belgilanadi. Bu hududda XX asrning o‘rtalarida zamonaviy qurilmalar barpo etilib, qazishma maydonining o‘rtasida ularning qoldiqlarini kuzatish mumkin. Bu yerda hozirgi zamin sathidan 1,2 metr chuqurlikda, XVI – XVIII asrlarga tegishli quduq ham aniqlangan. Quduq pishgan g‘ishtlardan barpo etilgan. Quduq bilan bog‘liq pol sathida tashnovlar ham kuzatiladi. 1-1,5 metr chuqurlikkacha o‘rganilgan madaniy qatlamlarda juda ko‘plab sirlangan va sirlanmagan sopol idishlar qoldiqlari aniqlandi. Bular XVII – XIX asrlarga tegishli bo‘lgan xum, ko‘za, tog‘ora, kosalardir. Yuqoridagilarga ko‘ra ushbu qatlamda aniqlangan inshoot qoldiqlari ham shu davrga taalluqli bo‘lib, tarixiy manbalarda tavsiflangan binolar xaqiqatdan xam mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Qazishmaning g‘arbiy tarafida qazilgan 2-3 metr chuqurlikdagi shurfda 80-90 sm chuqurlikkacha madaniy qatlamlar o‘rganilib, pol sathi ochildi. Mazkur pol sathida to‘g‘riburchak shaklidagi o‘choq qoldiqlari aniqlanib, ular xo‘jalik maqsadlarida foydalanilgan. Shurfda bir metr qalinlikdagi madaniy qatlamlarda ko‘plab sirlangan va sirlanmagan sopol buyumlar, shisha bo‘laklari, mis tanga qoldiqlari aniqlandi. Sirlanmagan sopol buyumlar kul rang tusda bo‘lib, ular ichida ko‘zalar, xurmachalar, tog‘oralar va boshqa idishlar qoldiqlari kuzatiladi. Idishlarning sirti tirnalgan va chekma naqshlar bilan bezatilgan. Aniqlangan sopollar ishlanish uslubi, loyining tarkibi va xususiyatiga ko‘ra, xronologik jihatdan XIII – XIV asrlarga tegishlidir. Shunga ko‘ra shurfda aniqlangan o‘choqlar ham shu davrga oid bo‘lib, Ko‘hna ark hududida qadimgi turar-joylarning xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni taqdim qiladi.

Mazkur hududda yaqin kelajakda arxeologik qazishmalarni davom ettirish rejalashtirilgan. Xiva shahri 2500 yillik tarixiy taraqqiyotni boshidan kechirgan bo‘lib, arxeologik qazishmalar uning qadimgi tarixi bilan bog‘liq yangi arxeologik manbalarni taqdim qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гулямов. Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней.Т., “Фан”, 1957, с. 85.

2. Пугаченкова. Г. А., Рempель. Л. И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Т, 1957, с. 85.

3. Манькоаская. Л. Ю., Булатова. В. А. Памятники зодчества Хорезма. Т., 1978, с. 33.

4. Мамбетуллаев. М. М. Раскопки оборонительных сооружений Хивы//Вестник ККО АН Р Уз//. Нукус, .1992, .№4. с. 112-115.

5. Мамбетуллаев. М. М., Ягодин. В. Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы// ОНУ, .№8//. Т., «Фан».1986, с. 43-51.

6. Мамбетуллаев. М. М. Раскопки оборонительных сооружений Хивы// Вестник ККО АН Р Уз//. Нукус, .№4, 1992

7. Мамбетуллаев. М., Ягодин. В.Н. К оценке хронологии и динамики

культурного слоя г. Хивы.// ОНУ, №3//. 1986. Мамбетуллаев. М. Раскопки оборонительных сооружений г. Хивы.//Вестник ККР «Фан», Уз//.Нукус, 1992.

8. Мамбетуллаев. М. М., Юсупов. Н., Хожаниёзов. Ғ. Матрасулов. Ш. Хива по итогам исследований 1985 года. 1986, с. 34,38.

АБДУРАСУЛОВ Акмал
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети мустақил тадқиқотчиси
akmal.abdurasulov86@gmail.com

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ЁДГОРЛИКЛАРИДА ОТАШПАРАСТЛИК РАМЗИ: ОЛОВ ТИМСОЛИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Мазмуни: *Ушбу мақолада Марказий Осиё ҳудудида ўрганилган ёдгорликлар асосида зардуштийликнинг асоси – оташпарастлик рамзи бўлган олов билан боғлиқ белгиларнинг учраши таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *Шимолий Бақтрия, бронза даври, қабилалар, аҳоли, деҳқончилик, чорвадорлик, ёдгорлик, қабристонлар.*

Резюме: *В данной статье на основе изученных памятников на территории Центральной Азии проанализировано наличие признаков, связанных с огнем - символом огнепоклонничества, являющегося основой зороастризма.*

Ключевые слова: *Северной Бактрии, эпохи бронзы, племена, население, земледелие, скотоводчество, памятник, кладбище.*

Resume: *This article analyzes the occurrence of symbols associated with fire, which is the fundamental element and symbol of fire worship in Zoroastrianism, based on the monuments studied in the Central Asian region.*

Key words: *Northern Baktria, Bronze Age, tribes, population, agricultural, pastoral, monument, cemetery.*

Бизга маълумки, инсоният ҳаётида қадимдан то бугунги кунгача ҳам оловнинг ўрни катта бўлган. Айниқса, оловнинг аҳамияти инсонлар томонидан энди тараққий этиш жараёнлари бошланаётган тош даврларида беқиёс бўлган. Бронза даврига келиб, диний маросим ва унинг асосий таркибини ташкил этувчи дафн маросимларида олов ҳамда рамзий олов белгилари кўплаб учратилади.

Биз буни Шимолий Бақтрия бронза даври деҳқон ва чорвадор қабилалар ёдгорликлари мисолида кўриб ўтамиз. Шимолий Бақтрия ҳозирги кундаги жанубий Ўзбекистон ва жанубий-ғарбий Тожикистон ҳудудларини ўз таркибига олган. Ушбу ҳудудлар бронза даврида келиб чиқиши икки хил хўжалик асосида кун кечирувчи қабилаларга тегишли бўлган. Шимолий

Бақтрия ғарбида экологик имкониятларга кўра, деҳқончилик хўжалиги, шимолий-шарқида чорвачилик хўжалиги ривожланади. Аммо, икки ҳудуд аҳолиси ўртасида доимий алоқалар бўлганлиги ушбу ҳудуд моддий маданият ёдгорликларида (Сополлитепа, Жарқўтон ёдгорликлари, чорвадор қабилаларнинг Бишкент-Вахш, Андронова) ўз аксини топган.

Сополлитепа маданиятида оловга сиғинишнинг бир кўриниши сифатида алтарни айтиб ўтиш мумкин. Сополли маданияти ёдгорликларида олиб борилган археологик изланишлар натижасида бир неча алтар қолдиқлари топилган бўлиб, уларни тузилишига кўра, икки турга, яъни доира шаклида ва квадрат шаклдаги алтарлардан иборатдир.

Доира шаклидаги алтарлар илк маротаба Ўрта Осиё ҳудудида энеолит ва бронза даврларидан бошлаб, кенг масштабда тарқалиши кузатилади. Бундай алтарлар Саразм маданиятининг энеолит даврига тегишли қурилиш қатламида [4: 152-162], Жанубий Туркманистоннинг энеолит даври ёдгорлиги ҳисобланган Геоксюр 1, 7 ёдгорлигида [6: 87-89] кузатиш мумкин. Улар ҳатто Жанубий Тожикистон ҳудудидаги сўнгги бронза даврига оид илк Тулхор қабристонида [5: 125-129] ҳам учратилган. Иккинчи турдаги алтарлар тўртбурчак тарзда бўлиб, уларни Саразмда, бронза даври қатламларида ҳамда Жарқўтон ёдгорлигида учратилган.

Жанубий Тожикистон ҳудудида кўп йиллар изланишлар олиб борган А.М.Мандельштам бронза даврига оид илк Тулхор қабристонидаги эркак киши дафн этилган бир қабрдан тўртбурчак шаклдаги алтарни топган бўлса, аёл кишига тегишли бир қабрдан айлана, яъни доира шаклидаги алтарни учратади [5: 8-46]. Одатда доира шакли бу она ер ва қуёшнинг рамзий маънодаги кўринишини ифодаласа, тўртбурчак шакли ўша давр нуқтаи-назаридан қараганда табиатнинг тўрт муқаддас унсури – қуёш- ер юзига иссиқлик энергия етказувчи, унинг ердаги парчаси сифатида олов, ер – унумдор тупроқ, мусаффо ҳаво, сув – оби ҳаётнинг бир эътиқод культи предметида мужассамлашганлиги бўлиши мумкин. Агар бу масалага фалсафий нуқтаи-назардан ёндашилса, аёл киши қабридан думалоқ шаклдаги алтарнинг топилиши аёл – Она - ер ва энергия, иссиқлик, иликлик тафтини улашувчи қуёшга яқин қиёслаб эъзозланган, эркаклар эса ернинг, тоза ҳавонинг, сувнинг муқаддаслигини, софлигини сақловчи, қўриқчиси сифатида қаралган бўлиши мумкин.

Сополли маданиятининг Кўзали ва Мўлали боскичларида марказлашган ибодатхонанинг пайдо бўлиши билан одамларнинг мафкуравий қарашлари мустаҳкамланиб боради. Ибодатхонада одамлар жамоа бўлиб оловга сиғиниш ва шу билан боғлиқ кўпчилик томонидан бажариладиган турли диний удумлар, маросимларни бажарганлар. Шу билан бирга ҳар бир патриархал оилада ҳам ўзларининг махсус оилавий сиғиниш алтарлари ҳам бўлган. Бунда ҳар бир оила ўзларининг ички тартиб-қоидаларидан келиб чиқиб, турли оилавий удумларни бажариш учун мўлжаллаб қурган бўлиши мумкин.

Жарқўтон ёдгорлигида олиб борилган изланишлар даврида Жарқўтон аркининг 6-тепалигидан 2 та тўғритўртбурчак шаклдаги кул сақланадиган ўралар борлиги аниқланди. Улардан бирининг чуқурлиги 2 метр бўлиб,

қурилманинг ички қисми деворлари кул билан қопланган. Яна шундай кул сақланадиган ўра, Жарқўтон ибодатхонасидаги хоналарнинг бирида ҳам борлиги аниқланган. Бу ўра тузилишига кўра, чўзинчоқ шаклда бўлиб, чуқурлиги 70 см ни ташкил этади. Ушбу ўралар муқаддас оловда ёнгандан кейинги чўғларни эрталабгача ўчирмасдан сақлаш учун мўлжалланган махсус жой бўлган. Оловни ҳосил қилиш мураккаб жараён бўлганлиги сабабли, қадимда одамлар оловни ўчоқларда ўчирмасдан сақлашга ҳаракат қилганлар [3: 10]. Чўғ ҳам оловнинг бир қисми бўлганлиги сабабли, бу билан оловнинг мангулигини, ўчмаслигини таъминлаш мақсадида ушбу қурилмадан фойдаланган бўлишлари мумкин. Ўраларнинг усти ҳаво кирмайдиган даражада ёпилган ва чўғ эрталабгача ўчмасдан сақланган. Эрталаб чўғни махсус цилиндр шаклли идишлар ёрдамида керагича олиб чиқиб, яна олов ҳосил қилганлар. Ибодатхона, алтарлар, кул – чўғ сақланадиган ўраларнинг мавжудлиги, уларнинг сақланиши бронза даври аждодларимиз тафаккури ўз даври учун, мўътадил ҳаёт кечиришлари учун етарли даражада шаклланганлигидан далолат беради.

Жарқўтон ёдгорлигида изланиш олиб борган Т.Ширинов ушбу чўғ ташишга мослашган идишни қўлга олиб юришга қулайлигини ҳисобга олган ҳолда, уларни кўчма алтарлар деб атайди [1: 70-78; 8: 70-78]. Жарқўтон ибодатхонасидан алтарларнинг топилиши олов инсоният ҳаётида, турмуш-тарзида, эътиқодида нақадар муҳим ўрин эгаллаганлигидан, унинг муқаддас бўлганлигидан далолат беради. Чунки олов қуёшнинг ердаги парчаси сифатида инсоният учун иссиқлик, энергия берувчи табиатнинг муқаддас унсури сифатида эъзозланган. Олов нафақат қадим замонларда, балки ҳозир ҳам инсоният ҳаётида муҳим ўринга эгалигини ҳисобга олсак, унинг ҳамиша жамият учун, инсоният учун керакли манба эканлигига иқрор бўламиз.

Жарқўтон олов ибодатхонаси бронза даври Бақтрия аҳолисининг диний қарашлари тўғрисида янги, мукаммал маълумотларни бера бошлади. Бу ерда изланишлар олиб борган тадқиқотчиларнинг фикрича, Жарқўтон олов ибодатхонаси марказий ибодатхона сифатида бутун воҳа аҳолиси учун диний марказ вазифасини бажарган [2: 129-136; 1]. Ибодатхона ҳудудидан топилган алтарлар, муқаддас кудуқлар, илоҳий кулхоналар ва баланд супада жойлашган мангу ёниб турган оташкада каби ашёвий далиллар бу ибодатхонани нафақат оташпарастлик ибодатхонаси, балки илк зардуштийлик ибодатхонаси бўлганлигидан далолатдир.

Бундай фикрни Бақтриянинг жанубий ҳудудларида изланишлар олиб борган В.И.Сарианиди [6: 87-89; 7: 241] ҳам Даштли, Тўғалоқ, Гонур ибодатхоналари мисолида айтиб ўтган.

Эътиқод инсонларни бирлаштириб, уларнинг ҳаётини тўғри йўлга қўйишда, турмуш кечиришларида муҳим ўринга эга. Эътиқоднинг кўриниши қандай бўлишидан қатъий назар, у фақат инсонларни яхшилик қилишга, ҳаёт қийинчиликларига сабрли бўлишга, келажакка ишонч билан қарашга чорлайди. Бронза даври деҳқон жамоаларининг диний эътиқоди ҳам оддийлик билан мураккаблик орасида, яъни уларда оддий айрим буюмлар, тумор, ҳайвон культларига эътиқод қилишдан то йирик диний эътиқод объектлари,

оташпарастлик ва илк зардуштийлик ибодатхоналари даражасигача бўлган йўлни босиб ўтади. Бу эса, инсонларни диний эътиқодга муносабати, ишончи кучли бўлганлигидан, эътиқодсиз ҳеч бир даврда мустаҳкам ҳаёт қуриб бўлмаслигидан далолатдир.

Адабиётлар

1. Аскаров А., Ширинов Т. Древнебактрийский храм огня в южном Узбекистане. «Градостроительство и архитектура. Культура Среднего Востока – развитие связи и взаимодействия». Ташкент, 1989.
2. Askarov A., Shirinov T. Le temple du feu de Dzarkutan, Ie plus ancien centre cultuel de la Baktriane septentrionale // Histoire et cultes de L'Asie Centrale preislamique. Actes du Colloque international du CNRS. - Paris, 1991, - P.129-136;
3. Бойс М. Бойс М. Зороасртийцы: верования и обычаи. – М., 1987. – С.10.
4. Исаков А. Саразм – новый раннеземледельческий памятник Средней Азии // СА, №6, 1986, С. 152-167.
5. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в южном Таджикистане // МИА, №145. М., 1968. С. 8-60, 125-129.
6. Сарианиди В.А. Памятники позднего энеолита юго-восточной Туркмении // Археология СССР. САИ. Б. 3-8. Част 4. М., 1965, С. 87-89.
7. Sarianidi V. Margiana and Protozoroastrism. - Athens, 1998. – P. 241.
8. Ширинов Т. Алтари огня из храма Джаркутан. С-70-78.

BEKENOVA Aliya Absattarovna
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi
ilmiy xodimi
aba920131@gmail.com

NEMIS MENNOITLARNING XORAZMDAGI HAYOTI VA UNING MUZEYLASHTIRILISHI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada* 1883-yildan 1937-yilgacha Xorazm vohasida yashagan mennonit nemislarining hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi Nemis mennoitlari muzeyining yaratilishiga oid ma'lumotlar va muzeyning millatlararo do'stlik va diniy bag'rikenglikni targ'ib qilushdagi ahamiyati yoritilgan. *Kalit so'zlar: muzey, mennonit, nemis, e'tiqod, bag'rikenglik, tarbiya, interaktiv, ekspozitsiya.*

Аннотация: *В статье отражена жизнь и деятельность немецких меннонитов, проживавших в Хорезмской оазисе с 1883 по 1937 год, а также создание Немецкого меннонитского музея. Рассматривается роль музея в продвижении межнациональной дружбы и религиозной терпимости.*

Ключевые слова: музей, меннониты, немцы, вера, терпимость,

воспитание, интерактив, экспозиция.

Abstract: *The article reflects the life and activities of the German Mennonites who lived in the Khorezm oasis from 1883 to 1937, as well as the creation of the German Mennonite Museum. The role of the museum in promoting interethnic friendship and religious tolerance is also highlighted.*

Keywords*: museum, Mennonite, German, faith, tolerance, education, interactive, exhibition.*

Xorazmning boy tarixida, millatlararo aloqalar va diniy bag‘rikenglik g‘oyalari o‘ziga xos iz qoldirgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, Xivaga kelgan mennonitlar jamoasi o‘ziga xos va muhim tarixiy voqea bo‘lib, ular o‘zlarining hayot tarzi, mehnat intizomi va diniy qadriyatlari bilan nafaqat Xiva, balki butun Xorazmni taraqqiyotiga xissa qo‘shgan. Ularning hayoti va faoliyati tarixiy yodgorliklarga aylanib, hozirgi kunda Xorazm madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan.

Mennonitlar – Niderlandiyaning nasroniy rohibi Menno Simons (1496-1561) tomonidan asos solingan diniy harakatning tarafdorlaridir. Ular an’anaviy nasroniylikdan farq qilgan g‘oyalarni targ‘ib qilgan va o‘zining jamoasini qurgan. Mennonitlar o‘z e’tiqodlariga sodiq bo‘lib, yopiq jamoa sifatida yashashni afzal ko‘rgan, mehnat intizomi va jamoaviy hayotga qat’iy amal qilganlar. Ular ko‘pincha dehqonchilik bilan shug‘ullangan va harbiy xizmatga yoki davlat ishlarida ishlashga qarshi chiqqanlar. Mennonitlar, tarix davomida ko‘plab quvg‘inlarga uchragan va oxir-oqibat, turli hududlarga tarqalganlar.

Kelib chiqishi Niderlandiyaning Vitmarsum shahridan bo‘lgan faylasuf va dinshunos Menno Simons (1496–1561) xristian dinini isloh qilib, o‘z mazhabini yaratgan. Uning ta’limotiga ko‘ra, qo‘lga qurol olib, urushlarda qatnashish, odam o‘ldirish, umuman olganda, yomonlikka qurol kuchi bilan qarshilik ko‘rsatish yovuzlik, g‘ayriinsoniy, g‘ayridiniy holat, mudhish jinoyat va gunoh deb hisoblangan. Bu ta’limotni tan oluvchilar mennonitlar deyilgan. Tabiiyki, Menno Simons yashab, o‘z e’tiqodini targ‘ib qilgan davrda qirollar, harbiylar va ular itoatidagi ruhoniylar uchun urushlar boyish va o‘z hududini kengaytirish manbai edi. Shu sababdan ham Niderlandiyada mennonitlar oqimi qattiq taqibga uchragach, ular XVI asr o‘rtalarida Prussiya, ayrim mennonitlar esa XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida Ukraina, Rossiya hududlariga ko‘chib ketishgan. Aynan mennonitlar ta’limoti sababli ularning taqdiriga vatanni tashlab ketib sarson sargardonchilikda yurish yozilgandi.

Xristian dinining annabatizm mazhabidan XVI asrda ajralib chiqqan protestantlik oqimidagi Germaniya (Prussiya)ning Marionburg shahridan bo‘lgan nemislar esa mennonit nemislari deb atalgan. Prussiya hukumatining urushga tayyorgarlik ko‘rish asnosida, mennonit nemislarini ham harbiy xizmatga jalb qilishga urinishi ularning vatanlari –Marionburgni tashlab ketishga majbur qilgan.

XVIII asrda mennonitlar Rossiyaga ko‘chib o‘tishdi. Yekaterina II tomonidan berilgan imtiyozlar ularni o‘zlarining diniy qadriyatlariga sodiq qolgan holda yashash imkoniyatiga ega qildi. Ammo Aleksandr II taxtga o‘tirgach, mennonitlarga berilgan imtiyozlar bekor qilindi va ular yangi joylar izlashga majbur bo‘lishdi. 1880-yilda Turkiston general-gubernatori fon Kaufman mennonitlarni Toshkentga

chaqirdi. Ammo majburiy harbiy xizmatning joriy etilishi bilan mennonitlar Toshkentni tark etib, Buxoro amirligiga yo‘l olishdi.

1882-yilda Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon II mennonitlarni Xivaga qabul qildi. Ular Ko‘hna Urganch shahri yaqinidagi qo‘rg‘onda yashay boshladilar va dehqonchilik bilan shug‘ullanishdi. Lekin turkman-yovmut qabilasining hujumlari ularning hayotini murakkablashtirdi. Xiva xoni Feruz mennonitlarni yangi joyga ko‘chirib, o‘zga din vakillariga nisbatan zo‘ravonlikni taqiqladi va ularga yer solig‘idan ozodlik berdi.

Mennonitlar Xivada dehqonchilikdan ko‘ra, asosan hunarmandchilik, duradgorlik va yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘ullanishgan. Ular Xiva saroylarining bezaklarini yaratishda, mebellar va naqshli pech koshinlarini ishlab chiqarishda katta rol o‘ynagan. Xiva xoni Feruz ularni saroyda ishlash uchun chaqirgan va bu ularning sanoat rivojiga katta hissa qo‘shdi. Nurullaboy saroyining qurilishida mennonitlarning mehnati alohida e’tiborga loyiqdir. Ular, shuningdek, yevropacha uslubdagi binolarga ham hissa qo‘shgan.

Xiva mennonitlarining yana bir alohida yodgorligi shundaki, ulardan biri Vilhelm Penner fotografiya bilan shug‘ullangan. U Xudoybergan Devonovni fotografiyaga o‘rgatgan va bu o‘z navbatida, Xorazmning birinchi fotografi va kinooperatorining shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Xiva mennonitlarining ijtimoiy hayoti ham o‘ziga xos edi. Ularning maktabi, jamoa raisi va diniy e’tiqodlariga sodiq qolgan hayot tarzi Xorazmda ijtimoiy va madaniy muhitni shakllantirdi. Jamoa o‘zining diniy e’tiqodlariga sodiq bo‘lib, harbiy xizmatdan voz kechgan, jamoaviy ishlar va yuksak mehnat intizomini ta’minlagan. Boshqa hududlarga qaraganda, mennonitlar Xivada o‘zaro ahil-inoq yashashni afzal ko‘rgan.

Mennonitlar Xorazmdagi yarim asrlik yashash davrida Oqmachitda dorixona, kasalxona ham barpo qilgan. Dorixonadagi dori-darmonlar Rossiya va Yevropadan keltirib turilgan. Kasalxonada ham vrach va hamshira sifatida mennonit nemislari faoliyat ko‘rsatishgan. Mennonit nemislarining Oqmachitdagi 1937-yilgacha bo‘lgan hayotini biz asosan ularni ko‘rgan kishilarning fikrlaridan bilib olishimiz mumkin.

Sovet davrida mennonitlar jamoasi o‘z diniy e’tiqodlariga sodiq qolishga harakat qilgan. Ammo 1937-yilda mennonitlar sovet hukumati tomonidan qatag‘on qilindi va ular boshqa hududlarga deportatsiya qilindi. Faqat 1970-yillarda mennonitlarning ba’zilari Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonga ko‘chirildi.

Mennonitlar yetakchisi Emil Reysen rus va mahalliy tilda so‘zlashishni bilgan. Feruz uni tarjimon va iqtisodiy masalalar bo‘yicha maslahatchi lavozimida ishlatgani, Xivada pochta, telegraf va elektr energiyasi tizimini tashkil etishda uning xizmati katta bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. Reysen yordamida Xivada birinchi elektr stansiyasi barpo etilgan. Mennonitlar jamoasi o‘z maktabiga ega bo‘lgan. Bolalar nemis tilida o‘qish va yozishga, arifmetikaga, shuningdek, o‘z diniy aqidalariga o‘qitilgan. Germaniyadan maxsus adabiyotlar buyurtma orqali olingan, o‘qituvchilar yollangan.

Mennonitlar Xorazmda o‘zining mehnat intizomi va an’anaviy hayot tarzini o‘zgartirishga muvaffaq bo‘lishdi. Ularning ro‘zg‘or buyumlari, mebellari va

hunarmandchilik mahsulotlari hozirgi kunda Xorazm tarixining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Bundan tashqari, mennonitlar o‘zlarining o‘rnatgan savdo aloqalari va hunarmandchilik orqali mahalliy aholi hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, kelgan har bir xalq o‘zining madaniyati, an’analari, urf-odatlarini olib keldi. Ko‘p millatli musulmon muhiti ichiga kirganlar o‘z dini va o‘ziga xosligini saqlashga harakat qilishdi. Mahalliy aholi esa, asosan, musulmon bo‘lib, ajdodlarining ma’naviy ildizlari, an’analari va urf-odatlarini saqlab qolgan. Ular, garchi evropaliklar bilan ajralib turishga harakat qilgan bo‘lsa-da, ular uchun yangi joyda moslashishda yordam berishga, ularning madaniyati va diniga hurmat bilan qarashga harakat qilishdi. Natijada, sekin-asta, G‘arb va Sharq, xristianlik va islom o‘rtasida ijtimoiy yaqinlashish va madaniyatlar o‘zaro ta’siri jarayoni boshladi. O‘zbekistonda turli tarixiy davrlarda migrantlarga nisbatan bag‘rikeng munosabatlar misollarini ko‘p topish mumkin. Ammo, aynan biz ko‘rib chiqqan Xiva mennonitlari tajribasi, shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari natijasida, mennonitlar faqat o‘zlarini begona etnik, madaniy, diniy va til muhitida tezda moslashtiribgina qolmay, balki hududning iqtisodiyoti va turmush tarzida ijobiy iz qoldirishdi. Masalan, xivalik dehqonlarining maslahatlari bilan ular yangi sharoitda sho‘r tuproqni qanday to‘g‘ri ishlov berishni va sun’iy sug‘orishni o‘rgandilar, bu mintaqa uchun noan’anaviy bo‘lgan sabzavotlarni yetishtirishni boshladilar: baqajon, pomidor, bodring, karam, kartoshka, qulupnay va ziravorlar. Mennonitlarning bu hududga kelishi bilan xivaliklarning turmush tarzida ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi, evropa madaniyati singib kela boshladi. oqmachitlik mennonitlari orasida mahoratli chilangarlar, yog‘och o‘ymakorlar va quruvchilar bor edi, shuning uchun har bir farovon xivalik uy qurayotganda, ularni eshiklar, pol, deraza ramkalari va evropa uslubidagi mebel buyurtma qilish uchun chaqirardi.

Mennonitlar Xorazm tarixida o‘ziga xos va muhim iz qoldirgan. Ularning Yevropa va sharq uslublarini uyg‘unlashtirgan mehnat faoliyati, diniy e’tiqodlariga sodiqligi va jamiyatga qo‘shgan hissalari hozirgi kunda ham qadrlanadi. Xiva va Xorazmda mennonitlarning qoldirgan merosi, ayniqsa, ularning hunarmandchilik, madaniyat va ijtimoiy faolligi, nafaqat mahalliy aholi, balki xorijiy sayyohlar uchun ham qiziqish uyg‘otishda davom etmoqda. 2019-yilda Xivada mennonitlar tarixiga bag‘ishlangan muzeyning ochilishi, bu xalqlar o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lida muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ismailova J. H., Muxamedova M.S. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Munis design group, 2013. – 310 b.;
2. Исмаилова Ж. Х. Ревес А.М. “Ўзбекистон – бағрикенг диёр”. –Т-2008., -47б.
3. Жукова, Л. И. (2002). Меннониты в Хорезме. В Этнический Атлас Узбекистана (сс. 173-175). Узбекистан.
4. Гентшке, В. Л. (2007). Меннониты в Туркестане: Конец XIX -начало XX века (по материалам Центрального государственного архива Республики Узбекистан). Российское государство, общество и этнические немцы:

основные этапы и характер вазимоотношений (XVIII-XXI вв.). Материалы XI международной научной конференции, 168-175.
5. Inoyatova, D. M. (2019a). Немецкая диаспора Узбекистана: Веки истории. Турон-Иқбол. (Ин=Руссиан).
6. Иноятова Д. М. (2019b). Вековые традиции дружбы и толерантности узбекского и немецкого народов. Узбекистон.

MURODOVA Risolat Davron qizi
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi

BESHIKLAR JAHON MADANIYATI NIGOHIDA
(Xorij muzeylari eksponatlari asosida)

Annotatsiya: *Maqolada har bir xalqning an’anaviy merosi hisoblangan beshiklar xususida so‘z yuritilgan. Jumladan Rossiya etnografiya muzeyi, Filadelfiya san’at muzeyi, Adigeya Respublikasi milliy muzeyi, Stavrpol muzey-qo‘riqxonasi, Qozon universitetining etnografiya kolleksiyasi, Qozog‘istonnong Qizilo‘rda viloyati muzeyi va Tuva milliy muzeyida mavjud beshiklar kolleksiyasi o‘rganildi va tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *muzey, beshik, meros, daraxt, yog‘och, rang, naqsh, an’ana.*

Аннотация: *В статье рассматриваются колыбели, которые считаются традиционным наследием каждого народа. В частности, изучены и проанализированы коллекции колыбелей Российского этнографического музея, Филадельфийского художественного музея, Национального музея Республики Адыгея, Ставропольского музея-заповедника, этнографическая коллекция Казанского университета, Кызылординского областного краеведческого музея Северного Казахстана, Тувинского национального музея.*

Ключевые слова*: музей, колыбель, наследие, дерево, древесина, цвет, узор, традиция.*

Abstract: *The article examines cradles, which are considered the traditional heritage of each nation. In particular, the collections of cradles of the Russian Ethnographic Museum, the Philadelphia Art Museum, the National Museum of the Republic of Adygea, the Stavropol Museum-Reserve, the ethnographic collection of the Kazan University, the Kyzylorda Regional Museum of Local History of Northern Kazakhstan, and the Tuvan National Museum were studied and analyzed.*

Keywords: *museum, cradle, heritage, tree, wood, color, pattern, tradition.*

Beshik tarixi ilk odamlarning paydo bo‘lishidanoq paydo bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi har doim ham onalar o‘z farzandlarini qo‘lida ko‘tarib yura olmagan chunki ular uy-ishlari bilan ham shug‘ullanishgan. Aynan shu vaqtda bola orom olishi uchun maxsus beshiklar yaratila boshlangan. Beshikning asl vatani qayerligi noma’lum, chunki har bir xalqning o‘z madaniyatidan kelib chiqgan holda

yaratilgan beshiklari mavjud. Dastlab beshiklar oddiy daraxt novdalaridan keyinchalik esa daraxtlardan (xalqlarning hududiga xos) keng foydalanilgan. Asrlar davomida meros sifatida yetib kelayotgan tug‘ilgan chaqaloqlarning orom olishini ta’minlab beruvchi beshiklar hali hanuz an’analarini davom ettirib foydalanib kelinmoqda. Faqat hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida ularning zamonaviy dizyan asosida yasalishi o‘zgargan xolos. Beshikning tarixiga oid ma’lumotlar XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Koshg‘ariyning turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ijtimoiy ahvoli, geografiyasi kabi qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida beshik suratini va unga tegishli ma’lumotlar keltirilib o‘yilganligiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu asarda beshik qadimdan turli xalqlar xususan o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz, tojik va sharq xalqlari orasida urf bo‘lgan, bola orom oladigan vosita sifatida keltirilgan.

X-XI asarlarda Markaziy Osiyo xalqlarining beshiklari tuzilishi va dizayni jihatidan juda ham o‘xshash bo‘lgan. Ammo asrlar almashishi natijasida beshikning tuzilishi va naqsh sistemalari (naqshlar, ranglar, xom-ashyolar) sintezlashgan.

Beshik endi tug‘ilgan chaqaloqlarning ilk uyi hisoblanadi. Beshiklar xalqlarning kelib chiqishi va madaniyatiga ko‘ra turli ko‘rinish va dizaynda bo‘ladi. An’analarga ko‘ra beshik maydoni turli xil xalqlarning urf-odatlariga ko‘ra tumorlar, piktogrammalar, pichoqlar, qaychi, qo‘ng‘iroqlar, qoshiqlar, piyoz modellari va suyaklar devorlarga biriktirilgan yoki beshikning pastki qismiga joylashtirilgan. Jahon muzeylari ekspozitsiyasida beshiklar kolleksiya o‘zining tuzilishi va naqshi hamda badiiy xususiyati bilan farq qiladi. Har bir xalqning an’anaviy beshiklarini jahon muzeylari misolida ko‘rib chiqamiz.

Filadelfiya san’at muzeyida XVI asrga tegishli yong‘oq daraxtidan yasalgan beshik mavjud. Beshik o‘ymakorlik va zargarlik san’ati qo‘llash natijasida bezatilgan. Beshik bezagi xristian va hindu xalqlarining san’atiga xos. Sababi Koromondel qirg‘og‘idagi hind mebel ishlab chiqaruvchilari Yevropa mijozlari uchun ushbu bezak uslublaridan foydalanganlar.

Italiya beshigi XVI asr

Vena san’at tarixi muzeyida Rim qirolining 1811-yildagi taxt beshig mavjud. Beshik kumush, oltin, marvarid va tilla kabi qimmatbaho metallardan hamda baxmal va shoyi matosidan tarkib topgan. Ushbu beshik 1811-yil Napaleon Mari-Luiziga o‘g‘li Napaleon-Fransua-Sharl-Jozefning tug‘ilish munosabati bila sovg‘a qilingan. Beshik juda ham og‘ir bo‘lib, 280 kg turli xil qimmatbaho metallardan yasalgan. Ma’lumotlarga qaraganda bu beshik razmiy belgi sifatida qirollikdan joy egallagan, kichik shahzodaning kundalik foydalanadigan beshigi yong‘oq daraxtidan yasalgan [7.elek.res].

Napaleon-Fransua-Sharl-Jozefning beshigi

Turli xalqlar orasida beshik dizaynlarining xilma-xilligi hayratlanarlidir. Aynan beshiklarning dizayni va tuzilishi xalqlarning kelib chiqishiga bog‘liq tarzda yasalgan. Rossiya etnografiya muzeyida Xanti, Mansi va ugriyaliklarning (XIX-XX) 40 ga yaqin beshik namunalari va maketlari mavjud. Muzeydadi beshiklar o‘zining xilma-xilligi bilan farq qiladi. Qadimdan Xanti, Mansi va ugriyaliklar bolalar uchun ikki xil beshik turlari kunduzgi va tungi beshikdan foydalanishgan [2:14].

Kunduzgi beshiklar tuzilishi asosan uzunchoq ko‘rinishda va orqa tomoni mavjud bo‘lishi bilan farq qiladi. Beshikning yon va orqa tomonlarida chaqaloqni o‘rash uchun maxsus tasmalari mavjud. Beshikning orqa suyanadigan tomonida uyqu qushi, odam tasviri va yon tomonlarida turli xil naqsh turlari hamda kiyik shoxlari tasviri tushirilgan. Xanti xalqi uchun kiyik shoxlari farovonlik va xavfsizlik ramzidir [1:222-223].

Tungi beshik maxsus uzunchoq shaklda bo‘lib, uning yon tomonlari yopiq faqat ustki tomoni ochiq holatda yasalgan. Beshikning ustki qismida bog‘ichlar bo‘lib u oraqali bolaning qo‘llari bog‘langan.

Tungi va kunduzgi beshik hamda beshikda uyqu qushi tasviri

Adigeya Respublikasi milliy muzeyi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga tegishli beshik mavjud. Beshik 1969-yil Gatlukay qishlog‘i vakili Samet Metovna Yakutl tomonidan muzeyga berilgan. Beshik yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, u o‘ymakorlik va silliqlash usulidan foydalanilgan. Yog‘och Adigey xalqlarining sevimli vositasi hisoblangan. Ular bolalar uchun maxsus barcha qoidalarga muvofiq yasalgan beshiklardan bola parvarishida keng foydalanishgan. Bu millatning beshiklari do‘lana daraxtidan yasalgan. Beshik qulay bo‘lib, uni hammayoqga olib

yurish mumkin bo‘lgan. Ular bolalarni yovuz ko‘zdan va ruhlardan asrash uchun beshikka maxsus tumorlar, xanjarlar va turli shakldagi toshlarni osib qo‘yishgan.

Stavrpol muzey-qo‘riqxonasida an’anaviy Kavkaz xalqiga tegishli bir nechta beshik namunlari joy egallagan. Ular XX asr boshlariga tegishli. Ular muzeyning etnografiya zalidan o‘rin olgan bo‘lib, muzey tomoshabinlari uchun qadimgi an’analarni eslatuvchi ramz sifatida tasavvur uyg‘otadi. Muzey fondida beshikning turli ko‘rinishlarini namoyon etuvchi hujjatli fotolari ham o‘rin olgan.Kavkaz xalqlarining beshiklari tashqi ko‘rinishi jihatidan xilma-xildir. Ular asosan shiftga arqon orqali osiladigan, tashqi tomoni sodda bezatilgan beshiklardan foydalanishgan. Kavkaz aholisi tog‘lar orasida istiqomat qilishganligi bois, ularning beshiklari ko‘tarib yurishga mo‘ljallanib, kichikroq hajmda yasalgan. Beshiklar uchun asosiy yong‘oq, nok, eman, chinor va ba’zida novdalardan keng foydalanishgan va beshikning ustunlari do‘lana daraxtidan qilingan.

XX asr jigarrang va yashil bo‘yoqli beshiklar

Rossiya etnografiya muzeyida O‘rta Osiyo xalqlariga xos bo‘lgan qadimiy yog‘och beshiklar mavjud. O‘rta Osiyo hududida beshiklar avloddan-avlodga muqaddas buyum sifatida foydalanilgan va asrav-avaylab kelingan. Muzey kolleksiyasidagi mavjud beshiklar O‘zbekiston madaniyatiga tegishli bo‘lib, ularning biri bezakdor, biri esa oddiy hech qanday bezaklarsiz. Ranglarning xilma-xilligi va yorqinligi bolada tinch yotishiga sabab bo‘lgan. Chunki beshikdagi bola uyg‘ongach dastlab ko‘zlari ranglarga tushadi va ranglar olamini biroz bo‘lsada tomosha qilishga kirishadi. Bu esa bolani yig‘lab, injiqlik qilishini oldini oladi. [5 elek.res.].

o

1930-1950-yillar O‘zbek beshiklari

Tuva milliy muzeyida 33 ta beshik eksponati mavjud. Muzeyning beshiklar kolleksiya turli xil yo‘llar bilan muzey fondidan o‘rin olgan. Jumladan: muzey

xodimlari tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalar paytida va xususiy shaxslar yoki ko‘rgazmalar sovg‘asi sifatida. Bugungi kunga kelib, muzeydagi 33 ta beshikning 14 tasining ma’lumotlari to‘liq keltirilgan [3: 95-104].

Gruziya milliy muzeyi va Batumi muzeyida Gruziya xalqiga tegishli an’anaviy beshiklar mavjud. Gruziyaliklar beshikni “Akvani” deb atashadi va uning tarixi XX asr oxirlariga to‘gri keladi. Gruzin xalqiga tegishli “Akvani” qadimda tarixchilarning izlanishlariga qaragfnda XIII asrda Mo‘g‘ulistondan kirib kelgan ammo ba’zi tarixchilar bu beshikni an’anviy gruzin xalqiga tegishli deb ancha oldin paydo bo‘lganligini e’tirof etishadi. Gruzin xalqida beshiklar turlicha nomlangan: Avar - "kini"; Darginskiy - "siri", "garda"; Tog‘li yahudiy - "gufore"; Lak - "klanu"; Tabasaran - "kyab, shint"; Nogay - "besik"; Qumiq, qorachay, cherkes - "beshik"; chechen, ingush "aga"; Adige, kabard - "kushe", "gushe”. Muzeydagi beshik o‘ymakorlik va naqsh berish uslubida va oddiy hech qanday bezaklarsiz yasalgan, ustki qismi jigarrang lak bilan qoplangan [4:208].

Qozon universitetining etnografiya kolleksiyasida O‘zbek xalqiga tegishli kichik hajmdagi o‘yinchoq beshik va O‘zbeklarga XIX-XX asrlarga xos beshik tasviri tushirilgan surat saqlanib kelinmoqda. Beshikdan qadimdan ko‘chmanchi va o‘troq aholi kichik bolalarni xotirjam va qulay tashish uchun keng foydalanib kelishgan. Bu kabi bolani ehtiyotkorlik bilan saqlab turgan beshiklar ko‘chmanchi aholi uchun juda ham qulay bo‘gan, sababi beshiklar bolalarni boshqa hududga ko‘chib ketishida ham xavfsiz hisoblangan. Beshikda bola belbog‘lar bilan mahkam bog‘lanadi shu sababli safar vaqtida beshik ag‘darilgan taqdirda ham bola sog‘-omon qolishiga katta yordam beradi.

Markaziy Osiyo.(O‘zbeklar) o‘yinchoq beshik va XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari.

Qozog‘istonnong Qizilo‘rda viloyati muzeyi fondida 6 mingdan ortiq eksponat saqlanib kelinmoqda. Bu noyob eksponatlarining orasida 130 yillik tarixga ega bo‘lgan qozoq xalqiga xos beshik mavjud [7 elek.res.]. Beshik qozoq madaniyatiga xos yog‘ochdan yasalgan. U oilaning bir nechta vakillari foydalangan beshikdir. Beshikning ustki tomonlarida qozoq madaniyatiga xos bo‘lgan naqshlar chizilgan. Ammo bir asrdan ko‘proq vaqtdan beri saqlanib kelinayotgan beshikning naqshlari yillar silsilasida o‘zining dastlabki qiyofasini saqlab qolaolmagan. Faqatgina beshik yasagan ustaning ismi va sanasi yozilgan. Qozoqlar qadimdan

beshikni yangi hayotning boshlanishi deb e'tirof etishgan va o'zlarining "Besik" deb nomlangan maxsus bayramlarini keng nishonlab kelishgan.

Beshiklar asrlar silsilasiga bardosh berib, har bir xalqning urf-odati va madaniyatidan darak beruvchi buyum hisoblanadi. Asrlar, zamonlar va yillar o'zgaraverishi mumkin, ammo beshiklar o'z ko'rinishi va vazifasini qisman saqlagan holda zamonaviy ko'rinishda yaratilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Андреева Е.А. Берестяные колыбели обских угров // Орнаментика предметов народной культуры. -СПб.: Славия -2022
2. Алгадьева Н.Л. Колыбель из бересты «апа» у северных манси // Старт в науке. - 2024. - № 3-2.
3. Дыртык-оол М.О., Дыртык-оол А.О., Коллекция колыбелей Национального музея Еувы как эенокультурное настедие тувинцев// Новые исследования Тувы.-2019
4. Мусаева М. К. Детская люлька в традиционном быту народов Дагестана (культурные конфигурации) // Традиции народов Кавказа в меняющемся мире: преемственность и разрывы в социокультурных практиках. Сборник статей к 100-летию со дня рождения Леонида Ивановича Лаврова. - СПб., 2010.
5. Российский Этнографический Музей https://collection.ethnomuseum.ru/entity/\
6. Лучшая мебель человечества: колыбельки королей, императоров и даже Иисуса Христа. https://dzen.ru/a/YymX8OKUyRDmFzaQ
7. В музее Кызылоридинской области хранится 130-летняя казахская колыбель https://www.zakon.kz/stati/6436145-v-muzee-kyzylordinskoy-oblasti-khranitsya-130letnyaya-kazakhskaya-kolybel.html

TOIRXO'JAEV Amirxo'ja Jaloliddin o'g'li
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi
Ilmiy xodimi

"XITOY TAQLIDIDA ZARB QILINGAN O'RTA OSIYO TANGALARI"

Mazmuni. *O'rta Osiyodagi tangalarda xitoycha an'alar kirib kelishi qay tarzda va qay bosqichda bo'lganligi, o'sha davrdagi davlatlar aro munosabatlar qay ko'rinishda bo'lganligi haqida ma'lumotlar beriladi.o'sha davrdagi xitoycha an'analar aks etgan tangalarni o'rganish, ulardagi belgi va yozuvlarning qanday ma'nolar anglatishi ochib berishdan iborat.Maqolaning asosiysi shundan iboratki, Ilk O'rta asrlarda Xitoy bilan bo'lgan munosabat qay tarzda kechgan va bu tangalardagi xitoycha an'analarning aks etishida qanday ahamiyati borligi, numizmatiklarning bu boradagi fikrlari qay tarzda bo'lganligi va hakoza.*

Аннотация*: В статье дается информация о том, как и на каком этапе китайские традиции проникли в монеты Средней Азии, какие отношения*

существовали между государствами в то время. Целью является изучение монет, отражавших китайские традиции того времени, и выявление значений символов и надписей на них. Основной смысл статьи заключается в том, как развивались отношения с Китаем в раннем средневековье, каково было значение отражения китайских традиций на этих монетах, каковы были мнения нумизматов по этому вопросу и т. д.

Annotation. *The article provides information on how and at what stage Chinese traditions penetrated into the coins of Central Asia, what relations existed between the states at that time. The goal is to study the coins that reflected Chinese traditions of that time and to identify the meanings of the symbols and inscriptions on them. The main point of the article is how relations with China developed in the early Middle Ages, what was the significance of the reflection of Chinese traditions on these coins, what were the opinions of numismatists on this issue, etc.*

Kalit so‘zlar: *Choch,Sog‘diyona,Chag‘oniyon,Safshafon,Bravik, Varaxsha,kursiv yozuvi(Baqtriya),valyuta,emmisya,”Kai yuan tong bao”(Tang davri),Buxoroxudot.*

Tanga pullar har bir mamlakatning o‘z tarixini, iftixorini va qadriyatini o‘zida mujassam etadigan hamda o‘zaro baynalmilalikda qay darajada ro‘l o‘ynaganini ko‘rsatib beruvchi qiymatiga ega bo‘lgan vositadir.Chunonchi Qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar Xitoy – O‘zbekistoni tarixiy tamoyillar asosida uzviy bog‘lab turuvchi sivilizatsiya maskani bo‘lib kelgan ,qolaversa Buyuk ipak yo‘lining vujudga kelishi savdo-tijorat maxsulot ayirboshlanishlar hududni o‘rganishlik,masalan odamlarini madaniyatni,iqlimini kabi va hakozolar o‘zaro an’analar almashuniviga olib keldi bunda – Markaziy Osiyo o‘ziga xos hudud bo‘lib, u yerda ko‘p asrlar davomida turli madaniyatlar, etnik guruhlar va dinlar o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjud. O‘rta Osiyo madaniyati va san’ati Yunoniston, Sosoniylar davridagi Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya kabi qadimiy davlatlar ta’sirida shakllandi va boyidi. Bu davlatlarning ta’siri nafaqat san'at asarlari, me'morchilik va diniy dunyoqarashga, balki bu qadimiy davlatlar ta’sirining izlarini kuzatish mumkin bo‘lgan numizmatikaga ham ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mustaqil noyob mavzular nafaqat san’atda, balki Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan numizmatikada ham namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Buni miloddan avvalgi III-IV-asrlariga oid Choch tangalari, milodiy VII-VIII-asrlarga oid Buxoro mis tangalari, shuningdek, So‘g‘diyona turkiy hukmdorlarining ko‘plab emissiyalari misolida ko‘rish mumkin. Chag‘oniyonda muomalada bo‘lgan sosoniylar dirhamlariga taqlid qilingan tangalar ham katta qiziqish uyg‘otadi. Bu yerda mahalliy hukmdorlarning miniatyura portret shtamplari, hukmdorlarning ism-shariflari va unvonlarini aks ettiruvchi Baqtriya kursiv yozuvidagi rivoyatlarning kontrastamplari juda qiziqarli va g‘ayrioddiy ifodasidir.

Qadimgi Xorazm tangalari juda qiziq. Savshafon, Bravik va boshqalar kabi Xorazm hukmdorlarining tasvirlari o‘z ifodasi va o‘ziga xosligi bilan hayratlanarli. So‘g‘diyona tangalari Miloddan avvalgi I-asrdan, eramizning I-asrlari juda qiziq. Ularning ikkalasi ham Salavkiylar tangalaridan olingan taqlid emissiyasi, hamda mustaqil turlar, masalan, Girkod kumush tangalaridir. O‘rtasi to‘rtburchak teshikli xitoy tangalari asosida chiqarilgan tangalar juda xilma-xildir. Bu tangalarda

xitoycha belgilar o‘rniga so‘g‘d hukmdorlari va tamg‘alarining nomlari va unvonlarini bildiruvchi sog‘diy yozuvlari yozilgan.

O‘rta Osiyoning turli mintaqalaridagi ilk o‘rta asr tangalari arxeologik tadqiqotlarning puxtaligiga ko‘ra hozirda har xil detallarda o‘rganilmoqda. Bu yerda ko‘rib chiqilayotgan numizmatik materiallar, qoida tariqasida, tarixiy-geografik mintaqalarga to‘g‘ri keladigan numizmatik “viloyatlar”ga tasniflanadi. Asosiy urg‘u adabiyotda kam yoritilgan yoki munozarali bo‘lib qolgan muammolarga qaratiladi. Aniqroq tasdiqlangan numizmatik faktlar faqat muxbir nashrlariga havolalar bilan qisqacha esga olinadi. Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda tangalar va tanga muomalasi to‘g‘risida to‘liq nashr yo‘q, hatto uning har bir mintaqasi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar pul xo‘jaligi sharoitlari va undagi jarayonlarni aks ettiradigan darajada ko‘p va ifodali bo‘lsada , O‘rta Osiyoda tanga muomalasining ilk o‘rta asrlar davri V-VI asrlarning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Milodiy va uning oxiri - mahalliy tangalarning zarb etilishi va muomalasi to‘xtatilgan paytda. Ikkinchisi VIII asr o‘rtalarida sodir bo‘lgan. eramizdan (va biroz keyinroq Xorazm, Ustrushon va, shekilli, Chochda), O‘rta Osiyo Yaqin Sharqning moliya-iqtisodiy tizimiga qo‘shilgan paytda. VIII asrning birinchi choragida O‘rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi, asosan siyosiy va ijtimoiy hayotga o‘zgarishlar olib keldi va Ummaviylar xalifaligi tangalarining ommaviy kirib kelishiga yordam berdi.

VIII asrning 20-60 yillari oralig‘idagi vaqt mahalliy zarbxonalar va arab dirhamlari va fuluslarning Markaziy Osiyo bozorida birgalikda yashash davri hisoblanadi. Bu davr oxiriga kelib mahalliy tangalarni zarb qilish butunlay to‘xtadi (qora dirhamam - gitriflar) va ular muomaladan yo‘qoldi. O‘tgan davrda O‘rta Osiyoning aksariyat qismlarida tangalar asosan mahalliy ishlab chiqarilgan mis va kumushdan iborat bo‘lib, ularning qiymati asossiz aniqlangan. Metall tarkibidan, esa muomaladagi "valyuta kurslari" belgilangan. Ushbu turdagi tangalar ,zarb qilishdan farq qilmas edi va bu atamaning siyosiy-iqtisodiy ma’nosida pul emas, ular aynan shu "valyuta kursi" hisoblangan. Hukmdorlarning vakolatidan tashqari, bu tangalarning qiymati qanday kafolatlanganligini esa bilmaymiz.

Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda pul muomalasi butunlay boshqacha tamoyil asosida qurilgan: barcha (yoki deyarli barcha) hududlarda kumush tangalar pul hisoblangan (Xorazmni hisobga olmaganda, bu rolni sosoniy draxmalari yoki ularning taqlidlari o‘ynagan), mahalliy mis tangalar o‘z qiymatiga ega bo‘lmagan holda, ma’lum bir kurs bo‘yicha kumush tangalar bilan bog‘liq bo‘lgan belgi tanga sifatida ishlatilgan. Bunday mis tangalarni zarb qilish huquqi nafaqat yirik viloyatlar (Buxoro So‘g‘di, Samarqand So‘g‘di, Choch va boshqalar)da emas, balki ular tarkibidagi yirik siyosiy-ma’muriy birliklar – Samarqand So‘g‘dida Pancha-Pendjikent, Pajkend viloyatlarida ham bo‘lgan.

Tanga topilmalari (kulolchilik, metall buyumlar va boshqalar bilan birgalikda) O‘rta Osiyodagi ilk o‘rta asrlar arxeologik qatlamlari, binolari, aholi punktlari va hokazolarni arxeologik qazishmalarida tanishish maqsadida keng qo‘llaniladi. Biroq, ko‘plab tanga guruhlari juda keng va yomon belgilangan yosh chegaralariga ega. Bunday seriyalarni yaxshiroq cheklash uchun qo‘shimcha arxeologik tadqiqotlar zarur. Masalan, Penjikentning ilk o‘rta asr shaharlari

xarobalarining batafsil stratigrafik profili bir qancha tangalar seriyasining sanasini sezilarli darajada yaxshiladi[1]. Afsuski, V-VIII asrlar saqlanib qolgan boshqa arxeologik joylar yo‘q.

Xitoycha an’analarda aks etgan O‘rta Osiyo tangalari Xitoy turlarining markazida teshikli quyma mis tangalar VII asrning ikkinchi choragida ham Buxoro va Samarqand markazlarining bir qismi tomonidan chiqarilgan. Ular shuningdek, Samarqand, So‘g‘d va Shimoliy Toxaristonliklar “kaj juan tun bao” (bir tomonda prototip ierogliflari ko‘rsatilgan) afsonasi bilan ilk tanga tiplariga ergashganlar. Ularning chiqarilgan joyi teskari tomonida “Buxoro” belgilari bilan ko‘rsatilgan – “Buxorxudot” draxmasi va ba’zi mislarning teskari tomonidagidek ammo, Xitoy tipidagi Buxoro mis tangalarida so‘g‘d afsonalari yo‘q[2] . Ularning Buxoro So‘g‘di chiqindilariga tegishli ekanligini Varaxshadagi topilmalar tasdiqlaydi.[3], Pajkend va viloyatning boshqa joylarida.

Xitoy tipidagi tangalarning yana bir guruhi Buxoro So‘g‘d kelib chiqishiga mansub bo‘lib, faqat Penjikentdagi topilmalardan ma’lum bo‘lib, uning joylashuvi haligacha aniqlanmagan[4].

Xitoy tipidagi tangalar (markazida kvadrat teshikli) Buxoro So‘g‘dining boshqa markazlarida, xususan, Pajkendda ham ishlab chiqarilgan.[5] Bunday tangalarning Buxoro va viloyat chiqarilishi taxminan VII asrning uchinchi choragidan bir zamonlar bo‘lganga o‘xshaydi. va ular Shimoliy Toxariston yoki Samarqand So‘g‘ddagi kabi uzoq vaqt davomida zarb qilingan emas.

Old tomonida tuya tasvirlangan Buxoro So‘g‘di tangalari, teskari tomonida olov qurbongohi yoki sug‘d afsonasi so‘nggi chorak – VIII asr boshlariga tegishli. Urinishlar ularni faqat qurbongohning ko‘rinishi asosida, ularning numizmatik va arxeologik kontekstidan tashqarida sanab, asossiz ravishda erta sanalarga olib keldi. Bu turkum va uning sanasi alohida muhokama qilinmagan. O.I.Smirnovaning "Sug‘d tangalarining yig‘indisi katalogi". Ular katalog qismiga kiritilmagan.[6] Orqa tomonida sug‘d afsonasi yozilgan tangalar[7] kvadrat teshikli va afsonaviy tangalar Farnbaglik Smirnova[8] ma’lumotlariga ko‘ra, G‘arbiy So‘g‘dning ilk tangalari guruhiga mansub bo‘lib, ular Buxoro tangalaridan oldin joylashgan. Old tomonida “kay yuan tun bao” afsonasi va orqa tomonida Buxoro ramzi tasvirlangan xitoycha yozuv. Shishkin va Smirnovanikining aniqroq sanasi Musakaeva tomonidan berilgan[9] IV-V asrlar., lekin yana batafsil dalillar yo‘q. Tuyali tangalar bo‘yicha arxeologik-stratigrafik ma’lumotlardan ancha kechroq – VII asrning oxirgi choragiga tegishli. VIII asr boshlariga to‘g‘ri keladi, ammo bu seriya uchun xronologik ramka hali ham noaniq.

[1]Belenickij, Marshak, Raspopova, 1980; 1984 yil, 225-262-betlar; 1986, 305-313-betlar
[2] O.Smirnova, So’g‘d tangalarining katalogi. Maskva. 1981. 316-318-betlar
[3] Urmanova, 1956. b. 132 kv.
[4]Smirnova, So’g‘d tangalarining katalogi. Maskva 1981. 318-323-betlar
[5] 119, *18, 19* –jadval]
[6] O.Smirnova, So’g‘d tangalarining katalogi. Maskva. 1981. 28-30-betlar
[7] O.Smirnova, So’g‘d tangalarining katalogi. Maskva.1981. 312-betlar. -313
[8] O.Smirnova, So’g‘d tangalarining katalogi. Maskva. 1981. 314-315-betlar
[9] A.Musakaeva, Tarix muzeyining antik va ilk o'rta asr tangalari. Aibek.// O'zbekiston numizmatikasi. Toshkent, 1990 yil.

Buxoro So‘g‘dining turli viloyat markazlari tomonidan chiqarilgan mahalliy chiqindilar butun Buxoro So‘g‘d zarbxonalariga qaraganda ancha yomonroq ma’lum. Pajkenddagi xitoy tipidagi tangalar allaqachon tilga olingan edi. 1982 yildan beri davom ettirilgan Pajkenddagi muntazam qazishmalar natijasida boshqa mahalliy seriyalar ham paydo bo‘ldi, lekin ular odatda yomon saqlanish holatida bo‘lgan va nashr etilmagan. Ayniqsa, old tomonida inson qiyofasi sxematik tasviri (Smirnovaga ko‘ra - "runikaga o‘xshash belgi") va teskari tomonida arabcha afsonaviy tasvirlangan kichik mislar seriyasini alohida ta’kidlash kerak , uni Pajkendga tayinlagan. Ularning chiqarilishi VIII asrning 20-yillaridan keyin boshlangan. Arab rivoyatidagi turkumlarning birida teskari tomonda bu mislarning kumush dirhamlarga aloqasi ko‘rsatilgan - "dirhamda 120"[10] . Shunga o‘xshash boshqa rivoyatlar (“60 dirhamda”) VIII asrga oid boshqa O‘rta Osiyo mislarida ham tasdiqlangan.

O‘rta Osiyoning islomgacha bo‘lgan tangalarida Xitoy puliga xos belgilar mavjud tizimi kuzatiladi. Darhaqiqat, Xitoy ta’sirining namoyon bo‘lishi, birinchi navbatda, tangalarda Buxoro va Samarqand, keyinroq Choch (Toshkent), Farg‘ona tangalarida, Shimoliy Toxariston (Janubiy O‘zbekiston – Janubiy Tojikiston), O‘tror va Taraz (Janubiy Qozog‘iston), Janubi-Sharqiy Yettisuvning ko‘plab kichik voha davlatlari (Markaziy). Qirg‘iziston), aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Xitoy ta’sirining paydo bo‘lishi So‘g‘d, Samarqand, Buxoro va boshqalar kichik podshohliklari (voha davlatlari) tangalari bo‘lishi mumkin. ko‘proq iqtisodiy foyda bilan izohlanadi, ammo, agar biz butun ko‘lamini hisobga olsak Mintaqada nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ta’sir ham borligi aniq.

Islomgacha bo‘lgan O‘rta Osiyo tangalarining ma’lum bir qismida, xususan eramizning 7-8-asrlariga oid bo‘lganlar, o‘ziga xos xususiyatlar Xitoy pul tizimlari kuzatilmoqda. Darhaqiqat, ning namoyon bo‘lishi Xitoyning ta’siri dastlab So‘g‘d (Buxoro va Samarqand) tangalariga, so‘ngra keyinchalik Choch (Toshkent), Farg‘ona, Shimoliy Toxariston tangalarida (Janubiy O‘zbekiston – Janubiy Tojikiston), O‘tror va Taroz (Janubiy Qozog‘iston), Janubi-Sharqiy Yettisuvning ko‘plab kichik voha davlatlari (Markaziy Qirg‘iziston), aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Xo‘sh, qanday omillar asosda Ilk o‘rta asrlarda tanga zarb qilishda bunday tarixiy va O‘rta Osiyoning So‘g‘d kabi madaniy hududlari (Samarqand, Buxoro, Kesh, qariyb ming yillik an’anaga ega bo‘lgan Naxshab), Choch va boshqalar. Xitoy ta’siri kuzatila boshlandi? O‘rta Osiyoning yuqorida tilga olingan hududlari borligiga qaramasdan ko‘chmanchi va o‘troq kabi turli xil turmush tarziga mansub bo‘lgan turli etnik-madaniy muhitlar ostida bo‘lganligi ma’lum ko‘p tarixiy bosqichlarda bir siyosiy kuchning hukmronligi. Masalan, oxirgisida miloddan avvalgi asrlar va birinchi ming yillikning birinchi choragida ular ostida edi Hunlar (miloddan avvalgi 214-yil – 3-asr) va Kushon (2-asr) imperiyalari hukmronligi. Miloddan avvalgi 3-asr. milodiy), shu ming yillikning ikkinchi yarmida - shtatlari ostida Ruan-ruan va eftalitlar (5—6-asrlar), 6—8-asrlarda asrlar – G‘arbiy Turk va Turg‘ash xoqonliklari hukmronligi ostida [11] shu bilan birga, yuqorida tilga olingan

[10] Smirnova, So’g‘d tangalarining katalogi. Maskva. 1981. 418-419-betlar
[11] Bregel 2003 yil: 9 – 19; Ejenxonuli 2013: 126

koʻchmanchi turmush tarziga ega boʻlgan hududlarda oʻnlab qabilalar va har bir qabila. qabila ittifoqi shaklida qabila boshliqlari, oʻtroq hududlar boshqargan yarim mustaqil sulolalar tomonidan. Xususan, yigirmadan ortiq kichik va katta hududlarda joylashgan xoldinglar (boshqacha aytganda, voha shtatlarida yoki kichik qirolliklarda). Oʻrta Osiyoda yettisu kabi oʻtroq turmush tarzi hukmron boʻlgan, Sharqiy Turkiston, Transoxiana, Xuroson va tarixiy Shimoliy Hindiston, garchi ular oʻzlarining hukmron sulolalariga ega boʻlsalar-da, lekin hokimiyat ostida edilar yuqorida tilga olingan siyosiy super kuchlar. Haqiqatan ham, keyingi kichik ning yuqorida tilga olingan oʻtroq mintaqalarida joylashgan davlatlar (voha qirolliklari). Markaziy Osiyoda nazorat bor edi: Oʻrta Osiyoning islomgacha boʻlgan tangalarida Xitoy puliga xos belgilar mavjud tizimi kuzatiladi. Darhaqiqat, Xitoy ta'sirining namoyon boʻlishi, birinchi navbatda, tangalarda Buxoro va Samarqand, keyinroq Choch (Toshkent), Fargʻona tangalarida, Shimoliy Toxariston (Janubiy Oʻzbekiston – Janubiy Tojikiston), Oʻtror va Taraz (Janubiy Qozogʻiston), Janubi-Sharqiy Yettisuvning koʻplab kichik voha davlatlari (Markaziy). Qirgʻiziston), aynan shu davrga toʻgʻri keladi. Xitoy ta'sirining paydo boʻlishi Soʻgʻd, Samarqand, Buxoro va boshqalar kichik podshohliklari (voha davlatlari) tangalari boʻlishi mumkin. koʻproq iqtisodiy foyda bilan izohlanadi, ammo, agar biz butun koʻlamini hisobga olsak Mintaqada nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ta'sir ham borligi aniq.

Islomgacha boʻlgan Oʻrta Osiyo tangalarining ma'lum bir qismida, xususan eramizning VII-VIII-asrlariga oid boʻlganlar, oʻziga xos xususiyatlar Xitoy pul tizimlari kuzatilmoqda. Darhaqiqat, ning namoyon boʻlishi Xitoyning ta'siri dastlab Soʻgʻd (Buxoro va Samarqand) tangalariga, soʻngra keyinchalik Choch (Toshkent), Fargʻona, Shimoliy Toxariston tangalarida (Janubiy Oʻzbekiston – Janubiy Tojikiston), Oʻtror va Taroz (Janubiy Qozogʻiston), Janubi-Sharqiy Yettisuvning koʻplab kichik voha davlatlari (Markaziy Qirgʻiziston), aynan shu davrga toʻgʻri keladi. Xoʻsh, qanday omillar asosda Ilk oʻrta asrlarda tanga zarb qilishda bunday tarixiy va Oʻrta Osiyoning Soʻgʻd kabi madaniy hududlari (Samarqand, Buxoro, Kesh, qariyb ming yillik an'anaga ega boʻlgan Naxshab), Choch va boshqalar. Xitoy ta'siri kuzatila boshlandi?

Amudaryo – Sirdaryoning qoʻshilishi va unga tutash hududlari (Transoksiana): 1) Soʻgʻd (Samarqand, Panch-Maymurg, Kushoniy, Ishtixon, Kabudan, Kesh, Naxshab); 2) Buxoro; 3) Ustrushana; 4) choch; 5) Oʻtror; 6) Isfijob (Sayram); 7) Fargʻona; 8) Xorazm; 9) Toxariston (Chagʻoniy, Termiz, Balx, Gʻuzgon, Qubodiyon, Xuttal, Vaxsh, Badaxshon va boshqalar).

2. Xuroson: 1) Marv; 2) Dihiston; 3) Gurgan; 4) Hirot va boshqalar.

3. Tarixiy Shimoliy Hindiston: 1) Gandxara; 2) Kobuliston; 3) Zabulistan; 4) Bamian va boshqalar.

4. Yettisuv tumani. Ushbu tarixiy mintaqaning Taraz kabi shaharlari Suyab va Nevaket Gʻarbning poytaxti yoki asosiy shaharlari boʻlib xizmat qilgan Turk (568-740) va Turgʻash (699-756) qoqonliklari. Shu bilan birga, in Talas va Chu daryolari havzasida bir qancha mayda podsholiklar mavjud edi. Ehtimol, bular Qulan, Ashpara, Nuzket va boshqalar kabi shahar-davlatlar edi. [12].

[12] Zuev 2002: 269 – 274

5. Sharqiy Turkiston (Shinjon): 1) Qumul (Ha-mi); 2) Turfon (Kaoch'ang); 3) qorashar (Yan-ch'i); 4) Kucha (Ch'iu-tz'u); 5) Aksu (Gu-mo); 6) Qashg'ar (Shu-le); 7) Xotan (Yu-tien). Islomgacha bo'lgan davrda zarb qilingan tangalar o'z massasiga ko'ra ko'pchilikka tegishli bu voha davlatlari [13]. Qayd etilgan tarixiy hududlar orasida yuqorida, Xitoy ta'sirini faqat joylashgan davlatlar tangalarida ko'rish mumkin Mavarinoniy, Yettisuv viloyati va Sharqiy Turkiston va tangalar uchun Xuroson va tarixiy Shimoliy Hindiston, buning aksi xos . Shu bilan birga, Xitoy puliga xos bo'lgan o'ziga xosliklar bir qator Mavarinoniy tangalar uchun biznes xarakterli emas edi Xorazm, Ustrushona, Naxshab va Toxariston kabi davlatlar [14]. Shu bilan birga, ma'lumki, bu davrda aksariyat ko'chmanchi hududlarda Markaziy Osiyoda metall pullardan to'lov vositasi sifatida foydalanilmagan. Buxoro. Bu davrda Buxoro va boshqa kichik podshohliklar kabi mintaqa mahalliy urf-odatlar bilan ajralib turadi (nomi va nomi hukmdor, saltanat unvoni, so'g'dlar tomonidan yetkazilgan iboralar xat, hukmdorning tasviri yoki hukmdorning juft portreti, sher yoki tuya, tamg'a, olov qurbongohi va hokazo.) Bu tangalarda hukmdorning surati (yuz va ko'z shakli, soch turmagi, kiyim) va belgilar (tamg'a, qurbongoh ularning o'rnini sug'd va qadimgi turklarga xos bo'lgan olov, totem hayvonlari egalladi [15]

Shu bilan birga, Buxoro vohasining quyidagi tangalari ko'rsatilgan Xitoy tangalarining ta'siri: 1) markazida kvadrat teshikli xitoy namunasi. Shimolda oldi xitoycha belgilarning o'rni, teskari yuzasi silliq (1-rasmga qarang). I, 1); 2) markazida kvadrat teshikli xitoy namunasi. Old tomondan ierogliflar o'rnini egalladi va teskarisida - mahalliy tamg'a (qarang I, 2-rasm); 3) markazida kvadrat teshikli xitoy namunasi. Old tomondan So'g'd yozuvi va mahalliy tamg'a, teskari yuza o'rnini egallagan silliq (I, 3-rasmga qarang); 4) markazida kvadrat teshikli xitoy namunasi. Old tomondan So'g'd yozuvi va mahalliy tamg'a o'rnini egallagan, orqa tomonida - xochning tasvirlari (I, 4-rasmga qarang) va boshqa (I-rasmga qarang, 5-6); Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Xitoy ta'sirining paydo bo'lishi O'rta Osiyo tangalari Buxoro bilan bog'liq bo'lib, bu voqea sanaga to'g'ri keladi VII asrning ikkinchi choragiga qaytadi. Biz bilganimizdek, Xitoyda Tang sulolasining boshlanishi, ya'ni 621 yilda yangi turdagi davlat bronza tangasi. "Kaiyuan tongbao" ("Tang davri)" afsonasi bilan esga olingan. Kaiyuan") . ning yangi tangalari Tang sulolasi tez orada qayta taqsimlangandan keyin ham keng tarqaldi[16] Xitoy katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli va ular paydo bo'la boshladi Xitoy bilan yaqin aloqada bo'lgan davlatlar. Bu holat bilan tasdiqlanadi bu turdagi tangalar Xitoydan tashqarida. Biz buni Markaziy Osiyoda ko'rishimiz mumkin. ayniqsa So'g'dda "Kaiyuan Tongbao" tangalari qisqa muddatga zarb qilingan hech qanday o'zgarishsiz davr . Faqat bu "soxta Tang tangalari" ichida Ularning texnikasi biroz labga o'xshashligi bilan haqiqiy Tang tangalaridan farq qiladi dizayn. Biroz vaqt o'tgach, Xitoy namunasidagi Buxoro tangalari paydo bo'ldi old tomonida "Kaiyuan

[13] Smirnova 1981; Rtveladze 2002 yil; Zeymal' 1994: 245 – 267; Baratova 1999: 219 – 292
[14] Rtveladze 2002
[15] Baratova 1999: 219 – 239; Babayar 2007: 54 – 58,

[16] Smirnova 1981: 35; Naymark 1996: 11-13

Tongbao" afsonasi zarb qilina boshladi va davom etdi ularning teskari, silliq yuzaga ega Xitoy tangalar farqli o‘laroq, oldi Buxoro tamg‘asining o‘rni.Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki O‘rta osiyodagi tangalarda Xitoy taqlidlarinig paydo bo‘ishi bu ikki tomon uchun ham qulay bo‘lgan chunki o‘zaro savdo ayirboshlashda qiyinchiliklarga yo‘l qo‘yilmagan hamda o‘zining asl qiymatini o‘z davrida saqlab kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Boboyorov G‘. G‘arbiy turk xoqonligining davlat tuzumi.: Tarix fanlari doktori ilmiy unvonini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati.-Toshkent,2012

2. Otaxo‘jayev.A. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo svilizatsiyasida turk-so‘g‘d munosabatlari. –Toshkent: ART-FLEX, 2010

3. Xo‘jayev.A. So‘g‘diylarning Xitoy manbalarida Sug‘dlarga oid ayrim ma’lumotlar // Moziydan sado. -2002. –N_2(14).

4. Xo‘jayev.A. Xitoy manbalarida sug‘darga oid ayrim ma’lumotlar // O‘zbekiston tarixi, 2004, N_1. –B.526

5. Бабаяр Г., Кубатин А. К вопросу монетного чекана Западно- Тюрског Каганата (на основе нумезматических материалов Ташкентского оазиса)// Тюкология, N 6, Туркестан-Казахстан,2005. –С.97-105

6. Гойибов Б. Нахшаб нумизматикаси // Moziydan sado. Echo of history. Эхо истории.- Тошкент,2016.- N 4(72).- Б. 39-41.

7. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – Москва, 1981. – 548 с.

8. Göbl R. Dokumente zur Geschihte der İranischen Hunnen in Baktrien und İndien. Band I. – Wiesbaden, 1967. – 114 p.

9. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии – Ўрта Осиёнинг қадимий тангалари. – Ташкент, 1987. – 184 с.

10. Ртвеладзе Э. История и нумизматика Чача (вторая половина III - середина VIII в. н.э.). –
Ташкент, 2006. – 132 с

11. Кызласов И.Л. Монеты с тюркоязычными енисейскими надписями // Нумизматика и эпинрафика, т. 14. – М., 1984. – С. 84-99.

MUMINOV Bekzod Baxtiyor o‘g‘li,
Madaniy meros agentligi bosh mutaxassisi,
bekzodmuminov@gmail.com

QARSHI VA SHAHRISABZ SHAHARLARINING XV-XVI ASRLARDAGI AYRIM MANBALARDA YORITILISHI.

Annotatsiya: *maqolada Qashqadaryodagi qadimiy shaharlar va yodgorliklarning o‘z davridagi tarixiy asarlarda yoritilishi, mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki hamda o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Butun tariximiz uchun ahamiyati beqiyos bo‘lgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si, Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarlarida hudud tarixiga oid muhim ma’lumotlar tilga olingan.*

Kalit so‘zlar: *Kesh, Qarshi, Oqsaroy, yozma manbalar, Zafarnoma, Temur, Nasaf, Shahrisabz.*

Аннотация: *В статье рассматривается освещение древних городов и памятников Кашкадарьи в исторических трудах того времени, их участие и роль в политических, экономических и культурных процессах в стране. Важные сведения об истории региона содержатся в трудах Шарафиддина Али Яздия «Зафарнаме», Низамиддина Шамия «Зафарнаме», знаменитой «Бобурнаме» Захириддина Мухаммада Бабура и «Абдулланаме» Хафиза Таниша Бухария, которые имеют несравненное значение для всей нашей истории.*

Ключевые слова: *Кеш, Карши, Оксарой, письменные источники, Зафарнаме, Темур, Насаф, Шахрисабз.*

Abstract: *the article discusses the coverage of ancient cities and monuments in Kashkadarya in historical works of their time, their participation and place in political, economic and cultural processes in the country. Important information about the history of the region is mentioned in the works of Sharafiddin Ali Yazdiy's "Zafarnama", Nizamiddin Shamiy's "Zafarnama", the famous "Boburnama" by Zahiriddin Muhammad Babur, and Hafiz Tanish Bukhariy's "Abdullanama", which are of incomparable importance for our entire history.*

Keywords: *Kesh, Karshi, Oqsaroy, written sources, Zafarnama, Temur, Nasaf, Shahrisabz.*

Mamlakatimizning barcha hududlari singari Qashqadaryo hududi ham tariximizning yodgorliklari bo‘lmish madaniy meros obyektlariga boy hisoblanadi. Bu yerdagi madaniy meros obyektlarini saqlab qolish, asrash va muhofaza qilish uchun tarixiy asarlarning roli katta hisoblanadi. Har bir madaniy meros obyektini u hoh me’morchilik, hoh arxeologiya merosi bo‘lsin o‘z tarixiga ega. Shunday ekan ular tarixini o‘rganishda yozma manbalarning ahamiyatiga yuksak baho berish lozim bo‘ladi.

Qashqadaryo viloyatida hozirgi davrgacha saqlanib qolgan madaniy meros obyektlarining ko‘pchilik qismi Temur va temuriylar hamda undan keyingi davrlarda bunyod etilgan. Temur davrida Markaziy Osiyoda qudratli davlat barpo etilishi bilan birga ko‘plab bino-inshootlar, bog‘lar yaratgan. Temur obodonchilik ishlariga katta e’tibor berib, ko‘priklar, irrigatsiya inshootlari, karvonsaroylar, rabotlar qurdirdi, kanallar o‘tkazdi, ko‘plab maktab, madrasa va xonaqohlar, hammomlar barpo qildi [1, 20].

Sharafiddin Ali Yazdiy (XV asr) o‘zining “Zafarnoma” asarida Amir Temurning harbiy yurishlari va siyosiy faoliyati haqida batafsil yozgan. Ushbu asarda Qarshi va Shahrisabz ham tilga olingan.

Yazdiy Qarshini muhim harbiy va ma’muriy markaz sifatida tasvirlaydi. Unga ko‘ra: “...Va Qarshi shuning uchun derlarkim, Ko‘ppakxon Nasafdin ikki yayuch yo‘l yiroq bir qasri yasab erdi va mo‘g‘ul tilida “qasr”ni “qarshi” derlar” [2, 41].

Qarshi Amir Temurning strategik istehkomlaridan biri bo‘lgan. Shahar mustahkam devorlar va qal’a bilan o‘ralgan, suv ta’minoti yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Qarshi Temur va uning lashkarlari uchun asosiy qo‘shin yig‘ish joylaridan biri bo‘lgan. Shahar atrofida sug‘oriladigan ekinzorlar va bog‘lar ko‘pligi sababli iqtisodiy ahamiyati katta edi.

Sharafiddin Ali Yazdiy Shahrisabzni Amir Temurning ajdodiy yurti sifatida tasvirlaydi va bu yerda qurilgan yirik me’moriy inshootlarga e’tibor qaratadi: Oqsaroy – Temurning ulug‘vor saroyi sifatida tasvirlanib, uning devorlariga Qur’on oyatlari va Temurning g‘alabalari yozilgani aytiladi. Shahrisabz hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlangan shahar bo‘lgan. Bu shahar Temurning bolaligi o‘tgan joy bo‘lib, unga doimo alohida e’tibor berilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy Shahrisabz shahrini shunday ta’riflagan: “.... Keshni “Qubbatul ilm val adab” laqabi bo‘lub turur. Bahor vaqti ul shaharning tomu toshi ko‘m-ko‘k bo‘lur va ko‘k ko‘rung‘on jihatidin aiga Shahrisabz ot bo‘lub turur. Sichen (sichqon) yilda, torix yetti yuz seksan birda (1380, mart) ul shaharg‘a sal a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andots shahri bo‘ldikim, gardun Muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir yerda mundoq shahar va ko‘shk ko‘rmagan turur” [2, 88].

Sharafiddin Ali Yazdiy Qarshi va Shahrisabzni Amir Temurning harbiy-siyosiy va shaxsiy hayotida katta rol o‘ynagan shaharlar sifatida tasvirlaydi. Qarshi harbiy va iqtisodiy markaz sifatida, Shahrisabz esa Temurning vatani va madaniy markazi sifatida ta’kidlangan.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida ham Shahrisabz va Kesh shaharlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. U o‘z asarida shunday yozadi: “Turklar Kesh deb atagan Shahrisabz va unga qo‘shiluvchi tobe joylar o‘sha vaqtda Amir Sohibqiron, (ya’ni) jahon mamlakatlarini fath etuvchi Amir Temur Ko‘ragon va Hoji Barlos tasarrufida edi” [3, 28].

Oqsaroy qurilishining boshlanishi va Shahrisabz shahrining mudofaa devorlarining qayta qurilishi haqida shunday yozadi: “Bahor fasli kelgach (781/1380), Kesh shahri qurilishiga oliy farmon berdi va u yerda hisor bunyod ettirdi. Shu o‘rtada saroyni ham bino qildilar, uning peshtoq va ravoflarini Ayyuq (yulduziga) yetkazdilar, chunonchi, biron kimsa jahonda unga teng keladigan imoratni ko‘rmagan va eshitmagan edi” [3, 111].

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining mashhur “Boburnoma” asarida Qarshi va Shahrisabz haqida ham ma’lumot bergan. U ushbu shaharlarni o‘z davridagi harbiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhim markazlar sifatida tasvirlaydi.

Bobur Qarshini katta va mustahkam shahar deb ta’riflaydi. Asarda quyidagi jihatlar ta’kidlangan: Qarshi qal’asi mustahkamligi bilan ajralib turgan va muhim harbiy istehkom bo‘lgan. Shahar atrofi yaxshi sug‘oriladigan ekinzor va bog‘lar bilan o‘ralgan. Bobur o‘z faoliyati davomida Qarshi bilan bog‘liq harbiy yurishlar va janglar haqida yozgan. U shahar aholisi va siyosiy ahamiyatini ta’kidlab, bu hududda barqarorlik muhim bo‘lganini yozadi.

Bobur Shahrisabzni Amir Temurning vatani sifatida tilga oladi va uning tarixiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra: Shahrisabz yashil va obod shahar, ko‘plab bog‘lari va suv manbalari bo‘lgan. Oqsaroy saroyi hanuzgacha ulkanligi va go‘zalligi bilan ajralib turgan. Bobur o‘z davrida Shahrisabzning harbiy va siyosiy ahamiyati unchalik kuchli bo‘lmasa ham, uning Temuriylar tarixidagi rolini yuqori baholaydi. Bobur Qarshi va Shahrisabzni o‘z davridagi muhim shaharlar sifatida tasvirlab, ularning harbiy va iqtisodiy ahamiyatini ta’kidlagan. Ayniqsa, Shahrisabzni Amir Temur vatani sifatida hurmat qilgan va Qarshini strategik nuqta sifatida baholagan.

Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari - Shayboniylar davrida yozilgan tarixiy asar bo‘lib, unda XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon II (1533–1598) ning harbiy yurishlari, siyosiy faoliyati va boshqaruvi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ushbu asarda Qarshi va Shahrisabz ham tilga olinadi.

Asarda Qarshi va Shahrisabz shaharlarining XVI asrdagi mavqei haqida shunday bayon qilingan: Shahrisabz nihoyat katga bir joy bo‘lishi bilan (bir qatorda) mustahkamligi bilan (ham) mashhur (bo‘lib), devor va istehkomlarining balandligi tarixlarda mashhurdir. Uni osonlik bilan olish ham hech bir podshohga muyassar bo‘lmagan. Qarshi bo‘lsa nihoyatda kichik bir joy bo‘lib (u) ko‘pincha dorug‘a turadigan joy bo‘lib qolgan; mustahkamlikda esa (u) hech vaqt Shahrisabz bilan barobar kelish da’vosini qilolmaydi [4, 137]. Qarshi muhim harbiy-strategik shahar sifatida tasvirlangan. Shayboniylar davrida u janubiy hududlarni nazorat qilish markazi bo‘lgan. Abdullaxon II o‘z yurishlari davomida Qarshi qal’asini mustahkamlash va undan harbiy tayanch punkt sifatida foydalanish haqida buyruq bergan. Shahar qishloq xo‘jaligi va savdosi rivojlangan markaz bo‘lib, atrofida sug‘oriladigan yerlari va hosildor bog‘lari ko‘p edi.

Shahrisabz Temuriylar davridan beri muhim shahar bo‘lib kelgan, lekin Shayboniylar uni o‘z nazoratiga olish uchun harakat qilgan. “Abdullanoma”da Shahrisabz beklari bilan bo‘lgan janglar haqida ma’lumotlar bor. Abdullaxon II Shahrisabzni o‘ziga bo‘ysundirish uchun qattiq kurash olib borgan, chunki u hanuz Temuriylar tarafdorlari uchun muhim markaz bo‘lib turgan edi. Shahar iqtisodiy va madaniy jihatdan obod bo‘lib, Amir Temur davrida barpo etilgan Oqsaroy va boshqa inshootlar hanuz mavjud bo‘lgan.

“Abdullanoma”da Qarshi harbiy markaz sifatida, Shahrisabz esa siyosiy va tarixiy jihatdan muhim shahar sifatida tasvirlangan. Shayboniylar, ayniqsa Abdullaxon II, bu hududlarni o‘z nazorati ostida mustahkamlashga harakat qilgan va bu jarayon qattiq kurashlar bilan kechgan.

XV-XVI asrlardagi tarixiy asarlar Qashqadaryo hududidagi madaniy meros obyektlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu davrda ko‘plab madaniy meros obyektlari barpo etilgan, shaharlar qayta tiklangan. Mamlakatda obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Natijada davlatchiligimiz tarixida yana bir marta siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak darajaga erishilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bizgacha yetib kelgan asori-atiqalar, yodgorliklarni kelajak avlodga yetkazish, ommalashtirish, asrab-avaylash va targ‘ib qilishda o‘z davrida yaratilgan tarixiy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ulardan foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirishga ham ulkan hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1997.
2. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. «ШАРҚ», Тошкент, 1997.
3. Низомиддин Шомий. Зафарнома. “Ўзбекистон”, Тошкент, 1996.
4. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. «Абдулланома» («Шарафномайи шоҳий»). «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, Тошкент, 1999.

SAIPOVA D.Sh.

National Institute of and Design named after Kamoliddin Behzod
Senior teacher of the "Design" department, researcher,
email: dilnozasaipova84@gmail.com

“THE IMPORTANCE OF THE PLATFORM OF SCIENTISTS IN THE FORMATION OF MUSEUMS”

Annotatsiya: *Hozirda zamonaviy Islom muzeylari nafaqat ilhom man’bai balki inson qalbini bir zumga o‘ylantiradigan, hayojanga olib keladigan, kerak bo‘lsa o‘zi uchun zaruriy hulosalar va qat’iy fikrlar qiladigan joyga aylangan desak bo‘ladi. Shu qatorda O‘zbekistonda islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etishdagi konsepsiyasi yoshlar kelajagi uchun poydevor bo‘la oladi.*

Kalit so‘zlar: *kontent, kontseptsiya, ta’sir texnologiyasi, platforma*

Аннотация: *В наши дни можно сказать, что современные исламские музеи – это не только источник вдохновения, но и место, которое заставляет человеческое сердце на мгновение задуматься, волнует, а при необходимости делает необходимые выводы и твердое мнение. Кроме того, концепция создания центра исламской цивилизации в Узбекистане может стать фундаментом для будущего молодежи.*

Ключевые слова: *контент, концепция, технология воздействия, платформа*

Annotation: *Nowadays, it can be said that modern Islamic museums are not only a source of inspiration, but also a place that makes the human heart think for a moment, excites, and, if necessary, makes the necessary conclusions and strong opinions. In addition, the concept of the establishment of the center of Islamic civilization in Uzbekistan can be a foundation for the future of young people.*

Key words: *content, concept, exposure technology, platform*

INTRODUCTION

Global civilizations, large empires, enviable cities and priceless architectural monuments were created in different periods of our country's history. During the past centuries, it showed people the way of change and development, created great cultural values for them, and left an important historical legacy. Scientific, historical and artistic works created by our great ancestors are the results of many centuries of

work and knowledge of mankind. These works are important not only for Uzbekistan, but also for the peoples of the whole world. On June 23, 2017, the adoption of the President's decision at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to establish the center of Islamic civilization in Uzbekistan" was one of the biggest steps taken in this matter.

With the announcement of the decision in this regard, large-scale work on the establishment of the center of Islamic civilization in Uzbekistan began. Until now, the honorable President has visited the Hazrat Imam complex several times and got acquainted with the design and construction works of the Center of Islamic Civilization. On June 15, 2018, the head of state personally laid a symbolic foundation stone for the foundation of the Center of Islamic Civilization and said that "the purpose of building this center is to study Islamic enlightenment, to convey the great heritage of our ancestors to our people and the world community."

MATERIALS AND METHODS

The center of Islamic civilization in Uzbekistan was built on an area of 7.2 hectares, adjacent to the famous Hazrat Imam complex of Tashkent. The building is 161 meters long and 118 meters wide and has three floors. The height of the dome in the center is 67 meters. The total usable area of the building, built on an area of 1.98 hectares, is 42,666 thousand m² On the second floor of the center there is a library with modern conditions, scientific research rooms, departments of large non-profit organizations such as AYSESKO, IRSIKA, Islamic Cooperation Organization.

Center of Islamic civilization in Uzbekistan

During the first Renaissance in the East - the Muslim Renaissance, the great scholars and thinkers who emerged from today's Uzbekistan have rightfully recognized the invaluable contribution to the development of world science and culture, the holy religion of Islam, by the world scientific community. In particular, it was established in Khorezm in the 9th-11th centuries. Great representatives of the cultural environment formed by our great ancestors, such as Ma'mun Academy, Mirzo Ulugbek Scientific School in Samarkand in the 15th century, Alisher Navoi in Khorasan, Husayn Boygaro, spread the word to the world with their rich spiritual heritage. The figures are displayed in the facade of the Center of Islamic Civilization in Uzbekistan.

Filling the magnificent building of the Center of Islamic Civilization in

Uzbekistan with quality and meaningful content requires a special responsibility from each of us. Of course, during the past seven years since the establishment of the center, a large scientific and creative group of experienced and knowledgeable scientists has been working in this regard. In the main part of the center will be the Holy Quran hall.The spiritual jewel of the Muslim world, the ancient Mushafi of Usman, is placed here. Also, copies of holy books and their translations in the old Uzbek language, written during the era of Somonites, Karakhanids, Khorezmshahs, Uzbek Khans, Timurids and other historical dynasties, will be placed. Examples of the world's rarest manuscripts and Korans are also on display.

The Koranic hall has an octagonal interior, its diameter is 45 meters, and its total area is 1,638 square meters. In the middle - under the 55.6-meter-high dome - the oldest copy of the Koran, the masterpiece of the Islamic world, built in the 7th century - Usman Mushafi.

Osman Mushafi is displayed in a special display case, on a plinth similar to an ancient marble tablet kept in the courtyard of the Bibikhanim Mosque in Samarkand. The top part of the sheet is covered with a transparent dome with columns. There is also a text explaining the history of Usman Mushafi.

Usman Mushafi, written on a deer skin kept in Uzbekistan, was included in the list of masterpieces of world memory by UNESCO in 1997. On August 28, 2000, this Mushaf was certified as an original manuscript by UNESCO. Quranic verses and hadiths are written in the interior of the Quranic hall. In the porch where the Mushaf is placed, a piece of Kaabaposh donated by the King of Saudi Arabia to the Center of Islamic Civilization is hung.

Inside the transparent porch, the world's oldest 53x68 cm, 353-page Usman Mushafi Qur'an, written in the 7th century (651 AD), preserved in Uzbekistan, is displayed on an ancient marble tablet in the courtyard of the Bibikhanim Mosque in Samarkand. In 1997, Usman Mushafi was included in the list of masterpieces of the world monument of UNESCO. On August 28, 2000, UNESCO issued a special certificate confirming that this Mushaf is an original manuscript.

Silk arpet ith vtrses

8 silk carpets measuring 8.1x3.7 meters with verses written on the walls of the hall are displayed in 4 arches. The texts of the verses printed on the carpets can be read and understood in different languages through special QR codes. It is possible to listen to texts individually through radio guide tools or mobile applications.

On the first carpet, verses 1-7 of Surah "Fatiha" and verses 1-5 of Surah "Baqara";
verses 137-142 of Surah "Baqara" on the second carpet;
on the third carpet, verses 199-200 of Surah "Oli Imran" and verses 1-2 of Surah "Nisa";

on the fourth carpet verses 110-111 of Surah "Isra" and verses 1-6 of Surah "Kahf";
on the fifth carpet verses 97-98 of Sura "Maryam" and verses 1-6 of Sura "Toho";
on the sixth carpet, verses 82-83 of Surah "Yosin" and verses 1-9 of Surah "Saffot";
on the seventh carpet, verses 179-182 of Sura "Saffot" and verses 1-6 of "Sod";
on the eighth carpet, verses 52-53 of Surah Shura and verses 1-8 of Surah Zuhruf are depicted.

In the section of pre-Islamic civilizations, a full picture of the lifestyle, religious beliefs and cultural life formed in the territories of our country from the earliest times to the beginning of the 8th century is awakened. The "Civilizations of the Pre-Islamic Era" time wall contains content related to the history and civilizations of statehood that took place in the territory of Uzbekistan from the X-IX millennia BC to the middle of the VII century AD.

Also, the themes of "Wall of Time" are reflected in such projects as "Representation of ancient Afrosyab findings in the exhibition", "Showing the ancient city of Kanga in the exposition", "Ancient settlements in the Tashkent oasis", "Oguzkhan - in historical sources", "African dynasty in Khorezm", "Hioni and Kidari rule", "Eftali dynasty", "Turkish Khaganate dynasty". will be delivered.
In the first section of the Renaissance, great scholars such as Muhammad Khorezmi, Ahmad Farghani, Imam Bukhari, Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, who lived in this period, and their incomparable discoveries, masterpieces of science, literature and architecture created in this period are reflected.

In the section of cultural life during the Second Renaissance, Shaibani, Ashtarkhani and Uzbek khanates, the reign of Sahibqiron Amir Temur and the new renaissance that occurred during the Timurid era, the work of scholars such as Mirzo Ulug'bek, Ali Kushchi, Alisher Navoi, Kamoliddin Behzod, as well as the scientific and cultural environment during the Baburi, Shaibani, Ashtarkhani period are covered in detail. The total area of "Second Renaissance" is 1310.2 m2. In the exhibition, Amir Temur and the period of the Timurids, discoveries of the 16th-19th centuries are shown.





"Second Renaissance" exposition

The sections "Uzbekistan at the end of the 19th and the beginning of the 21st century" and "New Uzbekistan: The Foundation of the Third Renaissance" include the changes in the scientific, cultural and educational fields that were promoted by the modernists at the beginning of the last century and are taking place today in the New Uzbekistan, today's great achievements of our country, and the way of life of our people.

Global civilizations, large empires, enviable cities and priceless architectural monuments were created in different periods of our country's history. Especially, the unique examples of cultural heritage created by our great ancestors have left an indelible mark in the history of mankind. Scientific, historical and artistic works left by them are kept today in different parts of the world, in foreign collections, foundations, libraries and museums. SILA SVETA company and WILMOTTE ASSJCTS company and Turkish memory Sinan Turaman are contributing to the development of the museum exposition with design proposals.

The total area of exposition of the "Third Renaissance - New Uzbekistan" department is 1307.5 m². During the past period, significant results have been achieved in the field of foreign policy, primarily in the development of friendly and mutually beneficial relations with neighboring countries. Innovations in the field of cooperation and science, economic development, development of science and technology in New Uzbekistan, a platform for achievements in all fields will be developed.

The main goal of the platform of Uzbekistan-Turkey scientists is to further strengthen scientific relations between the two countries and to develop cooperation in various scientific fields. The activity of the platform is primarily aimed at sharing experience, implementing new scientific projects and supporting research. This platform covers scientific, technical and educational fields. In addition, through the platform, scientists of the two countries will have the opportunity to work on new projects, conduct research, organize joint seminars, conferences and symposiums. This not only promotes scientific progress, but also promotes cultural exchange and friendship.

Cooperation in scientific fields Scientific cooperation between Uzbekistan and Turkey is carried out in various fields. Based on these areas: Both countries have great potential in technology and innovation. New developments can be launched based on the results of scientific programs and researches created in previous periods. Education and training of new personnel, Uzbekistan-Turkey platform of scientists is aimed at improving cooperation between higher education institutions of the two countries. Through the platform, joint master's and doctoral programs can be organized, which will help improve the skills of scientists, deepen research and train a new generation of scientists. The platform is also aimed at sharing information through scientific journals, books and articles, as well as presenting the latest research results to the general public.

Although the platform aims to develop scientific cooperation, it also serves to strengthen economic and cultural ties. Interactions between scientists and researchers foresee the emergence of new initiatives in various industries and economic sectors. This will help further development of trade and economic relations between the countries. At the same time, the platform encourages cultural and social exchange. It helps to deepen the rich cultural and historical ties of the Turkish and Uzbek peoples. Interaction and exchange of experience between scientists and researchers contributes to the understanding and appreciation of the cultural heritage of both countries.

Conclusion The Uzbekistan-Turkey Scholars Platform is an important initiative

aimed at strengthening scientific cooperation, education, innovation and cultural exchange. This platform can bring the two countries' scientific cooperation to a new level and make an important contribution to scientific research in the world. In the future, it can be expected that this platform will have a great impact on cooperation in various fields, raising science and education to a new level and strengthening the friendship between the two peoples. The role of new technologies in the formation of museums is very large, and at the same time, it is possible to place a lot of necessary information electronically. Cultural relations between Uzbekistan and Turkey have always been of great importance. A rare example of Turkish and European memorabilia, the copy of the Kurian Karim gifted by Kokan Khan Amir Umarkhon to the Turkish Sultan Makhmud II in the "Yulduz" palace is undoubtedly an excellent example of the common respect for the national culture and religious values of the two countries. It is important that this feature is not only a bright trace of Turkish culture in the Islamic world, but also an example of preservation of Uzbekistan's historical wealth and respect for the past. At the same time, the antiques of the Timurid era preserved in the Topkopi Museum enrich the mutual cultural heritage of Turkey and Uzbekistan. The objects and works in these museums are very valuable, each of them reflects the art, ideas and spiritual worldview of the people of their time. These studies and memorials are important tools for cultural cooperation and mutual understanding between the two countries. The gifts sent by the Emir of Bukhara to the Turkish Sultan Abdulhamid II are still considered among the most rare and sacred deposits in the world. These deposits are not only works of art or historical works, but also show the unity and rapprochement of the Uzbek people, Turkey and the entire Islamic world. Such deposits and gifts serve to implement mutual hospitality and social values.

BIBLIOGRAPHY

1. Decision PQ-3080 of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 23, 2017.
2. "Cradle of the Third Age is being created" article by Shoazim Minovarov, Center of Islamic Civilization in Uzbekistan, March 29, 2024.
3. Saipova D. Lighting design and modern trends in the organization of useum exhibitions // Obshchestvo i innovatsii. - 2021. - T. 2. – no. 11/S. - S. 7-15.
4. Kasimov O. S. Miguel a. a. a. theory and practice of modern science // theory and practice of modern science founded by: ooo "institute of management and social-economic development". - no. 10. – S. 24-31.

DALIYEVA Navbaxor
Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi

“SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI FOTONEGATIVLAR KOLLEKSIYASINING SHAKLLANISHI TARIXI”.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi negativlar kolleksiyasining shakllanishi tarixi, fondning to‘ldirib borilishi bu borada faoliyat olib borgan bir qator fotograflar, mutaxassis olimlar, ilmiy xodimlar, ular tomonidan yaratilgan fotoasarlar hamda ushbu asarlarning vatanimiz tarixini o‘rganishda tutgan ahamiyati borasida so‘z yuritiladi*
Kalit so‘zlar: *Kolleksiya, fotosuratlar, ekspeditsiya, marosimlar, urf-odatlar, zavod-fabrikalar, Zindon (turma), fotomateriallar, yahudiylar, maorif, rus-tuzem maktablari, yangi usul maktablari.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается об истории формирования коллекции негативов Самаркандского государственного музея-заповедника, о пополнении данного фонда, о созданных рядом фотографов фотопроизведениях, об учёных-экспертах и научных сотрудниках, работавших в этом направлении, и обсуждается значение этих работ в изучении истории нашей Родины.*
Ключевые слова: *Коллекция, фотографии, экспедиция, церемонии, традиции, фабрики, Зиндан (тюрьма), фотоматериалы, евреи, образование, русско-туземные школы, школы нового метода.*

Annotation: *This article describes the history of the formation of the negatives collection of Samarkand State Museum-Reserve, the replenishment of this collection, the photographic works created by a number of photographers, the expert scientists and researchers who worked in this direction, and discusses the significance of these works in the study of the history of our homeland.*
Keywords: *Collection, photographs, expedition, ceremonies, traditions, factories, Zindan (prison), photographic materials, Jews, education, Russian-Tuzem schools, New Method schools.*

Tarixni o‘rganishda nafaqat moddiy manbalar balki, yozma manbalar, hujjatlarning o‘rni ham katta ahamiyatga ega. Ularning jo‘g‘rofiyasi xilma-xil bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini yoritib beradi. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi hujjatlar fondida XX asrning 30-yillarida tashkil etilgan foto(surat) arxiv materiallari mavjud bo‘lib, u hujjatlar va fotonegativlar fondining maxsus bo‘limida saqlanadi [10; 1-22 b.]. Hujjatlar fondining mavjud hujjatlar va suratlari orasida negativlar kolleksiyasiga alohida joy ajratilgan. U yerda 30 mingdan ortiq fotonegativlar mavjud. Bu noyob negativlarning bir qismi oynaga, bir qismi esa tasmaga tushirilgan. Ularning barchasi O‘rta Osiyoning turli tarixiy bosqichlarida yuz bergan mavzularga bo‘lingan.

Negativlarning birinchi kolleksiyasi “O‘rta Osiyoning diniy e’tiqodlari va an’analari” mavzusiga bag‘ishlangan. Unda 1926-1940 yillarda Samarqand, Buxoro va Xiva mozorlari, masjidlari va musulmon bayramlari tasvirlangan.

Xo‘ja Abdu-Dorun mozoro ko‘rinishi, Shohizinda va Tillakori madrasalaridagi ibodat, musulmonlarning ibodat vaqtidagi marhumlarni xotirlash suratlari judayam qiziqarli. Ushbu kolleksyalarning to‘planishi V.I.Kotovskiy, Zarifov, G.Ye.Tkachenko va A.K.Pisarchiklarning faoliyatlari natijalari bilan bog‘liqdir.

“Diniy e’tiqod va marosimlar” mavzusidagi kolleksiyada V.I.Kotovskiy tomonidan ishlangan “Ramazon bayramida namoz payti. Tillakori madrasasi hovlisi”, “Xo‘ja Ahror masjidi. Masjid yonidagi mozorning bir qismi”, “Masjiddagi muqaddas daraxt”, “Ayollar qurbon hayitida qabristonda”, “Chashman Ayub mozorining umumiy ko‘rinishi”G.Ye.Tkachenko tomonidan “Sayil bayramida namoz payti. Tillakori madrasasi hovlisi”, “Xo‘ja Abdu Dorun mozori hovlisida”, Zarifov tomonidan “Registon maydonida Namozga to‘planish”, “Ramazon. Tillakori madrasasi hovlisida namoz payti”, “Ayollar muqaddas buloq bo‘yida”, “Ayollar mozorga kirishda” kabilar alohida ajralib turadi.

Bularning barchasi 20-40 yillar Samarqand, Buxoro,Xiva kabi shaharlar aholisining islom dini bilan bog‘liq an’analari, urf-odatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish bilan birga o‘sha davr O‘rta Osiya tarixi bo‘yicha qimmatli manba ham hisoblanadi.

Negativlar kolleksiyasidagi “O‘rta Osiyo xalqlari va hunarmandchiligi” jamlanmasi 1920 yildan boshlab 1990 yilgacha bo‘lgan katta tarixiy davrni o‘z ichiga oladi.

Ushbu materiallar Samarqand muzeyi uchun, barcha ilmiy xodimlar uchun hunarmandchilik tarixi bo‘yicha qo‘llanmalar, yangi ekspozitsiyalar yaratishda, ilmiy yo‘nalishning boshqa yo‘nalishlarida faoliyat olib boorish uchun ham katta ahamiyatga egadir.

Jamlanmadagi V.I.Kotovskiy tomonidan suratga olingan “Kolxozchi hovlisi va turarjoy’, “O‘tovda yashovchilarning kundalik anjomlari”, “Non yopish uchun mo‘ljallangan tandir”, “Beshikka bog‘langan bola”, “Ovqat pishiriladigan joy. O‘choq.”, “Bola beshikda”, “Bolalar hovlida o‘ynamoqda”, A.K.Pisarchik va D.F.Xanin tomonidan suratga olingan “XX asrning ikkinchi o‘n yilligida qurilgan uy. Ko‘chadan kirishdagi bezak.”, “Maxdixon Qori uyining xonalari. Devorlari naqshlar bilan bezatilgan”, “Nurotadagi o‘ziga xos turarjoy”, “XIX asrda qurilgan uy naqshlari, bezak va detallari”, “Tokchalari bor yon devor(O‘rtasida taxmon, yonlarida kichkinalari)” nomli suratlarda mahalliy xalq turmushi, kundalik yumushlari, tashvishlari, urf-odatlari, o‘sha davr muhiti kabi masalalar yoritib berilgan.

Bu kolleksiya muzey xodimlari tomonidan respublika, shahar va viloyatlar bo‘yicha uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasi o‘laroq to‘ldirilib borilgan. Shuningdek, “O‘rta Osiyo xalqlari va hunarmandchiligi”, “An’ana va turlar’ mavzularida ajoyib etnografik materiallar to‘plandi. 1930-1980 yillardagi etnografik ekspeditsiyalar muzey fondini qimmatli materiallar bilan to‘ldirdi. Unda qadimiy marosimlar o‘tkazish jarayoni, milliy kiyimlar tasvirlangan.

Negativlarda kulol va zargarlar, temirchi va misgarlar, zardo‘zlar va kashtachilar tasvirlangan. Ayniqsa, etnograf O.A.Suxareva tomonidan tasvirga olingan samarqandlik kashtachi O‘rinoy Umurboyevaning ishlari va rasmlari hamda so‘zanalari bilan bog‘liq yig‘ilgan negativlar alohida ahamiyatga ega. Ular Samarqand kashtachiligi tarixi bo‘yicha ma’lum kompleksni tashkil etadi. Shu bilan birga tikilish usuli, matolari, naqshlari, an’analari borasida batafsil ma’lumot olish imkonini beradi.

Negativlar kolleksiyasining 1920-yillarning oxiri — 1930-yillarning boshlarida Samarqand yahudiylarining hayoti manzaralarini aks ettiruvchi fotoarxiv materiallari katta hujjatli ahamiyatga ega bo‘lib, ular ham fotograf V.Kotovskiy tomonidan yaratilgan.

Bu kolleksiya yahudiylar jamoasi madaniyatiga bag‘ishlangan, shuningdek, etnograf olim I. S. Lure xizmatlari bilan “Sharq” mavzesida istiqomat qilgan yahudiylarning an’analari, xo‘jaligi, diniy e’tiqodlari va bayramlari haqida qimmatli ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan.

Kotovskiyning yahudiylar pasxasiga bag‘ishlangan “Lochira. Xamir tayyorlashning umumiy ko‘rinishi. Samarqand. Sharq dahasi” (1935), “Pasxa idishini tanlash. Samarqand. Sharq dahasi” (1935), “Pasxa mahsulotlari solingan ovqat. Samarqand. Sharq dahasi” (1935), “Mahalliy yahudiylar pasxa dasturxonini bezashmoqda” (1935), “Binoni pasxaga yig‘ishtirish”(1935), “Idishni pasxaga tozalash va tayyorlash” (1935) va boshqa ko‘plab suratlari yahudiylar diniy marosimlari to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlarni beradi.

Ushbu kolleksiyaning shakllanishida V.I.Kotovskiy bilan birgalikda I.Qo‘ldoshev va Ye. Polyakovlarning ham xizmati katta. Xususan, I. Qo‘ldoshev tomonidan suratga olingan “Mahalliy boy yahudiy uyi”, “Sharq dahasidagi uy. Turarjoy binosi devoir yonida”, I. Qo‘ldoshev va Lure ijodiga mansub “Yahudiylarning sinagogada sig‘inish payti. (-Avaning dahshatli kuni”, “Yahudiylar urfiga ko‘ra, bola 13 yoshga to‘lgandadiniy marosimni ado etishi shart. Shundan so‘ng balog‘at yoshiga yetadi va kattalarga qo‘shilib, ibodat qilishga ruxsat etiladi.” nomli suratlar alohida ajralib turadi.

1931 yildan 1935 yilgacha V.I. Kotovskiy T.A. Jdanko bilan birgalikda tadqiq etish va materiallar to‘plash maqsadida Buxoro, Xiva hamda ularning atrofidagi hududlarga ekspeditsiyalar uyushtira boshladi.

1932-yilda Xivaga etnografik ekspeditsiya tashkil etilib, u yerda tarixiy obidalar, yog‘och, marmar va alebastr o‘ymakorligi elementlari, turlari, xalq hayoti, bozorlari, masjidlari, shaharning umumiy ko‘rinishi va boshqa ko‘rinishlari aks ettirilgan boy fotomateriallar to‘plangan.

Xivadagi Toshhovli devorlarini tiklash ishlari, to‘qimachilik buyumlari, temirchilik ustaxonasi kabilar shular jumlasidandir. Ularning izlanishlari natijasida to‘plangan qiziqarli kadrlar Buxoro muzeyi ko‘rgazmalarida sahnalashtirilgan “Oltin tikuvchilar ishda” va boshqa ko‘plab sahna ko‘rinishlari bilan 1932 yilda suratga olingan. 1933 yilda Sneserev tomonidan Buxoro muzeyida saqlanadigan fotografik reproduksiyalardan qayta suratga olish ishlari olib borildi.

Fotosuratchi ko‘chalar, binolar, turar-joy binolari, arava turlari, artellar va hunarmandchilik ustaxonalariga alohida e’tibor berdi. Shuningdek, kolxoz va

sovxozlar, zavod va fabrikalarni ham e’tiboridan chetda qoldirmadi.

Vasiliy Ivanovich Kotovskiy arxeologik tadqiqotlarda ham faol ishtirok etdi. Grigoryev va boshqalar barcha ish jarayonlarini yozib olishga harakat qilishdi. Aholi punktlarining geografik koordinatalarini aniqlash uchun fotograf oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa- ehtiyotkorlik bilan suratga olish vazifalarini sidqidildan bajardi.

XIX asr oxiri XX asr boshlari Buxoro va Xiva xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid masalalar amaldorlar va amirlik ma’muriyatining portretlari aks ettirilgan negativlarda, “Zindon” manzarasi, Buxoro qamoqxonasi Buxoro zindonidagi qatllar ham o‘z ifodasini topgan. Buxoro amiri Said Olimxon, Xiva xonlari Muhammad Rahimxon, Asfandiyorxon boshqaruvining ayrim holatlari rasvirlangan. Bu suratlarning barchasi 1933 yilda V. Kotovskiy tomonidan suratga olingan.

Xususan, Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy tarixiga doir “Buxoro amaldorlari. 1911-1912 yillar”, “Buxoro amiri Ahadxon”, “Amir saroyidagi zal”, “Buxoro amirining bosh vaziri va maslahatchilari”, “Buxorolik savdogarlar”, “Amir Olimxonning taxtga o‘tirish marosimi”, Buxoro “Zindon”i manzaralarini yoritib beruvchi “Zindonning ichki ko‘rinishi”, “Zindon yerto‘lasiga kirish”, “Zindon. Buxoro qamoqxonasining umumiy ko‘rinishi”, “Zindondagi mozor”, “Qozi. Buxoro. Zindon”, Xiva xonligi siyosiy, boshqaruv, hukmdorlar faoliyatini o‘zida aks ettirgan “Husaynbek Matmurodov”, “Xiva xonligining bir guruh amaldorlari”, “Said Abdulla’, “Xiva xoni Raximxon generallik ordeni bilan”, “Xiva xonining rus amaldorlari bilan uchrashuvi”, “Isfandiyorxon mulozimlari bilan Peterburgdagi qishki saroyda” kabi I.V.Kotovskiy tomonidan suratga olingan fotosuratlar nafaqat negativlar fondining boy tarixiy faktlarga ega ekanligini balki, xonliklar davri tarixiy manbalarini tasvirlar orqali yoritib berishda muhim manba hisoblanadi.

V.I.Kotovskiyning Samarqand muzeyi uchun amalga oshirgan eng katta ishlari u muzey fondlarini har doim yangi va hayratlanarli fotografik materiallar bilan to‘ldirdi va muzey manfaati uchun o‘z vazifalarini vijdonan va katta mas’uliyat bilan bajardi.

Samarqand tarixiga bag‘ishlangan fotosuratlarida ko‘hna Samarqandning betakror qiyofasi – uning ko‘chalari, maydonlari, me’moriy obidalari, xushmanzara bozorlari va yorqin sharqona nafisligini aks ettirgan. Uning asarlari ro‘yxatida Samarqand juda ko‘p marotaba suratga olingan, shuningdek, XIX asr oxirlarida tashkil etila boshlagan, ovrupacha ko‘rinish olayotgan Samarqand ham tasvirlangan [4; 73-b].

Suratlarida masjidlar, diniy bayram va marosimlar, xalq turlari, kulol va zargarlar, tunukachilar va misgarlar, tort va meva sotuvchilar, fabrikalar, kasalxonalar, bolalar bog‘chalari, maktablar va boshqalar asosiy o‘rin egallagan.

Ulug‘bek madrasasi qulagan minorasining to‘g‘rilanishi, qayta tiklashdan oldingi va 436eying suratga olish va 1932 yilda yangi poydevorga ko‘chirish kabi jarayonlarini ham o‘z suratlarida abadiylashtirgan.

Zarifov ijodiga mansub “Chorraha ko‘chasi’, “Eski shahar ko‘chasi”, G. Ye. Tkachenko tomonidan suratga olingan “Eski shahardagi tor ko‘cha’, “Choyxona yonidagi Toshkent ko‘chasi”, A.P.Loshchuk tomonidan suratga olingan “Tiklanish ko‘chasi”, “Pushkin ko‘chasi”, “Lenin va Frunze ko‘chalarining burchagi” kabi

fotoasarlar Samarqand shahar ko‘chalari, tuzilishi, chiroyi, arxitekturasi kabi mavzularga bag‘ishlangan.

Negativlar kolleksiyasining muhim jamlanmalaridan yana biri xalq ta’limining rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda maktablar tashkil etilishining XIX asr oxiridan boshlab, shu kunga qadar bo‘lgan barcha bosqichlari: eski maktab-madrasalardagi, rus-tuzem va yangi usul maktablaridagi dars jarayonlari hamda XX asr boshlarida yashagan mashhur ustoz muallimlar-Munavvar Qori, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriylarning tashabbusi bilan tashkil etilgan o‘qish jarayonlari ham tasvirlangan [9; 125].

Kolleksiyadagi B.N.Kostalskiy tomonidan suratga olingan “Chinor kovagidagi maktab. Ikkita katta chinor, chapdagi chinor kovagida maktab joylashgan ”, V.I.Kotovskiy tomonidan suratga olingan “Fallok- maktab o‘quvchilarini kechalari kaltaklash moslamasi”, “Eski maktabning ichki ko‘rinishi”, “Islom Xo‘janing yangi uslubdagi maktabi”, “Shakuriy yangi uslubdagi maktabining 15 yillik yubileyi tantanalarining bir guruh ishtirokchilari”, “Mahalliy rus bilim yurti, o‘qituvchi Sichyov”, Ovchinnikov tomonidan suratga olingan “Samarqanddagi inqilobgacha bo‘lgan xotin-qizlar gimnaziyasi. O‘qituvchi bir guruh o‘quvchilar bilan ” , “Birinchi namunali boshlang‘ich xalq maktabi”, “Kerkada maktab ochilishi”, “Mahalliy rus maktabi” kabi suratlarda Turkistondagi xalq ta’limining ahvoli, eski usuldagi ta’lim tizimi, yangi usul maktablari, savodsizlikni tugatish maktablari, gimnaziyalar, ulardagi o‘qitish tizimi, xotin-qizlar ta’limiga e’tibor, ularning jamoyatda tutgan o‘rni, maktablardagi dars berish uslublari, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar kabi masalalar tasvirlangan.

Bu kolleksiyaning to‘planishi V.I.Kotovskiy, Pavlov, Ovchinnikov faoliyatlari bilan bog‘liq. Aynan ular tomonidan to‘plangan ma’lumotlar ushbu kolleksiyaning boyib borishiga xizmat qilgan.

Negativlar jamlanmasidagi katta kolleksiyani SSSR davridagi barcha faoliyat turlari haqidagi negativlar tashkil etadi. Bular qishloq xo‘jaligi, sanoat, madaniy ko‘rinishlardir. Bu kolleksiyada A.Kuzmenko, R.G‘afurov, A.Zanko, V.Timchenko, S.Niyazov va boshqalarning ishlari taqdim etilgan.

Negativlar kolleksiyasi materiallarini o‘rganish, tahlil qilish orqali ham O‘zbekiston tarixining ma’lum davriga oid qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Bu izlanishlar, tadqiqotlar nafaqat fond kolleksiyalarini tarkibiy jihatdan o‘rganish, shu bilan birga fan-texnika sohasida o‘zgarishlar haqida ham ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 2-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.
2. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 3-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.
3. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 4-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.
5. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 5-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.
6. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 6-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.
7. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 15-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.

8. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 17-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.
9. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 21-sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi.

КУТЫБАЕВА Куралай
отдела археологии Каракалпакского государственного музея искусств им.И.В.Савицкого мл.научный сотрудник

КАВАТ-КАЛИНСКИЙ ОАЗИС: АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И МАТЕРИАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА ХОРЕЗМА В СРЕДНИЕ ВЕКА

Mazmuni: *Maqola o‘rta asrlar Xorazmning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan, o‘rta asrlar Xorazm moddiy madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beruvchi noyob arxeologik tadqiqot ob’ekti bo‘lgan Kavatqal’a vohasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu vohada olib borilgan qazishmalar natijasida ko‘plab osori-atiqalar, jumladan, kulolchilik buyumlari, mehnat qurollari va me’moriy elementlar topilgani hududda hunarmandchilik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Kavatqal’a vohasini o‘rganish O‘rta Osiyoda sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlarni qayta tiklash, turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega.*

Tayanch iboralar: *Xorazm, san’at muzeyi, arxeologiya, Qavatqal’a.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению Каваткалинского оазиса, расположенного в правобережном средневековом Хорезме, представляет собой уникальный объект археологических исследований, который позволяет глубже понять материальную культуру средневекового Хорезма. Раскопки в этом оазисе выявили множество артефактов, включая керамику, инструменты и элементы архитектуры, что свидетельствует о высоком уровне развития ремесел и торговли в данном регионе. Изучение Каваткалинского оазиса имеет важное значение для реконструкции исторических процессов, происходивших в Центральной Азии, а также для понимания культурных взаимосвязей между различными народами.*

Ключевые слова*: Хорезм, музей искусств, археология, Кават-Кала.*

Annotation: *The article is devoted to the study of the Kavatkala oasis, located in the right bank of medieval Khorezm, which is a unique object of archaeological research that allows us to better understand the material culture of medieval Khorezm. Excavations at this oasis have revealed many artifacts, including pottery, tools and architectural elements, indicating a high level of development of crafts and*

trade in the region. The study of the Kavatkala oasis is important for the reconstruction of historical processes that took place in Central Asia, as well as for understanding the cultural relationships between different peoples.

Keywords: *Khorezm, art museum, archaeology, Kavat Kala.*

Методы музеефикации, применяемые для сохранения и представления находок, включают создание выставок, использование современных технологий для виртуальных туров и интерактивных экспозиций, а также образовательные программы для широкой аудитории. Эти подходы способствуют не только сохранению культурного наследия, но и повышению интереса к истории Хорезма среди местных жителей и туристов.

Правобережный Хорезм, расположенный на территории современного Каракалпакстана, представляет собой уникальный регион, обладающий богатым историческим и культурным наследием. Археологические исследования, проводимые в этом районе, выявили населенные пункты, которые можно отнести к категории городов. Эти находки подчеркивают важность региона как центра древней цивилизации, где пересекались торговые пути и развивались культурные связи.

В послевоенные годы Правобережный Хорезм оставался в центре внимания Хорезмской экспедиции, что связано с раскопками таких значимых памятников, как Топрак-кала и Кой-Крылган-кала. Эти археологические объекты стали символами богатого исторического наследия региона и привлекли внимание исследователей со всего мира. Однако, несмотря на значимость этих раскопок, внимание к памятникам средневековья было менее интенсивным, хотя и проводились небольшие, но важные работы.

Одним из наиболее интересных объектов археологических исследований является Кават-калинский оазис. Этот оазис, расположенный вдоль мертвого канала Гавхорэ, был открыт в 1937 году А.И. Тереножкиным [6, с.74-79] и стал известен благодаря работам С.П. Толстова, проводившего исследования в 1938-1940 годах [7]. Кават-калинский оазис, как ни один другой из известных районов «земель древнего орошения», кажется оставленным жителями совсем недавно, что связано с удивительно хорошим состоянием следов человеческой деятельности, сохранившихся на этой земле.

Исследования архитектуры и укреплений Кават-калы, а также особенности расселения в оазисе, форм керамики и других материалов легли в основу выделения и характеристики, так называемой Хорезмшахской культуры XII-начала XIII века [4]. Эти исследования не только обогатили наше понимание истории Хорезма, но и позволили глубже осознать социальную структуру и экономические отношения, существовавшие в средневековом Хорезме.

Таким образом, Правобережный Хорезм и Кават-калинский оазис представляют собой важные объекты для изучения истории и культуры региона. Археологические находки и исследования, проводимые в этом районе, продолжают открывать новые страницы истории, позволяя нам лучше понять, как жили и развивались люди в этом уникальном уголке Центральной

Азии.

Согласно археологическим исследованиям, в Правобережном Хорезме насчитывается не менее четырех населенных пунктов, которые можно было назвать городами. В послевоенные годы Правобережный Хорезм по-прежнему был в центре внимания Хорезмской экспедиции, в первую очередь, в связи с раскопками Топрак-калы и Кой-Крылган-калы. Меньшее внимание уделялось памятникам средневековья, однако, небольшие по объему работы проводились и на них. Имеются в виду раскопки некоторых усадеб в Каваткалинском оазисе, известные под номерами 16, 41, 43, 60 (совместно с Государственным музеем искусств Каракалпакской АССР) [3,с. 129-131].

Археолого-топографические исследования, проведенные в окрестностях Кават-калы в 60-70 годы прошлого века, выявили определенную группировку крестьянских усадеб вдоль отдельных каналов системы Гавхорэ. Это свидетельствует о том, что в XII-начале XIII века зона Гавхорэ была густо заселена и хорошо возделана. Жизнь здесь не прекращалась на протяжении многих столетий, что подчеркивает важность орошения и сельского хозяйства в жизни древних обществ [1,с.38].

Кават-калинский оазис не только служит свидетельством богатого исторического наследия, но и подчеркивает важность изучения археологических памятников для понимания социально-экономических отношений, существовавших в средневековом Хорезме. Исследования, проводимые в этом районе, продолжают открывать новые страницы истории, позволяя нам лучше понять, как жили и развивались люди в этом уникальном уголке Центральной Азии.

Таким образом, Кават-калинский оазис представляет собой важный объект для изучения истории и культуры Правобережного Хорезма. Археологические находки и исследования, проведенные в этом регионе, позволяют глубже понять социальную структуру и экономические отношения, существовавшие в средневековом Хорезме. Оазис является не только важным историческим памятником, но и символом богатого культурного наследия, которое продолжает вдохновлять исследователей и историков.

Изучение архитектуры и укреплений Кават-калы и замков, особенностей расселения в оазисе, форм керамики и других материалов легло в основу выделения и характеристики так называемой Хорезмшахской культуры XII-начала XIII вв созданной С.П.Толстовым классификации и периодизации истории Хорезма, о котором упоминает исследователь Е.Е.Неразик [4].

По его мнению оазис как бы запечатлел иерархическую структуру общества, представляя законченный «феодальный тип расселения с резиденцией князя (Кават-кала) замками его вассалов (замки I-IV) и многочисленными крестьянскими усадьбами» [5,с.65].

Археолого-топографические исследования в окрестностях Кават-калы проведенные в 60-70 годы прошлого столетия, выявили определенную группировку крестьянских усадеб вдоль отдельных каналов системы Гавхорэ. Е.Е.Неразик, Ю.А.Рапопорт утверждали, что в XII-начале XIII в зона Гавхорэ была густо заселена и хорошо возделана. Жизнь здесь не прекращалась в

течение многих столетий. Отдельные группы 10—20 усадеб размещаются по каналам, как правило, ниже замков, к которым они тяготеют [1, с.38 -143]

Е.Е.Неразик в своей книге «Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв)» писала, что именно в Кават-кале особенно хорошо ощущается, как «накладывались» друг на друга наслоения разных эпох на этой обитаемой с глубокой древности земле [3]. Границы разновременных оазисов не совпадали. Поэтому среди солончаков вдруг попадается то разбитый красноглиняный хум архаического периода, то лепная посуда IX—XI вв. с обильным налепным и прочерченным орнаментом.

В XII — начале XIII в. оазис, особенно в центральной своей части, близ Кават-калы, на площади 8 кв. км, был очень плотно заселен: здесь отмечено 90 усадеб.

Можно полагать, что здесь были угодья самих владетелей замков; в некоторых случаях даже удалось установить их немалые размеры. Так, площадь земельных угодий замка II равнялась по меньшей мере 800х500 м. Отчетливо вырисовывается общественный центр оазиса — Кават-кала и сооружения в ее ближайших окрестностях. Раскопки показали, что большая и несколько отличавшаяся особенностями своей планировки от других построек оазиса усадьба № 16 на самом деле была ханакой — странноприимным домом для религиозных подвижников — дервишей, шейхов,— построенной при мазаре. Поселение в целом носит ярко выраженный земледельческий характер. Слабые следы гончарного производства зафиксированы только на его восточных окраинах, где находилось не более 4— 5 круглых печей небольшого диаметра. Трудно предположить, что их продукция могла обслужить такую огромную населенную зону. В то же время у нас пока отсутствуют сведения о других остатках гончарных печей в оазисе. Описываемая центральная часть оазиса представляла собой, в сущности, очень компактный поселок, среди которого тем более должны были выделяться несколько замков — своей архитектурой, монолитностью пахсовых стен, обширностью незастроенных зеленых угодий. В то же время особенности микрорельефа поверхности внутри замков позволяли предположить плотную его застройку, давая повод усомниться в правильности существовавшего представления.

Особенно противоречило ему наличие каких-то развалин посредине наиболее хорошо сохранившихся замков II и III, где, согласно укоренившемуся мнению, должен был находиться двор. С другой стороны, без раскопок нельзя было с уверенностью судить о происхождении этих всхолмлений — они могли быть и результатом обвала стен соседних с двором.

В результате многолетних археологических исследований в фонды музея поступило значительное количество артефактов, отражающих высокий уровень материальной культуры средневекового Хорезма. Особый научный интерес представляют керамические изделия, среди которых выделяются неполивные сероглиняные кувшины, хумы и тарелки, а также поливные сосуды, украшенные художественной росписью.

Металлические изделия также занимают важное место в коллекции.

Среди них можно выделить предметы бытового назначения, включая светильники, ювелирные украшения, а также декорированные дверные ручки и другие металлические элементы, свидетельствующие о высоком уровне ремесленного производства того времени.

Анализ выявленных артефактов подтверждает активные торговые и культурные связи Хорезма с различными регионами Востока и Запада. Важную роль в этом контексте играют глазурованные сосуды, найденные на территории Хорезма, которые имеют явные аналогии с изделиями, происходящими из Ирана и Китая. Помимо этого, в коллекции представлены бусы, ожерелья, а также терракотовые скульптурные и зооморфные изображения, дополняющие картину художественных традиций и межкультурных взаимодействий. В настоящее время все выявленные материалы хранятся в археологическом фонде музея и являются важными источниками для дальнейших научных исследований.

Следует подчеркнуть, что предметы материальной культуры Кават-Калинского оазиса играют важную роль в процессе музеефикации и в определении места городов и поселений Хорезма в социально-экономической структуре IX–XIV вв. В этот период значительное влияние на развитие региона оказали процессы становления и укрепления феодальных отношений, что способствовало формированию сложной системы межфеодальных связей и экономического обмена.

Археологические исследования, проводимые на территории Правобережного Хорезма, позволяют реконструировать богатое историко-культурное наследие этого региона, демонстрируя высокий уровень развития общества в средние века. В ходе многолетних раскопок в фонды музея поступило значительное количество артефактов, которые не только иллюстрируют повседневную жизнь населения, но и свидетельствуют о широких культурных и торговых контактах Хорезма с соседними регионами.

Особый научный интерес представляют керамические изделия, являющиеся важным элементом материальной культуры Хорезма. Среди них выделяются неполивные сероглинянные кувшины, хумы, тарелки, а также поливные сосуды, украшенные художественной росписью [3]. Эти предметы служили не только утилитарными изделиями, но и отражали уровень ремесленного производства, эстетические предпочтения общества и технологические достижения своего времени. Высокий уровень исполнения данных артефактов свидетельствует о развитии местных гончарных традиций и об активном обмене технологиями и художественными стилями с другими регионами Востока и Запада.

Кроме керамики, в археологических находках встречаются и металлические изделия, такие как светильники, украшения и декорированные дверные ручки. Эти предметы быта не только служили практическим целям, но и подчеркивали статус их владельцев, что указывает на наличие социальной иерархии в обществе. Металлические изделия также свидетельствуют о высоком уровне металлургии и художественного ремесла в Хорезме.

Особое внимание стоит уделить керамическим изделиям, которые

указывают на торговые связи Хорезма с другими странами Востока и Запада. Глазурованные сосуды из Ирана и Китая, бусы и ожерелья, а также скульптурные изображения подтверждают, что Хорезм был важным узлом на торговых путях, связывающих различные культуры и народы. Эти находки не только обогащают наше понимание материальной культуры региона, но и подчеркивают его роль в международной торговле и культурном обмене.

Материальная культура Кават-калинского оазиса, в частности, играет важную роль в музеефикации и определении места городов и поселений Хорезма в IX-XIV веках. Исследования показывают, что в этот период происходило зарождение феодальных отношений, что, в свою очередь, способствовало развитию меж феодальных связей. Эти социальные изменения отразились на материальной культуре, которая стала более разнообразной и сложной.

Таким образом, археологические находки Хорезма представляют собой не только свидетельства материальной культуры, но и ключ к пониманию социальных, экономических и культурных процессов, происходивших в регионе в средние века. Они позволяют нам глубже осознать, как жили и развивались люди в этом уникальном уголке Центральной Азии, и как их наследие продолжает влиять на современность.

Литература:

1. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). Изд.»Наука», М.1969. 262 с.
2. Доспанов О.Т- Джампык-кала и история изучения средневековых памятников Правобережного Хорезма.
3. Доспанов О.Т. О нескольких фрагментах средневековой поливной керамики из фондов ККГМИ.// Урто азия тарийхы ва археологияси. Термез, 2022.
4. Неразик.Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I- XIV вв) Из истории семьи и жилища. «Наука»., М. 1967. – 259 с.
5.Неразик.Е.Е., Савицкий И.В., Манылов Ю.П. Раскопки в зоне средневекового канала Гавхорэ в 1970 г. // ВКФАН, № 4 (62) 1975, с.54-61
6. Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. - СА, №1, 1940
7. Толстов С.П. Работы ХАЭЭ в 1952 г. - ВДИ,№2, М., 1953

BEGALIYEV N.
ShDPI o‘qituvchisi

AVAZOV X.

SUYAROVA SH.
ShDPI talabalari

O‘RTA OSIYODA G‘ARBIY TURK XOQONLIGI DAVRIDA ZARB QILINGAN TANGALARNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Buyuk Turk xoqonligining g‘arbiy qismi bo‘lgan G‘arbiy Turk xoqonligi davrida xoqonlar va mahalliy sulolalar tomonidan zarb etilgan tangalar haqida so‘z ketadi. Bu tangalarning qaysi asrlarda zarb etilgani; qanday shakllarga ega bo‘lganligi; qaysi davlatlar ta’sirida bo‘lganligi; avers va reversida qanday rasm va yozuvlar bo‘lgani yoritiladi.*

Kalit so`zlar: *Choch, So‘g‘d, Toxariston, xoqon, yabg‘u, jabg‘u, yabg‘u-xoqon, jabg‘u-xoqon, Xonqa, Qanqa, Tun yabg‘u xoqon, mis, bronza, Xitoy, Tan sulolasi.*

Annotation. *This article talks about coins minted by khagans and local dynasties during the Western Turkic khanate, the western part of the Great Turkic khanate. It will be explained in which centuries these coins were minted, what forms they had, which countries were influenced by them, what pictures and inscriptions were on the obverse and reverse.*

Keywords: *Choch, Sogd, Tokharistan, Khagan, Yabgu, Jabgu, Yabgu-Khagan, Jabgu-Khakan, Khanqa, Kuva, Tun Yabgu Khagan, copper, bronze, China, Tang dynasty.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о монетах, чеканенных каганами и местными династиями в период Западнотюркского ханства, западной части Великого Тюркского ханства. Будет объяснено, в какие века чеканились эти монеты, какие формы они имели, какие страны испытали на себе их влияние, какие изображения и надписи были на аверсе и реверсе.*

Ключевые слова: *Чоч, Согд, Тохаристан, Каган, Ябгу, Джабгу, Ябгу-Каган, Джабгу-Хакан, Ханка, Канка, Тун Ябгу Каган, медь, бронза, Китай, династия Тан.*

Kirish.

Tariximiz haqida gap ketganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “-Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak...” degan so‘zlari ko‘z oldimizda jaranglaydi. G‘arbiy Turk xoqonligi haqida ma’lumot beruvchi tarixiy kitoblar va adabiyotlar ko‘p. Xoqonlik tarixi haqidagi ma’lumotlarni biz xitoy yilnomalari, vizantiya, arman, arab va fors tarixchilari asarlari orqali o‘rganamiz. Biroq G‘arbiy Turk xoqonligi davrida zarb etilgan tangalar haqidagi asosiy ma’lumotlarni arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan numizmatik materiallar

orqali o‘rganamiz. G‘arbiy Turk xoqonligi davrida O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishda numizmatik ma’lumotlar alohida o‘rin tutadi. G‘arbiy Turk xoqonlari ichki savdo-sotiqni rivojlantirish uchun o‘zlarining mis va bronza tanga pullarini zarb ettirganlar. Turk xoqonligi davrining o‘ziga xos jihatlaridan biri, O‘rta Osiyo xalqlari siyosiy-iqtisodiy hayotiga deyarli aralashmasdan, tobe hududlardan faqat soliqlar yig‘ish bilan cheklangan. Shuning uchun mamlakat bo‘ylab yagona tanga pul tizimi bo‘lmasdan, har bir hokimlar o‘z tangalarini zarb ettirigan.

Adabiyotlar tahlili.

G‘arbiy Turk xoqonligi davrida O‘rta Osiyoda zarb qilingan tanga pullarni o‘rganishda G‘.Boboyorov, M.E.Masson, E.Rtveladze, O.I.Smirnova, Ye.V.Zeymal, M.Is’hoqov va L.Baratova kabi tadqiqotchi olimlarning xizmatlari beqiyos. G‘aybulla Boboyorovning, “G‘arbiy Turk xoqonligi ilk tangalari”, “Qadimgi turkcha unvonli Toxariston tangalari” nomli kitoblar va “Tun Yabg‘u – xoqon” nomli risolalari orqali G‘arbiy Turk xoqonligi davri tangalarini keng miqyosda chuqur tadqiq qilindi. Shuningdek, I.Yusupova “O‘rta asr numizmatik materiallarining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘rganishdagi ahamiyati” va M.Is’hoqov, I.Xudaynazarov “Yordamchi tarixiy fanlar” kabi o‘quv-qo‘llanmalari ham chuqur tadqiqotlar natijasida yozilgan.

Muhokama va natijalar.

G‘arbiy Turk xoqonligi hududlari Tun yabg‘u xoqon (618-630-yillar) davrida O‘rta Osiyo bilan birgalikda Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston, Xuroson, Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Qora dengiz bo‘ylarini ham o‘z ichiga olgan yirik saltanatga aylanadi. Xoqonlik tangalari "xoqon", "xotun", "jabg‘u", "yabg‘u", "jabg‘u-xoqon", "tegin", "tutuq", tarxon" kabi o‘nlab turkiy unvonlar bilan zarb etilgani aniqlangan.[1] Shuningdek Turk xoqonligi davrida hokimliklar xoqon xonadoni vakillari bo‘lib ular yuqoridagi unvonlar bilan tangalar zarb etirish huquqiga ega bo‘lishgan.

Chochda tanga zarb etish IV asrdan oldinroq boshlanib, ilk o‘rta asrlarda Choch tangalari nusxalari nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Chochda tanga zarb etadigan bir qancha ustaxonalar markazlari mavjud bo‘lib ularda tanga zarb qilish uslublari turlicha va xilma-xil bo‘lgan. Chochda VI-VII asrlarda bir necha xilda ko‘plab tangalar zarb qilingan. Ularda So‘g‘d yozuvlari, tamg‘alar, podshoning boshi yoki rafiqalarining rasmi ifodalanar edi. Tanga pullar xilining ko‘pligi Chochda pul savdosini nihoyatda rivojlanganligini ko‘rsatadi.[2] Toshkent vohasidan topilgan, VI-VII asrlarga oid tangalar yaxshi saqlangan. Mis tangalardagi so‘g‘diy yozuvlarning - “Tardu xoqon”, “jabg‘u xoqon tangasi” va “Tun jabg‘u xoqon tangasi” shaklida o‘qib chiqilishi ilk bor g‘arbiy Turk xoqonligi hukmdorlari o‘z nomidan tanga zarb qildirgan, degan fikrga asos beradi.

Jumladan, Tun yabg‘u xoqon (618-630-yillar) tomonidan zarb qilingan, ushbu turdagi tangalarning uchta asosiy tipi:

1) Chordana qurib o‘tirgan hukmdor.

2) Qo‘shaloq portretli (xoqon va xotun).

3) Ustida yarim oy va yulduz (yoki Quyosh) ramzi aks etgan ot tasvirli tangalar zarb qilingan.[3]

630-yildan keyingi davrlarda g‘arbiy Turk xoqonligi Xitoyning Tan sulolasi

ta’siri ostiga tushib qoladi, bu davrdan boshlab 690-yilgacha ya’ni, Tan imperiyasi ta’siridan va qaramligidan ozod bo‘lganga qadar O‘rta Osiyoning Xitoy bilan aloqalarning kuchayishi natijasida O‘rta Osiyoning ayrim hududlarida Xitoy namunasidagi tangalar zarb etila boshlandi. Ko‘p asrlar davomida Xitoyda mis (yoki bronzadan) ishlangan, o‘rtasida kvadrat tarzidagi o‘yiqli tangalar yagona pul vazifasini bajargan. Ular zarb etilmagan balki, metallni quyma tarzida ishlangan. Shunday xitoy tangalariga o‘xshash (xitoy ierogliflarisiz) o‘rtasi o‘yiq quyma tangalar So‘g‘dda, Buxoro vohasida, Farg‘onada, Yettisuvda va Amudaryo bo‘yi viloyatlarida chiqarilgan.

Bundan tashqari VII-VIII asrlarda Chochda zarb qilingan, mis tanga o‘rtasi kvadrat teshikli, xitoy tangalariga taqlidan ishlangan. Tanganing aversidan-“ilohiy xoqon” jumlalari o‘rin olgan. Tanga G‘arbiy Turk xoqonligi 650-yillar oxirida Tan imperiyasiga qaram bo‘lgan muddatda zarb qilina boshlangan. Bu tanganing hajmi 2,0 sm, og‘irligi 1,5 gr.[4]

Tangalarning o‘rtasida to‘rtburchak teshiklarning bo‘lishiga bir qancha sabablar bor: Masalan, tangalarga yengillik yaratib, olib yurishga (arqon va iplarga tuzib) qulaylik yaratadi, shuningdek tanga qo‘yilgan metallni tejashga zamin yaratish bilan bir qatorda, o‘ziga xos davr belgisi vazifasini o‘taydi.

Samarqand muzey kolleksiyasidan V-VI asrlarga oid Farg‘onaning tangasini topishga muvaffaq bo‘lindi. Qadimiy yozuvi bo‘lgan bu yodgorlik o‘sha davr xalqlarining tilini o‘rganishimizda yakka-yu yagona yodgorlik hisoblanadi. Keyinchalik VII-VIII asrlarda Farg‘onada to‘rtburchak shaklidagi teshikka ega bo‘lgan So‘g‘d yozuvi tushirilgan tangalar chiqarilgan.[5]

G‘arbiy Turk xoqonligi davrida Samarqand hukmdor (ixshid) lariga Turk xoqonlari tomonidan „emitent” (qimmatli qog‘ozlar va qog‘oz pul chiqarish huquqiga ega bo‘lgan davlat, bank yoki idora) huquqi berilgan. Samarqand hukmdorlari VII asrning ikkinchi yarimidan boshlab zarb etgan tanga pullari, Choch hukmdorlari zarb etgan tanga pullar singari o‘rtasi kvadrat o‘yiq teshiklarga ega bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki VII asr ikkinchi yarimidan Samarqand hukmdorlariga ham, Tan imperiyasi tasiri bo‘lgan.

VII asr ikkinchi choragidan Samarqand ixshidlari so‘g‘d yozuvi bitilgan mis tangalarni zarb qilganlar. Mazkur tangalarda kichik hokimlar o‘z unvon va ismlarini, shuningdek tanga zarb etilgan joyni ko‘rsatib o‘tganlar. Masalan: Panch (Panjikent) yoki Seyiston va hokazo.[1]

Samarqand hokimlarining chiqargan tangasidan qo‘shni Ustrushona (Jizzax va O‘ratepada) viloyatida VI-VIII asrlarda zarb qilingan tangalar tubdan farq qilgan. Ularda to‘rtburchak shaklidagi teshiklar bo‘lmay balki, hukmdorning rasmi va So‘g‘d yozuvida hukmdorlarning nomi va unvoni hamda tamg‘asi ifodalangan. Bundan yagona xulosa Ustrushona hududlari siyosiy, eng kamida iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolgan.

G‘arbiy Turk xoqonligi hududlardan Buyuk Ipak yo‘lining markaziy shaharlari joylashganligi ham, xoqonlar bilan bir qatorda mahalliy hokimlar ixshidlar, tudunlar, xudodlar, dehqonlar va malikshohlarga o‘z tanga pullarini zarb ettirish uchun turtki bergan.

Turk xoqonligi tangalarining o‘ziga xos xususiyatlari, tangalardagi turkiy

unvonlar So‘g‘d tilida yozilganligi, xoqon va xotunlarning yonma-yon tasvirlanganligi, yabg‘u va jabg‘ularning muhr va tamg‘alari tasviri va suvoriy tasvirlarga ega ekanligi hisoblanadi.

Shuningdek, VI-VIII asrlarda Chochda zarb etilgan tangalarda, otliq hukmdor yelkasiga o‘q-yoy osgan holatdagi; to‘g‘riga yuzlangan hukmdor va malika-xotun tasviri aks etgan; so‘l tomonga yuzlangan ikki o‘rkachli tuya tasviri aks etgan; o‘ngga yuzlangan bars (qoplon) tasviri aks etgan; otliq hukmdor va uning oldida qo‘lida ashyo (qut-baraka ramzi) tutgan (iloha Umay ona timsolidagi) malika-xotun tasviri; taxtda o‘tirgan hukmdor tasviri; boshining chap tomonida yarim oy va uning ostida sakkiz qirrali yulduz tasvirlari o‘rin olgan.[6]

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, G‘arbiy Turk xoqonligidagi savdo aloqalarining rivojlanishiga zarb qilingan tangalarning ham ahamiyati katta bo‘ldi. Vl asrda vujudga kelgan Turk xoqonligi juda katta hududlarni birlashtirib, yagona siyosat olib borishi natijasida, ulkan hududlarda yashagan xalqlar o‘rtasida madaniy aloqalar vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Savdo-sotiq rivojlanishi bilan xoqonlar o‘z tanga pullarini zarb etib, ichki va tashqi savdo aylanmasini kengaytirdi.

Shuningdek, bu davrda zarb qilingan tanga pullardagi yozuvlar so‘g‘d tili va yozuvlarida bo‘lganligi natijasida so‘g‘d yozuvi keng miqyosda ishlatilishi va tarqalishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib olib borilayotgan arxeologik qazishmalar va tadqiqotlar natijasida G‘arbiy Turk xoqonligi davrida zarb etilgan tanga pullarning topilishi, tangalarda saqlanib qolgan so‘g‘d yozuvlarini o‘rganishga imkon bermoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida G‘arbiy Turk xoqonligi davri haqidagi yangi ma’lumotlarni taqdim etmoqda. Bugungi kunda VI-VIII asrlar tarixini o‘rganish uchun shubhasiz numizmatik materiallarga murojaat qilamiz, tangalar orqali tarixni kengroq tahlil qilamiz.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. G‘aybulla Boboyorov- "Tun yabg‘u –xoqon” (risola). “Abu Matbuot –Konsalt” Toshkent-2011.
2. Yusupova Iqbol Baxodirovna- "O‘rta asr numizmatik materiallarining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotni o‘rganishdagi ahamiyati". Navoiy – 2013 yil (27-29-bet)
3. Numizmatika (o‘quv-uslu biy majmua). Toshkent, 2012 yil.
4. Boboyorov G‘.G‘arbiy Turk xoqonligi ilk tangalari. // Moziydansado. 1,(33) 2007. - B. 24-25.
5. Rahmatullayeva O. Salomov J. Numizmatika. – T., Fan va texnologiyalar, 2012.
6. M.Is’hoqov, I.Xudaynazarov_Yordamchi Tarixiy Fanlar_(o‘quv-qo‘llanma).Toshkent-“Noshir”_2019-yil.
7. Бабаяров Г. Древнетюркскиэ монеты Чачского оазиса. (VI-VII вв. н.э.). – Т. Изд- во Националной библиотеки Узбекистана имени А.Навои. 2007.
8. Boboyorov, G‘. B. 2019. “Qadimgi turkcha unvonli Toxoriston tangalari”. O‘zbekiston: til va madaniyat 2: 74–100.

IRISBOYEV F.B.

Jizzax politexnika instituti

katta o‘qituvchisi

MADANIY MEROSNING MUZEYLASHUVI

Abstract. *The museumization of cultural heritage refers to the process of preserving, displaying, and interpreting cultural artifacts and traditions through museums and related institutions. This process plays a critical role in safeguarding the tangible and intangible aspects of cultural identity, providing a platform for the education, appreciation, and understanding of diverse cultures. This paper explores the historical evolution of museumization, examining the transition from traditional to modern methods of preserving and exhibiting cultural heritage.*

Keywords. *Cultural heritage, museumization, historical artifacts, art collections, archaeological finds, cultural identity, heritage preservation, conservation, museums, historical memory, digitalization, virtual museums, cultural exchange, international collaboration, national museums, cultural tourism, cultural traditions, heritage interpretation, cultural heritage protection, restoration of cultural landmarks, indigenous communities, museum exhibitions, museumization process, scientific research, museum technologies.*

Annotatsiya. *Madaniy merosning muzeylashuvi jarayoni madaniy obidalar va an'analarni muzeylar orqali saqlash, namoyish etish va tadqiq etish jarayonini anglatadi. Bu jarayon madaniy merosning jismoniy va ma’naviy jihatlarini asrab-avaylash, turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada madaniy merosning muzeylashuvi tarixi o‘rganilib, an'anaviy usullardan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga o‘tish jarayoni tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamlashtirish, madaniy obidalarni saqlash va keng jamoatchilikka taqdim etishda qanday yangi imkoniyatlar yaratgani ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar. *Madaniy meros, muzeylashuv, tarixiy yodgorliklar, san'at asarlari, arxeologik topilmalar, madaniy identitet, madaniy merosni saqlash, konservatsiya, muzeylar, tarixiy xotira, digitalizatsiya, virtual muzeylar, madaniy almashuv, xalqaro hamkorlik, san'at kolleksiyalari, milliy muzeylar, madaniy turizm, madaniy an'analar, muzeylashuv jarayoni, ilmiy tadqiqotlar, muzey texnologiyalari.*

Madaniy merosning muzeylashuvi – bu madaniy ob'ektlar, san'at asarlari, arxeologik topilmalar va boshqa tarixiy qiymatga ega bo‘lgan materiallar va an'analarning muzeylarda saqlanishi, ko‘rsatilishi va talqin etilishidir. Bu jarayon, insoniyat tarixining turli davrlarida o‘zgarib, rivojlanib kelgan bo‘lib, madaniy merosni himoya qilish, uni kelajak avlodlarga yetkazish va xalqlarning madaniy identitetini saqlashda muhim o‘rin tutadi. Madaniy merosning muzeylashuvi jarayoni qadimiy davrlarga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi ming yilliklarda,

ayniqsa, qadimgi Misr, Gretsiya va Rimda hukmdorlar va boylar tomonidan o‘zlarining boyliklarini saqlash maqsadida turli xil kolleksiyalar to‘plangan.

Bu kolleksiyalar asosan maxsus saroylar yoki xususiy bog‘larda saqlangan. Ular ko‘pincha davlat hokimiyatining kuchini va boyligini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan edi. Shunga qaramay, bu davrda madaniy ob'ektlarning umumiy omma uchun taqdim etilishi haqida gapirish qiyin edi. O‘rta asrlarda madaniy merosning muzeylashuvi ancha sekin rivojlandi, chunki bu davrda san'at asarlari va ilmiy kashfiyotlar asosan diniy maqsadlar uchun ishlatilgan. Lekin Renessans davrida san'at va ilm-fan sohasidagi yuksalish bilan birga, muzeylarga bo‘lgan qiziqish kuchaygan. Bu davrda ko‘plab xususiy san'at kolleksiyalari va tabiatshunoslik muzeylari tashkil topdi. Renessansning ma’rifatparvarlik ruhida, madaniy ob'ektlarni jamlash va ommalashtirish tushunchasi rivojlandi.[1-5]

XIX asrda sanoat inqilobi va ilmiy rivojlanishlarning ta’sirida madaniy merosning muzeylashuvi jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda davlatlar o‘zlarining tarixiy va madaniy yodgorliklarini ommaga taqdim etish, ularni saqlash va ilmiy tekshirishni boshladilar. Shuningdek, muzeylar ilmiy va ma’rifatparvarlik markazlariga aylana boshladi, turli xalqlar va madaniyatlar haqida ko‘proq ma’lumot tarqatildi. Birinchi milliy muzeylar ochildi, ularning asosiy vazifasi xalqning tarixini va madaniyatini saqlash edi. Misol uchun, Britaniya muzeyi 1753 yilda tashkil etildi, bu muzey juda ko‘plab madaniy yodgorliklarni yig‘ib, umumiy ommaga taqdim etdi.[6-8]

XX asrga kelib, madaniy merosning muzeylashuvi jarayoni yanada global xarakterga ega bo‘ldi. Muzeylar nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib, ular madaniy almashuvlar va ilmiy izlanishlar markaziga aylandi. Shu davrda, shuningdek, muzeylashuv jarayonida yangi texnologiyalar, masalan, fotografiya, kinofilm va kompyuter texnologiyalari, keng qo‘llanila boshlandi. Bu texnologiyalar madaniy ob'ektlarni saqlashda, ularni tahlil qilishda va taqdim etishda katta yordam berdi. Bugungi kunda, madaniy merosning muzeylashuvi faqatgina eski ob'ektlarni saqlash bilan cheklanmaydi. Yangi texnologiyalar, masalan, 3D modellash, virtual reallik (VR) va raqamli arxivlash, madaniy ob'ektlarni saqlash va taqdim etishning samarali usullariga aylangan. Shuningdek, madaniy merosning muzeylashuvi jarayonida xalqaro hamkorlik va madaniyatlararo almashuv muhim o‘rin tutmoqda. Bugungi kunda, muzeylar faqatgina tarixiy ob'ektlarni saqlash joyi emas, balki ta’lim va madaniy o‘zaro tushunishni rivojlantirish uchun muhim platformadir. Shuningdek, zamonaviy muzeylar ko‘proq interaktiv va ko‘p madaniyatli bo‘lib, ko‘rgazmalarni tomoshabin bilan bevosita aloqada bo‘lish imkonini yaratadi.[9-10]

Madaniy merosning muzeylashuvi tarixi juda uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, u doimiy ravishda o‘zgarib, yangi talablar va imkoniyatlarga moslashgan. Bu jarayonning asosiy maqsadi – tarixiy, madaniy va san'at asarlarini saqlash va ularga keng omma tomonidan murojaat qilish imkoniyatini yaratishdir. Muzeylar bu vazifani o‘z ichiga olgan holda, insoniyatning madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazish va tushunishga yordam beradigan muhim muassasalardir. Madaniy meros va turizm o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida ko‘plab qiziqarli fikrlar aytish mumkin. Bu mavzu, ayniqsa, madaniy obidalar va tarixiy joylarni turistlarga taqdim etish orqali madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Turizm,

madaniy merosni saqlash va himoya qilish uchun muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Turistlar tomonidan qadrlanadigan va tashrif buyuriladigan madaniy obidalar va tarixiy joylar davlat va jamoat tomonidan ko‘proq e'tibor va mablag‘ jalb etilishini ta’minlaydi.

Madaniy merosni turizm orqali targ‘ib qilish, iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin. Turizm sanoati madaniy merosning yaxshilanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi, bu esa o‘z navbatida yangi ish o‘rinlari va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Madaniy merosni turistlarga taqdim etish jarayonida ba’zi etik masalalar yuzaga keladi. Bunga madaniy obidalar va an'analarni mas'uliyat bilan taqdim etish, mahalliy aholi bilan munosabatlarni hurmat qilish va madaniy merosni ekspluatatsiya qilmaslik kiradi. Madaniy merosni turizm orqali targ‘ib qilish, uning global miqyosda tan olinishi va xalqaro miqyosda aloqalar o‘rnatilishi imkonini yaratadi. Madaniy obidalar va tarixiy joylar, turizm vositasida nafaqat iqtisodiy foyda, balki madaniy o‘zlikni saqlash va xalqaro miqyosda tushunishni oshirishga ham yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, raqamlashtirish, virtual turizm va interaktiv ko‘rgazmalar, madaniy merosni yanada kengroq auditoriyaga taqdim etishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, madaniy obidalarni uzoq masofadan tashrif buyuruvchi turistlarga ham taqdim etish imkonini yaratadi. Hozirgi kunda juda dolzarb va qiziqarli. Zamonaviy raqamli texnologiyalar madaniy merosni saqlash, tadqiq qilish va targ‘ib qilishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu borada bir nechta muhim jihatlarni ko‘rib chiqish mumkin Madaniy obidalar, san'at asarlari, qo‘lyozmalar, kitoblar va boshqa madaniy meros namunalarini raqamlashtirish ularning saqlanishi va o‘tkir klimat yoki tabiiy ta’sirlar tufayli yo‘qolishining oldini olishga yordam beradi. Raqamli nusxalar, asl asarlarni xavf-xatarlardan himoya qilish imkoniyatini yaratadi va keng auditoriya uchun ularga kirishni ta’minlaydi.

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari orqali foydalanuvchilar madaniy obidalar va tarixiy joylarni masofadan turib ko‘rishlari mumkin. Masalan, tarixiy joylarni yoki arxeologik hududlarni virtual sayohat qilib ko‘rish, foydalanuvchiga o‘sha davrni va muhitni jonli tarzda tajriba qilish imkonini beradi. AR texnologiyalari esa foydalanuvchiga haqiqiy dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatini taqdim etadi, masalan, arxitektura yodgorliklarini ko‘rish yoki tarixiy voqealarni interaktiv tarzda o‘rganish.[11-15]

Raqamli arxivlar va onlayn kutubxonalar orqali madaniy merosni dunyo bo‘ylab osonlik bilan tarqatish mumkin. Shu tarzda, ilmiy tadqiqotlar, kitoblar, rasmlar, video va audiomateriallar ko‘plab foydalanuvchilarga ochiq va erkin kirish imkoniyatini yaratadi. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi odamlarga yoki madaniy obidalar uzoq joylarda joylashgan bo‘lsa, foydalidir. Raqamli texnologiyalar yordamida madaniy merosni targ‘ib qilishning yangi usullari ishlab chiqilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, veb-saytlar va YouTube kabi platformalar orqali tarixiy va madaniy materiallarni keng jamoatchilikka taqdim etish mumkin. Bu, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida madaniy merosni qadrlash va unga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Madaniy merosni yangi avlodga o‘rgatish jarayonida interaktiv ta’lim metodlari va raqamli kurslar samarali vosita bo‘la oladi. Madaniy obidalar, tarixiy

yodgorliklar, san'at asarlari va an'anaviy bilimlarni o‘rgatish uchun onlayn kurslar, mobil ilovalar va o‘quv materiallari orqali yangi avlodni targ‘ib qilish imkoniyatlari mavjud. Raqamli texnologiyalar madaniy merosning konservatsiyasi va tahlilida ham muhim o‘rin tutadi. 3D skanerlash, lazerli skanerlash va boshqa yuqori texnologik usullar yordamida madaniy obidalar va san'at asarlarini 3D formatda tiklash, ularning holatini baholash va konservatsiya qilish jarayonlarini osonlashtiradi. Raqamli texnologiyalar nafaqat madaniy merosni saqlash, balki yangi san'at shakllarini yaratishga ham imkon beradi. Raqamli san'at, video san'ati, interaktiv ko‘rgazmalar va boshqa yangi shakllar madaniy merosni yangi avlod uchun qiziqarli va dolzarb qilishda yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, digital texnologiyalar madaniy merosni saqlash, tadqiq qilish, targ‘ib qilish va yangi shakllarda ifodalashda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayon madaniy merosni yangi avlod uchun qadrlash, ularga o‘rgatish va global miqyosda uni yanada kengroq targ‘ib qilish uchun samarali vosita hisoblanadi. Madaniy meros insoniyat tarixining ajralmas qismidir. U nafaqat tarixiy, balki ilmiy, san'at va ijtimoiy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

Madaniy ob'ektlar va an'analarning muzeylashuvi jarayoni ularni saqlash, ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanish va umumiy ommaga taqdim etishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu jarayon bir qancha muammolar va qiyinchiliklarga duch keladi, ayniqsa madaniy merosning buzilishi va uni muzeylarda saqlashda yuzaga keladigan etik, texnik va moliyaviy masalalar. Madaniy merosning buzilishi, uning yo‘qolishi yoki shikastlanishi ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Bu omillar tabiiy va inson tomonidan yaratilgan bo‘lishi mumkin. Tabiiy ofatlar, masalan, zilzila, suv toshqinlari, yong‘inlar va boshqa tabiiy hodisalar madaniy ob'ektlar va yodgorliklarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. O‘zbekiston kabi tarixiy obidalar ko‘plab tabiiy ofatlarga duch kelgan mintaqalarda joylashgan, bu esa ularning saqlanishi uchun doimiy xavf tug‘diradi. Madaniy merosning buzilishiga sabab bo‘ladigan yana bir omil bu urushlar, ziddiyatlar va siyosiy instabilitetdir. Tarixiy yodgorliklar va san'at asarlari ko‘pincha urushlar va janjallar natijasida yo‘qolgan yoki talon-taroj qilingan. Masalan, ikkinchi jahon urushi yoki boshqa halokatli mojarolar vaqtida ko‘plab san'at asarlari o‘g‘irlangan va halok bo‘lgan. Madaniy ob'ektlarning buzilishi yoki yo‘qolishi ko‘pincha inson faoliyati bilan bog‘liq. Vandalizm, o‘g‘irlik va beparvolik, shuningdek, to‘g‘ri saqlash yoki konservatsiya qilmaslik kabi amaliyotlar madaniy merosni xavf ostiga qo‘yadi. Ayniqsa, arxeologik qazishmalar yoki tarixiy joylarga beparvo munosabatda bo‘lish bu jarayonni tezlashtiradi. Muzeylashuv, madaniy merosni saqlash, ilmiy tahlil qilish va ommaga taqdim etish jarayonida ko‘plab muammolar yuzaga keladi. Bu muammolar ba’zan texnik, ba’zan esa etik yoki moliyaviy bo‘lishi mumkin. Madaniy ob'ektlarning saqlanishi uchun samarali konservatsiya usullari zarur. Bu esa maxsus bilim, texnologiya va resurslarni talab qiladi. Masalan, eski san'at asarlari, yozuvlar yoki qadimiy kitoblar saqlanishi uchun mos sharoitlar yaratish kerak, chunki ular juda oson shikastlanadi. Ko‘plab muzeylar o‘z kolektsiyalarini saqlash uchun zarur bo‘lgan texnik vositalar va bilimga ega emas. Madaniy merosni saqlash va uni muzeyda ko‘rsatish juda katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi.

Muzeylar, ayniqsa, kichik yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda, o‘z kolleksiyalarini saqlash va yangilash uchun yetarlicha mablag‘ga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ko‘plab muhim madaniy ob'ektlar va yodgorliklarning xavf ostida qolishiga olib keladi. Madaniy merosni muzeylashuvi jarayonida eng katta etik muammolardan biri bu madaniy merosning asosiy egalarining, ya’ni indigene xalqlarining, huquqlarining hurmat qilinmasidir. O‘tmishda ko‘plab xalq va madaniyatlarning ob'ektlari o‘zlarining o‘tmish hududlaridan olib chiqilgan va boshqa joylarga joylashtirilgan, bu esa ular uchun zarur bo‘lgan madaniy kontekstni yo‘qotilishiga olib kelgan. Hozirgi kunda bu jarayonni tartibga solish va bu ob'ektlarni qaytarish masalasi dolzarbdir. Muzeylar madaniy merosni ko‘rsatayotganda, ba’zan ob'ektlarning haqiqiy konteksti yoki ularning xalqlar uchun ahamiyati noto‘g‘ri talqin qilinadi. Madaniy appropriya, ya’ni boshqa bir madaniyatdan elementlarni ruxsatsiz va noto‘g‘ri shaklda olish, muzey ko‘rgazmalarining etikasiga ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek, ba’zi ob'ektlar yoki san'at asarlarini ko‘rsatishda xalqning ruxsati olinmasligi yoki ular uchun muhim bo‘lgan ma’nolarni e'tiborga olmaslik kabi muammolar mavjud.

Madaniy merosning buzilishi va muzeylashuv jarayonidagi muammolar insoniyat uchun jiddiy muammolardir. Madaniy ob'ektlarni va tarixiy yodgorliklarni saqlash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish, va ularning haqiqiy ahamiyatini to‘g‘ri ko‘rsatish har bir jamiyatning ma’naviy va madaniy mas'uliyatidir. Shu bilan birga, texnik imkoniyatlar, moliyaviy resurslar va etik jihatlar muzeylashuv jarayonini davom ettirishda asosiy rol o‘ynaydi. Madaniy merosni himoya qilish va uning muzeylashuvi jarayonini yanada rivojlantirish uchun global hamkorlik va ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1, Boymirzayevich, I. F. (2023). THE INPUTS ARE ON INSERTED SILICON NON-BALANCED PROCESSES.

2, Boymirzayevich, I. F. (2024). SINXRON MOSHINALARNING TURLARI VA TUZILISHI.

3. Boymirzayevich, I. F. (2024). TYPES AND STRUCTURE OF SYNCHRONOUS MACHINES.

4. Irisboyev, F. (2024). THE PLACE OF NANOTECHNOLOGY IN THE PRESENT TIME. *Modern Science and Research*, *3*(1), 52-56.

5. Irisboyev, F. (2024). THE IMPORTANCE OF ENERGY USE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, *3*(1), 78-81.

6. Irisboyev, F. (2024). THE IMPORTANCE OF ENERGY USE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, *3*(1), 78-81.

7. Irisboyev, F. B., & Mukhtorov, D. N. U. (2024). TECHNOLOGY OF MANUFACTURING OF SOLAR ELEMENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *4*(2), 107-110.

8. Irisboyev, F., & Qayumov, D. (2024). FEATURES AND AREAS OF USE OF DIGITAL MICROCIRCUITS. DIGITAL SIGNAL REFLECTION DEVICES. *Interpretation and rese*

9. Irisboyev, F. B. (2024). VAKUUMLI FLUORESSENT INDIKATORLARI. *Iqtisodiyot va jamiyat* , (3-2 (118)), 144-147.

10. Irisboyev, F. B., & Qayumov, D. S. (2024). An’anaviy va noan’anaviy USULLAR. *Ta’lim fanlari bo‘yicha akademik tadqiqotlar* , (2), 90-93.

ABDUSATTAROVA Madina Xusnuddinovna

TODJIDINOV Umid Todjidinovich
O‘zDSMI

utodjidinov@gmail.com

MADANIY MEROSNI MUZEYLASHTIRISH, SAQLASH VA TARG‘IB ETISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada madaniy meros bilan bog‘liq bo‘lgan muzeyologik jarayonlar, jumladan tadqiqot metodologiyalari, amalga oshirish strategiyalari, saqlash va targ‘ib qilish tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish va uning qadr-qimmatini oshirishda muzeylar va zamonaviy usullarning ahamiyati ta’kidlandi. Maqolada madaniy merosni muhofaza qilishning yangi yondashuvlari, raqamlashtirishning ahamiyati va milliy va xalqaro tajribaga tayangan holda meros artefaktlarini himoya qilishdagi zamonaviy muammolar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: madaniy meros, muzeyshunoslik, konservatsiya, tadqiqot, targ‘ibot, raqamlashtirish, innovatsion texnikalar, meros ashyolari, milliy o‘ziga xoslik, madaniy qadriyatlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются музеологические процессы, связанные с культурным наследием, включая методологии исследования, стратегии реализации, принципы сохранения и продвижения. Была подчеркнута важность музеев и современных методов передачи культурного наследия будущим поколениям и повышения его ценности. В статье рассматриваются новые подходы к охране культурного наследия, значение цифровизации и современные проблемы защиты артефактов наследия, основанные на национальном и международном опыте.*

Ключевые слова: *культурное наследие, музееведение, консервация, исследование, пропаганда, цифровизация, инновационные технологии, предметы наследия, национальная идентичность, культурные ценности.*

Abstract. *This article examines museological processes related to cultural heritage, including research methodologies, implementation strategies, and principles of preservation and promotion. The importance of museums and modern methods in conveying cultural heritage to future generations and enhancing its value was emphasized. The article examines new approaches to the protection of cultural*

heritage, the importance of digitalization, and contemporary challenges in protecting heritage artifacts, drawing on national and international experience.

Keywords: *cultural heritage, museology, conservation, research, promotion, digitalization, innovative techniques, heritage items, national identity, cultural values.*

Kirish. Madaniy meros insoniyat sivilizatsiyasining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, uni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda muzeyshunoslik, madaniy boyliklarni tadqiq etish, saqlash va targ‘ib qilish tamoyillari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixan har bir xalq o‘zining ming yillik an’analari, urf-odatlari va marosimlari bilan ajralib turadigan o‘ziga xos ma’naviyatga ega bo‘lgan. Buni, albatta, inson ma’naviyatiga tegishli turli xil qo‘shimcha tushunchalarga murojaat qilish orqali kengaytirish mumkin. Biroq, boshqa madaniyatlar orasida guvoh bo‘lish qiyin bo‘lgan oddiy odamlar ishonadigan va qiladigan ma’naviy va diniy faoliyat va marosimlar mavjud. Har bir madaniyatning o‘ziga xosligini o‘zida mujassam etgan bu an’ana tarixan xalq og‘zaki adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi uchun uzviy bo‘lib kelgan. Har bir madaniyatda uchraydigan bu o‘ziga xos meros ularni bir-biridan ajratib, madaniyatlararo boyligini namoyish etdi. Global dinamikaning tezlashishi moddiy va ma’naviy sohalarda ko‘plab o‘zgarishlarga olib keldi. Shunday qilib, ilg‘or madaniyatlar barcha sohalarda o‘z vakolatlarini namoyish qila boshladilar.

Adabiyotlar sharhi. Boymirzayev B. Madaniy merosni muhofaza qilish: nazariya va amaliyot (2020) – Ushbu nashr madaniy merosni saqlash va muzeyshunoslikka oid nazariy asoslar va empirik tadqiqotlarni belgilaydi. Shonazarov A. “Muzeyshunoslik asoslari” (2018) – Bu ishda muzeyshunoslikning birlamchi sohalari, shuningdek, muzey eksponatlarini saqlash va targ‘ib qilish metodologiyalari ko‘rib chiqilgan. ICOM (Xalqaro Muzeylar Kengashi) hujjatlari - Muzey faoliyatini tashkil etish va madaniy boyliklarni jahon miqyosida tan olingan standartlarga muvofiq saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar. Niyozova M. O‘zbekiston muzeylarida madaniy merosni saqlash (2021) – O‘zbekistonda muzey faoliyati, saqlash tamoyillari va milliy amaliyotlar ekspertizasi. YuNESKO resurslari - Madaniy merosni saqlash va takomillashtirish bo‘yicha global sa’y-harakatlar va ko‘rsatmalar. Ushbu manbalar maqolada bayon etilgan tushunchalarni tasdiqlash, isbotlash, muzeyshunoslik va madaniy merosni muhofaza qilishning ilmiy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun zarurdir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot tarixiy va madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish va saqlash bo‘yicha jahon amaliyotini o‘rgandi. Unda qo‘shimcha ravishda muzey faoliyati, arxiv fani va madaniy meros targ‘ibotiga oid ilmiy maqolalar va statistik ma’lumotlardan foydalanilgan. Tadqiqot empirik va nazariy metodologiyalarni birlashtirgan va tahliliy usullardan foydalangan. Erkinlikka erishilishi bilan nomoddiy madaniy merosimiz ham xuddi shunday jonlandi. Bu atama so‘nggi yillarda paydo bo‘lganiga qaramay, uning asosiy o‘zagi va kelib chiqishi xalqimizning bilim, ko‘nikma, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, sahna san’atlarini o‘z ichiga olgan og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan qadimgi xalq og‘zaki ijodi va milliy hunarmandchilikka borib taqaladi. Hozirgi vaqtda fan sifatida o‘rnatilgan va global miqyosda tan olingan bu tushuncha globallashuv hodisasi bilan

bog‘liq. Madaniyatlarning jahon miqyosida uyg‘unligi - omma madaniyati xavf ostida qolgan bir davrda har bir jamoaning urf-odatlari, marosimlari va an'analarini muhokama qilish zarur. Bunga javoban, bugungi kunda insonlar o‘z milliy o‘ziga xosligi va merosini saqlab qolish, uni himoya qilish va kelajak avlodlarga etkazish borasida katta sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda. YUNESKO 1990-yillarda insoniyatning nomoddiy madaniy merosini saqlash tarafdori edi. Ushbu tashkilot moddiy merosni asrab-avaylash bo‘yicha protokol va tamoyillarni o‘rnatgan va nomoddiy meros bo‘yicha tashabbus ushbu sohadagi dastlabki chora-tadbirlardan biri edi. 2001 yilda YuNESKO nomoddiy madaniy boyliklarning konsensus ta’rifini shakllantirish uchun a’zo davlatlar va nodavlat tashkilotlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazdi. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konventsiya 2003-yil 17-oktabrda Parijda ma’lum bir ta’rif o‘rnatilgandan keyin qabul qilingan.

Mamlakatimiz ushbu Konventsiyani 2008 yilda ratifikatsiya qilgan va unga a’zo bo‘lgan. Nomoddiy madaniy meros masalasi rasmiy siyosat darajasiga ko‘tarildi. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli qaroriga asosan 2010-2020-yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturining amalga oshirilishi muhim tarixiy bosqich bo‘ldi. Ushbu tashabbusni amalga oshirishda respublikamizdan 38 ta tashkilot va muassasalar ishtirok etdi. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiy markazi davlat va nodavlat tashkilotlarning nomoddiy madaniyat boyliklari masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi organi etib belgilandi. Tarixiy, badiiy, ilmiy, estetik, etnologik yoki antropologik nuqtai nazardan baholangan favqulodda umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy meros artefaktlari Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga yoki Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga, agar tegishli bo‘lsa, Butunjahon Konventsiyasiga muvofiq, Madaniy va tabiiy meros va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konventsiya. Madaniy meros ob'ektlarini Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga yoki Insoniyatning nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha takliflar Butunjahon merosi qo‘mitasi va BMTning nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasining qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi. bu artefaktlarni baholash. Yuridik va jismoniy shaxslar hujjatlarni YuNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasiga taqdim etadilar. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish chora-tadbirlari ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, qayd etish va targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qarori bilan “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi” tasdiqlandi. Davlat dasturining bajarilishini nazorat qilish; va har yili Vazirlar Mahkamasiga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlar taqdim etish. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy faoliyat ilmiy-metodik markazining moddiy-texnologik bazasini mustahkamlash; Nomoddiy madaniy meros ob'ektlari reestriga kiritilgan nomoddiy madaniy meros ob'ektini ekspertizadan o‘tkazish va hujjatlashtirish ko‘pincha ob'ekt joylashgan joyda amalga oshiriladi. Ushbu ishda mustaqil ekspert sifatida davlat organlari, ilmiy muassasalar, nodavlat notijorat

tashkilotlari vakillari, alohida tadqiqotchilar, nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish hamda tadqiq etish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ishtirok etishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan, Markaz tomonidan mustaqil mutaxassislar bilan belgilangan tartibda shartnomalar rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Nomoddiy madaniyat boyliklarini muhofaza qilish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarori qabul qilindi. Nomoddiy madaniy boyliklarni muhofaza qilish va kelajak avlodlarga o‘tkazish to‘g‘risidagi bayonnoma 2024-yil 1-apreldan kuchga kiradi: a) noyob va (yoki) yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan nomoddiy madaniy meros namunalari uchun: birinchi bosqichda Madaniyat vazirligi ushbu toifadagi madaniy meros namunalari saqlovchisi bo‘lgan 20 nafar shaxsni aniqlaydi. nomoddiy madaniy meros namunalarini asrab-avaylash, ularni ommalashtirish va kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha faoliyatiga ko‘maklashadi hamda bu boradagi faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari belgilanadi; nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlaydigan va ushbu ko‘rsatkichlarga mos keladigan jismoniy shaxslar Madaniyat vazirligining byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan oyiga 5 million so‘m miqdorida rag‘batlantiriladi; b) alohida ahamiyatga ega bo‘lgan nomoddiy madaniy meros namunalari uchun: nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ‘ib qilish, shu jumladan internet va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi; audiovizual asarlar yaratishga davlat buyurtmasi Madaniyat vazirligi tomonidan tuziladigan tegishli shartnoma asosida amalga oshiriladi. Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, “Hunarmand” birlashmasi, Madaniy meros agentligining “tayyorlash – tarbiyalash – restavratsiya – asrab-avaylash – ommalashtirish” kompleks uzluksiz tizimi orqali nomoddiy madaniy meros namunalarini yaratish bo‘yicha taklifi ma’qullandi. Shu nuqtai nazardan, tajriba tariqasida Farg‘ona viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi va “Hunarmand” uyushmasi bilan hamkorlikda Rishton xalqaro kulolchilik markazi va Marg‘ilondagi hunarmandchilik markazida quyidagilarni taklif etadi: Atlas va adres mahsulotlari, kulolchilik buyumlari bilan birgalikda ishlab chiqariladi; ularning yaratilishi “ustoz-shogird” modeli orqali yoshlarga yetkaziladi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar, ko‘rgazmalar va namoyishlar o‘tkaziladi va ularning marketingi rivojlantiriladi. “Milliy merosga mening hissam!” jamoatchilik tashabbusi doirasida davlat muassasalari uchun namunali kulolchilik buyumlari xarid qilish barobarida ko‘rgazmalar, atlaslar va manzil buyumlari bilan jihozlangan doimiy muassasa quriladi.

Qarorda quyidagi bandlar tasdiqlandi: Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy va amaliy metodologiyalar orqali har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish strategiyasi; Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish, uning asosiy vazifalari bilan bir qatorda ko‘rib chiqilishi zarur; nomoddiy madaniy meros namunalari to‘plami, ular uchun nomzodlik hujjatlari YuNESKOning xalqaro ro‘yxatiga kiritish uchun tayyorlanmoqda; 2024 yildan 2026 yilgacha nomoddiy madaniy merosni ilmiy ekspertizadan o‘tkazishga qaratilgan mahalliy va xalqaro

etno-folklor ekspeditsiyalarini muvofiqlashtirish loyihasi; 2024 yildan 2026 yilgacha nomoddiy madaniy meros obyektlarini ilmiy tadqiq etish va targ‘ib qilish uchun fundamental va maqsadli jamg‘armalar bo‘yicha davlat buyurtmalari rejasi; 2024 yildan 2026 yilgacha nomoddiy madaniy meros namunalarini elektron hujjat sifatida rasmiylashtirish rejasi; Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutini 2024 yildan 2026 yilgacha rivojlantirish bo‘yicha birlamchi samaradorlik ko‘rsatkichlari; 2024-yilda nomoddiy madaniy merosni saqlash, ilmiy tadqiq qilish va targ‘ib qilishni doimiy qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish bo‘yicha strategik reja.

“Qadriyat” elektron platformasi va uning mobil ilovasini tashkil etish, tegishli elektron xizmatlar va resurslar bilan integratsiyalashgan holda 2024-yil 1-oktabrga qadar yakunlanishi rejalashtirilgan. “Qadriyat” elektron platformasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: nomoddiy madaniy meros saqlovchilari va tashuvchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, jumladan, maqom va baxshichilik san’ati namunalari hamda to‘liq ro‘yxat; maqom va baxshichilik san’ati namunalarini, shuningdek ular bilan bog‘liq matn, foto va boshqa audiovizual materiallarni o‘z ichiga olgan nomoddiy madaniy meros obyektlarini elektron hujjatlashtirish va hisobga olish; mavzu bo‘yicha jahon va respublika miqyosida o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, mahalliy va xalqaro etno-folklor ekspeditsiyalari hujjatlari, xalqaro reyestrlarda qayd etilgan nomoddiy madaniy meros namunalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar chop etiladi va izchil yangilanadi; “Qadriyat” elektron platformasini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi, Institut elektron platformani doimiy ravishda modernizatsiya qilish, texnik ko‘mak va funksionalligini kafolatlaydi.

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: madaniyat sohasi tarkibidagi madaniyat muassasalarining normativ-huquqiy bazasi, institutsional tuzilishi va faoliyatini ilmiy-amaliy ekspertizadan o‘tkazish, shuningdek, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish; xalqimizning ma’naviy-axloqiy va madaniy saviyasini yuksaltirish, yurtdoshlarimizni ham milliy, ham jahon madaniyatining ibratli namunalari bilan ta’minlash, jamiyatning madaniy-estetik talablarini qondirish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish; Madaniyat markazlari, teatrlar, sirk muassasalari, konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog‘lari, shuningdek, madaniy-ommaviy tadbirlar, konsert tomoshalari, gastrol tadbirlari, xalq amaliy san’ati, hunarmandchilik, amaliy san’at va xalq o‘yinlari faoliyatini ilmiy-uslubiy ta’minlash bilan birga, ularning faoliyatini tizimli tekshirish; Madaniyat, san'at, badiiy ijod, madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros sohalarida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanish; etno-folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish; ushbu sohalarda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish; milliy va xalqaro darajada ilmiy va amaliy grant loyihalarini amalga oshirish. O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishni tashkil etishning nazariy va ilmiy uslubiy asoslarini yaratish; mamlakatda nomoddiy madaniy meros obyektlarining milliy reestrini yuritish,

hujjatlashtirish, saqlash va monitoringini olib borish, ushbu sohadagi davriy hisobotlarni tayyorlash va doimiy ravishda yangilab turishni ta’minlash, ularning namunalarini xalqaro e’tirof etilgan ro‘yxatlarga kiritish uchun tegishli hujjatlarni ishlab chiqish; Nomoddiy madaniy merosni ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish va targ‘ib qilish, shu bilan birga ushbu sohada ilmiy asoslangan metodologiyalarni ilgari surish; Barcha ta’lim usullari bo‘yicha nomoddiy madaniy merosga oid audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar, turli ilmiy-uslubiy materiallarni o‘z ichiga olgan ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ayni paytda mamlakatimiz tavsiyalaridan so‘ng 14 ta obyekt YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi O‘zbekistondagi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan. Shashmaqom (Tojikiston bilan hamkorlikda, 2008); Boysun madaniy muhiti (2008); Navro‘z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg‘iziston, Pokiston va Turkiya bilan hamkorlikda, 2009 yil). Tojikiston, Afg‘oniston, Iroq, Qozog‘iston va Turkmaniston ham 2016-yildan buyon bu davlatlar tarkibiga yangilangan tarkibda qo‘shildi; Katta Ashula (2009); Askiya (2014); Pavlov madaniyati va an'analari (2016); Xorazm raqsi "Lazgi" (2019); Miniatyura san'ati (Ozarbayjon, Eron va Turkiya bilan birgalikda, 2020); Baxshi san’ati (2021); Xoja Nasriddin haqidagi hikoyalarni takrorlash an’analari (2022); Ipchilik va to‘quvchilik uchun an’anaviy ipakchilik (2022); “O‘zbekistonda kulolchilik san’ati” (2023); “Dekorativ san’at: rangtasvir” (2023 yil Eron, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkiya bilan hamkorlikda); “Iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an’analari” (2023). Nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, asrash, targ‘ib qilish va kelajak avlodlarga yetkazish umumiy mas’uliyatimizdir.

Natijalar va muhokama. Madaniy meros muzeyshunosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muzeylar ham tarixiy ashyolarni saqlash, ham ularni ommaviy ko‘rgazma va ilmiy tekshirish maskanlariga aylanib bormoqda. Muzeylarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, interfaol ko‘rgazmalar tashkil etish va virtual muzeylarni rivojlantirish madaniy merosni ommaga yetkazishning muvaffaqiyatli usullari sifatida e’tirof etilgan. Madaniy boyliklarni saqlab qolishda konservatsiya va restavratsiya ishlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar va ilg‘or texnologiyalar qo‘llaniladi. Madaniy merosni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va internet platformalarining ta’siri bir vaqtning o‘zida kuchaymoqda.

Xulosa. Muzeyshunoslik, madaniy boyliklarni o‘rganish, saqlash va targ‘ib qilish tushunchalari kompleks yondashuvni taqozo etadi. Innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorlik madaniy merosni asrab-avaylash va uning ommaga ochiqligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kelajakdagi urinishlar ushbu sohadagi tadqiqotlarni kengaytirish va yangi metodologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2011-yil 23fevraldagi 47-son qarori
2. M.Xolmo‘minov. O‘zbekiston madaniyati va san’ati. // O‘zDSMI xabarlari jurnali. – Toshkent: 2024/2(29). – B. 116
3. Vazirlar Mahkamasining “2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qarori
4. D.Chinpo‘latov. Nomoddiy madaniy meros va yoshlar. BMI. //Toshkent – 2019. 79 b
5. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-sonli qarori
7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2022). Madaniy merosni saqlash bo‘yicha davlat dasturi.

SAIDOVA Saidaxon Madamin qizi
O‘zbekiston davlat san’at muzeyi
yetakchi mutaxassis.
saidovasaidaxon952@gmail.com

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN XVIII–XIX ASRLARGA OID RUS VA G‘ARBIY YEVROPA KOLLEKSIYASIDAGI GARDNER FARFOR TO‘PLAMI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVIII–XIX asr Rossiya farfor buyumlari tarixi o‘rganildi. Gardner farfor zavodi haqida batafsil ma’lumot berilishi bilan birga O‘zbekiston davlat san’at muzeyida saqlanayotgan Rus farfor buyumlari va ekspozitsiyasidan o‘rin olgan Gardner farfor zavodiga oid bo‘lgan choy to‘plamining kelib chiqish va shakllanish tarixini to‘liq tasnifi o‘rganilgan bo‘lib, uning yangiligi shundan iboratki, muzey kolleksiyalaridagi XVIII–XIX asr rus farfor san’ati Gardner farfor zavodi shakllanishi va rivojlanishi hamda,zavodga tegishli bo‘lgan choy to‘plami va farfor idishlar yanada chuqurroq o‘rganilishi va tahlil qilinishidir.*

Kalit so‘zlar*:O‘zbekiston, muzey, ekspozitsiya, eksponat, farfor, fayans, katalog, Gardner, kolleksiya.*

Abstract: *This article explores the history of Russian porcelain items from the 18th–19th centuries. It provides detailed information about the Gardner Porcelain Factory and examines the Russian porcelain items preserved in the Uzbekistan State Museum of Art, particularly focusing on a tea set from the Gardner Porcelain Factory displayed in the museum’s exhibition. The study offers a complete*

classification of the origin and formation history of this tea set. The novelty of the research lies in the in-depth analysis and study of 18th–19th century Russian porcelain art within the museum collections, focusing on the development of the Gardner Porcelain Factory and its porcelain products, including the tea set and other porcelain items.

Keywords: *Uzbekistan, museum, exhibition, exhibit, porcelain, faience, catalog, Gardner, collection.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается история русского фарфора 18-19 веков. В нем подробно рассказывается о фарфоровом заводе Гарднера и акцентируется внимание на русском фарфоре, хранящемся в Государственном художественном музее Узбекистана, в частности на чайной коллекции фарфорового завода Гарднера, представленной на музейной выставке. Исследование предлагает полную классификацию происхождения и истории образования этого чайного пакетика. Новизна исследования заключается в углубленном анализе и изучении русского фарфорового искусства 18-19 веков в рамках музейных коллекций, посвященных развитию фарфорового завода Гарднера и его фарфоровых изделий, включая чайный сервиз и другой фарфор.*

Ключевые слова:*Узбекистан, музей, выставка, выставка, фарфор, фаянс, каталог, Гарднер, коллекция.*

Bugungi kunda O‘zbekiston muzeylari tizimida san’at asarlarini turlarga bo‘lish, muzey eksponati sifatida shakllanishida ularni ro‘yxatga olish hujjatlashtirish, hamda shu asosda muzey fondlarini ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish muhim vazifalardan biri sanaladi[1]. O‘zbekiston muzey ashyolari orasida farfor buyumlarini o‘rganish va ularni ilmiy taxlil qilish muhim hisoblanadi. Mamlakatimizdagi har bir muzey fondi va ekspozitsiyasida turli davr va o‘ziga xos tarixiy badiiy uslublarga ega xilma xil farfor, fayans va keramika kabi ko‘plab ashyolari mavjud. Ularni saralash davrlarga ajratish, ishlab chiqish uslubini aniqlash, badiiy xususiyatlarini tavsiflash va noyob kolleksiyalar asosida mavzuga doir ko‘rgazmalar yaratish muzeyshunoslik novatsiyasini rivojlantiradi.

O‘zbekiston Davlat san’at muzeyida saqlanib kelinayotgan XVIII-XIX asr Rus va G‘arbiy Yevropa hududlariga oid farfor ashyolarini o‘rganish, farfor san’ati namunalarini shakllanish tarixini o‘rganish va ilmiy tahlil qilish dolzarbligini kutayotgan masalalardan biri bo‘lib, u ilmiy jihatdan tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan. Shu jihatdan, tanlangan mavzu dolzarb deb hisoblanadi.

Mazkur maqolani yozish jarayonida qator ilmiy manba va adabiyotlar o‘rganib chiqildi. Maqolaning mavzusiga oid asosiy fundamental adabiyot Вольф Н.Фон “Императорский Фарфоровый Завод.1744—1904” (1) hisoblanadi. Kitobda XVIII-XIX asr imperatori Pyotr I davridagi farfor tarixi va uning rivojlanish xususiyatlari haqida aniq hamda keng ma’lumot berilgan. Sovet davridagi farfor yo‘nalishi bo‘yicha esa L.Andreevnaning [redacted] nomli kitobida esa farforning keying taqdiri haqida kengroq yoritilgan. Shuningdek, fundamental adabiyotlardan B.Nemmaning “Русский художественный фарфор”

[1] K.Nishonova.“Muzey - halq tarixining ko‘zgusi”.– Тошкент: 2011-йил. – 390 .B.12

(3) kitobini keltirish mumkin. Albom-kitobda ham farfor idishlar va haykallaning bezaklari rasmlari bikan ko‘rsatilib o‘rganilgan. D.I.Vinogradovaning “Создатель Русского Фарфора” (4) kitobida rus farforining yaratilish tarixi chuqur tahlil qilingan.

Mavzu yuzasidan o‘zbek olimlar, tadqiqotchilar, ekspert mutaxassislarning ilmiy adabiyotlari kamligi tufayli asosan xorijiy tadqiqotchi mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarini o‘rgangan holda yoritilgan. O‘zbek ilmiy manbaalaridan Y. R.Maqsudovaning “Chinni tarixi va uning xalq xo‘jaligida ahamyati 2004” (5) nomli maqolasida katta izlanishlar olib borgan. D. Do‘stmurodovaning ilmiy maqolalari mavjud. Unda asosan XIX-XX asrlarga oid farfor kolleksiyalarini tadqiq etish(Toshkent muzeylar misolida) farfor tarixi haqida umumiy, ilmiy yondashgan.

Muzeylarning asosiy vazifasi bu qadimgi davr madaniyatlarga oid madaniy meros, shuningdek, boshqa jamiyat odamlari bilan muloqot qilishda ularning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish vazifasi deb tushuniladi. Bugungi kunda muzey insoniyat turmushida yuzaga kelayotgan muloqot inqirozini bartaraf etishda muhim rol o‘ynashi, avlodlar, madaniyatlar, e’tiqodlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni tiklashga yordam berishi va insoniyat tarixida o‘z o‘rnini topishiga yordam beradigan nuqtai nazar mavjud. Amaliy bezak san’atida birinchi o‘rinni farfor egallaydi – uning ishlab chiqarish texnikasi hozirgacha o‘zgartirilib va takomillashtirilib kelinmoqda. Eng nafis, jozibali kolleksiya buyumlaridan biri bu farfor fayansdir. O‘tgan asrlarga tegishli bo‘lgan farfor buyumlar juda ham noyob hamda takrorlanmasdir. Shuning uchun ularning qiymati bugungi kunda juda yuqori hisoblanadi. Ko‘plab kolleksionerlarning farforga bo‘lgan qiziqqish o‘ziga xos xususiyatga ega. Avvalo, bu buyumlar haykaltaroshlikning xossalari bilan izohlanadi, uning yordamida vaqtning o‘zgarmasligini saqlab qolish mumkin. Misol uchun, tabiiy gul ochiladi va biroz muddatdan so‘ng quriydi, lekin buyumlarda gul go‘zalligi abadiydir.

O‘tgan asrlarga tegishli bo‘lgan XVIII-XIX asrga oid rus chinni buyumlar san’atshunoslik fani nuqtai nazaridan muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda ular yuqori darajadagi qiymatga ega. Masalan, Meysen, Sevr kabi mashhur chinni buyumlar ishlab chiqaradigan zamonaviy fabrikalar misli ko‘rilmagan san’at asarlarini yaratgan. Hozirda ushbu qimmatabaxo kolleksiyalarni saqlab kelayotgan O‘zbekiston davlat sa’nat muzeyi O‘rta Osiyodagi sa’nat yo‘nalishidagi eng yirik muzeylardan biridir. Muzey 1918-yilda tashkil topgan. Bugungi kunda 100 000 dan ortiq noyob ashyo va kolleksiyalarni saqlamoqda[2] O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi rus farfor kolleksiyasida 1000dan ortiq eksponant mavjud. Bularning kattagina qismi qismi ekspozitsiyadan joy olgan bolib Rus va G‘arbiy yevropa ekspozitsiyasi muzeyda katta ahamoyatga ega. Eskpozitsiyaning asosiy qismini Rus knyazi Nikolay Konstantinovich Romanovning shaxsiy kolleksiyasining bir qism tashkil qiladi. Muzeyning dastlabki kolleksiyasini knyaz N.Romanovning shaxsiy kolleksiyasi va boshqa shaxsiy to‘plamlardan tashkil topgan. Ular orasida Rus va G‘arbiy Yevropa rassomlarining

[2] O.tangriev,V.Fayzieva,T.Nuriddinova,D.Kuryazova, G‘.Karimov,SH.Sodiqova,o.udovenko.”O‘zbekiston Davlat san’at Muzeyining Xalq amaliy va Memorchilik san’ati namunalari : Tarixi,manbaviy ahamiyati va saqlash muammolari” Toshkent.2021-B.18

ajoyib grafika va rangtasvir asarlari va 1871-1872 yillarda knyaz Romanov tomonidan Italiyaga sayohatlari davrida to‘plangan mashhur haykaltaroshlar Tomazo Solari, Antonio Kanova, Franchesko Barzagi, Frantakkio Sokkilar tomonidan ishlangan Italiya marmar haykallar kolleksiyasi, badiiy mebel va chinni buyumlar mavjud.

Ruslarning chinni bilan birinchi tanishuvi XV asrda[3], Tver savdogari Afanasiy Nikitin tufayli sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, uni ishlab chiqarish faqat uch asrdan keyin mumkin bo‘ldi.[4] Farfor ishlab chiqarish bosqichma-bosqich rivojlana boshlandi. Nihoyat XIX asrga kelibgina Rossiya farfor san’ati yuqori darajada rivojlandi. Xususan XVIII-XIX asrlardagi Rossiya farfor idishlari san’at va hunarmandchilikning betakror yodgorliklari hisoblandi. Bu davrda san’atning ajralmas qismi bo‘lgan farfor idishlari o‘ziga xos estetik va hunarmandchilikning yuksak namunalaridan biri sifatida shakllandi. Ishlab chiqarish san’ati nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirgan, balki imperatorlik va zodagonlar saroylarining bezagini boyitgan, milliy madaniyatning muhim bir ko‘rinishiga aylangan.Ular ko‘pincha qirollik oilasi va zodagonlar uchun yaratilgan. Rossiyada farfor ishlab chiqarish Pyotr I (1672-1725) davri eng muhim burilish davrlaridan biridir[5]. Bu nafaqat mamlakatning siyosiy ahvolida, balki rus milliy madaniyatining rivojlanishida ham yangi davr edi. Mamlakatning tarixiy rivojlanishi jarayonida Buyuk Pyotr I davridagi o‘zgarishlar XVII asrning birinchi choragidayoq rus turmush tarzini tubdan o‘zgartirdi. Ilm-fan va texnika sohasida ham, san’at sohasida ham shunday bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar, xususan, amaliy san’atda o‘z aksini topdi. Bu davrda hukmron tabaqalarning kundalik hayotiga yangi uy-ro‘zg‘or buyumlari tobora kengroq kirib kela boshladi. Qisman chet elda, qisman mahalliy ruslar tomonidan tayyorlangan oynalar, soatlar, gobelenlar (to‘qilgan rasmlar) va boshqa amaliy san’at asarlari yaratilgan. 1744-yilda imperator ayol Yelizaveta Petrovnaning (1709-1761) oliy amriga binoan farfor ishlab chiqarish bo‘yicha manufaktura tashkil etish to‘g‘risida bitim imzolandi.[6] Ushbu sana Rossiyada ishlab chiqarish tarixidagi boshlang‘ich nuqta hisoblanadi. Ilgari faqat chetdan sotib olinishi mumkin bo‘lgan farfor buyumlarini nihoyat Rossiyada ishlab chiqarila boshlandi. Zavodlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar dunyo bo‘ylab mashxur bo‘ldi va shu tariqa Rossiya farfor ishlab chiqarishning markazi bo‘lib tanildi. Bu davrga kelib yirik zavodlar va mahoratli ustalar faoliyat yuritdi. Shuningdek, rus farfor zavodlari buyumlar ishlab chiqarish faoliyatini asosan XVIII asr boshlarida, ayniqsa, imperator farfor zavodi(1744) bilan ko‘proq tilga olinadi[7]. Bu zavod Pyotr I ning zamonaviy Yevropa texnologiyalarini mamlakatga olib kirish siyosati natijasida tashkil etilgan bo‘lib, dastlabki yillarda zavod Germaniyaning Meissen farfor buyumlaridan ilhomlangan. Zavodning asosiy maqsadi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar yaratish va Rossiya imperator oilasi uchun hashamatli idishlar tayyorlash bo‘lgan edi. Zavodda ishlab chiqarilgan buyunmlar sifati va ko‘rinishi

[3] Д.И.Виноградова “Создатель Русского Фарфора(1958)
[4] Забелин И.И Домашний быт русских царей в XVI-XVII ВВ. М. 1918.ч 1.стр 219
[5] https://turandot-antique.ru/istoriya-roskoshi/poyavlenie-farfora-v-rossii/
[6] Вольф Н. фон.”Императорский Фарфоровый Завод”. (1744—190)
[7] Русская Керамика XVIII Начала XIX Века - Москва 1976.

bilan mashhur bo‘lgan.

Imperator farfor zavodidan keyingi yirik farfor zavod Kuznetsov Farfor Zavodi xisoblanadi. Bu zavod esa XIX asr oxirida Rossiyaning eng yirik farfor ishlab chiqaruvchi zavodi bo‘lgan. U ko‘proq keng omma uchun mo‘ljallangan idish-tovoq va uy bezak buyumlarini ishlab chiqargan. XVIIIasrning yana bir mashxur taniqli farfor zavodlarindan biri Gardner farfor zavodidir. Gardner Farfor Zavodi ham farfor ishlab chiqarishda katta burulish yasagan birinchi xususiy zavodlardan bo‘lgan. Gardner 1746-yilda tashkil etilgan. Gardner chinni zavodi 1766-yilda shotlandiyalik savdogar Frants Yakovlevich Gardner tomonidan Dmitrovskiy viloyatining Verbilki qishlog‘ida tashkil etilgan. XVII asrning oxirida Frants Yakovlevich fabrikani o‘g‘li Gardner F. F. ga topshirdi, keyin fabrikani uning nabiralari Nikolay boshqargan, Aleksandrva Pyotr, keyin Butrusning o‘g‘illari Nikolay, Vladimir va Pavelning bevasi Yelizaveta Nikolaevna (Pavel Nikolay va Vladimirning ukasi). Bir asrdan ko‘proq vaqt davomida (126 yil) fabrika asoschilar oilasiga tegishli bo‘lib, faqat 1892 yilda, qiyin kunlarni boshdan kechirganida, Elizaveta Nikolayevna, mavjud sharoitlar tufayli fabrikani Matvey Sidorovich Kuznetsovga sotdi.

Zavodni ochishda u eng yuqori sifatli xom ashyo – kaolin va kvartsni – farforni retseptining asosiy tarkibiy qismlarini qidirib, Rossiya imperiyasining ko‘plab tumanlarini aylanib chiqdi. Mahsulotlarga bezak berish uchun rassomlarni tayyorlash bilan 1770-yillarning birinchi yarmida taklif etilgan nemis I. Kestner shug‘ullandi. Unga, zavodning eng ma’suliyatli buyurtmalar topshirildi. Buyumlarning shakli, plastikasi va chiroyli dekorlari XVIII asrning ko‘plab farfor buyumlari ta’sir ko‘rsatgan fransuz rokoko uslubiga moyil. Rasmlarda asosan binafsha rang bo‘yoq va oltin ishlatiladi, bu binafsha rangning go‘zalligini nozik tarzda soya qilinadi. Gardner farfor zavodi xalq hayoti va urf-odatlarini aks ettiruvchi farfor figuralari bilan tarixda mashhxur bo‘lgan. XVIII-XIX asrlar zavod o‘zining yuqori sifatli farfor mahsulotlari bilan katta shuhrat qozongan. Zavod Rossiya imperatorlik saroyi va boy zodagonlar uchun buyurtmalar bajargan. Deyarli hamma zodagon oilalar bu zavodning buyumlarisiz bayram o‘tkazishmagan. Gardner farfor zavodi o‘zining nafis va murakkab bezaklari, milliy rus motivlari va hayotiy tasvirlari bilan boshqa zavod farfor buyumlaridan ajralib turadi.[8] Aslida Zavod ishidagi eng muhim yo‘nalish kundalik farfor ishlab chiqarish edi, lekin zavodda ko‘proq boy amaldor oilasiga mahsulot ishlab chiqardi. Zavodning asosiy yo‘nalishi chiroyli bezatilgan choynaklar, laganlar, vazalar va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlarini bo‘lgan. Zavodning choy to‘plamlari, sho‘rva idishlari, turli xil uslubdagi idishlar, plitalar, vazalar, choynaklar, ko‘plab dasturxon buyumlaridagi bezaklari mohirlik va Ilhom bilan chizilgan gullar bilan ishlov berilgan. XIX asrning birinchi choragidagi farfor dekorida oltin bo‘yoq ustunlik qildi. 1891-yilda Gardner farfor buyumlaridagi bezaklar, va ulardagi rasmlar XVIII va XIX asr rus xalqining maishiy turmush tarzlari haqida ko‘p ma’lumotlar beradi. Dastlab zavod jimjimador va hashamatli yo‘nalishda ishlagan buyumlar ishlab chiqarilgan bolsa XIXasrga kelib zavod o‘zining yangi yo‘nalishda buyumlar ishlab chiqara boshladi. Endilikda

[8] История фарфорового завода Ф. Я. Гарднера / Мачульский Е., Зилов А., Кравцова Ю.

zavod oddiy, biroz hashamatdan uzoqlashgan holatda mahsulotlar chiqardi. Bu davrda klassitsizm, romantizm va keyinchalik realizm uslublari Gardner farfor buyumlarida o‘z aksini topdi. Keyinchalik Napoleonga qarshi urushdan so‘ng (1812-yil) zavodning farfor buyumlarida milliy ruhdagi bezaklar keng tarqala boshladi. Endilikda zavodning mahsulotlarida Rossiya tabiat manzaralari, xalq urf-odatlari, tarixiy voqealar farfor buyumlarining asosiy mavzulariga aylandi. Zavodda shuningdek farfor buyumlari bilan birga haykalchalar va figurkalar ishlab chiqarilgan. Ularni ishlab chiqarishda rus xalq hayoti, dehqonlar, hunarmandlar va hayvonot olamidan ilhomlangan holda bezak berishgan.

Hozirda Gardner farfor zavodi o‘zining noyob buyumlari mamlakatimizning katta davlat muzeylarida saqlanib kelmoqda. Jumladan O‘zbekiston davlat san’at muzeying farfor kolleksiyasida juda ko‘plab buyumlar va haykalchalar saqlanmoqda. Mana shu kolleksiyaga oid bo‘lgan va ekspozitsiyaga qo‘yilgan choy to‘plami mavjud. Ushbu to‘plam muzeyga Romanovlar kolleksiyasidan kelib tushgan bo‘lib, noyob eksponantlar sarasiga kiritilgan hisoblanadi. To‘plamdagi hamma buyumlarning ichki qismi asosan tilla rang bilan qoplangan bo‘lib, yuza tomonidagi bezaklar esa mavzu jihatdan bir-biriga yaqin va uzviy bog‘liq qilib ishlangan. Buyumlardagi rasmlarning asosiy mavzusi rus qishloq dehqonlari hayoti tasvirlangan sahnalar, shuningdek, turli mamlakatlar xalqlari vakillarining tipik tasvirlari kiritilgan. Zavodda asosan rus rassomlari faoliyat ko‘rsatgsni bois buyumlardagi tasvir ko‘proq rus xalqi madaniyatiga mos ravishda ishlov berilgan. Zavodning boshqa buyumlaridagi bezaklari yorqin va zarhal ranglar bilan bezatilgan bo‘lib uning dekorativ va antiqa harakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu to‘plam asosan aristokrat oilalar uchun ishlab chiqarilgan. Chunki zavod asosan farfor idishlarga asosan mayda gulli bezaklari bilan foydalanib kelingan. +Gardner kamdan-kam hollarda kundalik sahnalar bilan ishlangan buyumlarni chiqarar edi. Ushbu to‘plamda Gardner zavodining XVIII-XIX asrga oid qahva finjoni, kichik choynak, katta tarelka,sut uchun idish, shakar idish va katta choynak mavjud. Buyumlarga deyarli bir hil ranglarda ishlov berilgan. Medalyon qismidagi rasmlar ham bir-biriga yaqin mavzuda ishlangan. To‘plamdagi choy finjoni pushti rangda bo‘lib ichi tilla rangda markaziy qismi medalyonida ikki qishloq qizing surati tushirilgan. To‘plamdagi shakar idishi ham alohida ahamiyatga ega buyumlardan sarasiga kiritiladi. Shakar idishining yuza qismiga ham ayni shu ranglarda ishlov berilgan va ikki medalyon qismida esa turli qishloq hayotiga oid ikki turli rasm tasvirlangan. Birinchi medalyonda ikki qiz tasvirlangan bo‘lib, ikkinchi medalyondagi tasvirda esa tabiat qo‘ynida qiz va sigir tasviri tushurilgan. To‘plamda shuningdek sut uchun idish ham mavjud, u ham to‘plamdagi boshqa buyumlarga mos ravishda ishlangan bo‘lib, yon qismiga tabiat qo‘ynidagi qishloq ayol va erkak tasviri berilgan. Servizda katta choynak ham mavjud. U ham boshqa buyumlar singari bir hil bezak berilgan, faqatgina ikki yon markazidagi rasmlar farqlidir. Choynakda sharqona uslubda kiyingan ayol va bir erkak tizza qismi ochiq holda turgani tasvirlangan. Choynakning ikkinchi yon qismidagi tasvirda esa savat ko‘targan ayol tasviri berilgan. Servizda katta tarelkasi ham bor bo‘lib, uham ikki yoni pushti malina rangda bo‘yalgan. Uning ham ikki yon qismiga qishloq tabiati manzarasi tushurilgan.

Rus madaniyatlariga xos bo‘lgan davomiylik an’analarini saqlab qolish rus farfor buyumlarda yaqqol namoyon bo‘lganligi aniqlandi. Rus farfor idishlarda butun bir asrlik xalq hayoti,turmush tarzi tarixi aks etgani ko‘rildi. Buning natijasida nafaqat o‘ziga xosligini yo‘qotmaganini, balki bugungi kungacha an’anaviy asoslarini saqlab kelayotgan yangi farfor buyumlarda ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston davlat san’at muzeyi kolleksiyasi va XVIII-XIX asr rus farfor san’atining shakillanish tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot tahlili, muzey ekspozitsiyasida namoyish etilgan eksponatlar haqida batafsil ma’lumotlar berilib, ularning umumiy tasnifi o‘rganildi. Shu bilan birga rus farfor tarixi haqida ma’lumotlar keltirilib chuqur taxlil qilingan. Muallif tanlagan kolleksiya eksponatlarini xronologik tartibga ko‘ra o‘rganib, zamonaviy muzeyshunoslik metodologiyasi nuqtai nazaridan kelib chiqqan xolda tasniflab berdi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, faktologik materiallar, hujjatlar tahlili natijasida ilmiy maqolaning yakunida quyidagi xulosalar yuzaga keldi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR.

1 4Вольф Н. фон. Императорский Фарфоровый Завод. 1744—1904. — СПб., 1906. — 5

2. L.Andreev “Советский фарфор1920-1930 гг.”

3 Б.Немма. “Русский художественный ФАРФОР.” Москва 1976.

2 Забелин И.И Домашний быт русских царей в XVI-XVII ВВ. М. 1918.ч 1.стр 219

3 Власов В. Г. Русский фарфор // Новый энциклопедический словарь изобразительного искусства. В 10 т. — СПб.: Азбука-Классика. — Т. VIII, 2008. — С. 386

4 D.I.Vinogradova “Создатель Русского Фарфора М.1958гг

5 Y. R.Maqsudovaning “Chinni tarixi va uning xalq xo‘jaligida ahamyati 2004

6 Сиповская Н. В. Фарфор в России XVIII века. — М.: Пинакотека, 2008.

7 Фарфор в России XVIII–XIX веков: завод Гарднера / авт. ст. и сост. Е. Иванова. СПб. :

8 Русская Керамика XVIII Начала XIX Века - Москва 1976.9 История фарфорового завода Ф. Я. Гарднера / Мачульский Е., Зилов А., Кравцова Ю.

1 https://shorturl.at/8jsBJ

2 http://vechi.com.ua/av/opisanie.php/cp_01010

3 https: // uz. wikipedia. org/wiki/ Rus farfori

YULDASHEV Sarvar
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Rangtasvir" kafedrasi o`qituvchisi

Contemporary art of Uzbekistan: cultural context and new horizons

O'ZBEKISTONNING ZAMONAVIY SAN'ATI: MADANIY KONTEKST VA YANGI UFQLAR

Аннотация: *Мазкур мақола, Ўзбекистонда замонавий санъат тушунчасининг талқини, унинг бугунги кундаги жараёнлари ва бу йўналишда ижод қилаётган ижодкорларга бағишланган. Шунингдек замонавий санъат тушунчаси, унинг яратилиши тарихи ҳақида қисқача маълумотлар келтирилди*

Калит сўзлар*: Konseptual, diagrammalar, grafik, Art and language, Video art, Eksperimental, Eko art, Graffiti va strit art, inkuzart*

Аннотация: *Статья посвящена интерпретации понятия современного искусства в Узбекистане, его текущим процессам, а также художникам, работающим в этом направлении. Также представлена краткая информация о концепции современного искусства и истории его создания.*

Ключевые слова: *Концептуальный, диаграммы, графика, Искусство и язык, Видеоарт, Экспериментальный, Эко-арт, Граффити и уличное искусство, искусство тушью*

Abstract: *This article is devoted to the interpretation of the concept of contemporary art in Uzbekistan, its current processes and artists working in this direction. Also, brief information about the concept of contemporary art and the history of its creation is provided.*

Keywords: *Conceptual, diagrams, graphics, Art and language, Video art, Experimental, Eco art, Graffiti and street art, inkuzart*

Davlat rahbari tomonidan san'at va madaniyat hamda uning tarkibiy qismi bo'lmish badiiy ta'limga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida yurtimiz tasviriy va amaliy san'ati, muzeyshunoslik, dizayn sohalarida ulkan o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda.

Zamonaviy san'at bugun rassomning qobiliyatlarini rad etmoqda, bu yo'nalishda endilikda g'oya va ifoda eng muhim masalaga aylanib ulgurdi.

Konseptual san'at, konseptualizm (lot. conceptus – fikr, tasvirdan) – XX asrning 60-yillari oxiri – 70-yillari boshlarida Amerika va Yevropada shakllangan postmodernizmning adabiy yo'nalishi hisoblangan. Ushbu yo'nalishga obyektlar iboralar, matnlar, diagrammalar, grafik chizmalar, fotosuratlar, audio va video

materiallar kirishi mumkin. Har qanday buyum, hodisa, jarayon san’at obyektiga aylanishi mumkin. Ushbu yo‘nalishdagi asar rassomning kayfiyati, olami, his-hayajonlari haqida gapiradi. “Bugungi zamonaviy usuldagi rangtasvirlar tushunarsiz, uni yosh bola ham chiza oladi, bu turdagi kartinalar tomoshabinda zavqlanish tuyg‘usini uyg‘otmaydi” degan tanqidlarni qo‘yib, ijodkor uchun ijobiy jihatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak;

- o‘z olami, o‘z dunyoqarashini namoyish eta boshlaydi,
- tasviriy san’at olamida o‘z yo‘nalishini tez topishiga zamin yaratadi,
- o‘z ijodi orqali tashqi olam haqidagi fikrlarini baralla aytishni boshlaydi,
- hayotga bo‘lgan qarashlar o‘zgaradi.

1960-yillarda “Art and language” guruhi rassomlari bilan harakatning asoschilaridan biri, amerikalik rassom Jozef Koshut konseptualizmning ahamiyatini "san’at asari qanday ishlashini yoki madaniyatning o‘zi qanday tushunilishini tubdan qayta ko‘rib chiqishda" ko‘rdi ... materialning emas, balki g‘oyaning kuchi”.

Haligacha konseptualizmning klassik namunasi "1+3 stul" (1965) kompozitsiyasi hisoblanadi. Stul, uning fotosurati va lug‘atdagi narsaning tavsifini o‘z ichiga oladi. Konseptual san’at, hissiy idrok etishni emas, balki ko‘rinadigan narsalarni intellektual tushunishni anglatadi degan g‘oya mavjud. Konseptualizm hech qachon yagona tendensiya bo‘lmagan. Konseptualizm bir necha san’at turlarini umumlashtiruvchi tushunchadir. San’at estetik jihatdan yoqimli bo‘lishi kerak degan fikrni rad etadi. Konseptualizm g‘oyalari ko‘p hollarda vaqtinchalik konstruksiyalar va obyektlar (installyatsiyalar)da namoyish etiladi. Lekin bu yo‘nalish bugun landshaft san’ati bilan uyg‘unlikda rivojlanib borayotganligi sababli, ular uzoq muddatli, pishiq asoslarda ham talqin qilinmoqda.

Bugun san’at olamini tajribalar sahnasiga qiyoslash mumkin. Aynan tasviriy san’atning barcha turlarida g‘arb va Sharq talqini aksariyat hollarda esa, o‘z chegaralaridan chiqib borayotgan konseptual san’at namoyishlariga guvohi bo‘lmoqdamiz. Hammaga ma’lumki, rangtasvirda yangiliklar yaratishning chegarasi yo‘q.(Xujaniyozov R. Bugungi rangtasvir san’atiga nazar. //K.Behzod nomidagi MRDI AXBOROTNOMASI-Toshkent.: 2022. -№ 3(9). -46-b.) Ammo zamonaviy qarashlar ohangida millatning tarixi, an’ana va qadriyatlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlik bo‘lishi lozim. Bu ijodkorning ijodiga mazmun, g‘oya va o‘ziga hos ijod shavqini taqdim etadi.

Mustaqillik rassomlar qarashlarida tarix, milliy va ma’naviy qadriyatlarni tasvir va shakllarda aks ettiruvchi, o‘ziga hos ijodiy bir davrni boshlab berdi. Shu borada aytish mumkinki xalqning bugungi ma’naviy va siyosiy qarashlarida erkinlikning berilishi, ta’qiqlangan yo‘nalishlarda qayta jonlanishni vujudga keltirdi va bu yo‘lda davom etmoqda deyish mumkin. Bu esa o‘z-o‘zidan yangi ifoda va tasvir shakillarini taqdim etmoqda.

Qisqa qilib aytganda an’anaviy san’at yangi texnologiyalar bilan uyg‘unlashmoqda va buning natijasida ko‘plab yangi yo‘nalishlar vujudga kelib ulgurdi. Jumladan aynan O‘zbekiston san’atida ko‘p murojaat etilayotgan yo‘nalishlarni olib qaraymiz:

Raqamli media san’ati.

Video art san’ati – interaktiv video mahsulotlari

NFT san’ati – shifrlangan raqamli rasmlar.

Video art yo‘nalishida o‘zbek rassomlaridan Jamol Usmonov ijodi o‘ziga hosligi, qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. Rassom asarlari allegoriyaga boyligi, o‘zining ijodi orqali Tasavvuf falsafasini talqin etganligi bilan aamiyatlidir. Ijod bilan eksperimentni parallel ravishda olib boruvchi rassomlar sarasiga kiradi. Bugungi kun zamonaviy san’ati ham aynan shu xususiyatlarni talab etmoqda. Musavvir uchun g‘oyani polotnoda tasvirlashning o‘zi kamlik qildi va o‘z fikrlarini shakl, musiqa va yorug‘likda ifoda etishni boshladi. “Yo‘l”, “Ko‘zgu”, “Ma’rifat vodiysi”, “Aks” ana shunday video-art namoyishlarida ham musavvir badiiy merosimizdan biri Umar Hayyom asariga ham murojaat qilganini ko‘rish mumkin. Rivoyatga ko‘ra, Hindistonga borib qaytgan ko‘zi ojizlardan fil haqidagi taassurotlari va u haqidagi tasavvurini so‘raydilar shunda, filni paypaslab ko‘rgan ko‘zi ojizlardan biri oyog‘ini - ustunga, qornini - behi ustun qoyasiga, xartumini - ajdarga, tishlarini - ikkita suyakka, dumini - ilonga, quloqlarini - yelpig‘ichlarga o‘xshatadi.(F.Ahmadaliyev. Albom. Moskva: Izdatelstvo “Galart”. 2016. 183 b.)

Har biri o‘zicha xaq. Ya’ni har bir insonning o‘z haqiqati, biror bir hodisa yoki voqelikka o‘z tasavvuri va fikri mavjudligi haqida urg‘u beriladi. (K.G.Usmonov.J. asarlarida ma’naviy gedonizm. EGO IX to‘plami. Toshkent: O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi. 2012.)

- *Eksperimental rangtasvir va haykaltaroshlik.*

Miks texnikasi asosida – bunda muallif bo‘yoqlar yoki buyumlardan kollaj uslubini qo‘llagan holda san’at namunasini yaratadi.

Bio art – tirik homashyolar, o‘simliklardan foydalangan holda yaratilgan san’at namunalari

- *Eko art.*

Lend-art – tabiiy muhitda yaratilgan namunalar, haykaltaroshlik namunalari. Ular qum, tosh, shoh-shabbalar va yana boshqa homashyolar bo‘lishi mumkin.

Installyatsiya – ekologik yoki ijtimoiy muammolarga urg‘u beruvchi yo‘nalish.

Mamlakatimizda installyatsiya yo‘nalishida ko‘plab rassomlar o‘z asarlarini yaratganlar. Ko‘p xollarda ularni falsafiy yo‘nalishlar bilan birga tasavvuf, so‘fiylik peshvolari darveshlar, pirlar obrazlariga o‘qarashlaridan kelib chiqqan holda o‘zicha talqin qilmoqdalar. Jamol Usmonov installyatsiyalaridan “Tashnalik”, “Qalb parvozi”, “Hayot daraxti”, “Yo‘l”, “Fitna” kabi art obyektlarni, Fayzulla Axmadaliyevning “Sardoba, Umar Hayyom yulduzlari”, “Yassaviyga bag‘ishlov”, kabi installyatsiyalarni, Nuriddin Rasulovning “Besh kunlik dunyo”. va Nazira Qo‘ziyevaning kulolchilik yo‘nalishidagi instalyatsiyallarini aytib o‘tish mumkin. Shuningdek, Tatyana Fadeyeva, “5+1” guruhi ijodkorlari tomonidan yaratilgan obyektlar, DIyor Roziqov va yana ko‘plab ijodkorlarni sanab o‘tish mumkin.

Jumladan, Nazira Qo‘ziyeva jodkor kullollardan biri bo‘lib, o‘zining noan’anaviy kulolchilik namunalarini taqdim etib kelmoqda. Nazira Qo‘ziyeva ijodi nozik plastika, shakllarning yengilligi, tasvirlarning nafisligi bilan ajralib turadi. Uning har bir asari aloxida, mustaqil asar bo‘lib, har biri dekorativ individualligiga ega. U tayyorlagan sopol buyumlarda loyning tabiiy xolatini xis qilgan holda

shakllarga ijodiy yondashib noan’anaviy kulolchilik asarini yaratadi. Uning bezaklarida Sharqning sokin va kamtarlik falsafasi sezilib turadi. Serqirra ijodkor nafaqat noan’anaviy kulolchikda balki, zamonaviy san’atda o‘z so‘zi va fikrlarini namoyon etuvchi installyatsiya asarini ham yaratib kelmoqda. Kulol falsafa va shakllar uyg‘unligida o‘z dunyosini moxirona yuzaga chiqaradi.

Rassom qushlar, ularni qanday ilohiy jonzot ekanligi va har-bir xalqning qushlarga bag‘ishlangan afsonalari borligi haqida to‘xtalgan holda “AVES” ko‘rgazmasining markazida "Istalganga erishish" asari joy olgan. Bir tomondan Alisher Navoiyning “Qushlar tili” she’riga ishora qiladi.Hikoyaga ko‘ra, qushlar to‘dasi mukammal "qushlar hukmdori"ni qidirish uchun Abadiylik yurtiga boradi. Ekspozitsiyada qushlar Simurg‘ning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lgan xalqa tasvirlangan bezakli idish o‘rin olgan. U yerda Simurg‘ni eslatuvchi qanotli jonivorning o‘zi va tukli sargardonlar bor. Kulolning aytishicha, qushlar tasviri tushirilgan to‘rtta bezakli idish Navoiy g‘azaliga bag‘ishlangan. U hali mavzuni o‘rganishni to‘xtatgani yo‘q va unga qaytishni rejalashtirmoqda. Muallif o‘rnatishning o‘zini boshqacha talqin qiladi. “Bu dunyoga uch toifa odamlarning nigohi bilan qarash haqidagi asar. Ba’zilar sichqonchaning teshigidan tashqariga qarab, o‘zlarini va dunyoni hukm qiladilar.Ular qanday yashashni afzal ko‘radilar. Boshqalar esa tog‘lar balandligidan atrofga qarashadi va o‘zlarini, atrofidagi dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartirishga harakat qilishadi. Uchinchi tur - dunyoga qush nazari bilan qaraydigan odamlar. Ularning kuchi dunyoni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishlarida va insonparvarlik maqsadlari bilan yashashlaridadir. (К.Г.Усмонов.Ж. асарларида маънавий гедонизм. ЭГО ИХ тўплами.) Taraqqiyot etayotgan ana shu insonlardir”, - deydi Nazira Qo‘ziyeva.

- *Norozilikni ifodalovchi san’at.*

Graffiti va strit art – siyosatni yoki amaldorlarni tanqid qiluvchi karikatura yoki devoriy suratlar

O‘zbekistonda bugun strit-art yo‘nalishi bo‘yicha no‘malum rassom, “*inkuzart*” dastxati ostida ijod qilib keluvchi grafik rassomni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Uning ijodi keng mushohadaga chorlovchi, chuqur ma’no mazmunga ega ko‘plab sohalarni qamrab oladi. Rassomni turli hil yo‘nalishlardagi muammolar haqidagi o‘z fikr mulohazalarini devoriy grafik suratlar orqali namoyish etuvchi eko faol, siyosiy tanqidchi, ijtimoiy himoya vakili, vatanparvar rassom deyish mumkin. Rassom o‘z shaxsiyatini, kimligini oshkor qilmaydi lekin, uning asarlaridan ma’lumki, u, jamiyatdagi o‘zgarishlarga, nohaqliklar va zo‘ravonliklarga befarq emas.

Zamonaviy san’at bo‘ladimi yo an’anaviy san’at turi bo‘ladimi eng asosiysi bugungi kunda O‘zbekistonda tasviriy san’at sohasi jadal rivojlanayotgani va unga bo‘lgan talabning ortib borayotganligi kishini quvontiradi. Buning asosiy targ‘ibotchisi va tashfiqotchisi sifatida mamlakatimizda o‘tkazilib kelinayotgan ko‘plab halqaro va Respublika miqyosidagi festival, bennali va ko‘rgazmalarni aytishimiz mumkin. Aynan mana shu kabi madaniy tadbirlar ko‘plab yosh iqtidorlarni kashf qilmoqda. Ular esa o‘z o‘rnida zamonaviy san’at talqinida milliy madaniyat, an’ana va qadriyatlarimizni tarannum etib kelmoqdalar.

Адабиётлар.

1. Xujaniyozov R. Bugungi rangtasvir san’atiga nazar. //K.Behzod nomidagi MRDI AXBOROTNOMASI-Toshkent.: 2022. -№ 3(9). -46-b.
2. Ф.Аҳмадалиев. Альбом. Москва: Издателство “Galart”. 2016. 183 b.
3. К.Г.Усмонов.Ж. асарларида маънавий гедонизм. ЭГО ИХ тўплами. Тошкент: Ўзбекистон Бадиий Академияси. 2012.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D1%88%D1%83%D1%82,_%D0%94%D0%B6%D0%BE%D0%B7%D0%B5%D1%84

MIRJONOVA Nodira Ilhom qizi
Temuriylar tarixi davlat muzeyi
ilmiy xodimi
mirjonovanodira37@gmail.com

TASVIRIY SAN’AT ASARLARIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR (Temuriylar tarixi davlat muzeyi misolida)

Annotatsiya: *Maqolada Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi innovatsion yondashuvlar, xususan, tasviriy san’at asarlarining zamonaviy texnologiyalar orqali taqdim etilishi tahlil qilinadi. Muzeyshunoslikdagi yangi interaktiv usullar – 3D texnologiyalarining joriy qilinishi madaniy merosni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatlarini oshirgani yoritiladi. Shuningdek, muzey ekspozitsiyalarida Smart texnologiyalar, NazzAR platformasi va multimediali taqdimotlarning o‘rni hamda tasviriy san’at asarlarining badiiy tahlili ilmiy asosda bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Temuriylar, muzey, tasviriy san’at, innovatsiya, 3D rekonstruksiya, san’at tahlili, muzeyshunoslik, tasviriy san’at, madaniy meros.*

Аннотация: *В статье анализируются инновационные подходы в Государственном музее истории Тимуридов, в частности, представление произведений изобразительного искусства с использованием современных технологий. Освещается внедрение новых интерактивных методов в музееведение, включая 3D-технологии, расширяющие возможности донесения культурного наследия до широкой аудитории. Также научно обосновано значение Smart-технологий, платформы NazzAR и мультимедийных презентаций в музейных экспозициях, а также проводится художественный анализ произведений изобразительного искусства.*

Ключевые слова: *Тимуриды, музей, изобразительное искусство, инновации, 3D-реконструкция, искусствоведческий анализ, музееведение, культурное наследие.*

Annotation: *The article analyzes innovative approaches in the State Museum*

of the History of the Timurids, particularly the presentation of visual art works through modern technologies. It highlights the introduction of new interactive methods in museology, including the implementation of 3D technologies, which enhance the accessibility of cultural heritage to a wider audience. Additionally, the role of Smart technologies, the NazzAR platform, and multimedia presentations in museum exhibitions is scientifically examined, along with the artistic analysis of visual artworks.

Keywords: *Timurids, museum, visual art, innovation, 3D reconstruction, art analysis, museology, cultural heritage.*

Mustaqillik davrida xalqimiz tarixiga, shu munosabat bilan tarixiy bilimlarni targ‘ib qiluvchi soha-muzeyshunoslikka e‘tibor davlat siyosiyati darajasiga ko‘tarildi[1,5]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi "2017-2027 - yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturlarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 975-sonli qarori, 2018-yil 26-avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3920-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-sonli "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarorida belgilab qo‘yilgan vazifalar muhim qadamlardan biridir[2,7-8].

Muzeylar har qanday jamiyatning ijtimoiy-madaniy makonida katta ahamiyatga ega. Har bir muzeyning asosiy uchta vazifasi mavjud bo‘lib, bular madaniy merosni saqlash, o‘rganish va tashrifchilarga namoyish etishdir. Jahon muzeylari faoliyatida yuqorida qayd etilgan dastlabki ikki vazifa bir muncha oson hisoblanib, uchinchi vazifa, ya’ni tomoshabin va muzey o‘rtasidagi kommunikatsiya biroz murakkab ekanligi qayd etilgan. Hozirgi kunda muzeyning asosiy vazifalaridan biri tashrif buyuruvchilarni jalb etish va saqlab qolish, shuningdek, auditoriyani kengaytirish hisoblanadi. Zamonaviy muzeylar tashqi dunyo bilan aloqa qilish uchun ochiq va faol ishtirok etmoqdalar. Shunga qaramay muzey foliyatining uslublarini takomillashtirish, jamiyat va muzey tomoshabinlar bilan o‘zaro aloqalarning samaradorligini oshirish zarur[2,11].

Jamiyatning jadal suratlarda taraqqiy etishi, kompyuter texnologiyalarining yuksak rivojlanishi natijasida kishilar kundalik hayotiga 3D, 5D elektron filmlarning kirib kelishi, virtual (elektron) muzeylarning paydo bo‘lishi va yana ko‘plab omillar fuqarolarning borgan sari san’at olamiga bo‘lgan qiziqishini susaytirib, ularni teatr, turli tomoshalar, konsertlar, kinoteatrlar, ko‘rgazma zallari hamda muzeylardan uzoqlashtirib bormoqda[3] Shu sababli muzeylarni davr talabidan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish, ularning qiyofasini, ekspozitsiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish, fondlarni boyitish, ashyolarni ilmiy o‘rganish, asrab-avaylagan holda zamonaviy uslubda ta’mirlab kelajak avlodga yetkazish, tomoshabinlarga namoyish qilish usullarini mukammallashtirib, ilg‘or innovatsion texnologiyalardan foydalanish va bularning barchasini bir tizimga solish muhim masalalardan hisoblanadi[3].

O‘zbekiston Respublikasi FA tasarrufidagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi asosiy muzeyshunoslik ilmiy-uslubiy markaziga aylandi. Keng ko‘lamdagi tadbirlar

va ko‘rgazmalarni tashkil etishda ham u asosiy tayanch vazifasini ado etayotgani tabiiy holdir. Zero, o‘zbek xalqi yilnomasida oltin harflar bilan bitishga munosib voqealar aynan Sohibqiron Amir Temur hamda Temuriylar bilan chambarchas bog‘liqdir[4,95].

2020-yilning ilk kunlaridan O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida Smart texnologiyalar joriy qilindi[5]. Bu orqali Muzeyga tashrif buyuruvchilar zamonaviy interaktiv vositalar yordamida turli eksponatlar va muzey haqida qo‘shimcha ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muzey eksponatlari haqidagi ma’lumotlar NazzAR – innovatsion ilovasi yordamida real elementlar bilan boyitildi. Smartfoningizni muzeyning eksponat tasviri tushirilgan AR belgili maxsus taxtachalarga yo‘naltirib, eksponat haqidagi ma’lumotlarga o‘zbek, rus, ingliz, fransuz tillaridagi audio-videogid yordamida ega bo‘lishingiz mumkin. Shuningdek, 3D dinamikali gologrammalar ham aks etib, u turli effektlar bilan to‘ldirilgan. Buning uchun foydalanuvchi o‘z smartfoniga Android va iOS qurilmalari uchun ishlab chiqilgan NazzAR ilovasini yuklab olishi lozim[6]. Ushbu innovatsion loyiha Amir Temur va temuriylar tarixini yanada kengroq yoritib berishga xizmat qilmoqda. Smart texnologiyalarning joriy qilinishi muzeyga respublikamizdan tashrif buyuruvchilar va sayyohlar uchun juda katta qulayliklarni yaratadi. Temuriylar tarixi davlat muzeyining mobil ilovasi, 150 dan ortiq eksponatning QR-kodlari yaratildi, shu bilan birga muzey zalida interaktiv sensorli proyektorlar o‘rnatildi[7].

Ayni vaqtda Temuriylar tarixi davlat muzeyida NazzAR – innovatsion ilovasi yordamida tasviriy san’at asarlarining aksariyati, xususan, buyuk tarixiy shaxslarning portretlari interaktiv tarzda namoyish etilmoqda. Portretlar buyuk o‘zbek hukmdorlari va olimlarining tarixiy qiyofasini san’at orqali jonlantirib, ularning shaxsiy fazilatlari, ma’naviy olami va hukmronlik davrini aks ettiradi.

M. Nabiyev tomonidan 1994-yilda yaratilgan "Amir Temur" portreti buyuk sarkardaning qat’iyatini, donoligini va qudratini yuksak badiiy saviyada tasvirlaydi. U Samarqand shahriga qarab turgan holda, taxtda oltin toj va qimmatbaho liboslarda aks etgan. Nigohi bir nuqtaga qadalgan, bu esa uning muhim qaror ustida o‘ylayotganidan darak beradi. Saroy xonasi mayolikali naqshlar bilan bezatilgan, kiyimlari esa qimmatbaho tosh va naqshlar bilan boyitilgan. Uning yirik qo‘llari qilich dastasiga qo‘yilgan bo‘lib, bu uning harbiy kuchi va buyuk sarkarda ekanligini ta’kidlaydi.

A. Ikromjonov tomonidan chizilgan "Mirzo Ulug‘bek" portreti esa Sharqning buyuk olimi va hukmdori qiyofasini aks ettiradi. U shohona libosda, oltin naqshli salla va yoqut qadalgan bezaklari bilan tasvirlangan. Uning ko‘k rangli, tillasimon naqshli kiyimi yelkasidan yengigacha zar ip bilan tikilgan bo‘lib, ichkaridan qizil rangli kamzul kiygan. Foni to‘q tusda ishlangan va unga to‘lqinsimon qizg‘ish shaklda taxt joylashtirilgan. Mirzo Ulug‘bekning bu qiyofasi olim va hukmdor obrazining etaloniga aylangan.

A. Mamatovaning "Mirzo Bobur" portretida shoir va sarkardaning murakkab hayoti chuqur hissiyot bilan yoritilgan. Bobur yarim tunda bog‘da, o‘ychan holda o‘tirib, chap qo‘lida oq qog‘oz, o‘ng qo‘lida esa qalam tutgan. Uning yuz ifodasi ilhom va insoniylik bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, uzoqlarga tikilgan nigohi chuqur

tafakkur va orzularni aks ettiradi. Boburning mayda oq gullar bilan bezatilgan alvon ko‘ylagi ustidan tog‘ barsi mo‘ynasi bilan hoshiyalangan tillarang kamzul kiyilgan. Kamzulning foni tillarang bo‘lib, unda kiyik shakllari shoyi iplar bilan tikilgan. Boshidagi och yashil salla va unga qadalgan tovus pati esa uning bejirim didini namoyon qiladi.

A. Aliqulov tomonidan ishlangan "Sulton Halil Mirzo" portreti Amir Temurning nabirasi sifatida uning jasoratini va qat’iyatini gavdalantiradi. Sulton Halil Mirzo saroydagi bezakdor xonalardan birining derazasi yonida, uzoqlarga tikilgan holda tasvirlangan. Uning nigohi oldinga intilayotgan, lekin ko‘zlarida mung aks etgan. Tanasi harbiy aslahalar bilan qoplangan bo‘lib, qimmatbaho metallardan ishlangan dubulg‘asi naqshlar bilan bezatilgan va uning uchiga pat qadalgan. Chap qo‘li qilich tutqichida, o‘ng qo‘li esa musht qilib tugilgan bo‘lib, bu uning shijoati va qat’iyatini ochib beradi.

R. Xudoyberganovning "Sulton Abusaid Mirzo" portretida shahzoda yangi rejalar ustida chuqur o‘y surib turgan holatda tasvirlangan. U qizil ko‘ylak va ko‘k chetlari zardo‘zi chopon kiygan, boshida esa tosh va pat bilan bezatilgan katta oq salla mavjud. Uning barmoqlarida uzuklar bo‘lib, chap qo‘lida xat yoki e’lon ushlagan, o‘ng qo‘li esa kamarini mahkam tutgan. Nigohi bir nuqtaga qadalgan bo‘lib, bu uning o‘ylangan, uzoqni ko‘ra oladigan siyosiy shaxs ekanini ifodalaydi.

Shu bilan birga bir nechta tasviriy san’at asarlarida ham yuqoridagi ilovadan foydalanilgan. Ular quyidagilar: R. Solijonovning "Registon" asari boy tarixiy yechim va chuqur badiiy tafakkur mahsulidir. Kompozitsiyada moviy rang gammasi ustuvor bo‘lib, Registondagi uch madrasaning viqorli me’moriy qiyofasi aniq ifodalangan. Tillakori madrasasi markazda, o‘ngda Mirzo Ulug‘bek, chapda esa Sherdor madrasalari joylashgan bo‘lib, ularning moviy gumbazlari osmon musaffoligi bilan uyg‘unlashgan. Asarning to‘rtburchak shakli va perspektiv yechimi maydonning jonli atmosferasini ta’kidlaydi. Sayyohlar bilan gavjum Registon hovlisi, tushayotgan soyalar dinamikasi va chekkalariga ekilgan gullar tasvirga tabiiylik baxsh etadi;

M. Nuriddinovning “Amir Temur davlat ramzlarini qabul qilmoqda” asari Amir Temurning buyuk mas’uliyatni zimmasiga olayotgan tarixiy lahzasini mohirlik bilan aks ettiradi. Asarda Chinozda o‘tgan marosim jonli tasvirlangan. Pir Said Baraka unga ko‘k bayroq va do‘mbirani topshirar ekan, bu nafaqat ramziy buyumlar, balki hokimiyat va sarkardalik mas’uliyatining ham timsoli sifatida tasvirlangan. Amir Temurning mag‘rur va shiddatli qiyofasi, katta hurmat bilan piri oldida turgan holati asarning ruhini ochib beradi. U temir sovut va tojda, Said Baraka esa oppoq to‘n va oq soqol bilan donishmandlik timsoli sifatida berilgan. Yorqin ranglar, mujassamotdagi tafsilotlar va marosim qatnashchilarining jonli tasviri tomoshabinni asar ichiga olib kiradi;

M.Azlarxo‘jayev, B.Olimjonov va Sh.Baxriddinov tomonidan 1996-yilda yaratilgan “Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi rasadxonada” kartinasi O‘zbekiston tasviriy san’atining tarixiy janridagi yirik asarlardan biri bo‘lib, asar katta formatda, moybo‘yoq texnikasida, sintetik grunt ishlov berilgan mato yuzasida bajarilgan. Kartinaning kompozitsion yechimi an’anaviy sharq miniatyura va G‘arbiy Yevropa rangtasvir maktablarining o‘ziga xos sintezini namoyon etadi. Markaziy figuralar –

Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi – oltin kesish nuqtasidan biroz o‘ng tomonda joylashib, o‘zaro ilmiy suhbatda aks etgan. Ulug‘bekning ixtiyoriy burilishi, qo‘llarining orqaga tashlangan holati uning tafakkuriy faoliyatini ifodalasa, Ali Qushchining harakati va ishora qilayotgan qo‘li ilmiy izlanish jarayonini aks ettiradi. Atrofdagi olimlar – Mirak Chalabiy, Jamshid Koshiy va boshqa ilm ahli astronomik kuzatuv va matematik hisob-kitoblar bilan band bo‘lib, har bir obrazning psixologik holati va ijtimoiy roli aniq ifodalangan. Rasadxonaning interyeri islom me’moriy va amaliy san’atining yuksak namunalarini o‘zida mujassam etib, sopol koshinlar, naqshinkor yog‘och mebel, astronomik asboblar va qo‘lyozmalar orqali ilmiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

A. Aliqulovning “Amir Temur qo‘shinining To‘xtamish ustidan g‘alabasi” kartinasi tarixiy janrda yaratilgan yirik asar bo‘lib, unda optik qonuniyatlar, ranglarning emotsional va ramziy mazmuni ustalik bilan qo‘llangan. Kompozitsiyaning markazi oltin kesish tamoyiliga asoslanib tuzilgan bo‘lib, unda barcha harakatlar muvozanatli joylashtirilgan. Asarda Amir Temur qo‘shinlari o‘ng tomonda, To‘xtamishning yarador jangchilari esa chap tomonda joylashgan. Markazda sarkardalar tomoshabin tomon ot qo‘yib kelayotgani tasvirlangan bo‘lib, ularning qo‘llarida moviy bayroqlar hilpiraydi. Jang sahnasida zar naqshli qizil chodir ag‘darilayotgani va To‘xtamish qo‘shinining tor-mor etilgani aks etgan.

Temuriylar tarixi davlat muzeyida tasviriy san’at ekspozitsiyalarini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish muzey eksponatlarining yanada ta’sirchan va tushunarli bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvlar san’at ixlosmandlari va tadqiqotchilar uchun yangi bilim manbayini yaratib, Temuriylar madaniy merosini keng targ‘ib qilish imkoniyatini oshiradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Темурийлар тарихи давлат музейи дурдоналари [Матн]: фотоальбом. Тошкент: «Mashhur-Press», 2017. - 320 б.

2.Музей ва замонавий технологиялар [Матн] / Ш.А. Миралиева. - Тошкент: "Фан" нашриёти, 2023. - 144 бет.

3.file:///C:/Users/Shahnoza/Desktop/SIES+1114.pdf// Мухамедова М.С., Жабборова Л.Т. “Музей фаолиятида миллий ва умуминсоний муаммолар негизида жамият билан хамкорлик омиллари” // Тошкент, 2018 й,

3.1 file:///C:/Users/Shahnoza/Desktop/SIES+1114.pdf// 3 Хабибуллаев Н. Музей ва фан-таълим//Ўзбекистон музейлари истоқболлари. – Тошкент, 2013. – Б.7.

4.Ўзбекистонда музей иши тарихи: олий ўқув юртлари учун ўқув-услубий қўл. / Д.Т. Курязова; мухаррир: Ш.А.Гаипова; Ўзбекистон бадиий академияси, Камолиддин Бехзод номидаги миллий рассомлик ва дизайн ин-ти. - Т.: "San'at" журнали нашриёти, 2010.-154 б.

5. Temuriylar tarixi davlat muzeyida Smart texnologiyalar joriy etildi https://www.academy.uz/uz/news/temuriylar-tarixi-davlat-muzeyida-smart-texnologiyalar-joriy-etildi

6.https://www.khivamuseum.uz/uz/muzeylarga-innovacion-tehologiyalarni-zhoriy-kilish-borasida-muhim-kelishuv

7. Temuriylar tarixi davlat muzeyi o‘z mobil ilovasi va QR-kodlarga ega bo‘ldi https://kun.uz/85815971?q=%2Fuz%2F85815971

ISMATULLAYEVA Zebo Shukurjonovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
zeboismatullayeva1987@gmail.com
orcid: 0009-0008-2633-4603

O‘ZBEKISTONNING MADANIY MEROSI VA SAYYOXLIK IMKONIYATI XORIJLIKLAR NIGOHIDA

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirilishi, bunda muzeylardan unumli foydalanish masalalari tahlil etilgan. Muallif ushbu munosabatlarni, o‘tkazilib kelinayotgan turizm yarmarkalari, yirik tarixiy shaxarlardagi festivallar doirasida yoritishga harakat qilgan. Shu bilan birga ushbu sohani rivojlantirishga oid o‘zining ilmiy taklif va tavsiyalarini ham olg‘a surgan. Maqoladagi masalalarni ko‘plab ilmiy manbalar, davriy matbuot materiallari va O‘zbekiston milliy arxividan olingan manbalar asosida ko‘rsatib bergan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Respublikasi, turizm, integratsiya, ko‘rgazmalar, madaniy diplomatiya, BMTning Turizm tashkiloti, “Ipak yo‘li – muloqat yo‘li”, Rui Gonales de Klavixo, YUNESKO.*

Аннотация. *В статье проанализировано развитие туризма в Республике Узбекистан, вопросы эффективного использования музеев. Автор пытался осветить эти взаимоотношения в рамках проводимых туристских ярмарок, фестивалей в крупных исторических городах. В то же время он также продвигал свои научные предложения и рекомендации по развитию этой области. На основе многочисленных научных источников, материалов периодической печати и источников из Национального архива Узбекистана.*

Ключевые слова: *Республика Узбекистан, туризм, интеграция, выставки, культурная дипломатия, туристическая организация ООН, “Шелковый путь – путь диалога”, Руи Гоналес де Клавихо, ЮНЕСКО.*

Annotation. *The article analyzes the development of tourism in the Republic of Uzbekistan, the productive use of museums. The author tried to cover this relationship, within the framework of tourism fairs, festivals in large historical cities. At the same time, it has also advanced its scientific proposals and recommendations regarding the development of this field. He outlined the issues of the article on the basis of numerous scientific sources, materials of the periodical press and sources from the National Archives of Uzbekistan.*

Keywords: *Republic of Uzbekistan, tourism, integration, exhibitions, cultural diplomacy, UN Tourism Organization, “Silk Road – way of communication”, Rui Gonales de Clavixo, UNESCO.*

O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi hamkorliklari nafaqat

iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy aloqalarni ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakat jahon turizm bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash, xorijiy investorlarni jalb qilish va milliy turizmni rivojlantirish maqsadida bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

O‘zbekistonning turizm sohasidagi xalqaro hamkorligi faqat iqtisodiy masalalar bilan cheklanib qolmaydi. Madaniy almashinuv, an’anaviy festivallar, san’at va tarixiy merosni targ‘ib qilish O‘zbekistonning xalqaro turizmdagi imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Masalan, O‘zbekistonning BMTning Turizm tashkiloti (UNWTO) bilan aloqalari mamlakatning turizm bozoriga integratsiyasini yanada kengaytirish imkonini beradi[1].

O‘zbekiston Respublikasining Germaniya hamkorligining muhim yo‘nalishlaridan biri turizm sohasidagi aloqlarni rivojlantirishdir. O‘zbekistonda turistlar uchun 1992 yilda 115 ta davlat tashkilotlari xizmat qilgan bo‘lsa, hozirda davlat va nodavlat xizmat ko‘rsatish tashkilotlari soni 350 dan ortiqdir[2]. Davlat Bojxona statistika qo‘mitasi malumotiga ko‘ra 1997 yil davomida O‘zbekistonga 963,5 ming turist tashrif buyurgan. BMT ning taraqqiyot dasturi ekspertlari fikricha 2005 yil O‘zbekistonga kelgan turistlar soni 1 mln ga yetishi kerak edi[2]. Bu sohani rivojlantirishga qaratilgan sa’y harakatlar natijasida yuqoridagi ekspertlar fikri haqiqatga aylandi. (2008 yil 1sentyabrigacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonni 1 mln turist ziyorat qilgan.) 2024 yilning yanvar-may oylarida 2,8 milliondan ortiq chet el fuqarolari turistik maqsadda O‘zbekistonga tashrif buyurgan.

“Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 248,2 ming nafarga yoki 9,6 % ga oshgan” [3]. O‘zbekistonga 5 oyida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining mamlakatlar kesimida soni quyidagicha:

- Tojikiston – 871,5 ming nafar;
- Qir g‘iziston– 857 ming nafar;
- Qozo g‘iston – 498,2 ming nafar;
- Rossiya – 289,6 ming nafar;
- Turkmaniston – 53,8 ming nafar;
- Turkiya – 42,1 ming nafar;
- Hindiston – 23,2 ming nafar;
- Xitoy – 22,8 ming nafar;
- Italiya – 15,3 ming nafar;
- Janubiy Koreya – 15,1 ming nafar;
- Boshqa davlatlar – 148,7 ming nafar[3].

2026 yilga kelib O‘zbekistonga keladigan sayyohlar sonini 10 milliondan orttirish reja qilingan. Agar biz ularning qiziqish va marshrutlarini kuzatadigan bo‘lsak, asosan tarixiy shaxarlar va u yerlardagi madaniy yodgorliklar hamda ochiq osmon ostidagi muzeylarni ziyorat qilish maqsadida tashrif buyurayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Agar solishtiradigan bo‘lsak, O‘zbekiston o‘zining turistik imkoniyati bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1- o‘rinni, dunyo mamlakatlari ichida 10-15 davlatlar qatoriga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Buyuk Britaniyada o‘tkaziladigan “jahon turizm yarmarkasida”, “word travel market” bir necha bor, Germaniyaning Frankfurt

shahridagi o‘tkazilgan turizm yarmarkalarida “ O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, ko‘plab firma, mexmonxona vakillari ishtirok etgan. O‘zbekiston Respublikasi 1993 yil Butunjahon turistlar tashkilotiga qabul qilindi . 1997 yildan tashkilotning ijroyi kengash a’zoligiga saylandi. 1994 yil O‘zbekistonda xalqaro “Ipak yo‘li – muloqat yo‘li” seminar o‘tkazilib, unda 20 ga yaqin mamlakat vakillari ishtirok etdi. Albatta, iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi bo‘lgan Turizm sohasini rivojlantirishda Yevropa Ittifoqi va unga a’zo mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, erishgan tajribalaridan foydalanish mamlakatimizni dunyoni rivojlangan mamlakatlari qatorida munosib o‘rin egallashida muhim rol o‘ynaydi.

Takidlash joizki, qadimiy Ispaniya mashxur elchisi Rui Gonales de Klavixo nomi bilan ataladigan ko‘chada joylashgan binoda bo‘lib o‘tdi. Merni aytishicha, Klavixo Soxibqiron Amir Temur xuzuriga tarixiy safarga otlanganiga bu yil 600 yil to‘ladi shu munosabat bilan shaxar mamuryati mazkur safar va shu davr xaqida ko‘rgazma tashkilash niyatida ekan. Mer janoblari mamlakatimiz raxbaridan shu tadbirni o‘tkazishda hamkorlik va yordamini ayamasligini so‘radi. Ko‘rgazmani keyinroq Toshkent va Samarqantda ham o‘tkazish taklifini berdi. Ipaniya sayyohlik yuksak darajada rivojlangan davlatlar sirasigi kiradi. Birgina ana shu soxadan xar yili mamlakat g‘aznasiga 34 miliard AQSh dollariga yaqin mablag‘ tushadi. Jahon sayyohlik tashkilotining (JST)bosh qarorgoxi Madridda joylashgani ham bejizga emas.

O‘zbekistonning sayyohlikni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari bu mamlakatnkidan qolishmaydi. Islom Karimov JST bosh kotibi Franchesko Franjialini qabul qilgan chog‘ida O‘zbekistondadagi ana shu imkoniyatdan samarali foydalanishiga oid masalalar muxokama qilindi.

O‘zbekiston turizm soxasida nafaqat Yevropa davlatlari bilan balki Osiyo mamlakatlari bilan ham hamkorlik qilmoqda. O‘zbekturizm milliy kompaniyasi Yaponiya poytaxti Tokio shaxrida “ JATA Travel Fair - 2008” xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasida ishtirok etdi. Ko‘rgazmada jahonning 136 mamlakatidan kelgan turli firma va kompaniya vakillari ishtirok etdi[4]. Ko‘rgazma doirasida xalqaro sayyohlik anjumani ham o‘tkazilib, unda dunyoning 97 mamlakatidan 1150 nafar kishi qatnashdi.

Ushbu nufuzli xalqaro tadbirda “O‘zbekiston madaniyaati va san’ati forumi” jamg‘armasi “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, “O‘zbekiston xavo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, shuningdek “Kelajak-Tur”eshlarning xalqaro sayyohlik va xamkorlik byurosi, “OXIS Travel LTD”, “sitara internotional” va “Sairam Tourism” kabi firma va kampaniyalari yurtimizni namoyon etdi.

Ko‘rgazma doyrasida O‘zbekistoning sayyohlik salohiyati taqdimoti, shuningdek, “Yagi Buyuk Ipak yo‘li istiqbollari va Yaponiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi sayyohlik saloxiyaati almashuvi” mavzuidagi seminar tashkil etildi. Chunki tarixiy davrlarga e’tibor qaratsak, aynan shu buyuk ipak yo‘li rivojlangan davrlardan bizni o‘lkalarga turistlar oqimi oshganligini ko‘ramiz. Ushbu tadbirlardan maqsad ham shu natijalarni qaytarish hisoblanadi. Unda Yaponiyaning turli vazirlik va idoralari, yirik sayyohlik kompaniyalari vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, shuningdek “JATA” prezidenti Kosuke Shabata ishtirok etdi.

Mehmonlar etiboriga O‘zbekistonning madaniy va tarixiy markazlari,

diqqatga sazovor joylari, xalqaro sayyohlik imkoniyatlariga doir malumotlar taqdim etildi. Yaponiyalik arxeolog, Buyuk Ipak yo‘li xalqaro akademiyasi direktori, professor Kyudzo Katoning “O‘zbekistondagi budda yodgorliklarining sayyohlik jozibadori” va taniqli suratchi Jyuna Akinoning “O‘zbekiston sayyohligi va madaniy merosi yapon fotorassomi nigoxida” mavzuidagi ma’ruzalari ishtirokchilarda, ayniqsa, katta qiziqish uyg‘otdi. Tadbir doirasida mamlaktimiz Milliy san’at markazi tomonidan tashkil etilgan O‘zbekiston xalq amaliy san’ati ustalarining ishlari namoyishi ham bo‘lib o‘tdi.

Seminarda ta’kidlanganidek, Yaponiya xalqaro sayyohlikni xalq diplomatiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baxolaydi. «Kunchiqar yurt» xukumati xorijga safar qiluvchi yaponiyalik sayyohlar sonini 2010 yilga borib, 20 million kishiga yetkazishni rejalashtirgan edi. Shu munosabat bilan Yaponiya sayyohliq agentliklari assotsiatsiyasi yangi sayyohlik yo‘nalishlarini o‘zlashtirishga katta e’tibor qaratmoqdaki, ular orasida O‘zbekiston alohida o‘rin egallaydi. 2005 yilda Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro sayyohlik konferentsiyasida Yaponiya kompaniyalarinig muvafaqqiyatli ishtirokidan so‘ng O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan yapon sayyohlari soni keskin oshgan edi. Seminar chog‘ida O‘zbekistonda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, me’moriy yodgorliklarni qayta ta’mirlash va obodonlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar, shuningdek, YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan diqqatga sazovor tarixiy joylar haqida atrofligicha xikoya qilindi. O‘zbekiston bilan Yaponiya sayyohlik kompaniyalari hamda agentliklari o‘rtasidagi aloqalarni yo‘lga qo‘yish va yanada kengaytirish ikki xalqning do‘stona munosabatlarini mustaxkamlash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Yaponiya yerdan foydalanish, infratuzilmalar, transport va sayyohlik vazirligining turizm bo‘yicha departamenti bosh direktori o‘rinbosari Naboru Nishitaka tadbir haqida o‘z fikr-muloxazalarini o‘rtoqlashib, jumladan, shunday dedi: “Bugun biz O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati, jahon ahamiyatiga molik boy tarixiy va madaniy merosi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Bo‘lib o‘tgan anjuman O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari haqida yanada ko‘proq bilib olish va xalqingiz tarixi hamda madiyati bilan yaqinroq tanishish, shuningdek, betakror yurtingizga safar qilish istagida bo‘lgan yaponiyaliklar sonining ortishiga xizmat qiladi.

“PROCO Air Service” kompaniyasi rahbari T.Kasaxara: O‘zbekiston haqidagi bunday nufuzli seminarda ishtirok etish imkoniyati yaratilganidan juda xursandman. Bizning kompaniyamiz “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining chiptalari sotuvi bilan shug‘ullanmoqda.

O‘zbekistonlik sheriklar bilan seminar va muloqotlarda ishtirok etish hamkorligimizni yanada yuksaltirishga hamda yurtingizdagi xalqaro sayyohlikni rivojlantirish ishiga o‘zimizning munosib xissamizni qo‘shishga xizmat qilishi, shubhasiz, dedi T.Kasaxara. Birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz natijasida O‘zbekiston aviakompaniyasi yo‘nalishlarida yaponiyalik yo‘lovchilar oqimining yanada ko‘payishiga ishonaman.

Buyuk Ipak yo‘li xalqaro akademiyasi direktori Kyudzo Kato: Men seminar ishida ishtirok etib, yaponiyaliklar orasida O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatiga

bo‘lgan qiziqish tobora o‘sib borayotganiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Ushbu anjuman natijalari g‘oyatda samarali bo‘ldi, deb hisoblayman. Men o‘z ma’ruzamda O‘zbekiston zaminida sayyohlar va tadqiqotchilar uchun katta qiziqish uyg‘otadigan ko‘plab qadimiy yodgorliklar mavjudligini ta’kidladim. Diyoringizda yaponiyalik sayyohlarni hamisha ochiqko‘ngillik bilan kutib olishlarini juda yaxshi bilaman. Binobarin, o‘zbek xalqiga hos mehmondo‘stlik va samimiylik, bu yerda tayyorlanadigan mazali milliy taomlar har qanday sayyohda unitilmas taassurot qoldiradi[9].

AQSHda nashr etiladigan“The New York Times”gazetasining internetdagi saxifasida Toshkent metropoliteni haqida fotoocherk e’lon qilindi. Mazkur maqolada Toshkent metropolitenining o‘ziga xos me’mori yechimlari, uning ozoda va shinam ekanligi aloxida ta’kidlangan.

Muallif bekatlarga tashrif buyurar ekan, u yerda aks ettirilgan suratlarda mamlakatning kechagi va bugungi hayoti bilan bog‘liq jihatlarga ham e’tibor qaratadi. Shuningdek, maqolada Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatiga chizg‘ilarni ham uchratish mumkin. Janob Mirziyoyev rahbarligi ostida mamlakatda ochiqlik belgilari namoyon bo‘la boshladi. Xukumat mamlakatga keluvchilar uchun to‘siqlarni olib tashlay boshlagach, tashrif buyuruvchilar soni 2018 yilda 6,4 million kishiga yetdi. 2017 yilda bu ko‘rsatkich 2,8 million nafarni tashkil etgan edi[5].

Xorij ommaviy axborot vositalarida mamlakatimiz sayyohlik sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora tadbirlar haqda ko‘plab maqola, ko‘rsatuv va radioeshittirishlar berilmoqda. Bu ham chet ellik turistlarda O‘zbekistonga nisbatan qiziqish oshishiga katta turtki bo‘lyapti.

Birgina Rossiyadan 2018 yilda yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni uch barobar ortgani bunga misoldir. “Interfaks” axborot agentligi muxbirlarining yozishicha respublikada sayyohlar uchun, qulay shart-sharoitlar yaratish va milliy turistik maxsulotlarni xorijda targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar tatbiq etildi. O‘zbekistonning barcha viloyat va shaxarlari o‘ziga xos sayyohlik salohiyatiga ega bo‘lib, bugungi kunda ular ham o‘z imkoniyatlarini chet elda namoyon etishlariga sharoit bor. Bojxona va pasport nazorati tizimining yengillashtirilishi esa mexmonlar uchun qulaylik yaratgan yana bir muhim voqea bo‘ldi.

Turizm bo‘yicha ekspert va taniqli bloger Mariya Haumenko bu boradagi fikrlari bilan o‘rtoqlashar ekan, so‘nggi vaqtda respublika yuritayotgan ochiqlik siyosati turizm soxasida ham o‘z aks sadosini berayotganini e’tirof etadi. Milliy aviakompaniya faoliyatining takomillashtirilishi natijasida yo‘lovchilar uchun ko‘plab qulayliklar yaratildi. Bort menyusi yangilanib, yo‘lovchilarning parvozi qulay va mazmunli bo‘lishi ta’minlandi. Samarqand, Buxoro va Xiva an’anaviy turizm markazlari bo‘lib, mamlakat boshqa shaharlarga ham sayyohlarni jalb qilish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, deydi mutaxassis[6].

Yaponiyaning nufuzli “The Japan Times” gazetasida chop etilgan maqolada O‘zbekistonning uzoq muddatga mo‘ljallangan va keng miqyosli rejalari dunyo sayyohlik bozoridagi “o‘yin qoidalari”ni o‘zgartirib, sayyohlar oqimini Buyuk Ipak yo‘lining chorraxasi tomon burib yuborishi mumkinligi ta’kidlanadi.

“Bu ijobiy tendentsiyadir. Zero, ulkan imkoniyatlarga qaramay, respublikaga

sayyohlar oqimi ko‘ngildagidek emasdi. Endi ushbu vaziyat Keskin o‘zgardi. Yaponiyadan O‘zbekistonga bo‘radigan reyslarga sayyohlar bir oy oldin chipta buyurtma qilishga majbur. Zero, barcha samolyotlar yo‘lovchilar bilan to‘la: yaponlar oilalari bilan o‘zbek zaminiga sayohat qilishmoqda. Nafaqat Tokio, balki Yaponiyaning boshqa shaharlari vakillari ham Samarqandning Registoni, Xivaning Ichan qal’asi, Buxoro Arkini ko‘rish istagida”, deb yoziladi gazetada[6].

Malayziyaning “The Straits Times" gazetasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston ziyorat turizimi imkoniyatlaridan to‘la foydalanmoqda. Joriy yil fevral oyida respublikada turizmning mazkur yo‘nalishiga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkazilib, bu orqali O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqish yanada ortishi kutilayotir. Malayziyalik jurnalistning qayd etishicha, o‘zbek zaminidagi muqaddas qadamjolar nafaqat sayyohlik soxasining yanada rivojlanishiga, balki islom madaniyati targ‘ibotiga xizmat qiladi[8].

“Diniy va ma’naviy merosni saqlash, mavjud fondlarni boyitib borish, tarixiy manbalar bilan ishlash uchun maxalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarga zarur sharoitlar yaratildi. Mamlakatda qadimgi qo‘lyozmalar, litografiya kitoblari, tarixiy xujjatlar, ilmiy va diniy maktablarga oid qadimgi merosni o‘rganish yanada samarali yo‘lga qo‘yildi. Dinshunoslik bo‘yicha olim va mutaxassislar uchun keyingi manzil O‘zbekistondir”. AQSh ning “Loneli Planet” jurnalida sayyohlarda endilikda O‘zbekistonga vizasiz sayohat qilish mumkinligi eslatib o‘tiladi[7].

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 45 mamlakat vakillari, shu jumladan ko‘plab yevropa davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada va Mo‘g‘oliston fuqarolari uchun endilikda viza kerak emas. Bundan oldinroq Germaniya fuqarolari uchun vizalar bekor qilingan. Ushbu yangilik O‘zbekiston Prezidenti olib borayotgan ochiqlik siyosatining mantiqiy davomi bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev o‘zini progressiv yetakchi sifatida namoyon etib, mamlakatning xalqaro aloqalarini kuchaytirish, ularga yangicha ruh bag‘ishlashga intilmoqda” deyiladi jurnalda[6].

Xulosa. Xalqaro turizmni rivojlantirishda xalq diplomatiyasining o‘rni juda katta bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi xalqaro hamkorliklari mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Turizmni rivojlantirishida albatta mamlakat madaniy yodgorliklarini o‘rni katta hisoblanadi. Shu orqali nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad olish, balki madaniy almashinuvni yanada mustahkamlash, xalqaro aloqalarni kengaytirish mumkin. O‘zbekistonning global turizm bozoridagi o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganligini, yildan – yilga O‘zbekistonning tarixiy shaxarlari bo‘lgan Samarqand, Buxoro va Xivalarga sayyohlar oqimini ko‘payib borayotganligida ko‘ramiz. Ushbu say harakatlar kelajakda yanada muvaffaqiyatli hamkorliklarga erishish imkoniyati mavjudligini ta’kidlash lozim. Mamlakatlar, shu jumladan O‘zbekiston, o‘z madaniy merosini saqlash, rivojlantirish va xalqaro miqyosda tanitish orqali, nafaqat turizmni rivojlantirish, balki o‘zlarining tarixiy, madaniy va ilmiy boyliklarini dunyoga namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMTning Turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlari. https://samarkandtourism.uz/news/endi-butunjahon-turizm-tashkiloti-unwto-un-tourism-bmt-turizmi-deb-ataladi/.
2. Бобаходжаев М.Суверенный Ўзбекистан.Вопросы внутренней и внешнеэкономической политики.Тошкентский государственный институт востоковедение.Т.2005.-б.238.
3. O‘zbekistonga ko‘proq qaysi davlatdan turist kelgani ma’lum bo‘ldi - Sputnik O‘zbekiston. https://oz.sputniknews.uz/20240623/uzbekistan-davlat-turist-44486942. html. 23.06.2024.
4. JATA Travel Fair – 2008. Ярмаркасида Ўзбекистон иштироки. Халқ сўзи. - 2008.- 7 октябрь.
5. Тошкент метрополитени америкадаги нашр нигоҳида. Халқ сўзи. 2019. 29-ноябир.
6. Мирзаев А. Хорижликлар Ўзбекистон туризими ҳақида қандай фикрда. Ҳалқ сўзи 2019 30 феврал.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasining Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining rasmiy veb-sayti.
9. ISMATULLAEV, F. INTERNATIONAL CULTURAL RELATIONS OF UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF THE EUROPEAN UNION). O ‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2020,[1/5] ISSN 2181-7324.
10. Shukurjonovna I.Z. (2024). DAVLAT TARAQQIYOTIDA TASHQI SIYOSATNING O ‘RNI. Eurasian Journal of Academic Research, 4(7S), 438-442.

AZIMOVA G.F.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi

Tayaynch doktoranti (PhD)

ganjinaazimova324@gmail.com

MUZEYLARDA NOYOB KITOBLARNI TO‘PLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya*: Maqolada muzeylarda noyob kitoblarni to‘plash jarayoni, ularning tanlanishi, saqlanishi va ilmiy hamda madaniy meros sifatida qadrlanishi tahlil qilinadi. Muzey kolleksiyalarining shakllanish tarixi va noyob kitoblarning kelajak avlodlarga taqdim etilishini o‘rganish orqali, asarlarning ahamiyati keng yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *noyob kitoblar, muzey, kolleksiya, saqlash, madaniy meros,*

ilmiy qadriyat.

***Annotation**: The article examines the process of collecting rare books in museums, focusing on their selection, preservation, and recognition as both scholarly and cultural heritage. It analyzes the history of museum collections and the significance of rare books for future generations.*

***Keywords:** rare books, museums, collection, preservation, cultural heritage, scholarly value.*

***Аннотация**: В статье рассматривается процесс сбора редких книг в музеях, включая их отбор, хранение и признание в качестве научного и культурного наследия. Анализируется история формирования музейных коллекций и значение редких книг для будущих поколений.*

***Ключевые слова:** редкие книги, музеи, коллекция, хранение, культурное наследие, научная ценность.*

Nodir kitoblar xalqning ilmiy va madaniy merosini aks ettiruvchi bebaho boylik bo‘lib, ularning har biri tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu noyob asarlarni asrab-avaylash nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun muhim, balki milliy o‘zlikni anglash va madaniy qadriyatlarni kelgusi avlodlarga yetkazish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu kitoblarning yemirilishi, yo‘qolib ketish xavfi ortib bormoqda. Shu sababli, ularni saqlash va tadqiq qilish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish muhim vazifalardan biridir. Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [6] aynan shu maqsadga xizmat qilib, nodir kitoblarni zamonaviy texnologiyalar yordamida tiklash, raqamlashtirish va keng targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan.

Noyob kitob — bu kitob o‘zining kam uchrashi, tarixiy ahamiyati, holati yoki jismoniy va estetik xususiyatlari tufayli katta qiymatga ega bo‘lgan kitobdir. Noyob kitob har doim eski bo‘lishi shart emas, ammo u kamdan-kam uchraydigan va to‘plovchilar yoki tadqiqotchilar orasida qiziqish uyg‘otadigan kitobdir. Noyoblikka ta’sir qiladigan omillar orasida kitobning cheklangan nashri, mashhur shaxslar bilan bog‘liq bo‘lishi yoki muhim asarning birinchi nashri bo‘lishi mumkin [10]. Noyob kitoblarning ko‘p qismi faqat ma’lum miqdorda nashr etilgan bo‘lib, ularning har biri o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, birinchi nashrlar yoki muallifning o‘zi tomonidan imzolangani kitobning qiymatini oshiradi. Bunday kitoblar, o‘zining cheklangan nusxalari, tarixiy ahamiyati yoki madaniy qiymati bilan qimmatli hisoblanadi. Biroq, noyob kitoblarning qadri ularning qiyin topilishi va qimmatli bo‘lishi bilan bog‘liq, bu ularni faqat to‘plovchilar va ilmiy tadqiqotchilar uchun emas, balki keng jamoatchilik uchun ham qiziqarli qiladi.

Noyob kitoblar, faqat o‘zining jismoniy holati bilan emas, balki tarixiy, ilmiy va madaniy ahamiyati bilan ham qimmatli bo‘ladi. Ular yillar davomida qadrli bo‘lib, haqiqatan ham jamiyat uchun muhim manba bo‘lgan adabiy asarlar hisoblanadi. Noyob kitoblar omillarga bog‘liq holda to‘planadi. Bular orasida kitoblarning nashr sanasi, mualliflari, ilk nashrlar, yirik ilmiy kashfiyotlar va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar mavjud. Shu bilan birga, ba’zi kitoblar o‘zining ishlov berilishiga, dizayni yoki xatolariga qarab ham noyob bo‘lishi mumkin. Kitoblar juda kam miqdorda nashr qilingan yoki tarqatilgan, shuning uchun ular

raqobatbardosh va qimmat bo‘ladi. Masalan, kitoblarning birinchi nashrlari, kitob mualliflarining shaxsiy imzolari yoki kitoblarida bo‘lgan maxsus qaydlar ularni noyob va qimmatli qiladi.

Noyob kitoblarni to‘plovchilar, odatda, ma’lum bir mavzuga yoki janrga bo‘lgan qiziqishlariga asoslanib to‘plamlarini yaratadilar. Bu to‘plovchilar ko‘pincha yirik kolleksiyalarni tashkil etib, kitoblarni tarixiy va madaniy jihatdan qiymatini baholab yig‘adilar. Bunday to‘plovchilar ko‘p hollarda o‘z to‘plamlarini boshqa kolektsionerlar bilan bo‘lishishadi yoki o‘z kitoblarini ilmiy tadqiqotlar uchun jamoatchilikka taqdim etadilar. To‘plovchilar kitoblarni saqlash va ularning saqlanishi uchun ko‘plab konservatsiya usullarini qo‘llaydilar.

Muzeylar noyob kitoblarni to‘plashda bir nechta belgilangan mezonlarga asoslanadilar, bu esa muhim adabiy yodgorliklarni saqlashni ta’minlaydi. Ma’lum bir kesim sanasidan oldin chop etilgan kitoblar, odatda, noyob deb hisoblanadi. Bu sana odatda 1860-yillarga to‘g‘ri keladi, chunki shu davrda qo‘l pressidan bug‘li nashr qilish usuliga o‘tish kitob ishlab chiqarish metodlarida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi [7]. Kitobning boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjudligi juda muhim. Agar kitobning mavjud nusxalari kam bo‘lsa, masalan, beshta yoki undan kam nusxa saqlanayotgan bo‘lsa, u kitob noyob deb hisoblanishi mumkin. Shuningdek, bozorda katta qiymatga ega bo‘lgan kitoblar, odatda, to‘plovchilar tomonidan yuqori o‘rinda turgan. Kitobning o‘ziga xos jismoniy xususiyatlari, masalan, qo‘lyozmalar, kitobdagi tasvirlar yoki mashhur shaxslar bilan bog‘liqlik kitobning qiymatini va noyobligini oshiradi [8]. Kitoblar insoniyat bilimiga katta hissa qo‘shadigan yoki mahalliy ravishda ahamiyatli bo‘lgan bo‘lsa, ular o‘qish va madaniy qiymatlari sababli to‘plovchilarga ustunlik berilishi mumkin [9]. Ushbu mezonlarni qo‘llab, muzeylar o‘z to‘plamlarini nafaqat adabiyot tarixini aks ettiradigan, balki kelajak avlodlar uchun ta’lim maqsadlarida foydalanuvchi kitoblar bilan boyitishga harakat qiladilar.

Noyob kitoblar tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat moddiy madaniyat yodgorliklari, balki o‘tgan davrlar haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalardir. Muzeylar ushbu kitob to‘plamlaridan hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini o‘rganishda foydalanadilar [5;76]. Noyob kitoblar shunchaki eski qo‘lyozmalar yoki bosma asarlar emas, balki butun bir tarixiy davrning guvohlari hisoblanadi. Ular orqali o‘sha davrning ilm-fani, falsafasi, san’ati, iqtisodiyoti va hatto ijtimoiy hayoti haqida ma’lumot olish mumkin.

Noyoblik darajasini aniqlash muhim bosqich hisoblanadi. Zero, noyob kitoblarni aniqlashda turli qarashlar mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ri tanlash talab etiladi. John Carterning “ABC for Book Collectors” asarida noyoblik kitob yig‘ishdagi muhim omil sifatida ta’kidlanadi. Muallifning fikricha, noyoblikni haddan tashqari qadrlash “kuchli bibliomaniya”ga olib kelishi mumkin, bu esa og‘riqli va biroz kulgili kasallikdir. Bu yerda muallif noyoblikni taomdagi tuzga qiyoslaydi: “Noyoblik – kitob yig‘ishda tuz kabidir. Ammo agar siz juda ko‘p tuz qo‘shsangiz, taomning ta’mi buziladi; agar uni o‘z holicha iste’mol qilsangiz, u sizni kasal qiladi. Xuddi shunday, kitob kolleksionerlari orasida noyoblikni har qanday boshqa mezondan ustun qo‘yuvchilar uchinchi darajali bibliomaniyaga chalinishadi, bu esa og‘riqli va biroz kulgili kasallikdir” [2;182]. A. W. Pollard bir marta kitob

yig‘ishni quyidagicha ta’riflagan: “Bu – mazmuni, shakli yoki ma’lum bir nusxaning tarixi jihatidan doimiy qiziqish uyg‘otadigan va hozir yoki kelajakda topish qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan kitoblarni bir joyga to‘plashdir. U shunday davom etgan: “Bu noyoblik mezoni, ommaviy tushunchada kitob yig‘ishda haddan tashqari katta o‘rin egallaydi, ammo u qiziqish mezoniga nisbatan butunlay ikkinchi darajali hisoblanadi. Chunki qiziqarsiz kitobning noyobligi hech qanday ahamiyatga ega emas. Boshqa tomondan, agar bir kitob doimo oson topiladigan bo‘lsa yoki shunday bo‘lib qolishi kutilayotgan bo‘lsa, hech kim uni yig‘ishga hojat sezmaydi. Shunday bo‘lsada, bu kutilish ko‘pincha noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi ammo odamlar shunday deb o‘ylayotgan ekan, bu ularning yig‘ish istagini susaytiradi” [2;183].

Muzeylar esa bu kitoblarni nafaqat saqlab qolish, balki tadqiq qilish, jamiyatga tanishtirish, yangi ilmiy izlanishlarga turtki berish vazifasini ham bajaradi. Masalan, qadimgi iqtisodiy hujjatlar va savdo kitoblari orqali hududlarning iqtisodiy aloqalari, eski huquqiy matnlar orqali esa jamiyatning qonunchiligi va ijtimoiy tuzilishi o‘rganiladi.

Muzeylardagi fond tushunchasi muayyan mavzu, davr yoki turkumga oid madaniy, tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan ashyolar yig‘indisini anglatadi. Bu fondlar muzeyning asosiy ilmiy va ma’rifiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Har bir muzey o‘z ixtisosiga qarab turli xil fondlarga ega bo‘lishi mumkin, masalan, san’at asarlari, arxeologik topilmalar, tarixiy hujjatlar yoki noyob kitoblar fondi. Muzey fondlarining arxiv va kutubxona fondlaridan farqi shundaki, turli materiallarni to‘plash orqali tarixiy jarayonlar majmuasi hujjatlashtiriladi. Muzeylar uchun ashyoga taalluqli ma’lumotning mazmuni va hajmigina yetarli emas, bu ashyo nima maqsadda, qanday qilib yaratilganligi haqidagi axborot ham kerak, ya’ni ashyoning tabiatini aniqlovchi ma’lumotni yetkazib berish xususiyati bo‘lishi zarur.

“Muzey fondi” deyilganda, muzeyga doimiy saqlovga qabul qilingan, ilmiy tashkillashtirilgan materiallaming yig‘indisi tushuniladi. U nafaqat fond saqlovi va ekspozitsiyadagilarni, balki boshqa muzey yoki muassasaga ko‘rgazmada vaqtinchalik foydalanish uchun berilgan, shuningdek, ekspertiza, ta’mirlash uchun jo‘natilgan ashyolar, kolleksiyalarni ham qamrab oladi [1;19]. Qolaversa, muzey fondi tarkibiga ilmiy-axborot kartotekalari, fond hujjatlari, texnik tavsifnomalar ham kiradi. Fondning har bir eksponati maxsus hujjatlashtiriladi, inventarizatsiya qilinadi va ilmiy tavsif bilan ta’minlanadi. Muzey fondi eksponatlarning xavfsizligi va saqlanishini ta’minlash maqsadida qat’iy nazorat ostida bo‘lib, ularning harakati hujjatlashtirilgan tarzda yuritiladi. Shuningdek, muzey fondlari asosiy (asosiy jamg‘arma) va yordamchi (o‘rganish va rekonstruksiya qilish uchun mo‘ljallangan obyektlar) qismlarga ajratilishi mumkin. Fond materiallarining har biri ilmiy va madaniy qiymatiga qarab saralanadi va ular uchun saqlash sharoitlari, jumladan, harorat, namlik va yoritish darajasi aniq belgilangan tartib asosida tashkil etiladi.

Muzey fondlari uchun maxsus jihozlangan saqlash joylari talab qilinadi, ular ekspozitsiya zallari bilan qulay bog‘langan bo‘lishi lozim. Binoning tuzilishi fondlarning istiqboldagi kengayish imkoniyatini hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak. Bundan tashqari, maxsus saqlash joylari bilan bir qatorda eksponatlar qabul qilish xonasi, izolyator va dezinfeksiya kameralari ham ko‘zda tutilishi kerak. Fond bo‘limi xodimlari va tashrif buyuruvchilar uchun mo‘ljallangan

ish joylari saqlash hududlaridan alohida joylashtirilishi lozim. Saqlash joylarida xodimlarning ishlashi uchun maxsus joylar ajratilishi, shuningdek, zarur texnika va yoritish vositalari bilan jihozlanishi kerak. Fond saqlash xonalari turli materiallar xususiyatlariga ko‘ra alohida bo‘limlarga ajratiladi. Har bir turdagi eksponatlar uchun optimal harorat-va namlik rejimi yaratiladi. Asosiy eksponatlar uchun 18–22°C harorat va 55±5% namlik darajasi talab etiladi [4;23]. Saqlash tartibi eksponatlarning shikastlanishi va o‘g‘irlanishining oldini olishga qaratilgan. Shu sababli, maxsus rejalashtirilgan xonalar va ularning zarur texnik jihozlari bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz. – T.: “Turon-Iqbol”, 2018. – 206 b.

2. Carter J. ABC for Book Collectors (8th ed.). – New Castle, DE: Oak Knoll Press & British Library, 2004. – 234 p.

3. Basbanes N. A. A Gentle Madness: Bibliophiles, Bibliomanes, and the Eternal Passion for Books. – Chapel Hill, NC: Fine Books Press, 2012. – 709 p.

4. ЦНИИЭП им. Б. С. Мезенцева. Рекомендации по проектированию музеев. – М.: Стройиздат, 1988. – 48 с.

5. Сергеева Е. Ф. Редкая книга в коллекциях вузовских музеев Кемеровской области // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. – 2014. – № 28. – С. 76–82. https://cyberleninka.ru/article/n/redkaya-kniga-v-kollektsiyah-vuzovskih-muzeev-kemerovskoy-oblasti (06.02.2025).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli qaror – “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”: https://www.lex.uz.

7. What makes a book rare? St Andrews University Library: https://www.st-andrews.ac.uk/library/special-collections/help-and-support/find-and-research-materials/what-makes-a-book-rare/ (04.02.2025).

8. Research Guides: Special Collections - Rare Books: What Makes a Book Rare? Gettysburg College Library: https://libguides.gettysburg.edu/c.php?g=1282621&p=9413612 (04.02.2025).

9. The Complicated Ethics of Rare-Book Collecting. The Atlantic: https://www.theatlantic.com/books/archive/2024/05/rare-book-private-collection-ethics/678254/ (04.02.2025).

10. What is a rare book? Qatar Museums: https://qm.org.qa/en/stories/all-stories/what-is-a-rare-book/ (04.02.2025).

TOSHTEMIROVA Shohsanam
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
Etnografiya,etnologiya va antropologiya yo‘nalishi
1-kurs magistiranti
shohsanamtoshtemirova606@gmail.com

O‘ZBEKISTONNING MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISH: ETNOGRAFIK EKSPONATLARNI SAQLASH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonning madaniy merosini muzeylashtirish jarayoni, etnografik eksponatlarni saqlash va ularning ta’limiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada O‘zbekistonning boy madaniy merosi, jumladan, hunarmandchilik buyumlari, milliy liboslar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va xalq san’ati namunalari, muzeylarda saqlanib, kelajak avlodlarga yetkazilishi zarurligi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, muzeylarning ilmiy va ta’limiy roli, konservatsiya va restavratsiya ishlari, interaktiv va raqamli texnologiyalar orqali madaniy merosning ta’lim jarayonida qo‘llanishi tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston madaniy merosi, etnografik eksponatlar, muzeylashtirish, ta’limiy ahamiyat, konservatsiya, restavratsiya.*

Abstract: *This article describes the process of museumization of the cultural heritage of Uzbekistan, preservation of ethnographic exhibits and their educational value. The article considers the need to preserve Uzbekistan's rich cultural heritage, including handicrafts, national costumes, household goods and folk art samples, in museums and pass them on to future generations. Also, the scientific and educational role of museums, conservation and restoration works, the use of cultural heritage in the educational process through interactive and digital technologies are analyzed.*

Keywords: *cultural heritage of Uzbekistan, ethnographic exhibits, museumization, educational value, conservation, restoration.*

Аннотация: *В данной статье описан процесс музеефикации культурного наследия Узбекистана, сохранение этнографических экспонатов и их просветительская ценность. В статье рассматривается необходимость сохранения богатого культурного наследия Узбекистана, в том числе ремесел, национальных костюмов, предметов быта и народного творчества, в музеях и передачи его будущим поколениям. Также анализируется научно-просветительская роль музеев, консервационных и реставрационных работ, использование культурного наследия в образовательном процессе посредством интерактивных и цифровых технологий.*

Ключевые слова: *культурное наследие Узбекистана, этнографические экспонаты, музейизация, просветительская ценность, консервация, реставрация.*

Muzey – bu madaniy-tarixiy, tabiy-ilmiy qadriyatlarni aniqlash, muzey predmetlari vositasida axborotni to‘plash va tarqatish uchun mo‘ljallangan tarixiy belgilangan, ko‘pqirrali ijtimoiy axborot muassasadir[7;117].

O‘zbek xalqi asrlar davomida boy va betakror madaniy merosga ega bo‘lib, u

moddiy va nomoddiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Moddiy madaniy meros xalqning an’anaviy hunarmandchiligi, me’moriy yodgorliklari, tarixiy buyumlar va turli etnografik eksponatlarda o‘z aksini topgan. Hunarmandchilikning kulolchilik, misgarlik, zargarlik, to‘qimachilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi turlari O‘zbekiston madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Moddiy madaniy meros tarkibiga shuningdek, milliy liboslar, gilamlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va san’at asarlari ham kiradi.

Moddiy va nomoddiy madaniy meros O‘zbekistonning milliy o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ularni asrab-avaylash, muzeylashtirish va kelajak avlodga yetkazish muhim madaniy-ma’rifiy vazifalardan hisoblanadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish kerakligini ko‘rsatdi. Yirik arxeologik yodgorliklarda keng ko‘lamli tadqiqotlarni olib borish, qadimiy tarix va boy madaniyatimizni xalqimiz hamda jahon hamjamiyatiga targ‘ib qilish zarur. Tarixiy-madaniy merosning ilmiy axborot mazmuni, uning inson hayotining bir sohasi sifatidagi badiiy va amaliy ahamiyati yodgorliklardan foydalanish amaliyotining asosiy maqsadini belgilaydi[13;41].

O‘zbek xalqining etnografik eksponatlari uning boy madaniy merosi va tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Ushbu eksponatlar bir necha asosiy guruhlarga bo‘linadi. Hunarmandchilik buyumlari qadimdan O‘zbekistonda keng rivojlangan bo‘lib, ularning har biri muayyan hududga xos an’ana va uslublarga ega. Masalan, kulolchilik Rishton, G‘ijduvon va Xiva kulol maktablari orqali mashhur bo‘lib, u yerda sopol idishlar nafis bezak va sirlangan naqshlari bilan ajralib turadi. Misgarlik san’ati Buxoro va Qo‘qonda yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, u yerda misdan yasalgan idishlar va bezak buyumlari keng tarqalgan. Chilg‘ichilik esa asosan Samarqand va Termiz hududlarida rivojlanib, musiqa cholg‘ularini yasash an’anasi bilan bog‘liq.

Milliy liboslar va matolar hunarmandchilikning eng qadimiy turlaridan bo‘lib, atlas va adras matolarini tayyorlash Marg‘ilon to‘quvchilik maktabi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu hududda ipak matolarni ishlab chiqarish an’analari saqlanib qolgan. Do‘ppi tikish san’ati esa Buxoro, Farg‘ona va Toshkent do‘ppi tikuvchilik maktablari orqali mashhur bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos naqsh va bezak uslublariga ega.

Xalq san’ati namunalari orasida naqshinkor yog‘och o‘ymakorligi alohida o‘rin tutadi. Ushbu san’at turi Buxoro, Xiva va Samarqandda rivojlangan bo‘lib, masjidlar, madrasalar, eshik va mebel buyumlari o‘yma naqshlar bilan bezatiladi. Miniatura san’ati esa asosan Buxoro va Samarqand miniatyura maktablari orqali tanilgan bo‘lib, bu maktablarga asos solgan mashhur usta rassomlar tomonidan naqqoshlik an’analari davom ettirilgan.

O‘zbekistonning har bir hududida shakllangan hunarmandchilik maktablari va markazlari milliy madaniyatning muhim qismi bo‘lib, ular bugungi kunda ham an’analarni saqlab qolish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu merosni muzeylarda saqlash va keng targ‘ib etish esa milliy o‘ziga xoslikni asrash hamda kelajak avlodlarga yetkazishning muhim vositalaridan biridir.

Muzey kolleksiyalarini shakllantirish va to‘ldirish jarayoni etnografik

eksponatlarni yig‘ish, ularning ilmiy tahlilini amalga oshirish va kolleksiyaga qo‘shishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat yangi eksponatlarni to‘plash, balki mavjud eksponatlarni ham chuqur tahlil qilishni talab etadi. Etnografik buyumlar, masalan, qo‘lda ishlangan gilamlar, kulolchilik buyumlari, to‘quvchilik matolari yoki xalq musiqa cholg‘ulari kabi nozik san’at asarlari, odatda o‘ziga xos madaniy xususiyatlarga ega bo‘ladi va ularni muzeylarga kiritishda aniq ilmiy asoslar talab etiladi. Muzeyda istiqlol yillarida ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash bo‘yicha olib borilgan katta va muhim ishlar alohida ekspozitsiyalarda aks etgan. Bu ekspozitsiyalarning joylashishi va ularni ko‘z qorachig‘iday saqlashda qanday texnologiyalardan foydalanilayotgani juda muhimdir[5;59].

Bundan tashqari, yangi eksponatlarni yig‘ish jarayonida madaniy merosning zamonaviy asarlarini ham jamlashga e’tibor qaratish zarur. Masalan, bugungi kunda O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan milliy kulolchilik buyumlari va naqqoshlik asarlari o‘zining avloddan-avlodga o‘tgan qadimiy an’analari bilan yangi muzey kolleksiyalariga qo‘shilishi mumkin.

Konservatsiya va restavratsiya ishlari etnografik buyumlarning uzoq muddat saqlanishini ta’minlash uchun juda muhimdir. Har bir etnografik eksponat o‘zining materiali, shakli va naqshiga qarab alohida himoyaga muhtoj. Konservatsiya ishlari eksponatlarni zarur sharoitlarda saqlash, ularning aşınishini oldini olish, va tabiiy sharoitlarga ta’sirini kamaytirish uchun amalga oshiriladi. Masalan, gilamlar yoki to‘quv matolarining saqlanishi uchun ular maxsus iqlim sharoitlarida, past namlik va haroratda saqlanadi. Shuningdek, ular to‘g‘ri qatlamlangan va yuqori ultrabinafsha nurlaridan himoyalangan holda muzey fondlarida saqlanishi kerak[8;128].

Restavratsiya esa eksponatlarning dastlabki holatini tiklash va ularni uzoq muddatli saqlashga imkon beradigan jarayondir. Misol uchun, agar biror gilamning o‘rni yirtilgan yoki ranglari so‘ngan bo‘lsa, restavratordan uni tiklash va asl naqshini tiklash talab etiladi. Etnografik buyumlarning restavratsiya jarayonida ularning tarixiy va madaniy qiymatini saqlab qolish, eski texnologiyalar va materiallardan foydalanish muhimdir.

Bundan tashqari, konservatsiya va restavratsiya ishlari faqat tashqi ko‘rinishni yaxshilash bilan cheklanmaydi, balki eksponatlarning ichki tuzilishini ham tiklashni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, eski yog‘ochdan yasalgan idish yoki mebel buyumlarini tiklashda, ularning strukturasini saqlab qolish va materiallarning eskirgan qismlarini almashtirish uchun ilmiy texnikalar qo‘llanadi.

Etnografik eksponatlar ko‘pincha nozik materiallardan, jumladan, mato, yog‘och, mis, kulolchilik va boshqa tabiiy materiallardan yasaladi. Bunday buyumlarni saqlashda optimal sharoitlarni yaratish, ya’ni harorat, namlik va yoritish rejimini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Bu sharoitlar etnografik buyumlarning eskirishini oldini olish va ularning saqlanish muddatini uzaytirish uchun zarurdir.

Misol uchun, O‘zbekistonning qadimiy gilamlarini saqlashda harorat va namlik darajasini muvofiqlashtirish kerak. Gilamlar ipak va jun kabi materiallardan yasaladi, bu materiallar issiq va nam sharoitda tezda zarar ko‘rishi mumkin. Shuning uchun, yog‘och va boshqa nozik materiallardan tayyorlangan etnografik buyumlar

uchun muzeyda aniq harorat (18–22°C) va namlik (40–55%) nazorat qilinadi. Agar bu sharoitlar buzilsa, gilamlar yoki to‘quv buyumlari qarish jarayoniga kiradi, ranglari so‘nadi, tuzilishi yomonlashadi. Bunday holatda, eksponatlar uzoq muddat saqlanishi uchun tegishli konservatsiya choralarini ko‘rish zarur. To‘rtinchidan, biologik va fizik zararlarning oldini olish uchun xorijda maxsus muhofazachoralari qo‘llaniladi. Yog‘och, qog‘oz yoki mato asosidagi eksponatlar hasharotlar yokimog‘orning ta’siridan himoyalash uchun maxsus inert gazlar bilan ishlov beriladi yoki vakuumlisaqlash xonalari yaratiladi. Bundan tashqari, Gollandiya va Daniya kabi mamlakatlardaeksponatlarni saqlash uchun ekologik toza va barqaror materiallardan foydalaniladi[9;43].

Restavratsiya va konservatsiya xorijda katta ahamiyatga ega. Ko‘plab muzeylar qoshidatashkil etilgan laboratoriyalarda eksponatlar asl holatini saqlab qolish uchun biologik, kimyoviyva fizik usullar qo‘llaniladi. Masalan, Germaniyada restavratsiya institutlari qadimiyashyolarnitiklashda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlardan foydalanadi. Raqamlashtirishhamzamonaviy muzeylarda keng qo‘llanilayotgan yondashuvlardan biridir. Xitoy, YaponiyavaJanubiy Koreyada eksponatlar yuqori aniqlikdagi 3D skanerlash yordamida raqamlashtiriladi. Buularni saqlashni osonlashtirish bilan birga, virtual ko‘rgazmalar orqali eksponatlarni dunyobo‘ylab namoyish qilish imkonini beradi[4].

Muzeylarning ommaviy-g‘oyaviy, ta’limiy ishi kommunikatsiyasining muhim elementini tashkil qilgan holda, kamolotga etgan, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga, uni g‘oyaviy, ahloqiy, estetik tarbiyalashga, bilimdonligini, axborotliligini chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan[12;18].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeyshunoslik – T.: Voris Ali, 2007. –B.59.
2. Bahnson, K. (1888), ‘Ethnographical Museums’, The Archaeological Review 2, no. 1: 1–18. https://www.jstor.org/stable/24708696.
3. Davlatov.B. Ibragimov O. Muzeyshunoslik atamalarining izoxli lug‘ati. – T.: 2005. –B.117.
4. Jaoul, Martine. Ethnographic Museums Today. Museum (Ethnographic and open-air museums) No XLIV 1992. (3:128).
5. Jokilehto, Jukka. A History of Architectural Conservation. Routledge, 2002.
6. Kuryazova D. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San’at.2010. –B. 9.
7. Lattanzi V. (2011). Shifts of Modernity and Contemporary Ethnographic Museums. In: Bouttiaux A. M., Seiderer A. and Del Vecchio N. (Eds.) Fetish Modernity, Tervuren: Royal Museum for Central Africa, p. 4.
8. Mirzaaliyev.E. Baxriddinov O. Tarix-ma’naviyat ko‘zgusi. -Namangan. 2006. -B.. 17-18
9. Шулепова Э.А. Музеефикация памятников как механизм использования культурного наследия в регионе. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. док. культ. – М., 1998. – С. 41.

GANIYEVA Charos Xashimovna
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Muzeyshunoslik" kafedrasi dotsenti

YUNUSOV Arman Fayzulla o'g'li
Muzeyshunoslik: Muzey menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi 3-kurs talabasi

"BUYUK RASSOM MEROSI: O'ROL TANSIQBOYEV MUZEYI"

***Annotatsiya**: Ushbu maqola taniqli O'zbekiston xalq rassomi va san'at arbobi O'rol Tansiqboyevning ijodiy merosi va uning muzeyi haqida. Muzey rassomning san'atdagi o'rnini chuqur o'rganish, uning betakror asarlarini keng ommaga tanishtirish va yosh avlodga yetkazish maqsadida tashkil etilgan. Tansiqboyevning asarlari milliy rangtasvir an'analarining yorqin namunasi bo'lib, u o'zbek tasviriy san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Maqolada muzeyning ahamiyati, uning to'plami va san'at ixlosmandlari uchun tutgan o'rni yoritiladi.*

***Kalit so'zlar**: O'rol Tansiqboyev, tasviriy san'at, milliylik, xalq rassomi, memorial kottej, "Mening qo'shig'im", "O'zbekistonda mart".*

***Аннотация:** Эта статья о творческом наследии известного народного художника и деятеля искусств Узбекистана Орала Тансыкбаева и его музее. Музей создан с целью углубленного изучения места художника в искусстве, знакомства широкой публики с его уникальными произведениями и доведения их до молодого поколения. Произведения Тансыкбаева являются ярким примером национальных традиций живописи и внесли огромный вклад в развитие узбекского изобразительного искусства. В статье рассказывается о важности музея, его коллекции и роли для любителей искусства.*

***Ключевые слова:** Орол Тансыкбаев, изобразительное искусство, национальность, народный художник, мемориальный коттедж, "Моя песня", "Март в Узбекистане".*

***Annotation:** This article is about the creative legacy of the famous national artist and art worker of Uzbekistan Ural Tansykbayev and his museum. The museum was created with the aim of in-depth study of the artist's place in art, familiarizing the general public with his unique works and bringing them to the younger generation. Tansykbayev's works are a vivid example of national painting traditions and have made a huge contribution to the development of Uzbek fine art. The article talks about the importance of the museum, its collection and its role for art lovers.*

***Keywords:** Orol Tansykbayev, fine art, nationality, national artist, memorial cottage, "My Song", "March in Uzbekistan".*

Hozirgi davrda muzey ishini zamon talablariga muvofiq yangilash jarayoni faol olib borilayotgan bir sharoitda badiiy madaniyatning turli sohalari bilan bir qatorda muzey ishini ham isloh qilish talab etiladi. Bu holni yuqori darajada rivojlangan G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSH, Yaponiyada ham kuzatish

mumkin. Muzeylar ish faoliyatini to‘laqonli butun bir organizmdek olib borish uchun ijtimoiy madaniyat muntazam ravishda o‘zgarayotgan bir paytda ular ishini faollashtirish hamda turli muhim nazariy va amaliy muammolarni chuqurroq o‘rganish, zamonaviy muzey ishi sohasida izlanishlar olib borish va qulay konstruktiv echimini topish lozim bo‘ladi.

Poytaxtda Bo‘zsuv mavzesi 7-uyda O‘zbekiston xalq rassomi O‘rol Tansiqboyevning uy-muzeyi joylashgan [3,15]. 1981 yilning 16 yanvarida Toshkentda O‘rol Tansiqboyev yashagan uyida yodgorlik muzeyi ochilgan [1, 51]. Bugungi kunda muzeyda rassomning 400 dan ortiq san’at asarlari saqlanmoqda.

1976-yilda ushbu uyda rassomning ijodiy xotira-ustaxonasi tashkil etilgan. Bu yerda uning ijod namunalari, hayoti va ijodiga oid hujjatlar, shuningdek, molbert, bo‘yoqlar uchun stolchalar, fotohujjatlar va boshqa eksponatlar saqlanmoqda. Shuningdek, chet el muzeylarida saqlanayotgan asarlarining nusxalari ko‘rgazmaga qo‘yilgan. Muzey tarkibiga quyidagi binolar kiradi:

Asosiy bino — ikki qavatli memorial kottej bo‘lib, O‘rol Tansiqboyev umrining so‘nggi yetti yilini (1967—1974) aynan shu yerda o‘tkazgan.

Ma’muriy binolar — ma’ruzalar zali. Ikki qavatli ko‘rgazmalar zali (galereya) — rassomning 90 yilligi munosabati bilan foydalanishga topshirilgan va unda jamg‘armalar saqlanadi. Muzeyni o‘rab turgan va rassom tomonidan yaratilgan bog‘ ham memorial qism hisoblanadi.

Muzeyning yagona maqsadi O‘rol Tansiqboyev merosini saqlash va ommaga targ‘ib etish uchun faoliyat yuritishdan iborat. U poytaxtda birinchi tashkil etilgan memorial muzey hisoblanadi. Yillar davomida muzey fondini to‘ldirish maqsa, dida, O‘rol Tansiqboyev hayoti va ijodi bilan bog‘liq materiallar to‘plab kelinmoqda. Uning bisotida, shuningdek, Davlat san’at muzeyi tomonidan berilgan o‘nlab asarlar ham mavjud [1,55].

Uy ichiga kirib, dahlizdan chap tomonga yurilgandan keyin ijodiy ustaxona boshlanadi. Xona devorlarida osig‘liq rangtasvir asarlari O‘rol Tansiqboyev faoliyatining turli bosqichlariga tegishlidir. U o‘zining mashhur polotnolari “Qayroqqum GESi tongi” va “Mening qo‘shig‘im” asarlarini shu yerda yaratgan. Xonada katta ish stoli, uning yonida esa bo‘yoqlar uchun kichikroq stol turibdi. Stoldan o‘ngroqda ikkita molbert ko‘zga tashlanadi. Ularning birida rassomning “1973 yilgi Chorvoq” deb atalgan va tugamay qolgan asari bor.

Tomoshabin ustaxonadan mehmonxonaga o‘tadi. Rassom hordiq chiqarish paytlarida o‘tirishni xush ko‘rgan katta dumaloq stol turibdi. Uning ustida gazeta-jurnallar; kitob javonlarida jahon va rus adabiyoti klassiklarining boy to‘plamlari bor. Urol Tansiqboevning fotosuratlari va rassom yoqtirgan ikki natyurmort devorga osib qo‘yilgan. Natyurmortlarning birinchisi “Gullar” bo‘lib, uni rassom 1949 yilning 9 mayida Olmaotada chizgan; ikkinchisi „Mevalar” ni esa 1952-yilda Moskvada chizadi.

O‘rol Tansiqboyevning mashhur asari, “O‘zbekistonda mart” ushbu muzeyda saqlanadi. Muzeyda saqlanayotgan ushbu asar, O‘rol Tansiqboyevning o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbati va unga bo‘lgan ijtimoiy-ruhiy yondashuvini aks ettiradi. Asar, san’atsevarlarga O‘zbekistonning tabiatini, madaniyatini va xalqining hayotini ulug‘lash uchun yuksak ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Zinapoyadan yotoqxonaga ko‘tarilavershda rassomning 40-yillarga oid kichik ekspozitsiyasi “Mehmonga” (1944 yil), “Sho‘r yuvish” (1946 yil), “Sharshara” (1949 yil), “Bahor” (1947 yil) kabi asarlari qo‘yilgan. “...Tomoshabinlar zinapoyadan tushib, juda yaxshi parvarishlangan bog‘ va gulzor tashkil etilgan shinam hovliga chiqadilar. Bu yerda manzarali daraxt, buta va gullar orasiga rassomning byusti o‘rnatilgan. Uni haykaltarosh R. Ambertsumyan ishlagan, O‘rol Tansiqboev de yarli butun bo‘sh vaqtini o‘zi mehr-muhabbat bilan parvarishlagan mana shu go‘zal bog‘ va gulzorda o‘tkazgan [1,52].

Shuningdek, ikki qavatli ko‘rgazmalar zalini birinchi qavatida ko‘pincha shaxsiy ko‘rgazmalar tashkillashtiriladi , ikkinchi qavatida esa rassomning ishlari osilgan. U yerda turli xil uchrashuvlar, ma’ruzalar uyushtiriladi. Muzeyning faxriylari ishtirokida har juma kuni muzeyda badiiy kecha bo‘ladi.

2024-yilning 3-17-may kunlari O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyida O‘zbekiston Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi ko‘magida rassom asarlarini restavratsiya qilish bo‘yicha qo‘shma dastur amalga oshirildi. Restavratsiyada texnik ekspert va konservatsiya va restavratsiya bo‘yicha mutaxassis Patrisiya Verges boshchiligida Milliy meros instituti (Fransiya) vakillari va I.V. Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi restavratorlari ishtirok etdilar. Tansiqboyevning katta hajmdagi mato suratlaridan tortib kartondagi eskizlaridan iborat jami 18 ta asari qayta tiklandi.

Muzeyda yoshlar uchun master-klasslar ham amalga oshiriladi va ular rag‘batlantiriladi. Ekskursiyalar 3 tilda olib boriladi:rus, ingliz hamda o‘zbek tillarida. Guruh soni 15 kishidan oshmasligi talab etiladi.

Muzeyning vazifasi, Tansiqboyevning san’ati orqali insonlarga yangi ilhom, o‘ylash va tushunish imkoniyatlarini taqdim etishdir. Har bir asar, tomoshabinini o‘ylashga, o‘zini tushunishga va dunyoqarashini kengaytirishga undaydi. Shu tarzda, muzey faqatgina san’atni namoyish etibgina qolmay, balki madaniyat va san’atning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Muzey eksponadlaridan tashqari muzey tarkibida O‘ral Tansiqboyev hayoti va ijodiga bag‘ishlangan turli ocherk, maqolalar, turli yozma manbalar saqlangan.

Umuman olganda, O‘rol Tansiqboyev muzeyi – bu san’at va madaniyatning o‘ziga xos, betakror bir dunyosini o‘rganish va his qilish uchun ajoyib makon bo‘lib, san’atsevarlarni yangi g‘oyalar, his-tuyg‘ular va ilmiy izlanishlarga undaydi.

Bugungi globallashuv davrida madaniy merosni saqlash muhim vazifalardan biriga aylanib borishi ham jahondagi har bir xalqning o‘z tarixi va madaniyatini chuqurroq anglab etayotganidan dalolat beradi. Jamiyatdagi va madaniy sohadagi o‘zgarishlar madaniy meros tushunchasini ham o‘zgartirib bormoqda. Muzey va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqa madaniy merosning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Hozirgi zamon sharoitida madaniy yodgorliklar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi ijtimoiy madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi ekanligiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Moddiy va ma’naviy merosni saqlashda bugungi kundagi muzeylarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular o‘zining bugungi faoliyati bilan avvalgi muzeylar faoliyatidan tubdan farq qiladi. Zamonaviy muzeylar madaniy merosni yangi qirralarini ochar ekan, millataro do‘stlik va bag‘rikenglik prinsipiga ham alohida e‘tibor berishi

lozim. Chunki bu sayi-harakatlar etnomadaniy kelishmovchiliklarni oldini olish va boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan hurmat hislarini uyg‘otishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy-madaniy merosni saqlash, uni avlodlarga etkazishda, shuningdek, milliy istiqlol g‘oyalarini qaror toptirish hamda yoshlarimizni vatanparvarlik, tarixiy-madaniy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashda muzeylarning o‘rnini alohida e‘tirof etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гласс Ю. И. Тошкент музейлари: (Справочник-йулкурсатгич- Т.: Узбекистон1983. — 88 б.
2. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. T.: “Turon-Iqbol”, 2018. -250 b.
3. Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM.
4. https://meros.uz/object/orol-tansiqboyev-uy-muzeyi.
5. https://tansiqboyev.works.uz/.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%E2%80%98rol_Tansiqboyev_memorial_uy-muzeyi.

SALAYEVA Rayxon Quranboy qizi
“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi yetakchi mutaxassisi,

SOPOLLITEPA SIRLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada miloddan avvalgi XX-XIX asrlarda. Janubiy O‘zbekistonda jumladan, Surxon vohasida qadimgi sopol idishlarni tadqiq qilish ahamiyati. Surxondaryo vohasidagi Sopolitepa, Jarqo‘rg‘on madaniyatlari, O‘zbekistonning janubiy hududlarida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi jez davri qabilalarining ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish holati arxeologik manbalarda aks etgan. Sopollitepa va Jarqo‘tondagi arxeologik yozuv ishlari natijasida aniqlangan va topilgan moddiy ashyolar.*

Kalit so‘zlar: *Jez davri, Kulolchilik, Janubiy O‘zbekiston, Tojikiston Sopoliitepa sirlar, Jarqo‘ton, Mulalitepa to‘g‘nog‘ichlar.*

Аннотация*: В данной статье XX-XIX вв. до н.э. Значение исследования древней керамики Южного Узбекистана, в том числе в Сурханском оазисе. В археологических источниках отражено социально-экономическое, политическое и этнокультурное развитие сополитепинской, жарорганской культур в Сурхандарьинском оазисе, земледельческих племен эпохи бронзы в южных регионах Узбекистана. Материальные предметы, идентифицированные и обнаруженные в результате археологических учетных работ в Сополлитепе и Жаркотоне.*

Ключевые слова: *бронзовый век, керамика, Южный Узбекистан, Таджикистан, Сополитепинская керамика, Жаркотон, Мулалитепинская керамика.*

Abstract: *In this article, XX-XIX centuries BC. The importance of researching ancient pottery in South Uzbekistan, including in the Surkhan oasis. The socio-economic, political and ethno-cultural development of the Sopolitepa, Zharkorgan cultures in the Surkhandarya oasis, and the farming tribes of the Bronze Age in the southern regions of Uzbekistan are reflected in archaeological sources. Material items identified and found as a result of archaeological record works in Sopollitepa and Jarqoton.*

Key words: *Bronze Age, Pottery, Southern Uzbekistan, Tajikistan, Sopoliitepa pottery, Jarkoton, Mulalitepa pottery.*

Surxon vohasi jez davrida, sug‘orma dehqonchilik markazlari, Jarqo‘ton manzilgohi, ilk shaharlarning shakllanishi, kulolchilik charxining ixtiro qilinishi. Qadimiy madaniyat markazi bo‘lgan Surxondaryo vohasi jahon fani va ilmiy tadqiqotlarida o‘z e’tiborini va o‘z o‘rnini topgan. Viloyat hududidan insoniyatning eng qadimgi ajdodlari yashaganligini tasdiqlovchi arxeologik manzilgohlar topilgan. Ular sirasiga Sopollitepa yodgorligini misol qilish mumkin. O‘zbekiston xududida jez davri mil.avv. II ming yillik boshlarini o‘z ichiga oladi. Xuddi shu davrda ikki turdagi mustaqil madaniyat shakllanib aniq ajraladi: o‘troq dehqonchilik vohalaridagi madaniyat: ko‘chmanchi dashtlar madaniyati o‘troq dehqonchilik madaniyati dastlab Surxondaryo vohasidagi Sopolitepa, Jarqo‘ton madaniyatlari. O‘zbekistonning janubiy hududlarida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi jez davri qabilalarining ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish holati arxeologik manbalarda aks etgan moddiy madaniyat majmuasi (mil. av. 2 ming yillik). Kelib chiqishi jihatidan qadimiy Sharq tamadduni bilan bog‘liq bu madaniyat yodgorliklari O‘zbekistonning Surxondaryo viloyati, qo‘shni Tojikiston hududlaridan topib o‘rganilgan (Sopollitepa, Jarqo‘ton, Mulalitepa, Bo‘ston,).[1] Uning eng qadimgi va birinchi bor topib o‘rganilgan yodgorligi Sopollitepa bo‘lib, ushbu arxeologik madaniyat ham shu yodgorlik nomi bilan ataladigan bo‘ldi. Sopollitepa va Jarqo‘tonda o‘tkazilgan keng ko‘lamli izlanishlar jarayoni, odamlar hayotining moddiy va ma’naviy dunyosi haqida to‘liq ma’lumot beradi. Shunga qaramay, Janubiy O‘zbekistonda shu madaniyatga tegishli 20 ga yaqin yodgorlik topib o‘rganilgan.



Sopollitepa-Surxondaryo viloyatining (Muzrabod tumani) Sherobod cho‘lini kesib o‘tgan Ulanbuloqsoy yoqasiga joylashgan jez davriga oid arxeologik yodgorlik. 1968-yil arxeolog L.Albaum tomonidan topilgan. 1969-74 yillarda

[1]Surxon vohasi tarixiy va etnomadaniy manbalariga oid “I-tourism” platformasi asosida

A.Asqarov tomonidan o‘rganilgan Yodgorlikning markaziy qismida joylashgan qala to‘liq ochib o‘rganilgan kvadrat shaklida bo‘lib, tomonlari 82x82 mga teng. Qal’a uch qator mudofaa devori bilan o‘ralgan. Bu mudofaa devori shu qadar geometrik shakl va aniqlikda qurilganki, tashqi dushman qal’a darvozasini topishi ham mushkul bo‘lgan. Qal’aning haqiqiy darvozasi janub tomonda bo‘lib, shaklida burjlar-devorlar yordamida yana xuddi shunday 7 ta soxta darvoza barpo qilingan. Jang vaqtida haqiqiy eshikni topolmagan dushman soxta eshiklar orqali labirint sistemasida qurilgan qal’a mudofaachilari tomonidan oson qo‘lga tushirilgan. Sopollitepaning maydoni taxminan uch qismga. Uning 1 gektarga yaqin markaziy qismi mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Qal’a atrofidagi maydonning katta qismi buzilib, paxta ekish dalalariga aylantirilgan. Aslida esa haqiqiy darvoza qal’a janub tomonining markaziga joylashgan, qolgan “darvozalar” harbiy xavf tug‘ilganda qopqon vazifasini bajargan. Qal’aning ichki mudofaa tizimida, yo‘laksimon qopqonlar oralig‘ida, har tomonda ikkitadan murabba shaklida qurilgan xonalar bo‘lib, ularga qal’a ichki tomonidan eshik ochilgan.[2] Aynan ana shu xonalar tomon qal’a ichiga joylashgan turar joy majmualari oralab tor ko‘chalar o‘tgan. Qal’a ichidagi turar joy majmualari uning ichki devorlari bo‘ylab joylashgan. Ular ana shu ko‘chalar orqali 8 ta mahallaga bo‘lingan. Qal’a markazida esa ochiq, maydon bor. Qal’a darvozasidan boshlangan keng yo‘l va tor ko‘chalar ana shu maydon bilan bog‘langan. Bularning barchasi Sopollitepa jamoalarining mudofaa tizimini tashkil etgan. Bunday murakkab me’moriy inshoot oldindan o‘ylangan aniq reja va g‘oya asosida qurilgan. O‘tkazilgan arxeologik qazuv ishlari natijasida Sopollitepadan 22 nusxa muhrlar topilgan bo‘lib, shundan 1 ta loy, 7 tasi tosh va 14 tasi bronzadan yasalgan. Ular ko‘rinishi jihatdan to‘rt guruhga bo‘linadi: 1. Yassisimon 2. Xochsimon 3. To‘pbarggulsimon 4. Muhr-to‘g‘nog‘ichlar. Dastlabki 3 ta guruh muhrlarining barchasida ilgaklar bor. Xochsimon muhr yagona nusxada bo‘lib, marmardan tayyorlangan. Uning yuza qismida uchayotgan burgut tasviri bo‘lib, orqa tomonida ilgakli muhr joylashgan. Bronzadan tayyorlangan muhrlar olti qirrali, yetti qirrali, sakkiz qirrali va o‘n qirrali, xuddi gulga o‘xshatib, yulduzcha ichiga joylashtirilgan. Shuningdek, Sopollitepadan olti qirrali va sakkiz qirrali bronzadan yasalgan muhr to‘g‘nog‘ichlar ham 29 nusxa topilgan bo‘lib, ularning uzunligi 15 sm dan 20 sm gachani tashkil etadi.

Sopollitepa haqida aholi orasida turli sirli ma’limotlar tarqalib yuradi, masalan Sopollitepa obekti dastlab labirint ko‘rinishida bo‘lib uning ichiga kirgan odam chiqishi amrimahol va yoniga yaqinlashgan odamlarda turli xil kasalliklar paydo bo‘lishi aholi orasida aylanib yuradi.Ushbu madaniy meros obekti Termiz davlat muzey qo‘riqxonasiga qarashli va muzeyda ham ko‘plab qadimiy ashyolar saqlanib qolingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аскаров А, Абдуллаев Б, Джаркутан, Ташкент, 1983 год стр.10-15
2. Аскаров А., Ширинов Ташкент, Древнебактрийский храм огня в Южном Узбекистане.
3. Сополли маданияти Градостроительство и архитектура, Ташкент, 1989 год.

[2]Surxon vohasi tarixiy va etnomadaniy manbalariga oid “I-tourism” platformasi asosida

4. Сарианиди В.И., И здес говорил Заратуштра, Москва, 1992 год стр. 25-30
5. Surxon vohasi tarixiy va etnomadaniy manbalariga oid “I-tourism” platformasi asosida.

НОРОВА Дилдора,
Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий–тадқиқот институти мустақил тадқиқотчиси (PhD)

БУХОРО ЗАРДЎЗЛИК ҲУНАРИ МЕРОСИНИНГ МУЗЕЙЛАРДА АКС ЭТИШИ

Аннотация: *Мақолада Бухоронинг қадимий ва анъанавий ҳунармандчилик турларидан зардўзликнинг ривожланиши, зарбоф кийий кечакларнинг музейларда тўпланиши ва унинг илмий амалий аҳамияти таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *зардўзлик, коллекция, гўлдўзи, заминдўзи, зап ип, халқ амалий санъати*

Аннотация: *В статье анализируется развитие золотого шитья - одного из древних и традиционных видов ремесел Бухары, а также рассматривается коллекционирование одежды из золотого шитья в музеях и его научно-практическое значение.*

Ключевые слова: *золотое шитье, коллекция, "гульдузи", "заминдузи", золотая нить, народное прикладное искусство.*

Annotation: *The article analyzes the development of gold embroidery - one of the ancient and traditional types of crafts of Bukhara, and also examines the collection of clothes made of gold embroidery in museums and its scientific and practical significance.*

Key words: *gold embroidery, collection, "gulduzi", "zaminduzi", gold thread, folk applied art.*

Бугунги кунда Бухоро давлат музей қўриқхонаси жамғармасида 2835 та амалий санъат, 9435 та маиший ва этнография буюмлари сақланиб[2], улар орасида зардўзлик ҳунари маҳсулотлари алоҳида ўрин эгаллайди.

Бухоро давлат музей-қўриқхонаси кирим китобларининг дастлабки учтаси тўғридан-тўғри амирлик билан боғлиқ ашёлар ҳисобланади. Кейинчалик аҳоли томонидан топширилган ва музей мутахассислари ёрдамида амирлик коллекциясига тегишли эканлиги аниқланган буюмлар сони билан ҳам коллекция сони ортиб бормоқда. Коллекцияда зардўзлик буюмлари салмоқли ўрин эгаллайди. Бухоро амирлари ва уларнинг оиласига тегишли бўлган зардўзлик кийимлари ҳозирги кунда нафақат Ўзбекистон музейларида балки, Россия, Германия, Австрия ва бошқа дунё музейларида сақланмоқда[4, 133].

Ситораи Моҳи-хосса амалий санъат музейи кўргазмасида ҳам Бухоро амирларининг бир неча зардўзлик буюмлари намойишга қўйилган. Уларнинг энг қадимийси XIX асрнинг 60-йилларига тегишли бўлиб, Амир Музаффархоннинг тахтга чиқиши муносабати билан тикилган. Жома яшил бахмалга гулдўзи ва заминдўзи услубида бута гуллар тасвири тушириб ишланган[5, 461].

Зардўзлик учун маҳаллий ва четдан келтирилган духоба, шойи, атлас, дока, мовут, жун, маҳаллий нимшойи “олача” газламаси ва тери ишлатилган. Ҳар турли зарлар зардўзликнинг асосини ташкил этган. Олтин ва кумуш иплар Ҳиндистон ва Эрондан, XIX аср иккинчи ярмидан бошлаб эса асосаня Москвадан келтирилган. Бундай иплар Бухорода “калёботун” деб юритилган. У ёки бу навни ажратиб кўрсатиш учун усталар тилла ипга “тилло”, кумуш ипга сафед аниқловчи ибораларни қўшиб ишлатишган.

Тилла ип олиш учун сиртига тилла суви югуртирилган ва зар ҳосил қилинган. Зардўзлик учун “ип” тайёрлашнинг яна бир тури – “сим” номида машҳур бўлган оқ ёки тилла суви югуртирилган симдир[1, 124].

Қадимдан Бухорода зардўзлик маҳсулотларига талаб жуда катта бўлган. Ҳунармандлар ишларининг намойишлари ўтказиб ҳам турилган. Бухоро зардўзлик буюмлари асосан амирнинг шаҳар ташқарисидаги саройлари – Ширбудин ҳамда Ситораи Моҳи Хоссада ўтказиб турилган халқ сайллари сотилган.

Зардўзлик ҳунармандчиликнинг қадимий турларидан бири ҳисобланади. Тикилаётган буюмнинг катта-кичиклигига қараб дастгоҳ атрофида бир нечтагача зардўзлар ўтиришган. Ҳозирги кунга келиб эса замонавий технологиялар билан жиҳозланган цехларда, зардўзлар металлардан тайёрланган дастгоҳлар атрофида стулларга ўтиришиб тикишади. Зардўзликда ишлатиладиган асбоб-ускуналар унча кўп бўлмайди ва улар ўзига хос тузилишга эга. Зардўзликда ишлатиладиган асосий асбоб корчўп бўлиб, у чамбарак ва хўракдан иборат. Шунингдек, патила, ангишвона, нина, қайчи, турли хил газлама лар (бахмал, духоба, сатин, парча, атлас, шойи, мовут, дока, ад рас, вильюр, вилвет, саржа, алача, бўз, сурп ва бошқа матолар) ва зардўзлик иплари киради. Зардўзлик буюмлари, улардаги нақшлар ранг-баранг ва мураккаб бўлиб, уларни ишлаб чиқариш техноло гияси зардўзлар томонидан асрлар давомида яратилган. Ўрта Осиё қадимдан ўзининг зардўзлик санъати, яъни эркаклар ва аёллар кийимини ва уй-рўзғор жиҳозларини безаш билан машҳурдир[3, 124].

Зардўзлик услуби усталарнинг кўплаб авлодлари томонидан ишлаб чиқилган ва такомиллаштирилган. Нақш тикиш жараёни мато устига параллел қаторларга олтин ва кумуш ипларни қўйиш ва уларни ипак ёки пахта иплари билан маҳкамлаб тикишдан бошланади.

Зардўзликда тикишнинг асосан икки усулидан фойдаланилади: зардўзи-заминдўзи (яхлит) ва зардўзи-гулдўзи (гулли). Зардўзи-заминдўзи усулидан фойдаланилганда, замин бутунлай зарҳал кумуш билан тикилади, зар иплар юпқа чилвирдан тайёрланган тўшама устига қўйилади. Зардўзи-гулдўзи усулидан фойдаланилганда, нақш унсурлари қалин қоғоз, картондан, камдан

кам ҳолларда чармдан кесилиб, мато устига қўйилади ва чамбаракларга таранг тортилиб, зарҳал ёки кумуш иплар қопланади.

Зардўзлик санъатида асосий учта – давқур, бутадор ва дархам мужассамот турлари шаклланган. Давкур мужассамотида нақшинкор зардўзи ҳошия кур безак учун асос бўлиб хизмат қилади. Бутадор бутун марказий майдонга бир-бири билан муайян масофадаги алоҳида шохчалар ёки бошқа нақшлар тикилиши билан ажралиб туради. Дарҳам мужассамоти марказий майдонидаги безак ўзида узлуксиз нақшни акс эттиради. Унинг сирти йигирилган зарҳал ипли ингичка чилвир – таҳрир (ҳошиялаш) ёки бир-бирига уланган майда айлана ҳалқа кўринишидаги иплар – кобули услубида тикиб чиқилади. Тикилган ҳошия кийим-кечак ва йирик безак буюмларда ҳар икки томондан энсиз тўлқинсимон чизиқлар – оби пончa билан безатилиши шарт бўлган.

Ҳозирда халқ амалий санъатининг зардўзлик ва заргарлик анъаналарини ривожлантириш, уларнинг ноёб намуналарини тарғиб этиш, ушбу йўналишларда ўзаро тажриба алмашиш орқали халқлар ўртасида дўстлик ва ҳамкорлик ришталарини янада мустаҳкамлаш, маданий-гуманитар алоқаларни кучайтириш, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган касбий анъаналар ва ҳунармандчилик мактабларини сақлаш ва қайта тиклаш ҳамда минтақанинг туризм салоҳиятини янада оширишга катта эътибор қаратилмоқда. Чунки, Бухоро қадим-қадимдан ҳунармандчилик ривожланган маданий марказлардан бири бўлиб келган, бу ерда ҳунармандчилик ва халқ амалий санъатининг турли йўналишлари, айниқса зардўзлик ва заргарлик юксак даражада тараққий этган, уста-шогирд анъаналари асосида ҳунармандларнинг оилавий сулолалари унинг сир-асрорлари аждодлардан авлодларга етиб келмоқда.

Бугунги кунда ҳам Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик анъаналари изчил ривожланмоқда. Биргина Президентмимиз қарори асосида ҳар икки йилда бир марта зардўзлик ва заргарлик фестивалининг ўтказилиши бунга мисолдир. фестивалда республикамизнинг барча ҳудудларидан 243 нафар ҳунармандлар, шулардан 114 нафар заргар, 39 нафар зардўз, 90 нафар ҳунармандчиликнинг бошқа йўналишларида фаолият олиб бораётган ҳунармандлар иштирок этмоқда. Ўтган йили фестивалга 42 та давлатдан 157 нафар хорижий иштирокчи иштирок этяпти. Жумладан илмий-амалий конференцияда 9 та давлатдан 12 нафар, нуфузли меҳмонлар сифатида 36 нафар, хорижий оммавий ахборот воситалари сифатида 5 та давлатдан иштирокчилар қатнашмоқда.

Бухоро музейларида зардўзлик ҳунари меросининг сақланиб келиши уни илмий ўрганиш, замонавий ҳолатда қайта тиклаш, ҳунармандчиликни ривожлантиришга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бухоро шарқ дурдонаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.124.
2. Бухоро давлат музей қўриқхонаси 2025 йилги статистика ҳисоботи.

3. Давлатова С. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида). – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – Б.124.
4. Қурбонова М. Бухоро зарбоф кийим-кечаклари коллекцияси // Музейшунослик XXI асрда: тадқиқотлар, анъаналар ва инновациялар. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. 2-китоб. – Тошкент, 2022. – Б.133.
5. Курбанова М. Коллекция одежды Бухарского эмирата как бесценное наследие Бухарского музея // Советская эпоха в этнокульурном измерении. Материалы двадцать первых Санкт-петербургских этнографических чтений. – Санкт-Петербург, 2022. – С.461.

ТУКСАНОВА Зилола
Бухоро давлат университети
катта ўқитувчиси

БУХОРО МОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОСИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШДА ОБИДАЛАРДАГИ АСТРОНОМИК БЕЛГИЛАРНИНГ ЎРНИ

Аннотация: *Мақолада очиқ осмон остидаги Бухоро меъморий обидалари қурилиши, меъморчилиги, декорацияси ва безак техникаларида учрайдиган астрономик белгилар, уларнинг тасвирланиш сабаблари, музейлаштиришда уларнинг аҳамияти масалалари таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *қуёш буржи, юлдузсимон, муқарнаслар, кошин, геометрик нақш, оймананд юлдузлар саройи.*

Аннотация: *В статье анализируются астрономические знаки, обнаруженные в конструкции, архитектуре, отделке и декоративной технике памятников архитектуры под открытым небом Бухары, причины их изображения и значение в музейизации.*

Ключевые слова: *солярный знак, звездообразный, сталактит, кафел, геометрический узор, дворец луны и звезд.*

Annotation: *The article analyzes astronomical signs found in the design, architecture, decoration and decorative techniques of architectural monuments in the open air of Bukhara, the reasons for their depiction and significance in museumization.*

Keywords: *solar sign, star-shaped, stalactite, tile, geometric pattern, palace of the moon and stars*

Бухоро воҳасида бугунги кунда 829 та маданий мерос объектлари сақланиб қолган. Уларнинг орасида илк ўрта асрларга тааллуқлилари ҳам бор. Аксарияти сўнгги ўрта асрларга мансуб[2]. Обидаларнинг неча юз йиллардан бутун бус бутун ҳолда етиб келишининг муҳим сабаблари нафақат бой

меъморчилик тажрибаси, қурилиш материалларининг мустаҳкамлиги, балки, аждодларимизнинг аниқ фанлар, физика, математика, астрономия фанларини яхши ўзлаштирганидадир. Бухоро архитектура ёдгорликларининг боқий яшаб келаётгани шубҳасиз уларнинг осмон жисмлари билан боғлиқ ҳолда барпо этилганидир.

Шаҳарнинг энг қўҳна иморатларидан Арқнинг бунёд этилиши муаррих Наршахийнинг “Бухоро тарихи” асарида баён этилган. Хусусан, бухорхудот Бидун олимларни йиғиб, маслаҳатини олгандан сўнг, катта Айиқ, осмондаги етти қароқчи юлдузлари шаклида, еттита тош устунда устига Арқни қайта қуради[5, 28-29].

XII асрда Қорахонийлар сулоласидан Бухоро подшоҳи Арслонхон келгуси авлодларга салтанатидан мангу бир нишона қолдириш ниятида ажиб бир иншоот бунёд этишга жазм этади. Бу хайрли ишга барча мунажжим, меъмор ва устазодаларни жалб этиб, улардан иморат лойиҳаларини бир ой муҳлат ичида топширини буюради. Муддат тугагач, меъмор ва муҳандислар турли шаклдаги масжид, мадраса, хонақоларнинг лойиҳа чизмаларини ҳукмдорга тақдим этишади. Лекин, унга бирортаси ҳам маъқул бўлмайди. Фақатгина минора қурилиши лойиҳаси мақулланган. Айни бундай баланд иншоотнинг боқий туришини фалакиётшунос олимлар исботлаб беришган.

XV асрда темурийзода Мирзо Улуғбек мамлакат ҳудудида қурдирган мадрасаларидан биринчиси 1417 йилда Бухорода қад кўтаради. Мадрасанинг архитектураси ва унинг безатилиши диққатга сазовордир, чунки бинонинг деворлари, айвон ва бошқа кисмлари буюк астроном-олим Улуғбекнинг чизмалари асосида коинотнинг сирли кошинлари билан безатилган[3, 323-327]. Шунингдек, мадраса астрал характерга эга бўлган орнамент (нақшлар) билан безатилган бўлиб, улар Улуғбекнинг астроном сифатида дунёқарашини ифодалайди. Биринчи қарашдаёқ мадраса ўзининг ажойиб гармонияси билан кишини маҳлиё қилади. Кейинроқ Марказий Осиёда мадрасалар ана шу нусхада қурила бошланганлиги ҳам таҳсинга лойиқ. Бундан ташқари мадрасада диний фанлар билан бирга, дунёвий фанлар, хусусан, фалакиёт илми ўқитилишига алоҳида эътибор қаратилган.

Бухоро шаҳридаги Калон масжидининг бугунги кунга қадар етиб келишидаги синоатлардан бири унинг Қуёш буржига қараб қурилганлигидир. Коинот жисмлари билан ҳамоҳанглиги унинг бардавомлигини таъминлаганлигига шубҳа йўқ. Калон масжиди Хонаи Каъбанинг асл, олдинги шаклига монанддир. Балки шунинг учун ҳамдир Оллоҳ назари тушган замин Калон масжидининг умри боқий ва бардавомдир.

XVI аср ёдгорлиги саналган Хўжа Зайниддин масжид хонақосининг баландлиги 7 метрли айвон шифти ва текис томини 8 та безакли ёғоч устунлар кўтариб туради. Устунларнинг бари мармар тагкурсиларга мустаҳкамланган. Шифт тоқили, юлдузсимон 7 ҳовузакларга бўлиниб, ҳандасий нақшлар билан жозибадор безатилган. Шарқий томондаги марказий қисмида юлдузсимон ҳовзак ишланиб, муқарнасилар билан безалган. Юлдузсимон шаклдаги ҳовзакнинг ўн икки бурчагидан йирикроқ ёғоч тахтачалардан бўрттириб ишланган геометрик нақшлар тарқалган. Ҳовзак юлдузсимон муқарнаслар

ёрдамида безалган карниз билан якунланиб, ёнларидаги, нисбатан соддароқ безалган ҳовзакчалар билан уйғунлашган. Шимол томондаги айвон шифтининг марказида эса ўн қиррали юлдузсимон шаклдаги ҳовзак жойлашган бўлиб, ёнлари шарафалар билан безалган. Айвоннинг бурчак қисми ҳам серҳашам безалиб, юлдузсимон муқарнаслар билан тўлдирилган иккита олти қиррали ҳовзак ишланган. Айвоннинг деворларига ганч ишлатилган бўлиб, оқ рангли девор ва айвоннинг қошинкорлиги усталарнинг юксак маҳоратидан дарак. Бизгача етиб келган айвонннинг харили шифт ва томи XVI асрга хос бўлган ёғоч харилар ва текис томлар конструкциясининг ажойиб намунасидир. Шарқий томондаги иккита асосий устун юзароқ ўйма геометрик нақш билан безалиб, юқори қисми мадоҳил нақшли қош билан якунланган.

Масжиднинг салобати ва ҳашамдорлигининг тожи саналган гумбаз гўзаллиги ҳар қандай инсонни сеҳрлаб қўшиши шубҳасиз. Гумбазнинг пастки учидаги айлана лента бўйлаб битилган эски ёзув ва муқаддас битиклар бежирим хаттотлик кўринишида. Хона гумбази мураккаб қалқонсимон бағаллар ёрдамида асосига таянган, гумбаз ичи 32 га бўлиниб, улар ҳалланган майда гуллар билан безатилган, гумбазнинг қуйи қисми эса муқарнаслар қатори билан ҳошияланган. Гумбаз, тахмонлар, меҳроб ва ғарбий девордаги ёзувлар қатори кундал усулида бажарилган. Гумбаз қуйи атрофида кўкимтир нақшлар бўлса-да, марказида учига интилаётган ўсимликсимон нақшлар ва гулбарглар гулдастаси акс этган. Чинни-олтин косани эслатувчи гумбазга диққат билан разм соларкансиз, булутлар орасидан нур сочиб, чарақлаётган қуёш кўзга ташланади.

Бухоронинг сўнгги сулоласи – манғит амирларининг ёзги саройининг Ситораи Мохи Хосса деб аталиши ҳам бежизга эмас. Яъни, “оймананд юлдузлар саройи”, “шоҳнинг кўнглидаги юлдуз” маъноларини ифодалайди[4, 11]. Сарой хоналарининг ёғоч, ганч, ойнаванд безакларида ой, юлдуз тасвирлари кўп учрайди.

1914-1915 йилларда барпо этилган Амир Олимхон мадрасаси ҳам пухта билим берилиб, шунингдек, замонасининг зукко олиму фузалолари йиғилганки[1, 44], амир ушбу масканни академияга айлантиришни ният қилган. Йирик илмий муассасанинг айни шаҳарнинг бош маркази, Минораи Калон ёнидан танлангани ҳам бежизга эмас албатта. Балким, Амир Олимхон илму нужум – фалакиёт илмини минора орқали тадқиқ этишни ҳам ният қилгандир.

Бухоро тарихий обидаларида астрономик белгилар ва осмон жисмлари тасвирининг акс этиши аждодларимизнинг фалакиёт илмини пухта эгаллагани, моҳир мунажжимлар бўлиб етишганидан дарак. Макур омил сабабидан ҳам ёдгорликлар асрлар оша боқий яшайверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алъмеев Р.В. Медресе Амира Алимхан-хана в Бухаре // Древнее наследие Бухары (сборник научных и научно-познавательных статей). – Бухара: Дурдона, 2016. – С.44.

2. Bobojonov, S. (2017). Sharif shahar yodgorliklari.
3. Бобожонов, Ш. У. (2024). МИРЗО УЛУҒБЕК ҚУРДИРГАН БИРИНЧИ МАДРАСА. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 3), 323-327.
4. Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хосса. – Бухоро, 2010. – Б.11.
5. Наршахий М. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993. – Б.28-29.

Хўжа Зайниддин масжид хонақоҳи гумбазининг ички кўриниши. XVI аср.

Мир Араб мадрасаси миёнсаройининг гумбази кўриниши. XVI аср.

Кўкалдош мадрасаси миёнсаройи гумбазининг кўриниши. XVI аср.

Боло ҳовуз масжидининг ёғоч айвони шифти ҳовузаклариларидан бири. XX аср бошлари.

ТЎРАЕВА Гули Баҳриддиновна
Бухоро давлат университети
Археология ва Бухоро тарихи
кафедраси ўқитувчиси
turayevaguli8@gmail.com

ОЛЬГА АЛЕКСАНДРОВНА СУХАРЕВА—САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ МУЗЕЙИНИНГ ЖОНКУЯР ВА ФИДОЙИ МУТАХАССИСИ

Аннотация.*Бу мақолада музейларнинг тарихий, моддий ва маънавий ёдгорликларни тўплаш, сақлаш, ўрганиш ва тарғиб қилиш ишларини амалга оширувчи илмий, маърифий муассасалар сифатидаги фаолияти таҳлил қилинган.Самарқанддаги Ўзбекистон тарихи ва маданияти давлат музейининг ташкил топиши,1896-2025 йиллардаги тарихий фаолияти,экспозицион бўлимлари ҳақида батафсил маълумот берилган.1934-1946 йилларда О.А.Сухареванинг Самарқанд вилоят музейи (ҳозирги Ўзбекистон халқлари тарихи ва маданияти давлат музейи)даги фаолияти, бу даврда О.А.Сухарева иштирокида 5,5 минг этнографик экспонатлар тўпланиб,116 та коллекцияда бирлаштирилиши ҳақида қимматли тарихий маълумотлар берилган.*

Калит сўзлар:*Музей, Ўзбекистон тарихи ва маданияти давлат музейи, О.А.Сухарева- фидойи музейшунос,каштадўзлик коллекциялари, кийимлар ва каштачиликнинг ноёб нусхалари,экспонатлар.*

Аннотация. *В данной статье анализируется деятельность музеев как научных, образовательных учреждений, осуществляющих сбор, сохранение, изучение и популяризацию исторических, материальных и духовных памятников. Подробная информация о создании Государственного музея истории и культуры Узбекистана в Самарканде,исторической деятельности 1896-2025 годов,разделах экспозиции.В 1934-1946 годах была представлена ценная историческая информация о деятельности О. А. Сухаревой в Самаркандском областном музее (ныне Государственный музей истории и культуры народов Узбекистана), за этот период при участии О. А. Сухаревой было собрано 5,5 тысячи этнографических экспонатов и объединено в 116 коллекций.*

Ключевые слова: *Музей, Государственный музей истории и культуры Узбекистана, О. А. Сухарева - самоотверженный музейист, вышивальные коллекции, уникальные экземпляры одежды и вышивки, экспонаты.*

Abstract. *This article analyzes the activities of museums as scientific, educational institutions that collect, preserve, study and popularize historical, material and spiritual monuments. Detailed information on the creation of the State Museum of History and Culture of Uzbekistan in Samarkand, historical activities of 1896-2025, sections of the exposition. In 1934-1946, valuable historical information*

was presented about the activities of O. A. Sukhareva in the Samarkand Regional Museum (now the State Museum of the History and Culture of the Peoples of Uzbekistan), during this period, with the participation of O. A. Sukhareva, 5.5 thousand ethnographic exhibits were collected and combined into 116 collections.

Key words: *The museum, the State Museum of History and Culture of Uzbekistan, O. A. Sukhareva is a dedicated museum worker, embroidery collections, unique pieces of clothing and embroidery, exhibits.*

Кириш.Музейлар—тарихий, моддий ва маънавий ёдгорликларни тўплаш, сақлаш, ўрганиш ва тарғиб қилиш ишларини амалга оширувчи илмий, маърифий муассасалар ҳисобланади. Музейлар хазинасида, асосан, моддий ашёлар ва тасвирий санъат намуналари, шунингдек, ёзма манбалар қадимдан то ҳозирги давргача бўлган тарихий қимматга эга қўлёзмалар, босма ҳужжатлар ва китоблар сақланади.

Ўзбекистонда дастлабки музейлар XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб ташкил этилган.XX аср бошларида Ўзбекистонда учта музей — Тошкент ўлкашунослик музейи (1876, ҳозирги Ўзбекистон тарихи музейи) ,Самарқанд халқ музейи (1896, ҳозирги А.Икромов номидаги Ўзбекистон халқлари маданияти ва санъати тарихи музейи),Фарғона халқ музейи (1899, ҳозирги Фарғона вилоят ўлкашунослик музейи) мавжуд бўлган[7].

XX асрнинг 20-йилларидан турли соҳадаги музейлар ташкил этила бошланди. Музейлар ва маданият ёдгорликлари давлат ихтиёрига ўтказилиб, муҳофазага олинди. Илмий экспедициялар уюштирилиб, музейлар учун коллекциялар тўплаш иши йўлга қўйилди.

Ҳозирда музейларнинг асосий қисми Ўзбекистон маданият ишлари вазирлиги қарамоғида.Йирик музейлар:Ўзбекистон тарихи музейи, Темурийлар тарихи давлат музейи, Ўзбекистон санъат музейи (1918), А.Икромов номидаги Ўзбекистон халқлари маданияти ва санъати тарихи музейи, Ўзбекистон табиат музейи (1876) ва бошқалар. Республиканинг деярли барча вилоятларида ўлкашунослик музейлари, жаҳон аҳамиятига молик мемориал музейлар бор.

Асосий қисм.Ўзбекистон тарихи ва маданияти давлат музейи Самарқандда жойлашган музейлардан биридир.Ўзбекистон тарихи ва маданияти давлат музейига Самарқанд ва унинг атрофидаги ҳудудлар тарихи ва маданиятига бағишланган нодир экспонатлар жамланмаси мавжуд. Унинг фондларидан қадимги давр, ўрта асрлар даври тарихи ва маданияти ёдгорликларининг энг бой тўпламлари ўрин олган.

Музей тарихи дастлаб,1874 йилда археологик, нумизматик, этнографик ва геологик коллекциялар асосида ташкил этилган Самарқанднинг биринчи музейига бориб тақалади.Музейнинг расмий очилиши 1896 йилда бўлиб ўтган.

1896 йил 21 июлда Самарқанд вилоят статистика қўмитаси музейи сифатида очилган.Музейнинг асосчилари археологлар Леон Баршевский ва Василий Лаврентьевич Вяткин бўлган, улар музей учун махсус бино қурдиришга муваффақ бўлган.1911 йилдан Самарқанд шаҳри музейи, 1921 йилдан Самарқанд вилояти музейи, 1927 йилдан ўлка музейи, 1930 йилдан Ўзбекистон Марказий давлат музейи, 1937 йилдан Самарқанд вилоят

ўлкашунослик музейи. 1945 йилдан Ўзбек халқи маданияти республика музейи, 1955 йилдан Ўзбекистон маданияти ва санъати тарихи республика музейи, 1968 йилда музейга А.Икромов номи берилган, 1969 йилдан Ўзбекистон тарихи ва маданияти давлат музейи номи билан юритилмоқда [8].

Музей биноси 1911 йилдан музей ва кутубхона учун қурилган бинода, 1930 йилдан Улуғбек ва Шердор мадрасаларида, 1934 йилдан савдогар А.Калонтаровнинг собиқ уйида жойлашган. 1978 йилдан 2010 йилгача Самарқанддаги Ўзбекистон маданият тарихи музейи учун махсус қурилган бинода(меъмори М.С.Булатов) жойлашган.Музей биносининг умумий майдони 10 минг кв.м, экспозиция ва кўргазма заллари майдони 5 минг кв.м дан иборат. Бино Регистон майдони ва ансамблининг ўнг томонида, Тошкент кўчасида жойлашган. 2010 йилда музей Мирзо Улуғбек кўчасидаги бинога кўчирилди. Бир неча йил давомида музейнинг янги биноси таъмирланди ва 2014 йил 1 сентабрда музейнинг янги биноси тантанали равишда очилди.

Музейда 5 та экспозицион бўлимлар (тарих, санъат ва этнография, илмий ма'рифий, кўргазмалар ва фонд), кутубхона, кинозал, фотолаборатория, илмий таъмирлаш устахонаси ва архив бор. Музей хазинаси ва экспозициялари археология, нумизматика, этнография, амалий безак ва тасвирий санъат асарлари, меъморий қисмлар, қимматли ҳужжатлар, китоб ва қўлёзмаларнинг бой тўпламига эга.

Музей хазинасида 208 мингдан зиёд экспонат бор.Музей илмий муассаса сифатида илмий текшириш ишлари олиб боради, Музей Халқаро музейлар қўмитаси аъзоси.Музейда турли даврларда В.Л.Вяткин, М.Е.Массон, О.А.Сухарева, Л.М.Ремпель ва бошқалар олимлар ишлаган.

Ольга Александровна Сухарева ҳақли равишда универсал олима ҳисобланади, у тенгсиз этнограф ва тарихчи-шарқшунос, тожик тили бўйича филолог –мутахассис, санъатшунос,фидойи музейшунос, диншунос сифатида тан олинган.

1934-1946 йиллар О.А.Сухарева ҳаётида энг қизғин "музей даври" ҳисобланади.Бу даврда О.А.Сухарева Самарқанд вилоят музейи (ҳозирги Ўзбекистон халқлари тарихи ва маданияти давлат музейи)да фаолият олиб борди.Музейдаги фаолияти давомида олима музей фондини кўплаб қимматбаҳо кийим ва кашта коллекциялари билан тўлдирди.Маҳаллий каштачи аёллардан кашта тикиш техникасини ўрганиш бўйича ишлар,О.А.Сухареванинг энг бой кашта нақшларини тўплашга, шунингдек, халқ безак санъатининг ушбу тури билан боғлиқ бўлган эътиқод ва маросимларга эътибор қаратишига сабаб бўлди.Самарқанд ва унинг атрофидаги ўзбек-тожик аҳолиси, шунингдек, Бухоро, Ўратепа шаҳарлари ва бошқа шаҳар ва қишлоқлар бўйлаб ҳар кунги этнографик дала тадқиқотлари О.А. Сухарева учун жуда хилма-хил материаллар тўпланишига олиб келди [1].

Самарқанд давлат музейига 1930 йилда Москва давлат университети битирувчилари Т.А.Жданко,Г.П.Снесарев,Ю.А.Шибаевалар ишга юборилган. Уларга янги экспонатлар йиғиш, янги кўргазмалар тайёрлаш вазифаси юклатилган.Улар музейнинг янги бўлими учун турли хил экспонатлар тўплашган.Музейда Ольга Александровнанинг укаси археолог И.А.Сухарев

ҳам фаолият юритган.Дастлаб у директор ўринбосари,1935 йилдан қадимги ва ўрта асрлар Ўзбекистон тарихи бўлими ва археология бўлими бошлиғи лавозимларида ишлаган[2].

Музейда О.А.Сухарева дастлаб катта илмий ходим, кейинчалик “Ўзбек аёллари ҳаёти ва меҳнати” бўлими бошлиғи лавозимларида ишлайди.Бу бўлимдаги экспозицияларда совет даврида аёлларнинг ҳаёти лавҳалари ёритилган.Ольга Александровна бўлимни каштадўзлик,тўқувчиликнинг янги материаллари билан бойитишни ташкиллаштирди.Шу билан бирга ўзининг этнографик тадқиқотларини ҳам олиб борди.

1937 йилда Бухорога қилинган саёҳат натижасида Самарқанд музейида Бухоро кашталарининг 42 нусхаси тўплами олиб келинди, улар орасида бир нечта ноёблари ҳам мавжуд эди.О.А.Сухарева музейда ишлаган даврда унинг саъй-ҳаракатлари билан кашталар тўплами сезиларли даражада бойиди.1940 йилга келиб,ушбу коллекция 800 та буюмни ўз ичига олди. [2].Шу йилларда О.А.Сухарева “XIX аср ўрталаридан - XX аср биринчи чорагида Самарқанд безак - каштачилик тарихи” қўлёзмасини тайёрлади. Музей архивида О.А.Сухареванинг “Ургут каштачилиги”,“Самарқанд декоратив каштачилиги ” номли қўлёзмалари ҳам сақланиб қолинган[11].

О.А.Сухареванинг музейдаги асосий мавзуси каштадўзликни ўрганиш эди.Каштачилик маҳсулотларини тўплашда, янгидан–янги экспонатлар йиғишда укаси И.А.Сухарев ёрдамлашди.О.А.Сухарева бу ишга жиддий киришиб,кўплаб ажойиб этнографик материаллар тўплади.Т.А.Жданко шундай эслайди:“Музейнинг “Аёллар ҳаёти ва меҳнати ”бўлими ҳар доим аёллар билан гавжум.О.А.Сухарева улар билан суҳбатлашарди, уларнинг уйига борарди,Самарқанд атрофлари,Ўратепа,Ургут, Бухорога бориб ишларди.Ольга Александровнанинг маҳаллий аҳоли ўртасида жуда кўплаб танишлари бор эди, улар уни жуда яхши кўришарди”.

О.А.Сухарева аёллар билан суҳбатлашиб, каштачилик билан боғлиқ кўплаб маълумотлар йиғди.Шу билан бирга каштачилик тарихи ва замонавий каштачилик,унинг технологияси ҳамда хусусиятига оид материаллар тўплади.У каштадўз усталардан энг машҳур кашта маҳсулотлар суратларини чиздириб оларди.1940 йилга келиб, музейда 232 та худди шундай кашта маҳсулотларининг расмлари тўпланди[11]. О.А. Сухарева маҳаллий тилни яхши билганлиги учун ҳам кўплаб ажойиб маълумотлар тўплашга муваффақ бўлди.О.А.Сухареванинг музейдаги фаолияти каштадўзлик коллекцияларига илмий тавсиф бериш,уларни музей фондига киритиш, кундалик ҳаётдаги ролини очиб бериш ва кўргазмалар тайёрлашдан иборат эди[3,22].

Т.А.Жданко шундай эслайди: “У жуда ажойиб тўпламлар тайёрлар эди.Айниқса, каштачилик ва сўзана бўйича, уларнинг гўзаллиги музей экспонатларининг ҳуснига ҳусн қўшарди” [1]

1940-йиллар охиригача О.А.Сухарева иштирокида 5,5 минг этнографик экспонатлар тўпланиб,116 та коллекцияда бирлаштирилди.Уларнинг баъзилари бутун иттифоқ рўйхатига киритилди[11].

Музейда ишлаб юрган даврда О.А.Сухарева “Пережитки анимизма у равнинных таджиков”(Пасттекислик тожиклари орасида анимизм

қолдиқлари) мавзусида номзодлик диссертациясини тайёрлади.

Самарқанд музейида О.А.Сухареванинг 1938 йилда ёзилган “Тожикларнинг бир нечта вилоятларида анимизм ва шомонизм анъаналарининг қолдиқлари” номли қўлёзмаси сақланар эди.Ушбу қўлёзма диссертация иши учун асос бўлди[10].

О.А.Сухарева 1940 йил 15 февралда Ленинград давлат университетининг филология факультетининг этнография бўлимида “Пережитки анимизма у равнинных таджиков” мавзусида номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди[4].О.А. Сухарева ўз диссертациясини оммалаштирди ва “Исломгача бўлган даврда Ўрта Осиё халқлари динлари” (М.1975) номли йирик илмий тўпламини яратди.

Иккинчи жаҳон уруши даврида ҳам О.А. Сухарева Самарқандда музейда ўз фаолиятини давом эттирди.Укаси Иван Александрович Сухарев 1942 йил Воронеж яқинидаги жангда ҳалок бўлди.

Уруш даврида янги экспонатлар тўплаш учун пул жуда кам ажратиларди,бу пуллар билан эса ҳеч нарса харид қилишнинг иложи йўқ эди.Кийимлар ва каштачиликнинг ноёб нусхаларига бўлган қизиқиш сабабли О.А.Сухарева уларни ўз пулларига сотиб оларди.О.А.Сухарева 1946 йилгача музейда ишлашда давом этди.Шу билан бирга Самарқанд педагогика институтида “Тарих” кафедрасида ва Ўзбекистон Давлат Университети Тарих факултетида ишлади.У Ўрта Осиё халқлари этнографиясидан маърузалар қиларди.

1946 йилда О.А.Сухарева оиласи билан Тошкентга қайтди ва ЎзССРФА Тарих ва археология институтида дастлаб катта илмий ходим,кейинчалик,этнография бўлими мудири лавозимида ишлади[2].

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки,музейлар халқнинг бой маданий ва маънавий меросини сақлаб қолинишида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. О.А.Сухареванинг 1934-1946 йилларда Самарқанд ўлкашунослик музейидаги фаолияти даврида музейнинг этнография бўлими кийимлар ва каштачилик намуналари,сўзаналарнинг нодир нусхалари билан бекиёс даражада бойитилди[6].

АДАБИЁТЛАР

1. Жданко Т. А., Кармышева Б. Х. Ольга Александровна Сухарева (некролог) // Сов. этнография (далее - СЭ). 1983. N 6. С. 158-160; Сухарева О.А.К истории развития самаркандской декоративной вышивки. — В кн.: Литература и искусство Узбекистана, кн. 6. Ташкент, 1937, с. 119-134.
2. Наумова О. Б. Ольга Александровна Сухарева (К 100- летию со дня рождения) // Этнограф, обозрение (далее - ЭО). 2003. № 6 .С. 94-114.
3. Мирзоев М.Н. Вклад Ольги Александровны Сухаревой в изучение истории и этнографии таджиков Бухары и Самарканда На соискание ученой степени кандидата исторических наук ...дисс. –Душанбе: 2024. –С.22 .
4. СухаревеОО.А.Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков. — В кн. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. М.: Наука, 1975, с. 5-93

5. Сухарева О. А. Сузани. Очерки истории среднеазиатской декоративной вышивки. Рукопись. С. 1. Рукопись этой книги была полностью подготовлена О. А. Сухаревой к печати в 1982 г. В настоящее время она хранится у ее дочери Е. Р. Акбальян.
6. Сухарева О. А. Среднеазиатское искусство вышивки (о книге Н. Исаевой-Юнусовой "Таджикская вышивка") // СЭ. 1981. N 3.
7. Садыкова Н. С, Музейное дело в Узбекистане, Т., 1975;
8. Садыков Х.,Гласе Ю.И.,Цой Е.,МузеиУзбекистана,Т. 1978;
9. Содиқова Н.С, Маданий ёдгорликлар хазинаси, Т., 1981.
10. *Guli Bahriddinovna To'rayeva* "LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF OLGA ALEXANDROVNA SUKHAREVA AS A HISTORIAN-ETHNOGRAPHE" International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 03 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314 54-58 B
11. Этнографическая работа Самаркандского музея. — СЭ, 1949, № 1, с. 198-200.
12. Ҳасанова Ш.,Қаюмов Р.Музей иши фидойилари // Мозийдан садо .-Тошкент,2016-№ 4(76)-Б-16.

ULASHOV Kamoliddin Maxmudovich
Samarqand viloyat O'lkashunoslik muzeyi mudiri,

SAMARQAND HOVLI UYLARI QURILISHINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Samarqand hududida ilk hovli uylar, Temuriylar davrida hovli qurilishi, XIX asr va an'anaviy Samarqand hovlilariga xos bo'lgan me'morchilik inshoatlari bo'lmish hovlilar va ularning qurilish texnikasi hamda o'ziga xos tarix va me'moriy an'anaga ega ekanligi haqida so'z boradi. Shu bilan birga bu hovlilar asrlar davomida mahalliy iqlim, urf-odatlar va milliy me'morchilik tamoyillariga asoslanganligi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Me'moriy yodgorliklar, me'moriy an'analar, hovli, guzar, ichki hovli, tashqi hovli, tokcha, taxmon, sandal, mehmonxona, oshxona, dahliz.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о первых дворовых домах в Самарканде, строительстве дворов в период Тимуридов, дворах, представляющих собой архитектурные сооружения, характерные для XIX века и традиционных самаркандских дворах, и технологии их строительства, а также об их уникальной истории и архитектурных традициях. При этом также сообщается, что эти дворы на протяжении веков формировались с учетом местного климата, обычаев и принципов национальной архитектуры.*

Ключевые слова: *Памятники архитектуры, архитектурные традиции, двор, гузар, внутренний двор, внешний двор, полка, тахмон, сандал, гостинная, кухня, зал.*

Barchamizga ma'lumki, me'moriy yodgorliklar har bir xalqning tarixi, urf – odatlari, qadriyatlari va ma'naviyati timsoli sifatida namoyon bo'lib, bunday obidalarning o'rganilishi kishilarga o'sha davr haqida ma'lumot berib, shu davr

to‘g‘risida ko‘proq ma’lumotlar to‘planishiga olib keladi. Samarqandning hovli uylari qurilishi o‘ziga xos tarixiy va me’moriy an’analarga ega bo‘lib, biz hozir ilk hovli uylari va XX asrlarga qadar Samarqand hududidagi an’anaviy me’morchilik inshoatlari xususan hovlilar qurilishi texnikasi va uning o‘ziga xos tomonlari haqida hikoya qilamiz.

1. Ilk hovli uylar Samarqandda qadimgi davrdan beri mahalliy aholi yog‘och, loy, g‘isht va toshdan foydalangan holda hovli uylar qurgan. Erta islom davridan boshlab (VII-VIII asrlar) hovli uylar diniy va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda shakllangan. Hovlilar asosan ichki va tashqi hayot uchun qulay sharoitda to‘rt tomonlama devor bilan o‘ralgan va ichkari hovli markazida joylashgan.

2. Temuriylar davrida hovli uylar (XIV-XV asrlar) Samarqandning umumiy me’moriy qiyofasi jiddiy o‘zgarishga uchradi. Bu davrda madrasa, masjid va saroylar qurilishi bilan birga, boy savdogarlar va amaldorlar uchun hashamatli hovli uylari barpo etildi. Bunday hovlilar kengligi, bog‘lari, chiroyli koshinkor bezaklari va yog‘och o‘ymakorligi bilan ajralib turgan.

3. XIX asr va an’anaviy Samarqand hovlilari bu davrga kelib, o‘ziga xos me’moriy an’anaga ega bo‘lgan hovlilar keng tarqalgan. Ularning asosiy xususiyalarini na’muna sifatida Samarqand viloyat o‘lkashunoslik muzeyi ko‘rgazma zallaridan foydalanamiz.

Boylarning uylari ikki qismdan «ichkari va tashqari hovli» xotin-qizlar, erkaklar va mehmonlar uchun alohida qismlarga ajratilgan. Ichkari va tashqi qismni bir devor yoki yo‘lak bilan ikki qismga ajratilardi: ichkari qismida ayollar va bola-chaqalar agar uy egasining ikki-uchta xotini bo‘lsa, barcha xotinlar va ularning xizmatkorlari birga yashagan.

Tashqi hovli esa erkaklarga tegishli qism hisoblangan. Tashqi hovlida mehmonxona bor bo‘lib, hovli egasi mehmonlarini shu xonada qabul qilardi. Hovlining to‘rt tomonida uylar qurilgan bo‘lib, ularning katta - kichikligi yog‘ochlar (bolorlar)ning soni bilan o‘lchangan. Bolor - ulkan yog‘och g‘o‘lalar bo‘lib, ular uy ustiga bir metr oraliqda tashlanadi va keyin uning ustini yopadilar. Xonalar yetti bolorli, to‘qqiz bolorli, o‘n bir bolorli bo‘lib, o‘n bir bolorli uylar mehmonxona sifatida ishlatilgan.

1-rasm. Mehmonxona va ichki hovlidagi oshxona

Odatda hovlilarda yashash uchun qurilgan uylardan tashqari zarurat yoki imkoniyat doirasida bir nechta ayvon va uylarning oldida peshayvon, hovlining bir burchagida oshxonalar ham qurilgan. Oshxona maxsus binoda yoki ayvon tagida ham bo‘lishi mumkin. Oshxonada ovqat pishirish uchun loy va xom g‘ishtdan katta-kichik qozonlarga mo‘ljallangan o‘choqlar, non pishirish uchun tandir yasab qo‘yilgan. Hovlida dahliz bo‘lib bu yerda ovqatlanish ham mumkin bo‘lgan. Shuningdek bu yerda kundalik idish-tovoqlar saqlanar edi(1 - rasm). Dahlizning kiraverishda oyoq kiyimlar yechiladigan «poygak» bo‘lgan. Dahlizdan katta xonaga kirilgan. Uyning ko‘cha tomonidagi devorida, xona uzunligiga qarab, o‘n besh-yigirma santimetr o‘rtaliqda joy qoldirilib, bir qator tokchalar yasalgan. Tokchalarning balandligi uy farzidan bir-bir yarim metr, chuqurligi esa yigirma-o‘ttiz santimetr bo‘lgan. Tokchalarning ustida xona shiftidan 30-40 santimetr qoldirilib «tokdon» yasaganlar. Tokchalarda kundalik ro‘zgor buyumlari qo‘yilgan. Toqdonda esa ro‘zg‘orda kam ishlatiladigan idish-tovoqlar va mehmon kelganda kerak bo‘ladigan chinni piyola va kosalar terib qo‘yilgan[1, 31]. Uyning to‘rida ikkita katta toq bo‘lib, uni «taxmon» deydilar. Bu toqlar uy farzidan shiftigacha bo‘lib, unda odatda sandiqlar qo‘yib, ustiga kundalik ehtiyoj uchun ishlatiladigan ko‘rpa-to‘shaklar taxlab, ya’ni tax qilib ustma-ust terib qo‘yilgan. «Taxmon» ko‘pincha uy to‘rining ikki tomonida bo‘lib, ikki taxmon o‘rtasida bitta tokcha bo‘lgan. Bu tokcha boshqa tokchalar singari uy poydevoridan bir-bir yarim metr balandroq qilib qo‘yilgan.

2 – rasm. Ayollarga tegishli ichki hovlidagi xona va erkaklarga tegishli ayvon, yashash xonalari

Uyning hovli tomonidagi devorida ikki-uchta ikki tabaqali eshiklari bo‘lib, eshiklarning uzunligi uy shiftiga etmaydigan darazada yasash shu davr arxitekturasida juda ko‘p kuzatiladi[2, 56]. Uyning shiftidan eshiklar ustigacha bir-bir yarim metr qilib, yog‘ochdan deraza yasab qo‘yilgan. Uning «ko‘zlariga qish faslida moyli qog‘oz yopishtirilgan. Ko‘pincha uy eshiklari oddiy (bunday eshiklarni ubaydiy ham deydilar) juda boy badavlat kishilar esa «bag‘dodiy» eshiklaridan foydalangan edilar. Bag‘dodiy eshiklar yuqoridan pastgacha chiroyli qilib o‘ymakorlik qilingan bo‘lardi.

Ubaydiy eshiklarining ham har joy - har joyida o‘ymakorlik ishlari ishlatilgan lekin bu ishlar «bag‘dodiy» eshiklar darajasida emas edi.

XIX-XX asrlarda uylarni isitish uchun boylarning mehmonxonalarida cho‘yandan yasalgan oyoqlari o‘ymakorlik qilingan katta mankaldon (mijmar) dan foydalanilgan. Mankaldonlarga mevali daraxtlar o‘tinining cho‘g‘ini solib qo‘yganlar va ular bir necha soat uyni isitishga yordam bergan. Kichik

mehmonxonalarda va yotoqxonalarda esa uy ichini kechayu kunduz isitib turishi uchun sandal qo‘yilgan. Sandal to‘rt burchakli chorpoya bo‘lib, uning andozasiga ko‘ra uyda chuqur kovlab qo‘yilgan. Sandal mevali daraxtlarning (o‘rik, tut va shunga o‘xshash) yog‘ochidan yasalib, uning oyoqlari pastdan randalangan yog‘ochlar bilan bir-biriga bog‘lanadi. Bu yog‘ochlar sandalni mahkam ushlab turgan. Sandal ichki tomonining o‘rtasida to‘rt tomondan ingichka yog‘och o‘tkaziladi. Sandalning ustiga uning andozasiga teng keladigan va uning ustini yopib to‘rt tomonidan pastgacha sandalni yopib turadigan, qalin ko‘rpa tashlab qo‘yganlar. Ko‘rpani qalin matodan tayyorlab (buni «sandalipo‘sh, ya’ni sandalni yopib turuvchi deydilar) tashlab qo‘yadilar va uning ustiga mis yoki bronzadan sandal uchun maxsus yasalgan lagan qo‘yganlar. Sandal uchun maxsus ko‘mir ham bo‘lgan.

4. (XX asr) an’anaviy hovlilari Samarqandning me’moriy qiyofasini sezilarli darajada o‘zgartirdi. An’anaviy hovlilarga g‘isht va beton materiallari kiritildi, baland devorlar o‘rniga pastroq panjaralar ishlatila boshlandi. Ammo mahalliy aholi hanuzgacha an’anaviy loysuvoq va g‘ishtli hovlilarni saqlab qolishga harakar qilgan.

5. Bugungi kundagi Samarqand hovlilari zamonaviy uslubdagi hovlilar keng tarqalgan. Beton, shisha va zamonaviy qurilish materiallari ishlatilsada, ko‘plab oilalar an’anaviy me’morchilikni saqlashga harakat qilishmoqda. Ko‘plab yangi hovlilar hamon ochiq ayvon, bog‘ va katta hovlilarga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Samarqand hovlilari o‘zining milliy me’moriy an’analari, iqlimga mos qurilish usullari va oilaviy hayot uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Tarixiy yillar davomida bu hovlilar zamonga mos o‘zgarib kelgan bo‘lsada, asosiy tamoyillar saqlanib qolgan. Bugungi kunda ham Samarqand mahallalarida an’anaviy uslubdagi hovlilarni uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.К.Писарчик Народная архитектура Самарканда. Душанбе 1975 30-33 с.
2. Rasul Hodizoda Samarqandnoma. Tafakkur nashriyoti, Toshkent 2011 54-59 bet.

МАХМУДОВА М.Т.
доцент кафедры Дизайн НИХД им. К.Бехзода
mmalika-art@mail.ru

КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА- ДВОРЕЦ ПОЛОВЦЕВА, МУЗЕЙ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВА

***Аннотация**: В статье дана информация о Дворце Половцева-музее прикладного искусств. Раскрыты особенности архитектуры и интерьеров музея, а также даны материалы об экспозиции и коллекциях музея прикладного искусства XIX-XX вв.*

***Mazmuni:** Annotatsiya: Maqolada Polovtsev saroyi - Amaliy san'at muzeyi haqida ma'lumot berilgan. Muzey me'morchiligi va interyerining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, XIX-XX asr amaliy san'at muzeyi ko'rgazmasi va kolleksiyalari haqida materiallar berilgan.*

***Abstract:** Abstract: The article provides information about the Polovtsev Palace - Museum of Applied Arts. The features of the architecture and interiors of the museum are revealed, and materials about the exposition and collections of the Museum of Applied Arts of the 19th-20th centuries are given.*

***Ключевые слова**: Дворец Половцева, музей прикладного искусства, история, традиции, экспозиции, культурное наследие, сохранение памятников.*

***Kalit so'zlar**:Polovtsev saroyi, Amaliy san'at muzeyi, tarix, an'analar, ko'rgazmalar, madaniy meros, yodgorliklarni saqlash.*

***Key words:** Keywords: Polovtsev Palace, Museum of Applied Arts, history, traditions, exhibitions, cultural heritage, monuments preservation.*

Роль музеев в современном обществе огромна, они способствуют сохранению и интерпретации культурного наследия. Музеи являются посредниками между культурой и обществом, где пересекаются различные виды искусства, где переплетаются традиции, преемственность, также современная культура. В музеях происходит встреча истории и искусства, они хранят в себе удивительные истории и наследие наших предков.

Одной из важных проблем градостроительства в наше время является сохранение и использование исторического и культурного наследия. Этим вопросам в Узбекистане уделяется большое внимание – это страна древнейшей цивилизации.

Сохранение памятников архитектуры – является важной составляющей общества. В Узбекистане существует много примеров использования памятников архитектуры в тех или иных целях. Одним из таких удачных примеров является – Музей прикладного искусства Узбекистана, который был основан на базе Дворца Половцева, когда - то принадлежащего русскому дипломату Александру Половцеву, который трепетно относился к архитектуре и искусству [2].

Государственный музей прикладного искусства Узбекистана (бывший Дворец Половцева). Ташкент, Узбекистан, кон. XIX в. Интерьер

Александр Александрович Половцев (1867–1944 гг.) происходил из семьи влиятельного государственного деятеля сенатора Александра Александровича Половцева, его семья была одной из самых богатых в императорской России. С детства А.Половцев был знаком со многими представителями высшей круга русского общества, поэтому мемуары, которые он писал впоследствии были весьма информированные. Получив прекрасное образование в Санкт-Петербургском филологическом институте и в Императорском училище правоведения, он некоторое время служил в Лейб-Гвардии Конном полку, самый элитный полк императорской русской армии. Выйдя в отставку, он поступает на службу в Министерство внутренних дел. В конце XIX столетия он совершает несколько рабочих поездок в различные страны и регионы. И вот во время одной из таких поездок он впервые познакомился с Ташкентом, и полюбил его с первого дня, и поэтому решает остаться и жить в этом городе. И поэтому, когда его перевели на службу в Министерство иностранных дел дипломатическим чиновником при Туркестанском генерал–губернаторе в 1903 г. Половцев решает здесь купить дом. Это дело он поручил личному секретарю дипломата М.С. Андрееву, который был знатоком восточных языков, и впоследствии стал известным востоковедом и членом – корреспондентом Академии наук Таджикистана. Выбрали дом, принадлежавший ташкентскому купцу Иванову, это был крупнейший туркестанский капиталист владевший многими предприятиями. Под руководством архитектора А. А. Бурмейстера было изменено немного убранство дома [3].

При строительстве дома использовались европейский и восточный стили. В восточном стиле оформлен фасад – это резные деревянные колонны, роспись на потолках и стенах, ганч. А влияние русской культуры особенно заметно в интерьере дворца – это камины, небольшие бассейны.

Здание представляет собой образец архитектурно-декоративного искусства, внутреннее убранство дворца очень богато декорировано. Архитектурный декор, резьба по ганчу, резьба и роспись по дереву выполнены узбекскими народными мастерами: Уста Т. Арсланкулов, А. Казымджанов (Ташкент), Уста Ширин Мурадов (Бухара), Уста А. Палванов (Хива), Уста

Абдулла (Риштан). С 30-х гг. XX в доме располагались разные организации, в том числе в доме располагался учебный центр резьбы по ганчу, чеканке, вышивальный цех. В течении второй половины XX в. в здании проводились многочисленные реставрационные работы и реконструкция. А в 1984–1987 гг. во время очередных реставрационных работ архитектурного декора памятнику был возвращён экспозиционный вид. Реконструкция комплекса также проводилась и в 2010 г.

История Музея прикладного искусства Узбекистана ведется с 1927 г., когда здесь была организована первая выставка произведений мастеров Узбекистана [1]. Уже через 10 лет, в 1937 г., в доме открылся Музей кустарных промыслов, а в настоящее время в нём располагается Государственный музей прикладного искусства Узбекистана, который в 1997 г. перешел в Министерства культуры Республики Узбекистан.

Как известно, на территории Узбекистана в течение веков формировались своеобразные центры народных художественных ремесел. Узбекский народ известен всему миру своими неповторимыми, уникальными образцами прикладного искусства [7]. В музее можно ознакомится с неповторимыми и уникальными образцами прикладного искусства Узбекистана. Истоки его уходят в глубокую древность, но мастера народных художественных ремесел из поколения в поколение сохраняют самобытные традиции в резьбе по дереву и ганчу, чеканке по металлу, в ювелирных изделиях, керамике, ковроткачестве, ткачестве, в золотом шитье, вышивке и т.д.

Фонды музея насчитывают больше 7 тысяч экспонатов. Несколько сотен, наиболее выдающихся из них, представлены в экспозициях 13 залов с 20 тематическими коллекциями, где экспонируются свыше 50 видов изделий народных мастеров. Это работы народных, чаще всего потомственных мастеров, следующих традициям нескольких поколений профессиональных ремесленников, создающих оригинальные произведения прикладного искусства [8]. Многие из них не только строго придерживаются эстетических канонов региональных художественных школ и давних традиций, но и вносят в произведения свое видение, стремясь модернизировать классические формы. В каждом из залов музея посетитель получает истинное удовольствие от чудес, созданных руками человека, от неповторимости каждого образца. Например в зале, где представлена резьба по дереву, посетители удивляются, когда видят ширму, собранную без единого гвоздя и клея. При этом рисунок ни на одной из частей ширмы не повторяется![6]

За годы независимости Узбекистана уделяется особое внимание улучшению деятельности музеев республики. Так в 1994 и 1998 годах было принято решение Кабинета Министров о мерах по улучшению деятельности музеев, создан фонд "Узбек-музей", организация Ташкентского Государственного музея истории Узбекистана, Государственного музея и истории эпохи периода Темуридов, музея памяти жертвам репрессии, археологического музея в Термезе. Также в указе Президента Республики Узбекистан от 12 января 1998 года "О коренном улучшении и

совершенствовании деятельности музеев" была подчеркнута необходимость об совершенствовании системы музеев, которые были раньше созданы на территории Узбекистана, поднять уровень занимаемого их места в морально-духовном обогащении народа, было указано беречь, изучать, обогащать, и показать всему миру и пропагандировать хранящиеся в фондах музеев редкостные, бесценные экспонаты, демонстрирующие шаги нашей независимости, богатую историю народа, всё это повышает рост сознания народа, чувство преданности родине и т.д.

В настоящее время на базе музея прикладного искусства Узбекистана в Ташкенте появился Государственный музей прикладного искусства и ремесленничества [4]. Здание музея реконструировалось, создан новый выставочный зал и административное здание. Благодаря новому музею появилась возможность сохранить, пропагандировать на международном уровне, продолжать научное изучение, а также можно будет донести до будущих поколений произведения традиционных ремёсел и прикладного искусства.

Сегодня музеи не только хранят в историю, но и продолжают развиваться, становятся более доступными благодаря использованию современных технологий: интерактивные экспозиции и виртуальные туры. [5]. Приспособление памятников архитектуры к современным условиям способствует их сохранению и продлевают их существование ещё на многие годы.

Литература:

1. Кадырова Т.Ф. Архитектура Советского Узбекистана. Москва, 1987 г.

2. Махмудова, М.Т., Махмудова, М.М. Традиционные ремёсла Узбекистана в дизайне современных интерьеров. Международная конференция Conference SOCIETY, INTEGRATION, EDUCATION. Латвия. 2017г.

3 Махмудова М.Т. Интерьеры жилых и общественных зданий. Ташкент. LESSON PRESS, 2020 г.

4. Махмудова М.Т. История архитектуры и интерьеров. Ташкент. Изд. "Dimal", 2024 г.

5. Майстровская М.Т. "Музей как объект культуры. XXI века. Изд. Прогресс. Москва. 2022 г.

6. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX– начало XX вв.). Ташкент, 1988 г.

7. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана. Москва, 1965 г.

8. Хакимов А.А. Прикладное искусство Узбекистана. Изд. Мега басим., Ташкент. 2013 г

ISLOMOV Feruz Xoshimovich
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Badiiy kulol va MYOBT" kafedrasi v.b. dotsenti

TOSHKENT SHAHRI TARIXIY ME'MORIY MAJMUALAR TARIXIDAN

Annotatsiya: *Maqola Toshkent shahrida bunyod etilgan qadimiy milliy me'moriy meros namunalarining o'rganilishi, ushbu masalaga doir qimmatli arxiv hujjatlarini ilmiy tahlil etishga bag'ishlangan. Unda Toshkent shahri va viloyatida joylashgan Hazrati Imom, Shayxontohur va Zangiota me'moriy majmualarining o'ziga xos uslubga ega inshootlari xususidagi qiziqarli tarixiy faktlar keltirib o'tilgan. Maqolada XIX asr oxiri – XX asrda ushbu yodgorliklarni o'rganish asosida yaratilgan va hozirda O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan mavzuga doir arxiv hujjatlarini sharhlashga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *tarixiy-me'moriy obidalar, Toshkent, Hastimom Shayxontohur, Zangiota, me'moriy majmua, Toshkent me'morchilik maktabi, masjid, madrasa, maqbara, minora, me'moriy bezaklar.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению образцов древнего национального архитектурного наследия, возведенных в Ташкенте, научному анализу ценных архивных документов по данному вопросу. В нем приводятся интересные исторические факты о сооружениях архитектурных комплексов Хазрати Имам, Шайхантохур и Зангиота, которые расположены в городе и области Ташкент. В статье особое внимание уделяется интерпретации архивных документов по данной теме, созданных на основе изучения этих памятников в конце XIX – XX веков и хранящихся в настоящее время в Национальном архиве Узбекистана.*

Ключевые слова: *историко-архитектурные памятники, Ташкент, Хастимом Шайхонтохур, Зангиота, архитектурный комплекс, Ташкентская архитектурная школа, мечеть, медресе, мавзолей, башня, архитектурные декоры.*

Annotation: *The article is devoted to the study of samples of the ancient national architectural heritage erected in Tashkent, the scientific analysis of valuable archival documents on this issue. It provides interesting historical facts about the buildings of the architectural complexes of Hazrati Imam, Shaykhontokhur and Zangiota, which are located in the city and region of Tashkent. The article pays special attention to the interpretation of archival documents on this topic, created on the basis of the study of these monuments in the late 19th – 20th centuries and currently stored in the National Archives of Uzbekistan.*

Keywords: *historical and architectural monuments, Tashkent, Hastim Shaikhontokhur, Zangiota, architectural complex, Tashkent Architectural School, mosque, madrasah, mausoleum, tower, architectural decors.*

Mamlakatimiz poytaxti bo'lgan Toshkent shahri nafaqat zamonaviy binolari

balki tarixiy obidalari bilan ham mashhurdir. Asrlar davomida ushbu shaharda o‘ziga xos me’moriy uslub va an’analar asosida bunyod etilgan tarixiy-me’moriy yodgorliklar shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shish bilan birgalikda dunyo xalqlari e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelayotgani ham bejizga emas.

Toshkent shahri nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahonning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Mazkur shahar muhim karvon yo‘llari o‘tgan mintaqada joylashgan bo‘lib, bu yerda Buyuk ipak yo‘lining tarmoqlari kesishgan. Buning natijasida Toshkent shahri asrlar davomida mintaqa madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Dunyo hamjamiyati tomonidan “Sharq darvozasi” nomiga musharraf bo‘lgan Toshkent shahri hozirda muhim turizm markazlaridan biridir [1, 32].

O‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan milliy me’moriy meros namunalarining betakror namunalarini o‘zida jamlagan Toshkent shahri tarixiy obidalarini o‘rganish masalasi O‘zbekiston tarixi va madaniyati fanlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O‘tgan davr mobaynida Toshkentning boy madaniy merosini o‘rganishga arxeolog, tarixchi, san’atshunos va arxitektura tarixi mutaxassislari tomonidan katta e’tibor qaratib kelingan. Buning natijasida ushbu madaniy meros tarixi va ularning o‘ziga xosligini yoritishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar, arxiv hujjatlari yaratilgan. Ayniqsa, Toshkent shahrining yubileyi YUNESKO tomonidan xalqaro miqyosda nishonlangani, mazkur masalaga nafaqat respublikamiz balki jahon hamjamiyati tomonidan qaratilgan e’tiborning naqadar ahamiyatli ekanligidan darak beradi [2. 02.04. 2008].

Toshkent shahri me’moriy inshootlarni o‘rganish natijasida qimmatli arxiv hujjatlari ham yaratilgan bo‘lib, ular mazkur yodgorliklar tarixiga doir muhim manbalar sirasiga kiritilgan. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan arxiv hujjatlari bunga yaqqol misol bo‘ladi. Mazkur masalaga doir arxiv hujjatlarining aksariyat qismi XIX asr oxiri-XX asrda yaratilgan. Ularda tadqiq etilayotgan tarixiy obidalarning XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlaridagi holati, ularni tiklash-ta’mirlash ishlari tarixi, yodgorliklardan foydalanish hamda ularga bo‘lgan munosabat masalasi tarixi yozib qoldirilgan.

Mazkur arxiv hujjatlarida XIX asr oxiri-XX asr oxirlarigacha, ya’ni respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritguncha bo‘lgan davrda, ya’ni Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi hamda sovet davrida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari sirasiga kiritilgan milliy me’moriy meros namunalarini o‘rganishga bo‘lgan munosabat tarixi yoritilgan [1, 35].

Ma’lumki XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududining ma’lum qismi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilgan edi. Bu davrda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan mustamlaka o‘lkalar, xususan, Turkiston o‘lkasi tarixiy-madaniy merosiga nisbatan bepisandlik bilan qarash siyosati yuritilgan va mahalliy xalqlar madaniy merosi talontaroj etilgan. Buning natijasida tarixiy yodgorlklarning ko‘pchiligi ayanchli ahvolga kelib qolgan. Turkiston hududining rus tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan qismida joylashgan tarixiy me’moriy yodgorliklarga ehtiyotsizlik bilan qilingan munosabat natijasida jiddiy ziyon yetkazilgan. Ularning ichki va tashqi bezaklari markazda joylashgan tarix va san’at muzeylariga olib ketilgan [11, 8]. Shu o‘rinda mustamlaka ma’murlari

buyrug‘i bilan o‘rganilgan yodgorliklardan topilgan moddiy manbalar: tarixiy obidalar ichki bezaklari (qimmatbaho qandillar, me’moriy bezaklar, masjid va madrasalar ichki interyeri), me’moriy yodgorliklarning ba’zi qismlari (naqshinkor eshikderazalar, devor, shift, pol qoplama bezaklari) ko‘chirib olib ketilganiligi xususida ma’lumotlar saqlanib qolgan [3, 17].

Rossiya hukumatining noxolis siyosatiga qaramasdan mahalliy xalqlar madaniy merosini o‘rganish va saqlab qolish g‘oyasini ilgari surgan rus sharqshunos olimlari faoliyatini ham kuzatish mumkin. Ushbu yo‘nalishga kirgan harakat vakillari sirasiga V.L.Vyatkin, V.V.Bartold, M.YE.Massonlarni kiritib o‘tish mumkin. Ular Turkiston o‘lkasi tarixiy-madaniy merosi, shu jumladan, me’moriy yodgorliklarining butunlay vayron etilishi va yo‘q bo‘lib ketishini oldini olishda munosib hissa qo‘shgan olimlardir. Sovet davrida ham xuddi shunday ikki xil yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar majmuini kuzatish mumkin. Ularni tahlil etish, bu davrda sobiq sovet ittifoqiga kirgan davlatlar milliy madaniy merosini saqlab qolishga bo‘lgan e’tibor nisbatan kuchayganini ko‘rish mumkin [12. B. 24].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekiston me’moriy obidalari, xususan, Toshkent shahrining tarixiy inshootlarini o‘rganishga oid masalalar yoritilgan tadqiqotlar natijasida mualliflar tomonidan qiziqarli faktik materiallar jamlangan. Keyinchalik ular O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zRMA), O‘zbekiston Respublikasi kino-foto-fono hujjatlari Milliy arxivi (O‘zRKSOHMA)ning tegishli fondlariga saqlash uchun qabul qilingan va hozirgi kungacha saqlab kelinmoqda. Shuningdek, Toshkent shahri me’moriy yodgorliklarini tadqiq etgan mutaxassis olimlar tomonidan ham arxiv jamg‘armalar yaratilgan [6, R-2406- fond; 7, R-2773-fond; 8, R-2810]. Mazkur arxiv hujjatlari ham tarixiy obidalarni o‘rganilish tarixini oydinlashtirishda, xususan, Toshkentdagi Hazrati Imom, Shayxontohur va Zangiota me’moriy majmualari hamda boshqa ko‘plab tarixiy yodgorliklarning tadqiq etilgan davrlardagi holati, ularni muhofaza qilish ishlari, tiklash-ta’mirlash va ulardan foydalanishga doir masalalarni yoritib berishda birlamchi manba sifatida katta ahamiyatga egadir.

Toshkent shahri va viloyatida joylashgan me’moriy yodgorliklari ichida Hastimom, Shayxontohur va Zangiota me’moriy majmualari alohida o‘rin tutadi. Ularni o‘rganishga doir ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, ular tarixiy yodgorliklar o‘tmishiga doir qiziqarli ma’lumotlarni o‘zida jamlaydi.

Shayxontohur (Shayx Xovandi Tohur) me’moriy majmuasi shaharning eng gavjum va fayzli joylaridan birida joylashgan bo‘lib, o‘tmishda ham bu yerda bir necha me’moriy obidalar, shifobaxsh buloqli Langar hovuzi, savdo rastalari o‘rin olgan edi. O‘rta asrlardayoq mazkur me’moriy majmua joylashgan maydon Hayit va Navro‘z bayramlarida xalq sayli bo‘ladigan yerga aylangan bo‘lib, keng xalq ommasi to‘planadigan maskan hisoblangan. Shayxontohur me’moriy majmuasi maqbaralari XIV-XV asrda bunyod etilgan. XIII asr oxiri XIV asr o‘rtalarida yashab o‘tgan Shayx Xovandi Tohur Yassaviya tariqatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan. 1355 yilda vafot etgan shayx qabri ustida keyinchalik Amir Temur farmoyishiga binoan maqbara qurilgan. Maqbara go‘rxona va ziyoratgohdan iborat bo‘lgan. Maqbara go‘rxonasi ikki qismdan iborat: birinchisi, Shayx Xovandi Tohur qabri joylashgan xona bo‘lib, o‘n ikki qirrali gumbaz bilan yopilgan; ikkinchisi,

sakkiz qirrali gumbaz bilan yopilgan xonada uning rafiqasi va o‘g‘lini qabri joylashgan. Maqbara ziyoratxonasi qubbali. G‘ishtdan imorat bo‘lgan ushbu maqbara peshtoqi va yon ravoqlarida rangli me’moriy bezaklar mavjud. Mazkur me’moriy majmuada joylashgan Yunusxon va Qaldirg‘ochbiy maqbalari XV asrda Temuriy hukmdorlari davrida milliy me’morchilik an’analarini davom ettirgan holda bunyod etilgan [6, 61-varaq].

Zangiota majmuasi Toshkent shahridan 16 chaqirim g‘arbda, Samarqandga o‘tadigan qadimiy karvon yo‘lida qad rostlagan. Ushbu ziyoratgohning dastlabki inshootlari Markaziy Osiyo mintaqasida Zangiota nomi bilan mashhur Shayx Oyxoja ibn Tojxojaning vafotidan so‘ng uning mozori ustiga qurilgan kamtarona yodgorlik sifatida paydo bo‘lgan. Bu muhtasham yodgorlik majmuining qurilishi XIV asrning 80-yillarida Amir Temur tomonidan boshlanib, 1420- yilda Mirzo Ulug‘bek tomonidan tugatilgan. Zangiota maqbarasi dastlab ikki xonali sodda imorat - ziyoratxona va go‘rxonadan iborat bo‘lgan. Dastlab unda naqshinkor bezakli peshtoq bo‘lmagan. Xonalarning devori to‘rt asosli ravoqli gumbazlar bilan bog‘langan. Go‘rxonadagi oq marmardan ishlangan qabrtoshga nafis o‘yma epigrafik naqshlar bitilgan. Keyinchalik maqbara oldiga peshtoq va ikkita ko‘ndalang xona qurilib, bezak berilgan. Peshtoq va xonalar tashqi devori, ziyoratxona hamda maqbara poygumbazi g‘ishtdan va o‘ymakor rangdor koshinlar bilan bezatilgan. Zangiota majmuasiga kiradigan yana bir inshoot Anbar ona maqbarasidir. U Zangiota maqbarasining janubi-g‘arbida joylashgan peshtoqli ziyoratxona va go‘rxonadan iborat. Ushbu ziyoratxona va go‘rxonaning usti doira shaklida qo‘shqavatli gumbaz bilan yopilgan. Maqbarada nafis islimiy va epigrafik naqshlar bilan bezatilgan oq marmar qabrtosh joylashgan. Maqbara dastlab peshtoqsiz va bezaksiz ikki xonali ziyoratgohdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik uning oldiga peshtoq qurilib, koshinlar bilan bezatilgan. Temuriylar davrida Toshkentda bunyod etilgan me’moriy yodgorliklar tuzilishi va bezaklarida mahalliy me’morchilik maktabi an’analari ustunlik qiladi [7, 20-varaq].

Toshkentning yana bir e’tiborga molik me’moriy yodgorligi Xastimom me’moriy majmuasidir. Ushbu tarixiy yodgorlik Sebzor dahasida joylashgan. Majmua shofe’iylik mashabining yetakchi allomalaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol ash-Shoshiy ustida qurilgan maqbara atrofida shakllangan. XVI asrda janub tomonida katta mozor hududi joylashgan eski inshootning o‘rniga shayboniylar tomonidan Qaffol Shoshiy maqbarasi qurilgan. Bu yerda Qaffol Shoshiy maqbarasidan tashqari yana ikkita maqbara qurilgan bo‘lib, biri nomsiz va ikkinchisi Suyunijxon maqbaralari bo‘lgan.

XVII asrda esa (1579 yil) Abdullaxon II mablag‘i asosida Shayx Boboxo‘ja maqbarasi qurilgan, ammo ushbu maqbara keyinchalik buzilib ketgan. Ushbu majmuada joylashgan Baraqxon madrasasi 1502 yildan to 1770 yilgacha bo‘lgan davr mobaynida alohida-alohida qismlarga bo‘lib qurilgan. Bu madrasa uch qismga bo‘linib qurilganligi arxeologiya izlanishlarida aniqlangan. Birinchi qismi bosh peshtoqning chap tarafidagi Noma’lum maqbara bo‘lib, u Xoji Ahror Vali tarafidan qurdirilganligi taxmin qilinadi. Mazkur maqbara XVI asrni o‘rtalari Samarqand me’morchilik maktabi qurulish uslubida bunyod etilgan. Ikkinchi qismi 1531-1532 yillarda qurib bitkazilgan Gumbazi Baraqxon yoki Ko‘k Gumbaz nomi bilan

atalgan. Uni Suyunijxojaxonning kenja o‘g‘li Muhammad otasi uchun qurdirgan bo‘lib, u Buxoro me’morchilik maktabi an’analari asosida bunyod etilgan. XVI-XIX asrlarda bu ikki maqbaraning o‘rtasida mozor bo‘lgan. XVII asrning 55 - yillarida mozor buzilib, ikki maqbara o‘rtasi bir qavatlik va gumbaz yon galereyalar bilan ulangan. XIX asr o‘rtalarida Baroqxon madrasasi ro‘parasida Qo‘qon xoni Mirzo ahmad tomonidan Tilla shayx masjidi, Qaffol ash-Shoshiy maqbarasi Namozgoh masjidlari bunyod etilgan. Asrlar davomida islom madaniyatining muhim markazlaridan biri sanalgan Toshkentning betakror me’moriy majmuasi - Hastimom tarixiy yodgorligi me’moriy qiyofasiga sovet davrida bir qator o‘zgartirishlar kiritildi va uning vazifasi birmuncha o‘zgartirildi. Xususan, 1917 - yilga kelib bu madrasani yotoqxonaga aylantirilishi munosabati bilan, uning tarixiy ko‘rinishiga katta o‘zgartirilishlar kiritildi. 1936-yilda madrasa ko‘rlar jamiyati va keyinchalik har xil omborxonalar bo‘lib ishlatilib, tashlandiq holda qoldirildi. Buning natijasida mazkur tarixiy yodgorlik yiqiladigan holatga borib qoldi. Namozgoh masjidi keyinchalik shofyorlar o‘qitiladigan maktabga, Baroqxon madrasasi esa Ateizm muzeyiga aylantirilgan [9, 17-varaq]. Keyinchalik majmua o‘rtasida kinoteatr va maktab qurilgan bo‘lib, bu yodgorlikning tarixiy-me’moriy qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1943 yilda Baraqxon madrasasi O‘rta Osiyo va Qozoqiston musulmonlari diniy idorasiga berilgan. Bu yerda Ziyovuddin Boboxonov boshchiligida ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirilgan va ko‘p yillar shu idora binosi sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan. O‘zbekistonning mustaqilligi sharofati bilan madrasada bir necha bor tiklash-ta’mirlash ishlari olib borilib, unga O‘zbekiston madaniy merosining alohida muhofaza etiladigan nodir namunasi sifatida e’tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gulyamov J. Toshkent shahri me’moriy yodgorliklari tarixidan “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February 2023. B. 32-37
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ828-sonli Qarori. 02.04. 2008 yil.
3. O‘zMA. I-1-fond.15-ro‘yxat. 389-ish. 17-varaq.
4. O‘zMA I-71-fond. THAT fondi hujjatlari.
5. O‘zMA R-394-fond. Sredazkomstaris hujjatlari.
6. O‘zMA R-2406-fond, 1-ro‘yxat, 855-ish, 61 varaq; Shu fond.1433-ish. 20-varaq.
7. O‘zMA R-2773-fond, 1-ro‘yxat, 127-ish, 44 varaq.
8. O‘zMA R-2810-fond. 1-ro‘yxat, 64-ish, 10-varaq.
9. O‘zMA R-94 fond, 5-ro‘yxat, 1182-ish, 17-varaq.
10. O‘zKFFHMA Inv. №0-16643.
11. O‘zbekiston: shaharlar va afsonalar. - Toshkent, 2014.
12. Hamidova M.S. Arxiv hujjatlarida O‘zbekiston me’moriy yodgorliklarining o‘rganilish tarixi (O‘zMA hujjatlari misolida) - Toshkent, 2021.
13. Hamidova M.S. Amir Temur va Temuriylar davri me’moriy yodgorliklarining o‘rganilishi. - Toshkent, 2021.

AHMEDOV To‘lqin
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
San’at tarixi va nazariyasi kafedrasi
dotsenti

ZAMONAVIY RASSOMLAR IJODINI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: *Maqolada Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida pedigogik faoliat olib borayotgan ijodkor rassomlarning" O‘zbekiston-Vatanim " maqbarasi yaratg‘oni ishlari bilan taqdirlandi. Shuningdek, ushbu maqbarasi ijodiiy ishlarningmahalli va xorijiy muzeylardajaklanishjaraenlari batafsil manzil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston tarixi, muzeylar, madaniy meros, tarixiy janr, rassom, dastgohli, rangtasvir, kompozitsiya, ekspozitsiya, ko‘rgazma, tarixiy portret.*

Аннотация: *В статье представлен анализ работ творческих художников, осуществляющих педагогическую деятельность в Национальном институте художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода на тему “Узбекистан-моя родина”. Также подробно проанализированы процессы сохранения творческих работ на эту тему в отечественных и зарубежных музеях.*

Ключевые слова: *история Узбекистана, музеи, культурное наследие, исторический жанр, художник, станковая живопись, живопись, композиция, экспозиция, выставка, исторический портрет.*

Abstract: *The article describes the Institute of Arts and Design and the pedagogical activity of artists carried out in it, while simultaneously creating artistic images of historical works about famous and great ancestors and personalities who made a huge contribution to world civilization and at the same time these works were preserved in the museums of Uzbekistan and the world museums of the world.*

Keywords*: History of Uzbekistan, museum and, cultural heritage, historical, battle genre, artist, easel, painting, composition, exhibition, expositions, historical portrait, painting.*

XX asrning 90-yillarida tarixiy mavzuga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ijodkor rassomlar yaratgan asarlarida unitilayotgan tarixiy merosimizni yanga badiiy vositalar bilan ifodalash va tiklashga intilish ustunlik qilishini alohida qayd etish lozim. Zero, bu davrda milliy an’analar va g‘oyani ifodalashga chuqur murojaat etish, ulug‘ tarixiy shaxslar nomlarini abadiylashtirish va ularning merosini kelgusi avlodga yetkazish borasida katta imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Saksoninchi yillarning boshida katta ijodiy jarayonga kirib kelgan musavvir Orif Mo‘inov ijodida asosan qayta qurish yillari bilan bog‘liq turkum asarlarida ramziylik, falsafiylik, tarixiylik

va majoziylikka e’tibor kuchli bo‘ldi. Bu uning “Buxoro mening dardim”deb nomlangan turkumida o‘zining yorqin ifodasini topgan. “Yonayotgan ot, Quriyotgan hovuz” va “Daraxtning o‘limi” kabi nomlar bilan ataladi. Buxoroning qadimiy yodgorliklari turg‘unlik davrida qarovsiz qolib, o‘z holiga tashlab qo‘yilgani turkum asarlarida ta’sirchan va fojeiy tarzda ko‘rsatilgan.

Mustaqillik rassom ijodida tarixiylik, milliylik, umumilliy ma’anaviy qadriyatlarni aks ettirishdek yangi va sermahsul ijodiy bosqichni boshlab berdi. Natijada u Polshada shaxsiy ko‘rgazmasini o‘tkazishga muyassar bo‘ldi. Musavvir 1988-1994 yillarda “Cho‘lpon” nashriyotida ishlab, ko‘pgina kitoblarga suratlar va illyustratsiyalar ishlagan. Shu yillarda “Xo‘ja Ahror”, “Naqshbandiya”, “Ahmad Yassaviy” kabi ulug‘ zotlar haqidagi kitoblarni bezash ishlarida qatnashgan. Bu esa o‘z navbatida, kelgusida buyuk insonlar haqida rangtasvir asarlar yaratilishiga zamin tayyorladi. Natijada rassomning 1995 yili “Ulug‘bek yulduzi”, “Ahmad Yassaviy”ga bag‘ishlangan va undan keyin “Suhbat”, “Muloqot”, Amir Temurga bag‘ishlangan “Sohibqiron”, “Bibixonim” singari asarlari dunyoga keldi.

Jumladan, “Amir Temur chehrasi”(1995) asari XVasr miniatyurasiga xos tasviriy yo‘nalishda ishlangan bo‘lib, unda ijodkor sohibqironni chuqur mulohazali, ayni damda qat’iyatli shoh obrazi, qudratli shox va sarkarda qomati qiyofasida ifodalangan. Asarda Temurning qoyaga o‘xshash mustahkam, mag‘rur va ayni chog‘da adolatli shox ekanligi uning chehrasidan, qat’iyatli ko‘z qarashlaridan yaqqol sezilib turibdi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlarning aksariyat qismi asosan akademik, realistik maktab an’analari asos qilib olsa, ayrimlari zamonaviy yo‘nalishni maqul ko‘rdilar, yana boshqlari esa avangard, miniatyura va xatto ularning barchasini uyg‘unlashtirgan holda asarlar yarata boshladilar.

Ustoz san’atkor N.Qo‘ziboev tomonidan yozilgan “Hukumdorning maqbarasi” asari katta va tik ko‘rinishda och, yorqin rangli (1995) koloritda ifodalangan.Rangtasvirda naqshinkor sirli koshinlar bilan bezatilgan mahobatli maqbara o‘zining uluhvorligi aniq va mukammal yechimli me’moriy qurilma ekanligini go‘yo baralla namayon etib turganek. Moybo‘yoqli uslubda yozilgan asarni tomosha qilayotgan muxlis, shunday buyuk shaxsga alohida e’tibor berilayotganligidan fahr hissini uyishi shubhasiz. Musavvirning o‘zi asli sobiq tuzum davri tasviriy san’ati an’analari va qoidalari asosida asarlar yaratadigan taniqli ijodkor bo‘lsada, biroq, mustaqillik sharofati bergan erkin ijod sharoitidan foydalangan holda tarixiy rangtasvir asarlarini bajarishga o‘zini burchli deb, bilib, mazkur mumtoz asarni yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Rassom yana bir asarni, ya’ni “Amir Temur” siymosini portret janridagi navbatdagi asarini yaratdi. Unda ulug‘ sohibqironning old tomonidan xalqiga qarata o‘zining iliq tilaklarini aytayotganday, o‘ng qo‘lini oldinga cho‘zgan holatdagi ko‘rinish haqqoniy tasvirlangan. Asar kompozitsiyasi markazida qahramon qomati realistik uslubda aks ettirilgan. Portretda katta mahorat ila berilgan moyli bo‘yoqlar uyg‘unligi, obrazni badiiyligini oshirib, A.Temurni yanada salobatli ko‘rinishga ega bo‘lishini ta’minlagan.

O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining Markaziy ko‘rgazmalar zalida Kamoliddin Behzodning 550 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ko‘rgazmada

O‘zbekistn xalq rassomi J.Umarbekovning “Etti iqlim sultoni”asari tasviriy san’at ihlosmandlarida katta qiziqish uyg‘otdi. Rassom mazkur ko‘p qomatli asardagi obrazlarni ramziy ifodalar orqali tasvirlab, uning kompozitsion yechimning uyg‘unligini ta’minlashga muvaffaq bo‘lgan. Asar dastgohli rangtasvir turida, mahobatli ko‘rinishda katta xajmli ko‘p qomatli yechimda, ital’yan uyg‘onish rassomlari uslubiga xos murakkab tasviriy uslub qo‘llagan holda ishlangan bo‘lib, asarning kompozitsiyasi markazida sohibqiron A.Temur taxtda viqorli, salobatli, dabdabali libosda, tantanavor holatda tasvirlangan. Hukumdorning atrofida esa, XIV-XV asrlarda davlatini mashxur qilgan olimu, ulamolar, elchilar va o‘zga yurtdan kelgan mehmonlarning turli xil liboslardagi qiyofalari ko‘zga tashlanadi. Rassom bilan o‘zaro asarning yaratilishi haqida o‘tkazilgan suhbatda muallif: “A.Temur qiyofasini juda ko‘p manbalardan izlandim, ayniqsa, ispan elchisi va tarixchisi Klavixo tasviriga e’tibor qaratdim. Ana shu izlanio‘larim jaryonida qo‘limga Xitoy miniatyurasi tushib qoldi. Bu asar tasavvurlarimga ko‘p narsa berdi,”-deb esladi. Xullas, ko‘rib turganingizdek, musavvirning izlanishlari o‘z samarasini berdi. Natijada o‘zbek tasviriy san’ati hazinasi yana bir yaxshi, mumtoz asar bilan boyidi.

Shunday ma’suliyatli ishga qo‘l urgan rassomlardan biri tarixiy asarlar yaratuvchi rassom Z.Fahriddignov avvaldan bu jarayonga asosiy e’tiborini qaratgan. U o‘ziga xos ijodiy uslubining asosiy vazifasi sifatida, yangi mustaqil ravishda arixiy asarlar yaratadi. Rassomning ijodida tarixiy shaxslarni va me’moriy yodgorliklarini mahobatli rangtasvirga xos yo‘nalishda tasvirlashga intlish seziladi. Ijodkor tomonidan 1995 yil yozilgan “Ulug‘bek mashvarati” kartinasida mirzo Ulug‘bek hukumronlik qilgan saltanat poytahti bo‘lmish Samarqandda osmon ilmining o‘zga yurtlardan tashrif buyurgan olimu fuzalolari yig‘ilgan rasadxonasining ichki intererida mashvarat o‘tkaziladigan keng xona ifodalangan. Asarning kompozitsiyasi markazida Ulug‘bekning ilm ahillariga qarata, osmon ilmini o‘rgangan buyuk insonning qomatini olim va ayni vaqtda davlat arbobi sifatida aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan. Asardagi hamma sharoit, kundalik ilm uchun ishlatiladigan aspoblaru- buyumlari o‘rta asrlar davriga mos tushgan. Ammo rangtasvirda hammasi juda ham mahobatli bo‘lmasada, biroq biroq markazda tasvirlangan Ulug‘bekning obrazi mahobatli ko‘rinishda me’yoriga yetkazib yozilgan. Bu hol rassomning badiiy ashyolardan unumli va o‘z o‘rnida foydalanib, davrga mos , asosli asar yaratishga alohida ahamiyat qarata olgnligini ko‘rsatadi.

Musavvir tomonidan “Zafar” deb nomlangan va 1996 yil ifodalangan navbatdagi asarida esa o‘ta tantanavor, dabdabalilik,yaqqol sezilib turgan buyuk hukumdor, buyuk sarkarda A.Temurning harbiy safarlardan g‘alaba bilan qaytib kelayotgan sohibiqironni xalq tomonidan kutib olish jarayoni yorqin keskin, qarama-qarshi rangli koloritda yozilgan. Asarda ishlatilgan qizil, tiniq olcha rang, bo‘yoqlarning qo‘llanilishi asarga romantik va tantanovorlik kayfiyatini, ruhiyatini baxsh etganligini ko‘rsatadi. Kartinani ko‘rib turgan tomoshabinda ham beihtiyor ko‘tarinkilik kayfiyatini ta’minlashga hizmat qilganligini his qilish mumkin.

O.Mo‘inov tomonidan A.Temur portretini (1995) o‘ziga xos ijodiy ruhda yozgan va ilk bor o‘zini tarixiy portret janrda asarlar yaratishda sinab ko‘rgan. Bibixonim chehrasini (1995) rassomlarimiz orasida birinchilardan bo‘lib,

жумысы, 1975-жылы Ж.Шамуратов атындағы көркем-өнер билим журтының (ҳәзирде Нөкис қәнийгелестирилген мәденият мектеби) сыртқы дийўалына ислеген «Көркем өнер» атлы мозаика, 1978-жылы Бердақ атындағы театрдың кафесиниң дийўалына ислеген «Ақмақ патша» атлы роспись жумысы, 1982-жылы қалалық емлеўхананың асханасының дийўалына ислеген «Зүрәәт байрамы», «Жети сулыў» атлы роспись жумыслары, 1983-жылы Пионерлер сарайы имаратының (ҳәзирги ўақытта имаратта Билимлендириў ҳәм Раўажландырыў орайы «Прогресс» мектеби жайласқан) сыртқы тәрепине ислеген «Бахытлы балалық» атлы горельеф дөретпеси, 1977-1978-жыллары Темир жол вокзалының сыртқы тәрепине ислеген «Экспресс» атлы рельеф ҳәм ишки тәрепине ислеген «Той» атлы росписьлик дөретпелери, 1972-жылы Хожели районындағы гөш комбинатының сыртқы тәрепине ислеген, Қарақалпақстанға келген пайытындағы ең биринши мозаикалық дөретпеси менен қаламыздың көркем өнер ҳәм мәдений тәрептен бай болыўына хызмет етип келмекте [3]. Тилекке қарсы бул дөретпелерден айрымлары бүгинги күнге шекем сақланып қалынбаған.

Нөкис қаласындағы «Ташкент» мийманханасының қаптал тәрепиндеги **«Миймандослық»** атлы мозаика жумысы монументалист художник Ф.Есенғалиев пенен бирге исленген. Бул комплексли дөретпе болып, 2 бөлимнен ибарат. Биринши үлкен ҳәм узын, екинши киши көлемде. Биринши дөретпениң орайлық бөлиминде мийманларды қушақ ашып қутып алыўға таяр турған адамлар сүўретленген болса, дөретпениң шетки тәреплеринде миллий кийимлердеги адамлар, қара үй, мийўели терек, пахта ҳәм бийдай атызлары сүўретленген. Қара үйдиң алдында түрли миллий әсбапларда нама шертип, дәстүрхан жайып, хош кейпият пенен отырған қыз-жигитлер, оның әтирапында дәстүрханға түрли азық-өнимлерди тасып атырған келиншеклерди көриўимиз мүмкин. Ал, екинши тәрепте теректен мийўе үзип атырған ҳаялды, атыздың қасында турған дийхан атаны ҳәм соның менен бирге еки автордың автопортретин де көриўимиз мүмкин. Ф.Есенғалиев ҳаялы ҳәм баласы менен отырған ҳалында, ал, М.Ишанов этюдникти услап турған ҳалында сүўретленген. Дөретпениң екинши бөлиминде мәмлекетимиздеги ҳәр қыйлы имаратлар сүўретлеп берилген. Екинши бөлимине М.Ишановтың баласы Улуғбек Ишанов тәрепинен өзгерис киритилген. Яғный дөретпедеги ески имаратлар орнына жаңадан қурылған имаратлардың көриниси сүўретлеп берилген. Бул дөретпе қарақалпақ халқының миллий өзгешеликлерин ашып береди.

«Бахытлы балалық» атлы дөретпеси монументалист художник Б.Саипов пенен бирге исленген. Бул дөретпе бир ай ишинде питкерилген. Мәмлекетимиз ғәрезсизликке ерискенинен соң бул композицияның айрым жерлерине өзгерислер киритилген. Ортада қуяш сүўретленген болып, еки тәрепинде аллегориялық композицияны көриўимиз мүмкин. Ҳәр қыйлы символикалық мәнилерди аңлатыўшы ийретилген формалар композицияда шырайлы көринисти пайда еткен.

М.Ишанов монументаль жумыслардан тысқары портрет, пейзаж ҳәм тематикалық жанрларда да картиналар дөреткен. Оның көпғана портрет

жанрында ислеген жумыслары, 1973-жылда әмелият дәўиринде Хийўада ислеген бир қанша пейзаж жумыслары, тематикалық композициялары И.В.Савицкий атындағы Қарақалпақстан мәмлекетлик көркем өнер музейи фондынан ҳәм экспозиция залынан орын алған.

Ишановтың көп картиналары: - **«Қ.Саипов портрети»** (1975)**, «Гүлайым портрети»** (1976)**, «Жамий Самарқандта», «Жаз», «Монтажшы портрети»** (1975)**, «Урыс қатнасыўшысының еске түсириўлери», «Бахтияр», «Қуўат Абдиреимов портрети»** (1977) атлы дөретпелери декоративизм жөнелисинде исленген. **«Қ.Саипов портрети»** атлы картинасы үлкен көлемде исленген болып, биринши планда Қарақалпақстанның ең биринши художниклеринен бири Қыдырбай Саипов сүўретленген. Екинши пландағы аўыл көриниси ҳәм таўлар суў толқынларын еслетеди. Арқа фонда сәўлеленген көринислер картинада сүўретленген художниктиң ишки туйғыларын тәриплеп турған сыяқлы.

«Гүлайым портрети» атлы жумысы да үлкен көлемде исленген. Бул картинада художниктиң ҳаялының образын көриўимиз мүмкин. Ойға талып отырған ҳаялының әтирапында китаплар, дөретиўшиликке тийисли журнал сүўретленген болып, булар арқалы художник ҳаялының көркем өнерге қызығыўшылығын, оның усы тараўдың қәнийгеси екенлигин көрсетип берген.

«Жамий Самарқандта» атлы жумысында ол парсы – тәжик шайыры Абдурахман Жамийдиң өз билимин жәнеде асырыў мақсетинде Самарқандтағы Улуғбек медресесине тәлим алыўға келген пайытын сүўретлеп берген. Биринши планда шайыр Жамийди илимли, бир қанша тараўларда билимин жетилистирген инсан образында, ал арқа фонда Самарқандтың аўыллық жерлериндеги үйлер, тәбият көриниси сүўретленген.

«Монтажшы портрети» дөретпесинде монтажшының келбети ҳақыйқый мийнеткеш адамның образында көрсетилген. Оның көзлери жумыстан талған, жүзлери солғын болыўына қарамастан, мийнет пенен шыныққан, күшке толы, турпатлы адам екенлигин билиўимизге болады.

«Қуўат Абдиреимов портрети» атлы жумысында Өзбекстан халық артисти, театр бас режиссеры, Бердақ атындағы мәмлекетлик сыйлығының лауреаты Қ.Абдиреимовтың образын аўыр, басық ҳәм салдамлы көринисте сүўретлеп, оның минез – қулқын толық ашып берген.

Музаффар Ишановқа тән болған және бир усыл - гратуар (французша: “grattoir” – «қырыў») усылы. Бул усылда **«Автопортрет», «Хийўалық усталар», «Қудық жанында», «Шляпалы ер адам портрети», «Студент қыз портрети», «Пейзаж. Хийўа», «Хийўадағы үйлер төбесинен геўгим түсиўи»** атлы жумыслары дөретилген. **«Хийўалық усталар»** атлы композициялық жумысында устаханаңың ишинде үш жасы үлкен гүлалшы усталар сүўретленген болып, олардың гүзелер ҳәм ҳәр қыйлы ыдысларды ислеп отырғанын көриўимиз мүмкин. Реңлерди әдеттен тыс көринисте қолланған ҳәм бул өз қатарында өзгеше бир усылды пайда еткен. Ыссы ҳәм суўық реңлер араласып, әжайып бир көринисти сәўлелендирген. Адамлардың ҳәм әтираптағы нәрселердиң силуэти сызықлар жәрдеминде жарытып берилген.

«Ата – бабалар аяқ ойыны» атамасындағы жумысы да өзгеше бир усылда дөретилген. Реңлер жанланып, ҳәрекетленип атырғандай болып көринеди. Бул дөретпеде төрт – бес адамның сүлдери реңлер менен үйлесип кеткенлигин көриўимиз мүмкин. Художник реңлерди шеберлик пенен қолланыў арқалы картинаны жанландырып, ҳәрекетке келтирип, реңлердиң сыйқырлы күшин көрсетип бере алған. Ыссы реңлер арасында суўық реңдеги адамлардың сүлдери анық көзге тасланады. Адамлардың силуэти ақ реңлер менен қапланғанлығы олардан нур жаўып турғандай, өтмиштен саза келип турғандай болып көринеди.

«Хийўа. Медресе жанындағы жол» атлы картинаның бийиклигиниң узынрақ қылып алыныўы имаратларды жәнеде бәлент, саўлатлы қылып көрсетиўде әҳмийетли орын тутқан. Ҳәр қыйлы формадағы ҳәм ҳәр қыйлы бәлентликтеги имаратлардың сүўретлениўи де картинаға өзгеше сән берип турыпты. Имаратлардың ярымы сая, ярымы қуяш нурларына бөленген. Картинада жақтылық, жыллылық ҳәм соның менен бирге салқынлық жәмленген болып, тамашагөйлерде жазғы күндеги жағымлы ҳаўа-райы орталығына түсип қалғандай сезим пайда етеди ҳәм көтериңки кейпият бағышлайды.

М.Ишановтың монументаль дөретпелери елеге шекем қаламызды безеп, көркине көрк қосып турған болса, оның И.В. Савицкий атындағы Қарақалпақстан мәмлекетлик көркем өнер музейинде сақланып атырған дөретпелери музей фондын байытып, көргизбелерге қойылып, көркем-өнер ықласбентлерин ҳәм де мийманларды заўықландырып келмекте.

Ҳәзирги күнде М.Ишановтың перзентлери Улуғбек Ишанов, Музаффара Ишановалар әкесиниң жолын даўам еттирип көркем өнер тараўы бойынша өз жумысларын алып бармақта.

Өзиниң қысқа өмири даўамында көлемли дөретпелер ислеген, қәбилийетли ҳәм ғайратлы художниктиң дөретиўшилиги бүгинги әўлад ушын үлкен мектеп үлгиси сыпатында хызмет етеди.

Жуўмақлап айтқанда, Музаффар Ишановтың дөретиўшилик мийрасын изертлеў оның тек ғана монументал художник сыпатында емес, ал Қарақалпақстанда естетикалық қәдириятлардың қәлиплесиўине тәсир көрсеткен мәденият ғайраткери сыпатында да әҳмиетли екенлигин көрсетеди. Оның ҳәр қыйлы жанр ҳәм усыллардағы ҳәр қыйлы шығармалары тек ғана музейлердиң әҳмиетли экспонатлары емес, ал жаслардың көркем өнерге болған ҳүрмет-итибарын қәлиплестириўде илҳам дәреги болып хызмет етеди.

Ишановтың көркем мийрасы аймақтың мәдений өзгешелигиниң әҳмиетли елементине айланып, оның мәдений ландшафтын байытпақта, жергиликли көркем өнердиң раўажланыўына үлес қоспақта. Оның шығармалары тийкарында өсип киятырған жас әўладта гөззаллық сезимин қәлиплестириў мәдений дәстүрлерди тек ғана сақлап қалыў емес, ал оларды заманагөй коньтекстте де өзгертиўге хызмет ететуғын әҳмиетли тәрепи болып есапланады. Солай етип, Музаффар Ишановтың дөретиўшилиги елеге шекем әҳмиетли ҳәм әҳмиетли болып, Қарақалпақстанның мәдений раўажланыўында, оның келешегин қәлиплестириўде үлкен әҳмиетке ие.

«Гүлаим портрети»

«Қ.Саипов портрети»

«Хива. Медресе жанындағы жол»

«Ата – бабалар аяқ ойыны»

Пайдаланған әдебиятлар:

1. Изентаев Ж. Халық қәдирлеген художник // «Совет Қарақалпақстаны» газ. - 1990.
2. Саипова Г. Қарақалпақстанның монументаль живопись көркем өнери / «Өзбекстан көркем өнери» журн. №4.1987.
3. Доспанова С. М.Ишановтың туўылғанына 40 жыл толыўы мүнәсибети менен өткерилген жеке көргизбесине жазылған мағлыўмат// И.В.Савицкий атындағы Қарақалпақстан мәмлекетлик көркем өнер музейи архивы. - КПА-2735.

NURULLAYEVA Zulayho Ravshan qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI tayanch doktorant
zulayho9294@mail.ru

O‘ZBEKISTON MUZEYLARIDA BOSH KIYIMLARNI SAQLASH VA NAMOYISH ETISH TAMOYILLARI

Annotatsiya*: Muzeylarda turli davrga va turli viloyatlarga oid bo‘lgan bosh kiyimlar saqlanadi va namoyish etiladi. Ushbu maqolada milliy bosh kiyim-do‘ppilarning muzey sharoitida saqlanishi, ilmiy passportlash jarayoni hamda namoyish etishga doir masalalar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston muzeylarida bosh kiyimlarni ekspozitsiyada namoyish etilishi haqida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar*: do‘ppi, ekspozitsiya, saqlash, ilmiy passport, katalog, muzey.*

Аннотация: *В музеях хранятся и экспонируются головные уборы, относящиеся к разным эпохам и регионам. В данной статье освещены вопросы, связанные с хранением национальных головных уборов - тюбетеек в музейных условиях, процессом их научной паспортизации и экспонирования. Также представлены соображения о демонстрации головных уборов в экспозициях музеев Узбекистана.*

Ключевые слова: *тюбетейка, экспозиция, хранение, научный паспорт, каталог, музей.*

Abstract: *Museums preserve and exhibit headwear from various eras and regions. This article addresses issues related to the storage of national headdresses - tyubeteikas - in museum conditions, the process of their scientific documentation, and exhibition. It also presents considerations on the display of headwear in exhibitions of Uzbekistan's museums.*

Keywords: *tyubeteika, exhibition, storage, scientific passport, catalog, museum.*

Do‘ppi O‘rta Osiyoda qadim zamonlardan beri milliy libosning bir qismini to‘ldirib kelgan. Qadimdan kashta tikilgan do‘ppilarni erkaklar ham ayollar ham kiyishgan. Shu bilan bir qatorda O‘rta Osiyoda yashaydigan ko‘plab xalqlarning ham bosh kiyimi hisoblanadi. Shu o‘rinda milliy liboslar, mahalliy kolleksiyalar va bosh kiyimlarni respublikaning turli muzeylarida uchratish mumkin. O‘zbekiston muzeylaridagi milliy liboslar va bosh kiyimlar ekspozitsiyasi mahalliy etnografik muhitni aks ettirishda muhim o‘rin tutadi.

Muzeylarda do‘ppilar saqlanar ekan shubhasiz, ularni saqlash va namoyish etish tamoyillari asosiy masalalardan biri bo‘lib qoladi. Odatda do‘ppilar milliy libosning ajralmas qismi bo‘lganligi uchun muzey sharoitida liboslar bilan birgalikda namoyish etiladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan bosh kiyimlarni saqlash va namoyish etishning asosiy qoidalari mavjud. Muzeylarda saqlanayotgan do‘ppilar odatda tolali iplar (ipak, jun, paxta, zig‘ir), hamda sun’iy tolali iplardan tikilgan bo‘ladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri tushadigan quyosh nuri, yorug‘lik, nam harorat, turli zararli moddalar va gazlar hamda zararkunanda hasharotlar, chang kabilar do‘ppilarning sifati buzilishiga, holati o‘zgarishiga va matosining eskishiga olib

keladi. Do‘ppilar tikilgan matosining xususiyatlariga (shoyi, ipak, ip-gazlama va boshqa ekanligiga) qarab, yopiq javonlarda, kiyim-boshga mo‘ljallangan maxsus idishlarda, sandiq, quti va boshqalarda saqlanadi. Turli do‘ppilardan iborat yaxlit kolleksiyalarni bitta javonda saqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Javonlarning tortmalari turli o‘lchamda bo‘lib, katta va kichik hajmli do‘ppilarni saqlashga moslangan bo‘lishi kerak. Ularning balandligi 15-20 sm, hatto undan ham ko‘proq bo‘lib, saqlanayotgan do‘ppilar o‘lchamiga mos bo‘lishi lozim. Do‘ppilar saqlanayotgan vitrina va javonlarni movut bilan qoplash taqiqlanadi. Saqlanayotgan do‘ppilar g‘ijimlanib qolmasligi lozim. Aks holda o‘sha joydan sitiladi, ayniqsa sun’iy ipak matoli do‘ppilarga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Har bir do‘ppi orasiga mikalent qog‘oz yoki boshqa toza paxtalik mato to‘shaladi. Agar ular boshqa joyda saqlansa, paxtalik mato yoki qog‘oz g‘ilofga solib, chang va zararkunandalardan asrash choralarini ko‘rishi lozim. Dur-marvarid va qimmatbaho toshli do‘ppilar uzilgan bezaklari yo‘qolmasligi uchun hatto javon ichida ham g‘iloflar bilan yaxshi o‘ralgan holda saqlanadi. Ular yog‘ochdan, kartondan yoki organik shishadan yasalgan qoliplarda, bordi-yu, ular bo‘lmasa, shakli buzilmasligi uchun ichiga mikalent qog‘oz to‘ldirilgan holda saqlanadi. Ularni javonlarda har bir buyum uchun fanera yoki kartondan maxsus tayyorlangan g‘ilofda saqlash maqsadga muvofiq. [3,32]

Muzeylarda turli davrga oid, turli xalqlar va viloyatlar kiygan do‘ppilar keng ko‘lamda namoyish etiladi. Do‘ppilar xalqlarning ijtimoiy yashash darajasiga ko‘ra tasniflanadi. Ular ba’zan biron bir shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. Bunday do‘ppilar uy-muzeylarida ko‘proq uchraydi. G‘afur G‘ulom uy-muzeyida shoir ijodiy kechalarda kiygan, shoirga taaluqli bo‘lgan do‘ppilar (bodomnusxa) saqlandi. Mavzuli ekspozitsion kolleksiyalarda do‘ppilar turlicha, masalan, alohida yakka holda, ba’zan liboslar bilan qo‘shimcha tarzida ularning yuqori yoki tag qismiga qo‘yib namoyish etilishi mumkin. Samarqanddagi O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida zardo‘zlikka bag‘ishlangan mavzuli ekspozitsion kolleksiyalar mavjud bo‘lib, ushbu ekspozitsiyda bosh kiyimlar milliy liboslar bilan birgalikda, ularning yuqori qismida manikenga kiydirilgan holda namoyishga qo‘yilgan. Ushbu ekspozitsiyada bosh kiyimlar liboslar bilan mutanosib uyg‘unlik hosil qilgan.

Do‘ppilarni namoyish etishda shuningdek, ular orasidagi masofaga ham alohida e’tibor qaratish joiz. Sababi ular zich joylashtirilsa, sifati buzlishi mumkin. Imkon qadar maxsus manekenga kiydirib qo‘yish kerak. Ularni to‘g‘ridan – to‘g‘ri tushadigan quyosh nuridan saqlay bilish lozim. Chunki bu hol ularning rangi o‘chishiga sabab bo‘ladi.

Do‘ppilar agar ular qo‘yilgan kiyim bilan umumiylikka ega bo‘lmasa, bu holda alohida namoyish etiladi. Odatda maxsus tagliklarda yoki vitrina devoriga osilgan ko‘rinishda namoyish etiladi. Ularga qo‘shimcha tarzda matolar qo‘yilishi mumkin. Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi hamda Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida son jihatidan nihoyatda boy bosh kiyimlar kolleksiyalari mavjud bo‘lganligi bois, devorga osilgan holatda, liboslardaan alohida ekspozitsiyaga qo‘yilgan.

Ma’lumki, kolleksiyalarni to‘plash-ilmiy izlanish samarasidir. Yuzlab, minglab buyumlar faqat yuz minglab izlanishlarnigina emas, ayni paytda har bir

predmetni aniqlash, o‘rganish, ilmiy qayd etish bilan bog‘liq minglab tarix ham demakdir. Milliy do‘ppi turlari, ularning ishlanishi, tayyorlanish uslublari turlicha va rang barangdir. Masalan, Namangan, Andijon hududlarida chustiy nusxa do‘ppilar, Farg‘ona hududida esa qalampirnusxa do‘ppilar ko‘proq iste’moldadir. Bu do‘ppi turlarining alohida xususiyatlariga ko‘ra saqlanadi va namoyish etiladi. Do‘ppini majmuaga qo‘yish, namoyish etish, tavsiflash uchun uni inventar kitobga yozish kerak. Ammo oldin uning nimaligini aniqlash, mazmunini bilish, haqiqiyligiga ishonch hosil qilish, unga to‘liq nom berish darkor. Muzey fondlarida shunday do‘ppilar bo‘ladiki, ularni aniqlash, o‘rganish uchun yillab vaqt sarflanadi. Do‘ppini inventar kitobiga yozishdan oldin, uning muallifini, materialini va texnikasini, mazmuni,holati va qayerdan kelganligini bilish lozim. [3,36]

Masalan Farg‘ona do‘ppilarining mazmuni va qayerdan kelganligini ko‘rib chiqamiz. Ular Marg‘ilon nusxa do‘ppilar ham deb ataladi. Iroqi do‘ppi O‘zbekistonda dastlab Shahrisabzda urf bo‘lib, so‘ngra boshqa shahar va qishloqlarga tarqalgan, keyinchalik bu do‘ppi ham har bir shaharning o‘ziga xos bezak usulida yaratila boshlagan (rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur Iroqdan turli hunarmandlar qatorida do‘ppido‘zlarni ham keltirgan, shu sababli ular tikkan do‘ppi iroqi deb nom olgan). Do‘ppining bu turi iplari sug‘urilib, to‘r holiga keltirilgan surpga rangdor ipak yoki ingichka tolasi paxta ipi bilan tikiladi: buning 2 usuli; terma va bosma usullari bor. Eng yaxshi iroqi do‘ppilar Shahrisabz va Kitob do‘ppido‘zlari tomonidan tayyorlanadi. Shahrisabzning tepa va kizaklari yaxlit (ipak va ipdan) to‘qilgan gilam do‘ppisi ham mashhur. O‘zbek kashtachilik san’atida uchraydigan bezak unsurlari real dunyoni tasvir etib, uni anglashning o‘ziga xos vositasi, shakl va rang mukammalligidan hayratlanish ifodasi hisoblanadi. Do‘ppi kashtasida atirgul, gulsafsar, chinnigul, lola, gultojixo‘roz, olma guli kabi gul turlari tasvirlanadi. Do‘ppida ko‘p uchraydigan tasvirlardan biri qut-baraka va hayot ramzi bo‘lgan bodom naqshidir. Uning muqobili sifatida nozik va ingichkaroq “qalampir” naqshi tikiladi. [2]

Do‘ppini majmuaga qo‘yish, namoyish etish, tavsiflashda uning yuqorida keltirib o‘tilgan har bir tavsifiga alohida to‘xtalib, sinchikovlik bilan o‘rganiladi. Har bir xususiyati, muallifi, muallifi noma’lum bo‘lsa davri va maktabi, to‘liq nomi, har tomonlama to‘liq tavsifi, imzolar, sanalar, yozuvlar, ishlangan material va texnikasi, o‘lchami, saqlanish holati haqida to‘liq ma’lumotlar ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish kitobiga yozib qo‘yiladi.

Navbatdagi bosqich-ilmiy pasportlarni to‘ldirish. Bunda buyumlar haqidagi ma’lumotlar kengaytirilib, tarixiy sharxlar beriladi. Ilmiy passportlar nafaqat izoh vazifasini o‘taydi balki, hisobga kiritish va chiqarish vaqtida, ko‘rgazmzlar tashkil etilishi vaqtida, ko‘chma ko‘rgazmzlar tashkil etilganida, mamlakat hududidan olib chiqish yoki olib kirishda, dalolatnomalar tuzish ishlarida ham foydalaniladi. Ilmiy pasportlar yozish-ilmiy kataloglarni nashrga tayyorlashning asosiy zaminidir. Bu - muzey ekspozitsiyasida predmetlarni ilmiy asosda namoyish qilish xamda etnografiya, san’atshunoslik, arxeologiya bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilar uchun izoh vazifasini o‘taydi.

Tahlil qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston muzeylarida va muzey

fondlarida bosh kiyimlarning saqlanish va namoyish etish holatlari borasida zarur amaliy choralarni amalga oshirish lozim. Fond saqlov xonalarida zaruriy sharoitlar mavjud bo‘lmaganligi bois ko‘pchilik viloyat muzeylarida bosh kiyimlar umumiy qutilarda, namlik yuqori bo‘lgan sharoitlarda saqlanmoqda. Bu esa madaniy, milliy boyligimizning ajralmas qismi bo‘lgan do‘ppilarning sifatiga nojo‘ya ta’sir qiladi. Bunday sharoitda davlat muzeylarining moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, fondler va muzeylar faoliyatini takomillashtirish, saqlash uchun imkon qadar zaruriy choralarni ko‘rish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

20. Gaybullayeva.Y. Do‘pillar tarixidan. Toshkent: Moziydan sado. 2010. 2-3.bet
21. Murodova D. O‘zbekiston Do‘ppilari. Toshkent. 2004
22. Nurullayeva Z. Bitiruv malakaviy ishi . Toshkent: 2020. 59 b
23. Sodiqova N, Gaybullayeva Y. ‘‘O‘zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar’’.Toshkent: Sharq.2014.10 bet
24. Садикова, Ш. Х. Ўзбекистон дўппилари / Ш. Х. Садикова. // Молодой ученый. — 2020. — № 30

ШАРОПОВА Азиза Элдорбек кизи,
базовый докторант (Phd)
Институт искусствознания АН РУз
azi_95@list.ru

МУЗЕЕФИКАЦИЯ ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА 1970-80-Х ГОДОВ XX ВЕКА: ЗАПАДНО-ВОСТОЧНЫЙ ДИСКУРС И СОХРАНЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация: *В статье рассматривается актуальность музеефикации живописи Узбекистана 1970–80-х годов XX века как важного компонента культурного наследия. Особое внимание уделено западно-восточному дискурсу в произведениях художников данного периода, что актуализирует вопросы экспозиции, сохранения и популяризации художественных ценностей. Подчеркивается необходимость комплексного подхода к сохранению и презентации художественных произведений, созданных в условиях диалога традиций восточного и западного искусства. Рассматриваются теоретические аспекты музеефикации, в том числе их применение в современных музейных практиках.*

Ключевые слова: *музеефикация, дискурс, живопись, наследие, традиции, экспозиция, сохранение, художники, музейные практики, художественные фонды.*

Abstract: *The article examines the relevance of the museufication of Uzbek*

painting from the 1970s–80s as a vital component of cultural heritage. Special attention is given to the West-East discourse in the works of artists from this period, highlighting issues of exhibition, preservation, and popularization of artistic values. The necessity of a comprehensive approach to the preservation and presentation of artworks created within the dialogue of Eastern and Western traditions is emphasized. Theoretical aspects of museufication, including their application in modern museum practices, are also considered.

Keywords: *museufication, discourse, painting, heritage, traditions, exhibition, preservation, artists, museum practices, art collections.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston tasviriy san’atini 1970–80-yillarda muzeyifikatsiya qilish jarayonining dolzarbligi tahlil qilinadi. Ushbu davr rassomlari asarlaridagi G‘arb va Sharq diskursiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu ekspozitsiya, saqlash va san’at qadriyatlarini ommalashtirish masalalarini yoritadi. Sharq va G‘arb an’analari o‘rtasidagi muloqot sharoitida yaratilgan badiiy asarlarni saqlash va taqdim etishda kompleks yondashuvning zarurligi ta’kidlanadi. Muzeyifikatsiyaning nazariy jihatlari va ularning zamonaviy muzey amaliyotlarida qo‘llanilishi ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *muzeyifikatsiya, diskurs, tasviriy san’at, meros, an’analar, ekspozitsiya, saqlash, rassomlar, muzey amaliyotlari, badiiy fondlar.*

Вопрос музеефикации искусства второй половины XX века, включая живопись Узбекистана 1970–80-х годов, становится важной частью осмысления культурного наследия. Особый интерес представляет изучение произведений этого периода через призму западно-восточного дискурса, что требует нового подхода к экспозиционной деятельности и систематизации музейных фондов. Музеефикация художественного произведения предполагает не только его физическое сохранение, но и интеграцию в культурный оборот посредством создания экспозиций, научного осмысления и популяризации [5,15]. Аналогичные идеи развивает М. Каулен, рассматривая музеефикацию как важный инструмент сохранения культурного наследия России [5,25]. Современные методы цифровизации также становятся неотъемлемой частью музейных процессов, помогая расширить доступ к художественному наследию.

В указанный период искусство Узбекистана развивалось на стыке ослабления идеологического контроля, роста национального самосознания и активного освоения западных художественных направлений. Художники стремились соединить европейские модернистские традиции с восточными мотивами, что создало уникальный художественный язык. Процессы музеефикации советского искусства неизбежно сопряжены с анализом этих социокультурных факторов [6,2]. Березина Н.М. также подчеркивает, что музеефикация играет ключевую роль в популяризации культурного наследия и его интеграции в современное культурное пространство [6,3]. При этом важно учитывать влияние глобализационных процессов, способствующих развитию интернациональных художественных связей.

Живопись Узбекистана 1970–80-х годов стала площадкой для диалога культур. В произведениях Дж. Умарбекова, Б. Джалалова, А. Мирзаева, Ш.

Абдурашидова проявился синтез модернистских форм с узбекскими орнаментальными и сюжетными традициями. Художники свободно использовали мотивы миниатюры, монументальной росписи и западного экспрессионизма. Эти произведения нуждаются в специальном подходе к музеефикации, поскольку несут в себе сложный сплав локальных традиций и глобальных художественных процессов. Вопросами создания музейных экспозиций занимается Галкина Т.В., подчеркивая важность отбора и систематизации произведений для их грамотной презентации в музейном пространстве [8,34]. Анализ живописи данного периода показывает, что она не только отражает художественные тенденции времени, но и служит ключом к пониманию эволюции национальной идентичности.

Сохранение и представление искусства этого периода сталкивается с рядом трудностей. В фондах музеев Узбекистана представлено немало произведений художников «семидесятников», однако их экспозиция зачастую носит фрагментарный характер. Музейная практика в постсоветских странах испытывает сложности с включением искусства советского периода в единый историко-художественный контекст [5,13]. Это связано как с идеологическими барьерами, так и с недостатком системного изучения этого наследия. Юренева Т.Ю. в своей работе акцентирует внимание на необходимости разработки новых подходов к экспонированию и интерпретации произведений искусства XX века [7,12]. Буров Н.В. указывает на особые проблемы музеефикации культовых сооружений, подчеркивая их значение в формировании духовных ценностей общества [9,2]. Важно отметить, что цифровая музеефикация становится важным инструментом для расширения аудитории и повышения доступности коллекций.

Сегодня наблюдается рост интереса к живописи Узбекистана второй половины XX века. Ретроспективные выставки, посвященные семидесятникам, показывают актуальность наследия данного периода для формирования современного национального искусства. Е. В. Розенблюм указывает, что музеефикация современного искусства требует комплексного подхода, включающего архивирование, научное описание, популяризацию и включение произведений в музейный контекст [4,235]. Интеграция новых технологий, таких как виртуальные выставки и цифровые архивы, позволяет более полно представить искусство данного периода на международном уровне.

Сегодня музеефикация выходит за рамки традиционных экспозиционных решений. Ведущие музеи мира используют цифровые технологии, интерактивные мультимедийные решения и виртуальные галереи. Например, Лувр, Тейт Модерн и Государственный Эрмитаж активно применяют виртуальную и дополненную реальность для популяризации своих коллекций. Подобные технологии могут быть внедрены и в музеефикацию узбекской живописи, что повысит доступность и привлекательность наследия для международной аудитории.

Сравнение подходов к музеефикации в разных странах показывает, что в Европе и США акцент делается на инклюзивность, интерактивность и

цифровизацию музейного пространства. В Узбекистане этот процесс только набирает обороты, но уже есть успешные примеры интеграции национального искусства в мировые музейные практики. Развитие цифровой музеефикации и создание онлайн-архивов позволит усилить присутствие узбекского искусства на международной арене.

Музеефикация живописи Узбекистана 1970–80-х годов необходима для сохранения и осмысления уникального художественного феномена, возникшего на пересечении западных и восточных традиций. Создание полноценных экспозиций, отражающих этот дискурс, позволит включить произведения семидесятников в культурное пространство как значимую часть художественного наследия страны. Это также способствует формированию диалога культур и укреплению позиции узбекского искусства в глобальном контексте. Важно учитывать современные тенденции в музейной практике, включая цифровизацию и создание новых методов представления экспонатов, что делает культурное наследие доступным широкой аудитории.

Список использованной литературы:

1. Каулен М. Музеефикация историко-культурного наследия России. — М.: Литрес, 2016.
2. Березина Н. М. Роль музеефикации объектов культурного наследия в их сохранении и популяризации // dolgoprudnymuseum.ru. — Режим доступа: https://dolgoprudnymuseum.ru/berezina-n-m-rol-muzeefikatsii-obektov-kulturnogo-naslediya-v-ih-sohranenii-i-populyarizatsii/
3. Юренева Т. Ю. Музееведение. — М.: Высшая школа, 2004.
4. Розенблюм Е. В. Современное искусство в музее: вызовы и решения. — М.: Прогресс-Традиция, 2018. — 312 с.
5. Галкина Т.В. Музееведение: основы создания экспозиции. — М.: Studmed, 2015.
6. Поправко Е.А. Музееведение. — М.: Studmed, 2014.
7. Решетников Н.И. Проблемы музеефикации материального и нематериального наследия. — Долгопрудненский музей, 2017.
8. Буров Н.В. Проблемы музеефикации культовых сооружений и нематериального наследия. — СПб.: Лихачевские чтения, 2017.

RAXMATJONOV Xurshid Komiljon o‘g‘li
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik: tarixiy-madaniy obyektlarni
konservatsiy va restavratsiya qilish
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
raxmatjonovxurshid0@gmail.com

ANTIK DAVR YODGORLIGI - XOLCHAYON SAROYI TARIXI VA KONSTRUKTIV TAHLILI.

Annotatsiya:*Ushbu maqolada O‘rta Osiyo, xususan, Surxondaryo hududida joylashgan Xolchayon saroyi tarixiga oid manbalar o‘rganilib ilmiy tadqiqot natijalari mavzu tarkibiga kiritildi. San’atshunos olim, arxeolog G.A.Pugachenkova va shu kabi bir qancha professorlarning ilmiy tadqiqot natijalari va Xolchayon saroyi tarixi hamda konstruktiv tahlili yoritib berilgan ilmiy adabiyotlari o‘rganilib, kerakli ma’lumotlar mavzu doirasida yoritildi.*
Kalit so‘zlar: *antik madaniyat, Surxondaryo, Xolchayon, ekspeditsiya, antefiks, palmetta, Geray urug‘i, Afina, Nika, haykal, Baqtriya, ellinizm.*

Annotation*: This article examines sources related to the history of the Kholchayan Palace, located in Central Asia, in particular, the Surkhandarya region, and also includes the results of scientific research on the topic.The results of scientific research, history and constructive analysis of the Kholchayan Palace were studied by art historian, archaeologist G.A.Pugachenkova and other professors, and the necessary information was covered within the framework of the topic.*
Keywords: *ancient culture, Surkhandarya, Kholchayan, expedition, antefix, palmette, Gerai clan, Athena, Nika, sculpture, Bactria, hellenism.*

Barchamizga malumki Mustaqillik yillarida qadimiy tarix va boy madaniyatni tiklash, muqaddas qadamjolarni obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu ananalari ruhida tarbiyalash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli bizga ma’lum va noma’lum bo‘lgan arxeologik obyektlar va qadamjolarni chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu orqali biz o‘z hududimizda mavjud bo‘lgan obyektlarni jahonga tanitishimiz va yosh avlodni vatanga muhabbat hissini yanada chuqurroq singdirishimiz mumkin. Mana shunday arxeologik obyektlardan biri Xolchayon yodgorligidir.

Ilk bor 1959-yilning kuzida O‘zSSR Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti Xolchayonda dastlabki arxeologik qidiruv ishlarini tashkil etib, u yerda bir hafta davomida qayd etilgan tepalikda qidiruv tozalash ishlarini olib borgan. Ish G.A.Pugachenkova tomonidan Termiz muzeyi ilmiy xodimi L.N.Merejin va Toshkent davlat universiteti talabasi Q.Yusvaliyevlar ishtirokida amalga oshirilgan. Dastlabki ishlar yodgorlikni har tomonlama o‘rganishning shubhasiz istiqbollarini va uni to‘liq arxeologik ochish zarurligini ko‘rsatgan, chunki tepalik nafaqat qadimgi davrlarning ko‘milgan binosi, balki loydan yasalgan haykaltaroshlik parchalari bilan ham to‘lib-toshganligi ma’lum bo‘lgan. 1960-yildan boshlab

San’atshunoslik instituti tizimida Badiiy ekspeditsiya tashkil etilib, uning vazifasiga O‘zbekiston hududidagi o‘tmishning san’at va me’morchilik yodgorliklarini, shuningdek, zamonaviy xalq me’morchiligi va san’ati hamda hunarmandchiligi an’analarini o‘rganish kirgan. Xolchayonni o‘rganish ekspeditsiya tadqiqot rejasiga kiritilgan va to‘rt yil davomida amalga oshirilgan.[1]

G.A.Pugachenkova boshchiligida Xolchayondagi arxeologik ishlar 1959-1963-yillarda olib borilgan. Ishtirokchi arxeologlar - O‘zSSR Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti xodimlari - Sh.Toshxo‘jayev (1960-yil bahori), D.N.Sidorova (1961-yil bahori va 1962 yil kuzi), B.Turg‘unov (1961-1962), D.G.Zilper (O‘zSSR san’at muzeyi, 1960-yil bahori), L.N.Merejin (Termiz viloyat o‘lkashunoslik muzeyi, 1969-y) va Toshkent davlat universiteti talabalari U.Alimov va V.Goryacheva (1960-yil kuzi), M.Safarov (1960-yil kuzi), K.Yusvaliev (1959 va 1961-yil kuzi). Xolchayonni statsionar o‘rganishdan tashqari, arxeologik jihatdan qiziq bo‘lgan boshqa joylarni - Dalverzintepa, Bedracha, Denov va Xolchayon atrofidagi tepa guruhlari ham o‘rganilgan.

Xolchayon Denov tumanidagi Kalinin nomli kolxoz hududida, Surxondaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Bu tepa ikki qismdan iborat bo‘lib, birining tomonlari 350x260m, ikkinchisi 300x300mga teng. Qazishmalar davomida bu yerda shahar hokimining saroyi borligi aniqlangan. Mazkur saroy me’morchilik nuqtai nazaridan g‘oyat diqqatga sazovordir. Saroy unchalik katta emas: 35x26 m, 9 xonadan iborat. U sharqqa, kunchiqar tomonga qaratib qurilgan. Saroyning old tomonida uzun ayvon ham bo‘lib, u oltita ustunga tayanib turgan. Ayvonning to‘rtta eshigi bo‘lib, ulardan uchtasi to‘rtburchakli asosiy qabulxona bilan bog‘langan. Qabulxona tomonlari 6,1x17,6 mga teng. Qabulxona g‘arb devorining o‘rtasida taxtli zalga kiradigan eshik bor. Bu zal to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, asosiy qabulxonadan kichikroq. Bu zalda garchi ularga ehtiyoj bo‘lmasa-da, ikkita ustun bo‘lgan. Bu ikki zalning uch tomonida uzun yo‘laksimon xonalar joylashgan. Bu xonalarda soqchilar va xizmatchilar yashagan deb taxmin qilinadi. Xazina ham shu xonalardan birida saqlangan.

Saroyni qurishda asosan xom gishtdan foydalanganlar. Saroyning tomi tekis bo‘lib, loy suvoqli bo‘lgan. Tomning qirralari antefiks, palimetta[2] va kunguralar bilan bezatilgan. Ularning hammasi qadimda qizil bo‘yoq bilan bo‘yalgan. Saroyning ustunlari archadan tayyorlangan. Lekin ularning tagkursilari ohakli toshdan yasalgan. Professor G.A.Pugachenkova fikricha, ayvonning uchala devori poldan to deraza teshigi balandligigacha turli suratlar bilan bezatilgan. Devorlarning undan yuqori qismida haykallar joylashgan. Suratlar bevosita loy suvoq ustiga, ba’zan esa ganch suvoq ustiga chizilgan. Rassomlar surat chizishda qizil, qora, sariq, havorang bo‘yoqlardan foydalanganlar. Chizilish uslubiga qaraganda Xolchayon devorlarini bezatgan rassomlar yuqori malakali mutaxassislar bo‘lganlar. Afsuski,

[1] Пугаченкова Г. Халчаян. Министерство культуры Узбекской ССР Институт Искусствознания им. Хамзы.“К проблеме художественной культуры Северной Бактрии”.Ташкент 1966. Изд. «Фан». С. 9.

[2] Пидаев Ш. Сирли Кушонлар Салтанати., Тошкент Узбекистон ССР «Фан» Нашриёти 1990., Масъул муҳаррир — УзССР ФА нинг академиги А.Асқаров., 27-бет.

Антефикс — лотнича antexum сўзидан олинган. Меъморчилик безакларидан бири, шакли жиҳатидан пальметтага ўхшайди. **Пальметта** — французча palmette сўзидан олинган бўлиб, елпигичмон барг тасвирига ўхшаш архитектура деталига нисбатаи ишлатилади.

bu chizilgan suratlarning hammasi ham bizgacha yaxshi saqlanib qolmagan. Saqlangan suratlar ichida erkaklarning rasmlari, uzum va boshqa meva hamda gullarning tasviri bor. Asosiy qabul zalining va taxtli zalning devorlari ham turli mazmundagi suratlar bilan bezatilgan. Lekin ular ham juda yomon saqlangan. Ayniqsa asosiy qabul zalining jihozlanish uslubi kishi e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qiladi. Zalning uch devori uch metr balandlikkacha oq ganch bilan suvalgan va uning ustidan rasmlar chizilgan. To'rtinchi, kiraverishdagi qarama-qarshi devor esa faqat ganch suvoq bilan suvalgan. Taxmin qilinishicha, bu devorga qadimda chiroyli gilamlar osilgan. Shuning uchun uning devorlariga rasmlar chizilmagan. Devorlarning yuqori qismida ikki metr balandlikkacha haykallar joylashgan. Haykallarning hammasi turli rangdagi bo'yoqlar bilan bo'yalgan. Kiraverishdagi qarama-qarshi devorda — markaziy sahnada shoh, malika va saroy ahllari tasvirlangan. Shoh va malika taxtda o'tirgan holatda aks ettirilgan. Shohning o'ng qo'lida tug'ro bor. Ma'lumki, u sharq xalqlari orasida hukmronlik alomatini bildiradi. Shohning ham, malikaning ham egnida qimmatbaho kiyimlar. Suratga qaraganda, ularning yoshlari taxminan 40-45larda bo'lgan. Malikaning o'ng tomonida yosh ayol va yigit tik turgan holda tasvirlangan. Qizig'i shundaki, yigitga qaraganda ayol malikaga yaqin turibdi. G.A.Pugachenkova[3] bu holni quyidagicha tushuntiradi: «Bu ayol shohning qizi, uning yonida turgan yigit esa shohning kuyovidir. Shuning uchun ayol malikaga yaqinroq qilib tasvirlangan. Yigitning yuz tuzilishi shohning yuz tuzilishiga juda o'xshaydi. Demak, ularni bir xalqqa mansub bo'lgan deb hisoblash mumkin. Shohning chap tomonida joylashgan haykallarning, ayniqsa erkaklarning yuz tuzilishi shohning va kuyovning yuz tuzilishidan ancha farq qiladi. Ularning yuz tuzilishi ko'proq parfiyaliklarnikiga o'xshaydi.[4]

Markaziy sahnada chapda kamonli bir necha otliq tasvirlangan. Otlar bor kuchlari bilan yeldek yugurib ketayotgan holda tasvirlangan. Bu yerda otlar va otliqlar shunday ifodalanganki, go'yo ular devor yoqalab biz tomon yugurib kelayotgandek tuyuladi. Qabul zalining kiraverishidagi qarama-qarshi devorining shimoliy qismida yuz tuzilishi bir-biriga o'xshash, soch va mo'ylovlarini tarash uslubi bir xil bo'lgan haykallar sahnasi joylashgan. Bu haqiqiy baqtriyalik kushonlarning haykallaridir. Taxmin qilinishicha, bu yerda hokim, uning o'g'illari va yaqin qavm-qarindoshlari tasvirlangan. Sahnaning boshida otliq ma'budaning haykali joylashgan. U shiddat bilan Geraylar urug'i tomon intilmoqda. Bu bilan haykaltarosh - rassom Geray urug'ini ma'buda tomonidan ulug'lanayotganini, g'alaba bilan tabriklayotganini ko'rsatmoqchi bo'lgan, chamasi. Ma'lumki, yunon tasviriy san'atida faqatgina ikkita ma'buda aravada tasvirlanadi. U ham bo'lsa, urush ma'budasi Afina va g'alaba ma'budasi Nikadir. Mazkur sahnada g'alaba ma'budasi Nika tasvirlangan. Tadqiqotlarga qaraganda, bu davrda sharq xalqlari orasida g'alaba ma'budasining tasviri keng tarqalgan. Jumladan, Parfiya shohi Mitridatning tangalarida qanotli Nika aravada ketayotgan holda tasvirlangan. Zalning mazkur

[3] Пугаченкова Г. Халчаян. Министерство культуры Узбекской ССР Институт Искусствознания им. Хамзы. "К проблеме художественной культуры Северной Бактрии". Ташкент. 1966. Изд. «Фан». С. 228.

[4].Левина В.А, Овезов Д.М.,.Пугаченкова Г.А. Архитектура туркменского народного жилища, ТЮТАКЭ, т.,1953, стр. 13, рис. 7—И;.Васильева. Г'.П Туркмены-нохурли. Среднеазиатский этнографический сборник, I, М., 1954, стр. 133, рис. 7;.Пугачеикова Г.А Пути развития..., стр. 450, 453; Она же. Этнографические памятники туркменской народной архитектуры, ТЮТАКЭ, т. IX, Ашхабад, 1959, стр. 249—351;

haykallar sahnasidan yuqorida, 60 sm balandlikda turli xudolarning, xususan mahalliy xalqlarning xudosi Mitraning haykallari tasvirlangan.[5]

Bundan tashqari, bu yerda qo‘llarida gulchambar ko‘targan yalang‘och bolalarning, sozanda qizlarning, satirlarning va masxarabozlarning haykali bo‘lgan. Haykallarning hammasi oq gajaklar orasida tasvirlangan. Ma’lumki, Yunon-Baqtriya shohligi davridagi haykallarga jo‘shqin hayotiylik xos bo‘lgan. Xolchayon haykaltaroshlari, umuman olganda, Yunon-Baqtriya davridagi haykaltaroshlik qoidalariga rioya qilgan holda o‘zlarining mazkur noyob asarlarini yaratgan bo‘lsalar-da, ularning asarlarida Baqtriyaning yangi hukmron tabaqasining estetik qarashlari, ichki dunyosi o‘zining yorqin ifodasini topgan. Bu kushonlarning talabi, ehtiyoji, qolaversa, zamon talabi edi. Xolchayon haykallariga sipolik, vazmindorlik xosdir. Ularda insonnnng ichki dunyosi chuqur ifodalangan. Masalan, bu yerda topilgan jangchi haykalida jangchining shafqatsizligi, qattiqqo‘lligi uning yuz qiyofasidan yaqqol sezilib turadi. Shuningdek, Geray haykalida Geray irodasining mustahkamligi, ulug‘ligi yaqqol aks etgan. Umuman, Xolchayondan topilgan haykallar hayotiy, ta’sirchan va jozibador. Bu yerdagi har bir haykalning o‘zi bir dunyo, bahosi yo‘q noyob asardir. Ularda o‘z zamonasining mafkurasi, diniy tasavvurlari, madaniy-maishiy hayotining ba’zi tomonlari yorqin ifodalangan. Xolchayondan topilgan haykallar va rasmlar o‘tmish davrga xos uslubda ishlangan. Zero, bu yerda ellinizm, mahalliy baqtriyaliklarning va ko‘chmanchi yuechji qabilalarining madaniy an’analari ham ma’lum darajada o‘z aksini topgan.

Xolchayon frizining erkak obrazlarini bitta xususiyat birlashtiradi: ularning barchasi yuzlarni ifodali modellashtirish orqali yetkazilgan qandaydir ichki dramaga xosdir. Jingalak va soqolli o‘rta yoshli erkaklarning boshlari alohida e’tiborga loyiq[6]. Yunon-Rim haykaltaroshligida satirlarning yuzlarida baxtli tabassum yoki baland kulgi hukmronlik qiladi[7]. Shu bilan birga, yunon haykaltaroshligida yosh satiraning yana bir obrazi bor - yuzining dardli ifodasi bilan qadimgi terakotalar[8] tomonidan misollar keltirilgan. Bo‘yoqlarni tahlil qilish ularning mineral kelib chiqishini ko‘rsatadi. Rang berish odatda yupqa oq tuproqqa qo‘llanilgan. Ushbu tuproq va oq bo‘yoqlarning tarkibi taxminan 20-25% bo‘lgan ohak bilan gips aralashmasidir. Ehtimol, bu mahalliy ganch naviga xos bo‘lgan gips va ohakning tabiiy nisbatidir. Haykalni qoplashda turli xil intensivlik va soyalarning qizil ranglari katta o‘rin egallaydi.[9]

Mazkur saroy interyerida shohga bag‘ishlangan haykallar majmuasi asosiy o‘rin tutadi, ular uchun xona devorining yuqori qismida gorizontal bo‘linma ajratilgan. Xolchayon shahristonidan ko‘plab haykaltaroshlik namunalari topilgan bo‘lib, bu haykallarning aksariyati loydan ishlanib, ustki qismi qizil rang bilan bo‘yalgan. Haykal kompozitsiyasining mazmuni asosan saroy hayotiga, taxtiravonda o‘tirgan hokim va uning a’yonlariga taalluqlidir. Xolchayon asarlarida,

[5] Пидаев Ш. Сирли Кушонлар Салтанати., Тошкент Узбекистон ССР «Фан» Нашриёти 1990., Масъул муҳаррир — УзССР ФА нинг академиги А.Асқаров., 28-бет.
[6] M. Bieber. The Sculpture of Hellenistic Age, New-York, 1955, fig. 574. G.Rodenwa1t. Die Kunst der Antike, s. 469
[7] W. Amelung. Die Sculpturen, Taf. 72, 76.
[8] F. Winter. Die Antiken Terrakotten, Berlin und Stuttgart, 1903, s. 369—370.
[9] Пугаченкова Г. Халчаян. Министерство культуры Узбекской ССР Институт Искусствознания им. Хамзы. “К проблеме художественной культуры Северной Бактрии”. Ташкент. 1966. Изд. «Фан». С. 153-158.

chamasi aniq tarixiy shaxslarni aks ettiruvchi dunyoviy tasvirlar bilan bir qatorda Baqtriya davridan ilgarigi ustalarning asarlarini ko‘p jihatdan takrorlovchi satrlar, masxarabozlikdan iborat groteks tarzidagi shaxs tasvirlari ham ishtirok etadi. Lekin anashu afsonaviy qiyofalarni aks ettirishda qadimiy Xolchayon ustalari ularga mutlaqo yangicha ohang kasb etuvchi unsurlarni kiritishgan. Masalan, qadimgi yunon madaniyati eng keng tarqalgan tasvirlardan biri - gulchambar taqqan tasvir baqtriyalik haykaltaroshlar qo‘lida yangicha yechimini topdi.

Saroy interyerida yana bir qancha devoriy suratlar va frizlar bo‘lgan. Ularda asosan kushon davri san’atiga tegishli tasvirlar tushirilgan. Umuman, Xolchayondan topilgan haykallar hayotiy, ta’sirchan va jozibador qilib ishlangan. Bu yerdagi har bir haykalning o‘zi bir dunyo, bahosi yo‘q noyob asarlardir. Ularda o‘z zamonasining mafkurasi, diniy tasavvurlari, madaniy-maishiy hayotining ba’zi tomonlari yorqin ifodalangan. Xolchayondan topilgan haykallar va rasmlar o‘tmish davrga xos uslubda ishlangan. Zero, bu yerda ellinizm, mahalliy baqtriyaliklarning va ko‘chmanchi yuechji qabilalarining madaniy an’analari ham ma’lum darajada o‘z aksini topgan.

Bu ma’lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki o‘lkamiz qadim davlardanoq rivojlangan madaniyatlarga ega bo‘lgan. Yuqorida o‘rgangan Xolchayon yodgorligi muhim obyekt hisoblanadi. Uni o‘rganish orqali tarixni yangi sahifalarini ochiladi. Mana shunday arxeologik obyektlarni o‘rganish jarayonida o‘zimiz bilmagan yangi ma’lumotlarga ham ega bo‘lamiz va ular haqida bemalol o‘z fikrlarimizni bildirishimiz mumkin. Biz bu yodgorliklarimizni tadqiq qilish orqali uni butun dunyoga tanitishimiz va turizm soxasini keng yo‘lga qo‘ya olamiz.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Пугаченкова Г. Халчаян. Министерство культуры Узбекской ССР Институт Искусствознания им. Хамзы.“К проблеме художественной культуры Северной Бактрии”.Ташкент 1966. Изд. «Фан».
2. Пидаев Ш. Сирли Кушонлар Салтанати., Тошкент Узбекистон ССР «Фан» Нашриёти 1990., Масъул муҳаррир — УзССР ФА нинг академиги А.Аскаров.
3. Левина В.А, Овезов Д.М.,.Пугаченкова Г.А. Архитектура туркменского народного жилища, ТЮТАКЭ, т.,1953.
4. M. Bieber. The Sculpture of Hellenistic Age, New-York, 1955, fig. 574. G.Rodenwa1t. Die Kunst der Antike.
5. F. Winter. Die Antiken Terrakotten, Berlin und Stuttgart, 1903.

JO‘RAYEV Sherali G‘ulom o‘g‘li
BuxDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
“Yosh o‘lkashunoslar” to‘garagi rahbari

HABIBOV Javlonbek
Buxoro davlat pedagogika instituti
2-bosqich tarix yo‘nalishi talabasi

BUXORO ADABIYOTI TARIXI MUZEYI

***Annotatsiya**: Maqolada Buxoroning eski shahar qismidagi tarixiy obidalardan biri – Ko‘kaldosh madrasasida joylashgan “Buxoro adabiyoti tarixi” haqida hikoya qilinadi. Muzeyda namoyish etilayotgan eksponatlar va ularning tahlili keltiriladi. Muzeyning tarkibiy tuzilishi va strukturasi bilan bog‘liq fikrlar muhokama qilinadi.*

***Kalit so‘zlar**: Buxoro, muzey, Ko‘kaldosh madrasa, adabiyot, eksponat, Ayniy, Fitrat*

***Аннотация**: В статье рассказывается о музее «История бухарской литературы», расположенном в одном из исторических памятников старой части Бухары - медресе Кукельдаш. Приводится описание экспонатов, представленных в музее, и их анализ. Обсуждаются вопросы, связанные с композиционной структурой и организацией музея.*

***Ключевые слова**: Бухара, музей, медресе Кукельдаш, литература, экспонат, Айни, Фитрат*

***Abstract**: The article tells about the “History of Bukhara Literature” museum located in one of the historical monuments of the old part of Bukhara - the Kukeldash Madrasah. A description of the exhibits presented in the museum and their analysis are provided. Issues related to the compositional structure and organization of the museum are discussed.*

***Keywords**: Bukhara, museum, Kukeldash madrasah, literature, exhibit, Ayni, Fitrat*

Buxoro O‘rta Osiyo sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, bu makonda fan, madaniyat, san’at, hunarmandchilik singari sohalar qadimdan rivojlanib kelgan. Shunday sohalardan biri adabiyot hisoblanadi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda XIX asr oxiri - XX boshlarida Buxoroda 100 dan ortiq ahli qalam ijod qilgan. Mazkur davrda bitilgan esdaliklar va tazkiralardan bular haqida talaygina ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati mavjud. Jumladan, Sadriddin Ayniyning “Esdalik”lari, Sadr Ziyoning “Navodiri Ziyoiya”, Ahmad Donishning “Navodiri vaqoye”, Qori Rahmatulloh Buxoriyning “Tazkirat ul-as’hob” kabi asarlari bilan tanishib, davr haqida ma’lum bir tushunchaga ega bo‘lish mumkin.

Buxoroning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri shoir, yozuvchi, tarjimon, muallim Sadriddin Ayniy Buxoro jadidchilik harakati tashabbuskori va

tashkilotchilaridan biri edi. O‘zi boshchiligidagi safdoshlari bilan birga yangi usul jadidchilik maktablarini tuzish, yoshlarning ziyoli bo‘lishi uchun xorij maktablariga jo‘natish, gazeta va jurnallar tuzish, aholining har bir qatlamini ziyoli qilishda jonbozlik ko‘rsatishgan.[1] Maktabni tamomlagan Sadriddin 12 yoshida Buxoroga kelib 10 yil davomida Mir Arab, Olimjon, Badalbek, Hoji Zohid va Ko‘kaldosh madrasalarida tahsil olgan. 1890-1895 yillarda turli taxalluslar bilan she’rlar mashq qilgan Sadriddin 1896 yildan “Ayniy” taxallasi bilan ijodini davom ettirgan.

Sadriddin Ayniy yashagan Ko‘kaldosh madrasasida “Buxoro adabiyoti tarixi” muzeyi tashkil qilingan bo‘lib, o‘ziga xos tematik xususiyatga ega. Aslini olganda 1927-yilda Buxoro muzeyi qayta tashkil qilingan vaqtda ham aynan shu madrasa hovlisida yangidan yevropacha uslubda barpo qilingan maxsus muzey binosida joylashadi. Ko‘kaldosh madrasasi hujralari ham vaqtincha muzey ixtiyoriga o‘tkazilgan. 1940-yillardan boshlab, muzey Buxoro hukmdorlarining asosiy qarorgohi sanalgan Ark qal’asiga ko‘chiriladi.

“Buxoro adabiyoti tarixi” muzey ko‘rgazmasi uchun nima uchun aynan Ko‘kaldosh madrasasi tanlangan? Bu yerda Sadriddin Ayniy 1901-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida istiqomat qilgan. Madrasa talabalari hayoti ilk ilm ta’lim maskanlari madrasalar bo‘lganligi tarixiy manbalarda ko‘plab uchraydi. Ayniy “Esdaliklar”ida Buxoro haqida ko‘plab ma’lumotlar qatorida aynan ta’lim, tarixiy obidalar singari masalalarga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Keyinchalik Sadriddin Ayniy muzeyga yozgan xatida 1917-yil voqealari haqida ham eslaydi. Amir poytaxtda tartibsizliklar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan namoyishni to‘xtatish va ishtirokchilarni jazolash bo‘yicha buyruq berganida, jadidlarning taniqli namoyondalari qamoqqa olinadi. Namoyishda ishtirok etmagan bo‘lsa-da, 9 aprel kuni Sadriddin Ayniy ham hibsga olinadi va 75 darra kaltaklanadi. Muvaqqat hukumat aralashuvi bilan tutqunlikdan qutilgan Sadriddin Kogondagi shifoxonada 52 kun davolanadi va tuzalgach, Samarqandga ko‘chib o‘tadi.

Buxoro adabiyot tarixi muzey ko‘rgazmasini Ko‘kaldosh madrasasida tashkil etishdan maqsad o‘z davrida ushbu madrasada tarixiy manbaalarda ko‘rsatilishicha, shoir Boborahim Mashrab, Maxtumqulilar ham o‘z zamonlarida shu madrasada yashashgan.

Ushbu muzey ko‘rgazmasida quyidagi mavzular yoritilgan:

- Buxorodagi madrasalar haqida ma’lumot;
- madrasa talabalari hayoti va ijodi;
- davr muhiti etnografik ko‘rgazma;
- Buxoroning 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida yashab ijod etgan adiblar hayoti va ijodi haqida;
- Buxoro adabiyot tarixini yoritish

Umuman olganda muzey o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida turli eksponatlardan foydalanib, ekspozitsiyaning asosiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ko‘rgazma strukturasi (tuzilishi) quyidagilardan tashkil topgan.

[1] Sadriddin Ayniy. Asarlar. 8 jildlik. 5-jild. Esdaliklar. 1—2-qism. (Red. R. Komilov) -Toshkent, «Toshkent» badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.

- XIX asr oxiri va XX asr boshlarida madrasa talabalari turmush tarzi
- Madarasalarda o‘qitilgan adabiyotlar xususida
- Sadriddin Ayniy hayoti va ijodi
- Madrasalarning tashkil topishi haqida ma’lumot beruvchi annotatsiyalar
- Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi
- 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida yashab ijod etgan Buxorolik adiblar – Ahmad Donish, Abdulqodir Savdo, Shamsiddin Muhammad Shohin, Azmiddin Somiy, Hayrat, Mulla Qurbon Fitrat Vardonzehi, Iso Mahdum Buxoriy, Vozeh Qori Rahmatulloh, Mirzo Hayit Sahbo, Abdurahmon Tamkin, Jalol Ikromiy hayoti va ijodlariga bag‘ishlangan.

Ko‘kaldosh madrasasida tashkil qilingan muzey ko‘plab sayyohlarning e’tiborini tortishi tabiiy holat. Chunki muzey madrasaning aynan Buxoro adabiy muhiti bilan bog‘liq jihatlarini ko‘rsatib beradi. Madrasaning shuhrati o‘z zamonasida juda baland bo‘lgan. Bunda asosan, diniy fanlardan tashqari handasa, matematika, falakiyot fanlaridan dars o‘qitilgan. Madrasaning vaqf yerlari boshqa madrasalarga nisbatan ko‘p bo‘lgan. Bundagi mudarris va mullavachchalar – talabalarning ehtiyojiga bemalol yetgan. Har bir hujraning o‘ziga ajratilgan yillik pul mablag‘i bo‘lgan, bu mablag‘ vaqf yerlardan muntazam tushib turgan. Madrasaga o‘qishga kirib, shu yerdan hujrali bo‘lgan talaba moddiy jihatdan unchalik qiynalmagan. 1920-yil sentyabridagi Buxoro bombardimoni natijasida, ko‘pgina binolar qatorida Ko‘kaldosh madrasasi ham qattiq shikastlangan. 1974-1985-yillarda qilingan ta’mir natijasida madrasa qisman avvalgi shaklini kasb etgan.

Bu yerda Sadriddin Ayniy 1901-yildan 1917-yilgacha istiqomat qilgan. Bu hujrani sotib olishga o‘zining puli bo‘lmagan, do‘sti va hamfikri Sharifjon Mahdum Sadri Ziyo Qarshining qozisi lavozimida ishlab yurganida Ayniyga yordam tariqasida shu hujrani olib bergan. 5 ta xonada tashkil qilingan muzey ko‘rgazmasi maxsus tematik reja asosida barpo qilingan. Kirishdagi o‘ng qo‘l hujralarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida madrasa talabalari turmush tarzi tasvirlangan. Etnografiya – bu yerda madrasa talabalari yashagan davrda kerak bo‘lgan oshxona anjomlari: sarxum, ko‘za, xumdon, savat, g‘alvir va boshqalar.

Mazkur ekspozitsiyaning 3-hujrasi Sadriddan Ayniy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Bilamizki, Sadriddin Ayniy o‘z zamonasining yetuk shoiri va adibi edi. Unda asosan: Ayning yoshlik yillari va haqida o‘zi yozganlari, ijodkorning talabalik yillari, u o‘qigan madrasa, uning talabalik davri hayoti, do‘stlari va hamkasblari va shunga o‘xshash buyumlar namoyishga qo‘yilgan. Muzeydagi buyumlarning aksariyati kitoblar, fotosuratlar va yordamchi materillardan tashkil topgan bo‘lib, muzeyning eksponatlarini tashkil qiladi. Shuningdek, Sadriddin Ayniyning ustozlari, zamondoshlari (Sadr Ziyo, Shamsiddin Shohin va boshqalar), hamda o‘sha davrning mashhur adiblari, Sadriddin Ayniyning tojik, o‘zbek va rus tillarida nashr qilingan asarlaridan namunalar ekspozitsiyaga qo‘yilgan.

Ayniy Tojikiston Fanlar Akademiyasining Akademigi, o‘zbek va tojik adabiyotining XX asrdagi lirik namoyondalaridan biridir. Ayniyning yoshlik yillari: Sadridin Ayniy o‘qigan Soktaredagi qishloq masjidi 1930-yillardagi surati, Ayniy o‘qigan Mir Arab madrasasining sur’atlari, uning talabalik yillari aks ettirilgan do‘sti

Sadri Ziyo, zamondoshi Munzim Mirzolarning sur'atlari,madrasa talabalari o'qishi kerak bo'lgan adabiyotlar, Sadridin Ayniyning birinchi ustozi domla Ikromchaning sur'atlari qo'yilgan.

1909-yilda yozilgan Sadridin Ayniyning yangi uslubda maktablar uchun nashr qilingan "Taxsibus Sibiyon" kitobi va esdaliklar kitobining mazkur varag'i (qo'lyozma) va boshqalar tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otadi. Sadridin Ayniy nafaqat adabiyot, balki musiqaga ham qiziqqan. U buxorolik mashhur Domla Jalim Ibodov, Mir Otajon Mir Nizomov, Levi Boboxonov kabi maqom darg'alari bilan aloqada bo'lgan. Bo'limda hofizlarning sur'atlari, o'sha davrlarda chalingan doira, dutorlar qo'yilgan.

Sadriddin Ayniyning 1974-yil Dushanbening "Irfon" nashriyotida chop etilgan "Axgari inqilob" (Inqilob uchqunlari) kitobi va "Ovozi ustod Ayniy" (ustoz Ayniy ovozi) grammplastinkasi qimmatli sanalib, Muzeyga taqdim qilingan buyumlar yozuvchining o'g'li Kamol Ayniy tomonidan 1975-yil 2 noyabrda 106-qabul dalolatnomasi asosida qabul qilingan[2].

Ikkala eksponatning ham o'ziga xos dastxatlari mavjud bo'lib, bular Kamol Ayniy tomonidan 1-2-noyabr kunlarida yozilgan. Kitob va plastinka g'ilofida "Taqdim ba muzeyi viloyati Buxoro" (Buxoro viloyat muzeyiga sovg'a) yozuvlari mavjud. Ushbu esdalik sovg'alar muzeyning hujjatlar fondiga qabul qilingan. Jildning orqa tomonida Sadriddin Ayniyning Dushanbe shahridagi maqbarasi tasvirlangan. Jildning o'ng tomoni yuqorisida zavod logotipi, pastki qismida "Sadriddin Ayniy maqbarasi (1878-1954), Dushanbe sh." yozuvlari, eng pastki qismida sovg'alar muallifining dastxati tushirilgan.

Kitobning muqovasi to'q qizil rangda, chap tomonida o'simliksimon naqsh elementlari seziladi. O'ng tomonida Sadriddin Ayniyning tasviri berilgan. Yuqorisi da kitobning nomi "Axgari Inqilob" zarhal harflar bilan yozib qo'yilgan. Manba tojik tilida bo'lib, ilk sahifasida "Osori Barguzida" (tarixdan hikoyalar) yozuvi, nashriyot nomi va chop etilgan yili ko'rsatilgan. Sahifaning chap tomonida esa bir qancha suratlar chizilgan bo'lib, ularning eng ko'zga tashlanadigani Minorai Kalon inshootidir. Pastida esa qurollangan askarlar tasvirlangan, ularning aslahalari boshi uzra ko'tarilgan. Undan keyingi sahifada kirish qismi va kitobni tartibga soluvchi Kamol Ayniy degan so'zlar uchraydi. Uning dastxati ham shu sahifadan joy olgan.[3]

Navbatdagi hujrada Abdurauf Fitrat hayoti va ijodiga bag'ishlangan.

Ushbu ko'rgazmada Fitrat davrini milliy kiyimlarini aks ettiruvchi chopon va salla qo'yish,Fitratning ulkan tarixiy-ilmiy ishlaridan biri "Kaziyskiye dokumenti XVI veka" asarining muqova ko'rinishi berish, Fitratning zamondosh-maslakdosh do'stlari Sadriddin Ayniy va Fayzulla Xo'jayevlarning suratlari, Ayniyning o'sha davrlarda yaratgan "O'zbek tili alifbosi" va "Madrasa" kitoblarini namoyish etilgan.

Shu bo'limda Fitratning 1927-yil yozilib nashr qilingan "Turk adabiyoti namunalari" kitobi va she'riy asarlari ro'yxatini uchratish mumkin. Ular quyidagilardir: "Sayxa" 1909-yil, "Munozara" 1909-yil, "Qutulish" 1920-yil, "Kim

[2] Buxoro muzeyi bosh inventar kitobi, №8

[3] Джураев Ш. Из истории Бухарского государственного музея-заповедника. Создание музеев и выставок. // Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах - важнейшие факторы стабильного развития стран Евразии. Омск, 21–24.09.2021., С. 67-73

deyay seni?” 1922-yil, “Uchqun” 1923-yil. Yana shu bo‘limda “Shoir Fitrat ish ustida” surati bilan, adibning “Men sen uchun tirildim, sen uchun yasharman, sening uchun o‘lurman, ey, turklarning muqaddas o‘chog‘i” degan otashin chaqirig‘i haqida yozilgan she’rlaridan namunalar qo‘yilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan Buxorolik adiblar – ko‘rgazmaning so‘nggi qismi xuddi shu nom bilan ataladi. Ushbu hujrada 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida yashab ijod etgan Buxorolik adiblar – Axmad Donish, Abdulqodir Savdo, Shamsiddin Muhammad Shohin, Azmiddin Somiy, Hayrat, Mulla Qurbon Fitrat Vardonzehi, Iso Mahdum Buxoriy, Vozeh Qori Rahmatulloh, Mirzo Hayit Sahbo,Abdurahmon Tamkin hayoti va ijodlariga bag‘ishlangan eksponatlar, ular tomonidan yozilgan asarlarning asl nusxalari, mohir xattot, shoir va yozuvchi Axmad Donish o‘z dastxati bilan yozgan qit’a namunasi, “Navodur ul-vaqoye” asarining qo‘lyozma nusxasi, buxorolik shoirlar she’rlari namunasi berilgan “Bayoz” kitoblari namoyish qilingan.

Buxorolik shoir, mohir xattot, munajjim, miniatyurachi Ahmad Donish 1827-yilda Shofirkon tumanida tavallud topgan. Asarlarini “Donish” taxallusi bilan bitgan. 1857-yilda Amir Nasrullo tomonidan, 1869-1870-yillarda va 1874-yilda Amir Muzaffar tomonidan yuborilgan uch marta Rossiya imperiyasiga elchilik missiyasi bilan tashrif buyurgan. Bu tashriflar uning dunyoqarashida katta o‘zgarishlar olib keladi va Buxoro amirlaridan siyosiy islohotlar o‘tkazish haqida maslahatlar beradi. Lekin amirlar buni e’tiborsiz qoldiradilar, aksincha Ahmadni G‘uzor tumaniga qozi qilib uzatib, markazdan uzoqlashtiradilar. 1880-1889-yillar mobaynida Ahmad Donish “Navodur ul-vaqoye” (Nodir voqealar) asarini yozib tugatadi. Said Abdulahadxon Ahmad Donishni Buxoroga chorlab, mashhur madrasaning kutubxonachisi etib tayinladi. Umrini oxirigacha Axmad Donish amirlik tuzumini isloh qilish g‘oyasi bilan yashadi. U Buxoroning so‘nggi ensiklopediyachi olimi edi. 1897-yilda Buxoro shahrida vafot etgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Buxoro adabiyoti tarixi muzeyi qadim shaharning XX asr boshlaridagi ijtimoiy va madaniy munosabatlarining asosiy xususiyatlarini o‘zida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Buxoro muzeyi bosh inventar kitobi, №8
2. Sadriddin Ayniy. Asarlar. 8 jildlik. 5-jild. Esdaliklar. 1—2-qism. (Red. R. Komilov) -Toshkent, «Toshkent» badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
3. Джураев Ш. Из истории Бухарского государственного музея-заповедника. Создание музеев и выставок. // Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах - важнейшие факторы стабильного развития стран Евразии. Омск, 21–24.09.2021., С. 67-73

MUSIRMANOV Shohboz Usmon o‘g‘li
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi
musirmanov1995@gmail.com

MUZEYLAR TURIZMNING IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya.*Mazkur maqolada muzeylarning turizm sohasidagi iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Muzeylar nafaqat madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish maskanlari, balki turistik oqimni jalb qiluvchi muhim obyektlar sifatida iqtisodiy manfaat keltiradi. Tadqiqotda muzeylarning sayyohlarni jalb etish, mahalliy biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilmani yaxshilash hamda xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilishdagi o‘rni tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar.*Muzeylar turizm, iqtisodiy rivojlanish, sayyohlik industriyasi, madaniy meros, investitsiyalar, ish o‘rinlari, mahalliy biznes, infratuzilma, xalqaro hamkorlik, ekskursiyalar, turistik oqim, shahar brendingi, madaniy turizm, ekonomik ta’sir*

Аннотация*.В статье анализируется влияние музеев на экономическое развитие туристического сектора. Музеи приносят экономическую выгоду не только как места сохранения и популяризации культурного наследия, но и как важные туристические достопримечательности. В исследовании анализируется роль музеев в привлечении туристов, развитии местного бизнеса и предпринимательства, создании рабочих мест, улучшении инфраструктуры, а также привлечении международного сотрудничества и инвестиций.*

Ключевые слова*.Музейный туризм, экономическое развитие, туристическая индустрия, культурное наследие, инвестиции, рабочие места, местный бизнес, инфраструктура, международное сотрудничество, экскурсии, туристический поток, брендинг города, культурный туризм, экономическое влияние.*

Annotation*.This article analyzes the impact of museums on economic development in the tourism sector. Museums bring economic benefits not only as places of preservation and promotion of cultural heritage, but also as important objects that attract tourist flows. The study analyzes the role of museums in attracting tourists, developing local business and entrepreneurship, creating jobs, improving infrastructure, and attracting international cooperation and investment.*

Key words*.Museums tourism, economic development, tourism industry, cultural heritage, investments, jobs, local business, infrastructure, international cooperation, excursions, tourist flow, city branding, cultural tourism, economic impact.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda turizm global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, madaniy va tarixiy turizmning ajralmas qismi bo‘lgan muzeylar nafaqat ilmiy-tarixiy obyektlar, balki

muhim iqtisodiy resurslar hamdir. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, madaniy turizm global turizmning katta qismini tashkil etadi va yildan yilga o‘sib bormoqda.

Muzeylar mamlakat iqtisodiyotiga turli yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi. Ular sayyohlarni jalb qilish orqali turistik oqimni oshiradi, mahalliy biznes va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga hissa qo‘shadi hamda yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Bundan tashqari, muzeylar infratuzilmaga investitsiyalarni jalb etib, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytiradi.

Ushbu maqolada muzeylarning turizmning iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi, xalqaro va mahalliy tajribalar asosida muzeylarning iqtisodiy samaradorligi o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muzeylarning turizmning iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha turli ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ular nafaqat madaniy merosni asrash, balki turizm orqali iqtisodiy o‘sishga ham xizmat qiladi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda turli davlatlarning turizm va madaniyat vazirliklari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muzeylarning global turizm industriyasidagi muhim rolini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar muzeylar turizm orqali iqtisodiy foyda keltirishining turli jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ular sayyohlarni jalb qilish, mahalliy iqtisodiyotga ta’sir, ish o‘rinlarini yaratish va investitsiyalarni jalb qilish kabi omillarni qamrab oladi.

Ko‘plab ilmiy maqolalar muzeylarning turistik markaz sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Xususan, Xofman (2017) o‘z tadqiqotida madaniy obyektlar, ayniqsa, muzeylarning sayyohlik oqimini oshirishga qo‘shgan hissasini tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, dunyodagi eng mashhur muzeylar yirik shaharlarda turistik oqimni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi va bu shaharlarning iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Masalan, Parijdagi Luvr muzeyi va Londondagi Britaniya muzeyi har yili millionlab sayyohlarni jalb qilib, shaharlarga katta iqtisodiy daromad olib keladi.

Tadqiqotlarda muzeylarning turizm orqali mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli ham alohida ta’kidlanadi. Buyuk Britaniya Turizm Kengashi (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, milliy muzeylarga tashrif buyuruvchi sayyohlar mahalliy restoranlar, mehmonxonalar, transport va boshqa xizmatlardan foydalanib, mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, har yili Britaniyaning mashhur muzeylariga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar mamlakat iqtisodiyotiga o‘rtacha 1 milliard funt sterlingdan ortiq daromad keltiradi.

Muzeylar iqtisodiy jihatdan foydali obyekt ekanligi haqida Xalqaro Madaniy Obyektlar Tadqiqot Instituti (ICROM, 2020) tomonidan ham ilmiy tahlillar keltirilgan. Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat muzeylariga investitsiyalar kiritish va ularni modernizatsiya qilish turistik oqimni oshiradi va shuningdek, muzeylar atrofida kichik bizneslarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko‘plab davlatlar muzeylarni modernizatsiya qilish orqali turizm sektorini yanada jozibador qilishga harakat qilmoqda. Misol tariqasida, AQShning Nyu-York shahridagi Metropoliten muzeyi 2019-yilda o‘z ko‘rgazmalarini interaktiv formatga o‘tkazganidan keyin tashrif buyuruvchilar soni 15 foizga oshgan va bu muzey atrofidagi mehmonxonalar

va restoranlarning daromadi ham ko‘tarilgan.

Muzeylarning ish o‘rinlarini yaratishdagi ahamiyati bo‘yicha ham bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. UNESCO (2018) tomonidan e’lon qilingan hisobotda aytilishicha, muzeylar faqat ekskursiya yetakchilari yoki tadqiqotchilar uchun emas, balki texnik xizmat ko‘rsatuvchilar, marketologlar, IT mutaxassislari va dizaynerlar uchun ham keng ish imkoniyatlarini yaratadi. Muzeylar orqali yaratiladigan ish o‘rinlari turizm sektorining umumiy iqtisodiy o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston misolida olib borilgan tadqiqotlar ham muzeylarning iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi tomonidan olib borilgan tahlillarga ko‘ra, mamlakatning tarixiy shaharlaridagi muzeylar sayyohlik oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, Samarqand, Buxoro va Xivaning tarixiy muzeylari xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilish orqali mintaqadagi mehmonxonalar, restoranlar va boshqa turistik xizmatlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. 2022-yilgi tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonning yetakchi muzeylari atrofida joylashgan mehmonxonalar daromadi o‘tgan yillarga nisbatan 20 foizga oshgan.

Muzeylarning iqtisodiyotga ta’sirini zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq jihatdan ham ko‘rib chiqish mumkin. Oxford Economics (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, virtual muzey ekskursiyalari va onlayn ko‘rgazmalar muzeylarning daromadlarini oshirishga yordam bermoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida ko‘plab muzeylar onlayn xizmatlarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, bu sayyohlik industriyasining yangi shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi muzeylarning turizmning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishda turli usullarni qo‘llashga asoslanadi. Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unligidan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlash maqsadida adabiyotlar tahlili, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, empirik tadqiqot va SWOT tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), UNESCO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda ilmiy maqolalar asosida muzeylarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini o‘rganish uchun adabiy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar asosida mamlakatdagi muzeylarning iqtisodiy ta’siri baholandi. Tadqiqot doirasida dunyodagi yirik muzeylarning iqtisodiy ta’sirini o‘rganish uchun statistik tahlil usuli qo‘llanildi. Jumladan, Luvr, Britaniya muzeyi, Metropoliten muzeyi va Ermitaj kabi muzeylarning yillik tashrif buyuruvchilar soni, chipta sotuvi bo‘yicha tushumlari, muzey atrofidagi bizneslarga ta’siri va ish o‘rinlari yaratishdagi hissasi bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ildi. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston shaharlaridagi muzeylarning iqtisodiy ta’siri bilan qiyoslanib, qiyosiy tahlil usuli yordamida tahlil qilindi. Bundan tashqari, muzeylarning turizm sohasidagi o‘rnini real sharoitda o‘rganish uchun empirik tadqiqot usulidan foydalanildi. Turizm sohasi mutaxassislari, muzey menejerlari va sayyohlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar orqali muzeylarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri bo‘yicha fikrlar yig‘ildi. Ushbu so‘rov natijalari muzeylarning sayyohlar uchun jozibadorligi, ularning turistik infratuzilmaga ta’siri

va biznes subyektlari bilan bog‘liqligini chuqurroq tahlil qilishga yordam berdi.

Tadqiqotning muhim qismi SWOT tahlil bo‘lib, unda muzeylarning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlarini baholashga harakat qilindi. Natijalarga ko‘ra, kuchli jihatlar qatoriga muzeylarning madaniy merosni asrash va turistik jalb etish markazi sifatida ahamiyati kirgan bo‘lsa, zaif tomonlari qatoriga ayrim muzeylarda infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani va zamonaviy texnologiyalarning kamligi kiritildi. SWOT tahlil natijalariga asoslanib, muzeylar orqali turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi muzeylarning turizm va iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini kompleks ravishda o‘rganish hamda aniq xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Xulosa va takliflar. Muzeylar turizmning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilib, xizmatlar sohasi, savdo va transport kabi tarmoqlarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Muzeylar madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish orqali jamiyatning bilim saviyasini oshiradi hamda milliy identifikatsiyani mustahkamlaydi. Bundan tashqari, muzeylar orqali hududiy iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilinib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Muzey infratuzilmasini rivojlantirish – zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, interaktiv eksponatlar va raqamli ko‘rgazmalarni tashkil etish sayyohlar sonini oshirishga yordam beradi.

Muzeylar bilan bog‘liq xizmatlarni rivojlantirish – ekskursiya, suvenir savdosi, restoran va boshqa xizmatlarni kengaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – xorijiy muzeylar bilan hamkorlik qilib, madaniy almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – muzeylar atrofida kichik bizneslarni rivojlantirish, qo‘l mehnati mahsulotlarini targ‘ib qilish mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Musirmanov Shohboz. "Ijtimoiy tarmoqlar orqali turistik joylarni reklama qilish va mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 369-374.

2.Musirmanov, Shohboz. "It texnologiyalardan foydalangan holda turizmni rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlar." Академические исследования в современной науке 3.14 (2024): 25-29.

3.Musirmanov, Shohboz. "Ichki turizmni rivojlantirish uchun foydalanilayotgan mahalliy ilovalar va ularni yaratish texnologiyalari." Science and innovation in the education system 3.5 (2024): 113-117.

4.Musirmanov, Shohboz. "Turizm sohasida kadrlar tayyorlashda amaliyot va nazariyaning pedagogik uyg ‘unligi." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.11.

ХУДАЙБЕРГАНОВ Комилжон
“Ичан-Қалъа” Давлат музей-қўриқхонаси
илмий котиби, т.ф.н.

ОБИДАЛАРДАГИ ЭПИГРАФИК ЁЗУВЛАРДА АБЖАДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Ўзбекистон тарихий - меъморий обидалари ва улардаги эпиграфик ёзувларининг кўплиги билан Марказий Осиёдаги давлатлар орасида биринчилар қаторида туради. Биргина Хива шаҳридаги сақланиб қолган юздан зиёд обидаларнинг аксариятида араб, форс ва туркий тилларда битилган эпиграфик ёзувлар бинонинг чиройли безаги сифатида қўлланилган.

Бу ёзувлардан иморатнинг қурувчиси, меъморий ёдгорликларга безак берган ва тарихни тошга, ёғочга ёзиб қолдирган моҳир хаттотлар ва ўймакорларнинг исми-шарифларини, ҳали номаълум бўлган шоирларнинг тахаллуси, қабртошларидан буюк шахсларнинг вафоти йилини ва бошқа кўплаб маълумотларни аниқласа бўлади. Қизиқарли томони шунда-ки, бу катта кўпчилиги шеърий услубда берилган таърихлар (саналар) муаммо шаклидаги “абжад” усулида ўз ечимини топади.

Таърих - арабча сўз бўлиб, бўлиб ўтган бирор воқеа ва унинг санасини билдиради. Абжад илми хонликлар давридаги мактабларда ўқувчиларга алиффо билан биргаликда ўргатилган. Абжадни ўрганган ўқувчини (абжадхон) китобхон, яъни “китоб ўқувчи” дейилган. Чунки, ўқувчи бир вақтнинг ўзида қуйидаги ҳарф ва рақамларни ўзлаштириб борган: **1 - а (алиф) ا, 2 - б (бе) ب, 3-ж (жим) ج, 4 - д (дол) 5, د-хе ه, 6-вов 7, و-зе 8, ز-хе 9, ح- то ط, 10- йо ى, 20- каф ک, 30 - лом ل, 40-мим م, 50- нун ن, 60- син س, 70-айн ع, 80-фе 90, ف-сод ص, 100-коф ق, 200- ре 300, ر -шин 400, ش- те ت, 500- се ث, 600- хе 700, خ- зол ذ, 800- зод ض, 900- зо ظ, 1000- ғайн غ.**

Ўтмишда абжад ҳисоби билан ечиладиган шеърий таърихлар ёзиш анъана бўлиб, амалдорлар битказилган иморати, ўтказилган тўйи, бирор катта ғалаба учун таърихлар ёзишни шоиру, фозиллардан илтимос қилишган ва бунинг учун қалам ҳақи ҳам беришган. Ўз навбатида шоиру-фозиллар ҳам подшоҳ ва амалдорларга янги таърихлар ёзиб совға қилишлари одат тусига кирган. Кўпчилик ҳолларда бу таърихлар ўймакор усталар ва хушхат хаттотлар томонидан ёғочга, мармарга ёки кошинга ёзилиб, меъморий обидаларга ўрнатилган. Хива меъморий обидаларидаги бундай (эпиграфик) ёзувларнинг сони юздан зиёд.

Хива шаҳрининг Ичон (ички) қалъасидаги 65 та меъморий ёдгорликнинг 32 тасида, Дешон (ташқи) қалъадаги 46 та обиданинг 10 тасида эпиграфик ёзувлар сақланиб қолган бўлиб, уларнинг 62 тасида абжад ҳисоби қўлланилган. Совет даврида йўқотилган обидалардан қолган эпиграфик ёзувли 18 та мармар, 10 дан зиёд ёғоч буюмлари “Ичан-Қалъа” музей – қўриқхонасида сақланади.

Ушбу мақоламизда меъморий обидалардаги эпиграфик ёзувлар ва

уларда берилган шеърий таърихлардаги абжад усули билан ҳисобланадиган саналарнинг топилишини кўриб чиқамиз.

Хива шаҳрининг машҳур “Калта минораси” (аслида ўз вақтидаги номи - Кўк минор) 1851-1853 йилларда Хива ҳукмдори Муҳаммадамин хон томонидан қурилган. Минора битказилишига бағишлаб Огаҳий иккита шеърий тарих ёзган. Шулардан биттаси 16 мисралик бўлиб, унинг 12 мисраси миноранинг тепа қисмига белбоғ нақш сифатида кошинларга пиширилиб, ўрнатилган. Бу форсий тилда ёзилган мадҳиянинг ўзбекча таржимаси шундай:



Қутлуғ олий минора бунёд қилинди,
Ўхшашини ҳали кўрмаган эди фалак.
Шоҳи оламнинг амри билан битказилди,
Барча айб ва нуқсонлардан қилиб пок.
Акл кўзи билан қаралган вақтда (унинг ёнида),
Сарв дарахти гўё хашакка ўхшаб қолди.
У Тубо дарахтидан ҳам яхшироқ,
Жаннатга ўхшайди унинг чиройи.
Бу устуннинг фалак чўққисига етганидан,
Васфини таърифлашга акл етмайди.
Унинг қурилиш тарихини Огаҳий,
Рақам қилди: - **“Сутун коҳи афлок”.**

(“Фалакнинг баланд устуни”- деб ёзди).

Одатда ёзувчи ўз шеъридаги таърих моддасига ишора қилади, масалан, Огаҳий охирги икки мисрада таърих-санани рақам қилганини кўрсатиб қўйибди. Ушбу рақам қилинган **“Сутун коҳи афлок”** жумласидан таърих санаси шундай топилади:

س ت و ن ک ا خ ا ف ل ا ک

20+1+30+80+1 +600+1+20+50+6+400+60=1269 (1852-53)

Бундан маълум бўладики, минора ҳижрий 1269, мелодий 1852-1853 йилларда қурилган экан.

Абжад ҳисоби шундай гўзал бир илмки, баъзида у жуда чигал ва қизиқарли муаммоларни ўз ичига олади. Айрим ҳолларда бир сўздан ёки жумладан таърих моддаси аниқ чиқмайди. Бундай вақтларда “ҳарф ёки сўзни чиқариш ёки қўшиш ила тарих моддаси чиқарилади” (Баъзан ҳарф ёки сўзни чиқариш ёки қўшиш ила тарих моддаси чиқарилади. Жувонмардиев А. Ҳарфлар рақамларга айланганда.-Т.: 1966.-5б.) Масалан:

Паҳлавон Маҳмуд мақбарасида Исфандиёрхон онаси Қутлуғжамол бика учун саккиз ҳужра ва бир гўрхонадан иборат икки қаватли қорихона бино қилдирган.

Қабрхона эшиги устидаги мармартошга шоир Муҳаммадрасул Паҳлавонниёз ўғли - Мирзонинг (Мирзо - Шоир, таржимон, ҳаттот, мусиқий нотани қоғозга кўчирган бастакор, форс тили ўқитувчиси Муҳаммад Расулнинг (1838-1921) тахаллуси. Мулла Бекжон Раҳмон ўғли. Хоразм мусиқий тарихчаси.- М.:1925. Б. 40-43.) ва Муҳаммадюсуф - Баёнийнинг марсиялари битилган.

1. Ҳазрати Асфандиёрхон ҳақ онга,
2. Умри иқболин фузун этгай ато.
3. Тахт уза чиқғоч қудсидин шараф,
Топдилар барча ғани бирла гадо,
5. Саъй этар эрди бино қилмоқ учун,
6. Гаҳ масожид гаҳ мадорис, гаҳ саро
7. Волидаси чун бу фоний даҳридин,
8. Озим ўлди жониби дорулбақо.
9. Фавтидин сўнг онинг учун айлади,
10. Хўб қорихонаи пур нақшу жило.
11. Мадфун Полвон отанинг қибладин,
12. Ўн газ ўтган ерда ул бино.
13. Солли тарихни пири ақлдин,
14. Айлабон таъжил сўрғоч Мирзо,
15. Деди доно юзини кўрмай дегил:
16. “Турфа қорихона бо зеб бино”.
17. Умми олий қадри шаҳи муҳташам,
18. Аз жаҳон шуд дар саройи жовидон.
19. Ори ҳарки ондарин даҳр омад,
20. Чора аз рафтан надорад зин макон.

21. Чун Баёний жуст тарихи вафот,
22. “Бод жойаш равза” шуд тарих он.
23. Алфақир, алҳақир, хоксор, зарравор, балғуборил осор, муҳркан,
24. Тўпрез, соатсоз Худойберган девон ибн устод Муҳаммад
25. Паноҳ Хоразмий ғаффароллоҳу. 1332.

Ушбу шеърий тарихнинг 1-16 мисралари Мирзо томонидан ўзбек тилида қорихона қурилгач, 17-22 мисралари эса Баёний томонидан форс тилида, Қутлуғжамолбика вафотидан кейин, яъни қорихона қурилишидан олдин ёзилган.

Шеърнинг форсий қисми шундай таржима қилинади.

17. **Олий ҳиммatли шоҳнинг олийқадр онаси,**
18. Жаҳондин мангулик саройига кетди.
19. Бу дунёга келган ҳар бир киши,
20. Кетмай қолишга чораси йўқ.
21. Вафотининг тарихини Баёний шундай топди:
22. **“Бод жойаш равза”** - жойи жаннатда бўлсин.

Бу шеърий тарихда иккита тарихий сана кўрсатилган. Биринчиси Мирзонинг шеъридаги **“Турфа қорихона бо зеб бино”** мисрасидадир. Ундан таърих шундай топилади:

Деди доно юзини кўрмай дегил:
“Турфа қорихона бо зеб бино”.

Охирги мисрага таърих яширинган бўлиб, ундаги ҳарфларнинг йиғиндисидан 1336 ҳижрий йил топилади. Аммо, бу қорихона қурилиши йилига тўғри келмайди. Мирзо **“Деди доно юзини кўрмай дегил”** мисрасида **“доно”** юзига ишора қилиб турибди. Дононинг юзи, яъни бош ҳарфи **“дол”**нинг сон қийматини кўрмай ҳисобланг дейилмоқда. Шунинг учун умумий йиғиндидан (**د**) долнинг қийматини (4 ни) олиб ташлаш керак. Ана шунда бизга керакли сана 1332 ҳижрий, 1914 мелодий йили келиб чиқади. Ҳақиқатан ҳам қорихона шу йили қурилганини мармарга уста томонидан рақамлар билан ёзилган **1332** сана ҳам тасдиқлайди.

Муҳаммад Юсуф Баёнийнинг форсий шеъридаги тарих “Бод жойаш равза” жумласида бўлиб, уни ҳисоблаганда ҳам 1332 ҳижрий санасини топамиз, бу сана Қутлуғжамолбиканинг вафоти йилини кўрсатади.

Юқорида келтирилган шеърий таърихни мармартошга ўйиб ёзган ва чиройли гуллар билан безаган уста ёзув охирида ўзининг дастхатини шундай қўйган: - **Алфақир ул ҳақир, хоксор, балғуборил осор, зарравор, муҳркан, тўпрез, соатсоз Худойберган девон ибн устод Муҳаммад Паноҳ Хоразмий.**

Худди шундай яна бир мисол: - Ичан-Қалъанинг шарқий – Полвон дарвозаси ёнида қурилган Хўжамбердибий мадрасаси эшиги устига ўрнатилган қора рангли мармар лавҳдаги (135х40см) ёзув форс тилида:

таржимаси:

Шоҳ Саййид Аранг ғозий замонида, (Аранг ғозий- 1689-1694 й.Хива хони.)
Чингиз наслининг тожидаги гавҳари.
Бу сернур мадраса бино қилинди,
Олийжаноб ёш йигит ҳаракати билан.
Унинг ўзи Хўжамберди оталиқ ўғли,
Келиб чиқиши пок Қиёт элидан.
Битказилган вақтини, хўш номини,
“Муҳаммад Ризобек” деб ёзади қалам.
Ва лекин билимдонлар ҳисобида,
Унинг фарқи, хоки пойидан Кайвонча камдир.

Ушбу шеърий тарихнинг **“Муҳаммад Ризобек”** жумласига таърих яширинган бўлиб у шундай топилади:

م ح م د ر ض ا ب ی ک

20 + 10 + 2 + 1 + 800 + 200 + 4 + 40 + 8 + 40 = 1125

Лекин бу таърих ҳақиқий қурилиш санасига мос келмайди. Чунки, 1125 ҳижрий – 1713 мелодий йилда Саййид Арангхон замони ўтиб кетган эди. Исми номаълум қолган бу шеър муаллифи абжад ҳисобининг мураккаб усулини ҳавола қилган бўлиб, **«Ва лекин, билимдонлар ҳисобида, Унинг фарқи, хоки пойидан Кайвонча камдир”** – деб ишора берган. Биз “**Муҳаммад Ризобек”** нинг хоки пойи (оёғи, изи, охири), яъни охирги ҳарфи **К (ک)** ва шеърнинг охирги мисрасидаги **“фарқи кайвон аст кам”** (фарқи кайвонча камдир) жумласига ҳам эътибор қилсак, унда иқсот (чиқариб ташлаш)га ишорат борлигини (Амали таъмия ва иқсот усули. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий.-Т.: Мерос. 1991.–244б. 1-2 изоҳлар) кўрамиз. Шунинг учун ушбу ишоратларга кўра умумий йиғиндидан **(ک)** “К” ҳарфининг қийматини (20 га тенг) чиқариб ташласак 1125-20 = 1105 (1793-1794йй) қолади. Бу биз излаган мадрасанинг қурилиш санасига, яъни “Шоҳ Саййид Аранг ғозий замонига” тўғри келади.

Обидалардаги нақшлар, эпиграфик ёзувларни ўрганган уста наққош Абдулла Болтаев (1890-1966) ҳам абжад ҳисобини севган музейшунослардан бири бўлган. У ўз дўстларидан бирига ташрифнома юбориб, шундай шеър ёзган:

Сизга ман эсдалик айлаб, ёзибон бу кичик хатни,
Ўқибон маъносин англаб, қилибон катта журъатни,
Боши 80, бўйин 30, бели 1 дур оёқи олти,
Рақамни ҳарф қилиб ёзибон, қилурсиз катта ғайратни. (Абдуллаев К.

Нақшларга битилган умр. Тошкент.: Ғ.Ғулом-1995. 40-б.)
Бу рақамларни ҳарфларга айлантирилса “Палов” сўзи келиб чиқади.
Мустақиллигимиз шарофати билан эски қадриятларимиздан кошинпазлик ва хаттотлик санъатлари ҳам ривожланиб, эпиграфик ёзувлар янги қурилаётган иморатларда қўлланила бошланди. Жумладан, Хоразм вилояти Ҳазорасп туманидаги “Сулаймон Боқирғоний” жоме масжиди қайта таъмирланиб, кошинлар билан безатилди.

Масжид пештоқидаги кошинларга Қуръоннинг Бақара, Мулк ва Имрон сураларидан оятлар битилди.



Пештоқнинг бурчакдаги иккита гулдаста – минорасига қуйидаги шеърий таърих ҳам ёзилди:

Ўнг гулдаста – минорадаги ёзув:
Мўъминлар қалбида эътиқод-иймон,
Аллоҳ нури бирла бўлур нурафшон.
Яхши иш яхши ном қолур абадий,
Қаср ила айвонлар бўлғуси вайрон.
Яхшилар хайроти натижасидур,
Бу масжид ҳазрат Боқир эшон.

Минг тўрт юз йигирма олтинчи ҳижрий.
Қурилишга бошланди бу олий макон,
Икки минг бешинчи мелодий сана.
Ибтидо тарихин бил эй мусулмон.
Катаба алфақир Муҳиддин Тошҳовузий.
(кошинларга ёзувларни битган хаттотнинг исми)

Чап гулдаста – минорадаги ёзув:

Қурбонбой ҳожи кўрсатиб хайру сахо,
Бир табаррук масжид жоме айлади барпо.
Ҳазорасп шаҳрининг боғдор элида,
Қад ростлади ок гунбазлик хуш бино.
Манзили Ҳазрат Бокир эшондур,
Бўлди мусулмонлар учун мусалло,
Масжид тарихини сўрадим ҳотифдин,
Деди: “бу жой уламо ва хонаи Худо”.
Гар саҳиҳ этарсан абжад ҳисобин,
Ондин жим қийматин айла жудо.
Абдулла Аҳмад Хоразмий. (шеърий таърих муаллифи Ҳазорасплик шарқшунос олим Абдулла Аҳмедов**).**
Ушбу шеърдаги **“Бу жой уламо ва хонаи Худо”** жумласига тарих моддаси яширинган. Ундан қурилиш санаси қуйидагича топилади.

ب و ج ا ی ع ل م ا و خ ا ن ہ خ د ا

1+4+600+5+50+1+600+6+1+40+30+70+10+1+3+6+2 = 1430

Аммо, шоир абжад ҳисобини тўғри чиқариш учун **“Ондин жим қийматин айла жудо”** – деб кўрсатиб қўйган. Яъни, умумий йиғиндидан жимни рақами 3 ни жудо қилиш кўрсатилган. 1430 – 3 = 1427 (2005).
Кўриниб турибдики, аждодларимиз нафақат ҳашаматли бинолар қуриш ва уларни чиройли безаклар билан безаш устаси бўлишган, балки шу иморатларда ўзларининг маънавий ва маърифий билимларини нақадар бой эканлигини шеърий услубда баён қилиб, тарихий воқеаларни бизга етказишган.

Қувонарли томони шундаки, шўролар даврида унут бўлган абжад ҳисоби билан ёзиладиган шеърий таърихлар ёзиш анъанаси ҳам қайта тикланмокда. Бу ёзувларнинг ўрганилиши асосида мамлакатимиз бой тарихининг янги саҳифалари очилади, сайёҳларни қизиқтираётган саволларига жавоблар ҳам топилади ва ёдгорликни таъмирлаш чоғида улардаги ёзувларнинг йўқолиб кетган қисмларини тўлдиришга хизмат қилади. Зеро, Юртбошимиз айтганидек, - “Биз ўз олдимизга мамлакатимизда **Учинчи Ренессанс** пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак.” Бу ўз навбатида олдимизга аждодлардан қолган илмий меросни чуқур ўрганиш, тарихий обидаларни кўз қорачиғидай

асрашимизни тақозо қилади.

УМАРОВА Карина Бахтияровна
Национальный институт художеств и дизайна
имени Камолиддина Бехзода
kustyakh@gmail.com .

МУЗЕЙНЫЙ ТУРИЗМ: ПОТЕНЦИАЛ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ТУРИСТОВ И РАЗВИТИЕ МУЗЕЙНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Аннотация: Статья посвящена изучению роли музеев искусств в *развитии культурного туризма, с акцентом на опыт разных стран и потенциал музеев Узбекистана. Рассматриваются успешные примеры музейного туризма в Европе, включая цифровизацию коллекций, интерактивные технологии, бесплатные программы и образовательные инициативы. Особое внимание уделяется тенденции перехода от традиционного культурного туризма к творческому, включающему активное участие путешественников в культурных практиках.*

Ключевые слова: *культурный туризм, музейный туризм, туристическая индустрия, музейные экспозиции, цифровизация музеев.*

Annotatsiya*: Maqolada turli mamlakatlar tajribasi va O‘zbekiston muzeylarining salohiyatiga alohida e’tibor qaratilib, madaniy turizmni rivojlantirishda san’at muzeylarining rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Evropada muzey turizmining muvaffaqiyatli namunalari, jumladan, kolleksiyalarni raqamlashtirish, interaktiv texnologiyalar, bepul dasturlar va ta’lim tashabbuslari ko‘rib chiqiladi. An'anaviy madaniy turizmdan ijodiy turizmga o‘tish tendentsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa sayohatchilarning madaniy amaliyotlarda faol ishtirokini o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy turizm, muzey turizmi, turizm sanoati, muzey ko‘rgazmalari, muzeylarni raqamlashtirish.*

Annotation*: The article explores the role of art museums in the development of cul-tural tourism, with a focus on international experiences and the potential of museums in Uzbekistan. It examines successful examples of museum tourism in Europe, including the digitalization of collections, interactive technologies, free programs, and educational initiatives. Special attention is given to the shift from traditional cultural tourism to creative tourism, which emphasizes active traveler participation in cultural practices.*

Key words: *cultural tourism, museum tourism, tourism industry, museum exposi-tions, digitalization of museums.*

Согласно мнению американского учёного В.Смита всего существуют шесть категорий туризма: этнический, культурный, исторический, экологический, рекреационный, деловой. Главная задача по В.А. Квартальнову историко-культурного туризма состоит в том, чтобы познакомиться с достижениями культуры, науки и техники, посетить исторические места и сооружения.

Так музеи искусств играют ключевую роль в развитии культурного туризма, выступая не только хранилищами ценнейших произведений искусства, но и центрами притяжения для миллионов путешественников по всему миру. Они предоставляют уникальную возможность познакомиться с историей, культурой и самобытностью народов, что делает их важным инструментом укрепления межкультурного диалога и взаимопонимания. В условиях глобализации туризм становится мощным драйвером экономики, а музеи искусств — неотъемлемым элементом этой системы. По оценкам ЮНВО, культурные туристы составляют 37% видов международных путешественников, также по статистике тратят на 38% процентов больше, чем остальные ниши туризма и на 22% дольше остаются в стране.

В Европе музейный туризм является неотъемлемой частью культурной политики. Например, во Франции Лувр в Париже ежегодно привлекает миллионы туристов, являясь самым посещаемым музеем в мире. Помимо Лувра, популярны музей Орсе и Центр Помпиду. Основными факторами развития музейного туризма во Франции являются то, что там активно развиваются музейные ночи и временные выставки, чтобы сделать музеи более доступными для широкой аудитории. Также была цифровизирована вся коллекция, сделав ее доступной онлайн, что повысило интерес. Было создано мобильное приложение с интерактивными картами, аудиогидами, AR-функциями. В Великобритании вход в государственные музеи, такие как Британский музей и Национальная галерея, остаётся бесплатным, что способствует увеличению потока посетителей. Также музеи организуют «гастрольные» выставки по всему миру, с экспонатами в других странах (например, в Китае, США). Внедрил **онлайн-экскурсии в формате 3D,** где можно «погулять» по музею виртуально. Если рассматривать музеи в Нидерландах, например Рейксмузеум, В 2013 году музей запустил креативную рекламную кампанию «Ночь в музее», где посетители могли участвовать в интерактивных сценах. Для привлечения более молодой аудитории, они используют TikTok и Instagram (флешмобы, челленджи), мобильное приложение, где можно «собирать» коллекцию шедевров, как в игре.



Рис.1. Приложение музея Рейксмузеум

Музей Орсе в Париже активно участвует в ежегодной "Ночи музеев" (Nuit des Musées), предоставляя посетителям уникальную возможность бесплатно ознакомиться с его обширными коллекциями и временными выставками в вечернее время. В 2024 году мероприятие состоялось 18 мая, когда музей был открыт для публики до позднего вечера, предлагая особую атмосферу для ценителей искусства. Во время "Ночи музеев" Музей Орсе организует специальные программы, включая тематические экскурсии, музыкальные выступления и другие культурные мероприятия, обогащающие опыт посетителей. Эти инициативы направлены на привлечение широкой аудитории и популяризацию искусства среди разных слоев населения.

Рис.2 Музей Орсе

Также хотелось бы отметить современные тенденции в области туризма в Европе, которые демонстрируют переход от культурного туризма к творческому. В рамках творческого туризма путешественники принимают активное участие в культурном обучении. Это может включать такие виды деятельности, как роспись зонтиков в Таиланде, окрашивание тканей в Гватемале и т.д.

Рис. 3 Роспись зонтиков в Таиланде

Программы творческого туризма предоставляют возможность путешественникам не только познакомиться с местными жителями, культурой

и искусством, но и создать собственные сувениры, способствующие популяризации культуры среди их друзей и знакомых. Более того, данный вид туризма способствует развитию местной экономики, создавая новые рабочие места.

Примером успешной программы творческого туризма в Азии является проект, разработанный Управлением по выделенным территориям для устойчивого туризма (DASTA) в Таиланде. В отличие от аналогичных инициатив в других азиатских странах, эта программа основывается на концепции уникальности тайской культуры и ее традиционных форм творчества. Двадцать деревень предлагают туристам аутентичный опыт, связанный с определёнными ремеслами или навыками, укоренёнными в местном сообществе.

В Узбекистане, креативный туризм также активно развивается, Ташкент – это не только административный центр, но и город, где можно глубже погрузиться в культуру через творческий туризм. Здесь туристы могут не просто осматривать достопримечательности, но и участвовать в ремесленных и художественных процессах, создавая собственные произведения искусства. Одним из популярных направлений является знакомство с традиционными ремеслами. В центре прикладного искусства можно попробовать себя в керамике, резьбе по дереву, вышивке и ковроткачестве, работая под руководством мастеров.

Парк «Навруз» в Ташкенте — это уникальное культурно-туристическое пространство, представляющее собой синтез традиционной узбекской архитектуры, искусства и современных рекреационных зон. Созданный как место, отражающее национальную самобытность, он играет значительную роль в развитии креативного туризма в Узбекистане. Одной из ключевых особенностей парка является его архитектурное оформление: здесь воссозданы махалли с домами, декорированными резьбой по дереву, керамическими панно и традиционными орнаментами, характерными для разных регионов страны. Таким образом, посетители могут не только наслаждаться прогулками в живописной обстановке, но и глубже погружаться в историко-культурное наследие Узбекистана. В рамках концепции креативного туризма он предоставляет туристам возможность не только наблюдать, но и участвовать в традиционных ремесленных процессах: гости могут попробовать себя в гончарном деле, резьбе по дереву, чеканке или росписи по керамике. Не только национальной культуре, но и культуре других народов, нужно отметить работу, ассоциации культурных корейских центров, в празднование дня урожая, Чхусок, проводится большое празднование с традиционными корейсками играми, художественными мастер-классами, по каллиграфии, оригами, приготовлению национальных блюд.

Рис. 4 Парк Навруз

Музеи Узбекистана вызывают неоднозначные впечатления у посетителей, включая как местных жителей, так и иностранных туристов. Анализируя отзывы посетителей, можно отметить ряд особенностей, характерных для музеев Узбекистана

Многие музеи Узбекистана, сформированные в советский период, до сих пор сохраняют традиционный подход к организации экспозиций. Они обладают богатой коллекцией экспонатов, но зачастую не раскрывают их в полном контексте, что может затруднять восприятие информации. Например, Государственный музей истории Узбекистана, одно из знаковых культурных учреждений страны, расположен в историческом здании и содержит уникальные артефакты, однако его экспозиции остаются верными более ранним музейным концепциям. Тимуридский музей в Ташкенте — важное культурное пространство, посвящённое истории одной из значимых эпох региона. Однако в силу различных исторических обстоятельств коллекция музея включает ограниченное количество подлинных артефактов. Основной акцент сделан на архитектурном убранстве здания и отдельных элементах экспозиции, что порой создает у посетителей ощущение недостаточной наполненности залов.

Некоторые музеи сталкиваются с вызовом адаптации своих экспозиций к современным требованиям музейного дела. Вопросы структурированности, удобства восприятия и интерактивности становятся актуальными, поскольку современные посетители, в том числе молодёжь и туристы, всё больше ожидают не только демонстрации предметов, но и глубокого погружения в исторический и культурный контекст.

При этом в Узбекистане есть примеры музеев, успешно представляющих свои коллекции. Так, Геологический музей в Ташкенте вызывает интерес благодаря содержательным экспозициям, особенно среди детей и семейной аудитории. Это показывает, что при грамотном подходе музеи могут становиться не только центрами сохранения истории, но и местами живого диалога с культурным наследием.

Современные тенденции в музейном деле ориентированы на вовлечение посетителей, использование новых технологий и развитие образовательных программ. Это направление может помочь музеям Узбекистана раскрыть свой потенциал и привлечь более широкую аудиторию, создавая пространство для знакомства с историей и искусством в доступной и увлекательной форме.

Популяризация музеев в разных странах основывается на сочетании бесплатных программ, цифровых технологий, образовательных инициатив и

активного взаимодействия с аудиторией. Улучшение экспозиционной деятельности требует внедрения мультимедийных технологий, таких как голограммы, VR/AR, которые оживляют историю и культуру. Примером является использование мультимедиа в музеях Ватикана.

Также важно создавать тематические выставки, посвящённые ключевым историческим и культурным темам, таким как история Великого шёлкового пути или Тимуридский период. Повышение комфорта для посетителей включает в себя улучшение инфраструктуры музеев за счёт создания сувенирных магазинов, зон отдыха и привлечения квалифицированных гидов. Установка информационных табличек на нескольких языках и разработка мобильных приложений для самостоятельных экскурсий помогут сделать посещение музеев более удобным. Организация мероприятий, таких как международные выставки, арт-акции и фестивали, привлечёт внимание широкой аудитории. Примером успешного события является Met Gala в Метрополитен-музее, а также ночные экскурсии с уникальными программами, практикующиеся в музее Орсе. Брендинг музеев с созданием узнаваемого образа через символику, слоганы и уникальные программы по примеру Эрмитажа также является важным направлением. Партнёрства и сотрудничество с туроператорами, включение музеев в популярные туристические маршруты по Узбекистану (Самарканд, Бухара, Хива) помогут увеличить поток посетителей. Программы для детей и семей, такие как мастер-классы и интерактивные уроки истории и археологии, практикуемые в Национальном музее антропологии в Мексике, помогут заинтересовать молодое поколение. Развитие бренда музея как культурного центра Центральной Азии с акцентом на уникальные коллекции исламского искусства и археологических находок также повысит его привлекательность.

Список использованной литературы:

1. Smith V. Hosts and Guests / University of Pennsylvania Press. – Philadelphia, 1977.
2. Квартальнов В.А. Туризм: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2000.-320с.
3. Тенденции современного музееведения [монография] – Ташкент: «Наука», 2018. 192 С.
4. Захарченко В.П. "Культурный туризм: основы, практика, перспективы", 2020. 408 С.
5. Richards, G. "Cultural Tourism in Europe". CAB International, 1996. 347 С.
6. Falk, J.H., Dierking, L.D. "The Museum Experience". Taylor & Francis, 2016. 224 С.
7. Plog, S. "Tourism and Cultural Heritage". Ginting, G., & Dewi, I. J. 2022. 315 С.
8. ЮНЕСКО, доклады о культурном наследии.
9. Kotler, N., Kotler, P., & Kotler, W. Museum Marketing and Strategy. Jossey-Bass, 2008. 544 С.
10. Lord, B., & Lord, G. D. Manual of Museum Planning. AltaMira Press, 2012. 720 С.
11. Black, G. The Engaging Museum: Developing Museums for Visitor Involvement. Routledge, 2005. 280 С.
12. Anderson, G. Reinventing the Museum: The Evolving Conversation on the Paradigm Shift. AltaMira Press, 2012. 488 С.

13. McClellan, A. The Art Museum from Boullée to Bilbao. University of California Press, 2008. 368 C.

MIRHAKIMOVA Feruza Xoldorjon qizi
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
mirhakimovaferuza7@gmail.com

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA MUZEYI FAOLIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Hamid Olimjon yodgorlik muzeyining tashkil etilishi tarixi, muzey faoliyati, ekspozitsiyasi va eksponatlari tahlili orqali muzeyning insonlarning ma’naviy dunyosiga ta’siri haqida batafsil ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *uy muzey, eksponat, hujra, eksponat, maydon, ekspozitsiya, asar, qonun, kitob, an’ana, yubiley, mumtoz adabiyot.*

Annotation: *This article provides detailed information about the history of the establishment of the Hamid Olimjon memorial museum, the museum’s activities, exposition and the impact of the museum on the spiritual world of people through an analysis of its exhibits.*

Keywords: *house museum, exhibit, cell, exhibit, area, exposition, work, law, book, tradition, anniversary, classical literature.*

Аннотация: *В статье дается подробная информация об истории создания Мемориального музея Хамида Олимджона, деятельности музея, экспозиции, а также о влиянии музея на духовный мир людей посредством анализа его экспонатов.*

Ключевые *слова: дом-музей, экспонат, ячейка, экспонат, территория, экспозиция, произведение, закон, книга, традиция, юбилей, классическая литература.*

Hamid Olimjon muzeyi 1970-yildan Samarqand shahridagi A.Ikromov nomidagi O‘zbekiston davlat madaniyat va san’ati tarixi” muzeyi qoshida tashkil etilgan. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O‘zbekiston SSR Vazirlar Sovetining 1978-yil 11-dekabrdagi “Respublikadagi muzeylar ishining xolati va faoliyatini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 728-sonli qarori hamda O‘zbekiston SSR Madaniyat Vazirligining 1979-yil 2-avgustdagi “Muzeylarni O‘z SSR Fanlar akademiyasidan O‘zbekiston SSR Madaniyat Vazirligiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi 57 – R – sonli buyrug‘iga ko‘ra Hamid Olimjon uy muzeyi 1979-yilda O‘z SSR Fanlar akademiyasi tarkibidan Madaniyat Vazirligiga o‘tkazilgan [1]. 1988-yil 30-dekabrdan boshlab O‘zbekiston Ministrlar Sovetining 465-sonli qaroriga asosan, Jizzax viloyati o‘lkashunoslik muzeyiga tasarrufiga o‘tkazilgan [2]. Muzeyning maydoni 200 kv metr bo‘lib, 2 qavatli bino, 6 ta xonadan iborat. Xuddi shu yili shoirning 80 yillik yubileyiga bag‘ishlab ushbu ekspozisiya ochishga erishildi.

Hamid Olimjonning o‘zi yashagan uyining o‘rniga g‘ishtdan qurilgan ikki qavatli binodir. Hamid Olimjon yodgorlik-tarixiy muzeyi fondida ham me’ros namunalari jamlangan. Bu yerda H.Olimjon faoliyati bahonasida o‘zbek xalqining ko‘p yillik yozma adabiyoti yodgorliklari va shu kabi madaniyat namunalarini birlashtiruvchi davlat fondi vujudga keltiriladi. Muzey zallarida o‘zbek mumtoz adabiyoti, XX asrning o‘rtalaridagi adabiy jarayoniga doir turli noyob xujjatlar, kitoblar, shaxsiy buyumlar, nodir fotosuratlar va kartinalash joylashgan. Zalning barcha xonalariga H.Olimjonning xayoti va ijodiga bag‘ishlangan esdaliklar, davlat xujjatlari va xalq topolmalari tartib raqamlari asosida qo‘yilgan. Otashnafas xalq shoiri H.Olimjonning yaratgan badiiy va ilmiy, publististik asarlari, shaxsiy kiyim va topilmalari alohida o‘rin olgan[3].

Muzeyning asosiy fondida 1522 ta eksponat mavjud bo‘lib, 67 ta xalq amaliy san’ati namunalari, 2 ta haykaltaroshlik, 6 ta numizmatika, 13 ta tasviriy san’at, 12 ta grafika, 547 ta suratlar, 45 ta hujjatlar, 33 ta maishiy etnografiya va boshqalar mavjud. Yordamchi fondda esa jami 411 ta eksponat mavjud. Ular 73 ta surat, 55 ta hujjat va boshqalar. Muzey ekspozitsiyasi quyidagicha: 4 qismga bo‘lingan. Ma’muriy xona, shoirning bolalik va o‘smirlik yillarini aks ettiruvchi xona, shoirning lirika xonasi, urush yillariga bag‘ishlangan xona, shoirning so‘nggi yillarini aks ettiruvchi xona va ikkinchi qavatdagi xona shoirning xayoti va ijodini abadiylashtirish maqsadida qilingan savobli ishlarni aks ettiruvchi xona.[4]

Shoirning bolalik va o‘smirlik yillarini aks ettiruvchi xona. Bu yerda XIX asr oxiri XX asr boshlarida tosh bosma usulida chop yetilgan kitoblar va o‘sha paytda aholi o‘rtasida munosabatda bo‘lgan veksel pullar va tangalar, “Yosh kuch” va “Uchqun oynoma”, ro‘znomalaridan namunalar, Hamid Olimjonning kursdoshlari orasida tushgan surati, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a'zolik guvohnomasi ham muzeyning qimmatli yeksponatidir. Shuningdek, H.Olimjonning ukasi Sarvar Azimov tasvirlashi orqali shoir yashagan dala hovli ko‘rinishini Gayvaronskiy tomonidan yasalgan maket shu xonada qo‘yilgan.[5]

Hamid Olimjon yashagan davrdagi uy-ro‘zg‘or buyumlari, chopon hamda baxshilar do‘mbirasi, O‘sha davrning yeng mashhur va taniqli shoir va yozuvchilari fotomantaji ham joy olgan.

Shoir nafaqat she'riyatda, balki u mohir tarjimon ham bo‘lgan. U asosan rus va ukrain yozuvchi va shoirlaridan Pushkin, M.Lermontov, N.Gogol, Shevchenko asarlarini tarjima qilgan. Muzeyda Pushkinning “Kavkaz asiri”, “Suv parisi”, Ostrovskiyning “Po‘lat qanday toblanadi” asarlari tarjimasi ham mavjud. 1935-yil 23-iyul kuni 26 yoshli ijodkor Toshkent shahrida O‘qchi mahallasida tug‘ilgan O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya Isroilova bilan turmush quradi. Ularning nikoh to‘g‘risidagi guvohnomasi, 1933-yil yessentukiy va Oqtoshdagi dam olishdagi suratlari joy olgan. Rassom A.Abdullaev tomonidan tasvirlangan H.Olimjon portreti muzeyning jonli ekspozisiyasidek ko‘rinadi. Ularning “Hamid Olimjon portreti” (A.Ikromjonov, 1989), “Hamid Olimjon va Zulfiya” (R. Viki, 1990), “Paxta terimi” (V.Kovin, 1970) asarlari taqdim etilgan[6].

Shoirning lirika xonasida Hamid Olimjonning poemalari bilan boyitilgan. “Oygul bilan Baxtiyor” asariga ishlangan sahnada o‘ynalgan qahramonlarining maketi, illyustratsiya va kartinalar ham aynan shu dostonga ishlangan. Hamid

Olimjonni mashhur asarlaridan biri “Zaynab va Omon” bo‘lib, bu poemani asosiy ma'nosi chin mehnat va sof muhabbat bilan farovon hayotga yerishgan o‘zbek ayoli obrazi aks ettirilgan. Bu asar keyinchalik sahnalashtirilib unda bosh rol Zaynab rolini xalq artisti Halima Nosirova, Omon rolini Sattor Yarashevlar o‘naydi. Shu asarga ishlangan sahna ko‘rinishi hamda asar sahnalashtirilgan suratlar ham shu xonada aks yettirilgan.

Sulaymon Nadjafovning “Buyuk Amir Temur” darvozasi, Alisher Navoiy tasviri tushirilgan gilam, Hofiz Sheroziy tasviri tushirilgan gilam Jizzax o‘lkashunoslik muzeyi fondi tomonidan muzeyga taqdim yetilgan. Rassom Isfandiyor Haydarov tomonidan ishlangan “Baxmalda oydin kecha” deb nom olgan asar ham ekspozitsiyani boyitgan. Hamid Olimjonning ustozi Sadriddin Ayniy surati tushirilgan gilam Tojikistonliklar tomonidan shoirning 80 yoshlik yubileyi munosabati bilan muzeyga taqdim qilingan.

Urush yillariga bag‘ishlangan xona. Shoirni 1941-1943-yillardagi hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. 1941-yilda tushgan surati ham ayni o‘sha davrdagi ishtiyoq va shijoatni ko‘rsatadi. Yozuvchilar Uyushmasidagi faoliyatini, A.Navoiy 500 yilligi munosabati bilan u yashagan davri va shoir ijodini o‘rganish bo‘yicha yig‘ilishlarni aks ettiruvchi suratlar, 1944-yil ushbu dioramma “Muqanna” dramasi asosida sahnalashtirilgan ko‘rinishlar, O‘zbekiston markaziy qo‘mitasida Usmon Yusupov hamda bir guruh san’atkorlar bilan birga tushgan fotosurati keyingi eksponatdir. Shoir 1943-yil dekabr oyida Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbek adabiyotining dekada ishtirokchilari orasida tushgan fotosurati navbatdagi ma’lumotdur.

Hamid Olimjon Jambulning hayoti va ijodini sevib o‘rgangan. Yana bir suratda atoqli shoirimiz rus shoiri Yakub Kolosning yubileyi munosabati bilan o‘tkazilgan adabiy kechada. 1942-yil Moskvada urush borayotganligi sababli bir qator yozuvchilar vaqtinchalik O‘zbekistonga ko‘chib kelib ijod qilishgan bu suratlar ayni o‘sha kunlardagi ijodiy uchrashuvlarda olingan. Navbatdagi suratda 1941-yil rus shoiri A.Fadayev bilan suhbat aks yetgan.

H. Olimjon hayoti va ijodining so‘nggi yillariga bag‘ishlangan xona. 1944-yil H. Olimjon hayotining so‘nggi paytlari onasi Komila aya bilan, oila a'zolari bilan birgalikda tushgan suratlari o‘rin olgan. Shoirlar yashagan Toshkentdagi uyni tashqi va ichki ko‘rinishi, shoir ijodxonasi, Hamid Olimjonning 10 tomlik tanlangan asarlaridan namunalar joy olgan. Alisher Navoiyning 525-yilligini nishonlash uchun o‘tkaziladigan kechaga bag‘ishlangan maqolalar va uni aksi tushirilgan chinni ko‘za ham yekspozisiyada namoyon. 1944-yil 3-iyulda Atoqli shoir Hamid Olimjon 35 yoshida avtomobil halokatida vafot yetadi. O‘zbek xalqi og‘ir judolikka uchraydi. Shoir vafotidan so‘ng uning nomini abadiylashtirish maqsadida ko‘chalarga, mahallalarga, xiyobonlarga nomini berish to‘g‘risida bir qancha qarorlar qabul qilindi. Haykal o‘rnatish to‘g‘risida qarorlardan namuna hamda mangulikka daxldor bo‘lgan Oqqo‘rg‘onda va Jarqo‘rg‘onda o‘rnatilgan haykallardan namunalar keltirilgan. H. Olimjon mukofoti lauretlari A. Eshonov, M.Jalil, E.Vohidovlar surati va yozgan asarlaridan namunalar mavjud. Yana bir suratda maktab o‘quvchilari shoirni xotirlash kechasida tushgan. Dioramada yodgorlik kiyimlari bo‘lib, u shoirning opasi Asolat Ikromova tomonidan muzeyga taqdim yetilgan. Shu davrdagi

Jizzax xokimi Sh. Mirziyoyevning 1999-yil 10-aprel 139 K-sonli qaroriga binoan o‘zbek xalqining atoqli shoiri H.Olimjon 90-yilligi munosabati bilan muzeyni ichki va tashqi qismi qayta ta’mirlandi[7].

Atoqli va iste’dodli adiblarimiz Hamid Olimjon va Zulfiyaning xotirasini abadiylashtirish yuzasidan olib boriladigan chora tadbirlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning bu ikki ulkan ijodkorni ibratli hayoti, bir-biriga bo‘lgan sevgi va sadoqati bugungi kunda kelajak avlod uchun ibrat manbai bo‘lishi maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-yanvardagi “Jizzax viloyatini ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi 19-sonli qarori asosida “Xo‘ja Nuriddin” madrasasida ta’mirlash ishlari olib borildi va “Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi” joylashtirildi va 2017-yil 3-noyabr kuni o‘z faoliyatini boshladi. U Jizzax viloyatida o‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk zamonaviy shoir Hamid Olimjon va uning rafiqasi, she’riyat malikasi Zulfiyaning yodgorlik muzeyi, bog‘i va yodgorliklarini barpo yetish g‘oyasini ilgari surganida ular yashab, ishlagan joyda[8].

Muzey ko‘rgazmasining g‘oyasi va mazmun-mohiyati O‘zbekiston Prezidentining “Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” asari asosida tashkil etilgan. [9]

Nuriddin hoji Ma’rufho‘jayev 1850-yil Jizzaxning “Toshkentlik” mahallasida tavallud topgan. U o‘zining bilimi, ma’rifatparvarligi bilan yel-yurt ye'tiborini qozongan insonlardan biri bo‘lgan.Nuriddin hoji Buxoro madrasasida qariyib 15 yil tahsil olib, Qur’oni karimni, islom dini falsafasi, musulmonchilikning huquqlari shariat qonunchiligi va dunyoviy fanlardan ham puxta bilim oladi. Arab fors tillarini mukammal biladi.

Nuriddin Ma’rufho‘jayev 50 yoshlarida musulmonchilikning muhim shartlaridan biri Makkayu Madinaga haj safariga boradi.1898-yil Nuriddin hoji o‘zining shaxsiy mablag‘i hisobiga qo‘li gul me'mor usta Ahmad Yunus Samarqandiy loyihasi va uning bevosita boshchiligida Jizzaxning Eski shahar mavzesida madrasa qurilishi boshlab yuboradi. Madrasaning qurilishini Mirzarahim hoji o‘zining humdonida pishirilgan g‘ishtlari bilan ta'minlaydi. Jizzax ahli baholi qudrat mablag‘ to‘plab usta-mardikorlarga haftalik oziq-ovqat bilan yordam ko‘rsatishadi.Madrasa eshik va derazalari Usta Olim bobo tomonidan tayyorlangan. Madrasaning qurilish ishlari 1902 yil bitkazilib ishga tushiriladi. Madrasa 1903-yildan 1913-yilgacha davlat muhofazasiga olingan. Bo‘lim faoliyati yanada jonlantirilib Xamid Olimjon va Zulfiya xayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan yangidan-yangi yeksponatlar bilan boyitildi. Umumiy yeksponatlar soni – 2147 ta bo‘lib, shulardan asosiy fondda – 1736 ta, yordamchi fondda-411 ta yeksponat mavjud[10]. Ekspozitsiya quyidagi 14 xujra bo‘limlardan iborat.

1-Hujra. Hamid Olimjon yashagan dala hovli ko‘rinishi bo‘lib, ukasi Sarvar Azimov aytib turgan, Gayvaronskiy tomonidan ishlangan maket, uy-ro‘zg‘or buyumlarining namunalari, mis oftoba, sandiqcha, chiroq, samovar, mis satil, mis ko‘za qo‘yilgan.

2- Hujra - Hamid Olimjonning onasi Komila ayaning kiyim va ro‘mollari va o‘qigan arab alifbosidagi kitob, lavx, H. Olimjonning kelini Rioyaxon tomonidan

muzeyga taqdim qilingan dutor va rassom Rahmatullaev tomonidan Xamid Olimjonning bolaligi tasvirlangan surat ilingan.

3-Xujra. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi toshbosma usulida chop etilgan kitoblardan namuna qo‘yilgan. XX asrga mansub bo‘lgan o‘sha davrda aholi o‘rtasida muomalada bo‘lgan veksil, pullar va tangalardan namunalar qo‘yilgan. Shuningdek, H. Olimjonning 70 yillik yubileyiga muxlislari tomonidan Zulfiyaxonimga sovg‘a qilib berilgan lagan, Hamid Olimjonning 1928 yilda 19 yoshida tushgan surati,Xamid Olimjonning 1928-yilda kursdoshlari bilan Leningradda tushgan surati, Hamid Olimjon do‘stlari Oydin, Uyg‘un Hasan Po‘latlar bilan tushgan suratlari joy olgan. Zulfiyaxonim ishlatgan yozuv mashinkasi xujradan joy olgan.

4-Xujra. XX asrga mansublagan, H. Olimjon 1942-yil rus qalamkashlari Anna Axmatova, Tolstoy, G‘afur G‘ulom bilan tushgan surati o‘rin olgan. H. Olimjonning mashhur asarlaridan biri “Zaynab va Omon”poemasi bo‘lib, poemaning asosiy ma’nosi chin mehnat va sof muhabbat bilan farovon hayotga yerishgan o‘zbek ayoli obrazi aks yettirilgan. Shu poema uchun pratatit bo‘lib, Buxorodagi ilg‘or paxtakor Zaynab Omonovaning mehnat turmush tarzi asos qilib olinadi. Shoir Zaynab Omonovani 1933-yilda Moskva shahrida bo‘ladigan qishloq xo‘jalik qurultoyiga ketayotgan paytida uchratadi va u yashab mehnat qilayotgan Buxorodagi Akmalobod rayoniga borib material to‘playdi va shu asosida 1938-yil “Zaynab va Omon”poemasi yaratiladi. Bu asar keyinchalik saxnalashtirilgan bo‘lib, Zaynab rolini O‘zbekiston xalq artisti Halima Nosirova, Omon rolini Sattor Yarashevlar ijro yetgan. Shoirning 10 tomlik tanlangan asarlaridan namunalar, Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida katta ilmiy xodim bo‘lib ishlaganligini tasdiqlovchi guvohnomasi, Fanlar akademiyasiga azo bo‘lganligi haqidagi guvohnoma, XIX asrga mansub bo‘lgan so‘zana va kulolchilik buyumlari, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi ilmiy sekretari Sheglovga H.Olimjonning o‘qiydigan ma'ruzasini 1944 yil yanvar oyining oxiriga yetkazilishi haqidagi xati, G.Brimm tomonidan yasalgan “Zaynab va Omon” spektaklining maketi mavjud.

5-Xujra. H. Olimjon Fanlar Akademiyasida 1944 yil. H. Olimjon Toshkent viloyatida paxtakorlar bilan o‘tkazilgan yig‘ilishidagi nutq so‘zlayotgan payti tasviri, 1939-yil Boqiy domla bilan H.Olimjon A. Navoiyni 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko‘rgan paytida tushgan suratlar, Hamid Olimjonni “Muqanna” asariga ishlangan sahna ko‘rinishi aks yettirilgan suratlar qo‘yilgan.

6-Xujra. H. Olimjonning 1941-1943 yillarga bag‘ishlanadi. 1943-yil H. Olimjon front brigadasi a’zolari Usmon Yusupov boshqalar bilan tushgan surati o‘rin olgan. Urush yillarida ishlatilgan chiroq va askarlar bosh kiyimi, potefonda musiqa tinglangan. 1943-yil 7-dekabrda Moskvada bo‘lib o‘tgan yozuvchilarning adabiy kechasidan senariysi, 1941-1943 yillarda yozilgan asarlaridan namunalar. “Muqanna”, “Jangchi Tursun”, “O‘lim yovga”, “Qo‘lingga qurol ol” asarlari mavjud.

7-Xujra. Bu xujrada Hamid Olimjonni mashhur “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘”asarlariga ishlangan illyustratsiya va kartinalar o‘rin olgan. Rassom R.Xudaybergenov tomonidan chizilgan H.Olimjonning 35 yoshlik yigit timsolini aks yettirgan surat mavjud.

8-Hujra. H.Olimjonning kiygan kiyimi va ko‘ylagi opasi Asolat Ikromova tomonidan muzeyga sovg‘a qilingan. Hamid Olimjonning singillari Muhabbat, Sahobat va qizi Hulkar tushgan suratlari, 1970-yilda Sh.Axmetov tomonidan yasalgan Hamid Olimjon byusti, 2017-yilda haykaltarosh Bahrom Norboev tomonidan ishlangan Zulfiyaning byusti, H.Olimjon bilan Zulfiyaning turmush qurganligi haqidagi guvohnomasi qo‘yilgan.

9-xujra. H.Olimjon so‘nggi yillariga bag‘ishlangan. Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda Toshkent shahrida avtomobil halokatida 35 yoshida vafot etadi. H.Olimjon olamdan o‘tgandan so‘ng uning nomini abadiylashtirish yosh avlodga yetkazib berish maqsadida qarorlar qabul qilingan. Ko‘cha, mahalla va maktablarga nomini berish to‘g‘risida qarorlar qabul qilingan. Mana shu qarorlariga asoslanib, el e’zozida bo‘lgan baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjon hamisha O‘zbekistonliklar dilida mangu yashaydi. Haykal o‘rnatilishi to‘g‘risida qarorlar qabul qilingan. Hind adibasi Amirita Pritam bilan Zulfiyaxonim shoir qabrini ziyoratidagi suratlar, Jizzaxda H.Olimjonni yubileyi munosabati bilan haykal ochilishidagi surati, H.Olimjonning ukasi Sarvar Azimov hamda shoiramiz Zulfiya Isroilova H.Olimjoning haykali ochilishi marosimida tushgan surati. Ushbu H. Olimjon va Zulfiya haykali haykaltarosh To‘lagan Yorqulov tomonidan ishlangan xamda muzeyga taqdim yetilgan.

XX-asrga mansub bo‘lgan lagan va so‘zanalar,Armanistonning 20-yilligiga Hamid Olimjon taklif etilganligi to‘g‘risidagi ruxsatnoma. Hamid Olimjonning Quvasoydagi haykalining ochilish marosimidan ko‘rinish. H.Olimjonning 1990-yilda haykali ochilish marosimida Zulfiyaxonim shoir va yozuvchilar bilan birgalikda tushgan surati, Toshkent shaxridagi H.Olimjoning haykali ochilish marosimi, H.Olimjonning 80-yillik yubileyi Jizzaxda Y.Rajabiy teatrida o‘tkazilgan tadbirdan lavha qo‘yilgan.

10-xujra. Zulfiyaxonimning farzandlari bilan tushgan suratlari, shoiraning she’riy kitoblaridan namunalar qo‘yilgan. Xujrada Zulfiyaxonim hamkasblari bilan tushgan surati, Zulfiya Osiyo va Afrika yozuvchilar bilan tushgan surati o‘rin olgan.

11-Hujra. XIX- asrga mansub ko‘za, mis oftobalar. Zulfiyaning qo‘lyozmalari namunalar qo‘yilgan. Rassom Mirzaev qalamiga mansub Zulfiyaxonim kartinasi, Zulfiyaxonim aksi tushirilgan chinni vaza muxlislar tomonidan taqdim yetilgan. Shoiraning kitoblaridan namunalar qo‘yilgan.

12-Hujra. XX-asrga mansub bo‘lgan mis oftoba, sopol lagan, Zulfiyaning “Chashma” she’riy qo‘lyozmalari plastinkasi o‘rin olgan. Zulfiya Isroilova she'riyat kechalarida, ijodiy safarlarda bo‘lganda estalik sovg‘alar bilan taqdirlangan. Shaxtyorlar tomonidan berilgan kaska va yoritgich. Minatyura uslubida chizilgan albom, yoritgich, kartmon, suvener, stol jamlamalari o‘rin olgan. Zulfiya Isroilova hayotida ishlatgan ko‘zoynak hamda ruchkalaridan namunalar, Ukraina, Balgariya, Qozog‘istondan berilgan orden va medallar, 1999-yil O‘zbekiston Respublikaning Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan Zulfiyaxonim “Do‘stlik” ordeni ham shu hujradan joy olgan.

13-Hujra. Metallurglar tomonidan taqdim yetilgan bola haykalchasi, hindistonliklar tomonidan Zulfiyaga sovg‘a qilingan ko‘zoynak g‘ilofi, sopol lagan Afrika va Osiyo yozuvchilari VII konferensiyasining ramzi tushirilgan. Rassom

Mirzaev qalamiga mansub bo‘lgan Zulfiyaxonim portreti 1998-yil. Zulfiyaxonim ijodiy safarlar paytida ikki marta mehnat qahramoni usta paxtakor Hamroqul Nosirov va uning o‘g‘li Sindor Hamroqulovlar bilan tushgan suratlari bor.

14-Hujra. Zulfiyaxonim aksi tushirilgan chinni vaza Toshkent Angren chinni zavod xodimlari tomonidan 60 yillik yubileyiga taqdim etilgan. Zulfiyaxonim aksi tushirilgan chinni vaza, Zulfiyaxonim portreti, Zulfiyaxonimning 60-yillik yubileyi yubileydan namunalar qo‘yilgan. Zulfiyaxonim qo‘lyozmalari, Boshqird shoiri Mustay Karim tomonidan Zulfiyaxonimga berilgan asal bochka, shoiramizning she'riy kitoblaridan namunalar qo‘yilgan. Ushbu Zulfiyaxonim aksi tushirilgan mis barkash Samarqandlik muhlisi misgar Suyun Karimov tomonidan sovg‘a qilib berilgan. Zulfiyaxonimning so‘nggi yillariga bag‘ishlangan. Zulfiya Isroilova 1996-yil 1-avgustda 81 yoshida vafot yetgan. U O‘zbekiston xalq shoirasi 1965-yil, Javoharla'l Neru 1968-yil, Xamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti 1970-yil, Xalqaro Nilufar mukofoti 197-yil. Shuningdek 1977-yil Bolgariyaning “Kirill va Mefodiy” ordeni sohibasi. Shoiralar ichida birinchi Mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan 1984-yil. Vafotidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev tomonidan 14 yoshdan 30 yoshgacha- bo‘lgan iqtidorli ijodkor xotin-qizlar uchun Zulfiya mukofoti ta'sis yetilgan. Zulfiyaxonim mukofotiga sazovor bo‘lgan qizlarni surati o‘rin olgan. Jizzax shahrida ham iqtidorli ijodkor qizlarimiz Zulfiya mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Bulardan Sayyora Murodova, Dilfuza Rajabova, Shohida Mo‘minova, Shohida Mirzaeva, Nasiba To‘ychieva, Mohigul Raimqulovalarni aytishimiz mumkin. 2008-yil Toshkent shahrida Zulfiyaxonim haykali o‘rnatilgan.

Mustaqillik yillarida xalqimizning o‘tmishini o‘rganish uning insoniyat tarixidagi rolini yoritish, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda voqye'liklarni obyektiv baholash imkoni tug‘ildi. Bu esa zamon talablariga g‘oyaviy, ilmiy va badiiy jihatdan javob beruvchi yangi ekspozisiyani yaratish zarurligini anglatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1.Ўз МА. Р - 2487-жамғарма, 3-рўйхат, 5146 -иш, 111-варақ.
2.ЎзМА. М - 7-жамғарма, 1-рўйхат, 276-иш, 2-варақ;
3.ЎзМА. М - 7-жамғарма, 1-рўйхат, 428-иш, 28-варақ.
4.ЎзМА. М -7-жамғарма, 1-рўйхат, 540-иш, 117-варақ.
5.ЎзМА. М - 7-жамғарма, 1-рўйхат, 540-иш, 118-варақ.
6.Исмалова Ж., Левтеева Л. Музеи Узбекистана. –Т.: «Очун», 2020. – С. 135
7.ЎзМА. М - 7-жамғарма, 1-рўйхат, 964-иш, 13-варақ.
8.Филкеньштейн И. Инновационный потенциал мемориальных музеев для развития туристической индустрии Узбекистан. : Диссетация на соискание доктора философии (PhD) по историческим наукам. – Тошкент, 2024. – С. 28
9.Исмалова Ж., Левтеева Л. Музеи Узбекистана. –Т.: «Очун», 2020. – С. 135
10.Ахмеджонов Н. Жиззах вилояти музейлари фаолиятидан.//Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар.Республика илмий – амалий конференция материаллари. 14 китоб. – Т.: «Lesson press”, 2022.- Б.83

OLIMOVA D. A.
Buxoro davlat universiteti
II bosqich magistranti
Dilsoraolimova4@gmail.com

SIYOVUSH QO‘RG‘ONINING MUZEYGA AYLANTIRILISHI

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Buxoroda miloddan avvalgi 1 - asrda qurilgan ko‘hna Ark qal’asining asrlar davomida ulug‘vor hisor sifatida shakllanganligi hamda hozirgi kunda viloyat muzey qo‘riqxonasi sifatidagi faoliyati yoritib o‘tilgan. Shuningdek, afsonaviy Ark bunyodkori Siyovush shaxsiyati qisqacha tavsiflangan.*

Kalit so‘zlar: *Ark, Narshaxiy, Siyovush, Arslonxon , muzey , eksponat , YUNESKO , o‘lkashunoslik muzeyi.*

Аннотация*: В данной научной статье рассматривается формирование древней крепости Арк в Бухаре, построенной в I веке до нашей эры, как величественной крепости на протяжении веков и ее современная функция как регионального музея-заповедника. Также кратко описывается личность Сиёвуша, легендарного создателя Ковчега.*

Ключевые слова: *Арк, Наршахи, Сиёвуш, Арсланхан, музей, экспонат, ЮНЕСКО, краеведческий музей.*

Abstract: *This scientific article describes the formation of the ancient Ark fortress in Bukhara, built in the 1st century BC, as a magnificent fortress over the centuries and its current activity as a regional museum-reserve. Also, the personality of the legendary Ark builder Siyovush is briefly described.*

Keywords*: Ark, Narshahi, Siyovush, Arslonkhan, museum, exhibit, UNESCO, museum of local lore.*

Kirish. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng milliy tariximizni o‘rganish doimo dolzarblik kasb etib kelgan va bu doimo rahbarlarimiz e’tibori va etirofida bo‘lib kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1998- yilda bir guruh tarixchilar bilan bo‘lgan uchrashuvda mamlakatimizning real tarixini o‘rganish va uning haqqoniy versiyasini xalqqa taqdim qilish vazifasini yuklaydi.

Ark — O‘rta Osiyo ko‘hna shaharlaridagi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal’aband o‘rda. Yozma tarixiy manbalarda ko‘handiz, diz, koh, qasr, qal’a, hisor nomlari bilan ham tilga olinadi. Tabiiy baland tepa yoki maxsus yaratilgan baland do‘nglik ustiga qurilib, atrofi baland devor bilan o‘ralgan, bir yoki ikki darvozasi bo‘lgan. U g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan qiyshiq to‘rtburchak shakliga ega. U zamonaviy shaharning g‘arbiy qismi o‘rtasida joylashgan. Devorlar aylanasiga uzunligi 789,6 metr, maydoni 3,96 gektar. Maydon sathidan balandligi 16-20 metrni tashkil etadi. Arkka ikki ustunsimon shaklda qurilgan minoralar orasidan kiriladi. Darvozalariga yo‘lak tepaga qarab yuksalib boradigan pandus (nishab maydoncha) shaklida qurilgan . Arkning tik qiyaliklari qadimgi davrlarda katta paxsa bloklari bilan qoplangan, keyinchalik ular loy bilan qoplangan, poydevor va fasad minoralari

esa yuqori sifatli pishirilgan g'isht bilan qoplangan[1].

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Buxoro amirlarining qarorgohi bo‘lib kelgan Ark bir necha marta vayron bo‘lib, yana qaytadan tiklangan va hozirgi kunda o‘zining qarorgoh vazifasini muzeyga almashgan. Ushbu tadqiqot obyekti Ark muzeyidir.

Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolisiylik, tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, azaldan Buxoro hududi O‘rta Osiyo mintaqasida turli madaniyatlar kesishgan hudud sifatida alohida ahamiyatga ega ekanligini uning qadimiy qal’asining ne qadar muhimlik kasb etishidan bilib olishimiz mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ark haqidagi ilk ma’lumotlar Abu Bakr Narshaxiyning (899-960) “Buxoro tarixi” asarida uchraydi: Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyabotlari haqida to‘xtab, shunday deydi: Abul Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum»da aytishicha, Buxoro kuhandizining, ya’ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqea) sabab bo‘lgan: Siyovush ibn Kaykovus o‘z otasidan qochib Jayhun daryosidan o‘tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o‘z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o‘ziga vaqtincha berib qo‘yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o‘zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko‘proq vaqt o‘sha joyda turar edi. Kimlardir u bilan Afrosiyob o‘rtasida yomon gap yurgizdi va natijada Afrosiyob uni o‘ldirdi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishingda «Darvozayi Go‘riyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Ma’lum bo‘lishicha, Arkning sharqiy darvozasi buzilib ketgach, Siyovushning ramziy qabri Arkning g‘arbiy, ya’ni Registon darvozasiga yaqin joyga ko‘chirilgan. Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytadilar. Qo‘shiqchilar uni «otashparastlar yig‘isi» deydilar [2,15].

Buxoro afsonalarining yana biriga ko‘ra , Buxoroning birinchi aholisi, fors shahzodasi Siyovush qurgan Ark qal’asi o‘rnida qo‘nim topgan. Shahzoda Afrosiyob podshohining qizini qo‘lin so‘rash uchun kelganida, otasi yigitga bir shart qo‘yadi.Unga ko‘ra yigit bitta buqa terisidek o‘lchamli hududda istehkom o‘rnatishi, shundan so‘nggina to‘y bo‘lishi kerak edi. Aqlli yigit qo‘yilgan shartlardan kelib chiqib, qarorgoh tuzilishini o‘ylab topadi. U terini ingichka kesimlarga kesib, bir - biriga bog‘lab qo‘yadi va shu doirada saroyning kichikroq nusxasini quradi. Bu gaplar bo‘lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi. Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko‘ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba’zilari esa Afrosiyob bino qilgan deganlar.

Siyovush shaxsi va unga qilinadigan e’tibor hatto “amir ul muslimin” , ya’ni Buxoro amirlari tomonidan qo‘llab – quvvatlangan. Ular Siyovush shaxsini tarixiy muqaddasligini saqlab qolib , hatto unga “Siyovushi Vali” sifatida murojaat qilishgan. Ark dolonining sharqiy tomoni qator nishlar markazida boshqalar bilan

bir xil balandlikda bo'lib, u o'tkir kamar shaklidagi korpusga ega bo'lishi bilan farq qilgan .Tunda bu joyda hech kim uxlamagan yoki o'tirmagan, bu yerda moy chiroq, sham ehtirom bilan yondirilgan, chunki bu joy siyovushi valiga bag'ishlangan. Zardushtiylik qoldiqlarining yorqin namunasi Siyovush shaxsi, “vali” unvoni bilan buyuk musulmon avliyosi darajasiga ko‘tarilgan [3, 95]. Uning ramziy qabri faqat qabr emas balki “qadamjoy” – avliyo qadam qo‘ygan joy sifatida ilohiylashtirilgan. Arkning kirish eshigidagi bu shamlarga , mullalardan tashqari barcha oddiy xalq vakillari qisqa ibodat uchun to‘xtab o‘tishgan. Amirlar esa bunga xayrixohlik qilishganini esa zardushtiylik salqiti Siyovush shaxsi orqali mashhur navro'z bayramini mullalar hujumidan himoya qilgan bo'lishi ham mumkin , deya baholashimiz lozim.

Oradan ancha vaqt o‘tib bu ark qo‘rg‘oni buzilib ketib, ko‘p yillar vayronligicha qolgan. Keyinchalik Tag‘shodaning otasi bo‘lgan Bidun Buxorxudot taxtga o‘tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va o‘z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o‘rnattirdi. Shu xat bitilgan temir tarjimonning zamonigacha o‘sha qasr eshigida mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja’far va Abu-l-Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketdi, qaytadan binoqilgan edi, yana buzildi. U necha marta bino qilmasin yana vayron bo‘laverdi. Hukamolarni yig‘ib ulardan maslahat so‘radilar. Ular bu qasrni osmondagi yetti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar; shu shaklda (qurilgandan keyin) qasr buzilmadi. Yana bir ajoyibi shuki, bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag‘lubiyatga uchragan emas, aksincha hamisha g‘alaba qozongan. Yana bir ajoyibi, bu qasrni bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida — biror podshoh ham uning ichida o‘lmagan; podshohning ajali yetgan vaqtda biror sabab yuz berib u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan —bu qasr bino qilinganidan to vayron bo‘lgunicha shunday bo‘lib kelgan.

Arkning ikkita darvozasi bo‘lgan, biri sharq tomonda, biri g‘arb tomonda; sharq tomondagisini «Dari g‘uriyon», g‘arb tomondagisini «Dari Registon» deydilar, tarjimonning davrida keyingisini «Dari alaffurushon» deb ataganlar. Hisorning o‘rtasida bu darvozadan to u darvozagacha to‘g‘ri yo‘l bo‘lgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turar joylari bo‘lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda bo‘lgan. Haram saroyi va xazina ham shu hisorda bo‘lgan. Tarjimonning davrida bu hisor buzilib ketgan. Bundan bir necha asr ilgari Arslonxon uni yangilashga buyurgan va o‘ziga turarjoy qilib olgan hamda hisorni ma’lum shartlarga muvofiq idora qilib tursin uchun, ulug‘ bir amirni qutvol qilib tayinlagan. Bu hisor, ya’ni Ark xalq ko‘zida zo‘r e’tiborga ega bo‘lgan.

Ark 1920-yilga qadar o‘zining hukmdorlar qarorgohi vazifasini bajarib keldi, ammo sovet hokimyatining Buxoroda o‘rnatilishi bilan ushbu vazifasini to‘xtatdi. Qal'aning Sharqiy qismi monarxiyaga qarshi to'ntarish paytida vayron qilingan va to‘rtdan uch qismi buzib tashlangan.

Hozirgi vaqtda u arxeologik qo'riqxonadir. Uning hududida inshootlar saqlanib qolgan. Buxorodagi asori – antiqalar va qimmatbaho ashyolarni saqlash va muhofaza etish maqsadida Buxoro shahar sovetining 1940-yil 4-iyuldagi yig‘ilishida1927-yil 22-iyunda tashkil etilgan muzeyni Ko‘kaldosh madrasasidan Arkka ko‘chirish, arkda joylashgan tashkilotlarni esa ikki oy ichida Ko‘kaldosh madrasasiga ko‘chirish masalasi ko‘rilib, tegishli qaror qabul qilindi. Viloyat ijroiya komiteti Xalq ta’limiga 1-avgustgacha arkni remont qilib berish va muzeyni ko‘chirish uchun zarur bo‘lgan transport vositalari bilan ta’minlash vazifasini yuklaydi. Ark atrofini qisman ta’mirlash Uzkomstarisga, ashyolarni ko‘chirish paytida va tungi vaqtlarda ark binosida nazoratni kuchaytirish viloyat ichki ishlar bo‘limiga topshiriladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, urush bo‘lishiga qaramasdan viloyat ijroiya komiteti rahbari va viloyat kompartiya rahbarining buyrug‘i bilan arkda yangi o‘lkashunoslik muzeyini tashkil etish ishlariga kirishiladi. Muzeyni ochish ishlari 1941-yil 7-oktabr sanasida, inqilobning 24 yilligi munosabati bilan tashkil etish rejalashtirilgan. Arkda uchta bo‘lim: tarix, sotsialistik qurilish va tabiat bo‘limlari tashkil etiladi. Arkdagi jome masjidida ateizm muzeyini tashkil etish rejalashtiriladi va muzey uchun Moskvadan 3500 rublga diniy eksponatlar sotib olinadi. Hatto o‘lkashunoslik muzeyi ishiga yordam berish uchun to‘rtta mutaxassis ham yuboriladi. Arkda 1-may sanasida mahalliy sanoat mavzusida birinchi ko‘rgazma tashkil etiladi2. 1947-yildan Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi o‘z faoliyatini arkda davom ettiradi [3, 49-50].

U quyidagicha tuzilgan: -"Ark" qurilishi va foydalanilish tarixi; -"Ark" hovlilari (Dolon- usti berk yo‘lak, Obxona, Regxona va boshqa xonalar). -"Jome" masjidi tarixi va „XVIII- XX asr boshi qo‘lyozma yodgorliklar ko‘rgazmasi. -“Taxt" hovlisi – „Marosimxona“. -"Salomxona", Chorsu hovlilari. -"Tarix" bo‘limi „Buxoro vohasining qadimgi va o‘rta asrlar tarixi“ ekspozitsiyalari. "Numizmatika va epigrafika" bo‘limi ekspozitsiyasi. -"Otxona" hovlisi va „Nog‘oraxona“. -"XIX asr oxiri- XX asr boshi saroy ot anjomlari va harbiylar jihozlari" ko‘rgazmasi. -Qushbegi hovlisi. „Tabiat“ va "Arxeologiya „ bo‘limlari ekspozitsiyalari. -“Buxoroning qayta tiklangan durdonalari" ko‘rgazmasi (2014 y.).

Mustaqillik yillarida Arkda bir qancha o‘zgarishlar qilindi.1993 - yilda YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan . 1997 – yilda Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan esa bir qancha ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 10-11-mart kunlari Buxoroga tashrifi chog‘ida Ark qo‘rg‘oni majmuasida viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi taqdimoti bilan tanishgan edi. Unda yangidan barpo etiladigan Buxoro tarixi davlat muzeyi loyihasi ham namoyish etildi. 1,2 gektar maydonni o‘z ichiga oladigan yangi muzey qurilishiga budjet mablag‘lari hisobidan 68,3 milliard so‘m sarflanishi mo‘ljallanmoqda. Muzey ishga tushirilganidan so‘ng, Ark qo‘rg‘onida saqlanayotgan noyob eksponatlar mazkur muzeyga ko‘chiriladi1. Mazkur sa’yi -harakatlar esa o‘z navbatida Ark qo‘rg‘onini asl ko‘rinishini saqlash va uni tiklash ishlarini jadallashtirilishidan darak beradi.

Muzey eksponatlari yildan yilga oshib bormoqda. Muzeydagi umumiy eksponatlar soni 125 000 ta bo'lib, 131 asosiy eksponatlar tarix, tangashunoslik va

epigrafika, arxeologiya, tabiat, hozirgi zamon tarixi va etnografiyasi bo'limlarida o'rin olgan. Muassasa so'nggi yillarda qator tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, Italiyaning Masalienza universiteti bilan hamkorlikda Arxeologiya bo'limi bo‘limi ochilganligi, AQShning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda 50 ming dollarlik grant asosida 732 ta arxeologik buyumlar restovrasiya etilganligi diqqatga sazovordir. Arab yozuvidagi 6000 ta qo'lyozma va toshbosma nodir asarlar o'z tadqiqotchilariga muntazir.

Muzeyning arxeologiya fondida 13 000, numizmatika fondida 30 000, qimmatbaho jihozlar fondida 1600, kartinalar fondida 1000, gilamlar fondida 120, yogoch o'ymakorligida 2000, marmar, chinni, sopol fondida 2000, badiiy metall va mis o'ymakorligida 4000 hamda qurol-yarog'lar fondida 100 dan oshiq ashyoviy materiallar saqlanmoqda. Ekspoziyalar soni yildan- yilga ortib bormoqda. Ark muzeyining o'zida 20 ta ko'rgazma zali mavjud.

Xulosa. Bir zamonlar Siyovush tomonidan barpo etilgan bu qo‘rg‘on hozirgi kunda Fransiyaning Luvr, Rossiyaning Davlat ermitaji hamda Xitoyning “G‘arbiy Sian bozori” muzeylari bilan hamkorlik olib borayotgan, yiliga 3000 ga yaqin sayyohlar e’tiborini jalb etgan muzey qo‘riqxona sifatida obro‘si oshib bormoqda. Bundan tashqari, ushbu innovatsion texnologiyalar davrida Ark viloyat o‘lkashunoslik muzeyida ham audiogid tizimi hamda 3D “Virtual muzey” dasturi joriy etildi. Bu haqida Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi direktori Abdurashid Zikrillayev ma’lumot berib o‘tadi. Ushbu audiogid muzeyga tashrif buyuruvchilarga o‘zbek , rus va ingliz tilda muzey eksponatlari haqida ma’lumot beradi [5]. Bunday amaliy o‘zgarishlardan so‘ng, moziy mayog‘i sifatida savlat to‘kib turgan ushbu Siyovush qo‘rg‘oni hali bir necha asrlar davomida o‘z salobatini yo‘qotmay sayyohlar va tashrif buyuruvchilar e’tibor markazida bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Наршахий. Бухоро тарихи. –Т.: Фан, 1966.Б - 15
3. М.С.Андреев О.Д.Чехович. Арк Бухари. – Душанбе. ”Дониш", 1972. Б - 95.
4. O.A. KLICHEV A.H. BOLTAYEV.BUXORO MUZEYSHUNOSLIGI VA ARXIVSHUNOSLIGI. - Buxoro.“Durdona”, 2021.B - 49-50.
5. https://www.xabar.uz/

ISMAILOV Alisher Fayziyevich,
O‘z R FA, O‘TDM Ilmiy kotibi
Tarix fanlari doktori (DSc), professor.

O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASIDA ILMIY KADRLAR TAYYORLASH FAOLIYATI

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida kadrlar tayyorlash masalasiga alohida to‘xtab o‘tilgan. Unda kadrlarga munosabat, kadrlar tayyorlash mexanizmi, ijtimoiy-himoya qilish va qo‘llab quvvatlashga doir jarayonlar tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Fanlar akademiyasi, ijtimoiy himoyalash, printsiplar, mexanizm, yosh istiqbolli xodimlar, bir bosqichli tizim, ikki bosqichli tizim, dissertatsiyalar, aspirant va doktorantlar, ish haqi, ustama haq to‘lash, stajyor-tadqiqotchi.*

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida kadrlarni tayyorlash, ularning ijtimoiy himoyalanishini kuchaytirish, fanning tajriba bazasini rivojlantirish sohasida ancha muammolar bor bo‘lgan. Ana shularning jami reopublikada ilmiy-texnikaviy siyosatini, Akademiya ilmiy muassasalarining, uning Prezidiumining faoliyatini tashkil qilish printsiplarini, hozirgi sharoitda ilmiy tadqiqotlarni boshqarish, rejalashtirish, mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini shakllantirish asoslarining o‘zini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelgan[1].

Fanlar Akademiyasi tizimida yuqori malakali kadrlarning muhim segmentining «oqishi» va ko‘p yillar davomida yaratilgan eksperimental ishlab chiqarish bazasining yo‘q qilinishi tendentsiyalari mavjud edi. Ilmiy-tadqiqot kadrlarini tayyorlash va ularni ijtimoiy himoya qilish sohasida muammolar majmuasi paydo bo‘ldi. Yuzaga kelgan vaziyat olimlarning kasbiy rivojlanishi va ma’naviy yuksalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu va boshqa bir qator sabablar tufayli ilmiy xodimlarning fandan va birinchi navbatda yosh istiqbolli xodimlarning chiqib ketishi kuzatildi. Shunday qilib, faqat 1991-yilda Fanlar Akademiyasining xodimlari jami 1130 kishiga kamaydi, ulardan 378 nafari ilmiy-tadqiqot muassasalari va 752 loyihalash tashkilotlari xodimlari bo‘lgan. Shunday qilib, Fanlar Akademiyasi faoliyatini shakllantirishning avvalgi keng tamoyillari yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarda mutlaq samarasizligini namoyish etdi.

1990-yildan 1994-yilgacha Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan mavzularning umumiy soni 539 tadan 619 taga ko‘paygan. Fundamental yoki amaliy tadqiqotlarning har bir ilmiy mavzusi bo‘yicha o‘rtacha 6 ta tadqiqotchi ish olib borgan. Ilm-fan va ishlab chiqarish mamlakatdagi o‘zaro ta’sirning nomukammal mexanizmlari tufayli olimlarning tadqiqotlari

natijalarini, ular tomonidan yaratilgan ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish keng miqyosga ega bo‘lmagan. Natijada fan va ishlab chiqarish o‘rtasida bo‘shliq paydo bo‘lgan. Shunday qilib, ilmiy-texnik siyosatni shakllantirishning asosiy tamoyillarini, shuningdek, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Prezidiumi va ilmiy-tadqiqot institutlarining tashkiliy tamoyillarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladigan bir qator muhim muammolar mavjud edi[2].

1992-yil 1-mayda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yillik umumiy yig‘ilishida[3] (Fanlar Akademiyasi Prezidenti M. S. Salaxitdinov rais) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, Vazirlar Mahkamasiga nisbatan bir qator muhim masalalarni hal etishda ularning samaradorligi yo‘qligi tanqid qilingan. Fanlar Akademiyasining takliflarini tasdiqlash jarayoni eski stereotiplar doirasida davom etayotganligi ta’kidlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fan va texnika sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi Beruniy Davlat mukofotini berish to‘g‘risidagi Farmonining chiqarilishi kechiktirilgan va Tibbiyot fanlari akademiyasini tashkil etish masalasi hali hal qilinmagan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Rayosatining 50 yilligini respublika Prezidentining topshirig‘iga muvofiq o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari ham Prezident xodimlarining e'tibor doirasidan chetda qolayotganligiga alohida ta’killangan.

Bundan tashqari bu davrda Fanlar akademiyasi oldida turgan bir qancha muammolar mavjud edi.

Jumladan, respublikaning bozor munosabatlariga kirib borishi bilan birga iqtisodiy tanazzul va moliyaviy defitsit hodisalari fanni qiyin ahvolga solib qo‘ygan. Shu bilan birga, respublika hukumati fan muammolarini hal qilishga hissa qo‘shadigan yagona qaror qabul qilmagan. Bunga esa Ukraina Fanlar Akademiyasining barcha turdagi soliqlardan ozod qilish to‘g‘risida chiqarilgan farmon misol tariqasida ta’kidlab o‘tildi.

Ilm-fanni rivojlantirish uchun davlat byudjetidan ajratmalar miqdori o‘zgarishsiz qolayotganligi ham aytib o‘tilgan.

Fanlar Akademiyasining valyuta fondidan bir dollar ham ajratilmagan. Chet el valyutasining yetishmasligi tufayli genetik injineriya, genetika, biokimyo, mikrobiologiya, biotexnologiya, fiziologiya va biofizika sohasidagi tadqiqotlar to‘xtatilgan. Bunday vaziyatda keyingi yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, sanoat va texnika taraqqiyotini ta’minlaydigan fanning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash va imtiyozli rivojlantirish eng muhim vazifa bo‘lgan.

Fanlar Akademiyasining byudjetini tasdiqlashda ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqot olib boradigan jamoalarga biroz ustunlik berish kerak deyilgan. Xulosa qilib aytganda, respublika rahbariyati fanni inqiroz holatidan chiqaradigan mustaqil davlatga munosib yechim topishiga umid bildirilgan.

Kadrlar siyosatiga katta ahamiyat berib, Fanlar Akademiyasida kadrlar tanlash va tayyorlash bo‘yicha milliy tizim yaratishni taklif qilingan. Bundan tashqari kadrlarni tarbiyalash va asrab-avaylash, olimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Markaziy Osiyo, Qozog‘iston va Ozarboyjon Respublikalari Fanlar akademiyalari Prezidentlarining uchrashuvida[5] ham ilmiy xodimlarni sertifikatlash va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash haqida alohida ta’kidlangan.

1991-yilda respublikalarimizda, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Ozarbayjon respublikalarida fanning real yo‘nalishlari bo‘yicha mintaqaviy ilmiy kengashlar mavjud, ixtisoslashgan Kengashlarda bu respublikalardan kelgan olimlar hech qanday to‘siqsiz o‘z dissertatsiyalarini himoya qilishgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi va ilmiy muassasalari 1998-yilda iqtidorli yoshlarni aspirantura va doktoranturaga jalb qilish bo‘yicha amalga oshirgan ishlar quyidagilardan iborat bo‘lgan[6]. 1998-yilda aspiranturalarga jami 202 (176 kunduzgi, 32 sirtqi) qabul qilinishi mo‘ljallangan edi. Aspiranturaga hammasi bo‘lib 227 nomzoddan ariza tushgan. «Xalq so‘zi» gazetasi orqali yoshlarni akademiya tizimidagi aspirantura va doktoranturalariga qabul qilish haqida umumiy e'lon berilgan. Ilmiy muassasalarning tajribali olimlari va mutaxassislari iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularning akademiya ilmiy muassasalari aspiranturalariga jalb qilish maqsadida oliy o‘quv yurtlariga targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borishlari uchun safarlarga yuborildi.

O‘tkazilgan imtihonlardan so‘ng 204 nafar nomzod aspiranturaga (176 kunduzgi va 28 sirtqi) qabul qilindi. (1997 yilda jami 219 kishi. Jumladan 181 kishi kunduzgi va 38 kishi sirtqi bo‘limlarga qabul qilingan.). Aspirantura qabul rejasi 98%, kunduzgisi 103,5 foizga bajarildi.

«Kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dastur»ni bajara borib, oliy malakali ilmiy kadrlarga bo‘lgan joylardagi talabni qondirish maqsadida 1998-yilda O‘zR FA ilmiy muassasalari aspirantura va doktoranturalariga viloyat universitetlari, institutlari, maktablari va kollejlaridan iqtidorli o‘qituvchilar va mutaxassislarni jalb etashga jiddiy e'tibor berildi. Ko‘rinib turibdiki, O‘zR Fanlar akademiyasi bo‘yicha aspirantura va doktorantura qabul rejalari asosan bajarilgan. Ba’zi institutlar hatto ularni ortig‘i bilan bajarishga erishganlar, ammo ayrim ilmiy muassasalar o‘rnatilgan davlat qabul rejalarini bajarmadilar. Buning asosiy sababi ishlarning yetarlicha tashkil qilinmaganligi, yoshlar bilan ishlashga jiddiy e'tibor berilmaganligi, fidoiylik va jonkuyarlikning yetishmasligi va ba’zi institutlarda tadqiqotchilar maktabining ishlamayotganligi bo‘lgan.

Masalan, aspirantura qabul rejasini U.Orifov nomidagi Elektronika instituti - 25%, Zoologiya -20%, Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi -20%, Tuproqshunoslik va agrokimyo institutlari-25%,Samarqand bo‘limining Mintaqaviy muammolar kompleksi - 57%, S.Azimov nomidagi «Fizika-quyosh» va «Akademasbob» ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari 62,5% va 50%, Fiziologiya va biofizika hamda Endokrinologiya -66,6 foizga bajargan.

Hammasi bo‘lib, 1998 yilda akademiya bo‘yicha aspirantura umumiy qabul rejasi 4 o‘ringa, ixtisosliklar bo‘yicha esa 41 o‘ringa bajarilmagan.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ilmiy muassasalarda ijro intizomining bo‘shashib qolganligi sababli ba’zi ilmiy muassasalar O‘zR FA Prezidiumining aspirantura va doktorantura faoliyatlariga oid qarorlari, farmoyishlari hamda rahbariyatning alohida topshiriqlar o‘z vaqtida bajarmasdan kelingan.

Aspirant va doktorantlar haqida so‘ralgan zarur hujjatlar va hisobotlar sifatsiz va kechiktirilib yuborilgan.

Aspirant va doktorantlarning ta’limi va ilmiy rahbarlar ustidan nazorataning

sustligi sababli ayrim institutlarda aspirant va doktorantlar belgilangan muddatlarda himoya qilmayotirlar. Masalan, 1998 yilda akademiya bo‘yicha bitirgan 171 aspirantdan atigi 10 kishi yoki 5,8 % muddatida dissertatsiyasini himoya qilgan, 23 bitiruvchi doktorantdan esa bittasi ham himoya qilmagan.

2011-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy-tadqiqot va xo‘jalik tashkilotlarida jami 5 ming 731 kishi, shu jumladan 2 ming 347 nafar tadqiqotchi, ulardan 446 nafar fan doktori, 1 ming 026 nafar fan nomzodi faoliyat ko‘rsatgan. 99 akademikdan 35 kishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Fanlar Akademiyasi tizimida, shu jumladan 8 ayol ishlagan faoliyat yuritgan [7].

2012-yilda ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishning amaldagi ikki bosqichli tizimi (fan nomzodi va fan doktori) iqtisodiy rivojlangan demokratik mamlakatlarda qabul qilingan oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning zamonaviy, xalqaro tan olingan talablariga mos ravishda bir bosqichli tizimga o‘tildi[8].

2013-yil 1-iyun holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining to‘laqonli a’zolari shaxsiy tarkibida 83 nafar akademik bor edi. Ilmiy tadqiqotlar 5218 xodim tomonidan olib borildi, shundan 2072 tadqiqotchi, shu jumladan 370 fan doktori va 900 fan nomzodi. Akademiyada 200 dan ortiq fan doktori ilmiy darajasiga talabgor tayyorlanadi[9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 5 apreldagi PQ-3655-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fan va oliy ta’lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 20 iyuldagi PQ-3876-son qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qarori asosida akademiya olimlarning ish haqi 3 marotabadan ko‘proq miqdorda[10] akademiklarning gonorari esa 4 hissa oshirildi[11].

Respublikadagi ilmiy darajaga ega ilmiy xodimlarning maoshlariga 30 (Fan nomzodi va PhD) va 60 (Fan doktorlari) foizgacha ustama haq to‘lash mexanizmi joriy qilindi[12]. Qaror bilan, qo‘shimcha haq ushbu qarorga muvofiq tegishli mezonlarni bajarilishini baholash natijalari bo‘yicha hamda tarkibiy bo‘linma rahbarining ishchi komissiyaga taqdimnomasi va tashkilot kollegial organi qarori asosida har bir xodimning ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatiga qo‘shgan aniq hissasini hisobga olgan holda belgilanadi. Qaror bilan joriy etilayotgan qo‘shimcha oylik va bir martalik to‘lovlar miqdori bir oyda - falsafa doktori ilmiy darajasiga ega xodimlar uchun lavozim maoshining 30 foizidan hamda fan doktori ilmiy darajasiga ega xodimlar uchun lavozim maoshining 60 foizidan oshmasligi belgilab qo‘yildi.

Fanlar akademiyasi 2020-yildan boshlab byudjetdan bevosita moliyalashtirish tizimiga o‘tdi[13]. Yosh ilmiy xodimlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tizim ilmiy xodimlariga 2017-2020 yillar mobaynida 82 ta imtiyozli kredit asosida va 25 ta bepul xonadonlar ajratildi. 500 dan ortiq xodimlar oilalari bilan Toshkent shahriga doimiy ro‘yxatdan o‘tkazildi.

O‘tgan davr mobaynida Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda «El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali 150 ga yaqin yosh ilmiy xodimlar xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlarida tajriba orttirib, o‘zlashtirgan bilimlarini o‘z amaliyotlariga tadbiq etmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi xodimlarining 2016-2021 yillardagi miqdoriy ko‘rsatkichi[14] (1-jadval) aks etgan.

Fanlar akademiyasi doktorantlari respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etib, 2019-2021 yillarda 4 nafar tayanch doktorant «Prezident stipendiyasi» (Matematika, Zoologiya, Botanika institutlari), «Mard o‘g‘lon» (Matematika instituti) kabi hukumat mukofotlariga erishdilar[15].

Fanlar akademiyasining tashabbusi bilan 2020-yildan boshlab stajyor-tadqiqotchilik instituti qayta tiklandi va har yili 100 tadan ajratilgan o‘rinlarga tanlov asosida nomzodlar qabul qilinmoqda[16].

Ilmiy tashkilotda ilmiy rahbarlar stajyor-tadqiqotchilar har oyda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazganlik uchun mehnatga soatbay haq to‘lashning qonunchilikda belgilangan tartibida har bir stajyor-tadqiqotchi uchun bir yilda 75 soat hisobida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan «Fan» sohasiga ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini o‘qish muddati tamom bo‘lishidan oldin himoya qilganlarga, shuningdek ularning ilmiy rahbarlari va konsulьtantlariga muassasa rahbarining buyrug‘i bilan o‘qish muddatining qolgan davri (muddati) uchun nazarda tutilgan tegishlicha stipendiyaning hamda doktorant bilan olib borilgan ish uchun to‘lovning jami miqdori hajmida tegishli diplom taqdim etilgan kundan boshlab ko‘pi bilan 20 kun muddatda mukofot to‘lanadi.

Иқтибослар/ Сноски/References:

1. Ўз Р ФА МА 1-фонд, 1-рўйхат, 4769-йиғмажилд. 1-8-варақлар.

2. У. Абдурасулов, Ш. Асадова. Ўзбекистон Фанлар академияси мустақиллик йилларида: ривожланишнинг янги йўналишлари/O‘zbekiston tarixi (Илмий журнал). 4/2013. -Б.3-22

3. Ўз Р ФА МА 1-фонд, 1-рўйхат, 4769-йиғмажилд. 17-29-варақлар.

Значение музейной педагогики для формирования современного образовательного ландшафта Узбекистана невозможно переоценить. Музейная деятельность помогает не только сохранить и передать знания о прошлом, но и дает возможность учащимся развивать навыки, которые необходимы в современном мире: исследовательские, аналитические, коммуникативные и креативные. Участие в музейных программах способствует воспитанию будущих ученых, культурных деятелей и граждан, способных оценивать ценности своего народа в контексте глобальных процессов.

Для дальнейшего развития музеев и музейного образования в Узбекистане можно предложить несколько рекомендаций. Во-первых, необходимо продолжить развитие и внедрение новых технологий в музейную практику, включая виртуальные туры, интерактивные экспозиции и цифровые образовательные ресурсы. Во-вторых, важно усилить сотрудничество музеев с образовательными учреждениями, расширяя спектр образовательных программ и создавая условия для учеников и студентов более активно участвовать в музейных мероприятиях.

Кроме того, стоит укреплять международные связи в сфере музейного образования, что позволит обмениваться опытом и внедрять лучшие мировые практики в образовательный процесс. Музеи должны стать центрами не только культуры и науки, но и важными игроками в образовательном процессе, способствующими развитию гражданской и культурной идентичности молодого поколения.

В заключение, можно утверждать, что музейная педагогика в Узбекистане имеет огромный потенциал для развития и дальнейшего совершенствования. Ее роль в формировании образовательного ландшафта страны, а также в воспитании и образовании граждан, способных понимать и ценить свою историю и культуру, будет лишь возрастать в будущем.

Список использованной литературы :

1. Ахмедов, А. С. (2020). Музейная педагогика как средство формирования культурной идентичности молодежи. Ташкент: Издательство "Наука и

образование".
2. Кузьмина, Т. И. (2018). Теория и практика музейного образования. Москва: Просвещение.
3. Музаффарова, Р. С. (2019). Роль музеев в образовательной системе Узбекистана. Ташкент: Университет "Ташкентский институт культуры".
4. Федорова, Н. В. (2021). Интерактивные методы в музейном образовании: опыт и перспективы. Ташкент: Национальный центр по развитию музейного образования.
5. Султанова, Л. Ф. (2022). Цифровизация музейной педагогики: вызовы и возможности. Ташкент: Издательство "Шарк".

ҚУВВАТАЛИЕВ Убайдулла Бегимқулович
Термиз давлат университети тузилмасидаги
Қатағон қурбонлари хотираси музейи.

МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ЯНГИ САҲИФАСИ: БЎЛАТ СОЛИЕВ МЕРОСИГА НАЗАР

Аннотация:*Мазкур мақолада атоқли ўзбек олими Бўлат Солиевнинг илмий мероси музей педагогикаси нуқтаи назаридан таҳлил қилинади. Тадқиқотда Солиевнинг тарих, таълим, маданият ва маънавиятга оид қарашлари музейларнинг таълимий ва тарбиявий салоҳиятини оширишдаги аҳамияти очиб берилади. Мақолада Солиевнинг илмий манбаларга ёндашуви, жадид педагог сифатидаги фаолияти ва прогрессив ғоялари музей экспозицияларини яратиш ва музей педагогикаси дастурларини такомиллаштириш учун муҳим методологик асос бўлиши кўрсатиб ўтилган.*

Калит сўзлар:*Бўлат Солиев, музей педагогикаси, жадидчилик, таълим, маданият, маънавият, музей экспозицияси, илмий мерос, тарихшунослик.*

Abstract: *This article analyzes the scientific heritage of the prominent Uzbek scholar Bulat Saliev from the perspective of museum pedagogy. The study reveals the significance of Saliev's views on history, education, culture, and spirituality in enhancing the educational and upbringing potential of museums. The article highlights that Saliev's approach to scientific sources, his activity as a Jadid pedagogue, and his progressive ideas serve as an important methodological basis for creating museum exhibitions and improving museum pedagogy programs. The results of the research may provide useful information for museum staff and researchers, and contribute to strengthening the role of museums in society.*

Keywords: *Bulat Saliev, museum pedagogy, Jadidism, education, culture, spirituality, museum exhibition, scientific heritage, historiography.*

Аннотация: *В данной статье научное наследие выдающегося узбекского ученого Булата Салиева анализируется с точки зрения музейной педагогики. В исследовании раскрывается значение взглядов Салиева на*

историю, образование, культуру и духовность в повышении образовательного и воспитательного потенциала музеев. В статье отмечается, что подход Салиева к научным источникам, его деятельность как джадидского педагога и прогрессивные идеи являются важной методологической основой для создания музейных экспозиций и совершенствования программ музейной педагогики. Результаты исследования могут предоставить полезную информацию сотрудникам музеев и исследователям, а также способствовать укреплению роли музеев в обществе.

Ключевые слова: *Булат Салиев, музейная педагогика, джадидизм, образование, культура, духовность, музейная экспозиция, научное наследие, историография.*

Музей педагогикаси замонавий жамиятда фан, таълим ва маданият интеграциясини таъминловчи муҳим восита сифатида эътироф этилмоқда. Музейлар нафақат тарихий ва маданий меросни сақлаш маскани, балки таълим-тарбия ўчоғи, илмий билимларни оммалаштирувчи марказ сифатида ҳам намоён бўлмоқда [1;176]. Бу жараёнда музейларнинг таълимий ва тарбиявий салоҳиятини рўёбга чиқариш, уларнинг жамиятдаги ўрнини мустаҳкамлаш долзарб вазифа ҳисобланади.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон илм-фанининг таниқли арбоби, Ўрта Осиёда янги тарихшунослик илмий мактабининг асосчиларидан бири Бўлат Солиевнинг илмий меросини музей педагогикаси нуқтаи назаридан ўрганиш муҳим аҳамиятга эга[2; 6]. 1882-йилда Астрахан шаҳрида туғилган, Қозон ва Уфада мадраса таълимини олган, турли тилларни мукаммал ўзлаштирган Бўлат Солиев жадид сифатида Туркистоннинг кўпгина ҳудудларида маърифий фаолият олиб борган[3;6]. Гарчи Бўлат Солиевнинг илмий фаолияти бевосита музейшунослик соҳасига алоқадор бўлмаса-да, унинг асарларида таълим, маданият, маънавият ва тарихий меросга оид илғор ғоялар илгари сурилган.

Бўлат Солиев нафақат моҳир тарихчи, балки замонасининг илғор ўқитувчиси сифатида ҳам эътироф этилган. 1909-йилда Туркистонга келганидан сўнг, у Тошкент, Фарғона, Жалолобод каби шаҳарларда илм-маърифат тарқатишга киришади[4; 9]. У Тошкент ва Қўқон шаҳарларидаги мактабларда ҳисоб, тарих ва она тили фанларидан сабоқ берган. Қайд этиш жоизки, унинг ташаббуси билан Тошкент уезди Оққўрғон волости Ёглиқ қишлоғида ўша давр учун янги ҳисобланган усулда дарс берадиган мактаб барпо этилган.

Манбаларга кўра, Солиев дастлаб Оққўрғон волостида Сегизбой Отабоевнинг хонадонида истиқомат қилган ва Тошкентда педагогик фаолиятини бошлаган. Маълумки, ўша йилларда Туркистоннинг турли шаҳарларида татар зиёлилари томонидан янги типдаги мактаблар ташкил этилаётган эди. Ушбу жараённинг фаол иштирокчилари сифатида Бухорода Низомитдин Собитов, Фарғонада Шокир Мухтарий, Наманганда Абдулла Тўқмулин, Хивада Мухтор Бакир, Абдулла Беги Мустақоев ва Тошкентда Бўлат Солиевнинг номларини алоҳида таъкидлаш лозим[5; 198].

Аммо Бўлат Солиевнинг бу хайрли ишлари чор ҳукумати ва айрим консерватив маҳаллий аҳолининг қаршилигига дуч келади. Аввалига, улар

Солиевдан мактабни ёпишни талаб қилишган. Бироқ, Солиев бу талабларга бўйсунмай, ўз фаолиятини махфий равишда давом эттиради. Бунинг оқибатида, олим қисқа муддатга қамоққа олинади. Айрим мутаассиб диндорлар Солиевнинг ҳаракатлари ҳақида Тошкентга, Сирдарё вилояти полиция бошқармасига шикоят хати юборишади. Натижада, Солиев ўқитувчилик фаолияти учун Пскент волости пристави томонидан ҳибсга олиниб, беш кун давомида қамоқда сақланади.

Бўлат Солиевнинг қизи, раҳматли Фарида Пўлатовнанинг хотираларига кўра, ҳатто 1960-йилларда ҳам Оққўрғон туманидаги қишлоқларда Солиевни яхши билган кекса одамлар (унинг собиқ шогирдлари) бор эди. Улар Фарида аяга Бўлат Солиев уларга нафақат савод чиқаришни ўргатганини, балки уларнинг дунёқарашини кенгайтирганини ва унинг сабоқлари ниҳоятда қизиқарли бўлганини айтиб беришган[6; 211]. Бундан ташқари, Тошкентдаги ўқитувчилик фаолияти даврида Солиев Ўзбекистон ва Қозоғистон тарихида ўзининг давлат арбоби сифатидаги фаолияти билан ном қолдирган Султон Сегизбаев билан дўстлашади.

Хусусан, унинг 1920-1928 йилларда нашр этилган “Манғитлар салтанати даврида Ҳиндистон Англия зулми остида”, “Бухоро ўлкаси”, “Бухоро тарихи”, “Ўрта Осиёда савдо капитали даври”, “Ўрта Осиё тарихи XI-XV асрлар”, “Ўзбекистон тарихи”, “Ўзбекистон ва Тожикистон”, “Ўрта Осиёда исломнинг тарқалиши” каби асарлари ўз даврида катта аҳамиятга эга бўлган. Солиевнинг ёзиш услубидаги ўзига хослик, яъни бирор муаммони кўтаришда бошқа мавзулар орқали ўз фикрини моҳирлик билан ифодалаш, унинг асарларини ўрганишга янгича ёндашувни талаб этади. Масалан, олимнинг “Англия зулми остида Ҳиндистон ўлкаси” асарида Ҳиндистондаги Англия сиёсатини танқид остига олиш орқали Туркистондаги большевиклар сиёсатига ҳам ишора қилинган. Бу каби қарашлар музей экспозициялари учун янги мавзуларни очиб бериши, музейларнинг таълимий ва тарбиявий вазифаларини амалга оширишга янгича ёндашувларни таклиф этиши мумкин.

Бўлат Солиевнинг илмий меросида “Ўзбекистон тарихи” асари алоҳида ўрин тутади. 1929-йилда нашр этилган ушбу асар Ўзбекистон тарихшунослигида шу ном билан яратилган илк асарлардан бири бўлган. Олим ушбу китобни ёзишда турли манбаларга мурожаат қилган. Хусусан, Қўқон хонлиги тарихини ёритишда “Ансоб ус-Салотин” асаридан асосий манба сифатида фойдаланган. Шунингдек, Солиев ушбу асар ҳақида 1928-йилда “Аланга” журналида “Ансоб ус-салотин” номли мақола эълон қилган. Ушбу мақолада Қўқон хонлигининг сўнгги йиллардаги тарихи, Чор Россияси томонидан босиб олиниши ва мамлакатда содир бўлган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар ҳақида қимматли маълумотлар берилган[7; 22].

Бўлат Солиевнинг эътиборидан Ўзбекистон тарихининг аштархонийлар даври ҳам четда қолмаган. Унинг ушбу сулола давридаги сиёсий интригаларга бағишланган мақоласи сўнгги аштархоний ҳукмдорлар давридаги сиёсий-иқтисодий инқирозда хўжасаройларнинг (Эрондан келтирилган собиқ қуллар) ролини очиб беради. Солиевнинг фикрича, Субҳонқули хон даврида қабила бошлиқларининг ҳокимиятга таъсири

кучайганидан норози бўлган хон, уларни саройдан четлатиб, ўрнига эроний қулларни жалб қилган. Бу каби сиёсий ўзгаришлар ўша давр жамиятининг мураккаб тузилишини ва ҳокимият учун курашнинг турли шаклларини кўрсатади[8; 12].

Шундай қилиб, Бўлат Солиевнинг илмий мероси ўзбек тарихшунослиги ва педагогика фани учун бебаҳо хазинадир. Гарчи олимнинг фаолияти бевосита музейшунослик билан боғлиқ бўлмаса-да, унинг асарларида илгари сурилган ғоялар музейларнинг таълимий ва тарбиявий салоҳиятини оширишга хизмат қилиши мумкин.

Бўлат Солиевнинг тарихий манбаларга бўлган эътибори, таълимга оид прогрессив қарашлари, маданият ва маънавият масалаларига ёндашуви музей ходимлари учун муҳим методологик асос бўлиши мумкин. Унинг ҳаёти ва фаолияти музей экспозициялари учун янги мавзуларни очиб беради, музей педагогикаси дастурларини такомиллаштиришга ёрдам беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Исмаилова Ж.Х., Нишанова К.С., Мухамедова М.С. Музей ва жамият. – Т.: Чинор ЭНК, 2015. – 176 б.
2. Қувватлиев У. Жонкуяр жадид тарихчиси «Жадид» [Текст] / У. Қувватлиев // Жадид газетаси. – 2024. – 2 август.
3. Темиров, Ф. Пўлат Салиев [Текст] / Ф. Темиров. — Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALTT, 2011. — 22 с.
4. Герасимов. — Ташкент : Издательство Академии наук Республики Узбекистан, Институт истории, 2002. — 64 с.
5. Янова. Д. Р. История татарской диаспоры в Узбекистане в XX веке. // Молодые востоковеды Стран Содружества Независимых Государств. Сборник Статей. Москва 2010 . – с 193-207.
6. G‘afforov Sh. (2023). Qatag‘onga uchragan tarixchi olim. (Po‘lat Soliev tavalludining 140 yilligi). *Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi* mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Proceedings of the international conference “Educational activities of jadids: ideas, goals, tasks and contribution to the development of Turkestan”, 6-7 mart, Toshkent, P 210-213.
7. Bolat. Ənsabyssəlatьn // Ələngə. – 1928. – № 10-11. – B. 23-24.
8. Bolat. Xoça saraj va Buxara xanlarьnьn ьoıtьşaşь // Ələngə. – 1928. – № 6-7. – B. 12.

ERGASHBAEV Shohbozbek
Namangan Davlat Pedagogika Instituti doktaranti
ergashbayevshohbozbek2@gmail.com
Orcid: 0009-0007-1884-8949

UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA MUZEY PEDAGOGIKASINING O'RNI

Anotatsiya: *Maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida muzey pedagogikasining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Muzeylar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Uzluksiz ta'lim, muzey pedagogikasi, interfaol ta'lim, tajribaviy o'rganish, innovatsion metodlar, madaniy meros, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация: *В статье анализируется роль и значение музейной педагогики в процессе непрерывного образования. Музеи создают возможность для учащихся закреплять теоретические знания через практический опыт, способствуя повышению эффективности обучения.*

Ключевые слова: *непрерывное образование, музейная педагогика, интерактивное обучение, экспериментальное изучение, инновационные методы, культурное наследие, эффективность обучения.*

Annotation: *The article analyzes the role and significance of museum pedagogy in the process of continuous education. Museums provide students with the opportunity to reinforce theoretical knowledge through practical experience, contributing to the effectiveness of education.*

Keywords: *Continuous education, museum pedagogy, interactive learning, experiential learning, innovative methods, cultural heritage, educational effectiveness.*

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim konsepsiyasi insonning butun hayoti davomida bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishini ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayonda turli ta'lim shakllari va vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri sifatida muzey pedagogikasi alohida o'rin tutadi. Muzeylar nafaqat madaniy merosni saqlash va namoyish etish maskanlari, balki ta'limiy resurs sifatida ham xizmat qiladi[1]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda 140 ta muzey faoliyat yuritib, 2023-yil davomida ularga 5,7 milliondan ortiq kishi tashrif buyurgan. Bu raqamlar muzeylarning jamiyatdagi ta'limiy va madaniy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Muzey pedagogikasi nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan boyitishga yordam beruvchi samarali vosita sifatida tan olinmoqda[2]. Xususan, virtual muzeylar va interaktiv eksponatlar orqali o'quvchilarni jalb etish imkoniyatlari kengaymoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual muzeylardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, muzeylar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik o'quvchilarning madaniy va tarixiy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Muzey eksponatlari orqali o'quvchilar milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan yaqindan tanishib, ularni anglash va qadrlash

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Uzluksiz ta'lim jarayonida muzey pedagogikasining integratsiyasi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi[3].

Adabiyotlar tahlili: Muzey pedagogikasi uzluksiz ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi soha bo'lib, uning nazariy va amaliy jihatlari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Muzey pedagogikasi muzey materiallarini taqdim etish shakli sifatida ochiq muzey muhitida pedagogikaning umumiy tamoyillarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Muzey pedagogikasi yosh avlodning tarbiyasida alohida o'rin tutadi[4]. Xususan, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Muzeylarda pedagogik tadbirlarni tashkil etish, ularni boshqarish va yangi shakllarni joriy etish tomoshabinlarning qiziqishlarini o'rganishga tayanadi. Muzey pedagogikasining innovatsion pedagogik texnologiya sifatida qo'llanilishi ta'lim tizimidayangi imkoniyatlarni ochib beradi. Muzey va ta'lim muassasalari o'rtasida uzviy hamkorlik mexanizmlarini yaratish, turli yoshdagi auditoriya bilan ishlashda pedagogik-psixologik xususiyatlarni hisobga olish kabi ilmiy-uslubiy tavsiyalar shakllantirilgan.

Metodologiya: Maqolada muzey pedagogikasining uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rnini har tomonlama o‘rganish maqsadida turli metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy-tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirilib, muzey pedagogikasining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi chuqur tahlil qilindi[5]. Birinchidan, adabiyotlar tahlili usuli asosida muzey pedagogikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xorijiy va mahalliy ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda amaliy tajribalar o‘rganildi. Muzey pedagogikasining nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari chuqur tahlil qilinib, ushbu sohada ilgari surilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘rganildi. Cyberleninka, Google Scholar hamda OAK (Oliy Attestatsiya Komissiyasi) tomonidan tan olingan ilmiy jurnallardagi maqolalar o‘zaro solishtirilib, ilmiy manbalarga asoslangan holda umumiy xulosa chiqarildi.nIkkinchidan, statistik tahlil orqali muzey pedagogikasining ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlashga harakat qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatimizdagi muzeylarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 5,7 million kishidan oshgan bo‘lib, shundan 60% dan ortig‘i yoshlar, o‘quvchilar va talabalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu ma’lumotlar muzeylarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, jahon tajribasidan kelib chiqib, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreyada amalga oshirilgan muzey-pedagogik tadbirlarning samaradorligi bo‘yicha statistik hisobotlar o‘rganildi. Uchinchidan, empirik tadqiqot olib borilib, O‘zbekiston va dunyo tajribasida muzey pedagogikasining ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi loyihalari o‘rganildi. Xususan, Toshkent shahridagi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Samarqanddagi Afrosiyob Muzeyi va Xiva shahridagi Ichan-Qal’a Muzey-Qo‘riqxonasi bilan maktab va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida amalga oshirilayotgan loyihalar tahlil qilindi. Ushbu loyihalarda interfaol metodlardan foydalanish, muzey muhitida tajribaviy ta’limni rivojlantirish va bolalar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish asosiy yo‘nalishlar

sifatida belgilangan. Bundan tashqari, so‘rovnoma va intervyu usuli yordamida pedagoglar, muzey xodimlari va o‘quvchilar o‘rtasida muzey-pedagogik faoliyatning ta’lim jarayoniga ta’siri haqida fikrlar yig‘ildi. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 80% dan ortig‘i muzeylarga tashrif buyurish o‘quvchilar bilimini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash va tarixiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlagan. Tadqiqot davomida olinayotgan ma’lumotlarning ishonchliligi va haqqoniyligini ta’minlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Bu yondashuv ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma’lumotlar asosida solishtirish va empirik tadqiqotlar natijalarini birlashtirishni o‘z ichiga oldi.

Natijalar:Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyatini chuqur yoritib berdi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, muzeylarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning bilim darajasi, madaniy ongini oshirish hamda kreativ tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, muzeylarda tashkil etilgan interfaol darslar va ekskursiyalar natijasida o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi 40% ga oshgani aniqlandi. Bu esa an’anaviy auditoriya sharoitida o‘tkazilgan darslarga nisbatan yuqori samaradorlikni namoyon qiladi. Muzeylar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini tasdiqlovchi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistondagi muzeylarga jami 5,7 million kishi tashrif buyurgan bo‘lib, ulardan 60% dan ortig‘ini maktab o‘quvchilari va talabalar tashkil etgan. Bu esa muzey pedagogikasining ta’lim jarayonidagi ishtiroki sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muzey resurslaridan foydalanish tarix, san’at va madaniyat fanlariga bo‘lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi va o‘quvchilarning mavzularni eslab qolish darajasini mustahkamlaydi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida virtual muzeylar, 3D ekskursiyalar va interaktiv o‘quv platformalaridan foydalanish kengayib bormoqda[6]. Tadqiqot davomida ushbu innovatsion yondashuvlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinib, virtual ekskursiyalar an’anaviy ekskursiyalarga nisbatan 35% ga ko‘proq qiziqish uyg‘otishi aniqlangan. Shuningdek, muzeylarni raqamlashtirish jarayonining kengayishi natijasida 2028-yilga kelib O‘zbekistonda muzey-pedagogik ta’lim dasturlarining kamida 50% raqamli platformalar orqali taqdim etilishi prognoz qilinmoqda. Muzeylar nafaqat ta’lim manbai, balki madaniy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazishda ham muhim o‘rin tutadi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, muntazam ravishda muzeylarga tashrif buyuruvchi o‘quvchilarning 75% i milliy va umumbashariy qadriyatlarni saqlashga bo‘lgan qiziqishi yuqori ekanligini bildirgan. Bu esa muzey pedagogikasining nafaqat akademik bilimlarni, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rnini aniq namoyish etdi. Olingan ilmiy xulosalar shuni ko‘rsatadiki, muzey ta’limi innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan taqdirda, o‘quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Kelgusida muzeylar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyatini tasdiqlagan bo‘lsa-da, bu jarayonda muayyan muammolar va rivojlantirish istiqbollari ham mavjud. Muzey pedagogikasi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniq, biroq uning to‘laqonli ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi muayyan metodologik va tashkiliy yondashuvlarni talab etadi. Birinchidan, O‘zbekistonda muzeylar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik hozircha tizimli ravishda tashkil etilmagan. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi barcha muzeylarning atigi 35% ida muntazam ravishda ta’limiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa muzeylarning ta’lim tizimiga to‘laqonli qo‘shilishida muayyan muammolar borligini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda hukumat tomonidan qabul qilingan madaniy-ma’rifiy dasturlar bu sohadagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. Ikkinchidan, muzey pedagogikasining samaradorligi uning didaktik yondashuvlariga bog‘liq. O‘quvchilar uchun tashkil etilayotgan ekskursiyalar ko‘pincha passiv shaklda o‘tadi, bu esa ta’lim samaradorligini kamaytirishi mumkin. Boshqa davlatlarning tajribasiga nazar tashlasak, masalan, Germaniya va Buyuk Britaniyada muzeylarda interaktiv ta’lim texnologiyalari keng qo‘llaniladi. Shu sababli, O‘zbekiston muzeylarida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, gamifikatsiya va virtual reallik kabi usullardan foydalanish zarur. Uchinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muzey pedagogikasining rivojlanishida raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Biroq O‘zbekistonda bu jarayon hali yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Jahon muzeylar kengashi (ICOM) hisobotlariga ko‘ra, Yevropa va Shimoliy Amerika muzeylarining 80% dan ortig‘i raqamli eksponatlarga ega bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich hozircha 20% ni tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, yaqin yillarda milliy muzey fondlarining raqamlashtirilishi hisobiga bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. To‘rtinchidan, muzey pedagogikasi ta’lim jarayoniga joriy etilayotganda muayyan ijtimoiy va iqtisodiy omillar ham e’tiborga olinishi lozim. Masalan, hududiy tafovutlar sababli ba’zi qishloq joylardagi maktab o‘quvchilari muzeylarga tashrif buyurish imkoniyatiga ega emas. Bu muammoni hal qilish uchun Yevropa davlatlarida qo‘llanilayotgan “sayyor muzey” loyihalarini O‘zbekistonda ham joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi[7].

Xulosa. Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rnini tasdiqlaydi, biroq uning rivojlanishi uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Muzeylar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy didaktik yondashuvlarni joriy qilish hamda raqamli texnologiyalarni kengaytirish orqali muzey pedagogikasining samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa nafaqat ta’lim sifati, balki yosh avlodning madaniy ongini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ulug‘Bekovna I. N. Uzluksiz ta’lim tizimida aniq fanlar va ularni o ‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 29. – C. 373-375.

2. Ne’matjonova Y. Finlandiya ta’lim mo ‘jizasi–uzluksiz ta’lim misolida… //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.

3. Urakboyeva M. Keksa yoshlilar uchun jahon muzeylaridagi loyihalarni yurtimizdagi muzeylarga tadbiq etish usullari //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 3. – №. 26. – С. 10-12.

4. Ergashbayev S. Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim jarayonlarining o'rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida) //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 3-9.

5. Marayimova K. I. Q. Muzey pedagogikasi vositasida bo 'lajak o 'qituvchilarni turistik faoliyatga yo 'naltirishning mazmuni va didaktik imkoniyatlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 17-26.

6. Shirina A. Muzeyshunoslik sohasining rivojlanishidagi muammolari va ularga yechimlar //imras. – 2024. – Т. 7. – №. 6. – С. 91-94.

7. Halimova G. Muzeylar faoliyatida zamonaviy texnologiyalarda foydalanishning o 'ziga xosligi //international conference on interdisciplinary science. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 31-35.

ADILBAEVA Muxabbat Baxramovna,
I.V.Savitskiy nomidagi
Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi,
muxabbat.adilbaeva.95@mail.ru

I.V.SAVITSKIY NOMIDAGI QORAQALPOG'ISTON SAN'AT MUZEYIDAGI ARXEOLOGIK MATERIALLAR EKSPOZITSIYASIGA MUZEY PEDAGOGIKASINING TA'SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi arxeologik ko'rgazmalari kontekstida muzey pedagogikasining roli o'rganilgan. Tashrif buyuruvchilar va muzey xodimlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan ta'lim dasturlari va tashabbuslari misollari ko'rib chiqiladi. Arxeologik muzey pedagogikasi noyob materiallar va tadqiqot bilimlariga tayanib, yosh avlodni tarbiyalashda, yoshlarning madaniy merosga ongli munosabatini shakllantirishda va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *arxeologiya, pedagogika, seminar, multimedia, eksponat, ta'lim, ko'rgazma.*

Аннотация: *В данной статье исследуется роль музейной педагогики в контексте археологических выставок ККГМИ имени И.В.Савицкого. Рассматриваются примеры образовательных программ и инициатив, направленных на создание взаимодействия между посетителями и музейными сотрудниками. Подчеркивается, что археологическая музейная педагогика, опираясь на уникальные материалы и исследовательские знания, играет ключевую роль в воспитании подрастающего поколения, формируя у*

молодежи осознанное отношение к культурному наследию и способствуя развитию критического мышления.

***Ключевые слова**: археология, педагогика, семинар, мультимедиа, экспонат, образование, выставка.*

***Abstract:** This article researches the role of museum pedagogy in the context of archaeological exhibitions of the KSM of Art named after I.V.Savitskiy. Examples of educational programs and initiatives aimed at creating interaction between visitors and museum staff are considered. It is emphasized that archaeological museum pedagogy, based on unique materials and research knowledge, plays a key role in educating the younger generation, forming a conscious attitude towards cultural heritage among young people and contributing to the development of critical thinking.*

***Key words:** archaeology, pedagogy, seminar, multimedia, exhibit, education, exhibition.*

Arxeologik muzey pedagogikasi tashrif buyuruvchilarni arxeologik materiallar va madaniy merosni o‘rganishga faol jalb qilishga qaratilgan ta’lim va tarbiya jarayonida muhim vositadir. I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyida arxeologik topilmalar ko‘rgazmasi doirasida muzey pedagogikasi nafaqat mintaqa tarixi va madaniyati bilan tanishishga, balki tanqidiy fikrlash, tahlil va talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Birinchidan, arxeologik muzey pedagogikasi rolining asosi biz quyida muhokama qiladigan ta’lim dasturlari jihatlarini o‘z ichiga oladi. Va, albatta, zamonaviy usul, bu virtual haqiqat va multimedia taqdimotlari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali interaktiv ko‘rgazmalar bo‘lib, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va keng auditoriya uchun qulay qiladigan interaktiv ko‘rgazmalarni yaratishga imkon beradi.

Muzey pedagogikasining ajralmas qismi tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olgan tadqiqot faoliyati bo‘lib, bu ham professional arxeologlarga, ham talabalarga o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirib, namoyish etilgan materiallar asosida tadqiqot olib borish imkonini beradi.

Muzey madaniy merosni saqlash va o‘rganishga qiziqqan jamoani shakllantirishga yordam beradigan turli xil tashrif buyuruvchi guruhlar o‘rtasida aloqa va fikr almashish maydoniga aylanadi. O‘z navbatida, bu turli madaniyatlar va tarixiy davrlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi, bu esa insoniyat tarixining xilma-xilligini to‘liq tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib, I.V.Savitskiy nomidagi QDS muzeyidagi arxeologik muzey pedagogikasi arxeologiyani ommalashtirishda, madaniy meros haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishda va tashrif buyuruvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

ASOSIY METODIK YECHIM

Ta’lim dasturlari: muzey pedagogikasi turli yosh guruhlari uchun ta’lim dasturlari va tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Bu tashrif buyuruvchilarga mintaqaning arxeologik topilmalari va madaniy an’analarining ahamiyati haqida ko‘proq ma’lumot olish imkonini beruvchi tarixiy faktlar, seminarlar va ma’ruzalarning interaktiv taqdimoti bo‘lishi mumkin.

Har yili arxeologiya bo‘limining ish rejasiga bir nechta avval ekspozitsiya zallariga qo‘yilmagan topilmalardan iborat yangi ko‘rgazmalar, tarixchi olimlar va arxeologlar bilan davra suhbatlari, olimlarning yubiley san’alariga bag‘ishlangan ilmiy seminarlar kiritiladi.

Misol tariqasida, tarixchi olim, ustoz arxeolog, arxivchi Ong‘arbay Yusupovning 75 yillik yubileyiga bag‘ishlangan “Kerder wa’layati – ma’deniy miyraslari” nomli ilmiy seminar shular jumlasidan [1:54]. Olimning yillar davomida ishlagan ishlari, hayoti va ijodini o‘z ichiga olgan, yozgan ilmiy maqola va kitoblari, grant proektlarga qatnashganligi va arxeologik qazishmalardagi faol ishtiroki hammasi umumiylashtirilib, foto rasmlari joylanib, kitobcha shaklida bosmadan chiqarildi. Ilmiy seminarga, arxeolog bilan ko‘p yillar davomida birga ishlagan professor o‘qituvchilar o‘z ma’ruzalari bilan qatnashdi. QDU va NDPI tarix fakulteti talaba yoshlari taklif etildi. Olimning yutug‘i sifatida shuni aytish joyizki, Qadimiy Xorazm o‘lkasida yashab o‘tgan tarixiy va madaniy dasturlarga boy bo‘lgan Kerder madaniyatini o‘rganishda katta hissa qo‘shdi, uning dolzarbligini va alohida e’tirof etish kerakligini o‘z kitoblari va ilmiy maqolalarida tilga oldi. Kerder madaniyati tarixchi va arxeologlar uchun ahamiyatli o‘rganish ob’ekti hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus tumanida joylashgan To‘k qal’a yodgorligi [3: 148], Gyaur qal’a (Mizdaxkan), Kuyuk qal’a [7: 109] va yana boshqa ko‘plab tarixiy qal’alarni Kerder madaniyatiga [6: 46] tegishli ekanligini e’tirof etish joyiz. Hozirgi kunda Kerder madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi bir qancha topilmalar muzeyning arxeologiya fondida saqlanib kelinmoqda.

Birgina shunaqangi tadbirlar orqali talaba yoshlarning nafaqat Oliy o‘quv yurtlari (pastda - OO‘Y) darsxonalarida, balki muzeyning kino va konferentsiya zallarida ilmiy seminarlarda qatnashish orqali vatan tarixiga, milliy madaniy meroslarimizni asrab avaylashga bo‘lgan muhabbatini oshirishimiz mumkin. Birgina tadbir zamirida qanchadan qancha yoshlarning tarixiy o‘zligini anglashga, uni chuqurroq o‘rganishga turtki bo‘ladi, saviyasini yanada rivojlantiradi. Sababi OO‘Y talabasi shu muassasada ishlovchi pedagog kadrlardan tashqari, Fanlar Akademiyasi olimlari ma’ruzasini, yoki boshqa joyda ishlovchi malakali ustozlardan bilim va ko‘nlikmalar olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Muzey pedagogikasi doirasidagi ta’lim dasturlari madaniy va tarixiy merosni tushunishga, tashrif buyuruvchilarni o‘qitish va jalb qilishning tizimli va xilma-xil yondashuvlarini aks ettiradi.

Eksponatlarni sharhlash: muzey pedagogikasi mutaxassislari arxeologik materiallar uchun kontekst yaratishga yordam beradi, ularning ahamiyati va Qoraqalpog‘iston tarixi va madaniyati bilan o‘zaro bog‘liqligini tushuntiradi. Bunga asboblar paneli, multimedia taqdimotlari va audio qo‘llanmalar yaratish kiradi.

Tashrif buyuruvchilarga individual yondashuv: muzey pedagogikasi tashrif buyuruvchilarning turli guruhlarining qiziqishlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishga intiladi. Bolalar, talabalar, mutaxassislar va sayyohlarga ma’lumot berishda va uni taqdim etishda, har xil talablarga ega bo‘lishi muhim va bunda muzey pedagogikasi muhim rol o‘ynaydi. Muzey ekspozitsiyasi yosh doirasidan qat’iy nazar, kasbi, millati, kelib chiqishlari turlicha bo‘lgan tashrif buyuruvchilarga birdek manzur bo‘ladigan umumiylikni topish muzey pedagogikasining asosiy

vazifalaridan hisoblanadi. Gid-ekskursavodlarning vazifasi esa, har hil guruhga kiruvchi tashrif buyuruvchilarga turlicha yondashuv, turlicha qiziqtirish, ular bilan ishlash, qanday uslublardan foydalangan holda ish olib borsa, informatsiyani yaxshirok qabul qilishi, masalan arxeologik topilmalar haqida ekskursiyani olib borishda maktab yoshidagi bolalarga, tarixiy yodgorliklar nomlanishi bilan bog‘liq turli hil afsonalar bilan qiziqtirib, ularning diqqat va e’tiborini o‘ziga jalb etish va shu tariqa davom ettirish.

Jamoatchilikni jalb qilish: muzey pedagogikasi volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash, tadqiqot va ko‘rgazma loyihalari orqali muzey hayotida jamoatchilikning faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Ushbu o‘z-aro ta’sir ishonchni yaratadi va tashrif buyuruvchilarning yanada faol ishtirokini ta’minlaydi. Sababi, chet ellik mehmonlar yoki shu yerlik aholi muzey xizmatchisiga nisbatan volontyor bilan emin-erkin suhbat qurishi, yanada o‘zini qulayroq his qilishi, qiziqtirgan savollariga javob olishlari mumkin bo‘ladi. Natijada Savitskiy nomidagi QDS muzeyidagi muzey pedagogikasi eksponatlar va tashrif buyuruvchilar o‘rtasida muhim ko‘prik yaratib, nafaqat o‘quv jarayoniga, balki mintaqaning madaniy merosini saqlash, tadqiq etish va ommalashtirishga ham hissa qo‘shmoqda. Volontyorlikni qўllab-quvvatlash har tomonlama manfaatli bo‘lib, muzey hisobiga ekskursiyalar hisobidan foyda olish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan muzey foaliyatini yanada xalq orasida keng targ‘ib etish, mahalliy aholining madaniyat va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga yordam beradi.

Muzey pedagogikasi mutaxassislari arxeologik materiallar uchun kontekst yaratishda, ularning ahamiyati va Qoraqalpog‘iston tarixi va madaniyati bilan o‘zaro bog‘liqligini tushuntirishda yordam beradi [5: 52]. Bunga asboblar paneli, multimedia taqdimotlari va audio qo‘llanmalar yaratish, materiallarni tashrif buyuruvchilar uchun yanada qulay va tushunarli qilish kiradi. Muzey pedagogikasi tashrif buyuruvchilarning turli guruhlarining qiziqishlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishga intiladi. Bu sizga ma’lumot va uning taqdimotini moslashtirishga imkon beradi, bu esa muzey dasturlarini yanada samarali qiladi.

XULOSA

Muzey dasturlari Qoraqalpog‘istonning madaniy merosining o‘ziga xosligini, uni saqlash va ommalashtirish bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Arxeologik materiallarning ta’siri mahalliy aholi orasida o‘zlariga tegishlilik va o‘ziga xoslik hissini shakllantiradi va shu topilmalar ona yurtining merosi ekanligini tushinib, fahr va iftihor tuyg‘usini sezishga yordam beradi. Shu yo‘l bilan, muzey yosh avlod ta’lim va tarbiya olishida o‘zining beminnat hissasini qo‘shadi.

Shunday qilib, topilmalar haqida gapirganda, arxeologik topilmalarning mahalliy aholiga ta’siri ko‘p qirrali ekanligini ta’kidlash kerak. Birinchidan, ular ushbu artefaktlar umumiy merosning bir qismi ekanligini tushunishga yordam beradi, ularni himoya qilish va kelajak avlodlarga etkazish kerakligini tushunadi. Ushbu xabardorlik odamlarda o‘z madaniyati va tarixi bilan faxrlanish tuyg‘usini yaratadi, bu esa o‘z navbatida milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlashga yordam beradi.

Muzey dasturlari yosh avlodni bilim olishiga va ularni tarbiyalashga yordam beradi. Ma’ruzalar, mahorat darslari va interaktiv ko‘rgazmalar kabi turli xil ta’lim

tashabbuslari orqali yoshlar nafaqat o‘z mamlakatlari tarixi bilan tanishish, balki tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [4: 57]. Bu madaniy merosni saqlash mas'uliyatini o‘z ichiga olgan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun muhimdir.

Bundan tashqari, muzey dasturlari aholining turli guruhlari o‘rtasida muloqot va fikr almashish uchun platforma yaratadi. Ushbu o‘zaro ta’sir madaniy merosni o‘rganish va saqlashga, shuningdek uni keng auditoriya orasida ommalashtirishga qiziqqan jamoani shakllantirishga yordam beradi [**2: 67**].

Kelajakda muzeyimiz misolida muzey dasturlarini chuqur tushunish uchun ular nafaqat mintaqaning noyob madaniy merosini saqlab qolish va ommalashtirish, balki mahalliy aholi o‘rtasida ta’lim, tarbiya va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga katta hissa qo‘shishini aniq aytish kerak. Ular madaniy qadriyatlarga ongli va hurmatli munosabatni yaratishga yordam beradi, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi yo‘lidagi muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Belgili ilimpaz, tariyxshi ustaz O.Yusupov 75 jasta”// “Kerder wa’layati – ma’deniy miyraslari” atamasindag‘i ilimiy seminar bag‘darlamasi // No‘kis 2024, 54 bet.

2. Воспитательный потенциал художественного музея: Учебное пособие для студентов гуманитарных вузов и музейных педагогов. – М. – СПб.: ГРМ, 2010. - 67 с.

3. Gudkova A.V. To‘k qal’a // Toshkent 1964. 148 b.

4. Karachunskaya T.N.// Музейная педагогика и изобразительная деятельность в ДОУ: интегрир. занятия / Под ред. К. Ю. Белой, Т. С. Комаровой. - М.: ТЦ Сфера, 2005. - 57с. - (Серия "Программа развития").

5. Kurbanov S.A. Zamonaviy O‘zbekiston muzeylari faoliyatida ta’limga oid jihatlari // Toshkent–2024 – 52 b.

6. Mambetullaev M., Yusupov O., Turmanov J. “Исследования городище Хайван кала в 1997-2008 и 2009 гг. // Вестник Каракалпакстанкского Государственного Университета имени Бердаха, Нукус 2010. 46-b.

7. Turmanov J., Kuyuk qal’a // Samarqand 2010, 109 b.

MIRFOZILOVA Maftunakhan
National Institute of art and design named after Kamoliddin Behzod
Museology: historical-cultural objects conservation and restoration specialty 1-year graduate maftunaxonm95@mail.ru

THE DEVELOPMENT OF THE COMMUNICATIVE ENVIRONMENT IN MUSEUMS OF UZBEKISTAN (THE BEGINNINGS OF XXI CENTURY)

Annotation: *The development of museum communication, the expansion of viewer visits, on the basis of which increasing its income are considered the basis of museum tourism. According to its communicative function, museums are not only historically significant, but also serve the active participation of modern man in socio-cultural processes, ensuring harmony with society. Expanding the range of activities of modern museums in Uzbekistan will increase the demand for cultural tourism resources and expand the employment of not only museum staff, but also art managers, designers, artists, art critics.*

Keywords*: services provided by the museum auditorium, theatrical programs, additional types of services, museum stores, museum circles, cultural and educational events, exhibitions.*

Аннотация: *Развитие музейных коммуникаций, расширение посещений зрителя, на основе которых увеличивается его доход, считаются основой музейного туризма. Согласно своей коммуникативной функции, музеи не только исторически значимы, но и служат активному участию современного человека в социокультурных процессах, обеспечивая гармонию с обществом. Расширение спектра деятельности современных музеев Узбекистана повысит спрос на ресурсы культурного туризма и расширит сферу занятости не только музейных сотрудников, но и арт-менеджеров, дизайнеров, художников, искусствоведов.*

Ключевые слова*: услуги, предоставляемые музейным залом, театральные программы, дополнительные виды услуг, музейный магазин, музейные кружки, культурно-просветительские мероприятия, выставки.*

Annotatsiya: *Muzey aloqalarini rivojlantirish, tomoshabinlar tashriflarini kengaytirish, uning asosida muzey daromadlarini oshirish muzey turizmining asosi hisoblanadi. O‘zining kommunikativ funktsiyasiga ko‘ra muzeylar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy insonning ijtimoiy-madaniy jarayonlarda faol ishtirok etishiga, jamiyat bilan uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekistondagi zamonaviy muzeylar faoliyati ko‘lamini kengaytirish madaniy turizm resurslariga bo‘lgan talabni oshiradi va nafaqat muzey xodimlari, balki san'at menejerlari, dizaynerlar, rassomlar, san'atshunoslarning bandligini ham kengaytiradi.*

Kalit so‘zlar*: muzey auditoriyasi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar, teatr dasturlari, qo‘shimcha xizmat turlari, muzey do‘konlari, muzey doiralari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ko‘rgazmalar.*

In the development of cultural tourism, the creation of curatorial projects, the study of museum communiqué, the organization of museum-show festivals in the system of ethnographic and art museums, management and practical developments in the financial development of museum store activities were analyzed in the scope of dissertations carried out in research centers such as the United States, England, France [20, 32]. In the first half of the 21st century, modern activities for the development of museum tourism, innovative solutions have been studied on the basis of the work experience of Museums of various specialties.

And from the Uzbek-language sources, the importance of museum shops in the development of cultural tourism is based in M. Mukhamedova's graduation work "Museum auctions" [13,20]. Also, Sh. Kasimova's article also cites processes related to the activities of museum souvenirs [11, 14].

In order to develop an innovative and practical mechanism for the development of museums, improving the quality of provided services and infrastructure, strengthen the country's prestige in the field of World Culture, the decision of the president of the Republic of Uzbekistan on August 26, 2018 PR-3920 "on measures for the innovative development of culture and art in the Republic of Uzbekistan",, Resolution PR-4068 of December 19, 2018 "on measures to radically improve activities in the field of protection of objects of material cultural heritage", resolution 1019 "on approval of the program for improving the activities of museums in the Republic of Uzbekistan in 2020-2021" of December 19, 2019, resolution 1019 "on measures to further increase the role and impact of the sphere of Culture and art in the life of society", dated May 26, 2020 PD – serves to some extent in the study of these processes in the implementation of the tasks established by Decree No. 6000 and other adopted regulatory legal acts related to this activity.

Analyzing the museum management and marketing system to determine how productive it is, comparing its results, that is, the requirements of customers and the proposals of the museum's types of services, the necessary modifications are made to further increase the productivity of this system if necessary. In order to study the requirements and wishes of customers and to find out their opinion, it will be necessary to enter a book of proposals and questionnaires. In surveys, it is necessary to enter a system of points indicating the quality level of museum services. In this direction, it is also important for the museum staff to study how the work in the field of supply and demand in the experienced museums of the Republic is organized. Sharing mutual experience is also not without benefit if necessary. Having received the information obtained as a result of the analysis, creating new programs on the fronts that the museum management and marketing could not cover, the client is divided into information about what he wants, what kind of brand will be a well purchased. In this regard, the museum can draw up separate questionnaires for different classes of customers (children, adults, local residents, guests, foreign guests) and give the intended result of distribution. When the filled-in questionnaires are analyzed and an idea of the demand and need of the market is formed, a lot of attention is paid to these conclusions in the activities of the museum. It should be noted that the opinions of a particular group do not correspond to the opinions of a second group. Some visitors can find auxiliary entries in the exposition (text, Label,

Graphics, charts, etc.), and while “the viewer” demands that without an excavator, there are more explanatory texts to understand the meaning of the exposition, to produce imagination“, another group of opinions also expressed the opinion that historical objects should stand in the exposition, no distracting papers are needed. It is significant that auxiliary texts are used in moderation to eliminate this controversy. When later distributed surveys were analyzed, it became clear that most customers expressed a desire to see live history. In general, museum marketing is a type of service that studies the thought desires, suggestions of the audience coming to the museum. The better the museum marketing is put on the trail, the greater the visit of the museum's audience.

Although the concept of marketing, which is developing in museology, is being used in museums of our country from the very beginning, there will be no exaggeration if we say much better that the situations that are being implemented in our museums. In particular, the new projects “Culture of the Republic of Korea”, “exposition of the children's museum”, organized at the State Museum of the history of Uzbekistan are one of the new directions in the study of marketing directions developing in Uzbekistan. The renewal of museum expositions sets the stage for an increase in the audience and the development of museum pedagogy.

In addition, the “tropical butterfly exhibition” of Russia, held at the Museum of Art of Uzbekistan, gives viewers the opportunity to learn about tropical nature and a branch of the living animal world, and this unconventional exhibition has aroused great interest and admiration in viewers. The exhibition is intended to be held from February 15 to April 21, 2013, reflecting interstate cooperation and creating an inter-museum experience exchange. The exhibition “children's creativity”, held in the State Museum of the history of Uzbekistan, was held in October 2012 at the State Museum of the history of the Timurids in order to study the history of the foreign countries and their culture more widely and develop Museum pedagogy among schoolchildren, “do you know Belgium?", a photo exhibition and a screening contest on” my impressions from the museum " were organized. About 60 photographs of famous Belgian architectural examples, art, and science were put on display, as well as a film about Belgium. In the main texts of the exhibition, information about the history of Belgium, Public Administration, politics, and culture was given in Uzbek, Russian, English, and the labels of the photos selected for the exhibition were presented in three languages in order to be accessible to visitors.

Organized exhibitions aimed to increase the love of schoolchildren for history, for the museum, enrich the spirituality of our youth, to form a culture of spectacle in them. In addition, young families who are stepping into a new life visit the Museum, get acquainted with the history, culture, art of the Timurid’s period, which is considered the most fruitful period of Uzbekistan's history, get acquainted with it more widely, and fall into the pictures for memorabilia. These factors that are causing the development of Museum marketing will not be an exaggeration if we say the first steps taken in the marketing of Uzbek museum studies.

“Permanent” or “temporary” expositions organized in the shell of the museum building are considered traditional types of expositions. They choose the idea that

the main goal is promoted based on the wishes of today's audience and the requirements of the period. An interesting display of exhibits, in which traces of different eras, history and societies are sealed, has a huge capacity of intellectual and emotional impact. The museum can witness the clash of eras, societies, thoughts and ideas. It is appropriate to mark the attention of developed countries to museums, especially museums of artistic orientation, precisely by the role of the museum as a repository of large spiritual nutrients. It is possible to observe a professional approach to art museums and expositions in countries where the role of art or artistic creation as a model of spiritual thinking is stabilized, serving to satisfy the spiritual needs of the new generation.

Today in world practice, great attention is paid to the exposition and exhibition projects organized in museums. The exposition, which is special in the scientific, practical, creative work of museum employees, acts as a bridge of communication between the era and the viewer, or between the creator and the viewer, creating an interaction with history and time. As a result of great creative work, the exposition becomes a tool that serves to increase the artistic taste, intellectual potential and knowledge of young people. Expositions made up of masterpieces of world and domestic art can bring aesthetic pleasure to the soul of any individual viewer. There is no doubt that works of art that are special in the human hand and intellects are not only a beautiful object suitable for the human eye, but also a factor that affects its psyche, inner voice. For this reason, the exposition activities in museums, the types of displays of exhibits, are naturally expanding and developing.

The museum can also host exhibits outside the shell of its building. This is mainly is connected with various projects. Traveling exhibitions are considered the widest type of show, consisting of one and more, and sometimes a group of exhibits. Traveling exhibitions may be one-time, or have become part of the state's national system. For example, the famous Swedish Exhibition “Rijskuntallningar” presents exhibitions of various sizes in the peat corners of the world. In 2006, the exhibition” Eastern dreams: Russian avant-garde and Bukharian silk “(”Gryozi o Vostoke: russkiy avangard I shelka Bukhari“), organized by The “Forum of Culture and art of Uzbekistan” Foundation in Petersburg, was a large-scale traveling exhibition project organized in the modern artistic process of Uzbekistan. The main foundation of the exhibition was created by the foundation of the Department of painting of Uzbekistan of the State Museum of Art of Uzbekistan. Naturally, this exhibition is doomed to success, because in its boldly solved concept of art studies, the traditional signs of oriental aesthetics and the Russian avant-garde were skillfully combined.

Traveling exhibitions although the most complex, requiring large funds and qualifications, is the type of exhibition, it is rewarded in return by placing the museum, exhibits of artistic, historical and other nature in it, in other countries, in a wide public display. That is the main goal of such projects in the nature of propaganda and agitation.

Traveling exhibits include “blockbuster” [21, 48] exhibits Ham, which claim millions of dollars in vehicles, montage, and other spending. The type of blockbuster exhibition is relevant today. Because the function of an exhibit that reveals the values, history, national identity of a society, or illuminates the evolution of a certain

type of objects, as item and art, is changing to this day. The expositions of Museums of the world focus on "the evolution of the exhibit – the present echo of the social environment, which is rapidly deformed in the image." The viewer, in need of spiritual and cultural feed, has forgotten museums and galleries in many cases, seeking this need from such informative tools as television, cinema, the internet. And the blockbuster exhibition, dedicated to the project of a big idea, is a unique solution to the problem of attracting a large number of spectators to the museum [19, 55]. Although such exhibitions require a large expenditure, a specific artistic decoration, a special management approach, special arrangements for the safety and preservation of the exhibit, many major museums around the world happily accept them in their premises. "For the first time in the 1970s, "Tutankhamun" and "San Marco horse". After such exhibitions as" Venice", blockbuster exhibitions moving to various museums and on display have gained popularity, and today it has become a key feature of the era of globalization" [21,67]. They provide the viewer with such an invaluable opportunity to get acquainted with unique and valuable exhibits or to see the famous exhibits with a fresh look. Museum merchandising examples developed on the basis of these exhibits also play an important role in museum advertising and souvenir sales.

In order to develop additional services, clubs and theatrical performances are organized in various cultural centers and museums around the world. The Centre for Fine Arts is a multi-purpose cultural venue in the Royal Quarter of Brussels, Belgium. It is often referred to as **BOZAR** (a homophone of *Beaux-arts*) in French or by its initials **PSK** in Dutch. This multidisciplinary space was designed to bring together a wide range of artistic events, whether music, visual arts, theatre, dance, literature, cinema or architecture [22]. Tourists can discover the cultural and artistic programs by concerts, exhibitions, contemporary dance and theatre performances held in Bozar.

Bemish **Museum** is the first regional open-air museum, in England located at Beamish, near the town of Stanley, in County Durham, England is also well known as theatrical museum. Beamish pioneered the concept of a living museum. By displaying duplicates or replaceable items, it was also an early example of the now commonplace practice of museums allowing visitors to touch objects [23]. "From music and dance to storytelling and food" is one of the theatrical exhibitions held in Bemish museum. It has recognizes as the perfect example of museum theatres.

This experience was carried out in a number of Museums of our republic. In particular, in the State Museum of the history of Applied Arts and crafts of Uzbekistan for 2017-2018, master classes and an exhibition-fair for local and foreign visitors with the participation of craftsmen in such directions as embroidery, pottery, carpet weaving, wood carving were organized permanently. In order to widely promote not only our material but also intangible cultural heritage, a creative group demonstrating folklore communities, national songs and songs, folk games and customs was formed, and daily cultural events were regularly organized for visitors.

The cultural heritage agency, together with the Academy of Fine Arts of Uzbekistan and the Ministry of construction, should develop a model project of art

galleries. At this, a demonstration hall for expositions, youth training and creativity rooms, “master-apprentice” practice rooms, a modern library-cafe, art workshops for creative people are organized. The construction of its buildings will be carried out within the framework of a phased investment program for the period 2022-2026. The Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan, regions and Tashkent City Halls will ensure the allocation of land plots for the construction of galleries in accordance with the administrative regulation of the allocation of land plots for permanent use for state and public needs, approved by the decree of the Cabinet of Ministers No. 543 of August 27, 2021. In the development of project and estimate documentation, special attention is paid to the approval of the new concept of each state museum and the reliable storage of museum objects, the creation of favorable conditions for visitors, the development of the field of Service and marketing, architectural planning, interior, design and landscape solutions. In order to transport museum items without security, to create conditions for students to visit young people, at the expense of the state budget, the relevant state museums are provided with bus and cargo vehicles.

It is important that the project and estimate documentation of state museums is carried out within the framework of the annual investment programs for newly built and reconstructed objects from the economy, the state budget, which is allocated to the field of tourism and cultural heritage in the appropriate order of perfect and current repair facilities, and at the expense of local budget funds and other It is ensured that the work on the perfect and current renovation and equipment of the buildings of state museums will be envisaged annually from 2023 in the development of state budget parameters. Important processes are considered to ensure the development of real estate objects of State museum-reserves and cultural heritage of special importance at the expense of the state budget with fire safety, video surveillance devices and modern turnstile equipment and their further maintenance.

References

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.05.2022 йилдаги ПҚ-261-сон Қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 27.05.2022 й., 07/22/261/0456-сон. (PQ-261 dated 05/27/2022. National Database of Legislative data, 05/27/2022.,07/22/261/0456.)

2. Туризм ва спорт вазирининг 2021-йил 25-октябрдаги “Давлат музейлари, музей-кўриқхоналари, уй-музейларининг намунавий штатларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 166/1-мх-сон буйруғининг илова қисмидаги II боби (Музей-кўриқхоналар) бандига ўзгартириш ва қўшимчалар. (Amendments and additions to paragraph II (Museums-reserves) of the annex to the Order of the Minister of Tourism and Sports “On approval of standard staff of State Museums, Museum Reserves, museum houses” dated October 25, 2021 No. 166/1-MOH.)

3. Музейларни ташкил этиш мақсадларига мос бўлган пуллик хизмат кўрсатувчи фаолият турларининг нархи (прайскурант). (The cost of activities providing paid services (price list) that are suitable for the purposes of organizing museums.)

4. Аламбре Б. Культура, коммуникация и музейное дело./Museum, 1992, 1/4 С.3

5. Du Cros B., McKercher B. Cultural Tourism. – Routledge: 2 edition. 2015. – 290 p.

6. Jakubowski R. D. Museum soundscapes and their impact on visitor outcomes: For the Degree of Doctor of Philosophy. Colorado State University Fort Collins. – Colorado: 2011. – 114 p.

7. Jung, Y. Building strong bridges between the museum and its community: an ethnographic understanding of the culture and systems of one community's art museum. Degree of Doctor of Philosophy. The Pennsylvania State University, 2012. – 310 p.

8. Hall J. The capacity toabsorb, tourists – Built Environment. 1974, vol. 8. – pp. 244-247.

9. Hooper-Greenhill E. Museums and their Visitors. – Routledge: 1994. – 206 p.

10. Kirshenblatt-Gimblett B. Destination Culture: Tourism, Museums, and Heritage. – University of California Press: 1998. – 348 p.

11. Kasimova Sh. Art do'konlar kommunikatsiya va marketing rennovatsiyasi. – Toshkent, 2022. – San'at. № 4. – B. 12-16. (Kasimova Sh. Art shops communications and marketing rennovation. - Tashkent, 2022. - Art. № 4. – B. 12-16.)

12. Michael P. International tourism. The econimics and development of the international tourist trade. – London: Hutchinson, 1969. – 286 p.

13. Мухамедова М. O'zbekiston muzeylarida «Museum shop» faoliyatining joriy etilishi: tajriba va istiqbollar //УзМУ хабарлари. – Тошкент, 2022. – № 8. – Б. 19-22. (Mukhamedova M. Introduction of "Museum shop" activities in museums of Uzbekistan: experience and prospects //UZMU messages. - Tashkent, 2022. – № 8. - B. 19-22.)

14. Neil G., Kotler P., Wendy I. Museum marketing and strategy: designing missions, building audiences, generating revenue and resources – 2nd ed. 2008. – 511 p.

15. Rungard S. Marketing and Public Relations Handbook for Museums, Galleries and Heritage Attractions. – Altamira Press. 2000. – 304 p.

16. Stephen E. Making Museums Matter. – Published by Smithsonian Books. 2002. – 288 p.

17. Warren J. Constervation of strukture in historic buildings // Architectual conservation. 2004. № 2. – P. 39–49.

18. Pop I. L. Management and sustainable development of museums. PhD thesis. – Cluj-Napoca: 2017. – 42 p.

19. Поливцева О.Хозяева пространства // НОМИ. 2007. - №2 . С.55.

20. Culley S. Museums and Tourists: A Quantitative Look at Curator Perceptions of Tourism. A thesis presented to the University of Waterloo in fulfillment of the thesis requirement for the degree of Master of Arts in Recreation and Leisure Studies. – Ontario: 2010. – 161 p.

21. Яни Херреман. Показ, эспонирование и выставки // Управление музеем: практическое руководство. – Франция. ИКОМ. 2004.- 230 с.
22. https://www.bozar.be/en
23. https://www.beamish.org.uk/

ISMAILOVA Dilfuza Usmonqulovna,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti magistranti

MUZEY PEDAGOGIKASINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muzey pedagogikasi orqali deontologiyalik kompetentligini rivojlantirishning muhim jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan muzey pedagogikasi va Deontologik kompetentlikning mohiyati, vazifalari, usullariga to'htalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Muzey pedagogikasi, deontologik kompetentlik, deontologiya, ta'lim dasturlari, kompetentlik, amaliy usullar, muzey amaliyotlari.*

Аннотация: *В данной статье выделены важные аспекты развития деонтологической компетенции через музейную педагогику. Также рассматриваются сущность, задачи и методы музейной педагогики и деонтологической компетенции.*

Ключевые слова: *Музейная педагогика, деонтологическая компетенция, деонтология, образовательные программы, компетенция, практические методы, музейная практика.*

Annotation: *This article highlights the important aspects of developing deontological competence through museum pedagogy. The article discusses the essence, tasks, and methods of museum pedagogy and deontological competence.*

Keywords: *Museum pedagogy, deontological competence, deontology, educational programs, competence, practical methods, museum practices.*

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik yondashuvlar nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Deontologik kompetentlik — bu pedagogning kasbiy axloqiy majburiyatlarini va axloqiy qoidalarga rioya qilishni anglatadi. Pedagoglar o'z faoliyatida nafaqat ilmiy bilimlarni yetkazish, balki o'zlarining professional axloqiy xulqini namoyon qilishlari kerak. Muzey pedagogikasi, o'zining interaktiv, amaliy va madaniy o'qitish metodlari bilan, talabalarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada muzey pedagogikasining deontologik kompetentlikni shakllantirishdagi o'rni, yondashuvlari va amaliy metodlari tahlil qilinadi.

Muzey pedagogikasi — bu muzeylar va boshqa madaniy muassasalarida o‘tkaziladigan ta’lim faoliyatlari va usullari orqali odamlarni ma’rifatli, madaniyatli va axloqiy jihatdan rivojlangan shaxslar sifatida shakllantirish jarayonidir. Bu soha asosan o‘quvchilarga tarixiy, madaniy, san’atshunoslik, tabiiy fanlar va boshqa turli yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarni berish bilan cheklanmaydi, balki insonning shaxsiy, axloqiy va estetik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Muzey pedagogikasining o‘ziga xosligi shundaki, u amaliy yondashuvni ta’minlaydi, ya’ni ta’lim jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzeyda, real ob’ektlar va eksponatlar asosida amalga oshiriladi. Bu orqali talabalar va o‘quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki tarixiy va madaniy merosni bevosita his qilishlari, o‘rganishlari va unga nisbatan hurmat hissini shakllantirishlari mumkin.

Muzey pedagogikasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘ladi.

1. Interaktivlik: Muzey pedagogikasi asosan interaktiv yondashuvlarga asoslanadi. Bu metod orqali o‘quvchilar va talabalar faol ishtirok etadilar, ob’ektlar va eksponatlar bilan bevosita muloqot qilish orqali o‘rgangan bilimlarini chuqurlashtiradilar. Interaktiv metodlar ta’lim jarayonini jonlantiradi, talabalar faolligini oshiradi va o‘rganishni qiziqarli qiladi.

2. Estetik ta’lim: Muzeylar san’at va madaniyatning markazlaridir. Muzey pedagogikasi o‘quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlar, balki estetik did va tafakkurni ham rivojlantiradi. Tarixiy asarlar, san’at namunalari va madaniy ob’ektlar bilan bevosita tanishish orqali talabalar estetika, go‘zallik va insoniyatning madaniy merosi haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladilar.

3. Kontekstual o‘rganish: Muzey pedagogikasida o‘rgatiladigan ma’lumotlar ko‘pincha kontekstual va tarixiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, talabalarga o‘rganilayotgan mavzu yoki ob’ektni faqat ma’lumotlar nuqtai nazaridan emas, balki uning tarixiy, madaniy, ijtimoiy va axloqiy ahamiyati nuqtai nazaridan ham tushunishga yordam beradi.

4. Tajriba orqali o‘rganish: Muzeylar ta’limda faol o‘rganish metodlarini, ya’ni tajriba orqali o‘rganishni taqdim etadi. Talabalar muzeyda mavjud eksponatlar, ob’ektlar va interaktiv stendlar bilan ishlash, ularni tahlil qilish va shunday qilib o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, o‘rganish jarayonini jonli va qiziqarli qiladi.

Muzey pedagogikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1. Tarixiy va madaniy merosni saqlash va uzatish: Muzey pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biri — tarixiy va madaniy merosni yangi avlodlarga etkazish, ularning qadriga yetishni o‘rgatishdir. Muzeyda talabalar tarixiy voqealar, san’at asarlari, ilmiy yutuqlar bilan tanishib, ularga hurmat va g‘urur tuyg‘ularini rivojlantiradilar. Bu orqali ular madaniyatning bir qismi bo‘lishlarini his qilishadi.

2. Shaxsiy va ijtimoiy kompetentliklarni rivojlantirish: Muzey pedagogikasi talabalarda axloqiy, estetik, va ijtimoiy kompetentliklarni rivojlantiradi. Muzeyda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar o‘quvchilarga jamiyatda o‘z o‘rinlarini aniqlash, boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash va jamiyatga foydali a’zo bo‘lishni o‘rgatadi.

3. Kreativlik va tanqidiy fikrlashni oshirish: Muzey pedagogikasi, ayniqsa, talabalar uchun yangi fikrlarni shakllantirish, kreativlikni rivojlantirish va tanqidiy

fikrlashni oshirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchilar muzey eksponatlarining ma’nolarini tahlil qilib, o‘z fikrlarini ifoda etishga, bilimlarni yaratishga va turli nuqtai nazarlarga o‘xshash holatlarga chuqurroq yondashishga o‘rganadilar.

4. Jahon madaniyati va global qarashlarni shakllantirish: Muzey pedagogikasi talabalarda global qarashlarni shakllantirishga yordam beradi. Muzeylar orqali talabalar boshqa madaniyatlar, millatlar va xalqlar haqida o‘rganadilar, bu esa ular uchun jahon madaniyati haqidagi to‘liqroq tasavvur yaratadi. Bu o‘z navbatida, talabalar uchun global ijtimoiy masalalar va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularni o‘rganish imkoniyatini beradi.

Deontologik kompetentlik va uning ta’lim tizimidagi o‘rni ham muhim jihat hisoblanadi. Jumladan, deontologik kompetentlik, asosan, axloqiy, kasbiy majburiyatlarga rioya qilish va ularni amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Deontologiya, yunoncha "deon" (majburiyat) va "logos" (ta’lim) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu soha axloqiy va kasbiy xulq-atvor me’yorlari va qoidalarini o‘rganadi. Deontologik kompetentlik o‘z ichiga kasbiy etikani, muomala qoidalarini, jamiyatda adolat va xolislikni ta’minlashni oladi. U insonning o‘z kasbiga nisbatan javobgarligini, muayyan etika va qoidalarga asoslanishini talab qiladi. Ta’lim tizimida deontologik kompetentlik, shuningdek, talabalar va pedagoglar orasidagi axloqiy munosabatlar, ta’lim jarayonidagi muomala madaniyati, ta’limda hurmat va adolatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Deontologik kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Kasbiy axloq va etika: Deontologik kompetentlik, o‘z navbatida, kasbiy axloq va etikaning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Pedagog yoki mutaxassis o‘zining kasbiy faoliyatida belgilangan axloqiy qoidalar va normativlarga rioya qilish, o‘z faoliyatining natijalarini jamiyat va uning a’zolari oldida hisobga olish zarur. Bu, masalan, o‘qituvchining talabalar bilan munosabatlaridagi samimiylik, adolat, hurmat va jamoatchilik mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi demakdir.

2. Kasbiy majburiyatlar: Deontologik kompetentlik kasbiy majburiyatlarni to‘liq bajarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Kasbiy majburiyatlar deganda, o‘qituvchi yoki boshqa mutaxassisning o‘z vazifalarini bajarishdagi mas’uliyatini anglash va ular bilan bog‘liq majburiyatlarga to‘liq amal qilish tushuniladi. Bu, masalan, o‘qituvchining ta’lim jarayonida ilmiy yondashuvni amalga oshirishi, har bir o‘quvchiga teng munosabatda bo‘lishi, o‘zgaruvchan ta’lim talablari va muammolariga moslashishi kabilarni o‘z ichiga oladi.

3. Etika qoidalari va xulq-atvor normativlari: Deontologik kompetentlikning yana bir asosiy tarkibiy elementi etika qoidalari va xulq-atvor normativlaridir. Bu, o‘z navbatida, kasbiy sohada bajariladigan ishlarning muayyan axloqiy normalarga mos bo‘lishini ta’minlaydi. O‘qituvchining o‘z kasbiy vazifasini bajarishda o‘z xulq-atvorini muayyan axloqiy me’yorlar asosida tashkil etishi, o‘quvchilarga bilim berish jarayonida etika va xulqni mustahkamlashga yordam beradi.

Deontologik kompetentlik va ta’lim tizimidagi o‘rni qanday ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin:

Deontologik kompetentlik ta’lim tizimida ayniqsa muhim rol o‘ynaydi, chunki u ta’lim jarayonida o‘quvchi va pedagoglar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq belgilaydi, o‘qituvchining o‘quvchi oldidagi javobgarligini ta’minlaydi va kasbiy axloqiy masalalarga e’tibor qaratadi. Deontologik kompetentlikning ta’lim tizimidagi o‘rni quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Kasbiy axloqni shakllantirish: Ta’lim tizimi o‘ziga xos kasbiy muhit bo‘lib, unda pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida professional va axloqiy munosabatlar o‘rnatiladi. Deontologik kompetentlik, shuningdek, o‘quvchilarda kasbiy axloqni shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilar, o‘qituvchi yoki pedagog sifatida, o‘zlarining kasbiy faoliyatlarida axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatlarni his qilishlari, o‘z xulq-atvorlarini muayyan etika va kasbiy me’yorlar asosida shakllantirishlari kerak.

2. Pedagoglarning professional mas’uliyati: Pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatida o‘quvchilarni axloqiy jihatdan rivojlantirish bilan birga, ularni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga, boshqalar bilan hamkorlik qilishga, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga o‘rgatadilar. Pedagogning deontologik kompetentligi ta’lim jarayonida axloqiy va kasbiy majburiyatlarni to‘liq bajarish, o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida jiddiy munosabatda bo‘lish, ularning ehtiyojlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

3. Shaxsiy va kasbiy o‘sish: Ta’lim jarayonida deontologik kompetentlik talabalarning shaxsiy va kasbiy o‘sishini rag‘batlantiradi. O‘quvchilarni axloqiy jihatdan rivojlantirish, ularni ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish orqali, pedagoglar o‘quvchilarda to‘g‘ri va xolis xulq-atvorni shakllantiradilar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning kasbiy hayotlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga yordam beradi.

4. Jamiyatda ijtimoiy adolat va muvozanatni saqlash: Ta’lim jarayonida deontologik kompetentlikni rivojlantirish jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni kasbiy axloq, adolat va tenglikka o‘rgatish, ularni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga tayyorlash — ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Pedagoglar o‘quvchilarni shaxsiy va kasbiy axloqiy mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish orqali jamiyatda barqarorlik va adolatni saqlashga yordam beradi.

5. Pedagoglarning o‘zini-o‘zi baholash va rivojlantirish imkoniyatlari: Deontologik kompetentlik pedagoglarning o‘zini o‘zi baholash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar, o‘z kasbiy va axloqiy mas’uliyatlarini his etib, o‘z xulq-atvorini yaxshilashga, kasbiy bilimlarni oshirishga harakat qilishadi. Bu, o‘z navbatida, ularning professional o‘sishini ta’minlaydi.

Muzey pedagogikasining deontologik kompetentlikni rivojlantirishdagi roli qanday degan masalaga quyidagi tahlillarni berishimiz mumkin.

Muzey pedagogikasi deontologik kompetentlikni rivojlantirishda bir nechta asosiy usullarni taqdim etadi. Jumladan: Madaniy va axloqiy qadr-qimmatlarni shakllantirish, interaktiv o‘qitish metodlari hamda kasbiy etikani o‘rgatishdan iboratdir.

1. Madaniy va axloqiy qadr-qimmatlarni shakllantirish – bu muzeylar o‘zlarining ekspozitsiyalari orqali talabalarga tarixiy va madaniy qimmatlarni

taqdim etadi. Bu jarayon talabalarga milliy va umumbashariy axloqiy qadriyatlar haqida tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Misol uchun, muzeylarda tarixiy voqealarni va shaxslarni o‘rganish, ular bilan bog‘liq axloqiy va madaniy jihatlarni tahlil qilish, talabalar uchun axloqiy va kasbiy normativlarni anglashga yordam beradi.

2. Interaktiv o‘qitish metodlari: Muzeylar o‘quvchilarga ekskursiyalar, amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va boshqa interaktiv metodlarni qo‘llash orqali deontologik kompetentlikni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Interaktiv usullar talabalarning nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarini ham mustahkamlashga imkon beradi. Muzeyda o‘tkaziladigan ta’lim faoliyati, o‘quvchilarning axloqiy qarorlar qabul qilish, axloqiy dilemmalarni hal qilish va kasbiy javobgarlikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Kasbiy etikani o‘rgatish: Muzeylarda o‘tkaziladigan ta’lim faoliyatlari orqali talabalar kasbiy etikani, axloqiy mas’uliyatni va o‘zaro hurmatni o‘rganadilar. Masalan, tarixiy obyektlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni saqlash va ularga nisbatan etika me’yorlariga rioya qilish muzey pedagogikasining bir qismi sifatida talabalarga o‘rgatiladi. Shuningdek, muzeyda olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlar talabalar uchun axloqiy me’yorlarni tushunish va ularga amal qilishni ta’minlaydi.

Shu o‘rinda muzey pedagogikasida deontologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy usullariga qisqacha to‘htalib o‘tamiz.

1. Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar: Muzeylarda o‘tkaziladigan rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar talabalar uchun real hayotdagi axloqiy qarorlarni qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Talabalar tarixiy voqealar yoki ijtimoiy masalalarni o‘rganishda axloqiy jihatlarni muhokama qilib, o‘z fikrlarini ifoda etadilar.

2. Kritik fikrlashni rivojlantirish: Muzeylarda o‘tkaziladigan ta’lim faoliyatlari talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarga voqealar va holatlarni axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilishni o‘rgatadi, bu esa ularda axloqiy xulqni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Case-study metodlari: Muzey pedagogikasi talabalarga konkret vaziyatlarni o‘rganishda yordam beradi. Case-study metodlari orqali o‘quvchilar kasbiy axloqiy masalalarni va muammolarni hal qilishda yaxshilanish imkoniyatini topadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mukinki, muzey pedagogikasi talabalarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Muzeylarda o‘tkaziladigan interaktiv va amaliy ta’lim faoliyatlari, o‘quvchilarga axloqiy va madaniy qadr-qimmatlarni tushunishga yordam beradi. Muzey pedagogikasining deontologik kompetentlikni rivojlantirishdagi roli o‘quvchilarni kasbiy javobgarlik va axloqiy majburiyatlarga tayyorlashga, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, muzey pedagogikasi nafaqat bilimlarni yetkazish, balki talabalarning axloqiy va estetik tafakkurlarini rivojlantirishda ham katta o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayev A.A. Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish//Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus, 2025. -56 b.

2. Kenjabayeva D.A. Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarida deontologik kompetentlikni rivojlantirish//Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Termiz, 2023. -60 b.

3. Kenjaboyev A.E., Kenjaboyeva D.A. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz,2021. -287 b.

4. Шляхтина Л. М. Музейная педагогика. - Санкт- Петербург : СПбГИК, 2021. -С.26.

5. Никишин, Н.А. Музейная средства: знаки и символы/ Н.А.Никишин // Музейная экспозиция. На пути к музею XXI века: сб. науч.тр. НИИ культуры/отв.ред. М.Т.Майстровская. -М.: РИК, 1997. -С.23-32.

6. Музеи Российской академии наук / РАН. Музейный совет. Москва: Научный мир, 2004. - С. 150-164;

7. Соболева Н.А. Музейный сервис: пути развития / Сборник. - Москва, 2004. - С. 25-34.

8. Museum Education: History, theory and Practice / Ed. N. Berry and S. Mayer. Reston, 1989. P.43.

9. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. - М.: Высш. шк., 2004. -С.25-29.

10. Романов Н.И. О задачах и методах экскурсий по искусству // Экскурсионный вестник. М., 1916. № 1-2. С. 8.

11. Каченя Г.М. Музейная педагогика : учебное пособие для студентов, обучающихся по направлению 51.03.04 «Музеология и охрана объектов культурного и природного наследия» / Челябинская государственная академия культуры и искусств ; кафедра педагогики и психологии ; [сост. Г. М. Каченя]. - Челябинск : ЧГАКИ, 2015. - 130 с. 11-13

MAMARIZAEVA Farangiz Zohidjon kizi
Senior teacher at the Jizzakh polytechnic institute
farangiz.angel@bk.ru

LANGUAGE LEARNING IN MUSEUMS: USING CULTURAL HERITAGE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Abstract. *Museums serve as dynamic spaces for immersive and experiential learning, offering unique opportunities for foreign language acquisition through cultural heritage exploration. This paper explores the integration of museum-based learning into foreign language instruction, emphasizing its pedagogical benefits, practical applications, and impact on linguistic and intercultural competence. By examining case studies and innovative methodologies, the study highlights how museum visits, interactive exhibits, and digital resources enhance vocabulary acquisition, contextual learning, and cultural appreciation.*

Key words*: museum-based learning, foreign language acquisition, cultural heritage, experiential learning, communicative language teaching (clt), intercultural competence, language immersion, interactive exhibits, digital museum resources*

In an increasingly globalized world, foreign language learning extends beyond traditional classroom settings. Museums, as repositories of cultural heritage, provide authentic linguistic and cultural contexts that enrich language instruction. The integration of museum-based learning into language education offers a unique opportunity to merge cultural immersion with linguistic development [4, p 112]. By engaging with historical artifacts, artworks, and interactive exhibits, learners gain firsthand exposure to the cultural and historical background of the target language, making their learning process more engaging and meaningful [5, p 56].

Museums offer an environment rich in multimodal input, where students can develop their listening, speaking, reading, and writing skills through real-life contextual learning. Exhibitions and guided tours, when conducted in the target language, help learners improve their comprehension and vocabulary retention. Moreover, storytelling activities, role-playing exercises, and interactive technologies such as augmented reality (AR) enhance the immersive experience, bridging the gap between formal language instruction and practical language use in everyday scenarios [9, p32].

Additionally, museum visits foster intercultural competence by exposing learners to diverse cultural perspectives and traditions. By interpreting historical narratives and artistic expressions, students gain a deeper appreciation for cultural nuances, which is essential for effective communication in a foreign language. The museum setting thus serves as both a linguistic and cultural classroom, allowing learners to experience language in an authentic and stimulating environment [7, p88].

This paper investigates the role of museums in foreign language teaching and their potential to facilitate meaningful language interactions and cultural immersion.

By analyzing various pedagogical approaches and successful case studies, this study aims to highlight best practices for incorporating museums into language education, ultimately fostering both linguistic and cultural competence among learners.

The study is grounded in communicative language teaching (CLT) and experiential learning theories, which emphasize real-world interactions and active engagement in the learning process. Museums serve as experiential spaces where language learners interact with artifacts, texts, and multimedia exhibits, fostering deeper language comprehension and cultural understanding.

Museum-Based Language Learning Strategies are the following:

1. Guided Tours and Audio Guides: Structured tours in the target language expose learners to specialized vocabulary and authentic discourse. Incorporating pre- and post-tour activities such as vocabulary-building exercises, comprehension questions, and reflection journals enhances retention and contextual understanding.

2. Interactive Exhibits and Task-Based Learning: Hands-on engagement with museum artifacts, coupled with structured linguistic tasks such as object descriptions, comparisons, and thematic discussions, promotes active language production. Interactive exhibits that involve role-playing, problem-solving, or question-driven exploration encourage students to practice language skills in a real-world context.

3. Storytelling, Narrative Construction, and Role-Playing: Encouraging learners to construct narratives based on historical artifacts or museum exhibits fosters deeper engagement with linguistic structures. Role-playing scenarios, such as assuming the identity of historical figures or engaging in simulated dialogues within a museum context, help enhance fluency, creativity, and confidence in oral communication.

4. Digital and Virtual Museum Resources: Online museum archives, digital storytelling applications, and augmented reality (AR) experiences offer learners immersive language input even in remote settings. Assigning projects such as virtual scavenger hunts, guided annotation of online exhibitions, and language-based documentary creation can enhance learner autonomy and multimodal engagement.

5. Language Workshops and Collaborative Projects: Some museums provide structured workshops where students collaborate on linguistic tasks, such as creating bilingual exhibit descriptions, curating small thematic exhibitions in the target language, or engaging in peer-reviewed discussions on cultural artifacts. These projects foster cooperative learning and deepen cultural literacy.

6. Scavenger Hunts, Gamification, and Inquiry-Based Learning: Museums can structure learning experiences around inquiry-based models, where students solve puzzles, complete challenges, or answer open-ended questions based on exhibits. Gamified learning elements, such as competition-based quizzes, reward-based vocabulary acquisition, and interactive role-playing games, can enhance motivation and engagement.

7. Cultural Dialogues, Debates, and Critical Thinking Exercises: Hosting structured discussions on culturally significant artifacts, historical controversies, or artistic interpretations in the target language fosters analytical skills and oral proficiency. Debates and roundtable discussions encourage learners to express

opinions, support arguments with evidence, and develop nuanced cultural awareness.

This following section is dedicated to the case studies and best practices in this sphere and presents examples of successful museum-based language learning programs from various cultural institutions. It examines the methodologies employed, learner feedback, and the effectiveness of museum visits in improving linguistic competence and cultural awareness.

Case Study 1: The Louvre's Language Learning Program

The Louvre Museum in Paris offers tailored language learning experiences where students explore art history in French. Guided tours and interactive sessions enhance their vocabulary and comprehension skills while immersing them in French culture.

Case Study 2: The British Museum's Multilingual Education Approach

The British Museum integrates foreign language learning into its tours, offering interactive storytelling experiences that allow learners to connect historical artifacts with language learning in an engaging way.

Case Study 3: Virtual Museum Tours for Language Learning

With advancements in technology, virtual museum tours have become an effective tool for remote language learners. Institutions such as The Smithsonian provide digital access to collections, allowing learners to practice language skills through self-paced exploration and interactive discussions.

Despite the benefits, integrating museums into language curricula presents logistical and pedagogical challenges, such as accessibility, curriculum alignment, and learner engagement. For example,

1. Accessibility Issues: Not all learners have access to museums due to location or financial constraints, making virtual museum resources essential for broader inclusivity.
2. Curriculum Integration: Aligning museum-based activities with language learning curricula requires careful planning to ensure educational objectives are met.
3. Engagement and Motivation: Some students may require additional scaffolding to engage with museum-based learning effectively. Educators must design activities that cater to various learning styles and proficiencies.
4. Technological Limitations: While virtual and digital resources expand accessibility, not all learners may have access to necessary technology for remote museum-based learning.

Museums offer a rich and immersive environment for foreign language acquisition, fostering both linguistic and cultural competence. By incorporating museum-based strategies into language education, educators can create engaging and meaningful learning experiences [1, p 99].

One of the most significant advantages of museum-based language learning is its ability to facilitate active, real-world engagement. Unlike conventional classroom settings, museums expose learners to authentic language use in context, encouraging them to process information dynamically. Through guided tours, interactive exhibits, and technology-enhanced experiences, students acquire vocabulary and cultural knowledge in a meaningful way, reinforcing their linguistic skills through experiential learning [6, p 67].

Furthermore, museum visits cultivate critical thinking and analytical skills. By interacting with exhibits, interpreting historical narratives, and engaging in discussions about cultural artifacts, learners develop deeper comprehension and the ability to articulate their thoughts effectively in the target language [11, p 45]. These activities enhance their ability to navigate real-life conversations with greater confidence and accuracy.

Despite these advantages, educators must also address logistical challenges, such as accessibility, curriculum alignment, and learner engagement. Integrating museum-based learning into formal education requires careful planning to ensure that students benefit from structured yet flexible learning experiences. Virtual museum tours, digital archives, and multimedia tools provide alternative solutions for institutions facing geographical or financial constraints, ensuring that museum pedagogy remains inclusive and widely applicable [10, p 154].

Future research should investigate the long-term impact of museum-based learning on language retention, learner motivation, and intercultural competence. Additionally, collaborations between language educators and museum professionals should be encouraged to develop innovative teaching methodologies tailored to various proficiency levels. By leveraging the educational potential of museums, language teachers can create enriching experiences that extend beyond traditional pedagogical frameworks, preparing students for effective communication in diverse cultural settings [8, p 203].

References

1. Barker, T. (2010). Museum Education and Learning: Theory and Practice. Routledge.
2. Falk, J. H., & Dierking, L. D. (2013). The Museum Experience Revisited. Routledge.
3. Hein, G. E. (1998). Learning in the Museum. Routledge.
4. Hooper-Greenhill, E. (2007). Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance. Routledge.
5. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford University Press.
6. Parry, R. (2010). Museums in a Digital Age. Routledge.
7. Puchta, H., & Williams, M. (2012). Teaching Young Language Learners. Cambridge University Press.
8. Rasulov, S., & Karimova, N. (2018). Muzeyshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
9. Rounds, J. (2006). Strategies for Learning in Museums. Curator: The Museum Journal, 49(1), 25–40.
10. Tursunov, U. (2020). Muzeyshunoslikni o‘qitish metodikasi. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.
11. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

MAXMUDOVA Nodira Abduvoxit qizi
O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi
yetakchi mutaxassisi
tabiatmuzeyi1876@umail.uz

TABIAT MUZEYLARIGA INTERAKTIV USULLARNI QO‘LLASHDA DUNYO MUZEYLARI TAJRIBASI

Annotatsiya: *Mazkur maqola an’anaviy tabiat muzeylarini tabiiy bilim va ekologik madaniyatni yanada kengroq targ‘ib qilish maqsadida turli xil interaktiv usullar yordamida reinnovatsiya qilish haqida bo‘lib, bu jarayon bir qator dunyoga mashhur muzeylar misollarida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tabiat muzeylari, London Tabiat tarixi muzeyi, Microsoft, SAOLA Studio, virtual sayohat, tabiat laboratoriyasi, Los-Andjelesdagi Tabiat tarixi muzeyi, multimediya installyatsiyasi, Kanada Tabiat muzeyi.*

Аннотация: *Данная статья рассказывает о реинновациях традиционных музеев природы с использованием различных интерактивных методов в целях продвижения естественных знаний, и экологической культуры, которая освещена на примере ряда всемирно известных музеев.*

Ключевиые слова: *Музеи природы, Лондонский Музей естественной истории, Microsoft, SAOLA Studio, виртуальный тур, лаборатория природы, Музей Естественной истории в Лос-Анджелесе, мультимедийная инсталляция, Канадский музей природы.*

Annotation: *This article talks about the innovations of traditional nature museums using various interactive methods to promote natural knowledge, and ecological culture, which is highlighted by the example of a number of world-famous museums.*

Key words: *Nature museums, The Natural History Museum (London), Microsoft, SAOLA Studio, virtual tour, Nature Laboratory, Natural History Museum of Los Angeles, multimedia installation, Canadian Museum of Nature.*

Muzeylar bugungi kunda faqat san’at va tarixni namoyish qilish joylari emas, balki ta’lim, jamiyatni anglash va ijtimoiy dialog markazlariga aylangan. Yangi metodologiyalar va texnologiyalar muzeylar faoliyatini yangi o‘lchamda takomillashtirmoqda va ularga zamonaviy talablarga javob berish imkoniyatini yaratmoqda.

Tabiat muzeylari hozirgi kunda mamlakatning ekologiya, iqlim o‘zgarishi hamda atrof-muhitni asrash haqidagi targ‘ibot ishlarida muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi texnologiyalar rivojlanib borayotgan raqamli davrda insonlar ongiga ekologik bilimlarni yetkazish yangicha uslublarni talab qiladi. Bugungi kun odamlarini hayratlantirish bir muncha mushkul bo‘lgani sabab muzeylar, xususan, tabiat muzeylari bu sohada innovatsiya va novatsiyalarga kuchli ehtiyoj sezadi. Ushbu yo‘nalishda tabiat muzeylari allaqachon boshqa sohalar hamkorligi va integratsiyasi yordamida bir qator loyiha, tajriba va sinovlarni amalga oshirib kelmoqda.

Dunyoga mashhur muzeylar o‘zlarining ekspozitsiyalarida eksponatlarni interaktiv tartibda foydalanishga mo‘ljallangan ko‘rgazmalarga urg‘u berishni

boshladi. Muzeyda muvaffaqiyat mezoni ham kolleksiyaning jamoat tomonidan baholanishidir. Muzey mahsulotidan foydalanishning noyobligi shundaki, tashrif buyuruvchi bu jarayonning ko‘pgina jihatini nazorat qiladi: nimani va qancha vaqt tomosha qilish yoki eshitish, ekskursiya rahbarini tinglash yoki yorliqlami o‘qishning barchasini u o‘zi tanlaydi.

Muzeylar o‘zgarmoqda, endi bu yerga kelgan odam yo‘qolib ketish arafasida bo‘lgan o‘simlik va hayvonlar hamda insonning tabiatga ta’siri haqida tasavvurga ega bo‘lishi uchun tabiat muzeylari turli xil uslublardan foydalanmoqda. Masalan, Londonning dunyoga mashhur zabardast Tabiat tarixi muzeyi virtual reallikdan foydalangan holda antropogen ta’sir natijasida bir asrdan keyin tabiat qanday holda bo‘lishi mumkinligi haqida virtual olamga sayohat xizmatini taklif etadi. Bu lohiya muzey “Microsoft” va “SAOLA Studio” tashkilotlari va ilmiy xodimlarining ilmiy ishlari asosida amalga oshirildi. Tashrif buyuruvchi virtual bosh kiyimini kiyish orqali tasavvuriy reallikka tushib, odamlar ta’sirida o‘zgargan kelajakdagi taxminiy tabiat olamini ko‘rishadi. Unda yo‘qolish xavfi ostida turgan o‘simlik va hayvonot olami qanday qilib o‘zgargan muhitga moslashganligini hamda yovvoyi tabiatning mo‘jizaviy hududlarini tomosha qilish mumkin. Olingan taassurotlar natijasida tomoshabinda Yer sayyorasini himoya qilishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otish loyihaning asosiy maqsadidir. Virtual sayohat turli-tuman dasturlarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, sun’iy ong (SO) dan foydalanib, Arktika muzliklarining erishi natijasida dengiz hayvonot olamidagi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Ya’ni, bunda tomoshabin tabiatning insoniyatni industrial faoliyatiga bo‘lgan javobini ko‘rishi mumkin bo‘ladi.

1-rasm. London Tabiat tarixi muzeyi virtual reallik interaktiv usuli.

Tabiat muzeylarida o‘n yillardan beri qo‘llaniladigan yana bitta innovatsion uslub bu “Tabiat laboratoriyasi”. Bunga misol qilib, Los-Andjelesdagi Tabiat tarixi muzeyini olish mumkin. Ulkan hududni egallagan, haqiqiy tadqiqotchilar foydalanadigan asbob va anjomlar bilan ishlash mumkin bo‘lgan yopiq hudud bo‘lib, bu yerda xattoki tirik hayvonlar bilan tanishish imkoni ham mavjud. Ushbu tabiat laboratoriyasida tashrif buyuruvchi turli-tuman noodatiy interaktiv metodlar yordamida tabiatni o‘rganishi mumkin. Bu laboratoriyadan maqsad, tashrif buyuruvchilarning ham hayvonot va nabodot olamini ilmiy o‘rganishda ishtirok etishi orqali tabiatga bo‘lgan mehrni oshirish.

Shu bilan birga, bolalarning psixologik o‘ziga xosligidan foydalangan holda ular uchun maxsus “Kashfiyotlar markazi” interaktiv o‘yingohi ham faoliyati yo‘lga

qo‘yilgan. Bu yerda yosh tabiatshunoslar o‘zlarini poleontolog kabi xis qilishib qumlar tagidan dinozavr qoldiqlarini qazib olishi, tirik hasharotlarni rivojlanishini tomosha qilib o‘rganishi, hamda eng qiziqarlisi – o‘z bilimlarihamda hamda tasavvur olamidan foydalanib diaramalar tuzishi mumkin bo‘ladi.

2-rasm. Los-Andjelesdagi Tabiat tarixi muzeyi “Tabiat laboratoriyasi”.

Shu kabi interaktiv usullar bolalarda nafaqat tabiatga e’tiborni, balki tabiiy fanlarga qiziqishni uyg‘otadi, va shu bilan birga muzey haqida kengroq tasavvur ham paydo qiladi.

4-rasm. Los-Andjelesdagi Tabiat tarixi muzeyining “Kashfiyotlar markazi” interaktiv o‘yingohi

Tabiat muzeylarida qo‘llaniladigan yana bir o‘ziga xos va yangi texnologiya bu – multimediya installyatsiyasidir. Kanada Tabiat muzeyida muzlik davrida yashagan va hozirda mavjud bo‘lmagan yo‘qolib ketgan hayvon turlarini “Muzlik sayyorasi: Muzlik davri sirlari” nomli interaktiv multimediya installyasiyasidan foydalangan holda tomosha qilish imkoni mavjud. Buning o ‘ziga xosligi shundaki, muzlik davri hayvonlari 3D animatsiyasi imo-ishora bilan harakatga keltiriladi. Installyatsiyada muzlik davri muhitini tomosha qilish, tana harakatlari bilan mamont va so‘yloq tishli yo‘lbarslar kabi hayvonlarni jonlantirish mumkin bo‘ladi.



3-rasm. Kanada Tabiat muzeyidagi “Muzlik sayyorasi: Muzlik davri sirlari” nomli interaktiv multimediya installyasiyasi

Tabiat muzeylarida yuqorida keltirilgan kabi yangicha uslublardan foydalanish an’anaviy muzeylarni reinnovatsiya qilishning eng samarali uslublardandir.

Tabiat muzeylari – dunyo miqyosida tabiatni o‘rganish va uni asrab-avaylashni va targ‘ib etish borasidagi eng yaxshi ilmiy-ma’rifiy muassasa sanaladi, shu sababli bugungi kunda muzeylarda interaktiv uslublardan foydalanish yildan yilga ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muzeyshunoslik. O‘quv qol1anma./ O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018. – 206 b.
2. ahaslides.com/uz/blog/interactive-museum
3. www.nhm.org
4. www.nhm.ac.uk
5. momentfactory.com/products/canadian-museum-of-nature

NORMURODOVA Farangiz Xolmurodovna
JDPU I bosqich tayanch doktoranti
normurodovaf81@gmail.com

JIZZAX VILOYATIDAGI MUZEYLAR FAOLIYATI HAQIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada madaniyat muassasalaridan biri bo‘lmish muzeylarning tashkil topishi, mustaqillik yillarida muzeylarga berilgan etibor, Jizzax viloyati hududida joylashgan muzeylar, ularning tashkil etilishi va faoliayti haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Madaniyat muassasalari, muzey, Ho‘ja Nuriddin, Jizzax, Zomin, Baxmal, G‘allaorol, Forish, Mirzacho‘l, Gagarin, Hamid Olimjon, Zulfiyaxonim, Sharof Rashidov, Sattor Qoraboyev, kosmonavtika muzeyi.*

Аннотация: *Вданной статой рассказывается о создании музеев, одного из учреждений культуры, внимании уделяемом ммузеям в годы независимости,*

музеях, расположенных на территории Джизакской области, их организации и деятелъности.

В-третьих, это продолжение предыдущего - чтобы сохраненные данные и знания «ферментировались» в уникальный результат [5]. Это время, когда разум превращает скалки в настоящие бриллианты. Например, можно получить вдохновение от работы над муравьями в университете или школе. Им интересно, как живут, работают, хранят и общаются муравьи. Следующим шагом является то, что они тратят много времени на изучение муравьев и их образа жизни.

Эта информация поступает в долгосрочную память и по мере того, как человек об этом думает, расширяет его восприятие муравьев, эта информация

начинает «ферментироваться», так сказать, в ценный ресурс для расширения своих зоологических знаний о других насекомых, и здесь появляются возможности для эффективной идеологии, воображения и творчества. Альберт Эйнштейн сказал: "Креативность - это интеллект, который развлекается."[1] Другими словами, наши основные знания по предмету задействованы и обогащены посредством игрового взаимодействия интеллекта и воображения.

В-четвертых, творчество как привычка [6]. Высшая форма творчества может быть результатом вечной и неустанной художественной практики. Есть точная поговорка: «Не тренируйся, пока не сделаешь правильный выбор, тренируйся, пока не сделаешь неправильный выбор» [1]. Все мы любим инструментальную музыку, в ней есть таинственная красота, которая вызывает у слушателя глубокое чувство покоя и удовлетворения. Великие музыканты и певцы достигают высшего пьедестала благодаря своей непрерывной работе в своей области. Совершенствование своих способностей, трансформация и мастерство возможны, благодаря привычным действиям и практике.

Постоянная практика формирует привычку, привычка улучшает результативность и приводит к повышению креативности. По мнению автора, плодами творческого мышления являются не вспышки или мгновения прозрения, а напряженный труд и открытие скрытых возможностей. Одним словом, творчество - это длительный процесс преднамеренного обучения, исследования и применения, а не мимолетный импульс.

И последнее, но не менее важное, по мнению Пабло Пикассо, творчество также может теряться со временем или разбавляться. Он писал: «Каждый ребенок - художник. Проблема в том, как стать художником, когда вырастешь» [2]. Это свидетельствует о том, что дети часто достигают подросткового возраста и, в конечном итоге, становятся взрослыми, теряют способность к творчеству, мыслить вне ящика, перестают бояться чужого мнения. Как красноречиво говорит Джим Квик, основатель платформы обучения Kwin: «Дети творческие, потому что не заботятся об ожиданиях и мнениях других людей. Они не боятся» [7]. Таким образом, дети от природы творческие, но по мере взросления они часто теряют эту прирожденную способность к творческому мышлению.

В общем, творчество - это навык, который подчиняется всем человеческим существам, и из приведенных примеров его можно сформировать и сформировать человеческим усилием, упорным трудом и желанием. Творчество участвует во всех аспектах человеческой жизни и не обязательно вовлекается в жизнь немногих элит, гениев или исключительно талантливых людей. Многие пути развития творчества можно легко найти в Интернете, журналах и книгах. Если не ценить и не практиковать способность к творческому мышлению, это может ухудшиться по мере того, как молодые творческие люди становятся взрослыми.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение, можно утверждать, что одним из наиболее серьезных препятствий на пути к творчеству является страх, вызванный ожиданиями

окружающих. Эти ограничения мешают молодым людям раскрыть свой творческий потенциал и препятствуют созданию поддерживающей атмосферы, необходимой для инноваций и самовыражения. Для того чтобы преодолеть эти барьеры, важно формировать дружескую среду, которая будет способствовать принятию индивидуальности и поощрению экспериментов. Только в таких условиях молодые люди смогут не только развивать свои идеи, но и оставить уникальный след в мировой истории, внося значимый вклад в культурное и научное развитие общества.

В то же время страх перед ожиданиями окружающих представляет собой одно из наиболее серьезных препятствий на пути к важным последствия для музейной педагогики и основании концепции музейных экспозиций. Ожидания и давление со стороны общества могут ограничивать не только индивидуальное самовыражение, но и коллективное творчество, необходимое для создания инновационных и привлекательных музейных проектов.

Музейная педагогика, в свою очередь, призвана преодолевать эти барьеры, формируя поддерживающую и инклюзивную атмосферу, где посетители могут свободно исследовать, задавать вопросы и выражать свои идеи. Создание дружеской среды в музеях способствует принятию индивидуальности и поощрению экспериментов, что позволяет не только развивать творческий потенциал участников, но и формировать уникальные экспозиции, которые оставляют значимый след в культурной и научной истории. Таким образом, взаимосвязь между преодолением страха и созданием эффективных музейных концепций подчеркивает важность поддержки креативности и инноваций в образовательных и культурных учреждениях.

Список источников:

1. Кант И. Изречения. // https://ru.citaty.net/temy/vybor/
2. Латка В. Пабло Пикассо. Каждый ребенок художник // https://www.radiovan.fm/station/article/40584
3. Vlad Petre Glaveanu. Habitual Creativity: Revising Habit, Reconceptualizing Creativity. London School of Economics. Review of General Psychology. 2012, Vol. 16, No. 1, 78 –92.
4. Fasko, D. Jr. (2000–2001). Education and creativity.
5. Harford, T. (2019). A Powerful Way to Unleash Your Creativity. TED Talk.
6. Gregory, D. (December 7, 2022). The Creative Process: 3 steps to unlock your hidden potential. Art for All. Podcast series.
7. Kwik, J. (December 9. 2022). How to be More Creative? YouTube Video material.
8. Saint-Exupery, A. The Little Prince. 1943. Ch.1.

KADIROV Mansurbek Bazarboyevich
Oriental universiteti II bosqich magistr talabasi

MUZEYLARDA TARIX DARSLARINI O‘TISH

Annotatsiya: *Maqolada muzeylarda tarix fanini o‘qitish masalasi tahlil qilinadi. Muzeylar nafaqat eksponatlar saqlanadigan joy, balki tarixiy bilimlarni jonli tarzda o‘rganish imkonini beruvchi ta’lim maskanlari sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muzey pedagogikasining tarix fanidagi o‘rni, innovatsion ta’lim metodlari, xalqaro tajribalar va O‘zbekistonda muzeylar orqali tarix darslarini samarali o‘tish bo‘yicha takliflar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *muzey pedagogikasi, tarix ta’limi, interaktiv metodlar, tarixiy meros, innovatsion texnologiyalar, o‘quv jarayoni.*

Annotation: *The article analyzes the issue of teaching history in museums. Museums are not only places where exhibits are preserved but also serve as educational institutions that provide a vivid way to study historical knowledge. The role of museum pedagogy in history education, innovative teaching methods, international experiences, and proposals for effectively conducting history lessons through museums in Uzbekistan are highlighted.*

Keywords: *museum pedagogy, history education, interactive methods, historical heritage, innovative technologies, learning process.*

Аннотация: *В статье анализируется вопрос преподавания истории в музеях. Музеи — это не только места хранения экспонатов, но и важные образовательные учреждения, позволяющие изучать исторические знания в живой форме. Рассматривается роль музейной педагогики в преподавании истории, инновационные методы обучения, международный опыт и предложения по эффективному проведению уроков истории в музеях Узбекистана.*

Ключевые слова: *музейная педагогика, преподавание истории, интерактивные методы, историческое наследие, инновационные технологии, учебный процесс.*

Muzey pedagogikasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tarixiy merosni yosh avlodga yetkazish va ularda mustaqil tafakkurni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Muzeylar nafaqat eksponatlar saqlanadigan joy, balki jonli ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiluvchi maskanlar sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muzey darslari orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni bevosita ko‘rish, his qilish va anglash imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishda samarali usullardan biri sanaladi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim jarayonida muzeylardan foydalanish va ularni o‘quv dasturlariga keng jalb etish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda muzeylar orqali tarix darslarini o‘tish masalasi dolzarb bo‘lib, bu borada innovatsion metodlardan foydalanish va muzeylarning o‘quv jarayoniga faol integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarix fanini o‘qitishda interaktiv yondashuvlar, eksponatlar bilan bevosita ishlash, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Xususan, muzey eksponatlarini raqamlashtirish, audiogidlar, interaktiv ekspozitsiyalar va tarixiy rekonstruksiyalar orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada qiziqarli va esda qolarli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, muzeylarda tarix darslarini tashkil etish o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muzey pedagogikasining rivojlanishi nafaqat ta’lim sifati, balki yosh avlodning madaniy merosga hurmatini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim sanaladi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishni yanada takomillashtirish uchun muzeylar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish, o‘qituvchilarni muzey pedagogikasi bo‘yicha malakasini oshirish kabi tashabbuslar amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilarning muzeylarga tashriflarini yanada ommalashtirish va dars jarayonlarida muzey materiallaridan faol foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi (Ibodov, 2023, s. 12).

Dunyo tajribasida muzeylar nafaqat eksponatlarni namoyish etish, balki ularni ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish orqali samaradorlikka erishmoqda. O‘zbekistonda ham tarixiy yodgorliklar va muzey kolleksiyalarini ta’limga integratsiya qilish orqali tarix fanining yanada jonli va qiziqarli o‘tilishini ta’minlash zarur.

Muzeylarda tarix darslarini o‘tishning afzalliklari – muzeylar orqali o‘qitish nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning tarixni chuqurroq anglashiga, mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Muzey eksponatlari bilan bevosita tanishish orqali o‘quvchilar mavzuni an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Asosiy afzalliklar:

Tarixiy hodisalarni jonli idrok etish;

Estetik va tarixiy tafakkurni shakllantirish;

Mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

An’anaviy darslardan farqli ravishda, mavzuni uzoq muddat eslab qolish imkoniyati.

Interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlarMuzeylarda tarix darslarini o‘tishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin:

Tematik ekskursiyalar – muayyan tarixiy davr yoki shaxsga bag‘ishlangan maxsus ekskursiyalar tashkil etish;

Raqamli texnologiyalar – 3D modellashtirish, virtual va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish;

Didaktik o‘yinlar – tarixiy voqealarni sahnalashtirish va o‘quvchilar ishtirokida jonlantirilgan darslar o‘tkazish;

Tajriba asosida o‘rganish – o‘quvchilarga tarixiy artefaktlar bilan bevosita ishlash imkoniyatini yaratish.

O‘zbekistonda muzeylarda tarix fanini o‘qitishning holati va istiqbollari O‘zbekistonda tarix darslarini muzeylarda o‘tish bo‘yicha ayrim tajribalar mavjud bo‘lsa-da, bu jarayon hali to‘liq rivojlanmagan. Quyidagi muammolar mavjud:

Muzeylarda interaktiv ta’lim vositalarining yetishmovchiligi;

Muzey xodimlarining pedagogik tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi;

Maktab va muzeylar o‘rtasidagi hamkorlikning yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Muzeylar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

Tarix o‘qituvchilari va muzey mutaxassislari uchun maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

Interaktiv va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish.

Xulosa Muzeylarda tarix darslarini o‘tish ta’lim jarayonini boyitish va o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Muzey darslari orqali o‘quvchilar tarixiy voqealar, madaniy meros va muhim shaxslar haqida bevosita tasavvurga ega bo‘lib, ularni yanada chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul tarixiy bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, muzey pedagogikasini rivojlantirish orqali O‘zbekistonda tarix fanini o‘qitish sifati oshirilishi mumkin.

Muzey ta’limining afzalliklaridan biri shundaki, u o‘quvchilarni faqatgina tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida o‘qitish imkonini beradi. Eksponatlar bilan ishlash, tarixiy sharoitni his qilish va jonli taassurot olish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ularning mustaqil tafakkurini rivojlantirib, tarixiy bilimlarni uzoq vaqt eslab qolishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, muzey darslari nafaqat ta’lim jarayonini diversifikatsiya qiladi, balki o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muzey pedagogikasining keng joriy etilishi tarix fanining an’anaviy o‘qitish uslublaridan farqli ravishda o‘quvchilarga real muhitda bilim olish imkonini beradi. Bu jarayon ularning tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va muhim xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, muzey darslari o‘quvchilarga milliy va jahon tarixini chuqur anglash, madaniy merosga hurmat bilan yondashish va tarixiy voqealar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish imkonini yaratadi.

Shu sababli, zamonaviy yondashuvlar va interaktiv metodlarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayoniga muzey materiallarini faol integratsiya qilish orqali tarix darslari yanada samarali va esda qolarli bo‘lishi mumkin. Muzeylar shunchaki eksponatlar jamlanmasi emas, balki jonli ta’lim muhitiga ega bo‘lgan o‘quv maskanlari sifatida keng qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibodov, M. (2023). *Muzey pedagogikasining nazariy asoslari*. Toshkent: Ilmiy Nashriyot.
2. Hein, G. (1998). *Learning in the Museum*. London: Routledge.
3. Falk, J. H., & Dierking, L. D. (2000). *Learning from Museums: Visitor Experiences and the Making of Meaning*. Walnut Creek, CA: AltaMira Press.
4. Hooper-Greenhill, E. (2007). *Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance*. London: Routledge.
5. Anderson, D. (2004). *A Common Wealth: Museums and Learning in the UK*. London: Department for Culture, Media and Sport.

6. Black, G. (2012). *Transforming Museums in the Twenty-First Century*. London: Routledge.
7. Hooper-Greenhill, E. (1994). *The Educational Role of the Museum*. London: Routledge.

FAYZULLAYEVA Saodat
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, 2- kurs magistranti

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONIDA MMUZEY PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Maktabgacha yosh - bu bolaning hissiy tajribasini boyitish va tartibga solish, idrok etish va fikrlashning insoniy shakllarini o'zlashtirish, nutq, tasavvurning jadal rivojlanishi. Kichkina odam atrofidagi dunyoni kashf qila boshlaydi, o'zini va boshqasini, yaqin va uzoqni bilish uchun birinchi qadamlarni qo'yadi. SHu sababli bolalarni fikirlashini tartibga solishda, rivojlantirishda bog'cha va muzey aloqasini o'rnatib bog'chalarda loyihalar tashkil etish masalasi ushbu maqolada yoritilgan.*

Kalit So'zlar*: Maktab , muzey , pedagogika, ko'rgazma, psixologiya, kolleksiya, bog'cha.*

Аннотация: *Дошкольный возраст – это обогащение и регуляция эмоционального опыта ребенка, приобретение человеческих форм восприятия и мышления, бурное развитие речи и воображения. Маленький человек начинает познавать окружающий мир, делает первые шаги к познанию себя и других, близких и дальних. По этой причине в данной статье освещается вопрос организации проектов в детских садах с целью регулирования и развития детского мышления путем установления связи детского сада и музея.*

Ключевые слова*: Школа, музей, педагогика, выставка, психология, коллекция, детский сад.*

Annotation: *Preschool age is the enrichment and regulation of a child's emotional experience, the acquisition of human forms of perception and thinking, the rapid development of speech and imagination. A small person begins to discover the world around him, takes the first steps to know himself and others, near and far. For this reason, the issue of organizing projects in kindergartens in order to regulate and develop children's thinking by establishing a link between kindergarten and museum is covered in this article.*

Key words: *School, museum, pedagogy, exhibition, psychology, collection, kindergarten.*

"Muzey pedagogikasi" atamasi birinchi marta muzey va maktab o'rtasidagi o'zaro aloqalar muammolarini muhokama qilish munosabati bilan paydo bo'ldi. Va dastlab u asosan talabalar bilan ishlashga qaratilgan muzey faoliyati sifatida talqin

qilindi. Muzey pedagogikasi muzeyshunoslik, pedagogika va psixologiya chorrahasida joylashgan va muzeyni ta’lim tizimi sifatida ko‘rib chiqadigan ilmiy fan sifatida tushuniladi. Muzey pedagogikasining asosini madaniy va tarixiy tajribani etkazish amalga oshiriladigan muzey-pedagogik jarayon tashkil etadi. Muzeyning ta’lim maqsadi haqidagi g‘oyani birinchi marta 1913 yilda Manngeymda bo‘lib o‘tgan "Muzey ta’lim va ta’lim muassasasi sifatida" konferensiyasida A.Lixtvarkshakllantirgan, shuningdek, tashrif buyuruvchiga dialog ishtirokchisi sifatida yangi yondashuvni taklif qilgan.[1] “ Muzey suhbatlari" usulini amaliyotga tatbiq etib, u birinchi navbatda tashrif buyuruvchiga san’at bilan muloqot qilishda, san’at asarlarini ko‘rish va zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradigan vositachi rolini asoslab berdi (keyinchalik bunday vositachi muzey pedagogi nomini oldi.) [2].

Hozirgi vaqtda muzey pedagogi – muzeyda o‘quv faoliyatini amalga oshiruvchi mutaxassis. Ushbu turdagi faoliyatda o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan maqsadlar quyidagilardan iborat:

- muzey va uning kolleksiyalari orqali dunyo xalqlarining jahon san’ati va madaniyatini bilishga qiziqish uyg‘otish;
- madaniyatning bir qismi sifatida muzey yodgorliklariga ehtiyotkorlik, hurmat bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash va tabiat va madaniyat birligi haqidagi tushunchani shakllantirish.

Hozirgi bosqichda muzey o‘qituvchilarining asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

1. Madaniy merosga munosabatni paydo qilish va muzey qadriyatlari bilan muloqot qilish didini shakllantirishga qaratilgan faoliyat va muzey tomoshabinlari bilan ishlash.
2. Muzey ma’lumotlarini idrok etish, muzey ekspozitsiyasi tilini tushunish qobiliyatini rivojlantirish.
3. Hissiyotlarni tarbiyalash, tasavvur va fantaziyani rivojlantirish, ijodiy faoliyat.
4. Muzeyda tomoshabinlar bilan ishlash samaraliroq bo‘lishi uchun sharoit yaratish.
5. Muzey ta’limining yangi texnologiyalaridan individual loyihalar shaklida, turli ob’ektlarda, turli sheriklarni jalb qilgan holda foydalanish va ommalashtirishmuzey pedagogining vazifalari: muzey tomoshabinlarining turli yosh toifalariga muzeylarning pedagogik ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash; muzey ishining eng to‘g‘ri shakllarini aniqlash; tashrif buyuruvchilarning muzey madaniyatini baholash va boshqalar.

Muzey madaniyati muzey pedagogikasida eng muhimlaridan biri bo‘lib, tashrif buyuruvchining mavzu ma’lumotlarini idrok etishga tayyorlik darajasi sifatida qaraladi. Keng ma’noda muzey madaniyati - bu shaxsning voqelikka qadriyatli munosabati, insoniyat tarixiga hurmati, kundalik hayotda muzey ahamiyatiga ega bo‘lgan ashyolarni baholash qobiliyatidir. T.Y. A. Markova muzey madaniyatini muzeyga tashrif buyurish va ekspozitsiyani tomosha qilishning maqsadliligi sifatida tavsiflaydi [3]. Muallif, shuningdek, tashrif buyuruvchining muzey madaniyatini tavsiflash uchun uning boshqa manbalar bilan taqqoslaganda (muzeylar va ko‘rgazmalar) muzey ma’lumotlarining o‘ziga xosligini bilishi va muzeylar bilan muloqot qilish qobiliyatiga juda muhimligini ta’kidlaydi.

Muzey madaniyatining ko‘rsatkichlari odamlarning muzey haqidagi dastlabki ma’lumotlarning turli manbalariga (kitoblar, davriy nashrlar, reklama nashrlari, radio va teleko‘rsatuvlar) murojaatlaridir. Muzey tomoshabinlarini tahlil qilish munosabati bilan muzey madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda muzeylarning o‘quv va ma’rifiy faoliyati bilan bog‘liq vazifalari va funktsiyalari qayta ko‘rib chiqilmoqda. [4] Ushbu bosqichda muzey va tashrif buyuruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi usullarini faol izlash, bu munosabatlarning turli shakllari va usullarining paydo bo‘lishi tendentsiyalari mavjud.

Demak, muzeyshunos-tadqiqotchilar tarbiyaviy faoliyatning asosiy maqsadini shaxsda madaniyatning u yoki bu hodisasini ijodiy idrok etish qobiliyatini shakllantirishda, uni madaniy sohaga uzviy kiritishda ko‘radilar.

Muzeyning tarbiyaviy ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlari tasdiqlanishi bilan muzey pedagogikasi asoslarini ishlab chiqish, muzey va bolalar va o‘smirlar tomoshabinlari o‘rtasidagi aloqalarni izlash boshlandi, bunda ta’sir maksimal va samarali bo‘ladi. Yosh avlodni muzeylarga jalb etish, shaxsni ijodiy kamol toptirishni muzey pedagogikasining asosiy maqsadi hisoblanadi. . Ushbu maqsadga muvofiq, muzey madaniy-tarixiy muloqot maskani sifatida qabul qilinadi. Muzey pedagogikasi orqali inson madaniy qadriyatlarga bog‘lanib qoladi, umuminsoniylikning o‘ziga xos ko‘rinishlarini tushunishni o‘rganadi. SHunday qilib, ob’ektlar bilan bevosita aloqa qilish tajribasi, asosiy narsa ob’ektlar emas, balki ular tomonidan ifodalangan ma’nolar, muzey makonini faol rivojlantirish jarayonida tashrif buyuruvchining madaniy birlashmalari bo‘lganda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, muzeyning sub’ekt-fazoviy muhiti ham san’at asarlarini, ham ekzotik ob’ektlarni, tarixiy yodgorliklarni va tabiat yodgorliklarini o‘z ichiga olishi mumkin. Shunga qaramay, tashrif buyuruvchilar mavzu bilan "ishlash", o‘zlarini ijodkorlikda namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Muzey pedagogikasi tufayli muzeyga tashrif buyuruvchi katta ma’lumotlar oqimiga duchor bo‘lgan soqov ob’ekt bo‘lishni to‘xtatadi, muzey unga suhbatdosh, to‘liq sherik, suhbat ishtirokchisiga aylanishni taklif qiladi. Bugungi kunda muzeylar eng muhim muammolardan biri - tashrif buyuruvchilarni jalb qilish muammosiga duch kelmoqda. Har bir muzey uni hal qilishning o‘ziga xos usullarini qidiradi. Davlat muzeylari o‘z tomoshabinlarining xususiyatlariga e’tibor qaratib, muzey-pedagogik dasturlarni joriy etish orqali bu muammoni hal qilishga harakat qilmoqda. Shunga qaramay, muzeylarga tashrif buyurish u yoki bu tarzda ko‘pchilik uchun tashkillashtirilgan ekskursiyada ishtirok etish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda, garchi aslida bu ish shakli yagona emas. Muzeylarda madaniy-ma’rifiy ish shakllarining soni o‘ndan yuztagacha va undan ko‘p bo‘ladi. Mutaxasislar madaniy-ma’rifiy faoliyatning asosiy an’anaviy shakllariga ekskursiyadan tashqari ma’ruza, klub, studiya, to‘garak, kechki yig‘ilishlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, muzey bayramlari va boshqalar kiradi deb hisoblaydi. Mualliflarning ta’kidlashicha, madaniyat, ta’lim va fanning boshqa sohalaridan yoki muzey faoliyatining yangi texnologiyalarini ishlab chiqish natijasida olingan shakllar noan’anaviy deb hisoblanishi mumkin.

Bu shakllar muzey pedagogikasining axborot, ta’lim, ijodkorlikni

rivojlantirish, muloqot, dam olish kabi turli sohalariga kiritilgan.

Bunday tanlov shartli hisoblanadi, chunki yo‘nalishlarning o‘zi o‘zgaruvchan, harakatchan va ko‘pincha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq yoki ba’zi jihatlarda kesishadi. Biroq, muzey pedagogik faoliyatida uslubiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun ushbu yo‘nalishlarning har biri bo‘yicha ishning maqsad va vazifalarini aniq tushunish, shuningdek, muzey tomoshabinlari bilan ishlashning eng maqbul shakli va usullarini o‘ylab ko‘rish kerak. Umumiy mavzu bilan birlashtirilgan va yagona pedagogik maqsadga bo‘ysunadigan turli shakllarning yig‘indisi muzey-pedagogik dasturning asosiga aylanadi. Masalan, dam olish - bu muzey tomoshabinlarining istak va umidlariga muvofiq bo‘sh vaqtni tashkil etish, muzey muhitida dam olishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish. Ushbu dam olish shakllarining aksariyati turli yoshdagi tomoshabinlar uchun mo‘ljallangan (yarmarka, karnaval, ochiq eshiklar kuni, muzey festivali, kontsert, va boshqalar), ammo tashrif buyuruvchilarning ayrim toifalari uchun maxsus ishlab chiqilgan dam olish va ko‘ngilochar shakllari ham mavjud (maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin xonasi, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun muzeydagi YAngi yil archasi, keksalar uchun choy kechasi, muzeyda bitiruv oqshomi va boshqalar).

Ko‘pincha muvaffaqiyatli shakllar murakkabdir.

Yo‘nalishlar singari, shakllar ham takomillashtiriladi va rivojlanadi. Ular tarixiy sharoit, ilmiy izlanish va ishlanmalar, jamiyat talablari ta’sirida o‘nlab yillar davomida shakllanib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Madaniy-ma’rifiy faoliyatning har qanday shaklining asosiy prinsipi tashrif buyuruvchilarga o‘zlarini qiziqtirgan narsalarni qilish imkoniyatini berish, o‘zini o‘zi anglash uchun sharoit yaratishdir. SHu bilan birga, muzeyga tashrif buyuruvchilarning har xil turlari va toifalarining psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Bu ishlarning samaradorligi muzeyning boǵcha bilan o‘zaro hamkorligiga, boǵcha va muzey pedagogikasining uzviy bog‘liqligiga ham bog‘liq.

Muzey pedagogikasining nazariy asoslarini tahlil qilish muzey va pedagogik faoliyatning maqsad, vazifalari va mazmuniga eng aniq javob beradigan quyidagi usullarni aniqlash imkonini berdi:

• ijtimoiy rollar;
• o‘yin vaziyatlarini yaratish;
• ob’ektlar bilan amaliy manipulyatsiya;
• teatrlashtirish;
• mustaqil izlanish va tadqiqot faoliyati. Bu usullarning barchasi muzey auditoriyasining turli toifalari bilan ishlashda muzey o‘qituvchilarining amaliy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Turli yo‘nalishlarda rivojlanib, muzey pedagogikasi yangi masalalar va usullarni aniqlashga yordam beradi; yangi tuzilmada ta’lim bo‘limlarini shakllantiradi; madaniy-ma’rifiy dasturlar va loyihalarni ishlab chiqishda o‘z ifodasini topadigan ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini ta’lim faoliyatiga jalb etadi.

Hamma davlat muzeylari ham ta’lim muassasalari bilan bevosita o‘zaro aloqada emas. Qoida tariqasida, bunday hamkorlikni amalga oshirish ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun tematik ekskursiyalar, ma’ruzalar, fakultativ o‘quv kurslarini o‘tkazishdan iborat.

Ammo shunday muzeylar ham borki, ularning faoliyati maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. 1989 yilda 199-sonli umumta’lim maktabi va bolalar bog‘chasi bilan ish boshlagan Davlat rus muzeyi faoliyati bu borada yaxshi misol bo‘ladi. Davlat rus muzeyi xodimlari bolalarda umumiy madaniy darajani oshirish bo‘yicha noyob pedagogik tajribani boshladilar. Ushbu muammoni hal qilish ta’lim tizimi bilan yangi munosabatlarni, maktabgacha va maktab ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni talab qildi. Bir yil o‘tgach, Rossiya Davlat muzeyida o‘qituvchilar, rassomlar, psixologlar, san’atshunoslar va dasturiy ta’minot muhandislarining katta guruhini birlashtirgan Rossiya muzey pedagogikasi va bolalar ijodiyoti markazi tashkil etildi. Mahalliy amaliyotda birinchi marta - bolalar bog‘chasidan universitetgacha san’at muzeyi va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik tizimi ishlab chiqildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash zamonaviy muzeylar uchun eng qiyin, chunki ular ko‘proq maktab va universitetlarga qaratilgan. Ayni paytda maktabgacha ta’lim muzeylar bilan hamkorlik ko‘lamini izchil va sezilarli kengaytirmoqda. Hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘zida muzey muhitini yaratish masalasi tug‘iladi. Ilgari, bu qoida tariqasida, ko‘rgazmali burchaklar va reproduktsiyalar namoyishi edi. [4] Ammo maktabgacha ta’lim muassasalarida muzey muhitining mazmuni kengaytirilishi mumkin. Rossiyaning turli shaharlarida bolalar va o‘smirlarni muzey madaniyati bilan tanishtirish uchun mintaqaviy dasturlar yaratilmoqda. Masalan, Taganrog shahridagi maktabgacha ta’lim muassasasida muzeylar bilan hamkorlikda "Mening Taganrogim" dasturini amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Актуальные вопросы формирования интереса в обучении /Г.И. Щукина, В. Н. Липник, А. С. Роботова и др.; Под ред. Г. И. Щукиной. – М.: Просвещение, 1984. – 176 с.
2. Атемаскина Ю.В. Организация проектной деятельности детей дошкольного возраста //Детский сад: теория и практика. – 2012. - № 9. – С.34-40.
3. Виниченко В.В. Музей и детские дошкольные учреждения//Международный музейно-педагогический семинар «Здравствуй, музей» (Тезисы семинара)13-18 марта 1995 г. – СПб., 1995. - С. 24-27.
4. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное развитие детей от первого проявления сознания до школьного возраста: 7-е изд., перераб и допол. - СПб., 1913. - 356 с.
5. Газизова Н. Музейная педагогика в детском саду // Дошкольное воспитание. – 2012. - № 6. – С.25-28.

JO‘RAYEVA Zuhra Jalol qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.n., professor Y.X.Gaffarov
jurayevazuhra2303@gmail.com

MUZEYLARNING TA’LIM TARBIYA TIZIMIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada muzeylarning ta’lim va tarbiya tizimidagi o‘*rni tahlil qilinadi. Muzeylar nafaqat tarixiy yodgorliklarni saqlovchi maskan, balki o‘quvchilarga va talabalariga bilim beruvchi muhim ta’lim manbai ekanligi yoritiladi. Muzeylarning ko‘rgazmali ta’lim vositasi sifatida o‘quv jarayonidagi ahamiyati, ilmiy-tadqiqot markazi sifatidagi roli va madaniy merosni asrashdagi hissasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, muzeylarning vatanparvarlik, axloqiy va ekologik tarbiyadagi ta’siri tahlil qilinib, ularning yosh avlod ongini shakllantirishdagi muhim vazifalari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *muzey, ta’lim, tarbiya, madaniy meros, vatanparvarlik, ilmiy-tadqiqot, ko‘rgazmali ta’lim, axloqiy tarbiya, ekologik tarbiya.*

Muzeylar nafaqat madaniy va tarixiy obidalarni saqlash, balki jamiyatni tarbiyalash va o‘qitishda muhim o‘rin tutadi. Ular ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, o‘quvchilarga hayotiy bilimlarni amaliy ravishda etkazish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish va madaniy merosni asrab-avaylashda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Muzeylar komil insonni tarbiyalashda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Saqlanayotgan tarixiy ashyolar, nodir qo‘lyozmalar, xujjatlar esa avlodlarga tarixni, ajdodlarimiz hayoti, yuksak ma’naviyati hikoya qilishda xizmat qiladi. Bu esa yoshlar qalbida ota-bobolarimiz qoldirgan merosga hurmat, e’zoz va muxabbat tuyg‘usini ham shakillantira oladigan maskan hisoblanadi. O‘rganilayotgan muzeylarning barchasi xalqimizning boy madaniy va ma’naviy merosi, asrlar davomida shakllangan san’at va madaniyatini, milliy urf odat va qadriyatlarimizning har bir tarixiy bosqichlarida yuksak darajada ekanligini jahonga tanitish, uning umumbashariy sivilizatsiyadagi o‘rni va ahamiyatini keng targ‘ib etish, tasviriy va amaliy hunarmandchiligi san’ati yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatgan ijodkorlar asarlari asosida milliy istiqlol, erkin va farovon hayot g‘oyalarini tarannum etishdan iborat. Muzeylar jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim o‘rin tutib lar nafaqat tarixiy yodgorliklarni saqlovchi maskan, balki ta’lim-tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ham xizmat qiladi. Bugungi kunda muzeylarning ta’lim jarayonidagi o‘rni ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbekistonda Sovet davrida tashkil etilgan muzeylarda asosan Sovet davri mafkurasi targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Mustaqillik yillarida yangi muzeylar tashkil etish, mavjud bo‘lgan muzeylarni rekontruksiya qilish, eksponatlarni tubdan o‘zgartirish bo‘yicha katta ishlar olib borildi. Muzeylar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali o‘quvchilar va talabalarga tarixiy, madaniy va san’atga oid bilimlar amaliy tarzda yetkaziladi. Muzey eksponatlari orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini

mustahkamlashlari va tarixiy voqealarni jonli tasavvur qilishlari mumkin [1]. Shunday qilib mana shu 10 yil ichida muzeylar tashkil etish darajasi tubdan yuqori darajaga koʻtarildi va shu bilan bir qatorda Oʻzbekistonning eng katta shaharlarda muzeylarga asos solindi. Jumladan poytaxt Toshkent shahrida Qatagʻon qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Toshkent tarixi muzeyi (Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi filiali), Abdulla Qodiriy uy-muzeyi, Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrati muzeyi, Prokuratura tarixi muzeyi, Toshkent politexnika muzeyi, Gidrometeorologiya xizmati muzeyi, Adliya organlari muzeyi, Oʻzbekiston kasaba uyushmalari tarixi kabi muzeylari ochildi.

Mustaqil Oʻzbekiston jahondagi eng ilgʻor mamlakatlar safidan oʻrin topib, barqaror rivojlanishi uchun mustaqillik dunyoqarashiga ega boʻlgan, milliy iftixor tuygʻusi bilan yoʻgʻrilgan, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqar olik mas'uliyatini chuqur his etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni oʻz kasbkori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada oʻzlashtirgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni oʻz oldiga vazifa qilib qoʻyadi. Aynan shu mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda muzeylar sohasini rivojlantirish, milliy madaniy va ma’naviy merosni asrab avaylash hamda namoyish etish davlat siyposati darajasiga koʻtarildi. Shunga koʻra “madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy oʻrganish va ommalashtirish bilan bogʻliq faoliyatni yanada takomillashtirish boʻyicha rejalar aniqlashtiriladi” [2]. Muzeylar nafaqat bilim, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya berishda ham muhim ahamiyatga ega. Oʻquvchilar muzeylarga tashrif buyurib, tarixiy voqealar, madaniy qadriyatlar va insoniyatning yutuqlari bilan tanishadilar. Bu esa ularda milliy gʻurur, vatanparvarlik, axloqiy me'yorlar va inson huquqlari haqida tasavvur hosil qiladi. Masalan, tarixiy muzeylarda insoniyat tarixidagi katta ijtimoiy, siyosiy va madaniy voqealar haqida ma’lumotlar beriladi. Oʻquvchilar bunday ekskursiyalar orqali oʻtgan davrlarni oʻrganib, hozirgi kundagi ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq tushunishga erishadilar.

Mustaqillik O`zbekistonimizda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasiga katta e`tibor berilayotganligidan quvonamiz, fahrlanamiz. Yosh kishini bo`yinbogʻini chiroyli taqish, teatrda o`zini yaxshi tutishga o`rgatish qiyin emas ammo oʻtmish avlodlar merosini uning hayotiy ehtiyoji ekanligini anglatish esa mushkuldir, bu shunchaki maqsad emas, balki madaniyat yanada rivojlanishining zaruriy shartidir. Axir hayot bir joyda turib qolmaydi. Uzoq oʻtmish davrlarga borib taqaladigan tarixga boy, qadim madaniyatga ega boʻlgan xalqimiz oldida oʻz oʻtmishini, kelib chiqishi, ota-bobolari, urfodatlari, ma’naviy boyliklarini, yuksak madaniyati, san'atini yanada chuqurroq oʻrganish, anglash va bevosita davom ettirishdek vazifa turadi. Prezidentimiz “Tarix – xalq ma’naviyatining asosidir”, deb ta’kidlar ekan, mustaqil vatanning har bir fuqarosi, ayniqsa uning kelajagini belgilab beruvchi yoshlar oʻz tarixi va madaniyatini yaxshi bilishlari shartdir. Tarixiy xotirani shakllantirish, uni rivojlantirish, shu bilan birga hozirgi avlod ruhida milliy gʻurur tuygʻularini paydo qilish ishida barcha madaniy-ma’rifiy muassasalar qatorida muzeylar ham oʻziga yarasha hissasini qoʻshmoqda [3, 59-b]. Bugungi kunda muzeylarning interaktiv ta’limni qoʻllab-quvvatlashdagi roli katta. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, raqamli ekranlar, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan

haqiqat (AR) yordamida muzeylar o‘quvchilarga ilmiy tushunchalarni real va jonli tarzda taqdim etmoqda. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarga fanlarni yanada o‘rganish va amaliy tajriba orttirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday metodikalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishda samarali bo‘ladi.

Muzeylar ta’lim jarayonida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Ko‘rgazmali ta’lim vositasi – Muzey eksponatlari yordamida o‘quvchilar mavzularni aniq va tushunarli o‘rganadilar.

2. Ilmiy-tadqiqot markazi – Talabalar va tadqiqotchilar uchun muzeylar ilmiy manba sifatida xizmat qiladi [4].

3. Madaniy merosni asrash – Muzeylar orqali yosh avlod milliy va jahon madaniyatiga hurmat bilan yondashishni o‘rganadi.

O‘zbekistonda tarixiy, moddiy, ma’naviy, madaniy yodgorliklarni to‘plash saqlash o‘rganish va tashviq qilish bilan shug‘ullanuvchi, xalq tarixing birinchi manbalariga asoslangan ilmiy muassasalar, tarixiy xalq tarixi birinchi navbatda moddiy madaniyat yozma manbalarga, arxeologiya, etnologiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, etnografik, numizmatika fanlari asosida ilmiy asoslangan manbalar bilan tarixiy ma’daniy merosni muzeylar to‘la namoyon etadigan keng taroq bu Respublikamizdagi muzeylardir. Muzeylarning paydo bo‘lishi O‘rta Osiyoda XIX asrning oxiriga borib tarqaladi. Birinchi badiiy muzey (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at muzeyi) 1918-yilda Knyaz Romanov to‘plagan kolleksiyasi asosida tashkil topgan. 1920-1930-yillarda Namangan, Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Andijon, Termiz, Nukus va boshqa yirik shaharlarda o‘lkashunoslik muzeylari ochildi. 1940-1970 yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida faoliyat olib boradigan O‘zbekistonda muzeylarning keng tarmog‘i yaratildi. Tarixiy yodgorliklar va san’at obidalarini muhofaza qilish, arxeologik, etnografik, madaniy badiiy, me’moriy yodgorliklarni kompleks tarzda o‘rganish va tashviqot qilish uchun mo‘ljallangan davlat muzeylari bilan birga o‘lkashunoslik ahamiyatiga ega bo‘lgan xalq muzeylari ham faoliyat olib bormoqda. Muzeylar o‘z faoliyatida ma’naviyatimizni, madaniyatimizni,tarix, millat tarixini kelib chiqishini targ‘ib qilar ekan har sohada eksponatlar orqali shu davlat, millat, xalqlarning ’ o‘tmishini bildirish bilan istiqbol rejalariga ham asoslanadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy yuksalishda fan oldida turgan dolzarb muammolarni ma’lumotlar orqali yechishda, davrlashtirish masalasi o‘tmishni o‘rganish moddiy yozma manbalar asosida nazariy asoslangan metodologik tamoyillarni yoritib beradi. Muzeyda istiqlol yillarida ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash bo‘yicha olib borilgan katta va muhim ishlar alohida ekspozitsiyalarda aks etgan. Bu ekspozitsiyalarning joylashishi va ularni ko‘z qorachig‘iday saqlashda qanday texnologiyalardan foydalanilayotgani juda muhimdir [5].

Bizning qadimiy ma’naviy meros madaniy boyliklar tarixiy yodgorliklarimiz jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini dunyo tan olmoqda. O‘tmish tariximizdagi bosib o‘tgan davr va hozirgi taraqqiyotimizning belgilan olgan jihatlarini muzeylarimiz eksponatlarida turizmni rivojlantirish ichki va tashqi turizm sohasida bu zaminda buyuk zotlar yetishib chiqqanligi umumbashariy sivilizatsiya madaniyatining uzviy qismiga aylanib ketgan, dunyoviy va ilmiy, diniy

rivojlanishimiz buyuk davlatchiligimiz ulkan chuqur va iftixor bilan namoyon etamiz. Ayniqsa "O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi" ekspozitsiyasida O‘zbekistonning qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan tarixi yoritilgan.

Muzeylar, ta’lim-tarbiya va ilmiy vazifalarga ega bo‘lib ta’lim muassasalarida "O‘zbekiston tarixi" fanini o‘qitishda ko‘chma ochiq darslarni tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilishda ham bugungi kunda ular mujassamlashgan tarix, saqlanayotgan ma’naviy obidalar bizning davrimizgacha yetib kelgan eksponatlarni o‘rganish orqali yoshlarimizni buyuk tariximizga qiziqishi yanada ortdi va ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘ldilar. Muzeylar tizimi taraqqiyotiga obektiv extiyojlar ortib bormoqda. Muzeylarning xalqaro maydonga chiqishi bilan ularning ta’sir doirasi kengayib bormoqda. Bunda ko‘rgazmalar ayirboshlash birinchi o‘rinda turadi. Muzeylar jahonning turli mamlakatlariga o‘z xazinalarini yubordi, ayni paytda chet mamlakatlarining ko‘rgazmalarini o‘zlarida qabul qiladi va ko‘rgazma hamda Muzeylarda namoyish madaniyatlarining o‘zaro boyishi va xalqar o‘rtasida ham fikrlini rivojlantirishda katta xissa qo‘shmoqda.

Muzeylar yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy eksponatlar orqali o‘quvchilar vatanga bo‘lgan muhabbatini oshiradi va milliy g‘ururni shakllantiradi. Bundan tashqari, muzey ekskursiyalari bolalar ongida estetik did va badiiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi [6].

Muzeylarning tarbiyaviy ta’siri quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Vatanparvarlik tarbiyasi – Muzeylar milliy qadriyatlarni targ‘ib qilib, yosh avlodga tarixiy xotirani singdiradi.

Axloqiy tarbiya – Muzeylar insoniy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi, ayniqsa, san’at va madaniyat muzeylari kabilardir.

Xulosa qilib aytilganda yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muzeylarning o`rni va roli kattadir. Muzeyga yoshlarni jonli ekskursiyalarini o`tkazish foydadan holi emasdir.

Muzeylarning ta’lim-tarbiyaviy rolini shakllantirishda madaniy merosni saqlashga qo‘shayotgan hissasi alohida e'tiborga molik. Madaniy meros, jumladan, arxitektura yodgorliklari, tarixiy artefaktlar, san'at asarlari va boshqa ob'ektlar o‘quvchilarga nafaqat o‘tgan davrlar bilan tanishish, balki ularga hurmat va e'tibor bilan yondoshuvni ham o‘rgatadi. Bu esa o‘quvchilarning milliy va jahon madaniy merosini asrab-avaylashga bo‘lgan mas'uliyatini oshiradi.

Muzeylar ta’lim va tarbiya tizimining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, o‘quvchilarga nafaqat bilim beribgina qolmay, balki ularning dunyoqarashini kengaytiradi, tarixiy va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishda yordam beradi. Muzeylar, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarga interaktiv va samarali ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, muzeylar madaniy merosni saqlash, tarbiyalash va yangi avlodga etkazish borasida katta rol o‘ynaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hasanov U. "Muzeyshunoslik asoslari". Toshkent: Fan, 2015

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон -2030” стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармони

3. Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeyshunoslik – T.: Voris Ali, 2007. – B.59.
4. Qosimova D. "Muzeyshunoslik va ta’lim". Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021.
5. Saidov A. "Vatanparvarlik tarbiyasida muzeylarning roli". Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
6. Ismoilov S. "San’at muzeylarining tarbiyaviy ahamiyati". Madaniyat va san’at, 2018, №4.

MAMARIZAYEVA Farangiz Zohidjon qizi
Katta o‘qituvchi
Jizzax politexnika instituti
farangiz.angel@bk.ru

ERGASHEVA Shaxista Abduragim qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzey menejmenti va madaniy turizm ta’lim yo‘nalishi talabasi

TALABALAR ONGIDA MADANIYAT TUSHUNCHASINI OSHIRISHDA MUZEYLARNING O‘RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalar orasida madaniy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muzeylarning ahamiyati tahlil qilingan. Muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlash markazi, balki yoshlar uchun ma’naviy-ma’rifiy tarbiya maskani sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida muzeylarning ta’lim jarayonidagi roli, talabalar dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyati va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ta’siri o‘rganilgan. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda muzey pedagogikasining innovatsion usullari va ularning samaradorligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *muzey pedagogikasi, madaniy meros, talabalar tarbiyasi, ma’naviy rivojlanish, madaniy kompetensiya, zamonaviy muzey texnologiyalari, virtual muzey, madaniy qadriyatlar*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль музеев в формировании и развитии культурных ценностей среди студентов. Музеи важны не только как центры сохранения исторического и культурного наследия, но и как образовательные учреждения для духовно-нравственного воспитания молодежи. В исследовании рассматривается роль музеев в образовательном процессе, их значение в расширении мировоззрения студентов и влияние на развитие культурных компетенций. Проанализированы инновационные методы музейной педагогики с использованием современных технологий и их эффективность.*

Ключевые слова: *музейная педагогика, культурное наследие, воспитание студентов, духовное развитие, культурная компетенция, современные музейные технологии, виртуальный музей, культурные ценности*

Abstract: *This article analyzes the role of museums in shaping and developing cultural values among students. Museums are important not only as centers for preserving historical and cultural heritage but also as educational institutions for the spiritual and moral education of youth. The study examines the role of museums in the educational process, their significance in expanding students' worldview, and their impact on developing cultural competencies. Innovative methods of museum pedagogy using modern technologies and their effectiveness are analyzed.*

Keywords: *museum pedagogy, cultural heritage, student education, spiritual development, cultural competency, modern museum technologies, virtual museum, cultural values*

Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni saqlash, yoshlar orasida madaniy merosga bo‘lgan qiziqishni oshirish va ularning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada muzeylar alohida o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash va namoyish etish, balki yoshlarni tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish va madaniy saviyasini oshirishda ham muhim ta’lim markazi vazifasini bajaradi. Muzeylar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarining 80 foizidan ortig‘i o‘z o‘quv dasturlarida muzey komponenti va muzey pedagogikasi elementlaridan foydalanmoqda. Bu esa muzeylarning ta’lim jarayonidagi rolini yanada oshirmoqda. Jumladan, zamonaviy muzeylar tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda targ‘ib qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik platforma vazifasini o‘tash, ilmiy-tadqiqot va ma’rifiy markaz sifatida faoliyat yuritish, madaniyatlararo muloqot va hamkorlik maydonini yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga hissa qo‘shish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

O‘zbekistonda ham muzeylarning ta’lim tizimidagi rolini kuchaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2019-2025 yillarga mo‘ljallangan "Muzeylarni rivojlantirish Konsepsiyasi" doirasida muzeylarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning madaniy saviyasini oshirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada muzeylarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muzey muhitida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Muzeylarning ta’lim jarayonidagi roli va ahamiyati quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

Talabalarning tarixiy bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash – ushbu jarayonda nazariy bilimlarni amaliy ko‘rgazmalar orqali mustahkamlash imkoniyati,

tarixiy voqealarni muzey eksponatlari orqali vizual idrok etish, tarixiy hujjatlar va arxiv materiallari bilan bevosita tanishish, arxeologik topilmalar va artefaktlar orqali tarixiy davrlarni o‘rganish, tarixiy shaxslar va voqealar haqidagi ma’lumotlarni birlamchi manbalar asosida o‘zlashtirish har bir talabaning nafaqat ma’lum bir fan doirasidagi bilimlarni, balki dunyoqarashni ham kengaytirishda samarali vosita bo‘ladi.

Bundan tashqari, muzeylar talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham bebaho hisoblanadi. Masalan, muzey fondlari bilan ishlash orqali tadqiqot metodlarini o‘zlashtirish, eksponatlarni tahlil qilish va kataloglashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish, muzey ko‘rgazmalarini tashkil etish tajribasini orttirish, ekskursiya o‘tkazish mahoratini rivojlantirish tarixiy manbalarni saqlash va konservatsiya qilish texnikalarini o‘rganish bo‘lajak muzey xodimlari hamda madaniyat sohasi vakillarini tayyorlashda dasturilamal bo‘ladi.

Madaniy va ma’naviy tarbiya vositasi sifatida esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, madaniy merosga nisbatan hurmat va e'tibor tuyg‘usini shakllantirish, estetik didni rivojlantirish va san'atni tushunish qobiliyatini oshirish, turli xalqlar madaniyati va an'analarini o‘rganish, vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalash vazifalarini ham bajaradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, hozirgi innovatsion ta’lim muhiti sifatida muzeylar zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv ta’lim jarayonini tashkil etish, virtual reallik texnologiyalari orqali tarixiy voqealarni qayta tiklash, 3D modellashtirish orqali tarixiy obidallarni o‘rganish, multimedia vositalari yordamida bilim olish imkoniyatlari, masofaviy ta’lim elementlarini joriy etish kabi amaliy metodologik vosita, deb ham qaralmoqda.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish markazi sifatida ham muzeylarning o‘rni beqiyosdir. Jumladan, muzey fondlaridagi materiallar asosida ilmiy izlanishlar olib boorish, arxiv hujjatlari bilan ishlash metodologiyasini o‘zlashtirish ilmiy maqolalar va tezislar tayyorlash uchun materiallar to‘plash, tarixiy-madaniy merosni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, xalqaro ilmiy konferensiyalar va seminarlar tashkil etish nafaqat talabalar, balki ilm yo‘lida ish olib borayotgan barcha izlanuvchilar, soha mutaxassislari uchun ham zaruriy o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya markazi sifatida esa turli avlod vakillari o‘rtasidagi madaniy muloqotni ta’minlash, jamoat diplomatiyasi va madaniy almashinuv platformasi vazifasini bajarish, mahalliy va xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirish, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, madaniy tadbirlar va festivallar tashkil etishda asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar qatorida turadi.

Muzey ta’limining samaradorligini oshirish yo‘llari qatoriga o‘quv dasturlarini muzey komponentlari bilan integratsiyalash, pedagoglar va muzey xodimlarining hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, ta’lim jarayoniga yangi muzey pedagogikasi usullarini joriy etish, xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llash kabilarni kiritishimiz mumkin.

Yaqin kelajakda esa muzey ta’limining istiqbolini raqamli muzey texnologiyalarini rivojlantirish, virtual muzey platformalarini yaratish, masofaviy

ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro muzey tarmog‘i bilan integratsiyalashish, innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqish jabhalarida uchratishimiz mumkin.

Talabalar muzey eksponatlari bilan tanishish orqali nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Muzey pedagogikasi talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularni mustaqil izlanishga undaydi.

Muzeylarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshirishda oliy ta’lim muassasalari va muzeylar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ushbu sohadagi kadrlar salohiyatini oshirish masalalariga aholida ahamiyat qaratish lozim.

Demak, muzeylar zamonaviy ta’lim tizimining muhim komponenti sifatida talabalarning madaniy saviyasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Olib borilayotgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, muzey pedagogikasining zamonaviy usullaridan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Muzeylar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash
2. Madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish
3. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtirish
4. Kasbiy mahoratni oshirish
5. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik usullardan foydalanish muzeylarning ta’lim salohiyatini yanada oshiradi. Virtual muzeylar, 3D-modellashtirish, interaktiv ko‘rgazmalar va raqamli kataloglar kabi yangi imkoniyatlar ta’lim jarayonini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev N. "Muzey pedagogikasi". – Toshkent, 2022
2. Rahimov B. "O‘zbekiston muzeylari". – Toshkent, 2021
3. Smith J. "Museums in Modern Education". – London, 2023
4. Karimov S. "Zamonaviy muzey menejmenti". – Toshkent, 2023
5. Wilson M. "Digital Technologies in Museums". – New York, 2022
6. Петров А.В. "Инновационные методы музейной педагогики". – Москва, 2023
7. Brown K. "Cultural Heritage and Education". – Cambridge, 2022
8. O‘rolov A. "Muzey va yoshlar tarbiyasi". – Toshkent, 2023

TOSHPO‘LOTOVA Jasmina Nuriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va Informatika yo‘nalishi talabasi
jasminatoshpulotova06@.com
O‘KTAMOV Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru

O‘QUVCHILARDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA MUZEY FAOLIYATINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muzey faoliyatining pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Muzey eksponatlari orqali tarixiy bilimlarni boyitish, o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda tarixiy voqealarni jonlantirishda interaktiv yondashuvlarning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, ekskursiyalar, rolli o‘yinlar, kvest va viktorinalar kabi metodlarning tarixiy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqolada muzey pedagogikasining ta’lim jarayoniga integratsiyasi bo‘yicha ilg‘or tajribalar va amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar. *muzey pedagogikasi, interaktiv yondashuv, ekskursiya, rolli o‘yinlar, kvest, viktorina, pedagogik metodlar, ta’lim metodikasi, muzey faoliyati, o‘quvchilarda tafakkur rivoji.*

Annotation. *This article analyzes the pedagogical foundations of museum activity in the development of students' historical thinking. Through the museum exhibits, the effectiveness of interactive approaches in enriching historical knowledge, developing students' analytical and critical thinking skills, and reviving historical events will be highlighted. Also, the role of such methods as excursions, role-playing games, quests and quizzes in the formation of historical thinking is considered. The article presents best practices and practical recommendations on the integration of museum pedagogy into the educational process.*

Key words. *museum pedagogy, interactive approach, excursion, role-playing games, quest, quiz, pedagogical methods, educational methods, museum activity, development of students' thinking.*

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические основы музейной деятельности в развитии исторического мышления учащихся. С помощью музейных экспонатов будет подчеркнута эффективность интерактивных подходов в обогащении исторических знаний, развитии навыков аналитического и критического мышления учащихся, возрождении исторических событий. Также рассматривается роль таких методов, как экскурсии, ролевые игры, квесты и викторины в формировании исторического мышления. В статье представлены лучшие практики и практические рекомендации по интеграции музейной педагогики в образовательный процесс.*

Ключевые слова. *музейная педагогика, интерактивный подход,*

экскурсия, ролевые игры, квест, викторина, педагогические методы, методы обучения, музейная деятельность, развитие мышления учащихся.

Tarix insoniyatning o‘tmishini o‘rganish va kelajakka yo‘l topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy bilimlar nafaqat o‘tmish voqealarini anglash, balki jamiyat taraqqiyotini tushunish, milliy o‘zlikni shakllantirish va madaniy merosni asrab-avaylash uchun ham zarurdir. Shu sababli, o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Maktab ta’limida tarix fanini o‘qitishda turli metodlardan foydalaniladi. An’anaviy dars uslublaridan tashqari, jonli va vizual vositalar orqali o‘qitish o‘quvchilar uchun yanada samarali bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, muzeylar tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib, ular o‘quvchilarga tarixiy voqealarni bevosita his qilish, moddiy madaniy meros namunalarini ko‘rish va ulardan saboq olish imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan muzey faoliyatining pedagogik asoslarini o‘rganish va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeylarning ta’limdagi ahamiyati beqiyosdir. Muzeylar o‘quvchilarga tarixiy hodisalarni bevosita ko‘rish va his qilish imkoniyatini yaratadi. Eksponatlar orqali tarixiy davrlar jonlanib, tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Muzey darslari quyidagi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- Tarixiy obidalarning asl nusxalarini ko‘rish orqali bevosita tajriba orttirish;
- Tarixiy voqealarni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish;
- Tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- O‘z madaniy merosiga nisbatan hurmat va qiziqish uyg‘otish.

Muzeylar nafaqat tarixiy tafakkurni shakllantirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning o‘z madaniyati va milliy qadriyatlariga bo‘lgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning mustaqil izlanish olib borish va tarixiy manbalarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Muzey pedagogikasida ekskursiya, interaktiv yondashuv, rollarni bajarish, kvest va viktorinalar kabi usullarda qo‘llaniladi. Ekskursiya usuli muzey pedagogikasida keng qo‘llaniladigan samarali o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarga real eksponatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatini beradi. Ushbu usul orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilim oladilar, balki tarixiy, madaniy va ilmiy ob’ektlarni jonli ko‘rish, ularni o‘rganish va tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarning diqqatini muzey eksponatlariga qaratish va ularni chuqurroq tushunishlariga yordam berish. Interaktiv yondashuv – ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqotni yo‘lga qo‘yishga asoslangan usul bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu usul muzey pedagogikasida ham keng qo‘llanilib, o‘quvchilarga eksponatlar bilan bevosita ishlash, tajriba qilish va mustaqil xulosa chiqarish imkonini yaratadi. Interaktiv yondashuv muzey pedagogikasida samarali bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Bu usul orqali o‘quvchilar nafaqat eksponatlar haqida ma’lumot olishadi, balki ularni o‘z tajribalaridan kelib chiqib o‘rganadilar va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Rollarni bajarish usuli (rol o‘yinlari yoki dramatizatsiya usuli) – o‘quvchilarning muayyan tarixiy, madaniy yoki ilmiy mavzularni sahnalashtirish

orqali o‘rganishiga asoslangan ta’lim usulidir. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar tarixiy yoki badiiy shaxslarning obrazlarini gavdalantirib, ularning hayoti, qarashlari va muhitini jonlantirishadi. Bu metod nafaqat akademik bilimlarni mustahkamlashga, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, empatiya va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Rollarni bajarish usuli muzey pedagogikasida o‘quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni chuqurlashtirish va ta’lim jarayonini jonlantirishda juda samarali metod hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat eksponatlar haqida ma’lumot olishadi, balki tarixiy, ilmiy va madaniy jarayonlarni chuqur tushunish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, samarali va esda qolarli qiladi. Kvest – o‘quvchilarni muayyan maqsad sari yo‘naltirib, ularga turli vazifalar va jumboqlarni yechish orqali bilim olish imkonini beradigan interaktiv o‘yin usulidir. Viktorina – o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va faollashtirishga qaratilgan savol-javob usuli bo‘lib, u o‘yin tarzida o‘tkaziladi. Muzey pedagogikasida viktorinalar eksponatlar haqidagi bilimlarni sinash va o‘quvchilar e’tiborini faollashtirish uchun ishlatiladi. Kvest va viktorinalar muzey pedagogikasida o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etishning samarali usullaridan biridir. Ushbu usullar orqali o‘quvchilar nafaqat eksponatlar haqida ma’lumot oladilar, balki o‘yin orqali bilim olish jarayonini qiziqarli va esda qolarli holga keltiradilar. Muzey darslari orqali o‘quvchilar tarixiy jarayonlarga yanada chuqurroq sho‘ng‘ish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular nafaqat o‘rganilgan mavzuni yaxshi tushunishadi, balki uni hayotiy tajriba sifatida qabul qilishadi.

Ko‘plab pedagog va tarixchilar muzeylarning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yuksak baholaydilar. Jumladan, rus pedagogi L.S. Vygotskiy tarixiy tajriba va madaniy merosning ta’lim jarayonida o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishdagi o‘rnini alohida ta’kidlagan. Unga ko‘ra, o‘quvchilar vizual va jonli materiallar orqali tarixiy tushunchalarni yaxshiroq anglaydilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va Germaniyada o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv muzey darslari orqali ta’lim olgan o‘quvchilar tarixiy mavzularni an’anaviy dars uslublari orqali ta’lim olgan o‘quvchilarga qaraganda yaxshiroq o‘zlashtirganlar. O‘zbekiston olimlari, jumladan, pedagog va tarixshunoslar ham muzey darslarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullarini taklif qilmoqdalar. Xususan, O‘zbekistondagi davlat muzeylarida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday Muzey pedagogikasining interaktiv usullari o‘quvchilarning ishtirokini oshirish bilan birga, ularning tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan muzey darslari o‘quvchilarning qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi.

O‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muzeylarning o‘rni katta. Muzey pedagogikasining innovatsion yondashuvlari orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish va tarixiy voqealarga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu sababli, maktab va muzeylar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, tarixiy bilimlarni yanada chuqurroq o‘rgatish uchun interaktiv metodlardan samarali foydalanish zarur. Muzey pedagogikasining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish orqali tarix fanining ta’limiy

va tarbiyaviy ahamiyatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." Nashrlar (2024): 38-41.
2. Muhammadiyev, Alijon, and Shukurullo Aliqulov. "Prospects of using computer technologies in modern education." Наука и технология в современном мире 3.3 (2024): 90-92.
3. Musirmonov, Shohboz, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Moliya bozorini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotga o‘tishining muammolari va yechimlari." Nashrlar (2024): 374-377.
4. Madadjon O‘ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
5. Madadjon, O‘ktamov. "Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining informatikadan axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.
6. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Shaxslarda tavakkalchilik bilan bog‘liq virtual o‘yinlarga moyilligini psixologik xususiyatlari." Universal xalqaro ilmiy jurnal 1.4 (2024): 776-777.
7. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "XXI asr yoshlarining axborot psixologik xafsizligini ta’minlash masalalari." Universal xalqaro ilmiy jurnal 1.4 (2024): 445-447.
8. Октамов, Мададжон, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish." Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 432-434.
9. Toshpo‘lotova, Jasmina, and Yayra Musurmanova. "Current issues of teaching uzbek and russian languages in the process of globalization." Models and methods in modern science 3.6 (2024): 187-191.
10. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Texnika oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari." Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения 3.3 (2024): 10-12.
11. Abdirozzoqov, Fayzulla, and Jasmina Tashpo‘lotova. "Methods of using the mytest program in the organization of final control processes for students of higher education institutions." Молодые ученые 2.8 (2024): 88-90.
12. Toshpo‘lotova, Jasmina, and Yayra Musurmanova. "Ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va integratsiyalash masalalari." Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования 3.3 (2024): 46-49.

ИСОКОВ Анвар Инамович
Ш.Рашидов илмий-маърифий
Ёдгорлик уй музейи директори.

МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИ

Музейларнинг таълимий ва тарбиявий аҳамиятини назарда тутган ҳолда уларни мактабга яқинлаштиришгина эмас, балки таълим муассасаларини ҳам музейга яқинлаштириш, яъни ҳамкорлик педагогикасини амалга ошириш зарурияти сезилмоқда. Музей педагогикаси-музейшунослик фанининг янги соҳаси бўлиб, унинг асосида музей шароитида маданий-маънавий ёдгорликларни келажак авлодга етказишга йўналтирилган илмий-амалий фаолият ётади. Бу соҳада хорижий музейшуносликда кенг ва бой тажриба орттирилган. 1934 йилда Германияда "Музей педагогикаси" тушунчаси биринчи марта истеъмолга киритилди. Я.К. Фризеннинг фикрига кўра, музей педагогикаси–бу маърифий ишлар ва музей дидактикасига таянадиган, музей воситалари билан бадиий тарбиянинг анъанаси ҳисобланади.

Ф.Фогт фикрича, музей педагогикаси–бу музейлараро ҳамда уларнинг коллекциялари ва томошабинлари ўртасидаги воситачилик фаолиятидир.

Мактаб ва музейнинг ўзаро муносабатлари билан "Музей педагогикаси" тушунчасини биринчилардан бўлиб истеъмолга киритган, 1939-1944 йилларда Берлин этнография музейида "Мактаб ва музей" бўлимининг раҳбари А.Рейхвейн ҳам шуғулланган.

Жамиятнинг барча қатламларига энг кўп таъсир кўрсатиш учун музей билан мактабни ягона мақсадда бирлаштирган, унинг биринчи директори Г.Коль музейнинг таълимий моҳиятини чуқур англаб етган ҳолда: "Музей ва галереялар ўз олдига таълимий мақсадни қўймас экан, улар зерикарли ва фойдасиз муассаса бўлиб қолаверади", дейди. Г.Колнинг ўқувчи ва талабаларнинг кўплаб авлодига фойда келтирган бундай фикри музейларнинг таълимий фаолияти моделини шакллантиришни тақозо этди ва йўналишда музей сиёсатига жиддий таъсир кўрсатди.

Музейдаги машғулотлар муваффақиятини Берлиннинг моҳир педагоги Г.Фройденталь қуйидаги шарт-шароитлар билан боғлайди: музейларга бўлган ҳар бир ташриф аниқ ўқув мақсадига эга бўлиши; музейга ташрифни болаларнинг мактабда машғулотлардан чарчаган пайтида эмас, балки у ердаги манбаларни идрок этишига тайёр бўлган пайтида уюштириш; болаларгагина эмас, катталарга ҳам тинглаш учун оғир бўлган обзорли экскурсиялардан воз кечиш; болаларнинг мавзулар бўйича мустақил ижодлари (расмлар, иншолар, яратган моделлари) музейга ташрифларининг якуни бўлиши лозим.

Г.Фройденталь болалар билан музей таълим жараёнини ташкил этишга тайёр бўлган мутахассисларни музей педагоги деб атаган ҳолда катта болалар учун техника ва махсус музейларда, кичик ёшдаги болаларни эса ўлкашунослик, табиий-илмий ва бадиий музейлар билан таништиришдан

бошлашни тавсия этди.

Кейинги йилларда таълим соҳасидаги ислоҳотлар Россияда ҳам музей педагогикаси соҳасида бир қатор тадқиқотлар амалга оширилдики, булар хорижий мамлакатларда ҳам катта қизиқиш уйғотди. Айниқса, бу борада Б.А.Столяровнинг тадқиқотлари диққатга сазовор. У “Музейная педагогика” китобида музейларнинг жамият маънавий ҳаётидаги ўрнига эътибор берган ҳолда бу борадаги жаҳон тажрибаларини ҳам ўрганган ҳолда ҳозирги даврда унинг назарий жиҳатларини асослади. Музей экспозициялари билан иш олиб боришнинг шакл ва методларини тавсия этди, турли ёшдаги болалар ва музей экспозициялари билан ишлаш, энг муҳими музей ва мактаб алоқадорлиги моделини ишлаб чиқиб, бу борада музей педагогини ҳамда ўқитувчини тайёрлаш бўйича илмий-амалий тавсиялар берган.

Россия, АҚШ, Англия, Франция ва Германия музейлари фаолияти санъат ва фанни оммалаштиришни ўз олдиларига асосий вазифа қилиб қўйдилар. Масалан, Франциядаги Лувр музейининг экспонатлар тўплами нафақат ташриф буюрувчилар билимини кенгайтиришга, балки фаннинг археология ва тарих каби соҳаларини ривожлантиришга катта таъсир кўрсатган, шунинг учун ҳам уни тўла маънода таълимий-тадқиқот музейи деб аташ мумкин.

Лувр музейи асос солинганидан бошлаб, ўз фаолияти давомида “маърифат тарқатиш ва инсонларга эстетик завқ бериш” деган мақсадни амалга оширди. АҚШнинг йирик музейларидан саналган Нью-Йоркдаги Метрополитенда таълимий мақсадга катта аҳамият берилган. Бу ерда нафис санъатни ўрганиш ва ривожлантириш мақсадида немис ва инглиз музейларининг тажрибаси ўрганилгани маълум. Бугунги кунда Метрополитен кенглиги, коллекцияларнинг сифати ва ташриф буюрувчилар билан ўтказиладиган экскурсиялар, концертлар, маърузалар, кинофильмлар каби тадбирлар музейнинг таълим шаклларига катта эътибор берилганлигини кўрсатади.

Метрополитен музейида ташриф буюрувчиларни экспозициялар билан таништирадиган биринчи йўл кўрсаткич ҳамда ўқитувчилар учун қўлланма ҳам нашр этилди. Дам олиш кунлари бу ерда омма учун маърузалар ўқилган. Лекин музей таълими масаласида махсус дастурлар ишлаб чиқарилган бўлса ҳам таълимий фаолият амалиётида мактаб билан музей таълими ўртасида жиддий фарқ мавжудлиги маълум бўлди. Шунинг учун ҳам Метрополитен музейи биринчилардан бўлиб тарихий предметлардан фойдаланган ҳолда тарих, география ва бошқа мактаб ўқув фанлари бўйича машғулотлар олиб боришда ибрат қилиб кўрсатилади.

Ўзбекистонда эса музей педагогикасига ўтган асрнинг охирларидан эътибор берила бошланди. Тўғри, музей экспозицияларидан таълим-тарбия мақсадида унинг тарихий тараққиётида ҳамма вақт ҳам фойдаланилган. Лекин жамият маънавиятини юксалтириш устувор йўналиш касб этаётган ҳозирги шароитда бу муаммо янада долзарблик касб этмоқда. Чунки ҳозирги даврда турли ёшдаги болалар билан музей ва таълим муассасалари ўртасидаги алоқа тизимсиз, маълум мақсадга йўналтирилмаган ҳолда олиб борилмоқда.

Кузатишлардан маълум бўлдики, музейларнинг умумтаълим жараёнига кириб келиши нафақат инсонни ҳам психологик, ҳам аҳлоқий жиҳатдан шаклланишида, балки ҳозирги ўзгараётган даврда яшашга, ижтимоий маънавий ислоҳатларнинг субъекти бўлишига ҳам ёрдам беради, яъни ўқувчи музейлардаги маънавий меросни кўриб, ўрганиб, уни англаб олиши натижасида ўз ҳаёти фаолиятига ҳам мазмун киритади. Чунки музей ва таълим муассасаларининг ўзаро алоқаси маънавий бойликлар, санъатда акс этган ҳодиса ва воқеалар, инсон ички ва ташқи ҳаётида янгидан яшаш имкониятига эга бўлади. Шунинг учун ҳам музей ва мактабларнинг таълим тарбия соҳасидаги фаолиятига тизимли ва дастурли ёндашиш талаб этилиши лозим.

Музей педагогикаси моҳиятини аввало музей илмий ходимларига англатиш зарур. Маълумотга эга бўлган ходимлар энг аввало таълим муассалари, яъни олий ўқув юртлари, лицейлар ва мактаблар билан ўзаро муносабатда бўлишлари лозим. Мактабларда тил ва адабиёт ўқитувчиларининг метод бирлашмалари раҳбарлари билан музей илмий ходимлари ўртасида узвий боғлиқлик бўлиши лозим.

Бизнинг Жиззах вилоятимизда 553 та умум таълим мактаблари бўлиб, улардан Жиззах шаҳрида 42 та, Шароф Рашидов туманида 60 мактаб фаолият юритади. Хозирги кунда уй-музейимиз илмий ходимлари Шароф Рашидов туманида жойлашган Иктисослаштирилган мактаб ва Жиззах шахридаги 10-умум таълим мактаби жамоаси билан узвий боғлик холда иш олиб бормокдалар. Бунга мисол қилиб 2025 йил 24 январь ва 25 январь кунлари Шароф Рашидов илмий-маърифий уй музейи ходимлари хамда Жиззах шахар 10-умумтаълим мактаби ва Шароф Рашидов тумани ихтисослаштирилган мактаби ўқувчилари билан ҳамкорликда мактаб ўқувчилари ўртасида «Китоб-маънавият пойдевори» лойихаси доирасида Шароф Рашидовнинг асарлари хақида иншо ёзиш ва «Ёш китобхон» танлови ўтказилди.

Танловда 210 нафар ўқувчи катнашди. Шундан танлаб олинган 65 та иншолар ичидан хар бир мактабдан 3 нафардан голиблар аникланди ва улар Шароф Рашидов илмий-маърифий уй музейи томонидан кимматбахо совгалар билан такдирландилар.

«Ёш китобхон» танлови Халк депутатлари Жиззах вилоят Кенгаши хузуридаги Жамоат фонди гранти асосида амалга оширилди.

Мазкур танловлардан кўзланган асосий мақсад- Ёзувчи ва шоир, буюк давлат арбоби- Шароф Рашидовнинг бой адабий меросини асраб-авайлаш, ёшларнинг китоб мутоаласига қизиқишини янада ошириш, дунёқарашини кенгайтириш, сўз бойлигини ошириш, ижтимоий фаоллигини ва миллат тақдирига дахлдорлигини ошириш, китобхонлик, саводхонлик, билим ва маданиятини юксалтиришдан ва ёшларни ўзликни англаш, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат рухида тарбиялаш, улар ўртасида китобхонлик маданиятини тарғиб қилишдан иборат.

Музейларда халқимизнинг бой маданий меросини, унинг инсоният тарихидаги роли замонавий технологиялар асосида кенг тарғиб қилинмоқда.

Бизнинг музейимизда кутубхона ва мажлислар залида сўнгги русумдаги SMART доскалар бўлиб, томошабинларимизга Шароф

Рашидовнинг хаёти ва ижоди, мамлакатимиз равнақи йўлида олиб борган ишлари тўғрисидаги кинофильмлар, учрашувларни намойиш этамиз.

Шароф Рашидов илмий-маърифий уй музейи Республикада биринчилардан булиб ракамли архив тизимига утмокда.

Музей педагогикаси - деганда музей ходимларининг фақат мактаб ўқувчилари билан узвий боғлиқлиги эмас, балки лицейлар, олий ўқув юртлари талабалари билан ҳам иш олиб боришлари лозим, деб ҳисоблаймиз. Бу борада бир қанча ишларни амалга оширишни бошладик. Масалан:

- 2025 йил 28 январь куни Узбекистон Ёшлар Иттифоки Жиззах вилоят Кенгаши, Шароф Рашидов илмий-маърифий уй—музейи, Миллий гвардия Куриклаш бошкармаси, вилоят Фавкулодда вазиятлар бошкармаси хамкорлигида Шароф Рашидов илмий-маърифий уй—музейида «Улуг аждодлардан мерос-шижоат» мавзусида фахрийлар, харбийлар ва ёшлар иштирокида «Уч авлод» учрашуви ташкил килинди.

- Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлигига қарашли Жиззах Академик лицейи ўқитувчи ва 1-курс талабалари билан дастлабки учрашувларни ўтказдик ва ўқув йили давомида ишларимизни давом эттириш ниятидамиз.

- 2025 йил 19 фераль куни-Sambhram /Хиндистон/ университети 35 нафар 1-курс талабалари ва ўкитувчилари музейга саёхат уюштиришди. Sambhram университети ўқитувчиларининг купчилик кисмини Хиндистонлик мутахассислар ташкил этади. Шароф Рашидовнинг Кашмир халқларининг қадимий севги достони асосида ёзилган «Кашмир қўшиғи» асари юзасидан семинар ва сахна кўринишлари ўтказмокчимиз.

Лекин Музей педагогикаси соҳаси халигача тўлиқ ўрганилмаган, бу соҳада қилинадиган ишларимиз, камчиликларимиз кўп. Аввало музей ходимларини ўкитишни ва малака оширишларини йўлга қўйишимиз лозим. Соха мутахассислари республикамизда жойлашган музей ходимларини ўкитиш ва ишлари намунали даражада деб хисобланган музейларда семинарлар ўтказишни йўлга қўйишлари лозим деб ҳисоблаймиз.

Замонавий йўналишлардан бири- музей педагогикаси музейшунослар ва педагоглар учун хали тулик урганилмаган соха. Билимли кадрлар ва уларнинг изланишлари орқали соҳани ривожлантириш, улкан ютукларни қўлга киритиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Л.Левтеева. К.Турсуналиев Музеесология 9-(Наука о музейном деле).
Ташкент, 2008 г.

2. Юхневич М.Ю. Я поведу тебя в музей: Учеб.пособие по музейной педагогике-Москва, 2001 г

3.Столяров Б.А. Музейная педагогика. Москва: Выш.шк, 2004 г

4. А.Азизов, Музейлар- баркамол фарзанд тарбиячиси

UBAYDULLAYEV Saidakbar Saydaliyevich
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi
(faoliyat turlari bo‘yicha)mutaxasissligi 1-bosqich magistranti
https://orcid.org/0009-0005-4516-9920

MUZEY PEDAGOGIKASINING TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada muzey pedagogikasining ta’limda innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Muzeylar o‘quvchilarga ilmiy, madaniy va tarixiy merosni taqdim etish orqali nafaqat yangi bilimlar, balki ijodiy fikrlash, estetik did va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola muzey pedagogikasining interfaol metodlar, virtual texnologiyalar va problema asosida o‘rganish kabi innovatsion yondashuvlari orqali ta’lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, muzey pedagogikasining kelajagi va istiqbollari, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va o‘quvchilarning o‘zgaruvchan talablariga javob berish zaruriyati ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *muzey pedagogikasi, innovatsion yondashuvlar, ta’lim jarayoni, interfaol metodlar, virtual texnologiyalar, problema asosida o‘rganish, madaniy meros, ta’limda innovatsiyalar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются инновационные подходы музейной педагогики в образовании. Предоставляя учащимся научное, культурное и историческое наследие, музеи служат не только для получения новых знаний, но и для развития творческого мышления, эстетического вкуса и навыков самостоятельного принятия решений. Эта статья направлена на повышение качества образовательного процесса с помощью инновационных подходов музейной педагогики, таких как интерактивные методы, виртуальные технологии и проблемное обучение. Также будут рассмотрены будущее и перспективы музейной педагогики, изменения в системе образования и необходимость реагирования на меняющиеся требования учащихся.*

Ключевые слова: *музейная педагогика, инновационные подходы, образовательный процесс, интерактивные методы, виртуальные технологии, проблемное обучение, культурное наследие, инновации в образовании.*

Annotation: *this article analyzes innovative approaches of museum pedagogy in education. Museums serve to develop not only new knowledge, but also creative thinking, aesthetic taste and independent decision-making skills by providing students with scientific, cultural and historical heritage. This article aims to improve the quality of the educational process through innovative approaches of museum pedagogy, such as interactive methods, virtual technologies and problem-based*

learning. Also, the future and prospects of museum pedagogy, changes in the educational system and the need to meet the changing requirements of students are considered.

Keywords: *Museum pedagogy, innovative approaches, educational process, interactive methods, virtual technologies, problem-based learning, Cultural Heritage, Innovation in education.*

Muzey pedagogikasi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan va yangi pedagogik yondashuvlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Muzeylarning ilmiy va madaniy merosni saqlash va uni keng ommaga taqdim etishdagi ahamiyati beqiyos bo‘lib, bu yerda ta’limning innovatsion usullari asosida faoliyat olib borilmoqda. Ushbu maqolada muzey pedagogikasining ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi, ularning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

1. Muzey pedagogikasining mohiyati va vazifalari

Muzey pedagogikasi – bu ilmiy, madaniy va tarixiy ma’lumotlarni taqdim etish orqali o‘quvchilarda izlanish, analitik fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishni maqsad qilgan pedagogik faoliyatdir. Muzeylar nafaqat o‘quvchilar uchun yangi bilimlarni egallash, balki ijodiy tafakkur va estetik didni shakllantirish uchun ham muhim o‘rin tutadi. Muzeylar o‘quvchilarga bevosita tajriba orqali bilim olish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

2. Innovatsion yondashuvlar va ularning ta’limga ta’siri

Muzey pedagogikasidagi innovatsion yondashuvlar, zamonaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashib, o‘quvchilarga faqat ma’lumot berish bilan cheklanmaydi, balki ularni amaliyotda qo‘llash, o‘z fikrlarini ifodalash va tajriba o‘tkazishga rag‘batlantiradi. Bu yondashuvlar quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

Interfaol metodlar: Muzey pedagogikasi jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, o‘quvchilarga o‘zlarini bevosita muzeydagi eksponatlar bilan tanishtirish va ularga faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Bu metod, o‘quvchilarga mavzularni o‘zgacha tarzda o‘rganishga yordam beradi, masalan, interaktiv eksponatlar, ko‘rgazmalar yoki virtual turlar orqali.

Virtual va raqamli texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamli vositalar, muzey pedagogikasida muhim innovatsion yondashuvlarni ta’minlamoqda. Virtual ekskursiyalar, 3D modelirovka qilish, interaktiv ilovalar va boshqa raqamli resurslar orqali o‘quvchilarga muzey materiallari haqida batafsil va keng qamrovli ma’lumot berish mumkin. Bu, ayniqsa, uzoq masofadagi muzeylar uchun foydalidir.

Problema asosida o‘rganish: Innovatsion yondashuvlardan biri, muzeyda o‘rganilayotgan mavzularni problemalar orqali ifodalashdir. O‘quvchilarga maxsus topshiriqlar berib, ularni muzeyda mavjud materiallardan foydalanib, yechimlarni topishga undash. Bu yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Muzey pedagogikasining ta’lim jarayoniga integratsiyasi

Muzey pedagogikasining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning bilim olish uslublarini yangilash va ta’limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar muzeyga tashrif buyurganda faqat ko‘rish va tinglash bilan cheklanmaydi, balki ularni qayta ishlash, izohlash, va yaratgan eksponatlarni tahlil qilishga o‘rgatish kerak. Shu tarzda, muzey faqat bilim manbai emas, balki ta’limni interfaol va amaliy tarzda tashkil qilishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

4. Muzey pedagogikasining kelajagi va istiqbollari

Muzey pedagogikasining rivojlanishi uchun innovatsion yondashuvlar va metodlarning doimiy yangilanishi zarur. Ta’limda yangi texnologiyalarni qo‘llash, interdisciplinar yondashuvlarni rivojlantirish, va o‘quvchilarni ta’lim jarayonida yanada faol ishtirok etishga rag‘batlantirish orqali muzey pedagogikasi yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, muzey pedagogikasining kelajagi, o‘quvchilarning madaniy merosni anglashiga va jahon ta’lim tizimida o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Muzeylarda o‘qitish faqat o‘quvchilarga tarixiy yoki madaniy ob'ektlarni ko‘rsatishdan iborat bo‘lib qolmasdan, ular uchun bir vaqtning o‘zida tanqidiy va yaratuvchan fikrlashni rivojlantirishga imkoniyat yaratishi kerak.

Xulosa: Muzey pedagogikasining ta’limdagi innovatsion yondashuvlari, o‘quvchilarga nafaqat bilimlarni, balki ko‘nikmalarni rivojlantirish, amaliy tajribalar orqali o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Muzeylarning ta’limdagi roli nafaqat ma’lumot uzatish, balki o‘quvchilarda o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan fikr va munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Shu sababli, muzey pedagogikasining innovatsion yondashuvlari ta’lim jarayonining yanada samarali va interaktiv bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akopyan, S. (2017). "Muzey pedagogikasi: O‘qitishning yangi usullari va metodlari." Toshkent: O‘zbekiston davlat pedagogika nashriyoti.
2. Dmitrieva, N. V. (2019). "Innovatsion pedagogik texnologiyalar va muzey ta’limi." Moskvada: Pedagogika nashriyoti.
3. Sharipov, B. (2020). "Muzey pedagogikasining metodikasi." Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
4. Semenova, O. S. (2021). "Virtual muzeylar va ta’limda yangi yondashuvlar." St. Petersburg: Ilm-fan nashriyoti.
5. Tursunov, A. M. (2018). "Ta’limda interfaol metodlar: Muzey pedagogikasi va uning o‘ziga xosliklari." Tashkent: Fan va texnologiyalar.
6. Lindemann, E. (2020). "Museum Pedagogy and Digital Learning." London: Routledge.
7. Ramilova, Z. (2016). "Muzey pedagogikasi va ta’limda kreativ yondashuvlar." Almaty: O‘qituvchi nashriyoti.
8. Muzeylar va ta’lim: Innovatsiyalar va amaliyot. (2022). Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent: O‘zbekistondagi muzeylar assotsiatsiyasi.

MUNDARIJA

BIRINCHI SHO‘BA: MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR **6**

ISMAILOVA J. X. MARKAZIY OSIYO ME’MORCHILIGI EVOLYUSIYASI KASHFIYOTCHISI **6**

DAVLATOVA S. T. MUZEYSHUNOSLIKDA MADANIY-MA’NAVIY MEROS MASAASI: TARIX VA TAHLIL **10**

ДАЛАЕВА Т.Т. СОВРЕМЕННЫЕ МУЗЕИ: ПРОИЗВОДСТВО И ТРАНСЛЯЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ЗНАНИЯ **15**

YUSUPALIYEVA D. K. MUZEYLAR FAOLIYATIDA ZAMONAVIY RIVOJLANISH JARAYONLARI **18**

ЛЕВТЕЕВА Л.Г. РАБОТА ГМИУ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ – ВАЖНАЯ СФЕРА КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ СТРАНЫ **22**

ДОСПАНОВ О. Т. ИГОРЬ САВИЦКИЙ: ВКЛАД В ИСКУССТВО И КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ КАРАКАЛПАКСТАНА (к 110-летию со дня рождения) **31**

KURYAZOVA D. T. TARIXIY-MADANIY MEROS TARG‘IBOTIDA KOMMUNIKATSION TIZIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI **38**

MUKHAMEDOVA M. S. RESEARCH OF TOURISM IN THE ACTIVITIES OF TRAVELERS IN UZBEKISTAN IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES **45**

BOLTAYEV B. B. O‘ZBEKISTONDA XALQARO TALABLARGA MOS MUZEYLARNI SHAKILLANTIRISH OMILLARI **48**

АБДУЛЛАЕВА Н. С. ШАРҚ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ ЎЗБЕК КАШТАЧИЛИК ВА ЗАРГАРЛИК БУЮМЛАРИ **53**

AXMATOV A. BUXORODA ADIBLAR MUZEYI OCHILADIMI ? **58**

МИРАЛИЕВА Ш.А., АХУНЖАНОВА У. З. ТЕМУРИЙЛАР ТАРИХИ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ АЛИШЕР НАВОИЙ ВА АБДУРАХМОН ЖОМИЙ МЕРОСИ ҲУСУСИДА **62**

БОБОЖОНОВ Ш. БУХОРО МУСИҚАСИ УЙ МУЗЕЙИ ЭТНОТУРИЗМДАГИ ЯНГИ САЙЁҲЛИК МАНЗИЛИ СИФАТИДА **67**

ХОДЖАЕВ Б. МУЗЕЙНИНГ ҲАЛҚАРО АЛОҚАЛАРИ ВА ТУРИЗМ РИВОЖИДАГИ ЎРНИ **72**

BADALOV A., MAMMADOV E. TRADE AND CULTURAL RELATIONS OF ATROPATENE AND CAUCASIAN ALBANIA WITH THE MIDDLE EAST **79**

КАСИМОВА Ш. ЗАМОНАВИЙ МУЗЕЙШУНОСЛИКДА БРЕНДИНГ ТУШУНЧАСИ **83**

ISAKOVA M.B. MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI, MUAMMO VA YECHIMLAR. **88**

O‘ROLOVA M. M. URUSH YILLARIDA AYOLLARNING MAORIF, ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI **93**

IMOMOV M. P., ZARIPOVA M.P. MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR **99**

МУМИНОВ И. Т. ЦИФРОВОЙ ИСТОРИЧЕСКИЙ АРХИВ ФОНДА ШАРАФА РАШИДОВА КАК УДОБНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПОИСКА МАТЕРИАЛОВ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА **106**

САЛИХАНОВА Г. Н. МУЗЕЙЛАР ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ **110**

ILKHAMOVA I.ИЗУЧЕНИЕ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЕЕВ МЕДИЦИНЫ В СТРАНАХ СОДРУЖЕСТВА НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ (СНГ) 114

SADIKOVA N.,SAIDQULOVA Sh.O‘ZBEKISTON MUZEYLARIDA RANG TASVIR ASARLARINI NAMOYISh ETIShDA ZAMONAVIY DIZAYN VA VIZUAL MARKETING 119

ФАЗИЛОВА Д.Х.КАБИНЕТЫ ЛЮБОПЫТСТВА: ОТ СТРАННЫХ КОЛЛЕКЦИЙ К МУЗЕЯМ.....125

СОТИМОВ Ў.Р.“ТАБОБАТ ТАРИХИГА БИР НАЗАР” ХОРАЗМ ТАБОБАТ ТАРИХИ ЭКСПОЗИЦИЯСИ МИСОЛИДА 129

ЗОКИРОВА З. Т.ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МУЗЕЕВЕДЕНИЯ: ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕШЕНИЯ 135

ГАНИЕВА Д.И.УНИКАЛЬНОСТЬ ЯПОНСКИХ КИМОНО, ХРАНЯЩИХСЯ В ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЕЕ ИСКУССТВ УЗБЕКИСТАНА.....139

УСМАНОВА М.Р.ТАРИХ-САНЪАТ-ТЕХНОЛОГИЯ- БУЮК ИПАК ЙЎЛИ МАДАНИЙ МЕРОСИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ 145

РУСТАМОВА М. М.КРОСС-КУЛЬТУРНЫЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В МУЗЕЕВЕДЕНИИ УЗБЕКИСТАНА: НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ И ПРОБЛЕМЫ.....148

AMANXODJAYEVA G. N.MADANIY MEROS VA XALQARO HUQUQIY TIZIMNING TADRIJIY RIVOJLANISHI 152

SAFAYEV M. M.MUZEYLARDA GILAMDO‘ZLIK AN’ANALARI 161

YUNUSOV K. A.MUZEY ILMIY KONSEPSIYASI VA EKSPOZITSIYASINING MUVOFIQLIGI 167

KADIROV M. B.MUSTAQILLIK YILLARIDA MUZEYLARGA OID ISLOHATLAR.....171

JUMANAZAROV Z. E.RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MADANIY XOTIRA VA TARIXIY MEROSNI SAQLASHGA TA’SIRI 175

KARAYEV F. K.,ISAKOVA D. Sh.MUZEYSHUNOSLIK RIVOJINING YANGI BOSQICHI...182

SALOYEVA O.BUXORO SHAHRIDAGI ART RESTORANLARNING MADANIY TURIZMDAGI O‘RNI. 186

XASANOVA N. A.TOSHKENT SHAHAR LANDSHAFTIDA, MONUMENTAL HAYKALTAROSHLIKNING O‘RNI.....191

TURGUNOVA F.N.RESPUBLIKADA VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI MUZEYLARINING SO‘NGI YILLARDA FOND ISHI: MUAMMO VA YECHIM 196

IKKINCHI SHO‘BA: MADANIY MEROSNI MUZEYLASHTIRISH, TADQIQ VA TATBIQ ETISH, SAQLASH VA TARG‘IB ETISH TAMOYILLARI 202

ЗИЯЕВ А.МАХАЛЛЯ НАМУНА (В ПРОШЛОМ КАДОВАД) СТАРОГО ТАШКЕНТА 202

БОГОМОЛОВ Г.И.К ВОПРОСУ ОБ ОССУАРИИ С САНГИРТЕПА.....207

O‘LMASOV A. F.O‘ZBEKISTONDA ARXEOLOGIYA VA MUZEY ASHYOLARINING RESTAVRATSIYASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR 219

YAMANE Momoka.RETHINKING BUDDHIST SCULPTURE PRODUCTION IN CENTRAL ASIA THROUGH SCIENTIFIC ANALYSIS OF MUSEUM COLLECTIONS 228

МАММАДОВА А. М.,МЕЛИКОВ А. М.МОНЕТЫ ПЕРИОДА ИБН СИНЫ КАК ВАЖНЫЕ ФАКТЫ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ И ФИЛОСОФИИ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ 233

АБДУЛАҲАТОВ Н.ФАРҒОНА МУЗЕЙИНИНГ ҚЎЛЁЗМАЛАР КОЛЛЕКЦИЯСИ.....236

МУСАКАЕВА А.А.МОДЕЛИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ, ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ДЕНЕЖНЫХ ОТНОШЕНИЙ СОГДА И ЧАЧА В ПЕРИОД АНТИЧНОСТИ 241

BOLTAYEV A.BUXORO TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKLARINI SAQLASH JAMIYATINING TASHKIL TOPISHI HAQIDA 252

ДОСПАНОВ О. Т.ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АРХЕОЛОГИЯСИ ВА ЭТНОГРАФИЯСИДА ЗООМОРФ ТАСВИРЛАР (XII-XX асрлар)....256

КАРИМОВА Д. О.МУЗЕЙЛАР ХАЗИНАСИНИ БОЙИТГАН ОЛИМ 262

МУХАМЕДОВА М. С.,РАХМАНОВА Л.ИЗУЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА В 1980-1990 ГОДАХ....268

НОРКОБИЛОВ Т.БРОНЗОВЫЕ ПОДСТАВКИ XII В. ИЗ КАРШИНСКОГО КЛАДА....276

KENJAYEV S. N.DAVLAT MUZEYLARIDA TEMURIYLAR DAVRI MUZEY EKSPONATLARINING SAQLANISHI 284

AXMEDJONOV N.A.MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 288

PEREMKULOV J.MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI REKREATSIYA MARKAZLARIDA INFRATUZILMA TARAQQIYOTI....295

ТЕМИРОВ Ф.У.МАНҒИТЛАР СУЛОЛАСИ ДАВРИДА БУХОРОДА ЗАРДЎЗЛИК ВА ЗАРГАРЛИК САНЪАТИ 301

XOLIQOV N. A.SAMARQAND VILOYATI TURISTIK SALOHIYATIDA MUZEYLARNING O‘RNI....304

XASANOVA N. S.MUZEYSHUNOSLIK TAMOYILLARI: MADANIY MEROSNI TADQIQ QILISH, AMALGA OSHIRISH, SAQLASH VA TARG‘IB QILISH....308

AXMEDOV J. Z.MOHIR HUNARMAND RASULJON MIRZAAHMEDOV IJODIGA CHIZGILAR 312

NURULLAYEVA Z. R.MILLIY BOSH KIYIMLARNI TADQIQ ETISH TAMOYILLARI....315

BOYMIRZAYEV S.B.XORAZM TARIXI HAQIDA SO‘ZLOVCHI ARXEOLOGIK TOPILMALAR 320

ҚОРАБОЕВ У. Х.ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ РАССОМИ АЛИШЕР АЛИКУЛОВНИНГ ТАРИХИЙ МАҲОБАТЛИ РАНГТАСВИР АСАРЛАРИ ҲАҚИДА 325

БЕГАЛИЕВА Д. Э.АРЗХОНА - МЕЪМОРИЙ МЕРОС ЁДГОРЛИГИ....329

ESHMATOVA N.QOVUNCHI MADANIYATI VA UNING TOSHKENT VOHASIDAN BOSHQA HUDUDLARGA TARQALISHI 333

КАРИМОВ Э.ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ САНЬАТ МУЗЕЙИДА САҚЛАНАЁТГАН XIX-XX-АСРЛАРГА ОИД РУС РАССОМЛАРИ ИЖОДИ (И.АЙВАЗОВСКИЙ МИСОЛИДА)....336

SAFAYEV M. M.NUROTA GILAMLARINING TADQIQI....343

JABBAROVA L. T.KURALBAYEVA K. D.ARXITEKTURA OBYEKTLARIDA MUZEYLAR TASHKIL ETISH VA MOSLASHTIRISH JARAYONLARI 347

RASULOVA F.TOSHKENT VOHASIDA SHISHASOZLIK TARIXIDAN....351

NASRITDINOVA M.“TOSHKENT” TOPONIMI TALQINIGA DOIR....354

IBROXIMOVA A. A.MUZEYGA TASHRIFCHILARNI JALB QILISH VA MADANIY MEROSNI TARG‘IB QILISHDA YANGI TEXNOLOGIYALARNING ROLI 359

ТУРАЕВА Н.ФОТОНЕГАТИВЫ КАК ОБЪЕКТ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ И СОХРАНЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ 364

ATABEKOVA S. B.TOSHKENT SHAHRINING XIV-XIX ASRLARGA OID TARIXIY VA ME’MORIY YODGORLIKLARINING BADIIY-TAVSIFIY JIHATLARINING O‘RGANILISHI 368

ХАРИПОВА Р. Е.ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ МУЗЕЙНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ МУЗЕЙНЫХ ФОНДОВ 375

АБДУЛЛАЕВ М.,АБДАЛИЕВА Н.,ОМИРЗАКОВ Ш.МӘДЕНИЙ МИЙРАСТЫ САҚЛАЎ: И.В.САВИЦКИЙ АТЫНДАҒЫ МУЗЕЙДЕ АРХЕОЛОГИЯЛЫҚ ЕСТЕЛИКЛЕР МЕНЕН ИСЛЕЎДИҢ МЕТОДИКАЛЫҚ ӨЗГЕШЕЛИКЛЕРИ 379

СКЕНДЕРОВ П.ҚОРАҚАЛПОҚЛАРНИНГ ЎРТА АСРЛАР АРХЕОЛОГИК БЕЗАКЛАРИ ВА ЭТНОГРАФИК ЗАРГАРЛИК САНЪАТИ СИНТЕЗИ: АНЪАНАЛАР ДАВОМИЙЛИГИ ВА МАДАНИЙ МЕРОС.....387

ЗИЯЕВА Р.А.КЎЧМАС ЁДГОРЛИКЛАРНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИДАГИ МАДАНИЙ ОБЪЕКТ ПАСПОРТИНИНГ ЎРНИ.....395

BOLTAYEV I. X.,JUMANAZAROVA G. A.“ICHAN-QAL’A”DAGI AMALGA OSHIRILGAN ARXEOLOGIK IZLANISHLARNING AHAMIYATI. 401

АБДУРАСУЛОВ А.МАРКАЗИЙ ОСИЁ ЁДГОРЛИКЛАРИДА ОТАШПАРАСТЛИК РАМЗИ: ОЛОВ ТИМСОЛИНИНГ ТАҲЛИЛИ.....404

BEKENOVA A. A.NEMIS MENNOITLARNING XORAZMDAGI HAYOTI VA UNING MUZEYLASHTIRILISHI 407

MURODOVA R. D.BESHIKLAR JAHON MADANIYATI NIGOHIDA 411

TOIRXO‘JAEV A. J.“XITOY TAQLIDIDA ZARB QILINGAN O‘RTA OSIYO TANGALARI” 416

MUMINOV B. B.QARSHI VA SHAHRISABZ SHAHARLARINING XV-XVI ASRLARDAGI AYRIM MANBALARDA YORITILISHI.....423

SAIPOVA D.Sh.“THE IMPORTANCE OF THE PLATFORM OF SCIENTISTS IN THE FORMATION OF MUSEUMS”.....427

DALIYEVA N.“SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI FOTONEGATIVLAR KOLLEKSIYASINING SHAKLLANISHI TARIXI”.....433

КУТЫБАЕВА К.КАВАТ-КАЛИНСКИЙ ОАЗИС: АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И МАТЕРИАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА ХОРЕЗМА В СРЕДНИЕ ВЕКА 438

BEGALIYEV N.,AVAZOV X.,SUYAROVA SH.O‘RTA OSIYODA G‘ARBIY TURK XOQONLIGI DAVRIDA ZARB QILINGAN TANGALARNING AYRIM XUSUSIYATLARI ..444

IRISBOYEV F.B.MADANIY MEROSNING MUZEYLASHUVI.....448

ABDUSATTAROVA M. X.,TODJIDINOV U. T.MADANIY MEROSNI MUZEYLASHTIRISH, SAQLASH VA TARG‘IB ETISH TAMOYILLARI 453

SAIDOVA S. M.O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN XVIII–XIX ASRLARGA OID RUS VA G‘ARBIY YEVROPA KOLLEKSIYASIDAGI GARDNER FARFOR TO‘PLAMI.....459

YULDASHEV S.O‘ZBEKISTONNING ZAMONAVIY SAN’ATI: MADANIY KONTEKST VA YANGI UFQLAR.....466

MIRJONOVA N. I.TASVIRIY SAN’AT ASARLARIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR..470

ISMATULLAYEVA Z. Sh.O‘ZBEKISTONNING MADANIY MEROSI VA SAYYOXLIK IMKONIYATI XORIJLIKLAR NIGOHIDA.....475

AZIMOVA G.F.MUZEYLARDA NOYOB KITOBLARNI TO‘PLASH TAMOYILLARI 481

TOSHTEMIROVA Sh.O‘ZBEKISTONNING MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISH: ETNOGRAFIK EKSPONATLARNI SAQLASH....486

GANIYEVA Ch. X.,YUNUSOV A. F.“BUYUK RASSOM MEROSI: O‘ROL TANSIQBOYEV MUZEYI” 490

SALAYEVA R. Q.SOPOLLITEPA SIRLARI....493

НОРОВА Д.БУХОРО ЗАРДЎЗЛИК ҲУНАРИ МЕРОСИНИНГ МУЗЕЙЛАРДА АКС ЭТИШИ 496

ТУКСАНОВА З.БУХОРО МОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОСИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШДА ОБИДАЛАРДАГИ АСТРОНОМИК БЕЛГИЛАРНИНГ ЎРНИ 499

ТЎРАЕВА Г.Б.ОЛЬГА АЛЕКСАНДРОВНА СУХАРЕВА—САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ МУЗЕЙИНИНГ ЖОНКУЯР ВА ФИДОЙИ МУТАХАССИСИ....505

ULASHOV K. M.SAMARQAND HOVLI UYLARI QURILISHINING O‘ZIGA XOSLIGI....510

МАХМУДОВА М.Т.КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА- ДВОРЕЦ ПОЛОВЦЕВА, МУЗЕЙ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВА 515

ISLOMOV F. X.TOSHKENT SHAHRI TARIXIY ME’MORIY MAJMUALAR TARIXIDAN ..519

AHMEDOV T.ZAMONAVIY RASSOMLAR IJODINI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI524

ИБРАГИМОВА Ш.М.АРХЕОЛОГИЧЕСКАЯ КОЛЛЕКЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА «ИЧАН-КАЛА»....530

ИШАНОВА М. М.СТАНОВЛЕНИЕ МУЗЕЙНОЙ СИСТЕМЫ КАРАКАЛПАКСТАНА В 1960-1980-х ГОДАХ....536

САПЕКЕЕВА А.«ДӨРЕТПЕЛЕРИНДЕ МӘҢГИ ЖАСАЎШЫ ХУДОЖНИК»....542

NURULLAYEVA Z. R.O‘ZBEKISTON MUZEYLARIDA BOSH KIYIMLARNI SAQLASH VA NAMOYISH ETISH TAMOYILLARI....549

ШАРОПОВА А. Э.МУЗЕЕФИКАЦИЯ ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА 1970-80-Х ГОДОВ XX ВЕКА: ЗАПАДНО-ВОСТОЧНЫЙ ДИСКУРС И СОХРАНЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО НАСЛЕДИЯ 552

RAXMATJONOV X.K.ANTIK DAVR YODGORLIGI - XOLCHAYON SAROYI TARIXI VA KONSTRUKTIV TAHLILI....556

JO‘RAYEV Sh.G‘.,HABIBOV J.BUXORO ADABIYOTI TARIXI MUZEYI....561

MUSIRMANOV Sh. U.MUZEYLAR TURIZMNING IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI 566

ХУДАЙБЕРГАНОВ К.ОБИДАЛАРДАГИ ЭПИГРАФИК ЁЗУВЛАРДА АБЖАДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ 570

УМАРОВА К. Б.МУЗЕЙНЫЙ ТУРИЗМ: ПОТЕНЦИАЛ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ТУРИСТОВ И РАЗВИТИЕ МУЗЕЙНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ....577

MIRHAKIMOVA F. X.HAMID OLIMJON VA ZULFIYA MUZEYI FAOLIYATI....583

OLIMOVA D. A.SIYOVUSH QO‘RG‘ONINING MUZEYGA AYLANTIRILISHI....590

UCHINCHI SHO‘BA: MUZEY PEDAGOGIKASI: FAN, TA’LIM, MADANIYAT INTEGRATSIYASI

ISMAILOV A. F.O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASIDA ILMIY KADRLAR TAYYORLASH FAOLIYATI....595

САФАРАЛИЕВ Б.С.,ЮЛДАШЕВА М.Б.ПЕДАГОГИКА ДОСУГОВО – ЭКСКУРСИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В МУЗЕЕ....601

ISMATULLAYEV F. O.SAN'AT KO'RGAZMALARI – MADANIY DIPLOMATIYANING ASOSIY VOSITALARIDAN BIRI SIFATIDA 606

ШАМСИ Ф. М.СИНТЕЗ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И КУЛЬТУРЫ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ АЗЕРБАЙДЖАНА 611

GAFFAROV Y. X.,NIGMATOV A. X.MUZEYLARNING TA'LIM TARBIYA TIZIMIDAGI O'RNI 616

ИДРИСОВА А. М.ИЗУЧЕНИЕ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ КАЗАХСТАНА С ПОМОЩЬЮ ВИРТУАЛЬНЫХ МУЗЕЕВ, КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ СОВРЕМЕННОЙ МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИКИ 621

GANIYEVA Ch. X.O'ZBEKISTON MUZEYLARIDA MADANIY – MARIFIY FAOLIYATNING SHAKLLANISHI VA MUZEY PEDAGOGIKASINING TADQIQ ETILISHI 626

РУСТАМОВА М.М.МУЗЕЙНАЯ ПЕДАГОГИКА В УЗБЕКИСТАНЕ: МОСТ МЕЖДУ НАУКОЙ, ОБРАЗОВАНИЕМ И КУЛЬТУРОЙ 632

ҚУВВАТАЛИЕВ У. Б.МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ЯНГИ САҲИФАСИ: БЎЛАТ СОЛИЕВ МЕРОСИГА НАЗАР 636

ERGASHBAEV Sh.UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA MUZEY PEDAGOGIKASINING O'RNI 640

ADILBAEVA M. B.I.V.SAVITSKIY NOMIDAGI QORAQALPOG'ISTON SAN'AT MUZEYIDAGI ARXEOLOGIK MATERIALLAR EKSPOZITSIYASIGA MUZEY PEDAGOGIKASINING TA'SIRI 644

MIRFOZILOVA M.THE DEVELOPMENT OF THE COMMUNICATIVE ENVIRONMENT IN MUSEUMS OF UZBEKISTAN (THE BEGINNINGS OF XXI CENTURY) 649

ISMAILOVA D. U.MUZEY PEDAGOGIKASINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI 656

MAMARIZAEVA F. Z.LANGUAGE LEARNING IN MUSEUMS: USING CULTURAL HERITAGE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING 662

MAXMUDOVA N. A.TABIAT MUZEYLARIGA INTERAKTIV USULLARNI QO'LLASHDA DUNYO MUZEYLARI TAJRIBASI 666

NORMURODOVA F. X.JIZZAX VILOYATIDAGI MUZEYLAR FAOLIYATI HAQIDA 669

O'RINBOYEVA M. Y.MUZEYLAR VA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIK ISTIQBOLLARI HAQIDA 675

ЖУМАЕВА Ш. С.МЕСТО МУЗЕЕВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ 679

ДОСПАНОВА А.СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ И ИННОВАЦИЙ: ПОДХОДЫ И ОБРАЗОВАНИЕ 682

KADIROV M. B.MUZEYLARDA TARIX DARSLARINI O'TISH 689

FAYZULLAYEVA S.MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONIDA MMUZEY PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH 692

JO'RAYEVA Z. J.MUZEYLARNING TA'LIM TARBIYA TIZIMIDAGI O'RNI 697

MAMARIZAYEVA F.Z.,ERGASHEVA Sh. A.TALABALAR ONGIDA MADANIYAT TUSHUNCHASINI OSHIRISHDA MUZEYLARNING O'RNI 701

TOSHPO'LOTOVA J. N.,O'KTAMOV M. O'.O'QUVCHILARDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA MUZEY FAOLIYATINING PEDAGOGIK ASOSLARI 705

ИСОКОВ А. И.МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИ 709

UBAYDULLAYEV S. S.MUZEY PEDAGOGIKASINING TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLARI 713